

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NOMOZOV XUSHVAQT**

**YER KADASTRI ASOSLARI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
Oliy o‘quv yurtlaridagi ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini  
muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan darslik sifatida tavsiya  
etilgan.*

Bilim sohasi: 400000- Qishloq va suv xo‘jaligi

Ta‘lim sohasi: 410000-Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi

Ta‘lim mutaxassisligi: 5A410101 – Agrotuproqshunoslik  
(tuproq bonitirovkasi)

**«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
davlat ilmiy nashriyoti  
Toshkent–2013 yil**

**O‘O‘K: 631.459.**

**40.6**

**N. 15**

Yer kadastrasi asoslari, darslik. Nomozov X.Q.

T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2013 –308 b.

**BBK 40.7**

«Yer kadastrasi asoslari» fani bo‘yicha darslik 5A410101 – Agrotuproqshunoslik (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi magistrarlari uchun tasdiqlangan o‘quv reja asosida yozilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2012 yil 15.08 dagi 332/1-sonli buyrug‘iga asosan darslik sifatida tavsiya etilgan.

Darslikda O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, Yer fondi toifalari, Yer kadastrining tarkibiy qismi va turlari, Yer solig‘i, yerlarning huquqiy holati, Yer monitoringi, Yer huquqining ilmiy asoslari keng yoritilgan.

Mazkur darslikdan agrotuproqshunoslik mutaxassisligi magistrarlari, ilmiy xodimlar va professor-o‘qituvchilar foydalanishi mumkin.

### **Mas‘ul muharrir**

**I.Turapov** - qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

### **Taqrizchilar:**

**S. Azimboyev** - biologiya fanlari doktori, professor.

**A. Axmedov** - qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

*Darslik Toshkent davlat agrar universiteti o‘quv uslubiy kengashi  
(26.01.2012) ning 3-sonli va ilmiy kengashning (08.06.2012)  
10-sonli yig‘ilish qarorlariga asosan chop etishga ruxsat etildi.*

**ISBN 978-9943-07-086-8**

© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
davlat ilmiy nashriyoti, T. 2013.

## **SO‘Z BOSHI**

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan olib borilayotgan jamiyat hayotining hamma sohalarini erkinlashtirishga qaratilgan ijtimoiy - iqtisodiy qayta qurish siyosati, yer munosabatlarini tartibga solishga yer resurslaridan unumli foydalanish darajasini oshirishga ob’ektiv sharoitlar yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida yer zahiralarning cheklanganligi va sifat tarkibining pastligi bilan bog‘liq xavf to‘xtovsiz ortib borayotganligi, ayni vaqtda yer ulkan boylik bo‘libgina qolmay, balki mamlakatimizning kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligi, shuning uchun ham yerlarni muhofaza qilish, ulardan o‘ta samaradorlik bilan va oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish zamonamizning eng dolzarb masalasi ekanligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Yer – xalq boyligi, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining bosh vositasi. Tuproq unumdorligini va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, ko‘p jihatdan, unga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishga, uni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasiga bog‘liq.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini izchillik bilan jadallashtirish Yer fondidan oqilona foydalanish, sug‘oriladigan har gektarning hosildorligini, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar yechimini ishlab chiqish g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada tuproq unumdorligini saqlash, uni yil sayin muntazam oshirib borish qishloq xo‘jalik mutaxassislari zimmasidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Respublikada qishloq xo‘jaligidan foydalaniladigan yerlarni melioratsiyalashga benihoyat katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, yerlarni loyihalash, meliorativ tizimlarni qurish va foydalanish hamda meliorativ tadbirlar o‘tkazishga davlatning katta mablag‘lari ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi istiqbolga erishishi, mustaqil davlat deb e’lon qilinishi va huquqiy jamiyat qurishi, o‘z hududida yer munosabatlarini tartibga solishda va rivojlantirishda to‘la mustaqillikka erishganligi, uning yerlardan oqilona foydalanishi, meliorativ holatini yaxshilash va muhofaza qilishning huquqiy asosini yaratish va takomillashtirish imkonini beradi. Mamlakatimiz agrar sohasida islohotlarni huquqiy jihatdan ta’minlash maqsadida bir qancha qonunlar qabul qildi. Shu jumladan, yer munosabatlarini huquq asosida rivojlantirish va tartibga solish, yerlardan oqilona foydalanish, meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligi oshirish, yer tuzish ishlarini olib borish, yerning sifat bahosini aniqlash, xo‘jalik

faoliyatiga baho berishga va hokazolarga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi" hamda "Davlat Yer kadastrini" to'g'risidagi qonun va boshqa qishloq xo'jalikdagi islohotlarni chuqurlashtirishga dog'ir qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilinishi respublikamizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta xissa qo'shish bilan birga, kelajak avlodlarimizga sog'lom, unumdor yerlar qoldirish yo'lida katta qadam bo'ladi, negaki insonlarni taqdiri ko'p jihatdan yer, tuproq taqdiriga bog'liqdir.

Markaziy Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda yerlarning yaxshilashning asosiy vazifalari – tuproq sho'rlanishi va botqoqlanishini oldini olish jarayonlarga qarshi kurashish, qo'riq yerlarni o'zlashtirish, suv va shamol eroziyasiga qarshi kurashish, yerlarni rekultivatsiyalash, tuproqning zichlanishi va gumus miqdori kamayishining (degumifikatsiya) oldini olish, tuproq ifloslanishi va saholanishiga, shuningdek, boshqa salbiy jarayonlarga qarshi kurashish hisoblanadi. Meliorativ tadbirlar tizimlari har xil sharoitdagi mintaqalar uchun turlicha bo'lib, bu tadbirlarni ishlab chiqish tuproqlarning paydo bo'lishi (genezisi) va ularning hossalari to'g'risidagi chuqur bilimga ega bo'lishni taqozo etadi.

Taqdim etilayotgan darslik hozirgi kunda dolzarb bo'lgan Respublikamizda, yerlardan oqilona foydalanish, Respublika Yer resurslari, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar to'g'risida va ulardan foydalanishda kadastrning ahamiyati, tuproq bonitirovkasi, yerlarni iqtisodiy baholash, tuproqlarning unumdorligini oshirish, tuproq monitoringi va boshqa masalalarga qaratilgan va yangi ma'lumotlar asosida yoritilgan.

Tavsiya etilayotgan ushbu darslikda muallif O'zbekiston Respublikasi O'zyergeodezkadastr qo'mitasining Milliy hisobotidan hamda A. Genusov, X. Maqsudov, R. Qo'ziyev, J. Maxsudov, G'.Tolipov, A. Abdullayev, I. Akramov, Q. Raxmonov, A. Bobojonov, A. Tursunov va boshqalarning ma'lumotlaridan keng foydalanilgan holda tuzilgan. Yer kadastrini

Keyingi yillarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi» va «Fermer xo'jaliklari to'g'risida», «Dehqon xo'jaliklari to'g'risida»gi qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlari yerdan foydalanuvchivar yer egalari huquqlarini, ularga berilgan yer uchastkalaridan maqsadli va oqilona foydalanishdagi javobgarlikni oshirishni hamda tuproqlarni tabiiy holatini saqlash va ularning unumdorligini oshirishni ta'minlab kelmoqda. Amaldagi xo'jalik yuritishning yangi shakllari fermer va dehqon xo'jaliklari xususiy mulkdorlar yerdorlar sinfini shakllanishiga imkon beradi.

Ayniqsa yer ustki unumdor qatlami bo'lgan tuproq - respublikaning bazali resursi sifatida yaqin kelajakda ham zarur qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish manbai bo'lib qoladi.

Hozirgi vaqtda respublikaning 44890,1 ming gektar umumiy yer maydonidan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar 22614,0 ming gektar

bo'lib, umumiy yer salohiyatining 50,9 % ga to'g'ri keladi. Ammo, intensiv dehqonchilik faqat 4278,0 ming gektar, yoki umumiy maydonning 9,6% ga teng sug'oriladigan yerlarda olib boriladi, xolos. Bu yerlar har xil tabiiy-qishloq xo'jalik regionlarida joylashgan bo'lib, turli meliorativ, ekologik sharoitlar bilan har xil darajadagi hosildorlik bilan tavsiflanadi. Bularning hammasi davlat tomonidan yerlarning holatini va foydalanilishini doimiy kuzatib borish, nazorat yuritish va tahlil qilib borishni talab etadi.

Mazkur darslik yerlarning miqdoriy va sifat darajasi, ularning yer toifalari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar toifalari bo'yicha taqsimlanishi va transformatsiyasi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Oliy o'quv yurtlarida ham «Yer kadastrasi asoslari» fanini o'qitishga katta e'tibor berilmoqda. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda ToshDAU dotsenti X.Q. Nomozov tomonidan «Yer kadastrasi asoslari» fanidan darslik yozilgan.

Mutaxassis va o'qituvchilarning o'z fikr va mulohazalarini quyidagi manzilga yuborishlari so'raladi. Toshkent-140, ToshDAU, Agrokimyo va tuproqshunoslik kafedrasini.

## KIRISH

### Yer kadastrining mazmuni, maqsadi, vazifalari va tasnifi

Tabiiy resurslar ichida yer, ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Berilgan ma'lumotlarga qaraganda O'zbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni 44890,1 ming.ga ni tashkil etadi. Ushbu maydonning 90 foiziga yaqini davlat tomonidan egalik qilish yoki foydalanish maqsadlarida turli korxonalar, muassasa va tashkilotlarga birlashtirilgan. Yer resurslari respublikaning milliy boyligidir.

Yer – turli fan sohalarida turlicha ma'noga ega. Masalan: *astronomiyada* «Yer» - quyosh atrofida aylanuvchi va uning tizimida uchinchi bo'lgan sayyora; *geografiyada* «Yer» - mazkur sayyoraning quruqlik qismi; *qishloq xo'jaligida* «Yer» - sayyoramizning quruqlik qismining eng yuqori tuproqlarni qamrab oluvchi atrof tabiiy muhitning alohida bir qismi yoki komponenti; *yurisprudensiyada* «Yer» - tasarruf qilish, egallash va foydalanish predmeti hamda ijtimoiy munosabatlarning mustaqil ob'ekti sifatida qaraladigan sayyoramiz quruqlik qismining eng yuqori qatlami; *texnik sohasida* «Yer» - ma'lum bir turdagi xalq xo'jaligi ob'ektlarini qurish yoki joylashtirish uchun mo'ljallangan zamin hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning har qanday vositalaridan to'g'ri va samarali foydalanish ko'p jihatdan uning eng muhim xususiyatlari qanchalik chuqur va har tomonlama o'rganilganiga bog'liq bu eng avvalo, yerga tegishli bo'lib, undan oqilona foydalanish ilmiy asoslangan tadbirlar majmuini ishlab chiqarishga izchillik bilan yondoshish va amalda to'plangan tajribaga rioya qilgan holda tashkil etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 apreldagi «Yer kodeksi»; «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi 1993 yil 6 maydagi «Yer solig'i to'g'risida»gi, 1998 yil avgustidagi «Davlat Yer kadastrini to'g'risida»gi qonunlar; Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 iyulidagi «O'zbekiston Respublikasida Davlat kadastrining yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to'g'risida»gi va boshqa hujjatlar Yer kadastriga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada yerga egalik qilish va yerdan foydalanishda yangi shakllar vujudga keldi.


Yerni har tomonlama yaxshilash, uning unumdorligini, iqtisodiy samaradarligini doimo oshirib borish – bu qaytayotgan umuminsoniy qadriyatlar, qishloq xo'jalikni yuritishning ilmiy tizimi asoslari va yerdan yuqori mahsuldorlik bilan foydalanishdir. Yerdan to'g'ri foydalanish, zamon va makonda har xil o'simlik turlarining ilmiy asoslangan ketma-ketligi, tuproqqa ekologik «toza» ishlov berish usullari, o'g'itlash, qulay agrotexnika muddatlarini kasallik va zararkunandalardan himoya qilish, tuproq

eroziyasiga qarshi kurash kabi muayyan elementlar aniq qonunchilik yo‘li bilan boshqarishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 15-moddasiga muvofiq, davlat Yer kadastrı yerlarining tabiiy, xo‘jalik va hududiy tartibi to‘g‘risidagi, ularning toifalari, sifat ko‘rsat-kichlari va qiymati to‘g‘risidagi, yer uchastkalarining joylashgan o‘rni va o‘lchamlari to‘g‘risidagi, ularni yer uchastkalari mulkdorlariga, yer egalariga va yerdan foydalanuvchilarga taqsimlash to‘g‘risidagi zarur, ishonchli ma‘lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat. Davlat Yer kadastrı yer munosabatlarini tartibga solish, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, yer tuzish ishlarini tashkil etish, yer tuzish, yer uchun to‘lanadigan haq miqdorlarini asoslash, xo‘jalik faoliyatiga baho berish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, posyolka, qishloq va ovullar, o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni yer to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan taminlashga mo‘ljallangandir. Davlat Yer kadastrı muhim xalq xo‘jaligi ahamiyatiga ega. Uning ma‘lumotlaridan turli masalalarni hal qilishda, jumladan, Yer solig‘i, yer maydonlariga ijara haqi miqdorlarida belgilashda, qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini rejalashtirishda, yer tuzishda, yerdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalarni hal qilishda foydalaniladi.

Yer kadastrı fransuz tilida «cadastre» – reestr, ya‘ni ro‘yxat degan ma‘noni bildiradi, - yerning tabiiy xo‘jalik va huquqiy holati haqidagi zarur ma‘lumotlar yig‘indisi tushuniladi. Yer kadastrı quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ro‘yxatdan o‘tkazish, yerlarning miqdoriy hisobi, yerlarning sifat bahosi – bonitirovkasi, yerlarni iqtisodiy baholash. Tuproqlarni har tomonlama yaxshilash, uning unumdorligini va iqtisodiy samaradorligini oshirish qishloq xo‘jaligi kelgusidagi rivojining muhim masalalaridan biridir.

Yer kadastrining mazmuni. Kadastr – ma‘lum bir tabiiy xo‘jalik yoki boshqa ob‘ekt muayyan turining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdori, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ma‘lumotlar va xujjatlar tizimi (Davlat Yer kadastrı to‘g‘risidagi qonunining 3-moddasi). Kadastr tizimida ma‘lum bir tabiiy ob‘ektlardan huquqiy foydalanish haqidagi tavsiyanomalar, foydalanuvchilar va ifloslantiruvchilar ro‘yxati, ularni qayta tiklash choralari haqida takliflar hamda kelajakdagi izlanishlar va boshqa shunga o‘xshash ma‘lumotlar keltirilishi mumkin.



Davlat Yer kadastri – Davlat kadastrlari yagona tizimning asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, u yerlarning tabiiy, xo‘jalik, huquqiy holati, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmati, yer uchastkalarining o‘rni va o‘lchamlari, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va mulkdorlar o‘rtasidagi taqsimoti to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hamda hujjatlar tizimidir (Davlat Yer kadastri to‘g‘risidagi Qonunining 3-moddasi).

Yer kadastrining maqsadi. Davlat Yer kadastrining maqsadi - Davlat Yer kadastri to‘g‘risidagi Qonunning 1-moddasiga binoan iqtisodiyotni rivojlantirish, yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning kafolatlarini



ta'minlash, yerdan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash va muhofaza qilish uchun kadastr ma'lumotlaridan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilashdan iborat.

Davlat Yer kadastrining huquqiy-me'yoriy asoslari – 1998 yil avgustda qabul qilingan «Davlat Yer kadastrini to'g'risida»gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 31 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi davlat Yer kadastrini yuritish to'g'risida»gi 543-sonli qarori va unga ilova qilingan «Davlat Yer kadastrini yuritish tartibi to'g'risida»gi Nizom va boshqa qonun hujjatlaridir.

Yer kadastrini olib borish – viloyat va tumanlarda Yer resurslari Davlat qo'mitasining tegishli viloyat va tuman, shahar va qishloqlarda tuman va shahar ko'chmas mulk kadastrini hamda Geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini bosh boshqarmasi xizmati bo'linmalarining tegishli faoliyati bilan bog'liq.

Yer kadastrini hujjatlari – yer uchastkalariga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlari, tuman (shahar) Yer kadastrini daftari, yerlarning miqdor, sifat holati va ularning bahosi to'g'risidagi hisobotlar, kadastr xaritalari, planlari va qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar yig'indisidan iborat (Davlat Yer kadastrini to'g'risidagi qonunning 12-moddasi).

Yer kadastrini xaritalari va planlari – kadastrini to'g'risidagi axborot va ma'lumotlarni ifoda qilishning qog'oz va plastiklar yoki elektron vositalar (raqamli xaritalar) yordamida ma'lum bir masshtablarda ifoda etilishidir. Xaritalar respublika, planlar esa aholi yashash joylari va yer uchastkalari bo'yicha tuziladi. Ular Yer kadastrining geografik hujjatlar toifasiga kirib, Yer fondi toifalari va yer uchastkasi kadastriga tegishli tavsiflar olish maqsadida tuziladi va o'zgartirishlar kiritib boriladi. Xarita va planlarda Yer fondi toifalari hamda yer uchastkalarining joylashgan o'rni, maydonlari, chegaralari, baholash suv manbalari, yer uchastkaida joylashgan binolar va inshootlar ko'rsatilgan bo'ladi.

Savollar:

1. Yer kadastrining maqsadi va vazifalariga nima kiradi?
2. Davlat Yer kadastrining asosiy huquqiy me'yoriy asoslari?

## I-bob. YER KADASTRI ISHLARINING TARIXI

Kadastr chegaralash va yerlarni ajratish uchun xaritalash bo'yicha ishlarni yuritish to'g'risidagi birinchi qaydlar 1843 yilga taalluqlidir. Rossiya Yer kadastridagi kartografik materiallarda asosan ro'yxatlash, chegaralash va kuzatish daftarlaridan olingan ma'lumotlar bo'lgan. Bu ma'lumotlar, asosan, joyda yerlarni o'lchash natijalari bo'yicha tuzilgan. Yerlarni o'lchash ishlari «o'lchov iplari» (iplar 20,40,80 sajenli, 1 sajen=2,1336 m) yordamida amalga oshirilgan. Yerlar sifati bo'yicha «yaxshi», «o'rtacha» va «yomon» ga ajratilgan.

XVIII asrning o'rtalariga kelib yerlarni chegaralash ishlari Yer egalarning huquqlarini himoya qilish maqsadlari uchun ancha kengaytirildi. 1765 yili yerlarni davlat chegaralashi to'g'risida komissiya tasdikdandi. Rossiya imperiyasining yerlarini chegaralash bo'yicha ishlar asosan XIX asrning boshlariga kelib yakunlandi. XVII asrning oxiriga kelib Rossiyada qishloq xo'jalik yerlari va o'rmon fondi yerlari emas, hatto shahar hovlilarini ham qayd qilish va hisobini yuritish hujjatlari tuziladigan bo'ldi.

Yerga va boshqa tabiiy resurslarga davlat mulkchiligining vujudga kelishi munosabati bilan ularning va boshqa ob'ektlarning holati to'g'risidagi ma'lumotlarning bir tizimga keltirilgan to'plami sifatida kadastr turli mintaqalar va yaxlit mamlakatni markazlashgan iqtisodiy boshqaruvning muhim bir mexanizmi sifatida namoyon bo'lishi zarur edi. Shuning uchun ham tabiiy resurslarning turlaridan qat'iy nazar Rossiyada yaratilgan barcha kadastrlar davlatning tadbiri bo'lib qolaveradi va ular yagona, ammo bir tarmoqning har bir resursga bo'lgan talabiga mos o'tkaziladi.

Kadastr dunyoning barcha mamlakatlarida yuritiladi. U hisob-kitob, baholash, turli tabiiy resurslar, injenerlik faoliyatlari va ekologik holat tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. Chet el amaliyotida "kadastr" tushunchasini ko'pincha "ko'chmas mulk" tushunchasi bilan bog'laydilar. Ayrim manbalar unga "Yer uchastkalarining miqdori, qiymati va mulkchiligi bo'yicha ma'lumotlarni o'zida jamlagan "ijtimoiy qaydnoma" qoidasini beradilar, boshqalari esa "arxiv bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, chegaralarni tasbirga olish va xaritada grafik yoritilgan mulkning holati, huquqi, tabiati, o'lchamlari va foydalanishiga asoslangan barcha ko'chmas mulkning ijtimoiy uslubiy tashkil etilgan inventari" qoidasini beradilar. Bunda ko'chmas mulk deb uning ustki qismi bilan birgalikda yerni hamda atrof-muhitni, havo kengligini, tuproq ostini, bino va inshootlarni, turlituman tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklarni tushunish mumkin.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida yuritilayotgan kadastrni o'z mohiyati bo'yicha uchta katta toifaga bo'lish mumkin: soliq yoki fiksal - soliqqa tortish tartibi va miqdorlarini aniqlash maqsadida ko'chmas mulkni tavsiflash uchun; huquqiy yoki yuridik - mulk egaligi huquqlarini himoya

qilish uchun; ko'p maqsadli - keng spektrdagi huquqiy, iqtisodiy, ekologik, qurilish masalalari, shuningdek, hududni rivojlantirishni boshqarish va rejalashtirish muammolarini hal qilish. Ko'p maqsadli kadastr o'z ichiga turli tipdagi ob'ektlar: Yer, o'rmon va boshqa tabiiy resurslar, infratizimlar, ijtimoiy-iqtisodiy vokeliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni oladi.

Yuqorida berilgan ma'lumotlar va uslublarni tahlil qilish respublikamizda yuritilayotgan Yer kadastrini nazariy, uslubiy va amaliy jihatdan rivojlantirish imkonini beradi.

G'arbiy Yevropa davlatlarining kadastr tizimi umumiy jihatdan bir xildir, ya'ni uchastkalar registrini yuritish, kadastr xaritalar tuzish va huquqiy yozuvlarni yuritish. Rivojlangan davlatlarda, Yer egaliklarini hisob qilish texnikasi turlichadir, shunga qaramasdan ko'chmas mulk uchastkalarining reestri har bir mamlakatda mavjud. Bunday reestr, odatda, yerlarni ro'yxat qilish Yer kitobi yoki uning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin. Kadastr uchun tasbirga olishning majmuasi sifatidagi va yerlarni ro'yxatga olish qoidasiga binoan yagona tashkiliy xizmatni yaratadi. Ba'zi hollarda bu xizmat turlicha yo'nalishlarda ish bajaradi, ammo ma'lumotlarni almashishda, o'zaro nazoratni va ko'p maqsadli kadastrini yaratishda ular o'zaro birlashishadi. G'arbiy Yevropa davlatlarida kadastr tizimining umumiy belgisi shundan iborat bo'lib, ular ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilanib turishini ta'minlaydilar. Yerdan foydalanish ma'lumotlar tizimi uchun yagona kafolatdir. Ularning umumiy belgilariga ro'yxatga olish ma'lumotlarini yuritish texnikasining o'xshashligini kiritish mumkin. Qoidaga binoan, Yer uchastkasi yerdan foydalanishning tiplari, maydoni, unda joylashgan qurilmalarning turlari, joylashgan o'rni, egasi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa registrarga murojaat qilish hamda hudud va uning egasi to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni o'zida jamlashi bilan tavsiflanadi. Bunday turdagi ma'lumotlar boshqa ma'lumotlar bilan birgalikda mulkdorlik hamda ular egaligidagi Yer uchastkalari to'g'risidagi ko'p qirrali ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Umumyevropa tushunchasi bo'yicha ingliz kadastr tizimi yuqoridagi umumiy qoidalardan farq qiladi. Angliyada kadastr faqatgina kartografik ma'lumotlardan iborat bo'lib, asosan Yer uchastkalarining chegaralari hamda ko'chmas mulkning tarkibi to'g'risida ma'lumot beradi. Yevropaning boshqa davlatlaridagi kadastr tizimlari belgilarining bir xilligi shu bilan tushuntiriladiki, ular to'g'ridan-to'g'ri yoki qisman fransuz namunasi asosida vujudga kelgan.

Fransuz kadastr tizimining bosh maqsadi yerlarni soliqqa tortishni ta'minlashdan iboratdir. Hozirgi kungacha u fiskal tizim sifatida xizmat ko'rsatadi: uning ma'lumotlari turli xil - Yer va ko'chmas mulkka taalluqli bo'lgan mulk soliqlarini hisoblash asosi hisoblanadi. Ammo Fransiyada barcha huquqiy qo'shilmalar bilan birgalikda Yer ro'yxati mamlakatning

butun hududi bo'yicha tizimli ma'lumotlar bilan to'la ta'minlay olmaydi. Parij, Lill, Marsel kabi yirik shaharlar o'z hududlarining xususiy ko'p maqsadli kadastr tizimlarini yaratgan.

Germaniyada soliq kadastrdan rivojlangan holda yuridik tizimning bir qismi sifatida rasmiylashgan kadastr tizimi mavjud bo'lib, u Yer egaliklari va yerdan foydalanish hamda topografik tasbir ma'lumotlarining funksiyalari to'g'risidagi keng ko'lamdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. G'arbiy Germaniyada 1935 yilda yuz bergan Yer tuzishning barcha informatsion tizimini qayta tashkil etish, keyinchalik esa, 1945 yildagi mamlakatni urushdan so'nggi qayta qurish mavjud kadastr tizimining qayta ko'rib chiqilishini talab qildi. Kadastr xaritalarini ishlab chiqish yerdan foydalanish va Yer tuzishga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlash bilan birlashtirildi. 1970 yildan okruglar va yirik shaharlar yerlarida Yer kitoblaridagi, ko'chmas mulk kadastr, soliq kadastr va kartografik materiallardagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan ko'chmas mulk to'g'risidagi avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasi yaratildi. Germaniyadagi turli informatsion xizmatlar o'rtasidagi o'rnatiladigan aloqalar natijasida Yer va ko'chmas mulk to'g'risidagi ko'p maqsadli avtomatlashtirilgan ma'lumotlar banki shakllantiriladi. Boshqa avtomatlashtirilgan ma'lumotlar banki bilan birgalikda bu bank umummilliy informatsion tizimni tashkil qiladi. Bu tizim yerdan foydalanishni, ko'chmas mulkni hududiy rejalashtirish va iqtisodi bilan bog'liq keng muammolarni hal qiladi.

Gollandiya kadastr xizmati yerga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan, ammo qonun bo'yicha ko'chmas mulkka kiradigan bir qancha qo'shimcha ma'lumotlarning ro'yxatini yuritib borishga mas'uldir. Masalan, kemalar, samolyotlar va ularning egalari to'g'risidagi ma'lumotlar. Kadastr ma'lumotlarini bu kabi kengaytirilishi bir qator fuqarolik statistikasi («ochiq kadastr» konsepsiyasi) yo'nalishlari xizmatini yoyish majburiyatini yuklovchi qonun bilan bog'liqdir.

Shvetsiya kadastr astasekinlik bilan ko'chmas mulk to'g'risidagi avtomatlashgan milliy ma'lumotlar bankini aholi, iqtisodiy statistika, soliqqa tortish va ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumotlar banki bilan qo'shib ketishi natijasida Yer va ko'chmas mulk to'g'risidagi ko'p maqsadli informatsion tizimga aylantirildi. Bu davlatlarda Yer kadastr ikkita registrdan iborat holda yuritiladi. Yer va ko'chmas mulk. 1936-1974 yillari 1:10000 masshtablardagi fotoplyonkalar asosida ishlab chiqilgan hamda Yer uchastkalari va binolar chegaralarini yagona qayd qilish tizimiga asoslangan mamlakatning butun hududini qamrab olgan kadastr xaritalarining milliy fondini yaratish dasturi amalga oshirilgan. 1974 yildan boshlab bu maqsadlar uchun 1:2000 masshtabdagi kadastr xaritalaridan foydalanildi. Ularni tuzish uchun ma'lumotlar asosan ko'chmas mulk to'g'risidagi umumdavlat avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bankidan foydalaniladi. Tig'iz qurilgan

shaharlar hududining kadastr xaritalari tuziladi yoki mahalliy munitsipal xizmatga buyurtma beriladi, ular 1:500 gacha kattalikdagi masshtablarga ega bo'ladilar.

Shvetsiya singari Norvegiya kadastr ham egaliklar, manzillari va binolar tiplari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan informatsion kadastr tizimiga birlashtirilgan. Turli guruh ma'lumotlar bir-birlari bilan bog'langan hamda koordinatali yoki ob'ektlarning indentifikatsion kodlari orqali geografik jihatdan ajratish mumkin. Norvegiyada ham Shvetsiya singari ob'ektlarni qayd qilish standartlari ular o'rtasidagi informatsion aloqalar qonun bilan belgilangan. Tizimning o'zi esa davlat tomonidan nazorat qilinib, ularni ishlab chiqish va qo'llash davlat tomonidan moliyalanadi. Finlandiyada ob'ektni kadastr baholash ishlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyati, qishloq hududlarining registri davlat tomonidan, shaharlar hududining registri esa munitsipal ma'muriyat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Yaqin kelajakda umummilliy elektron informatsion tizimga o'tishi natijasida yuqoridagi farq ham barham topadi.

Janubiy Yevropa davlatlaridan hisoblangan Italiyada yuritiladigan kadastr Markaziy Yevropada tarqalgan tizimga o'xshashdir. Kadastrni (Yer uchastkalarining registri) Yer egalari to'g'risidagi (Yer registri bilan) ma'lumotlar bilan bog'liqligi faqatgina mulk egalari ismlaridan foydalangan holda mumkin bo'ladi. Avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bankini kiritish asosida ushbu ikkita registri birlashtirish ro'yxatga olish tizimiga ham o'zgartirishlar kiritishni talab qiladi. Italiya kadastrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, bu yerda 1939 yildan buyon binolarning registri tizimli tarzda yuritilib kelinmoqda.

AQSHda yerlarni o'rganish qishloq xo'jalik vazirligidagi tuproqlarni muxofaza qilish maxsus xizmati tomonidan olib boriladi. U markaziy organdan, shtatlardagi filiallardan va tuproqni muxofaza qilish bo'yicha 2400 ga yaqin bo'linmalardan tashkil topgan. Tuproqni muxofaza qilish xizmati tuproq qatlamlarini o'rganishga katta ahamiyat beradi. Ushbu materiallar yerlarni tasniflash orqali qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun foydalaniladi. Bu xizmat tuproq kuzatuvlarini amalga oshiradi, yerlardan oqilona foydalanish to'g'risidagi zarur tavsiyanomalarni va qarorlarni chop etadi. Tuproq kuzatuvlari ma'lumotlarini amaliy zaruriyat uchun foydalanish maqsadida jamlash asosida yerlarni tasniflash amalga oshiriladi. Qo'yilgan vazifalarga karab AQSHda yerlarni tasniflashning turli tizimlari qo'llaniladi. Masalan, tuproqlar qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqliligi bo'yicha, yerlarning mahsuldorligi bo'yicha va boshqa sinflarga guruhlanishi mumkin.

AQSHda yerlarni sifat jihatdan baholash qishloq xo'jalik yerlarining mahsuldorligi bo'yicha amalga oshiriladi. Haydalma yerning mahsuldorligi eng kamida 10 yil davomidagi asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining

hosildorliklari bo'yicha aniqlanadi. Hosildorlik esa so'rov natijalari yoki maxsus anketa yordamida aniqlanadi. Ammo hosildorlik xo'jalik yuritish darajasiga chambarchas bog'liqdir. Shu sababli ham hosildorlik to'g'risidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda almashlab ekish tizimi, tuproqlarni ishlash, o'g'itlarni qo'llash, melioratsiya va boshqa tadbirlar to'g'risida ham ma'lumotlar to'planadi. Ushbu ma'lumotlar asosida xo'jalik yuritish sinflari belgilanadi.

Eng maxsuldor yerlarni aniqlash maqsadida AQSHda yerlarni iqtisodiy jihatdan tasniflash o'tkaziladi. Bunda qator tabiiy omillar bilan bir qatorda ba'zi iqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, xo'jalik o'lchamlari, yerdan foydalanishning tarkibi, jadallashganlik darajasi, xo'jalikning joylashgan o'rni va daromadlilik, mehnat xarajatlari va boshqalar hisobga olinadi.

AQSHda ham haligacha yerlarni iqtisodiy baholashning yagona uslubiyati yaratilgan emas. Alohida shtatlarda foydalaniladigan bir qancha uslubiyatlar mavjud. Ular ichida keng tarkalgani, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish natijasida olinadigan sof daromad qiymati bo'yicha yerlarni baholash uslubiyatidir.

Tuproq bonitirovkasi (lat. bonites - sarhillik) bu tuproqlarni ishlab chiqarishdagi qobiliyati asosida sifat jihatdan taqqoslash tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, tuproq bonitirovkasi unumdorligi ballarda ifodalaniladigan maxsus genetik ishlab chiqarilgan tasnifdir. Tuproq boniteti tuproqning mahsuldorligi va uning sifatini belgilovchi ifodadir.

Mamlakatimiz tuproqlari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar mashhur Yunon va Rimlik olimlarning asarlarida uchraydi. Jumladan, Markaziy Osiyoda irrigasiya tarixi bundan 2-3 ming yil oldin boshlanganligi sababli, kishilar tuproqlar haqida tasavvurga ega bo'lganliklari to'g'risida yozadi.

O'zbekistonda dastlabki ma'lumotlar IX-X asrlarda ijod qilgan sharqning buyuk qomusiy olimlari Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino asarlarida tuproq haqida fikrlar aytilgan. Beruniy kitoblarida Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida asosiy tuproq paydo qiluvchi jinslarning kelib chiqishi va xossalari to'g'risida mulohazalar bildirilgan. Tuproq haqidagi fan shakllanishdan oldin odamlar shunga e'tibor berishganki, o'simlik ba'zi tuproqlarda yaxshi o'sgan, lekin boshqa tuproqlarda aksincha yomon o'sgan. Shundan kelib chiqqan holda tuproqlar sifat jihatdan bo'lina boshlaganlar: hosildor - yaxshi, unumdor -quruq, yomon va unumsiz.

Misrda (330-305 yil bizning eramizgacha) tuproq sifatini katta aniqlik bilan yo'lga qo'yildi. Bunda tuproq sifatini belgilash don hosildorligini olish uchun muhim edi. X – asrda Yerlar baholanishi bo'yicha bir qancha materiallar Vizantiya qishloq xo'jalik ensiklopediyasidan joy olgan.

Xitoy, Yaponiya va Hindistonda (feodalizm davrida) tuproq haqida ilg'or fikrlar aytilgan, Yerni sifat jihatdan baholash, yerga ishlov berish va o'g'itlash kabi masalalarga diqqatni qaratganlar. Xitoyliklar tuproqni turli

jihatdan o'rganishga alohida e'tibor berilganlar. Eramizning I asrlardayoq Xitoyda Yer (tuproq) ni o'rganish va Yer kadastriga umumiy davlat ishi deb qaralgan. Yaponiyada imperator Xideesi davrida 1589-1595 yillarda mamlakat bo'yicha Yer kadastrini tuzish maqsadida tuproq tekshirishlari olib borildi.

Hindistonda juda qadimdan boshlab irrigasiya rivojlanib kelayotgan Hind va Gang qirg'oqlaridagi tuproqlarning xususiyatlariga alohida e'tibor berilgan.

XVIII-XIX asrda g'arbiy Yevropa tuproq bonitirovkasi va Yer kadastr ishlari ishlab chiqilgan. Shunday qilib, eng yaxshi kadastr o'z vaqtida Milan kadastrini deb yerlarni sof daromadi bo'yicha topilgan, 1771 yilda Tirol kadastrini esa Yerning qiymati bo'yicha S.S. Sobolev (1963) keyinchalik Yer kadastrini Fransiyada (1950 y.), Prusiyada (1861-1864 y.), Saksoniyada (1838 y.), Italiyada (1886 y.) va boshqa davlatlarda yo'lga qo'yilgan. Mana shu kadastr ishlarining asosiy maqsadi, jumladan, bonitirovka, Yer solig'i miqdorini belgilashdan iboratdir.

Amerika Qo'shma Shtatlarida tuproqni umumiy baholanishida quyidagi omillar hisobga olinadi: qatlam profili, mexanikaviy tarkibi, ishqoriyligi va sho'rlanish darajasi, ozuqa elementlar zaxirasi, kislotaliligi, eroziyalanishi, rel'ef elementlari (mikrorel'ef, qiyalik ekspozitsiyasi) va boshqalar. Baholash 100 ballik shkala bo'yicha baholanadi. Tuproq bonitirovkasi har bir qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar uchun alohida qilingan. Shunga o'xshash tadqiqotlar Angliya, Fransiya, Italiya, Shvetsiya va boshqa davlatlarda ham o'tkazilgan.

## **II-bob. YER KADASTRI TURLARI, TARKIBIY QISMLARI VA TAMOYILLARI**

Yer kadastrı o‘tkazilish mazmuni va tartibiga qarab asosan 2 turga bo‘linadi: asosiy yoki birlamchi va joriy yoki kundalik.

Asosiy (birlamchi) Yer kadastrining vazifasi yerlarning tabiiy, xo‘jalik hamda huquqiy holatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni birlamchi sifatida olish va Yer kadastrı hujjatlarida yoritishdan iborat. Asosiy Yer kadastrı davriy ravishda qayta tasbirga olishdan, yerlarni kuzatuvdan, yer - baholash ishlarini bajargandan so‘ng, yangi yer egalari yoki yerdan foydalanuvchilar tashkil etilganda, Shuningdek, qaytadan tasdiqlangan Yer kadastrı hujjatlarini navbatdagi to‘ldirish chog‘ida o‘tkaziladi.

Asosiy Yer kadastrida yer egaliklari (yerdan foydalanuvchilar) ning umumiy maydonlari, yer turlarining tarkibi, yerlarning sifat holati, tuproqlarning bonitirovkasi va yerlarning iqtisodiy baholari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan materiallar va hujjatlar to‘planadi, tahlil qilinadi. To‘plangan materiallar chuqur tahlil qilinadi, ularning to‘laligi, aniqligi va ob‘ektivligi tekshiriladi. Zarur hollarda mavjud materiallar tahlil qilinadi yoki mavjud bo‘lmagan ma‘lumotlarni olish uchun qo‘shimcha ishlar bajariladi. Shunday ekan, asosiy Yer kadastrı Yer fondining holati to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar beradi. Yer maydonlari to‘g‘risida bunday aniq ma‘lumotlarning mavjud bo‘lishi kelgusida undan oqilona va samarali foydalanish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ma‘lumki, Yer kadastrı ma‘lumotlari, jumladan, yer turlari va tarkibi maydonlari bo‘yicha , doimo o‘zgarib turadi. Ushbu Yer kadastrı ma‘lumotlarini Shu kun talab darajasida bo‘lishini ta‘minlash uchun bu o‘zgarishlarni o‘z vaqtida Yer kadastrida yoritib berish zarur. Bu esa joriy yoki kundalik Yer kadastrini yuritib borish zaruriyatini tug‘diradi.

Joriy Yer kadastrı-bu asosiy Yer kadastrı o‘tkazilgandan so‘ng yerlardan foydalanishda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni aniqlash va Yer kadastrı hujjatlariga tushirishdir. Bundan tashqari, boshlang‘ich yozuvlardagi hatolarni tuzatish va zamon talablariga mos qo‘shimcha ma‘lumotlarni ham kiritish joriy Yer kadastrining vazifasiga kiradi. Boshqacha qilib aytganda, joriy kadastr Yer kadastr ma‘lumotlarining bugungi kun darajasida bo‘lishini ta‘minlaydi.

Asosiy va joriy kadastr o‘zaro bog‘liq bo‘lgan Yer kadastrining bosqichlaridir. Asosiy kadastr joriy kadastrı yuritish uchun asos yaratadi. Joriy kadastr, asosiy kadastr ma‘lumotlarini yangilangani va to‘ldirgani hollarda yer to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni sistemali tarzda hozirgi zamon talabi darajasida ushlab turadi.

Shu sababli ham joriy kadastr asosiy kadastr ishları tugagandan so‘ng birdaniga tashkil etilishi zarur.



Yer kadastrı ma'lumotlarining aniqligi yer tuzish, tasbirga olish va kuzatuv materiallarining sifatiga bog'liq. Joriy Yer kadastrida asosiy Yer kadastrı materiallaridan foydalaniladi.

Yer kadastrı quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: yer-mulklarini, yer egaligi va yerdan foydalanuvchilarni ro'yxatini qilish; yer maydonlarini miqdor hamda sifat jihatidan hisobga olish; tuproq bonitirovkasi va yerlarni iqtisodiy jihatdan baholash.

Yer - mulklarini, yer egasiga va yerdan foydalanuvchilarni ro'yxat qilish Yer kadastrining birinchi tarkibiy qismi bo'lib u yer maydonlarini huquqiy jihatdan xo'jalik holatini ta'minlaydi. Bu tadbir yer-mulklari, yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning chegaralari bo'yicha yerlarni ma'lum sub'ektlarga qonuniy birlashtirib qo'yish va qonuniy rasmiylashtirish, yer mulkdorlariga yer egalari va yerdan foydalanuvchilarga yerlarga mulkchilik, egalik qilish va foydalanish huquqini beruvchi Davlat hujjatlarini topshirish, yuqoridagi sub'ektlarni tuman (shahar) Davlat Yer kadastrı kitobiga qayd qilishni o'z ichiga oladi.

Yer maydonlarining hisobi yer maydonlarining miqdori va sifati haqidagi to'la ma'lumotlarni olish, qayta ishlash, ma'lum bir tizimga (tartibga) keltirish hamda saqlash bo'yicha majmualı tadbir hisoblanadi. Yer maydonlarini miqdor jihatidan hisob-kitob qilish yer ularning ma'lum ma'muriy-hududiy birliklarga, yer toifalarga, yer-mulklari, yer egaliklari, yerdan foydalanuvchilarga va yer turlariga bo'yicha taqsimlanishi haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Yerlarni sifat jihatidan hisob qilishning vazifasi tuproq qatlami hamda yer-mulkligi, yer egaligi va yerdan foydalanishlar nuqtasi nazardan yer turlarini tabiiy, meliorativ va xo'jalik holatiga har tomonlama tavsif berishdan iboratdir.

Tuproq bonitirovkasining asosiy maqsadi yerlarni tabiiy, barqaror xususiyatlari hamda xo'jalik sharoitida, foydalanish jarayonida olgan fazilatlari bo'yicha baholashdan iborat. Tuproq bonitirovkasining natijalari yer maydonlarini iqtisodiy jihatdan baholashda xolisona asos bo'lib xizmat qiladi.

Yerlarni iqtisodiy baholash – bu maxsus iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida yer maydonlarini iqtisodiy jihatdan samaradorlik xususiyatini, ularning iqtisodiy unumdorligini qiymat jihatdan o'lchashdir. Yer maydonlarini iqtisodiy jihatdan baholashda yerdan foydalanishning tabiiy (tuproq boniteti ballari orqali), iqlim (samarali harorat yig'indisi, yog'ingarchilik miqdori va boshqa), xo'jalik (ishlab chiqarishning jadallashganlik darajasi) va texnologik (konturlilik, maydonlar shakli, ishchi qiyaliklar va boshqa,) sharoitlari butun bir majmua tarzda hisobga olinadi.

Yer kadastrini o'tkazishda bir qator prinsiplarga amal qilish zarur. Yer kadastrining bunday asosiy prinsiplari quyidagilar: birlik, qonuniylik, ob'ektivlik, ko'rgazmalilik, markazlashgan rahbarlik va boshqalar.

Birlik prinsipiga muvofiq davlat Yer kadastrini respublikamiz yagona Yer fondini yagona uslubiyat asosida qamrab olishi zarur. Ammo Yer kadastrining birligi bu barcha yer toifalari va yer egaliklarining bir hilda yoritilishi degani emas albatta. Qoidaga muvofiq qishloq va o'rmon xo'jaligi yerlari bo'yicha ma'lumotlar ancha keng holda to'planib o'rganiladi.

Yer kadastrini yuritishda qonuniylik prinsipiga alohida e'tibor beriladi. Bu prinsiplarning bajarilishi asosan davlatimizning qonun xujjatlari bilan ta'minlanadi. Bularga «Yer kodeksi», davlat Yer kadastrini yuritish bo'yicha yo'riqnomalar va ko'rsatmalar hamda yerlardan foydalanish, yer tuzish va yerlarni muhofaza qilish bo'yicha boshqa xujjatlar kiradi.

Yer kadastrini yuritish uzluksiz amalga oshirilishi zarur, ya'ni, Yer kadastrini yerlardan foydalanishda ro'y beradigan o'zgarishlarni doimiy ravishda hisobga olib Yer fondi holatining tavsifini berishi zarur. Bundan ko'rinadiki, Yer kadastrini ma'lumotlari yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy holatlarda bo'ladigan joriy o'zgarishlarini sistemali tarzda aniqlanib turilishi kerak.

Yer kadastrini ob'ektiv bo'lishi zarur, ya'ni, uning barcha ko'rsatkichlari qat'iy aniq bo'lishi, haqiqatga to'la mos kelishi zarur. Yerlardan foydalanishning huquqiy, tabiiy va xo'jalik holatlariga mos bo'ladigan faqatgina ob'ektiv ma'lumotlar mamlakat Yer fondidan to'g'ri foydalanish va boshqarish bo'yicha davlat vazifalarini bajarish uchun muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun ham Yer kadastrini hujjatlarini birlamchi yoki joriy o'zgarishlarni kiritishda ushbu o'zgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlarga asoslanadi.

Xo'jaliklarning kundalik ishlab chiqarish faoliyatida yer kadastrini ma'lumotlaridan keng foydalanish uchun ular mumkin qadar ko'rgazmali bo'lishi zarur ya'ni, Yer kadastrini oddiy bo'lishi hamda turli plan - xarita materiallarida ham aks ettirilgan bo'lishi kerak.

Yer kadastrini yuritishning to'g'riligi hamda ulardan keng miqyosda foydalanish markazlashgan rahbarlik asosida davlat hokimiyati organlari tomonidan nazorat qilish bilan ta'minlanadi. Yer kadastrining birligini ta'minlash maqsadida Yer kadastriga rahbarlik, shuningdek yerlardan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish respublika qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Yer kadastrini bilan qishloq va suv xo'jaligi vazirligidagi yer tuzish organlari shug'ullanadilar. Tuman Yer kadastrini bilan hokimiyat qoshidagi yer tuzish inspeksiyasi shug'ullanadi.

#### Savollar:

1. Yer kadastrining tarkibiy qismlarini ayting?
2. Yer kadastrining asosiy tamoyillari necha xil bo'ladi?

### **III-bob. DUNYO YER RESURSLARI VA UNDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

Biosferaning bir bo‘lagi bo‘lgan yerimiz maydoni 51 milliard 20 mln. gektarni tashkil etadi. Qit‘alar bo‘yicha haydaladigan yerlar Yevropada 32 foiz, Osiyoda 21 foiz, Amerikada 20 foiz, Afrikada 11 foiz, Avstraliyada 5 foiz, Antarktidada esa yo‘q. Yer maydonining o‘simlik o‘sadigan qismi insoniyat uchun ulkan boylikdir. Tuproqda turli jarayonlar, eroziya, sho‘rlanish, botqoqlanish, ifloslanish, nurlanish va shu kabilar sodir bo‘laverishi natijasida hamda insoniyatning beparvoligi oqibatida XXI asr bo‘sag‘asida zaharlanishi xavfi paydo bo‘ldi. Jahonning ilg‘or fikrli kishilari koinotni saqlash zarurligini targ‘ib qila boshladilar. Insoniyatga tuproqni, koinotni, umuman yashash makoni bo‘lgan biosferani saqlab qolish zarurligi ayon bo‘lib qoldi.

Yerdan noto‘g‘ri foydalanish uni buzilishiga olib keladi. Sug‘oriladigan maydonlarda hamda mintaqada tarqalgan qo‘riq yerlarda, yonbag‘irlarda eng avvalo yuza oqimlar ta‘sirida suv eroziyasi sodir bo‘ladi. Cho‘l va chala cho‘l mintaqalarda suv eroziyasidan tashqari shamol eroziyasi hukmronlik qiladi.

Sug‘oriladigan dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda katta miqdorda mineral va organik o‘g‘itlardan, pestisidlardan, defoliantlardan foydalaniladi. Bu kimyoviy moddalar tuproqda turli o‘zgarishlarga yuz tutadilar, atmosfera — tuproq — o‘simlik — hayvonot olami, qolaversa suv zanjiri orqali inson organizmiga kirib boradi, ma‘lum darajada landshaftni ifloslaydi.

Bu vazifalar ichida tuproqni suv, shamol, o‘pirilish kabi hodisalardan saqlab antropogen va texnogen ifloslanishdan ehtiyot qilish, sho‘rlanish va botqoqlanishni yo‘qotish kabi dolzarb muammolar turibdi.

#### **3.1. Yer sayyorasining sathi, uning qit‘alararo taqsimlanishi, haydaladigan yerlarni kengaytirish muammolari**

Insoniyat XX asrgacha tabiiy manbalardan jiddiy reja asosida foydalanmaganligi oqibatida yer yuzasidagi hayvonot, o‘simlik dunyosi va tuproq qatlamiga ancha zarar keltirdi. Yer sathi cheklanganligini hisobga olsak, har bir qarich yer sayyoramiz uchun muhim yashash makoni bo‘lgani va uni ehtiyot qilish lozimligi XXI asr bo‘sag‘asida tushunib etildi. Yer ulkan boylik manbai ekanligini to‘laroq his etmoq uchun sayyoramiz maydoni (1- jadval) ga e‘tibor beraylik, bunda quyidagilarni ko‘ramiz.

Xalqaro agronomiya tashkilotining (XAT) bahosiga ko‘ra quruqlikning 70 foizi unumsiz yerlardan iborat, bo‘lib tuproq-iqlim yoki rel’ef sharoiti dehqonchilik qilishga imkon bermaydi. Shunga ko‘ra quruqlikning 20 foizi qurg‘oqchilikdan, qiyalik adirlardan va 10 foizi kuchsiz-unumsiz tuproqlardir. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yer fondi sayyoramizda 13,392 mln. gektar, yoki to‘rttdan birini tashkil etadi. Yaroqli tuproq maydonlari yer yuzining 8,608 mln. gektardan (juda kam qismini tashkil etadi) yarmi 4,553 mln. gektari qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida band, qolgan - 4,055 mln. gektari o‘rmon va butazorlardan iborat ekan.

*1-jadval*

Yer sayyorasining umumiy maydoni (Andriishin, Loyko, 1980)

Yer kategoriyasi	Umumiy mln.ga	Umumiy maydonga nisbatan foiz		
		Yer fondiga nisbatan	Quruqlik	Yer yuzasi
<b>Jami Yer fondi:</b>	13.392	100	89,8	26,2
<b>I. Mahsuldor (unumdor)</b>	8,608	64,1	57,8	16,9
1.1. Qishloq xo‘jalik yerlari:	4,553	33,9	30,5	9,0
a) haydaladigan yer;	1,417	10,5	9,5	2,8
b) bog‘ va plantaqiyalar;	90	0,7	0,6	0,2
v) o‘tloq va yaylovlar.	3,046	22,7	20,4	6,0
1.2. O‘rmon va butazorlar.	4,055	30,2	27,2	7,9
<b>II. Kam mahsuldor yerlar:</b>	2,778	20,8	18,6	5,4
a) aholi yashaydigan, sanoat va transport egallagan yerlar;	402	3,0	2,7	0,8
b) ko‘l, daryo, suv omborlar;	317	2,4	2,1	0,6
v) tundra va o‘rmon tundra;	734	5,5	4,9	1,4
g) botqoqliklar;	400	3,0	2,7	0,8
d) Sahro (cho‘llar).	925	0,9	6,2	1,8
<b>III- Unumsiz yerlar:</b>	2,006	15,1	13,1	3,9
a) inson tomonidan unumdor qilingan yerlar;	450	3,4	3,0	0,9
b) qumlik va jarliklar;	378	2,8	2,5	0,7
r) muzlik va qorliklar.	1,178	8,9	8,0	2,3
Antarktida:	1,523	-	10,2	3,0
Quruqlik hammasi:	14,915	-	100	29,2
Dunyo okeanlari:	36,105	-	-	70,8
<b>Yer sayyorasining yuzasi:</b>	51,020	-	-	100

B. G. Rozanov (1989) ma'lumotlariga qaraganda dehqonchilik hali uncha rivojlanmagan paytda haydashga yaroqli bo'lgan yerlar 4,5 mlrd. gektarni tashkil etgan holatda, hozirgi davrga kelib 2,5 mlrd. gektarga tushib qolgan. 10 ming yil ichida har yili 200 ming gektar yer ishdan chiqqan bo'lsa hozirga kelib, oldingi (o'rta tarixga nisbatan) holatga qaraganda 30-35 marta ko'paygan.

Yerni qishloq xo'jaligida foydalanish darajasi geografik materiklar, qit'alar va mamlakatlar bo'yicha juda har xilligini ko'ramiz, chunki u tabiiy va iqtisodiy sharoitlar bilan uzviy bog'liqdir (2-jadval).

Eng ko'p haydaladigan yer Evropada — 32%. O'rmonga boy joy - Janubiy Amerika (47,0% o'rmon), Avstraliyada esa (51%) yaylov ko'p bo'lib, Hindistonda yer fondining 51 foizi haydaladi, Argentinada 40 foiz haydaladi. Yuqoridagi jadvaldagi 8 ta mamlakat yeri quruqlik qismining 74 foizini egallaydi, shu mamlakatlarda shaharlar va sanoat korxonalarini 2 foiz maydonni, dehqonchilik maydonlari 12 foizni, o'rmonlar 30 foizni, foydalanilmay yotgan joylar 32 foizni tashkil etadi. Demak, dunyo bo'yicha yerdan foydalanish o'rtacha 5 dan bir qismini tashkil etadi, vaholanki yaroqsiz va juda kam foydalaniladigan maydonlar o'rtacha 35-36 foizga etib qolgan. Insoniyat oldida dehqonchilik qilinadigan haydov yerlarni ko'paytirish vazifasi turibdi, hozir 1,5 mlrd. maydonni 3,03 mlrd. ga. ga etkazish mumkin, shunday qilib insoniyat bu maydonni ko'p qismidan hozircha to'la foydalanmay kelyapti.

2-jadval

Materiklar (A), geografik kengliklar (B), mamlakatlar (V) bo'yicha yerdan foydalanish darajasi, foiz (Ryabchikov, 1972)

Materiklar, geografik kengliklar va mamlakatlar	Sanoat va shaharlar egallagan yerlar	Dehqonchilik qilinadigan yerlar	Ut-butazor, yaylov va tabiiy pichanzorlar	O'rmonlar	Yaroqsiz kam ishlatiladigan hamda ichki suvlar
A					
Yevropa	5	32	19	26	18
Osiyo	2	21	15	21	41
Afrika	1	11	23	26	39
Shimoliy va Markaziy Amerika	3	12	18	33	34

Janubiy Amerika	1	8	19	47	25
Avstraliya va Okeaniya	1	5	51	8	35
An tarkida	0	0	0	0	100
Umumiy quruqlik	2	13	19	27	39
<b>B</b>					
Ekvatoriallar	1	8	12	54	25
Sub ekvatoriallar	2	18	25	29	26
Tropik	1	9	32	12	46
Subtropik	3	17	27	14	39
Mu'tadil iqlim	5	26	13	39	17
Subarktika Antarktida	0	0	1	0	9Ya
<b>V</b>					
MDH (22,4 mln. km <sup>2</sup> )	3	14	18	34	33
Kanada (9,9 mln. km <sup>2</sup> )	1	5	12	42	40
Xitoy (9,9 mln. km <sup>2</sup> )	1	12	27	10	50
AQSh (9.5 mln. km <sup>2</sup> )	5	18	23	32	22
Braziliya (8,5 mln. km <sup>2</sup> )	1	4	14	58	23
Avstraliya (8.5 mln. km <sup>2</sup> )	1	5	54	6	34
Hindiston (3,2 mln. km <sup>2</sup> )	2	51	7	14	26
Argentina (2.7 mln. km <sup>2</sup> )	1	12	40	34	13

Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha (Andriishin M. V. Loyko P. F. 1980) ekologik vaziyatni inobatga olgan holda haydaladigan yer maydonlarini ko'paytirish mumkin.

Jadvaldan ko'rinadiki, hozirgi kunda maydonlarni ko'paytirish uchun tropik va subtropik mintaqalardagi o'rmon va yem-xashak maydonlarini kengaytirish oson va arzonga tushadi, bunday qilinganda dehqonchilik subboreal mintaqadan tropik va subtropik mintaqaga o'tadi subboreal esa 3-o'ringa tushib qoladi. Agar XX asrda dehqonchilik asosan 4 ta tuproq guruhiga to'g'ri kelgan bo'lsa yoki qora tuproq, dasht qora tuprog'i, kulrang - o'rmon va qo'ng'ir - o'rmon tuproqlariga to'g'ri kelsa, XXI asrda yuqoridagi jadvaldan ko'rinishicha, tropik cho'llardagi qizil va qizg'ish-sariq, sariq-qizg'ish, qizil-qo'ng'ir tuproqlarga etib keladi. Bu tuproqdarni o'zlashtirish gumidli va keskin arid, tropik va subtropik iqlim sharoitiga to'g'ri keladi, ularga esa mablag'ni ko'plab sarflashga to'g'ri keladi, shuningdek bu yerlarni meliorativ, agrokimyoviy va tuproqni himoya qilish tadbirlarini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Sug'orilib dehqonchilik qilinadigan yerlar bu nafaqat respublikamiz, balki barcha dunyo halqlarining bebaho boyligi, bitmas-tuganmas xazinasi

hisoblanadi. Chunki iqtisodiy ehtiyojimizni qondirmish asosiy oziq-ovqat mahsulotlari aynan shu yerlar hisobiga olinadi. Zero, u nafaqat bugunning, balki kelajakning ham rizq-ro‘z manbaidir.

Ma’lumotlarga qaraganda, 1960-yildan to hozirgi kunga qadar (2012) dunyo bo‘yicha haydalma yerlar maydoni atigi 8% gagina, ushbu davr mobaynida esa axoli sur’ati 3 mlrd. dan 6,4 mlrd. gacha oshgan. Aholi sonining uzluksiz haybatli o‘sishi va haydalma yerlarning bunday o‘zgarish miqdoridan ushbu yerlarning insoniyat oldida qanchalik qadr-qiyamatga ega ekanligini anglab olish qiyin emas. Hozirda biz bunday yerlar maydonini oshirish u yog‘da tursin, balki mavjudlarini xam asray ololmayapmiz. Buning eng asosiy sabablaridan biri-tuproq sho‘rlanishi, ya’ni tuproqda tuz to‘planish va ikkilamchi sho‘rlanish jarayonlarining kuchayib, tuproqda suv-tuz tartiboti va organik moddalar balansida salbiy holatlarni shakllanishi va natijada yerlarning meliorativ-ekologik holatlarini yomonlashishi bilan birga, suv-shamol eroziyasi, tuproq zichlanishi, oziq elementlarni yo‘qotilishi, texnika asrining zaharli ximikatlarini tuproqqa kelib tushishi bilan ham bog‘liqdir.

Mamlakatlar va qit’alar bo‘yicha ko‘pdan-ko‘p faktlarga asoslangan materiallarni umumlashtirish Shuni ko‘rsatdiki, tuproq qatlamining (biosfera, biogeokimyo, gidrosfera, atmosfera, gumusosfera, antroposfera yoki texnosfera qatlamlari) butun yer yuzi miqyosidagi funksiyalari tuproqqa aniq maqsadni ko‘zlab bevosita ta’sir o‘tkazish natijasida ham, shuningdek g‘oyat xilma-xil qo‘shimcha, ikkinchi darajali, ko‘pincha kutilmagan salbiy ekologik xolatlar natijasida ham inson faoliyatining ta’siri ostida nihoyatda kuchli darajada o‘zgarib bormoqda. Mana shu ta’sirning ko‘lamlari to‘g‘risida qo‘yidagi ma’lumotlar bo‘yicha hukm chiqarish mumkin: Yer kurrasidagi quruqlikning umumiy maydonidan hozirgi vaqtda jahon Dehqonchiligida salkam 1,5 milliard gektar (quruqlikning 10 foizi) doimiy Shudgorlanib turiladi, dehqonchilik madaniyatning 10 ming yillik tarixi mobaynida avvallari mahsuldor bo‘lgan 2 milliard gektarga yaqin yerdan batamom mahrum bo‘lindi, cho‘l-biyobonlarga aylantirildi, har-hil inshootlar qurildi, suv ostida qoldirildi: salkam 1 milliard gektar yer dehqonchilikka yaroqli holda turibdi: hozirgi vaqtda har yili mutlaqo yo‘q bo‘layotgan hosildor yerlar 6-7 million gektarni tashkil qiladi, ya’ni o‘rtacha tarixiy ko‘rsatkichlarga nisbatan 30-35 baravar ko‘paydi. Endilikda bu ekologik jihatdan hatarli hodisaga aylanib bormoqda, bu esa jahon ilmiy jamoatchiligining, rasmiy halqaro organlari, Shu jumladan BMTning ham jiddiy diqqat e’tiborini jalb etdi. Tuproq qatlamining zavol topishi va nobud bo‘lishiga qarshi kurash muammosi akademik V.A.Kovda qayd etishicha urush va yadroviy halokatlar muammosidan keyingi barcha dunyo ekologik muammolari orasida birinchi o‘ringa chiqmoqda.

Savollar:

1.Sug‘oriladigan yerlarning maydoni?

2. Hozirgi vaqtda dunyo dehqonchligida qancha yer shudgorlanadi ?

#### **IV-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YER FONDI. YER KADASTRINING OB‘EKTI**

O‘zbekiston tabiiy-iqlim sharoitlarining – iqlim, rel’ef, tuproq paydo qiluvchi jinslar, gidrologik holatlari murakkabligi bu yerda tuproqlarning xilma xil bo‘lishini va qishloq xo‘jaligida foydalangan yerlarning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

*3-jadval*

Tuproqlar	Maydoni, ming. ga	% hisobida
<b>A. Tog‘ va tog‘oldi tuproqlari</b>		
1. Baland tog‘larning och tusli qo‘ng‘ir tuproqlari	540	1,2
2. O‘rta tog‘larning jigarrang va qo‘ng‘ir tuproqlari	1160	3,7
3. To‘q tusli bo‘z tuproqlar	1050	2,7
4. Tipik bo‘z tuproqlar	3050	6,8
5. Och tusli bo‘z tuproqlar	2590	5,8
6. O‘tloqi – bo‘z va bo‘z – o‘tloqi	780	1,8
7. Bo‘z tuproqlar mintaqasining o‘tloqi tuproqlari	670	1,5
8. Bo‘z tuproqlar mintaqasining botqoq-o‘tloqi tuproqlari	70	0,2
Jami	10410	23,4
<b>B. Cho‘l zonasining tuproqlari</b>		
9. Sur-qo‘ngir tusli tuproqlar	11025	24,8
10. Qumli cho‘l tuproqlar	1370	3,1
11. Taqirli tuproqlar va taqirlar	1780	4,1
12. O‘tloqi-taqirli va taqirli-o‘tloqi tuproqlar	460	1,0
13. Cho‘l zonasining o‘tloqi tuproqlari	1790	4,1
14. Cho‘l zonasining botqoq-o‘tloqi tuproqlari	50	0,1
15. Sho‘rxoklar	1270	2,9
16. Qumlar	12100	27,9
Boshqa yerlar (tog‘ qoyalari, suv yuzasi)	4150	9,3
Jami	33995	76,6
Respublika bo‘yicha jami	44405	100,0

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tuproqlarning to‘rt dan uch qismini (76,6%) cho‘l zonasida tarqalgan, ular asosan sur-qo‘ngir tusli, cho‘l qumli tuproqlar va qumlar (31,3%). Tog‘ va tog‘ oldi zonalar tuproqlari 23,4% ni tashkil qilib, u yerda bo‘z tuproqlar (15%), gidromorf tuproqlar, jigarrang, och-tusli qo‘ngir baland tog‘ tuproqlar tarqalgan.



Tuproqlarning qishloq xo‘jaligida foydalanishi, ularning joylashgan hududiga, rel’efiga, gidrolik sharoitiga va boshqalarga bog‘liqdir.

O‘zbekistonning yerlaridan qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar ya’ni respublika Yer fondini 58,1% tashkil etadi.

Yaylov va pichanzorlar, shu jumladan, sug‘oriladiganlari 22263,4 ming.ga (2012 yil 1 yanvar), haydalma yerlar 4056,6 ga, shu jumladan, sug‘oriladiganlari 3313,6 ming.ga, ko‘p yillik daraxtzor yerlar, shu jumladan, sug‘oriladiganlari 337,1 ming.ga

Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarni ilmiy asoslangan tarzda hisobga olish, oqilona foydalanish, baholash imkonini Yer kadastrini beradi. Yer kadastrini quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ro‘yxatdan o‘tkazish, yerlarning miqdoriy hisobi, yerlarning sifat bahosi – bonitirovkasi, yerlarni iqtisodiy baholash. Tuproqlarni har tomonlama yaxshilash, uning unumdorligini va iqtisodiy samaradorligini oshirish qishloq xo‘jaligi kelgusidagi rivojining muhim masalalaridan biridir. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishni oshirish yerdan to‘g‘ri va samarali foydalanish bilan bog‘liqdir. Ana shu vaziyatda yer kadastrining ahamiyati kattadir.

#### **4.1. Yer kadastrining ob‘ekti hamda uning asosiy toifalari**

O‘zbekiston Respublikasida Yer – davlat mulki – umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi. Davlat yerning asosiy xo‘jayini sifatida yer fondiga egalik qilish, ulardan to‘g‘ri foydalanishni ham yuritishi zarur. Shunday qilib yer kadastrining ob‘ekti – bu mamlakat yagona Yer fondidir, ya’ni kimning ixtiyorida bo‘lishidan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasidagi barcha yerlardir. Yer fondi yerlardan foydalanishning asosiy maqsadiga qarab quyidagi toifalarga bo‘linadi:

- *qishloq xo‘jaligi yerlari - qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun yoki ana Shu maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar*
- *aholi punktlarining yerlari (shaxarlar, posyolkalar, qishloq aholi punktlari) shahar va posyolka chegaralari dog‘iralaridagi va qishloq aholi punktlari chegaralari dog‘iralardagi yerlar*
- *sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan yerlar*
- *tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan yerlar*
- *tarixiy – madaniy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan yerlar*
- *o‘rmon fondi yerlari*
- *suv fondi yerlar*
- *zaxira yerlar*

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisoblanadi. Bu yerlar qishloq xo'jaligi faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikatsiyalar, o'rmonlar, berk suv havzalari, binolar va inshootlar bilan band bo'lgan yerlarga ajratiladi. Haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar (bog'lar, tokzorlar va boshqalar) egallagan yerlar qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar doimiy yoki vaqtin-chalik egallik qilish va foydalanish maqsadlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish kooperativlariga, boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga, fermer xo'jaliklarini tashkil etish va yuritish, Dehqon xo'jaligi, xususiy bog'dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish, jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligi uchun respublika fuqarolariga, yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga beriladi.

Qishloq xo'jaligi yerlarini irrigatsiya va suvdan foydalanish tizimiga asoslangan sun'iy sug'orish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi va yerlardan foydalanish hamda ular unumdorligini oshirishning shartidir. Qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orishni ta'minlay oladigan sug'orish manbaasi bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat bo'lgan yerlar jumlasiga kiradi. Sug'oriladigan yerlar maxsus muxofaza qilinadi. Ularni sug'orilmaydigan yerlar sarasiga o'tkazish alohida holarda tuproq-meliorativ va iqtisodiy sharoitlarni hamda yerlarning suv bilan ta'minlanganligini ulardagi mavjud suv resurslarini va bu suvlarga belgilangan me'yorlash e'tiborga olinib, viloyat hokimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Shahar va posyolka dog'irasidagi barcha yerlar shaharlar va posyolkalar yerlariga kiradi. Qishloq aholi punktlarining yerlariga yer tuzish tarkibida ana shu punktlar uchun belgilab qo'yilgan chegaralar dog'irasidagi hamma yerlar kiradi.

Shaharlar va posyolkalar yerlari tarkibiga shaxar qurilishi yerlari, umumiy foydalanishdagi yerlar, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar, daraxtzorlar egallagan yerlar, sanoat, transport, aloqa, mudofaa yerlari va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekratsion va tarixiy madaniy maqsadlarga mo'ljallangan yerlar, suv fondi yerlari, zaxira yerlar kiradi. Qishloq aholi punktlari yerlariga qishloq va ovul o'zini o'zi boshqarish organlari tasarrufidagi qishloq aholi punktlarining qishloq xo'jaligi hamda o'rmon xo'jaligi korxonalari muassasalari, tashkilotlari egallagan yerlari kiradi.

Sanoat yerlari jumlasiga sanoat korxonalariga jumladan sanoat, energetika korxonalariga ishlab chiqarish va yordamchi binolar hamda

inshoatlar qurilishiga doimiy foydalanish uchun berib qo'yilgan yerlar kiradi. Transport yerlari jumlasiga temir yo'llar, ichki suv transporti, avtomobil, xavo va quvur transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga transport inshoatlari, qurilmalari va boshqa ob'ektlarni ishlatish, saqlab turish, qurish, qayta qurish, ta'mirlash, takomillashtirish va rivojlantirish soxasida ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun doimiy foydalanishga berib qo'yilgan yerlar kiradi. Aloqa yerlari jumlasiga aloqa liniyalarini hamda tegishli inshoatlarni joylashtirish uchun aloqa, radioeshitirish, televideniye va axborot korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy foydalanish uchun berib qo'yilgan yerlar kiradi. Qurolli kuchlar, chegara, ichki va temir yo'l qo'shinlarining harbiy qo'shinlari, harbiy o'quv yurtlari, korxonalar, muassasalari va tashkilotlarining joylashishi hamda doimiy faoliyati uchun berib qo'yilgan yerlar mudofaa extiyojlari uchun mo'ljalangan yerlar hisoblanadi. Boshqa maqsadlar uchun mo'ljalangan yerlar jumlasiga korxonalar, muassasalar va tashkilotlar foydalanadigan, qishloq xo'jaligi yerlari, aholi punktlari, sanoat, transport, aloqa, mudofaa, tabiatni muhofaza etish, sog'lomlashtirish, rekreatsion va tarix, madaniyat maqsadlariga mo'ljalangan yerlar tarkibiga, Shuningdek o'rmon va suv fondlari tarkibiga kirmagan barcha qolgan yerlar kiradi.

Suv xo'jaligi extiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berib qo'yilgan suv havzalari, gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshoatlari egalab turgan yerlar, shuningdek suv havzalarining qirg'oqlari va boshqa suv ob'ektlari bo'ylab ajratib qo'yilgan zonadagi yerlar suv fondi yerlari jumlasiga kiradi.

Tabiatni muxofaza qilishga mo'ljalangan yerlar jumlasiga belgilangan tartibda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga maxsus maqsadlar uchun berilgan davlat qo'riqxonalari, milliy va dendrologiya bog'lari, zakazniklar (ovchilikka mo'ljalangan yerlar bundan mustasno), tabiat yodgorliklari kiradi.

Kasallikni oldini olish va davolashni tashkil etish uchun qulay, tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berib qo'yilgan yer uchastkalari sog'lomlashtirish ishlari uchun mo'ljalangan yerlar jumlasiga kiradi.

Aholining ommaviy dam olishi va turizmni tashkil etish uchun tegishli tashkilotlarga berilgan yerlar rekreatsiya uchun mo'ljalangan yerlardir.

Tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanish uchun berib qo'yilgan tarixiy madaniy qo'riqxonalar, memorial bog'lar, maqbaralar, arxeologik yodgorliklari, tarixiy va madaniy yodgorliklari joylashgan yerlar tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar qatoriga kiradi.

O'rmon xo'jaligi extiyojlari uchun berib qo'yilgan yerlar o'rmon fondi yerlari hisoblanadi. O'rmonzorlar barpo etish, jarliklarning kengayishini to'xtatish, shaharlar va sanoat markazlari tevaragida ixota o'rmonzorlar va

ko‘kalamzor maydonlar barpo etish uchun boshqa maqsadlarga mo‘ljalangan yerlar o‘rmon fondi yerlari tarkibiga belgilangan tartibda o‘tkazilishi mumkin. Fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga doimiy egalik qilish va foydalanish uchun berilmagan barcha yerlar zaxira yerlaridir. Bunday yerlar jumlasiga doimiy egalik qilish va doimiy foydalanish huquqi tugatilgan yerlar ham kiradi.

Zahira yerlar tuman, shaxarlarning davlat xokimiyati tasarrufida bo‘ladi va qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun egalik qilish, foydalanishga va ijaraga berishga mo‘ljalanadi. Tuman xokimi mahalliy ahamiyatga molik zaxira yerlarining ayrim uchastkalarini o‘z qarori bilan posyolka, qishloq va ovullarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tasarufiga berishi mumkin.

Olib borayotgan yer hisobi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda 2012 yil 1 yanvarga sug‘oriladigan yer maydoni 4220 ming gektar bo‘lib, umumiy maydonning 9,3%ini tashkil etadi. Ushbu maydonlardan olinayotgan qishloq xo‘jaligi maxsulotlari umumiy qishloq xo‘jalik maxsulotlarining 95% ini tashkil etadi. shu sababli ham ishlab chiqarish manbalarini jadal rivojlantirishda sug‘oriladigan yerlardan to‘g‘ri va oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish katta ahamiyat kasb etadi.

Yer egaligi (yerdan foydalanish) yer kadastrining asosiy birligidir. Yagona davlat yer fondi nafaqat foydalanish maqsadlari bo‘yicha balki aniq yer egaliklari bo‘yicha ham ajratiladi. Respublikamizda hozirgi kunda asosiy yerdan foydalanuvchilar korxonalari, muassasalari va tashkilotlari: sanoat, transport muassasalari va tashkilotlari, alohida fuqarolar hisoblanadi. Shunday ekan, yer kadastrini yer fondining yerdan foydalanish guruhlari bo‘yicha ham taqsimlanishi to‘g‘risida ma’lumotlar berish kerak.

4-jadvalda O‘zbekiston Respublikasi yagona Yer fondining yer toifalari bo‘yicha taqsimlanishi keltirilgan.

*4-jadval*

Respublika Yer fondining yer toifalari bo‘yicha taqsimlanishi  
(2012 yil 1-yanvarga bo‘lgan holati)

Yer toifalari	Umumiy maydon	
	ming ga	%
Qishloq xo‘jaligi yerlari	29736,0	66,9
Zaxira yerlar	4630,8	10,4
O‘rmon fondi yerlari	7374,2	16,5
Aholi yashash joylari	221,2	0,49
Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlar uchun berilgan yerlar	1834,1	4,1

Tabiatni muxofaza qilish, sogʻlomlashtirish, rekreatsion va tarixiy madaniy ahamiyatdagi yerlar	7,4	0,01
Suv fondi yerlari	654,9	1,47
Jami yerlar	44457,9	100

4-jadvaldagi maʼlumotdan koʻrinadiki, umumiy yer maydonining 66,9% ini qishloq xoʻjaligi yerlari tashkil etadi.

Yerdan foydalanish guruxlari boʻyicha tavsiflar olish uchun yer kadastri har bir yerdan foydalanish boʻyicha alohida yuritilishi lozim. Shu sababli asosiy yer kadastri birligi – bu yerdan foydalanishdir. Yerdan foydalanish – bu yagona davlat yer fondining tarkibiy qismini tashkil etgan, maʼlum bir yer egasi (yerdan foydalanuvchi)ga qatʼiy belgilangan maqsadlarda davlat tomonidan berilgan hududdir. U maʼlum maydonga, joydagi oʻringa va doimiy chegaraga ega.

Yer berish yer ajratish asosida amalga oshiriladi. Yer uchastkalarini ajratish yer qonunlari hujjatlarida belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasining qarori, viloyat, tuman va shahar hokimiyatlarining qarorlariga asosan amalga oshiriladi. Yer egalari (yerdan foydalanuvchilar) yer uchastkalaridan asosiy maqsadlari boʻyicha foydalanishlari zarur. Berilish muddatlariga qarab yerdan foydalanish ikki turga boʻlinadi: doimiy va vaqtinchalik. Oldindan muddati koʻrsatilmagan berilgan yerlar muddatsiz, doimiy foydalanishdagi yerlar deb eʼtirof etiladi. Yerdan muddatli foydalanish qisqa muddatli – boʻlishi mumkin. Ishlab chiqarish ehtiyojlari talab qilgan hollarda bu muddatlar tegishli qisqa muddatli yoki uzoq muddatli davrga uzaytirilishi mumkin. Yaylov chorvachilik uchun yer uchastkalari qishloq xoʻjaligi korxonalariga berilishi mumkin.

Berilish shartiga qarab yerlar birlamchi va ikkilamchi yerdan foydalanishga ajratiladi. Birlamchi foydalanish toʻgʻridan – toʻgʻri davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratiladi. Bularga jamoa xoʻjaliklari, kooperativlar (shirkatlar), boshqa qishloq xoʻjalik korxonalarini, sanoat korxonalarini, transport muassasalari, oʻrmon xoʻjaliklari va boshqalar kiradi.

Birlamchi yerdan foydalanishdan qonunda koʻzda tutilgan tartibda tomorqa uchastkalariga ikkilamchi tartibda yer berilishi mumkin. Bunda jamoa xoʻjaligining birlamchi yerlaridan ikkilamchi foydalanish uchun yer maydonlari kolxozchilar umumiy majlisining qaroriga asosan, boshqa yerdan foydalanuvchilarga yerlar - maʼmuriyat qarori boʻyicha beriladi.

Muddatsiz yer egaligi (yerdan foydalanish) yerga egalik yerdan foydalanish huquqlarini beruvchi davlat dalolatnomasi bilan tasdiqlanadi. Davlat dalolatnomasiga binoan jamoa xoʻjaliklariga birlashtirilgan yerlar jamoat yerlariga va tomorqa yerlariga boʻlinadi. Tomorqa yerlari joyda (naturada) jamoa xoʻjalikning jamoa yerlaridan ajratiladi. Qishloq joylarda

istiqomat qiluvchi ishchilar, xizmatchilar va boshqa fuqarolar tomorqa yerlarida ikkilamchi yerdan foydalanish huquqi korxonasi, muassasa va tashkilotlar Yer kadastrida hamda qishloq oqsoqollar kengashining xo‘jalik daftarlarida qayd etilgan holda rasmiylashtiriladi. Yer maydonlaridan vaqtinchalik foydalanish davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan rasmiylashtiriladi.

Yer kadastrida yer turlarini klassifikatsiyalash. Yer egaligi (yerdan foydalanish) Yer kadastrining asosiy birligi sifatida o‘z mazmuniga qarab turlichadir hamda foydalanish tavsifi bo‘yicha farqlanuvchi turli tabiiy – tarixiy xususiyatlarga ega bo‘lgan yer uchastkalarining yig‘indisidan iborat. Bular yer turlarini tashkil etadi. Yer egaligi (yerdan foydalanish) chegarasida Yer kadastrida yer turlari bo‘yicha yuritiladi. Shu sababli yer turi yer kadastrining asosiy elementidir. Turlicha tabiiy xususiyatlarga ega bo‘lgan, aniq bir ishlab chiqarish maqsadlarida sistemali tarzda foydalaniladigan yer uchastkalariga yer turlari deb e‘tirof etiladi.

Yer turlarini klassifikatsiyalashda ayniqsa, qishloq xo‘jaligi yer turlarini ajratish muhimdir. Qishloq xo‘jalik maxsulotlarini etishtirishda to‘g‘ridan – to‘g‘ri foydalaniladigan yer turlariga qishloq xo‘jalik yer turlari deb e‘tirof etiladi. Bularga haydalma yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar, bo‘z yerlar, pichanzorlar va yaylovlar kiradi.

Bulardan tashqari boshqa yer turlari bo‘yicha ham alohida hisob yuritib boriladi. Bular: o‘rmonlar, botqoqliklar, suvlar, yo‘l va yo‘laklar, qurilishlar, xovlilar, ko‘chalar, maydonchalar bilan band yerlar, qumlar va qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardir.

Qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish maqsadida sistemali tarzda foydalaniladigan yer turi xaydalma yerdir. Bunga ekilgan ko‘p yillik o‘tlar va dam berish uchun qoldirilgan shudgor yerlar ham kiradi. Pichanzor va yaylovlarni yaxshilash maqsadida haydalib, chorva uchun ekilgan o‘tlar va daraxtlar orasiga ekilgan maydonlar ekin yerlariga kirmaydi.

Sun‘iy ravishda yaratilgan mevali ko‘p yillik daraxtzorlar, butazorlar yoki o‘tsimon ko‘p yillik o‘simliklar, maxsulot beradigan dorivor, texnik daraxtzorlar ko‘p yillik daraxtzorlar deb yuritiladi. Ularga bog‘lar, uzumzorlar, tutzorlar, mevali ko‘chatzorlar kiradi. Meva xosil olish uchun ekilgan ko‘p yillik daraxtzorlar bog‘larni tashkil etadi. Uzumzorlar – uzum olish maqsadida ekilgan tokzorlar; tutzorlar – ipak qurtini boqish uchun ekiladigan plantatsiyalari; mevali ko‘chatzorlar – ko‘p yillik madaniy mevali daraxt ko‘chatlarini etishtirish uchun foydalaniladigan yerlar.

Muntazam ekin ekib kelingan, ammo bir yil va undan ortiq davrda (kuzdan – kuzgacha) haydalmagan va foydalanilmay qolgan yerlar bo‘z yerlardir. Uzluksiz pichan o‘rib turiladigan qishloq xo‘jalik yerlari pichanzorlardir. Ko‘proq pichan o‘rib olish maqsadida tubdan yaxshilangan pichanzorlar tubdan yaxshilangan pichanzorlardir. Qishloq xo‘jaligida chorva

mollarini uzluksiz boqish uchun foydalaniladigan yerlar yaylovlar deb e'tirof etiladi. Yaylovlar asosan tubdan yaxshilangan, madaniylashtirilgan, tog', chorva mollari haydaladigan, suv bilan ta'minlangan turlarga ajratiladi. Tubdan yaxshilangan yaylovlar – chorva mollari iste'mol qiladigan tabiiy o'simliklarni boyitish maqsadida maxsus o't urug'lari sepilgan hamda saksavul va butazorlar tashkil etilgan yer maydonlari; madaniylashtirilgan yaylovlar – zaruriy tartibda ishlov berilgan, doimo o'g'itlanib, chorva mollari uchun o't o'sishi yaxshilangan va vaqti – vaqti bilan chorva mollari haydaladigan yaylovlar; tog' yaylovlar – tog'lik yerlarda joylashgan yaylovlar; chorva mollari haydaladigan yaylovlar – xo'jalik markazidan uzoq muddatga (butun mavsum davomida) chorva mollari o'tlashi uchun haydaladigan yaylovlar; suv bilan ta'minlangan yaylovlar – mavjud chorva mollari suv bilan ta'minlanay oladigan, suv manbaiga ega bo'lgan yaylovdir. Daryolar, ko'llar va kanallar atrofida joylashgan yaylovlar suv bilan ta'minlangan hisoblanadi.

O'rmon yer maydonlari - o'rmon daraxtlari bilan qoplangan, shuningdek, o'rmonga qo'shilmagan yakka daraxtlar, jarliklar atrofida ekilgan daraxtlar, qiyalik, balandlik, daryo qirg'oqlariga, suv xavzalari atrofida, qumliklar yonlarida, o'rmon – bog' yerlari, o'rmon ko'chatzorlari, shuningdek, daraxtlari kesib olingan o'rmon yerlari, ochiq qolgan yerlar, siyraklashib qolgan o'rmonlar, yog'och kesish uchun ajratilgan yerlar va yong'indan nobud bo'lgan (kuygan) o'rmon ko'chatlari yerlaridir.

O'rmonzorlar uchun ko'chat etishtirishga ajratilgan yer maydonlari o'rmon ko'chatxonasidir. O'rmon uchun ko'chatzorlar; urug'likdan olinadigan ko'chatzor, ko'chat ekish uchun yer bo'limlari, birlamchi (boshlangich) ko'chat ekish yerlari, ko'kargan qalamchalar va qalamcha qilib ekiladigan ko'chatzor bo'limlariga bo'linadi.

Ihota daraxtzorlari – almashlab ekish maydonlarini shamoldan to'sish, sug'oriladigan va sug'orish inshootlari ta'sirida tuproq eroziyasidan saqlash, qo'rg'oqchilikdan va boshqa tabiiy noqulaylikdan asrash maqsadida ekiladigan o'rmon mintaqalaridir.

Botqoqlik – yer osti suvlarining ko'tarilishi hamda yog'ingarchilik natijasida tuproqning ustki qatlami sernam bo'lib ketgan yerlardir. Jarliklar – yer qatlamining eroziya ta'sirida yomon joylashganligi yoki tuproq quyi qatlamlarining genetik holati va qiya kesikligi 1 metrdan ko'p bo'lgan yerlardir.

## Yer kategoriyalari bo'yicha yer fondlari taqsimlanishi

Yer kategoriyalari	Umumiy maydoni	Xaydaladigan yerlar	Ko'p yillik daraxtzorlar	Pichanzor, yaylov, konlar	Tomorqa yerlar	O'rmon daraxtzorlari	Mel fondi	Boshqa yerlar
Qishloq xo'jaligi ahamiyatidagi yerlar	25789,8	4037,9	339,4	16128,0	579,3	427,5	77,8	4199,9
Aholi punktlari	230,6	1,2	1,4	6,5	62,4	4,5		154,6
Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa ahamiyatidagi	1934,2	1,9	1,6	146,1	8,5	3,7		1772,4
Tabiatni muxofaza qilish, sog'lomlashtirish, tarixiy-madaniy ahamiyatidagi	12,6	0,1	0,2	7		0,2		5,1
O'rmon fondi	8050,4	12,4	9,6	3304,7	0,9	1054,5	1,1	3667,2
Suv fondi	810,2	2,1	0,7	11	0,3	1,2		794,9
Zaxiradagi yerlar	7582,5	1		2740,8		20,3	0,4	4820
Umumiy maydon	44410,3	4056,6	352,9	22344,1	651,4	1511,9	79,3	15414,1



Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘yicha yer  
fondining yer kategoriyasi asosida taqsimlanishi  
(01.01.2012 yil balansi ma’lumotlari bo‘yicha)

Nomlanishi	Qishloq xo‘jalik ahamiyatidagi yerlar	Aholi yashaydigan yerlar	Aloqa, mudofaa va boshqa ahamiyatdagi yerlar	Tabiatni saqlash, sog‘lomlashtirish, tarixiy-madaniy ahamiyatdagi yerlar	O‘rmon fondi yerlari	Suv fondi yerlari	Zaxiradagi yerlar	Umumiy yer maydoni
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3204,0	26,1	1329,1	0,5	4350,4	52,1	7138,4	16100,6
Andijon	381,3	12,1	12,1	0,6	2	16,8	5,4	430,3
Buxoro	3731,6	7,4	150,1	0,1	227,3	66,1	11,1	4193,7
Jizzax	1438,6	10,2	81		259,3	325	2,7	2117,8
Qashqadaryo	2513,1	11,6	20	3	271,6	33,7	3,8	2856,8
Navoiy	8402,3	16,4	63,7	5,1	2093,8	184,6	171,5	10937,4
Namangan	664,6	17,2	9,3	0,1	3	16,6	6,7	717,5
Samarqand	1479,7	16,6	90,1	0,1	52,6	26,4	11,9	1677,4
Surxondaryo	1595,3	9,1	55,9	0,6	293	21,1	34,8	2009,9
Sirdaryo	389,5	8,6	6,4		7,8	15,3	0,1	427,6
Toshkent	845,7	39,6	84,8	0,4	398,3	16	128,4	1513,2
Farg‘ona	589,4	169	21,8	0,4	13,7	14,5	58,6	714,7
Xorazm	554,7	7,7	9,9	0,7	77,5	22	9,1	681,6
Toshkent shahar		31,2						31,2
Jami	25789,8	230,6	1934,2	12,6	8050,4	810,2	7582,5	44410,3

Respublikaning Yer fondi toifalari. O‘zbekiston Respublikasi yer maydoni davlat mulki-umummilliy boylik hisoblanadi. Undan unumli foydalanish va asrab-avaylash davlat tomonidan muhofaza qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Yer fondi maqsadli ahamiyatiga ko‘ra quyidagi asosiy toifalarga bo‘linadi:

1. *Qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga ega bo‘lgan yerlarga qishloq xo‘jalik ehtiyojlari va maqsadlari uchun mo‘ljallangan yerlar kiradi. Ular faqat qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini yuritishni ta‘minlabgina qolmay,*

*agrolandshaftning qulay iqlim va ekologik sharoitlarini yaratishga ham xizmat qiladi.*

2. *Aholi punktlari yerlariga shahar, qishloq chegarasidagi yerlar, aholi yashash joylari, ovullar egallagan yerlar kiradi. Bunga qishloq aholi punktlari chegarasi dog'irasidagi yerlari kiritilmagan.*
3. *Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan yerlarga ma'lum maqsadda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar kiradi.*
4. *Tabiatni muxofaza qilish, sog'limlashtirish, rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar. Bu yerlar bilan alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar egallangan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan, shuningdek ommaviy dam olish va turizm maqsadlarida foydalaniladigan yerlar hisoblanadi. Bu toifadagi yerlarning asosiy maydoni qo'riqxonalar va milliy bog'larga to'g'ri keladi.*
5. *O'rmon fondi yerlari. Bunday yerlarga o'rmonlar bilan qoplangan, shuningdek o'rmon bilan qoplanmagan, lekin o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun ajratilgan yerlar kiradi.*
6. *Suv fondi yerlari. Bu turkumdagi yerlarga suv ob'ektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallangan yerlar va suv ob'ektlarining qirg'iqqlari bo'ylab xo'jalik yuritish uchun korxonalar, tashkilot va idoralarga belgilangan tartibda ajratib berilgan yerlar kiradi.*
7. *Zahira yerlariga foydalanishga va ijaraga berilmagan yuridik va jismoniy shaxslarga birlashtirilgan barcha yerlar (Shu jumladan, suv osti yerlari) kiradi. Respublika Yer fondi tarkibida quyidagi qishloq xo'jalik yer turlari ajratiladi: ekin yerlari, pichanzorlar, yaylovlar, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtlar ostidagi yerlar.*

**1. Ekin yerlari.** Ekin yerlar respublika iqtisodiyoti va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda eng muhim ahamiyatga ega.

**2. Lalmi yerlar.** Respublika bo'yicha lalmi yerlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish yog'ingarchilik davrida tuproq qatlamida yig'ilgan namlik hisobiga amalga oshirilishi sababli lalmi ekinlar o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 200 mm dan yuqori bo'lgan hududlarda ekiladi.

**3. Ko'p yillik daraxtzorlar.** 2001 yil 1 yanvar holatiga ko'ra respublikada ko'p yillik daraxtzorlarning maydoni 346,9 ming ga ni tashkil etadi.

**4. Bo'z yerlar.** 2001 yil 1 yanvar holatiga ko'ra respublikamizda bo'z yerlar maydoni 82,8 ming.ga ni tashkil etadi.

**5. Pichanzorlar.** 2001 yil 1 yanvar holatiga ko'ra respublikada pichanzorlar maydoni 112,3 ming.ga ni tashkil etadi.

**6. Yaylovlar.** Respublikaning ko'pchilik qismini yaylovlar tashkil etib, ular chorvachilikning asosiy ozuqa manbai hisoblanadi. 2001 yil 1 yanvar holatiga ko'ra respublikada 22134,1 ming.ga yaylov maydoni bo'lib, shundan

suv bilan ta'minlangani 19434,4 ming.ga ni tashkil etadi. Iqlim sharoitlariga ko'ra yaylovlar cho'l, adir va tog' mintaqalariga bo'linadi. Cho'l mintaqasi dengiz sathidan 500 metr balandlikda, respublikaning shimoliy - g'arbiy qismida joylashgan. Bu yerlar yil mobaynida qorako'chilikda yaylov sifatida foydalaniladi.

Sharqda cho'l mintaqasi asta-sekin adir mintaqasiga qo'shilib boradi. Bu yerlar dengiz sathidan 1000-1200 m balandlikda joylashgan. Adir mintaqasi asosan kuzgi va bahorgi yaylov sifatida foydalaniladi, qo'y va echkilar bu yerlarda yil mobaynida boqiladi.

7-jadval

Ijaradagi fermer xo'jaliklarining o'sishi (5 yillik ma'lumot bo'yicha)

Nomlanishi	1997 yil		2012 yil	
	Soni	Umumiy yer maydoni, ming ga	Soni	Umumiy yer maydoni, ming ga
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1502	25,8	2637	94
Viloyatlar:				
Andijon	1483	11,1	3201	30,1
Buxoro	1772	35,4	3554	80,5
Jizzax	395	14,0	4577	145,5
Navoiy	228	12,4	1505	38,8
Namangan	657	5,3	2356	38,1
Samarqand	3107	36,3	6162	80,6
Sirdaryo	987	12,6	2776	109,4
Surxondaryo	366	8,2	2319	46,9
Toshkent	644	7,7	3973	51,4
Farg'ona	1847	14,7	2977	37,8
Xorazm	1105	9,6	2877	35,5
Qashqadaryo	461	12,0	3401	95,3
<i>Jami</i>	11677	159,8	42315	883,9

## Shaxsiy tomorqa yerlarining o‘sishi, ming.ga (10 yillik ma’lumot bo‘yicha)

Nomlanishi	2002 yil	2007 yil	2012 yil
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	27,0	29,7	34,5
Viloyatlar:			
Andijon	36,0	45,1	45,5
Buxoro	34,3	49,1	54,6
Jizzax	20,9	25,0	29,8
Navoiy	12,0	17,4	18,3
Namangan	29,3	36,2	38,9
Samarqand	49,8	67,8	74,3
Sirdaryo	14,2	17,6	17,9
Surxondaryo	29,3	49,8	55,5
Toshkent	33,6	43,9	46,0
Farg‘ona	43,2	56,8	59,5
Xorazm	27,9	35,3	40,8
Qashqadaryo	40,7	59,9	69,2
<i>Jami</i>	398,2	533,6	584,8

## Savollar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Yer fondi toifalari?
2. Yer fondining qishloq xo‘jalik turlari bo‘yicha taqsimlanishi?

**4.2. Yer egaligi, yerdan foydalanishni ro‘yxat qilish hamda yer hisobi**

Yerlarni ro‘yxat qilish Yer kadastrining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bu ma’lum bir yer uchastkasiga mulkdorlik, egalik qilish yoki foydalanish huquqini rasmiylashtirish va davlat miqyosida qabul qilingan yagona shakldagi xujjatlarda aks ettirish bo‘yicha huquqiy tadbirdir. U yer qonunlarida ko‘zda tutilgan hollardan tashqari yerga davlat mulkchiligini ta’minlaydi va yerlarni muxofaza qilishga yo‘naltirilgan.

Yer ro‘yxati ma’lumotlari huquqiy kuchga ega. Albatta yer egaliklari va

yerdan foydalanuvchilarni ro'yxat qilish ishchi tizim sifatida birdaniga shakllanmagan. U oldingi davrlaridagidek o'tkazilgan hamda boshlangich vaqtdan yerlardan foydalanish xuquqini rasmiylashtirish hamda yerga davlat mulkchiligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga uning vazifasiga yerlarning huquqiy va xo'jalik xolatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, sistemali tarzda saqlash va yangilab turish kirgan.

Yerga egalik qilish yerdan foydalanishni ro'yxat qilish yer hisobi bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi.

Yerga egalik qilish (yerdan foydalanish)ni ro'yxat qilish ma'lum bir yer uchastkasiga egalik qilish (yer uchastkalaridan foydalanish) huquqini rasmiylashtirish va yer egaligi (yerdan foydalanish) to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qilingan xujjatlarda qayd qilish bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi. U birinchi navbatda yerlarning huquqiy holati to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat. Ammo yerdan foydalanish ma'lum bir maqsadga yo'naltirilganligi hamda ma'lum hudud va aniq sub'ekt bilan bog'liq bo'lganligi sababli u o'z ichiga yer uchastkalarining xo'jalik holati, joylashgan o'rni va yer egaligi (yerdan foydalanish)ning o'lchamlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ham oladi.

Yer uchastkasini yer egaligiga (yerdan foydalanuvchiga) berish to'g'risidagi vakolatli davlat organlarining qarori hamda yer tuzish loyixasini joyga ko'chirish va uchastka chegaralarini joyda maxkamlash to'g'risidagi dalolatnoma yer egaligi (yerdan foydalanuvchini) qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Davlat ro'yxatida rasmiylashtirilganidan so'ng yer egasi (yerdan foydalanuvchi)ga yerga egalik qilish (yerdan foydalanish) huquqini beruvchi xujjat topshiriladi.

Yer uchastkalarini egalik qilish va foydalanish uchun berish yer ajratish tariqasida amalga oshiriladi. Yer uchastkalarini ajratib berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shaxri, tumanlar, shaxarlar xokimlari tomonidan qonun xujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiriladi. Egalikdagi yoki foydalanishdagi yer uchastkasini boshqa shaxslarga berish shu uchastka belgilangan tartibda olib qo'yilganidan keyingina amalga oshiriladi.

Sanoat korxonalari, temir yo'llar va avtomobil yo'llari, aloqa va elektr uzatish liniyalari, magistral quvurlar qurish uchun, shuningdek, qishloq xo'jaligi bilan bogliq bo'lmagan boshqa extiyojlar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yoki qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz bo'lgan yerlari beriladi. Mazkur maqsadlar uchun o'rmon fondiga qarashli yerlardan yer uchastkalari asosan o'rmon bilan qoplanmagan maydonlar yoki butazorlar va arzon baho o'simliklar bilan qoplangan maydonlar hisobidan beriladi.

Yer egasiga (yerdan foydalanuvchiga) foydalanishga yer uchastkalari berilishi mumkin. Bunda birinchi xolatda ham ikkinchi xolatda ham barcha yerlar yaxlit yerdan foydalanishni tashkil etadi, negaki yerdan foydalanish

bitta sub'ektdan iborat. U ushbu barcha hududdan foydalanish bo'yicha ma'lum huquq va majburiyatlarga ega. Yer egaligi (yerdan foydalanish) ro'yxat qilinadi, hamda u yer ro'yxati birligining asosini tashkil etadi. U egalik qilish (foydalanish) huquqining ob'ekti sifatida yoki yer egaligi (yerdan foydalanuvchi)ning o'zga faoliyati sifatida gavdalanadi hamda ma'lum aniqlikdagi joylashgan o'rni va o'lchamlari bilan xarakterlanadi.

Yer egaligi (yerdan foydalanuvchi) davlat tomonidan yerga egalik qilish (foydalanish) huquqini tasdiqlovchi xujjat oladi. Yerlardan foydalanish turlariga qarab huquqiy rasmiylashtirish xujjatlari hamda yerdan foydalanishlarni ro'yxat qilish tartibi turlicha bo'lishi mumkin.

Yerdan foydalanish birlamchi va ikkilamchi bo'lishi mumkin. Agarda yerga egalik qilish (foydalanish) ga davlat organlari tomonidan berilgan bo'lsa, bunda yerdan foydalanish birlamchi hisoblanadi. Qonunda belgilangan tartibda yerdan foydalanuvchilar o'zlariga birlashtirilgan yer uchastkalaridan boshqa yerdan foydalanuvchilarga berishlari mumkin. Bunda yerdan foydalanish ikkilamchi hisoblanadi. U fermer a'zolari vakillarining majlis qaroriga asosan, boshqa yerdan foydalanuvchiyerlardan – ular ma'muriyatlarining qaroriga asosan ajratiladi. Korxonalar, muassasa va tashkilotlarga vaqtinchalik foydalanishga yer uchastkalari birlamchi yerdan foydalanuvchining roziligi bilan «Yer kodeksi»da ko'rsatilgan tartibda ajratiladi.

Yerga egalik qilish (yerdan foydalanish)ni ro'yxat qilish yerlardan foydalanish muddatlari bo'yicha amalga oshiriladi: muddatsiz va vaqtinchalik (uzoq muddatli va qisqa muddatli). Muddati oldindan belgilanmagan foydalanish muddatsiz hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, u doimiy yerdan foydalanishdir. Bunday yerdan foydalanish huquqini beruvchi Davlat dalolatnomalari beriladi.

Yerdan muddatli foydalanish qisqacha muddatli bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish ehtiyojlari talab qilgan hollarda bu muddatlar vaqtincha foydalanish muddatlaridan ortiq bo'lmagan davrga uzaytirilishi mumkin. Yer uchastkalaridan foydalanish muddatlarini uzaytirish ana shu uchastkalarni bergan organlar tomonidan amalga oshiriladi. Yaylov chorvachiligi uchun yer uchastkalari qishloq ho'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga berilishi mumkin.

Yer egaligi (yerdan foydalanish) davlat ro'yxatini amalga oshirish yerdan foydalanish toifalari bo'yicha belgilangan tartibda tuman va shahar xokimiyatlarida amalga oshiriladi. Har bir yerdan foydalanish bo'yicha muddatsiz, uzoq muddatli va qisqa muddatli yerlar alohida – alohida ro'yxat qilinadi. Asosiy yer ro'yxati ma'lumotlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: yerdan foydalanish va yerdan foydalanuvchilarning nomi, foydalanish turi, joylashgan o'rni, foydalanish muddati, yer maydoni va yerdan foydalanish huquqini beruvchi xujjatning nomi, uning tartib raqami

hamda yerdan foydalanuvchiga berilgan vaqti. Yerdan foydalanishning davlat ro'yxati tuman (shaxar) Davlat Yer kadastrida daftarining birinchi bo'limida amalga oshiriladi. Yer ro'yxati ma'lumotlari tumanning va alohida yerdan foydalanuvchilarning boshqa kadastr xujjatlarida ham qayd qilinadi. Masalan, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning yer kadastr kitobining birinchi bo'limida tuman (shaxar) Davlat yer kadastrida daftarining birinchi bo'limida qayd qilingan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning asosiy yer ro'yxati ma'lumotlari keltiriladi. Kitobning beshinchi bo'limida tomorqa yerlarining maydonlari qayd qilinadi. Ular to'g'risida ma'lumotlar qishloq oqsoqollar Kengashida yuritiladigan Xo'jalik kitobida ham qayd qilinadi.

Yer egaligi (yerdan foydalanish)ni ro'yxat qilish asosiy (birlamchi) va joriy (kundalik) turlarga bo'linadi. Birlamchi ro'yxat qilishda yangi yer egaliklari (yerdan foydalanishlar) ni rasmiylashtirish, yer ro'yxati xujjatlariga zarur ma'lumotlarni tushirish va tizimga keltirish bo'yicha ishlar amalga oshiriladi. Uni o'tkazish jarayonida yerdan foydalanish to'g'risida birlamchi yozuv tushiriladi. Keyinchalik, xo'jalik rivojlanishi va yerdan foydalanishning o'lchamlari va tarkibida u yoki bu ko'rinishdagi qonuniy o'zgarishlar bo'ladi, ya'ni, yerlarning huquqiy holatini aniqlashga zaruriyat to'g'iladi. Masalan: davlat va jamoat zaruriyatlari uchun yer ajratilishi natijasida, yerdan foydalanishning umumiy yer maydoni, alohida yerdan foydalanish turlarining maydonlari o'zgaradi. Bunday xol ayniqsa yerdan vaqtinchalik foydalanishda ko'p uchraydi. Ba'zi hollarda esa aksincha, yerdan foydalanuvchiga oldin undan olingan er uchastkasi qaytarib beriladi, negaki, endi oldin ajratib berilgan maqsadlar uchun yerdan foydalanishga ehtiyoj qolmagan. Bundan boshqa ham qator qonuniy sabablar bo'lishi mumkin.

Yerdan foydalanishdagi bo'nday barcha qonuniy o'zgarishlarni rasmiylashtirish va ushbu o'zgarishlarga hamda birlamchi ro'yxat ma'lumotlariga va xujjatlarga zaruriy aniqliklar kiritish yerdan foydalanishning joriy ro'yxati tartibida amalga oshiriladi. Shu tarzda yer ro'yxati ma'lumotlari doimiy ravishda Shu kun talabi darajasida ushlab turiladi

Yer hisobi-davlat Yer kadastrining tarkibiy qismi bo'lgani xolda xo'jalik hisobining bir turi hisoblanadi. Uni olib borishning o'ziga xos xususiyati bor. Bu xususiyat yer maydonlarining ishlab chiqarish vositasi sifatidagi xususiyati bilan bog'liq. Xalq xo'jaligi tarmoqlarida yer turli maqsadlarda foydalaniladi. Shunday ekan, uning hisobini yuritish amalga oshiriladi. Yer, uy – joy binolarini, sanoat, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi, transport korxonalari, madaniyat muassasalari, sog'liqni saqlash maskanlari va boshqalarni joylashish o'rni sifatida hisobga olinadi.

Yerlarni hisob qilishda ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida bir tomondan, umumiylik mavjud, ikkinchi tomondan o'ziga xos xususiyatlar

ham mavjuddir. Bu xol ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida va inson faoliyatining boshqa soxalarida yerning tutgan o'ri bilan bog'liqdir. Xamma joyda yer kenglik asosi sifatida hisobga olinadi. Shu sababli ham u eng avvalo, o'z o'lchamlari va kenglikdagi joylashuvi bilan xarakterlanadi. U yoki bu ishlab chiqarish korxonasi joylashtirish va qurish uchun ushbu maqsad uchun berilgan yer maydoni to'grisidagi ma'lumotga ega bo'lish zarur. Ammo teng o'lchamdagi maydon bitta yoki bir necha alohida joylashgan uchastkalardan tashkil bo'lishi mumkin. Shu sababli ham ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etish uchun korxonaga ajratilgan yerning kenglik qolati to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lish zarur.

Ishlab chiqarishning ba'zi tarmoqlarida (qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi) yerlarni kenglik asosi sifatida hisob qilishdan tashqari, uni asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida ham hisob qilish zarur. Bu esa o'z navbatida yerlardan foydalanish va ularning sifat holati to'grisidagi maxsus ma'lumotlar olish zaruriyatini tug'diradi. Bunga birinchi navbatda qishloq ho'jalik yerlarining tarkibi va sifati to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi.

Yer hisobida yerlarning miqdor jixatidan hisobini yuritish hamda sifat tavsifini berish uchun natural o'lchovlar qo'llaniladi. Hisob xalq xo'jaligini rejalashtirish, mamlakat yer fondidan oqilona va samarali foydalanish hamda muxofaza qilish uchun zarur bo'lgan yerlarning miqdori, sifati va xo'jalik jixatdan foydalanish to'grisidagi ma'lumotlarni olish, qayta ishlov berish, taxlil qilish va saqlashga yo'naltirilgan. U muhim ahamiyatga ega. Uning ma'lumotlar mazmuni eng avvalo qishloq xo'jaligi zaruriyati bo'yicha aniqlanadi. Negaki yer xalq xo'jaligi alohida tarmoqlarida turli maqsadlarda foydalanilar ekan, shu sababli ham yer hisobiga turlicha talablar qo'yiladi.

Aniq vazifalarga va asosiy maqsadlarga qarab yer hisobi turlicha rol o'ynashi mumkin. Ba'zan u davlat va ba'zan ma'lum bir tarmoq bo'yicha tadbir sifatida gavdalanadi. Umumdavlat vazifalarini bajarishda (xalq xo'jaligini rejalashtirish, mamlakat Yer fondidan samarali foydalanish va uni muxofaza qilish va x. k.) u davlat tadbiri sifatida namoyon bo'ladi. Bu xolda uning vazifasi, mazmuni hamda yuritish tartibi davlat tomonidan aniqlanadi. Davlat quyidagilarni belgilaydi: yer hisobi informatsiyalari va ularni olish usullarini; hisob – kitob va hisobot xujjatlarining shakli va mazmunini uni amalga oshiruvchi organlar va odamlarni; yerlarni hisob qilishni yuritib borishni belgilaydi.

Hisob yuritishning belgilangan tartibi mamlakatni barcha hududlari uchun majburiydir. Davlat hisobining ob'ekti bo'lib davlat yagona Yer fondi xizmat qiladi.

Xalq xo'jaligining u yoki bu tarmogi masalalarini muvaffaqiyatli xal qilish maqsadida ushbu tarmoq ustidan raxbarlik qilayotgan idoraga ushbu tarmoq korxonalari foydalanayotgan yerlari to'grisida ma'lumotlar zarur. Masalan: o'rmon xo'jaligi korxonalari tomonidan o'rmon xo'jaligini oqilona



yuritish uchun ular ixtiyorida foydalanilayotgan, o'rmon bilan qoplangan hududning holati va foydalanishi to'g'risida aniq ma'lumotlar zarur. Shaxar hokimiyati va uning organlariga shaxar chegarasidagi yerlarning holati va xaqiqiy foydalanilayotganligi to'g'risida ma'lumotlar zarur. Shu sababli ham yerlarning davlat hisobi bilan bir qatorda tarmoqli hisobini ham yuritishga zaruriyat tug'iladi. Uning ob'ekti bo'lib, ma'lum bir vazirlik (idora) ixtiyoridagi yerlar xizmat qiladi. Ushbu hisob turlari o'rtasida ma'lum bir o'zaro aloqa bo'lishi zarur.

Tarmoq hisobi davlat hisobining mazmuni va talablarini hisobga olgan xolda to'zilatadi. U o'z tarkibiga ushbu tarmoq ishlab chiqarishi bo'yicha davlat hisobi uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni, shuningdek aniq bir tarmoq masalalarini xal qilish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos ma'lumotlarni oladi. Shuning uchun ham yerlarning tarmoq hisobini yuritish tartibini o'rnatishda ushbu masalalar yerlarni davlat hisobini amalga oshirish funksiyasi yuklangan organlar bilan kelishilgan bo'ladi.

Yer hisobi davlat tadbiri sifatida Yer kadastrining tarkibiy qismidir. Yerlarning davlat hisobi yerlarni miqdor va sifat hisobini o'zida jamlagani xolda ma'lum tizimni tashkil etadi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan yerlarning davlat hisobi tizimi ham rivojlangan va takomillashgan. Uning rivojlanishidagi qonuniy hol shundan iboratki, doimiy ravishda yer sharoitlari, yerdan foydalanish va yer turlari maydonlarni aniqlash, aniqligi osha borgan yerlarning sifat tavsifi kengaya borgan.

Yerning mavjud holati va foydalanish bo'yicha hisob ishlari yuqori sifatli plan – xarita materiallari asosida olib boriladi. Barcha yer fondi ma'muriy – hududiy birliklar bo'yicha hisob qilinadi. Yer turlarining sifati, tuproq qatlami, tuproqlarning ozuqa moddalari bilan ta'minlanganligi, rel'efi, tabiiy o'tlarning holati, meliorativ holati va boshqalar bo'yicha aniqlanadi.

Yer hisobi yagona uslubiyat bo'yicha o'tkaziladi. Bu esa o'z navbatida hisobga olinadigan yer toifalari va mamlakatning alohida mintaqalari bo'yicha ma'lumotlarni taqqoslashni ta'minlaydi. Shu maqsadlarda yer va yer turlarining yagona klassifikatsiyasi, yer hisobi informatsiyasini olish, qayta ishlash va guruxlashning yagona tizimi qo'llaniladi.

Yer hisobining ob'ekti yagona davlat Yer fondi bo'lganligi sababli kimning ixtiyorida bo'lishidan, ushbu vaqtda bu yer maydonlari foydalanilayaptimi yoki yo'qmi, bulardan qat'iy nazar ushbu davlat Yer fondiga kiruvchi barcha yerlar hisob qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, yagona davlat Yer fondining barcha yerlarini hisob qamrab olishi kerak. Bu esa umumiy maydonni, uni tarkibi va yer toifalari bo'yicha taqsimlanishini to'g'ri aniqlash imkonini beradi.

Yer hisobini to'g'ri tashkil etishning muhim sharti – uni o'z vaqtida uzluksiz yuritishdir. Bu esa yer hisobi ma'lumotlarini shu davr talabi darajasida ushlab turishga imkon beradi. Bu prinsip yerning holatida va foydalanishda ro'y beradigan miqdoriy va sifat o'zgarishlarni sistemali tarzda

hisob qilib borishga zaruriyat tug‘diradi. Yerlarni hisob qilishda barcha o‘zgarishlar avvalambor naturada (joyda) qayd qilingandan so‘nggina aniqlash va qayd qilish zarur. Yer hisobi ma’lumotlarini faqatgina tekst xujjatlarda qayd qilibgina qolmasdan balki plan – xarita materiallarida ham yoritish zarur. Yer hisobi va yer hisoboti xujjatlari o‘rtasidagi mantiqiy jihatdan doimiy bog‘liqlik bo‘lishi kerak.

Yer hisobini o‘tkazishda imkoni boricha kamroq xarajat talab qiladigan ma’lumotlarni olish va qayta ishlash usullari va texnik vositalaridan foydalanish zarur. Kompyuterlarni va tasbirga olish hamda kuzatuvchining ancha takomillashgan usullarini qo‘llash mamlakat Yer fondi hisobini to‘g‘ri va o‘z vaqtida amalga oshirishga imkon beradi. Bu esa o‘z navbatida davlat Yer kadastrini muvaffaqiyatli yuritishga zamin bo‘ladi.

Yerlarni inventarizatsiya (yo‘qlama qilish) yer hisobining tarkibiy qismi sifatida mavjud bo‘lib, tezkor hisob tadbiridir. Bu ish joyidagi va kadastr xujjatlaridagi mavjud ma’lumotlarini bir – birlariga mos kelishini aniqlash maqsadida, zaruriyatga qarab o‘tkaziladi. Buning natijasida olingan kadastr ma’lumotlari birinchi navbatda hisob ma’lumotlariga tushiriladi. Yerlarning yo‘qlama ishlarini o‘tkazishda amaliyotda mavjud bo‘lgan plan – xarita va boshqa materiallardan foydalaniladi. Ma’lumotlarni joyga mos kelishini aniqlash yerlarning kuzatuvida amalga oshiriladi. Bunda maxsus ravishda tasbirga olish, qoidaga binoan o‘tkazilmaydi.

Yer hisobi ishlari o‘z vazifasiga, mazmuniga va xususiyatiga qarab Yer kadastrini singari asosiy (birlamchi) va joriy (kundalik) turlarga bo‘linadi. Bu ikkala hisob turlari o‘zaro bog‘liqdir, hamda yagona yer hisobi jarayonining ma’lum bosqichlarini namoyon qiladi.

Asosiy hisobning vazifalari quyidagilar:

- *hisob qilinadigan hudud uchun barcha mavjud plan – xarita materiallarini olish, tizimga solish va taxlil qilish;*
- *zarur bo‘lgan birlamchi ma’lumotlar va plan – xarita materiallarini olish maqsadida tasbirga olish hamda kuzatuv bo‘yicha dala qidiruv ishlarini o‘tkazish;*
- *hisob qilinadigan barcha yerlar o‘lchamlarini, sifat holatini, taqsimlanishi va foydalanish holatini aniqlash;*
- *maxsus yer hisobi planlarini tayyorlash va yer hisobi tekst xujjatlariga birlamchi yozuvlarni tushirish;*
- *Yer fondi tarkibini yer toifalari, yer egaliklari, yerdan foydalanishlar, yer turlari bo‘yicha aniqlash va ma’muriy birliklar (tuman, viloyat, respublika) bo‘yicha sifat jihatdan tavsiflash.*

Birlamchi hisobni o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar miqyosini umumiy xolatda baholash uchun misol tariqasida quyidagi sonlarga murojaat qilamiz: Respublikamiz Yer fondi (44457,9 ming ga) 1 respublika, 12 viloyat, 165 ma’muriy tuman, 40 dan ortiq mamlakat, viloyat ahamiyatidagi

shaxarlar bo'yicha hisobga olinadi va tavsiflanadi. Yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar soni hozirgi kunga kelib 41400 dan, jumladan, qishloq xo'jaligi korxonalari 15200 dan oshadi. Qishloq xo'jalik yerlari, ularning turlari va kichik turlari bo'yicha, ya'ni, guruxlar, sinflar, mexanik tarkibi bo'yicha tavsifi beriladi, barcha qishloq xo'jalik yerlarini baholash amalga oshiriladi.

Birlamchi hisob tasbirga olish va kuzatuv, planlar tuzish, maydonlarni hisoblash bilan bog'liq. Hisob qilinayotgan yerlarning miqdori va sifati to'g'risida to'la va xar tomonlama ma'lumotlar olish uchun yuqori malakali mutaxassislar tomonidan o'tkaziladi. U quyidagi ish bosqichlarni o'z ichiga oladi: tayyorgarlik, dala, hisob natijalarini rasmiylashtirish.

Tayyorgarlik ishlari jarayonida hisob qilinadigan hududdagi barcha yerlarning miqdori va sifati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan barcha mavjud materiallar va xujjatlar to'planadi. To'plangan materiallar o'z mohiyatiga qarab guruxlanadi, yer hisobi uchun yaroqligi nuqtai nazaridan taxlil qilinadi va baholanadi. Plan – xarita materiallarini, xo'jaliklararo va ichki xo'jalik yer tuzish loyixalari, ma'lumotlari, yer egaligi (yerdan foydalanish)ni ro'yxat qilish xujjatlari to'planadi va o'rganiladi. Shundan so'ng olinadigan materiallarning sifati va aniqligiga qarab hisob uchun ulardan foydalanish imkoniyatlari to'grisidagi masala xal qilinadi. Agarda materiallar eskirgan bo'lsa, joydagi xolatni yoritmasa, bunday xolatda plan – xaritalarni taxrir qilish yoki yangidan tasbirga olish va kuzatuv ishlari bo'yicha ishlar belgilanadi, ya'ni yangi bosqich ishlariga dastur aniqlanadi.

Dala-qidiruv ishlari asosan naturada, ya'ni joyda zaruriy yer hisobi ma'lumotlarini belgilash bo'yicha maxsus ishlarni o'z ichiga oladi. Bularga: tasbirga olish, kuzatuv, mavjud plan – xarita materiallarni taxrir qilish kiradi.

Dala ishlarini o'tkazgandan so'ng maxsus tadbirlar – tuproq analizi, yer hisobi ma'lumotlarini rasmiylashtirish, maydonlarni o'lchash va bog'lash, maxsus hisob – plan hujjatlarini tuzish amalga oshiriladi. Shunday tarzda olingan ma'lumotlar belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Shundan so'nggina ular birlamchi ma'lumotlar sifatida qabul qilinadi va tekst xujjatlariga yoziladi.

Birlamchi hisobni o'tkazish paytida aniqlangan va qayd qilingan ma'lumotlar vaqt o'tishi bilan haqiqiy holatga mos kelmay qoladi. Bu hol shu bilan tushuntiriladiki, yerlardan xo'jalik faoliyati jarayonida foydalanish natijasida ular tarkibida va taqsimlanishda ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi. Masalan, oxirgi yillarda davlat va jamoat maqsadlari uchun xar yili necha o'n ming gektar yer ajratiladi. Yer maydonlarida turli xil agrotexnik va meliorativ tadbirlarning muvaffaqiyatli olib borilishi natijasida yer turlarining sifat holati o'zgaradi. Xatto tomorqa yerlarida ham katta aniqliklar o'tkazilishi talab qilinadi. Shuning uchun ham yer kadastr hujjatlariga tushirilgan boshlangich ma'lumotlar eskiradi, natijada ularni sistemali tarzda

yangilab turish zarur bo‘ladi. Bu esa joriy hisob asosida amalga oshiriladi.

Joriy hisobning vazifasiga quyidagilar kiradi: birinchidan, yerlarning miqdori, sifati va taqsimlanishida yuz beradigan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniqlash va qayd qilish va ikkinchidan, birlamchi hisobda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash hamda aniqliklar kiritishdir.

Xo‘jaliklarda qonuniy o‘zgarishlar qayd qilinadi. Shuning uchun joriy hisobda faqatgina haqiqiy yuz bergan o‘zgarishlarni aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, shu bilan birga, ushbu o‘zgarishlarning qonuniyligini ham aniqlash zarur. Joriy hisob ishlari mazmunining farqi shundan iboratki, uni o‘tkazishda asosiy hisob materiallaridan foydalaniladi va faqatgina yerning holati hamda foydalanishdagi o‘zgarishlargina o‘lchanadi. Bunda qaytadan tasbirga olish ishlari bajarilmaydi va plan – xarita materiallari tayyorlanmaydi. Shunday qilib, joriy hisob birlamchi hisobdan ish xajmi va xarakteri bo‘yicha farq qiladi. O‘z xarakteri bo‘yicha yuz beradigan o‘zgarishlar quyidagi turlarda bo‘lishi mumkin: yer turlarining transformatsiyasi (bir turdan ikkinchisiga o‘tishi) natijasida yer turlarining maydonlarida; tuproqlarning sifat xolatlarida; yer ajratib olish **va yer ajratib** berish natijasida yer egaliklari (yerdan foydalanishlar) va boshqa hisob birliklari o‘lchamlarida; yer egaliklari (yer foydalanishlar) alohida toifalari yer maydonlarida; asosiy yer toifalari maydonlarida; ma’muriy birliklar hududining maydonlarida.

Asosiy va joriy hisoblar o‘rtasida aloqa mavjud. Birinchisi ikkinchisini o‘tkazishga zamin yaratadi, uning ta’sir dog‘irasini aniqlaydi; ikkinchisi esa birinchining ma’lumotlarini talab darajasida tutib turadi. Birlamchi va joriy hisoblarda miqdor ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda sifat ko‘rsatkichlar ham yoritiladi.

Yer hisobini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda tasbirga olish katta ahamiyat kasb etadi. Faqat tasbirga olish va shu asosda olingan xaritalardan foydalanish asosida mamlakat Yer fondini mumkin qadar to‘g‘ri hisob qilishga imkon beradi. Tasbirga olish materiallari yer egaliklari (yerdan foydalanishlar) maydonlari, yer turlarining tarkibi to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlar olish imkonini beradi. Bu ma’lumotlar yerlarni sifatini hisob qilish uchun zarurdir.

Tasbirga olish asosan yer ustida va ayerofototasbirga olishga bo‘linadi. Hozirgi paytda ayerofototasbirga olish yerlarni davlat hisobida tasbirga olishning asosiy turidir. U mamlakat Yer fondini, jumladan, har bir yer egaligi (yerdan foydalanish) yerlarning holati va foydalanish o‘lchamlari to‘g‘risidagi tez va nisbatan arzon zaruriy ma’lumotlar olishga imkon beradi. Uning ma’lumotlari va yerdan foydalanishni hisobga olish uchun zarur bo‘lgan joyning elementlari yer ustida tasbirga olishga nisbatan ko‘proq yoritiladi. Masalan, ayerofototasbir materiallarida faqatgina yer turlarining konturlarigina emas, balki turli xildagi ekin maydonlarning chegaralari, eroziyaning rivojlanish darajasi va boshqalar ham qayd qilinadi.

Ayerofototasbirlar, ayniqsa kichik-kichik yer uchastkalariga ega bo'lgan tomorqa yerlarini hisob qilishda juda qimmatdir. Ushbu materiallar asosida yer hisobini hozirgi davr talabi darajasida ushlab turish mumkin. Keyingi yillarda yer hisobiga fazodan tasbirga olish materiallari ham kirib kelmokdagi, bu yaqin istiqbolda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlardan biriga aylanadi.

Hisob ma'lumotlarini olishning juda muhim usullaridan biri – bu kuzatuvdir. Davlat yer hisobida o'tkaziladigan kuzatuv ishining vazifasiga asosan yer turlarining haqiqiy holatini va foydalanishini aniqlash, shuningdek, ularni qishloq xo'jaligida imkon boricha jadal foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdir. Kuzatuvlar asosan ikki turga bo'linadi: maxsus va agroxo'jalik. Maxsus kuzatuvlarga tuproq, geobotanik va meliorativ kuzatuvlari kiradi. Agroxo'jalik kuzatuvida joyida har bir kontur va yer turining tashqi belgilari va holati bo'yicha uning sifati hamda kelgusida imkon boricha oqilona foydalanish yo'llari aniqlanadi.

Birlamchi ma'lumotlar olish va yerdan foydalanishni nazorat qilish uchun ekin maydonlari va tomorqa yerlarini o'lchov ishlari o'tkaziladi. O'lchov asosan yoppasiga va tanlangan turlarga bo'linadi. Yoppasiga o'lchovda – barcha maydonlar qamrab olinadi, tanlanganda esa – hududning bir qismigina o'lchanadi.

Savollar:

1. Yer egaligi va yerdan foydalanishni ro'yxat qilishning mazmuni va mohiyati?
2. Yer hisobini turlari va o'tkazish usullari?

### **4.3. Qishloq xo'jaligi amaliyotida yerlarni baholash bo'yicha ma'lumotlardan foydalanish**

Yerni har tomonlama yaxshilash, uning hosildorligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish qishloq xo'jaligi kelgusidagi rivojining muhim masalalaridan biridir. Qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirishni ko'paytirish yerdan to'g'ri va samarali foydalanish bilan bevosita bog'liqdir. U o'z navbatida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni ilmiy tizimini taqozo etadi.

Yerni unumdorligini va iqtisodiy samaradorligini har tomonlama oshirib borish qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini yuritishning ilmiy tizimi asoslari va yerdan yuqori mahsuldorlik bilan foydalanishidir.

Yerdan to'g'ri foydalanish, zamon va makonda har xil o'simlik turlarining ilmiy asoslangan ketma- ketligi, tuproqqa ekologik toza ishlov berish usullari, o'g'itlash, qulay agrotexnika muddatlaridan muayyan texnologik ketma - ketlikda foydalanish, o'simliklarni kasallik va

zararkunandalardan himoya qilish, tuproq eroziyasiga qarshi kurash kabi muayyan elementlar aniq yo‘l bilan boshqarishni talab qiladi. Yerdan muayyan foydalanuvchilar va hisob hujjatlari tuman miqyosida qayd qilinadi.

Yerlarni baholash uchun (kadastr) rayonlariga ajratish, Respublika, viloyat va tumanlarda shu joylarning tuproqlari, iqlimi, texnologiyasi va boshqa farqlari, shuningdek, xo‘jalikning ixtisoslashganligi hisobga olingan holda mamlakatning umumiy tabiiy qishloq xo‘jalik rayonlariga ajratish sxemasi bo‘yicha bajariladi. Umumiy tabiiy qishloq xo‘jalik rayonlariga ajratish sxemasiga mos ravishda O‘zbekiston Respublikasining kadastr rayonlarga ajratiladi.

Yerlarni baholash maqsadida tabiiy tekislik provinsiyalar va tog‘li viloyatlar mamlakatining umumiy rayonlashtirish sxemasiga asosan tabiiy okrug va yer baholash rayonlariga ajratiladi.

Tabiiy okruglar asosan agroiklim, geomorfologiyasi va tuproq meliorativ belgilari o‘xshash bo‘lgani uchun ajratiladilar. Tekislik provinsiyasi dog‘irasida okruglarning xarakterli belgilari shulardan iboratki, qishloq xo‘jalik yer turlarining konturlari ma‘lum miqdorini belgilovchi va yerning boshqa tabiiy texnologiya xususiyatlarini ko‘rsatuvchi geomorfologik sharoitlari bir xilligidir.

Yerni baholash, kadastr rayonlari, viloyatlar va respublika tarixida tabiiy okruglarning bir qismini tashkil qiladi.

O‘zbekistonda yer tuzish loyiha ilmgohining Yer kadastr filiali tomonidan o‘tkazildi.

Natijada dasht mintaqalarda va shunday tuproqlardan iborat mintaqada tuproqning mexanik tarkibiga turlicha baho berish zarurligi va yengil qumoq tuproqlarda bo‘z tuproqli tuproqlardagi o‘rtacha qumoq tuproqli maydonlarga nisbatan yuqori hosil etishtirilayotganligi aniqlandi.

Unumdorlik bo‘yicha baholash tartibini takomillashtirish, dala sharoitida o‘tkazilgan va vegetatsion tajribalar natijasida olingan ma‘lumotlarni umumlashtirish asosida ayrim pasaytirish koeffitsiyentlariga o‘zgartirishlar kiritish zarur, natijada litologiya bilan tuproq ona jinslar genezisi yanada uzviyroq bog‘lanadi.

Unumdorlik bo‘yicha baholash - agrotexnika va dehqonchilikni intensivlashning o‘rtacha darajasida tuproq sifatiga hamda unumdorlik xususiyatlariga solishtirma baho berish, demakdir. Bu ish tuproqning ham tabiiy, ham madaniylashtirish natijasida vujudga kelgan xususiyatlari hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorlik darajasi, hosil olish uchun zarur bo‘lgan agrotexnik va meliorativ tadbirlar majmuining xususiyati hamda tarkibi tuproqning o‘ziga xos bo‘lib, shu tomonlarga bevosita bog‘liqdir.

Unumdorlik bo‘yicha baholash muayyan erdagi qishloq xo‘jaligi ekinlarining talablariga hisobga olingan holda o‘tkaziladi. O‘zbekistonning

sugʻoriladigan yerlari sharoitida gʻoʻzaning talablariga hisobga olingani eʼtiborda tutiladi. Fazaning talablari hisobga olingan holda aniqlangan unumdorlik koʻrsatkichlari (bonitetlar) paxta majmuiga kiruvchi boshqa hamma ekinlar (sholi, kanop va koʻp yillik mevali daraxtlardan tashqari) ekiladigan, sugʻoriladigan yerlarni baholash uchun ham toʻgʻri keladi.

Yerlarni baholashda tuproqning asosiy xususiyatlari va tabiiy sharoitlari: genetik alomatlari, sugʻorila boshlangan davrning uzoq - yaqinligi, madaniylashtirilgani, agroiqlim resurslari bilan taʼminlanganligi, mexanik tarkibi, tuproq hosil qiladigan ekinlar genezisi, tuproq qatlamini sizot suvlari oʻtkazuvchanligi, shoʻrlanish darajasi, eroziyaga uchraganligi, sertoshligi, gipslashgani va hokazolar hisobga olinadi.

Genetik alomatlar, sugʻorila boshlanganligining uzoqligi va madaniylashtirilgani - barcha sugʻoriladigan yerlarni baholashda umumiy mezon boʻlib hisoblanadi.

Oʻzbekistonning sugʻoriladigan hududlarida yer osti suvining taʼsiri va chuqurligi hisobga olgan holda 9 xil gidromodul rayonlarga ajratiladi (9-jadval). Gidromodul rayon deb atalishiga sabab shuki, tuproqning mexanik tarkibi va yer osti suvining chuqurligiga qarab tuproqlar har xil hajmda suv talab qiladi yoki gidromodul bu bir gektar yerni sugʻorish uchun ketadigan suv miqdori (l/sek-da) demakdir.

*9-jadval*

Oʻzbekistonning sugʻoriladigan mintaqalari uchun gidromodul rayon tiplari

Gidromodul rayon	Tuproqlar va tuproq osti gruntlari	Yer osti suvining chuqurligi,m
Yer osti suvi taʼsir qilmaydigan avtomorf tuproqlar		
I	Chuqur qumli va qumli-toshli yotqiziqdagi kam qatlamli qumoq tuproqlar	3
II	Chuqur qumli va qumli-toshli yotqiziqdagi oʻrta qatlamli qumoq tuproqlar	
III	Kuchli qatlamli qumoqli va loyli	
Yer osti suvi kuchsiz taʼsir qilganda paydo boʻlgan tuproqlar. Oʻtkinchi qator		
IV	Yengil qumoqli va qumoqli	2 – 3
V	Qumoqli va loyli	
Yer osti suvi oʻrtacha taʼsir qilganda paydo boʻlgan. gidromorf tuproqlar		

VI	Yengil qumoqli va qumoqli, qumoqli va loyli	1 – 2
Yer osti suvi kuchli ta'sir qilganda paydo bo'luvchi. botqoq-o'tloqi tuproqlar.		
VIII	Yengil qumoqli va qumoqli	0,5 – 1
IX	qumoqli va loyli	

Keltirilgan gidromodul rayon ma'lumotlari asosida xaritada tuproq - iqlimiy hududlashtirish va gemorfologik sharoitlari o'z aksini topgan va o'sha ma'lumotlarga tayanib sug'orish me'yorlari belgilangan.

Tuproq xaritasida ko'rsatilgan har bir tuproq ayirmasi o'zining xususiyatlariga qarab u yoki bu gidromodul rayonga tegishli bo'ladi.

Sug'oriladigan zonalardagi shag'alli tuproqlar asosan tog' oldi tekislik va vodiylarda uchraydi. O'zbekistonda bunday joylarga Malikcho'l, Jizzax, Zarafshon, va Qashqadaryo vohalari hamda Farg'ona vodiylari kiradi.

Shag'alli tuproqlar o'zini kam gumusliligi bilan, strukturasi bilan, o'simlik ozuqa elementlarini kamligi, Shuningdek namlikni kam bo'lishi va uni uzoq ushlab turolmasligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga ular yuqori suv o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega. Undan tashqari shag'alli tuproq nisbatan tez qurib qoladi.

Bularning hammasi shag'alli tuproqni kam unumdor bo'lishiga olib keladi. (10 - jadval)

*10-jadval*

Madaniy o'simliklar uchun tuproqni salbiy ta'sirini namoyon bo'lishi darajasiga berilgan bonitirovka koeffitsiyentlari

Xususiyatlarni namoyon bulish darajasi	Sho'r-lanish	Eroziya-lanish	Shudgor qavat skeleti		
			Tosh	Shag'al tosh	Shag'al, o'simlik ildizi
Namoyon bo'lmagan	1,00	1,00	100	100	100
Kuchsiz	0,85	0,95	0,90	0,90	0,95
O'rtacha	0,60	0,80	0,75	0,80	0,85
Kuchli	0,40	0,70	0,60	0,65	0,70
Juda kuchli	0,30	0,50	0,40	0,45	0,50
Yuvilib to'plangan	--	0,90	-	-	-

Yerni xaydaladigan qavatidagi gumus miqdoriga va haydalgan qavat osti gorizontini zichlik strukturasi beriladigan bonitirovka koeffitsiyentlari,



qo'yidagilardan iborat.

Cho'l va yarimcho'l zonalaridagi sug'oriladigan yerlarni tarkibida gumuslar nisbati kam bo'lishiga qaramasdan, uni tuproq hosil bo'lishi jarayoniga va yerni unumdorligini oshishiga bo'lgan ta'siri yuqoridir. Gumusning elementar tuproq jarayonlariga, rejimiga, va tuproqni xususiyatlarini shakllanishiga bo'lgan ta'siri hammaga ma'lum. Gumuslar yuqori shimuvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, o'zida katta miqdorda ozuqa modda va nam ushlab qoladi.

O'zbekistonda kam gumusli yerlarga mineral o'g'itlarni solinishi paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini hosildorligini sezilarli oshishiga olib keladi.

Keyingi 30-40 yil davrida Respublikada tuproqlarning unumdorligini pasayib ketishini va qishloq xo'jalik o'simliklarini hosilini va sifatini pasayishi tuproqda gumus miqdori kamayishi bilan bog'lanmoqda. Har yili bir gektar paxta maydonidan 300-400 kg, atrofida gumus kamayishi aniqlangan. Shuning uchun g'o'za monokulturasida tuproqqa organik o'g'itlarni solmasligi sug'oriladigan yerlarni hosildorlikni asta sekin pasayib ketishiga olib keldi.

Tuproq donadorligi uning juda muhim agrofizik xususiyatidir. Shuni hisobiga hosildorlik oshirish tadbirlarida butun vegetatsion davrda tuproqni optimal holatini hosil qilish va ushlab turish masalalariga katta ahamiyat beriladi. Tuproq zichligini roli, ya'ni uni unumdorlik xususiyatini belgilab beruvchi faktor sifatida sug'oriladigan yerlarda yanada ham balandroq bo'ladi. Ma'lumki sug'oriladigan yerlarda ayniqsa paxtachilik va sabzavotchilikda har bir sug'orishdan keyin tuproqni yuqori qavatini ishlov berish zarurati mavjudligidir. Paxtachilikda vegetatsiya davrida 3-5 marta tuproqqa ishlov beriladi. Agar bunga xaydashni, molalashni, boronalashni, paxtani va ko'sakni mashinada terishni, defolyasiya va o'simliklarni yadoximikatlari bilan ishlov berishni mashinalar orqali amalga oshirilsa, u holda traktor bir mavsumda har xil agregatlar bilan bir dala bo'ylab 8-10 marta, sabzavotchilikda esa undan ham ko'p o'tadi. A.Q. Qashqarov va A.Jo'rayevlarning tekshirishlari bo'yicha traktorlarni namlangan daladan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqda bir marta o'tganda dastlabki holatdan, ya'ni  $1,34 \text{ g/sm}^3$  dan  $1,52-1,60 \text{ g/sm}^3$  gacha yuqori qavati zichlashadi, undan tashqari tuproqni vegetatsion sug'orish va ayniqsa sho'r yuvishlar zichlovchi ta'sir ko'rsatadi. Bular tuproq hashoratlari yullari va yer kovlovchi hayvonlarning inini buzilishiga tuproq agregatlik holatini yo'qotishiga olib keladi. Bularni hammasi suv massasi bosimi bilan birgalikda tuproq grunt qavatni cho'kishi va zichlashuviga olib keladi. Ayniqsa shudgor osti kuchli zichlashadi, chunki unga tuproqni shudgorlash va ishlov berishni yumshatish ta'siri unga ta'luqli bo'lmaydi. Har yili bir hil chuqurlikda shudgorlash juda katta maydonlarda "plug osti" qatlam hosil bo'lishiga olib keldi. Hajmiy

massasi  $1,62 \text{ g/sm}^3$  dan yuqori bo‘lgan juda zich qavatlar ko‘pincha mexanik tarkibi og‘ir bo‘lgan tuproqlarda hosil bo‘ladi. “Plug osti” qatlam ko‘pincha suvni pastga o‘tkazmaydi va sug‘orish vaqtida suv to‘planadi hamda salbiy sharoit yuzaga keladi. Bu esa tuproqning suv, havo, issiqlik, oziqqa rejmlariga ta‘sir qiladi. Bundan tashqari bunday zich qatlamlar madaniy o‘simliklarni ildizlari uchun o‘ta olmaydigan to‘siq hisoblanadi. N.A. Kachinskiyni aytishicha, o‘simlik-larni ildiz tolalari diametri 0,01 mm. bo‘lgan g‘ovaklarga kira olmaydi. Diametri 0,03 mm dan kichik bo‘lgan g‘ovaklarga mikroorganizmlar kira olmaydi. Tuproq qavatida ildizni chegaralanib tarqalishi o‘simliklarni oziqlanish maydonini kamayishiga olib keladi. Bu esa ularni rivojlanishiga salbiy ta‘sir etadi. Natijada hosildorlik kamayadi. Shuning uchun sug‘oriladigan yerlarda tuproqni optimal struktura zichligiga katta ahamiyat beriladi.

Bu ma‘noda tuproqni 45-60 sm.gacha chuqur haydashlar yoki 60-100 sm.gacha yumshatishlar yaxshi effekt berib, ular suv va xavo rejimini yaxshilanishiga biologik aktivlikni kuchayishiga, ozuqa elementlarini mobilligiga olib keladi. Tuproqni zichligi va gumus miqdori bonitirovka koeffitsiyenti 11,12- jadvallarda keltirilgan.

*11-jadval*

Shudgor qilingan qavatini gumus tutishi bo‘yicha  
bonitirovka koeffitsiyenti

Gumus miqdori, % da	Bonitirovka koeffitsiyenti
1.00 gacha	0,70
1,1-2,0	0,80
2,1-3,0	0,90
3,0 dan ortik	1,00

Tuproq bonitirovkasi bo‘yicha amaliy ishlari. Xo‘jalik va boshqa yerdan foydalanuvchilarni tuproqlarini bonitirovka qilish uchun tuproq kartalari asos bo‘lib xizmat qiladi. Baholash ob‘ekti ulardan ajratilgan har xil tuproqdir.

Amaliy bonitirovka quyidagicha amalga oshiriladi. Dastlab tuproq kartasidagi eksplikatsiyadan tartib bo‘yicha genetik guruhlarni va tuproq xillarini mexanik tarkibini bonitetini dastlabki ballari aniqlanadi. Boshqa xususiyatlarni ko‘rsatkichi bonitirovka koeffitsiyenti jadvallarida keltirilgan. Har bir tuproq xilini yakuniy bonitet bali dastlabki balni shkala bo‘yicha bonitirovka koeffitsiyentiga ketma-ket ko‘paytirish orqali amalga oshiriladi.

*12-jadval*

Shudgor osti qavatini zichligiga berilgan bonitirovka koeffitsiyenti

Zichlanish darajasi	Bonitirovka koeffitsiyenti	
	Avtomorfli	Yarimgidromorf va gidromorfli
Zichlashmagan	1,00	1,00
Kuchsiz	0,90	0,85
O'rtacha	0,80	0,70
Kuchli	0,70	0,50
Juda kuchli	0,60	0,40

Yerlarni baholash ishlari malakasi shuni ko'rsatadiki, tuproqni bonitirovka qilish har bir alohida holatda chegaralangan miqdordagi bonitirovka koeffitsiyentlarini (3 tadan oshmasligi kerak) ishlatish maqsadga muvofiqdir. Ko'p miqdorda koeffitsiyentlarni ishlatish, ayniqsa tenglanish va ifodalanish xususiyatlari noqonuniy ravishda tuproqni baholash ballarini pasaytiradi. Korrelyasiya va determinatsiya koeffitsiyenti o'lchamlari bo'yicha quyidagicha belgilandi:

- *tog' oldi va tog' osti tekisliklarda tuproq hosildorligini to'g'ri baholash uchun yuvilib ketish yoki yuvilib to'planishi koeffitsiyenti yetarlidir. Och tusli bo'z tuproqlarda bularga sho'rlanish darajasi koeffitsiyenti qo'shiladi;*
- *bo'z tuproq mintaqasidagi gidromorf tuproqlarni baholash uchun gumus miqdorini, gumusli qavatini qalinligini yoki shag'al qatlamini joylanish chuquri koeffitsiyenti etadi. Shag'al qavatini tuproq yuzasidan 70 sm chuqurlikda joylashsa, u holda tuproqlarni baholashda fakat gumusli qatlam qalinligi koeffitsiyenti qo'llaniladi.*
- *avtomorf sug'oriladigan cho'l zonalarini bonitirovka qilishda gumusli qatlam qalinligi va gumus miqdori koeffitsiyenti qo'llaniladi.*
- *cho'l zonalarini sug'oriladigan gidromorf tuproqlarini bonitirovkasida chirindi miqdorini, sho'rlanish darajasini shag'al gorizontini yotish chuqurligiga yoki chirindi qavat quvvati koeffitsiyentiga qo'llash maqsadga muvofiqdir.*

Yuqorida regional bonitirovka koeffitsiyentlari keltirilgan edi. Shu bilan birgalikda har xil tuproq zonalarida tarqalgan tuproq xususiyatlariga bog'liq ravishda qo'shimcha koeffitsiyentlar-skeletlanganligiga, gipslashganligiga, zichligiga jalb qilinishi mumkin bo'lib, ular respublika hududlarida keng tarqalgan va zonal va regional chegaralanishlar yo'qdir.

Tuproqlarni bonitirovkasidagi prinsipial holat qo'yidagilardan iborat: shkala bo'yicha ballar va qo'llanilayotgan bonitirovka koeffitsiyentlari birgalikda baholanayotgan tuproqni hamma asosiy agronomik xususiyatlarini qamrab olishi lozimdir.

Tuproq bonitirovkasi ma'lumotlari bo'yicha g'o'za va boshqa qishloq xo'jaligi o'simliklarni hosildorligini aniqlash. Berilgan tuproqni hosildorlik

darajasiga mos ravishda qaysidir qishloq xo‘jaligi o‘simligini hosildorligini aniqlash uchun uning bonitet balini hosil bahosidan 1 ball qiymatiga ko‘paytirish kerak. Tuproq bonitetini hosildorlik narxini 1 balini respublikadagi qishloq xo‘jaligi o‘simligini o‘rtacha maksimal xosilini 100 ballga bo‘lish orqali hisoblanadi.

*13-jadval*

O‘simlik	Respublikaning o‘rtacha maksimal hosili s/ga	Tuproq bonitetini 1 ballini hosildorlik bahosi
G‘o‘za	40	0,40
Bug‘doy	60	0,60
Suli	75	0,75
2-3 yillik beda	200	2,00
Makkajo‘xori (donga)	75	0,75

U holda g‘o‘za hosili 70 balli tuproqda ko‘yidagicha bo‘ladi.  $70 \times 0,40 = 28$  s/ga Bug‘doy hosili 80 balli tuproqda  $80 \times 0,60 = 48$  s/ga teng bo‘ladi.

Yer bilan Shug‘ullanuvchilarni har xil guruhlar brigada, fermer xo‘jaligi va hokozolarni hosil rejasini aniqlash uchun, agarda ular har xil tuproq ayrimlarida xili ustida joylashgan bo‘lsa u holda tuproq bonitetini o‘rtacha balli quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Burt (Tup.urt.bonit)} = \frac{B_1 * T_1 + B_2 * T_2 + B_3 * T_3 + \dots + B_n * P_n}{P_1 + P_2 + P_3 + \dots + P_n}$$

$B_1, B_2, B_3, \dots, B_n$ - ishlab chiqaruvchi bo‘linmalar tarkibiga kiruvchi tuproq xili boniteti ballari

T-tuproq o‘rtacha boniteti

$P_1, P_2, P_3, \dots, P_n$ -tuproq ayirmasiga tegishli bo‘lgan maydon

Keyin tuproq bonitetini o‘rtacha balini hosildorlik bahosini 1 balga ko‘paytiriladi va Shu yo‘l bilan hosil rejasini (yoki tuproqni unumdorlik ko‘rsatkichiga mos xosil) aniqlanadi.

Tuproq bonitirovka xaritasida eksplikatsiya bilan bir qatorda tuproqni unumdorligi bo‘yicha tasnifi jadvali keltirilgan bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq boshqarmasi tomonidan qabul qilingan qonun bo‘yicha, tuproqlar unumdorligi darajasi 10 ta sinfga gruppalashgan bo‘lishi zarur.(14-jadval) Bu kartada tuproqni xili emas, balki uning unumdorlik sinfi qo‘yidagi ranglarda bo‘yaladi.

*X sinf- to‘q yashil*

*IX sinf- yashil*

VIII sinf-to‘q sariq  
 VII sinf – sariq  
 VI sinf - qizg‘ish  
 V sinf –sarg‘ish  
 IV sinf to‘q pushti  
 III sinf-pushti  
 II sinf to‘q kulrang  
 I sinf kulrang

(Rang shkalasi bo‘yicha boshqa takliflar ham bo‘lishi mumkin)

Bu jadval asosida va yer sol ta‘rifiga ega bo‘lgan xo‘jaliklar uzlari butun xo‘jalikka yoki alohida brigada yoki uchastkalarga soliq hajmini o‘zlari hisoblab chiqishlari mumkin.

14-jadval

Tuproqni unumdorligi bo‘yicha tasnifi

Sinflar		Bonitet ballari	Tuproq xiliga kiruvchi	Q\X sug‘oriladigan yer maydoni
Indeks	Nomlari			
X	Eng yaxshi	91-100		
IX	Juda yaxshi	81-90		
VIII	Yaxshi	71-80		
VII	O‘rtadan yukori	61-70		
VI	O‘rtacha	51-60		
V	O‘rtadan past	41-50		
IV	Vositali	31-40		
III	Yomon			
II	Juda yomon			
I	Q\X uchun yaroqsiz			

Savollar:

1. Yerlarni baholash turlari necha xil bo‘ladi?
2. Tuproq bonitirovka xaritasi?

### 4.3. Sug‘oriladigan yerlarni unumdorligi bo‘yicha baholash

Sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida hamma tuproq turlari dinamik va sug‘oriladigan yerni ko‘pgina xususiyatlari turg‘un bo‘lmaydi nisbatan qisqa vaqt oralig‘ida uning xususiyatlari o‘zgaradi. Shuning uchun tuproqni baholash mezonlarini tanlash paytida ko‘proq konservativ baho berish zarur va shu bilan tuproqni qishloq xo‘jaligidagi hosildorlik xususiyatiga qaraladi. Sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida bunday xususiyatlarga mexanik tarkibi kiradi. Mexanik tarkib tuproqni o‘zak xususiyatiga kiradi va bu xususiyat jins o‘tadi. Shu bilan birga bu xususiyat ko‘p hollarda tuproqni unumdorligini aniqlaydi.

Tuproqni unumdorlik tavsifida mexanik tarkib muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Ko'plab tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, mexanik tarkibi bo'yicha og'ir tuproqlar nisbatan ko'p oziqa elementlarini, suvni va eng asosiysi yuqori darajada singdirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga bunday tuproqlarni suv havo o'tkazuvchanligi past bo'ladi. Yengil tuproqlardan aksincha o'zini tarkibida kam miqdordagi oziqa elementlari, suv tutishi past, shuningdek yuqori filtrlash xususiyati va aeratsiyalanish bilan xarakterlanadi. Sug'oriladigan yer bonitirovka shkalasi genetik guruh va mexanik tarkibi bo'yicha tuzilgan.

Tuproq xossalarini yomonlashtiradigan va uning unumdorligini pasaytiradigan omillarga shag'alni joylashtirish chuqurligi, qum qatlami, gil gorizonti, gips gorizonti, shox va arziq qatlamlari kiradi.

O'zbekistonda olimlar takidlashlaricha, janubda ya'ni Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida faqat katta miqdordagi effektiv temperatura hisobiga respublika shimolida joylashgan Qoraqalpogistonga nisbatan paxta hosilini 40% ko'p olish mumkin. Shuning uchun yaxshi yer deganda tekis joyda joylashgan, yetarli darajada namlik va issiqlik bilan ta'minlangan yuqori hosildor tuproqlar tushuniladi.

Yer tushunchasini tuproq tushunchasidan ajratish uchun yerga nisbatan ishlab chiqarish xususiyatini so'zini ishlatdi. Bu tuproqqa nisbatan ishlatiladigan unumdorlik tushunchasidan farqlanadi.

Respublikani tog' oldi tekisliklari murakkab rel'efga bo'linganligi sababli tuproqni xususiyatlariga tuproqni sifatiga uni qaysi joyda joylashganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega: tepalikdami, jarlikdami, qiyalikdami yerni sifatiga yon bag'irliklarni ekspozitsiyasi va nishabliklari katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tog' osti tekisliklarida joylashgan katta masshtabli tuproq xaritalari rel'ef elementlariga, yon bag'irlikning ekspozitsiyasi va nishabliklariga ko'ra tuproq xillari ajratilishi kerakdir.

Hudud agroiklimiga effektiv harorat yig'indisi miqdori bo'yicha bonitirovka koeffitsiyenti turlichadir. O'zbekistonni sug'oriladigan zonalari yerlarini qiyosiy baholashni 1-turi effektiv temperatura sifati bo'yicha agroiklimni rayonlashtirish to'g'riligini ko'rsatdi. Lekin ishlash jarayonida viloyatlarni agroiklim sharoiti bo'yicha kuchsiz differensiyalashganligi bo'yicha tanbeh tushdi. Shunga ko'ra Respublikani sug'oriladigan yerlarini agroiklimini ko'proq bo'lib baholashga va shunga yarasha territoriyani agroekologik sharoitini, iqlim koeffitsiyentini bonitirovkasini yaratish zaruriyati tug'ildi.

*15-jadval*

Sug'oriladigan yerlar bonitirovkasining bazali shkalasi

Tuproqni genetik gruppalari (tipni, namlash qatorini nomlari)	Mexanik tarkibi					
	Qumli	Qumoq	Yengil qumoq	O'rtta qumoq	Og'ir qumoq	Sozli
1	2	3	4	5	6	7
Buz tuproq mintakasi						
1.1 Irrigatsion avtomorf Sug'oriladigan to'qt usli bo'z proqlar	-	-	90	100	90	80
Sug'oriladigan tipik bo'ztuproq	-	-	90	100	90	80
Sug'oriladigan och tusli bo'ztuproq	-	70	95	100	90	75
Voxa bo'ztuprogi	-	-	90	100	90	-
1.2 O'tloq-bo'ztuproq va bo'ztuproq-o'tloq Sug'oriladigan tuproqlar	-	70	90	100	80	70
1.3 Irrigatsion gidromorf Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar	-	80	95	100	80	70
Botqoq va botqoq o'tloqi tuproqlar	-	90	100	95	75	65
Sug'oriladigan botqoq tuproqlar	-	75	80	75	65	60
O'tloq voxa tuproqlari	-	75	95	100	85	60
Cho'l zonasi						
II.1 Irrigatsion avtomorf sug'oriladigan surqo'ngir tuproqlar	-	70	95	100	90	75
Sug'oriladigan taqirsimon tuproqlar	-	75	95	100	90	70
Sug'oriladigan taqir tuproqlar	-	80	100	90	80	65
Sug'oriladigan cho'l-qumlik tuproqlar	60	-	-	-	-	-
Cho'l voxasi tuproqlari	60	80	95	100	90	60
II.2. O'tuvchi						
Sug'oriladigan sur qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlar	60	70	85	100	90	70
Sug'oriladigan taqirli-o'tloqi tuproqlar	-	-	80	100	85	65
Sug'oriladigan cho'l o'tloq va o'tloq cho'l tuproqlar	60	80	100	85	75	65
II.3. Irrigatsion gidromorf sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar	70	85	100	90	80	60
Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi va o'tloqi-botqoq tuproqlar	70	85	80	85	70	55
Sug'oriladigan botqoqli tuproqlar	60	75	100	75	60	50
Botqoqli voxa tuproqlari	80	90		95	80	70

16-jadval

Dala yuzasi nishabligi va qiyaliklari ekspozitsiyasiga

berilgan bonitirovka ko'effitsiyentlari

Yon bag'ir ekspozitsiyasi	Koeffitsiyentlar	Maydon yuzasi nishabligi (grad)	Koeffitsiyentlar
Janubiy	1,00	1 gacha	1,00
Sharqiy	0,95	1-3	0,90
G'arbiy	0,90	3-5	0,80
Shimoliy	0,85	5-7	0,70
		7 dan ortiq	0,60

Paxtachilikda sug'oriladigan yer sharoitida, tuproqdagi namlik etishmasligi sug'orish orqali qopladi, o'simliklarni biologik hosildorligini aniqlovchi asosiy faktor bo'lib vegetatsion davrdagi effektiv temperatura miqdori hisoblanadi. L.N.Babushkin ma'lumotiga ko'ra paxtani o'rta pishar naviga ekilgandan to hosilni to'liq etilgungacha 2400-2500<sup>0</sup>C issiqlik zarurdir. Bu o'rta pishar paxta navini vegetatsion davri uchun optimal kattalik hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, tuproqning xususiyatlaridan tashqari baholash kriteriyalari etib ko'pincha agroiqlim ko'rsatkichlari rel'ef, dala konturligi va boshqa ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Agar bunga qat'iy yondoshadigan bo'lsak noto'g'ri hisoblanadi. Shunga ko'ra tabiiy sharoitlar majmui baholanishiga yordam beradigan shunday tartibdagi uslublarni bonitirovka yoki qishloq xo'jalik ekinlarini ekologik sharoitlarda nisbiy baholash deyish mumkin. Agroiqlimni, tuproqni, rel'efni xususiy alohida baholash ekologik sharoitlardagi bonitirovkani tarkibiy qismi sifatida ko'rish mumkin.

Sug'oriladigan zonalarda toshli tuproqlar asosan tog oldi tekisliklarida va allyuvial vodiylarda uchraydi. Toshli tuproqlar gumus kamligi, nostrukturaligi, o'simlik oziqa elementlarini kamligi, namligini pastligi va yetarlicha namni ushlab qola olmasligi bilan xarakterlanadi. Bularni hammasi toshli tuproqni unumdorligini kamaytirib yuboradi.

Gidromorf tuproq unumdorligi yetarli darajada gil gorizontini joylashtirish chuqurligiga va gillashish darajasini namoyon bo'lishiga bog'lik. Hidromorf tuproq respublikada hamma sug'oriladigan dalalarni 50% ortig'ini tashkil qiladi.

17-jadval

Effektiv temperatura summasi bo'yicha agroiqlim hududining



### bonitirovka koeffitsiyenti

Effektiv temperatura summasi, gradus	Bonitirovka koeffitsiyenti
2050 dan kam	0,85
2051-2200	0,90
2201-2400	0,95
2401-2500	1,00
2501-2600	1,10
2601-2800	1,15
2801-3000	1,20
3000 dan yukori	1,25

Gil gorizontlar odatda strukturasiz, zichlashgan va og'ir mexanik tarkibga ega bo'ladi. Bu esa gidromorf tuproqni suv-fizik xususiyatini sezilarli ravishda yomonlashtiradi. Cho'l va yarim cho'l zonalarida gil hosil bo'lishi temir, alyuminiy va marganetslarni oksidli birikmalarini hosil bo'lishi bilan kuzatiladi, bu esa malum miqdorda g'oz va boshqa cug'oriladigan yer ekinlarini o'sishiga toksik tasir ko'rsatadi. Undan tashqari, gil gorizontlarida vodorod sulfid, metan, ammiak, karbonat angidirit gazlar ma'lum dozada oksidlangan mineral birikmalariga nisbatan ko'proq zaxarlidir. Masalan, 10% li vodorod sulfid tuproq havosi tarkibida bo'lsa, ko'plab madaniy o'simliklar uchun zararli ta'sir qiladi.

Gipsli tuproqlar tog' yon bag'irlari tekisliklarni cho'l zonalarida va bo'z tuproqli yerlarda keng tarqalgan. O'zbekistonning Farg'ona vodiysi, Jizzax, Mirzacho'l, Malik cho'l, Sherobod voxalarida va Ustyurtda gipsli tuproq hududlari joylashgan. Gipsli tuproqda madaniy o'simliklarni o'stirish tajribasi bu tuproqning kam hosildorligini ko'rsatadi. Chunki bu tuproqda ozuqa elementlarining kamligi, suv-fizik xususiyatlari yomon va sho'rlanganligi sabab bo'ladi. Gipsni tuproqning unumdorligidagi farqi asosan gipsli gorizontlarning joylashish chuqurligiga ularning quvvatiga va gipslanganlik darajasiga qarab aniqlanadi.

Gipslangan gorizontlar yomon filtrlovchi va kapillyar xususiyatlariga ega. Shunday qilib gips qatlamlarda kapillyar ko'tarilishini balandligi odatda 20-80 sm.ga teng. Grunt suvlarining xar xil gidroximik xarakteri bilan xarakterlanadi va usha joyda karbonat magniyli sho'rlanish yuzaga keladi. Grunt suvlarining magniy karbonat bilan yuqori darajada to'yinishini chuqurligi 0,5-1,5 metr chuqurlikdagi shoxli yoki arziqli gorizontini shakllantirishiga olib keladi. Bu zichlanish amalda uzidan suvni o'tkazmaydi va madaniy o'simliklarni ildizini o'sishga jiddiy to'sqinlik qiladi.

Shag'alli, gilli, gipsli, shoxli yoki arziqli gorizontlarining joylashish

chuqurligi va gumusli gorizontning qalinligi bo'yicha bonitirovka koeffitsiyenti 18-jadvalda keltirilgan

Tuproqning nomi uning paydo bo'lishi jarayonlarini o'z ichiga olib, qaysi tipga mansubligi ko'rsatadi. Tuproq tiplari tog' poyaslari va kenglik mintaqalari bo'yicha bo'lingan. Sahro mintaqasi tuproqlari sur tusli qo'ng'ir, sahro - qumli, taqirli, o'tloqli taqirlar, sho'rxoklar va yarim gidromorf (o'tloqi taqirli, sur tusli qo'ng'ir – o'tloqi va boshqalar).

18-jadval

Ildiz joylashadigan qalinlikni quvvatini chegaralovchi quvvat va gorizontlarni joylashish chuqurligini bonitirovka koeffitsiyenti

Qavat va gorizontlarni joylashish chuqurligi, m	shag'al	qumli qavat	gilli	gipsli	shoxli va arziqli qavat	gumusli
Bonitirovka koeffitsiyentlari						
0,30 gacha	0,60	0,65	0,45	0,50	0,50	0,65
0,31-0,50	0,70	0,75	0,50	0,70	0,60	0,75
0,51-0,70	0,80	0,85	0,65	0,80	0,75	0,85
0,71-1,00	0,90	0,95	0,85	0,90	0,90	0,95
1,00 dan ortiq	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00

*ESLATMA:* gips gorizontni kuchsiz darajasida bonitirovka koeffitsiyenti 20 % ga ortadi. (koef 1,2), o'rtacha darajasida esa-10% ga ortadi (koef. 1.1)

Tog' poyasi tuproqlari - bo'z tuproqlar (och tusli, tipik, to'q tusli) jigar rang, o'tloqi, sho'rxoklar va tiplar orasidagi o'tma tuproqlar (bo'z o'tloqi va boshqalar).

Tuproqlar nomi ularning madaniylashtirilish darajasi va sug'orilish davrini ham ko'rsatish mumkin: eskidan sug'oriladigan, yangidan sug'oriladigan, yangi o'zlashtirilgan qo'riq bo'z yerlar (ilgari sug'orilgan) va boshqalar.

Yangi o'zlashtirilgan tuproqlar qo'riq analoglaridan faqat haydov qatlamining borligi bilan farqlanadi.

Sug'oriladigan tuproqlar tabiiy tuproqlardan sezilarli farq qiladi. Lekin bu o'zgarishlar ko'pincha haydalma qatlamda sodir bo'ladi. Ularning profilida "plug osti" qatlami hali to'laligicha hosil bo'lmagan. Haydalma

qatlam ostidagi gorizontlar tabiiy tuproqlarga xos bo'lgan xususiyatlarni to'raligicha yo'qotmagan. Ammo, yangi hosil bo'lgan karbonat birikmalari bir qadar yuvilgan. haydalma qatlam bir xil, odatda kul rangli va uning ostidagi gorizontlar ona jinslarga xos rangga ega.

Eskidan sug'oriladigan yoki voha tuproqlari uzoq yillar davomida (40-50 yildan ortiq) sug'orilish natijasida profilda juda chuqur o'zgarishga uchragan bo'lib, gumus moddalari chuqur joylashgani kuzatiladi. Ko'p hollarda tuproqlardan gumusli qatlam ko'p yillar davomida sug'orilganligi sababli agrog'irrigatsiya keltirmalari chuqurligiga mos keladi. Bu keltirmalar potensial unumdorlik xususiyatiga ega. Eskidan sug'oriladigan tuproqlar boshqa sug'oriladigan tuproqlarga qaraganda potensial unumdorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Tuproqning mexanik tarkibi tuproqni tashkil qiluvchi zarrachalarni katta - kichikligi bilan harakterlanadi. Loyli zarrachalar diametri 0,01 mm dan kichik bo'ladi, qum zarrachalari diametri 0,01 mm dan yirik bo'ladi, changsimon zarrachalar 0,01 - 0,001 mm gacha va il zarrachalari 0,001 mm dan kichik bo'ladi. Tuproqning mexanik tarkibi bo'yicha tavsifi undagi loyli va qumli zarrachalarning foyiz miqdorida bir - biriga nisbatiga qarab aniqlanadi (19 jadval).

Tuproq xaritasiga yozilgan eksplikatsiyada mexanik tarkibi haydov qatlamida, (0-30 sm) ildiz oziqlanadigan qatlamida (30-100 sm) va to'shalgan jinslar qatlamiga (100-200 sm) ko'rsatiladi.

Tuproqning fizik xususiyati uning unumdorligini aniqlovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lib, uning zichligi, g'ovakligi, suv o'tkazuvchanligi, strukturasi (gumus va il bilan birgalikda) va boshqa ko'pgina ko'rsatkichlari ko'pincha mexanik tarkibga bog'liq bo'ladi.

*19-jadval*

Tuproqlarning mexanik tarkibi bo'yicha bo'linishi

Tuproqlarning mexanik tarkibiga ko'ra nomi	Fizik loy miqdori (< 0,01 mm)	Fizik qum miqdori (> 0,01 mm)
Qum	0-10	100-90
Qumloq	10-20	90-80
Yengil qumoq	20-30	80-70
O'rta qumoq	30-45	70-55
Og'ir qumoq	45-60	55-40
Yengil soz	60-75	40-25
O'rta soz	75-85	25-15
Og'ir soz	>85	<15

Soz va og'ir qumoq mexanik tarkibiga ega bo'lgan tuproqlar yuqori suv

sig'imi, kuchsiz suv o'tkazuvchanligi, changli va qatqaloq paydo bo'lishi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Tuproqqa ishlov berish davrida uning zichligi ortishi sababli yuqori qarshilik ko'rsatishi mumkin. Il zarrachalari ( $<0,001$  mm) esa tuproqni strukturasi yaxshi bo'lishini ta'minlaydi. Shu narsa ma'lumki bunday tarkibli tuproqlarning potensial unumdorligi yuqori bo'lib, agrotexnik tadbirlar tizimi to'g'ri olib borilganda, bu yerlarda yuqori hosil olish mumkin.

Yengil qumoqli va qumoq mexanik tarkibili tuproqlar ancha g'ovak tuzilishiga ega bo'lib, kuchli suv o'tkazuvchanlik va kam suv ushlab qolish qobiliyatiga ega. Bu tuproqlarning yuza qismida qatqaloq umuman hosil bo'lmaydi, lekin ular shamol eroziyasiga o'chraydi. Shuningdek, bu tuproqlarda suvda eruvchan tuzlarni yuvib chiqarish oson bo'ladi.

O'rta qumoq tuproqlar yuqorida aytilgan tuproqlarning orliq qismini tashkil qilib, ularga nisbatan kam zichlashgan va qatqaloqlashgan, eng yaxshi suv-fizik xususiyatlariga ega bo'ladi.

Tuproqning mexanik tarkibiga bog'liq bo'lgan ko'pgina fizik xususiyatlari undagi namlik rejimiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham sug'orish muddatlari va me'yorlari belgilanayotganda (gidromodul rayonlashtirishda) tuproqning mexanik tarkibi asosiy ko'rsatkich sifatida hisobga olinadi.

Savollar:

1. Yuqori madaniylashgan tuproqlar deb qaysi tuproqlarga aytiladi?
2. Sug'orish davri necha turga bo'linadi?

#### **4.4. Sho'r yerlar miqdori va sifatini hisobga olish tartibi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaamsining 1998 yil 27 iyuldagi 314-sonli «O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari Davlat qo'mitasining faoliyatini tashkil qilish masalalari haqida»gi Qaroriga muvofiq qo'mitaga sug'oriladigan yerlarni sho'rlanish darajasini aniqlash ishlarini bajarish topshirilgan va bu ishlarini har besh yilda takrorlash ko'zda tutilgan.

Tuproq sho'rlanganligini aniqlashdan maqsad, sug'oriladigan yerlarda sho'rlangan yerlarning konturlarini va maydonlarini ajratishdir, chunki bu maydonlarda sho'r yuvish ishlarini bajarish lozim bo'ladi. Sho'rlanish aniqlash ishlari natijasida tuzilgan tuz miqdorining kartogrammasi asosida sho'r yuvish me'yori va muddati belgilanadi.

Sho'rlanishning aniqlash ishlari sho'rlangan va sho'rlanishga uchragan yerlarda sho'rlanganlik miqdori va uning sifat bahosi bilan ta'minlash kerak.

Sug'oriladigan dehqonchiligimizning asosiy qismi sho'r yuvish ishlari

bilan bog‘liq bo‘lgan tuproq sharoitida olib boriladi.

Sirdaryo, Jizzax, Buxoro, Qashqadaryo, Surxandaryo, Xorazm viloyatlarida va Farg‘ona vodiysi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida sho‘rlangan yerlar mavjud.

Biroq, mazkur viloyatlarda sug‘oriladigan tuproqlarning sho‘rlanish darajasi hamda tuproq qatlamidagi (2 m gacha) tuz zaxirasi turlichadir. Ayniqsa, bu o‘rinda Amudaryo quyi oqimida joylashgan Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi yerlari kuchli darajada sho‘rlanishga duchor bo‘lmoqda. Buning asosiy sababi Orol dengizida suv sathining keskin pasayishi, millionlab gektar maydonni tashkil qilgan sho‘r dengiz yotqiziqlari tuzlarining shamol yordamida ekin maydonlariga kelib tushishi hisoblanadi. Yiliga har gektar yerga 450-500 dan 700 kilogramm gacha tuzlar kelib qo‘shiladi.

Ma‘lumki, hozirgi paytda Respublikamiz sug‘oriladigan yer maydonlarining 60-65% va o‘zlashtirishga mo‘ljallangan qo‘riq yer maydonlarining 75-80% har xil darajadagi sho‘r tuproqlardan iborat.

M.A. Pankov ma‘lumotiga ko‘ra, kuchsiz sho‘rlangan maydonlarda paxta hosildorligi 25-30%, o‘rtacha sho‘rlangan maydonlarda 40-60%, kuchli sho‘rlangan maydonlarda esa 80% gacha kamayadi. o‘ta kuchli sho‘rlangan maydonlarda ekin iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamaydi. Sug‘oriladigan yerlardagi “dog‘” shaklidagi sho‘rlanish ham katta zarar keltiradi. Ayrim hollarda kam yoki o‘rta sho‘rlangan ekin maydonlaridagi sho‘rxokli dog‘lar 20-40% ni tashkil qiladi. Natijada, bu dog‘ni joylardagi hosil bor yo‘g‘i 7-10 sentnerni tashkil qiladi. Vaholanki, sho‘rlanmagan bunday yerlardan 32-35 va undan ortiq sentner hosil olish mumkin.

Hisob - kitoblar yana shuni ko‘rsatdiki, yerlarning sho‘rlanganligi oqibatida Respublikamizda yiliga 500-600 ming tonnagacha paxta va boshqa oziq-ovqat mahsulotlaridan kam hosil yetishtiriladi. olimlarning fikriga ko‘ra tuzlarning konsentratsiyasi ma‘lum darajaga etganda ularning zaharligiga qarab o‘simlikning qurish davri bashlanadi. Bu davrda tuproq eritmasidagi osmotik bosimning oshib ketishi natijasida suv va ozuqa moddalar o‘simliklar tomonidan qiyin shimiladi. Ya‘ni, o‘simlik tanasi kuchli konsentratsiyali tuzlar ta‘sirida zaharlanib, xlorofil donchalarining buzilishi, fotosintezning sekinlanishi, nafas olish yomonlashishi, uglevodlar oqimining buzilishi kabi o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Bular o‘simlikni o‘sisdan to‘xtatib, “o‘lishga” olib keladi.

Olingan ma‘lumotlar asosida har xil sho‘rlanganlik bo‘yicha unumdorlikni aniqlash uchun tuzilgan pasaytirish koeffitsiyenti 20 - jadvalda ko‘rsatilgan.

## Shoʻrlanish boʻyicha pasaytirish koeffitsiyenti

	% mg/ekv	Quruq qoldiq,%	Pasaytirish koef
Shoʻrlanmagan	0,02	0,3	1,0
Biroz shoʻrlangan	1,0		
	0,02-0,07	0,3-1,0	0,9
	1,3		
Oʻrta _”_	0,07-0,14	1,0-2,0	0,8
	3,6		
Kuchli _”_	0,4-0,27	2,0-3,0	0,5
Juda kuchli _”_	0,27-0,64	3,0	0,4
Umuman kuchli	12-28		
	0,64		
	28	_”_	0,3

Respublikaning 66% dan ortiq sugʻoriladigan yerlarni shoʻr bosgan. Xorazm, Buxoro, Sirdaryo, Navoiy, Jizzax, Fargʻona va Qoraqalpogʻiston Respublikalarining qariyb hamma joylarini shoʻr bosgan. Shu sababli qayd etilganidek Respublika har yili umumiy yigʻib olinishi kerak boʻlgan paxta xos ashyosini 20-25 % ni yoʻqotadi. M.A. Pankovning bergan maʼlumotlariga qaraganda, kam shurlangan yerni hosildorligi 20-30 % ga, oʻrtacha shoʻrlangan yerni 80 % ga kuchli shoʻrlangan yerni hosildorligi aniqlangan.

**Tuproqdagi tuzni miqdori va sifati bilan madaniy oʻsimliklar** oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliklik judayam murakkab va bu oʻzaro bogʻliqlik hali yetarlicha oʻrganilmagan. Oʻsimliklarni oʻsish va rivojlanish fazalarida tuzga chidamlilik darajasi har xil boʻlishi mana shu sabablardan biri hisoblanadi. Tuzlarni gʻoʻzaga zararli taʼsiri nihol 3-4 bargli fazagacha koʻproq sezilarli boʻladi. Vegetatsiya davrining oxirida esa tuproq tarkibida tuz yuqori konsentratsiyada boʻlishi gʻoʻzada sezilarli oʻzgarish bermaydi. Gʻoʻzaning koʻpchilik rayonlashtirilgan navlari uchun respublikada tuproq tarkibidagi tuz konsentratsiyasi 2,5-3 % dan oshmasligi kerak, undan oshadigan boʻlsa, oʻsimliklar qurib qoladi.

Maʼlumki, tuzlarning zaharliligi ularning ion tarkibiga bogʻlik. Markaziy Osiyoning sugʻoriladigan dehqonchiligida xloridlar tuproqdagi 0,01 % dan ortigʻi gʻoʻza oʻsishiga salbiy taʼsir etadi. Koʻpchilik izlanuvchilarning bergan maʼlumotiga koʻra sulfatlarning eng past zaharliligi tuproq ogʻirligini 0,2-0,3 % ni tashkil etadi.

Shoʻrlanganlik darajasi tuproqdagi zaharli suvda oson eruvchan tuzlarning umumiy miqdorini koʻrsatadi. Respublikada meliorativ holati yomon yerlarning koʻp qismi tuproqning shoʻrlanishi bilan bogʻliq. Tuproqning shoʻrlanishi - asosan maydonlardan yer osti suvining oqib chiqib ketmasligi va ariq - zovurlarning ishlamasligidan kelib chiqadi.

Tuproqning shoʻrlanishi (21-jadval) uning shoʻrlanish darajasi, tuzlar ximizmi, tuzli gorizontning chuqurligi va yer osti suvi chuqurligi bilan farqlanadi.

21-jadval

Tuzlarning ximizmi (ximiyaviy tarkibi) ni hisobga olgan tuproq shoʻrlanganlik darajalarini aniqlash klassifikatsiyasi

Shoʻrlanganlik darajasi	Sulfatli	Xlorid-sulfatli		Sulfat-xloridli		Xloridli
	quruq qoldiq	quruq - qoldiq	xlor	quruq - qoldiq	xlor	xlor
Shoʻrlanmagan	<0.3	<0.1	<0.01	<0.1	<0.01	<0.001
Kuchsiz shoʻrlangan	0.3-1.0	0.1-0.3	0.01-0.05	0.1-0.3	0.01-0.04	0.01-0.03
Oʻrtacha shoʻrlangan	1.0-2.0	0.3-1.0	0.05-0.20	0.3-0.6	0.04-0.20	0.03-0.10
Kuchli shoʻrlangan	2.0-3.0	1.0-2.0	0.2-0.3	0.6-1.0	0.2-0.3	0.1-0.2
Juda kuchli shoʻrlangan	>3.0	>2.0	>0.3	>1.0	>0.3	>0.2

22-jadval

Kationlar boʻyicha tuproq shoʻrlanishi ximizmi (Bazilevich, Pankov 1970)  
Anionlar boʻyicha tipi (N.I Bazilevich, E.N. Pankov boʻyicha).

№	Shoʻrlanish tiplari	Kationlarning nisbati (mg/ekv)		
		Na <sup>+</sup> Na	Na Ca	Mg <sup>2+</sup> Ca <sup>2+</sup>
1.	Natriyli	>1	>1	-
2.	Magniy-natriyli	>1	>1	>1
3.	Kalsiy-natriyli	>1	>1	<1
4.	Kalsiy-magniyli	<1	<1	>1
5.	Natriy-magniyli	<1	>1	>1
6.	Natriy-kalsiyli	>1	<1	<1
7.	Magniy-kalsiyli	<1	<1	<1
8.	Magniyli	<1	-	>1

1. Xloridli
2. Sulfat xloridli

$$Cl : SO_4^{2-} > 2,5$$

$$Cl : SO_4^{2-} q2,5 - 10$$

3. Xlorid sulfatli  
 4. Sulfatli  
 5. Sulfatli (xloridli)  
 gidrokarbonatli

$Cl : SO_4^{2-} > 1,0 - 0,2$

$Cl : SO_4^{2-} < 0,2$

$HCO_3 : SO_4^{2-} > 1;$

Madaniy o'simliklarni normal o'sish va rivolanishi uchun nafaqat tuproqdagi tuzlarning umumiy miqdori, balki tuzlarning kimyoviy tarkibi (sifat tarkibi) muhim rol o'ynaydi. Shu bois sho'rlanganlik darajalarini tuzlarning kimyoviy tartibiga qarab aniqlash juda muhim.

23-jadval

Kationlar bo'yicha sho'rlanish tiplari (YU.P. Lebedev klassifikatsiyasi)

$\frac{Na}{Ca}$	$\frac{K}{Mg}$	$\frac{Ca^2}{Mg^2}$	Sho'rlanish tiplari
>2	<0.5	-	Natriyli
1-2	0.5-1.0	>1	Magniy-natriyli
1-2	0.5-1.0	<1	Kalsiy-natriyli
<1	>1	>1	Kalsiy-magniyli
<	>1	<1	Magniy-kalsiyli

Xo'jalikning tuproq xaritasida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tavsiflovchi hamma ko'rsatkichlar keltiriladi. Mana shu ko'rsatkichlar asosida tuproqning sho'rlanish xususiyatiga qarab, mahalliy sharoitni hisobga olib bajariladigan meliorativ ishlar rejalashtiriladi va taqsimlanadi. Shunday qilib, tuproq xaritasi xo'jalikda meliorativ tadbirlarni ishlab chiqishda birlamchi asos bo'lib, har qaysi sug'oriladigan uchastkalarda sho'rlanishga qarshi kurash usullarini samarali va maqbul tomonlarini tanlab olishga imkon beradi.

Sho'rlangan yerlarning melioratsiyasi bo'yicha qilinadigan majburiy tadbirlar quyidagilardan iborat:

1. Har bir xo'jalikni tabiiy va irrigatsion xo'jalik sharoitiga bog'liq holda suvdan foydalanish normalarini rejalashtirish. Respublikaning ko'pgina sug'orish tarmoqlari uchun, qayerda paxta va beda yetishtirilsa, yil davomida oladigan jami suv miqdori 10 -12 ming m<sup>3</sup>/ga dan oshmasligini ta'minlash.

2. Sug'orish texnikasini yaxshilash.

Pushta olib sug'orishni joriy qilish zarur, chunki bu usulda sug'oriladigan tuproqning bir me'yorda namlanishi ta'minlanib, kam suv sarflanib, sug'oriladigan uchastkalardan suv isrofgarchiligiga yo'l qo'yilmaydi. Sug'orish pushtalari maydonlarning optimal nishabligini hisobga olib, tortilishi zarur, chunki tuproq yuvilib ketmaydi va ortiqcha suv pushta oxirida to'planib qolinishini oldi olinadi.

3. Tuproqning g'ovakli-kesakcha holatini tiklovchi va unda namligini



ushlab qolishni ta'minlash uchun dalalarni o'z vaqtida va yaxshilab qayta ishlash zarur.

4. Sug'oriladigan maydonlarning yuzasini tekislash.

Tuproqning sho'rlanishi va sho'rlanishining paydo bo'lishi yer osti suvi chuqurligi va ularning minerallashtirilganligi va tuproqning kapillyarligiga bog'liq bo'ladi. Meliorativ ishlar muvaffaqiyati yerlarning meliorativ holatini aniqlovchi hamma omillar hisobga olinishiga bog'liq bo'ladi. Sho'rlangan tuproqlarda agrotexnik tadbirlarni o'tkazishda asosiy diqqat e'tiborni qayta ishlov berish, almashlab ekish paxta sug'orish va sho'r yuvish ishlarini bajarishga qaratilishi lozim bo'ladi (24-jadval).

Yomg'irli kuz oylarida sho'rlangan tuproqlarni chuqur kuzgi shudgorlash tuproqning davriy sho'rsizlanishiga olib keladi.

Tuproqqa sug'organdan so'ng chuqur kul'tivatsiya qilish tuproq yuzasidan parlanishni 20-30% kamaytiradi va sug'orilgandan so'ng sho'rlanishini ancha kamaytiradi.

Tuproqning qayta ishlov orqali sho'rlanishni boshqarish kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda samara beradi.

Beda almashlab ekish sug'oriladigan sharoitlarda kuchsiz va o'rtacha sho'rlangan tuproqlarni sho'rsizlanish rejimiga yaxshi ta'sir qiladi.

Yer osti suvining sathini 50-100 sm. ga pasaytirilganda tuproq yuzasidan parlanishi ancha kamayib, tuproqning suv-fizik xususiyati yaxshilab, ikki-uch yil ichida ildiz oziqlanadigan qatlamdan tuzlarning pastki qatlama tushishiga imkon beradi. Sho'rlangan - sug'oriladigan tuproqlarda bir yillik sug'orish soni shu tumandagi sho'rlanmagan tuproqlar uchun rejalashtirilgan sug'orish sonidan 2-3 marta ko'p bo'lishi kerak. Sho'rlangan tuproqlarda iyul va avgust oylarida, ya'ni parlanish transpiratsiyasi va tuz to'planish maksimal darajaga etganda sug'orishlar o'rtasidagi vaqt 10-12 kundan oshmasligi zarur, chunki vegetatsion sug'orish hisobiga sho'rsizlanish dalalarda yilning bu davrida 5-6 kun bilan chegaralanadi.

Ildiz oziqlanadigan qatlamda oson eruvchi tuzlarning ishqorsizlanishi uchun qishda yuvish amalga oshiriladi, bu *profilaktika ishlari* deyiladi. O'zbekiston sharoitida bunday sug'orishlar kuzgi-qishki atmosfera yog'inlari bilan tabiiy sho'rsizlanishni tezlashtiradi. qishki profilaktik sug'orish natijasida haydov qatlami va haydov osti qatlamida qoniqarli sho'rsizlanishga erishish mumkin.

Ilmiy tekshirish tashkilotlarining ma'lumotlari bo'yicha qishki profilaktik sug'orishlar normasi 1500-3000 m<sup>3</sup>/ga bo'lganda yaxshi samara beradi.

*24-jadval*

**Sug'oriladigan yerlarda sho'r yuvishning taxminiy muddatlari**

**va miqdorlari (zovurlar mavjud bo'lganda)**

<b>Tuproq gruntlarining ayeratsiya zonasida tuzilishi va joylashish xarakteri, mexanik tarkibi</b>	<b>0-100 sm qatlamdagi xloridning dastlabki miqdori</b>	<b>Umumiy sho'r yuvish me'yori m<sup>3</sup>/ga</b>	<b>Necha marta yuvish zarurligi</b>	<b>Yuvish muddati oylar</b>
	<b>MIRZA</b>	<b>CHO'Lda</b>		
Bir xildagi o'rta va yengil qumoqli tuproq gruntlar	0,01-0,04 0,04-0,10	3000-3500 3500-5000	1 2	X-XII tm
Har xil mexanik tarkibli qatlamli tuproq gruntlar	0,01-0,04 0,04-0,10	4000-5000 5000-6500	2 3	X-I tm
	<b>FARG'ONA</b>	<b>vodiysida</b>		
Mexanik tarkibi yengil qatlamli	0,01-0,04 0,04-0,10	2000-2500 2500-4000	1 2	II-III tm
Tuproq gruntlari o'rta qumoqli har xil mexanik tarkibli	0,01-0,04 0,04-0,10	3000-3500 3500-5000	1 2	I-III tm
Tuproq gruntlari loyli va og'ir qumoqli, bir jinsli va qatlam.	0,01-0,04 0,04-0,10	4000-5000 5000-6500	2 3	XII-II tm
<b>BUXORO viloyatida</b>				
Tuproq gruntlari yengil mexanik tarkibli qatlamli	0,01-0,04 0,04-0,10	2000-2500 2500-4000	1 2	III III
Tuproq gruntlari o'rta qumoqli, qatlamli mexanik tarkibi har xil	0,01-0,04 0,04-0,10	4000-5000 5000-6500	1 2	XII-II tm
Tuproq gruntlari loyli va og'ir qumoqli, bir xil jinsli va qatlamli	0,01-0,04 0,04-0,10	3000-3500 3500-5000	2 3	Tm III
<b>QORAQALPOG'ISTON Respublikasi va XORAZM viloyatida</b>				
Tuproq gruntlari yengil mexanik tarkibli, qatlamli	0,01-0,04 0,04-0,10	3000-3500 3500-5000	2 3	III III
Tuproq gruntlari o'rta qumoqli, qavtli har xil mexanik tarkibli	0,01-0,04 0,04-0,10	4000-5000 6000-7500	3 5	X-XII (2/3 kuzda, 1/3 bahorda beriladi)
<b>QARSHI va SHEROBOD cho'llarida</b>				
Tuproq gruntlari yengil mexanik tarkibli, qatlamli	0,01-0,04 0,04-0,10	3000-3500 3500-5000	2 3	III III
Tuproq gruntlari o'rta qumoqli, qatlamli qar xil mexanik tarkibli	0,01-0,04 0,04-0,10	4000-5000 6000-7500	3 5	X-XII (2/3 kuzda, bahorda beriladi)
Tuproq gruntlari o'rta qumoqli, qatlamli har xil mexanik tarkibli	0,01-0,04 0,04-0,10	5000-6000 6000-7000	3	mart oyida berib yuviladi

**Sho'rlangan tuproqlar ichida tarkibida gips (kalsiy sulfat - CaSO<sub>4</sub>)**

$2H_2O$ ) mavjud bo'lgan tuproqlar alohida o'rin tutadi. Tuproq profili bo'yicha gipsning to'planishi va uning miqdori qishloq xo'jalik o'simliklarini etishtirishda va tuproqni sug'orishda bu omilni hisobga olishni taqozo etadi. Ishlab chiqarish qobiliyati jihatidan gipsli tuproqlarning sifati yuqori emas, Shu bilan birga ular qiyin sho'rsizlanadi. Bunday tuproqlarning qoniqarsiz fizik xususiyati, gips miqdori, turi va uning joylashgan chuqurligi bilan bog'liq bo'lib tuproqning unumdorligini anchagina pasaytiradi. Agar 60 sm gacha chuqurlikda gips bo'lib, uning miqdori 30-40% dan ko'p bo'lsa, bunday tuproqlar ko'pgina o'simliklar uchun sug'orishga yaroqli emas.

Tuproq xaritalarida gipslashgan tuproqlar va gipsning joylashgan chuqurligiga qarab tuproq ayirmalari ajratiladi. Chuqurlik bo'yicha yuqori chegarasidan boshlab, uning joylashish chuqurligi 30 sm gacha yuza gipslashgan; 30 sm dan 50 sm gacha sayoz gipslashgan 50 sm dan 100 sm gacha chuqur gipslashgan; 100 sm dan 200 sm gacha juda chuqur gipslashgan tuproqlar guruhiga ajratiladi.

Gips miqdoriga qarab 10% gacha gipslashmagan 10% dan 20% gacha kuchsiz gipslashgan; 20% dan 40% gacha o'rtacha gipslashgan; 40% dan yuqorisi kuchli gipslashgan tuproqlarga ajratiladi. Tuproq tarkibidagi gips miqdori joylashish chuqurligini hisobga olib melioratsiya tadbirlari o'tkaziladi.

Gips yuza joylashgan (50 sm gacha) va miqdori yuqori 20-25% dan ko'p bo'lgan tuproqlar melioratsiyasi anchagina qiyin bo'ladi. Bunday tuproqlardan foydalanish uchun juda ko'p marta kapital yuvish ishlarini va tub melioratsiya tadbirlarini o'tkazish lozim, shuningdek chuqur (100 sm gacha) yumshatish, organik o'g'itlar sharbati solish zarur bo'ladi.

Ayrim hollarda gips va kalsiy, magniy karbonat tuzlari birgalikda "arziq" yoki alohida "shox" qatlamlarini hosil qiladi. Bu qatlamlar juda qattiq bo'lib, suv, havo, shuningdek o'simlik ildizini quyi qatlamlarga o'tishiga to'sqinlik qiladi.

#### Savollar:

1. Kimyoviy yoki radiaktiv moddalar bilan ifloslangan yerlardan qanday foydalaniladi?
2. Sho'rlangan yerlarni miqdorini hisoblashda tayyorgarchilik davri?

## **V-bob. KORXONA, MUASSASA VA TASHKILOTLAR YER KADASTRI**

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda olib boriladigan yer kadastrining mamlakat yer kadastrining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Yer kadastrining ma'lumotlari yer egaliklari hisoblanadi (yerdan foydalanuvchilarga ishlab chiqarish faoliyati uchun; tuman tashkilotlariga esa yerlardan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish hamda davlat yer kadastrini ayniqsa qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalarida katta ahamiyatga ega, qaysiki, bu yerda yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi).

Yer kadastrini – qishloq xo'jalik korxonalarining asosiy hisob turlaridan biridir. Shu sababli ham u alohida olingan holda emas balki operativ – texnik va buxgalteriya hisoblashlari bilan birga kompleks holda qarash zarur. Yer kadastrini boshqa turdagi hisoblarni yer egaliklari yer turlarining tarkibi, ularning sifat holati, yerlarning bahosi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Ushbu maqsadlar uchun yer kadastrining plan – xarita va tekst xujjatlaridan foydalaniladi. Bu esa o'z navbatida operativ – texnik va buxgalteriya hisoblari qishloq xo'jalik korxonalarida yerlardan foydalanishni tavsiflaydigan iqtisodiy, agrotexnik va boshqa ko'rsatkichlarga ega ekanligidan dalolat berishini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jalik korxonalaridagi yer kadastrini nainki xo'jalikning o'zini, balki, tumandagi barcha korxonalarini davlat yer kadastrini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlashi zarur.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda yer kadastrini asosiy va joriy turlarga bo'linadi. Asosiy yer kadastrini o'tkazishda ma'lumotlarni yer kadastrini xujjatlariga tushirgan xolda yer egaligi, (yerdan foydalanish)ning huquqiy, tabiiy va xo'jalik xolatlari to'g'risida to'la ma'lumotlar to'planishi zarur. Joriy yer kadastrida yerdan foydalanishdagi barcha o'zgarishlar aniqlanadi, shuningdek, yer kadastrini xujjatlarida qat'iy kiritilgan boshlang'ich ma'lumotlardagi xatolar to'g'irlanadi. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda yer kadastrini o'tkazishda uni tanaffussizligini, ob'ektivligini, yer kadastrini ma'lumotlarini ko'rgazmaliligini ta'minlash zarur.

Yer kadastrini materiallari xo'jaliklararo yer tuzish loyixalarini tuzishda o'ta zarur, negaki, ayniqsa bozor munosabatlari sharoitida yer maydonlariga mulkiy, egalik huquqining paydo bo'layotganligi, turli tiplardagi va ko'rinishlardagi korxonalarining tashkil etilayotganligi eng avvalo hududdagi mavjud yer maydonlarining miqdori, sifat holati to'g'risidagi ma'lumotlar bioishni taqazo qiladi.

Yer kadastrini ma'lumotlari ichki yer tuzish loyixalarini tuzishda ham keng qo'llaniladi. Turli yer turlari va almashlab ekishlar joyning rel'efiga, tuproq sharoitiga va yerlarning meliorativ holatiga turlicha talab qo'yadi. Shu sababli, yer egaligida yer turlari va almashlab ekishlarni to'g'ri joylashtirish uchun yer egaligini yer turlari tarkibi bo'yicha bilish, turli qishloq, xo'jalik

ekinlarini o‘stirishga yerlarning yaroqlilik darajasi to‘da yer kadastrini o‘tkazishda uni tanaffussizligini, ob‘ektivligini, Yer kadastrini ma‘lumotlarini ko‘rgazmaliligini ta‘minlash zarur.

Yer kadastrini materiallari xo‘jaliklararo yer tuzish loyixalarini tuzishda o‘ta zarur, negaki, ayniqsa bozor munosabatlari sharoitida yer maydonlariga mulkiy, egalik huquqining paydo bo‘layotganligi, turli tiplardagi va ko‘rinishlardagi korxonalarining tashkil etilayotganligi eng avvalo hududdagi mavjud yer maydonlarining miqdori, sifat holati to‘grisidagi ma‘lumotlar bioishni takazo qiladi.

Yer kadastrini ma‘lumotlari ichki yer tuzish loyihalarini tuzishda ham keng qo‘llaniladi. Turli yer turlari va almashlab ekishlar joyning rel‘efiga, tuproq sharoitiga va yerlarning meliorativ holatiga turlicha talab qo‘yadi. Shu sababli, yer egaligida yer turlari va almashlab ekishlarni to‘g‘ri joylashtirish uchun yer egaligini yer turlari tarkibi bo‘yicha bilish, turli qishloq, xo‘jalik ekinlarini o‘stirishga yerlarning yaroqlilik darajasi to‘grisidagi ma‘lumotlariga ega bo‘lish zarur. Bunday ma‘lumotlarga ega bo‘lish ko‘p yillik daraxtzorlar (bog‘lar, uzumzorlar) ekish, sabzovot, dala va maxsus almashlab ekishlarni joylashtirish uchun yer uchastkalarini har tomonlama asoslangan holda tanlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda yer kadastrini materiallari, ayniqsa, yerdan foydalanishda to‘lanadigan haqlar miqdorlarini (yer soligi, ijara xaqi) ilmiy asoslangan holda aniqlash va belgilashda muhim ahamiyat kasb qiladi. Doimiy er egaliklariga (yerdan foydalanuvchilarga) ular uchun ajratiladigan yer maydonlari bilan bog‘liq kartografik materiallar, tuproq, ob – havo, gerbonatik, agrokimyoviy, meliorativ va boshqa ma‘lumotlar tayyor bo‘lishi zarur. Yer to‘g‘risidagi sifatli ma‘lumotlarni quyidagilarga ajratish mumkin: davlat ehtiyojlari uchun (soliq umumiy rejalar), yer egaliklari (yerdan foydalanuvchilar) uchun xo‘jalik yuritish maqsadlarida barcha yer maydonlari haqida xolisona va xar tomonlama aniq ma‘lumotlar. Shuning uchun egalik qilish va foydalanishga berilgan yerlar holati va qiymati to‘grisidagi ma‘lumotlar to‘la bo‘lishi ulardan amaliyotda oqilona foydalanish imkoniyatini ta‘minlaydi.

Korxonalar, muassasa va tashkilotlarda yer kadastrini tashkil etish.

Ma‘lumki, korxonalar, muassasa va tashkilotlarda yuritiladigan yer kadastrini ichki xo‘jalik hisob – kitobning bir turidir. Shu sababli ham Respublikamizdagi asosiy qishloq xo‘jalik korxonalarida yer kadastrini yuritish, tuman xokimiyatidagi bosh er tuzuvchi injener tomonidan to‘g‘ridan – to‘g‘ri rahbarlik va nazorat asosida ishlaydigan maxsus yer tuzuvchi mutaxassislariga yuklatilgan. Bu mutaxassis – xo‘jalik yer tuzuvchi injeneridir.

Yer tuzuvchi injener lavozimiga tuman hokimiyati bilan kelishilgan holda maxsus oliy yoki o‘rta ma‘lumotlarga ega bo‘lgan, yer kadastrini hujjatlarini

yurita bilish tajribasiga ega bo'lgan shaxs qo'yiladi. Uni boshqa ishga o'tkazish faqat tuman hokimiyati bilan kelishilgandan so'nggina amalga oshiriladi. Yer tuzuvchi o'z ish faoliyati to'g'risida xo'jalik boshqaruvi hamda tuman bosh yer tuzuvchi injeneri oldida hisobot beradi.

Xo'jalik yer tuzuvchi injeneriga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- *Yer qonunlarini yaxshi bilishi, uni bajarilishini sistemali tarzda kuzatib borish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha zaruriy chora – tadbirlar ko'rgan holda aniqlangan buzilishlar to'g'risida ma'lumotni xo'jaliklar boshqaruviga o'z vaqtida yetkazib turishi;*
- *Xo'jalik yerlarini aniq bilish va ularni to'g'ri foydalanish bo'yicha nazoratni to'la ta'minlashi;*
- *Yerlardan foydalanish tartibini ichki xo'jalik yer tuzish loyihasida belgilangan holda bajarilishini, chegara belgilarini saqlanishini, almashib ekish massivlari, boshqa ishlab chiqarish bo'limlari chegaralarini saqlanishini kuzatish va xo'jalik boshqaruvi orqali buzilgan chegaralarni qayta tiklash bo'yicha choralar ko'rishi;*
- *Plan – xarita materiallaridan foydalangan holda nazorat tariqasidagi o'lchov ishlarini (obmer) o'tkazib borish;*
- *Ichki xo'jalik yer tuzish va ichki xo'jalik qurilishi loyihalariga muvofiq xo'jalik yerlaridan ishlab chiqarish uchastkalari uchun yer ajratilish;*
- *Xo'jalik faoliyati natijasida yer turlari va ularning sifati: chegaralari o'zgargan holda dala o'lchov ishlarini o'tkazish, o'zgargan konturlar maydonlarini xo'jalik xaritasiga va yer kadastru kitobiga tushirib borishi;*
- *Xo'jalik mehnatkashlari umumiy majlisi, qaroriga muvofiq, xizmatchilar va boshqa fuqarolarga joyda tomorqa yerlarini ajratish, tomorqa yerlar maydoniga tuzatmalar kiritishi, shuningdek tomorqa uchastkalarida o'lchov ishlarini hamda yer kadastru kitobiga qonuniy o'zgarishlarni kiritishni;*
- *Bo'sh yotgan tomorqa yerlaridan to'laroq foydalanish maqsadida aholi punktlari yerlarini tartibga solish bo'yicha ishlarni bajarish;*
- *Xo'jalik yerlarida qurilish, geologiya qidiruv, yo'l va boshqa idoralar tomonidan eroziyaga qarshi tadbirlarga amal qilina yotganligini kuzatish;*
- *Har yilning 1- yanvariga bo'lgan holatda tuman yer balansini tuzish maqsadlari uchun xo'jalik boshqaruvi tomonidan jamoa yerlari hamda tomorqa uchastkalari maydonlarini o'zgarishi to'g'risidagi zaruriy ma'lumotlarni tayyorlash;*
- *Ichki xo'jalik yer tuzish loyihasini, qishloq aholi yashash joylarining loyihasini tuzishda, davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer ajratish, shuningdek xo'jalikda o'lchov ishlari va plan – xarita materiallaridan foydalanish bilan bogliq ishlarda qatnashishi;*
- *Xo'jalik zaruriyatlari uchun tuman bosh yer tuzuvchi–injeneriga plan–*

*kartografik materiallar, turli shakllar zarurligi to'g'risida xo'jalik boshqaruvi nomidan xatlar tayyorlashi zarur.*

### **5.1. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yer egaligi (yerdan foydalanish)ning tavsifi**

O'zbekiston Respublikasida yer davlat mulkidir, ya'ni, umummilliy boylikdir, u davlat tomonidan muhofaza qilinadi hamda oldi – sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi. O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan hollar bundan mustasno. Yuridik shaxslar «Yer kodeksi» va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq yer uchastkalariga mulk huquqi, doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli foydalanish, ijara huquqi asosida ega bo'lishlari mumkin. Jismoniy shaxslar yer uchastkalariga «Yer kodeksi» va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq mulk huquqi meros qilib qoldirilmaydigan umrbod egalik qilish, doimiy foydalanish, ijara huquqi asosida ega bo'lishlari mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga mulk huquqi savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga xususiylashtirilganda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari dehqon xo'jaligi yuritish, yakka tartibda uy – joy qurish va turar joyni obodonlashtirish, jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligi yuritish va shuningdek qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa hollarda meros qilib qoldirilgan umrbod egalik qilish uchun yer olish huquqiga egadirlar.

Yer doimiy yoki muddatli (vaqtincha) foydalanish uchun%

- *Respublika fuqarolariga, shu jumladan jamoa polizchiligini, yuritish uchun;*
- *Sanoat, transport hamda qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga;*
- *Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga;*
- *Chet el yuridik va jismoniy shaxslariga beriladi.*

Yerdan muddatli foydalanish qisqa muddatli uch yilgacha uzoq muddatli uch yildan o'n yilgacha bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish ehtiyojlari talab qilingan hollarda bu muddatlar tegishli qisqa muddatli yoki uzoq muddatli vaqtincha foydalanish muddatlaridan ortiq bo'lmagan davrga uzaytirilishi mumkin. Yaylov chorvachiligi uchun yer uchastkalari qishloq xo'jalik korxonalarini muassasalarini va tashkilotlariga yigirma besh yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Yer uchastkalarining egalik qilish va foydalanish uchun berish yer ajratish tariqasida amalga oshiriladi. Yer uchastkalarini ajratib berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar hokimlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan

tartibda amalga oshiriladi. Egalikdagi yoki foydalanishdagi er uchastkasini boshqa shaxslariga berish shu uchastka belgilangan tartibda olib qo'yilganidan keyingina amalga oshiriladi.

Sanoat korxonalari, temir yo'llar va avtomobil yo'llari, aloqa va elektr uzatish liniyalari, magistral quvurlar qurish uchun, shuningdek qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan boshqa extiyojlar uchun qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz bo'lgan yerlar yoxud qishloq xo'jaligining sifati yomon yerlari beriladi. Mazkur maqsadlar uchun fondiga qarashli yerlardan yer uchastkalari asosan o'rmon bilan qoplanmagan maydonlar yoki butazorlar va arzon baho o'simliklar bilan qoplangan maydonlar hisobida beriladi. Yer tuzish xizmati organlari berilgan yer uchastkasining chegaralarini naturada (joyning o'zida) belgilagunlaricha va yerga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar berilgunicha ana shu uchastkaga egalik qilish va undan foydalanishga kirishish mumkin emas.

Yer uchastkasining ijarasi yer uchastkasiga ijara shartnomasi shartlarida muddatli haq evaziga egalik qilish va foydalanishdan iboratdir.

Yer uchastkasini:

- *O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga va yuridik shaxslariga turli tuman va shahar hokimlari;*
- *Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalariga, xalqaro birlashmalari va tashkilotlarga, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kelishuv asosida ijaraga beradilar.*

Qishloq xo'jaligi korxonalari yer uchastkalarini ichki xo'jalik ijarasi tartibida faqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun ijarachilarga birlashtirib qo'yishi mumkin. Ijaraga berilgan yer uchastkasi yoki uning bir qismini ikkilamchi ijaraga berish ta'qiqlanadi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligi faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikatsiyalar, o'rmonlar, berk suv havzalari, binolar, inshootlar va imoratlar bilan band bo'lgan yerlarga ajratiladi. qaydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar (bog'lar, tokzorlar va boshqalar) ega egallagan yerlar qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi. qishloq xo'jaligi yerlari maxsus muhofaza qilinadi. qishloq xo'jaligi yerlarini irrigatsiya va suvdan foydalanish tizimiga asoslangan sun'iy sug'orish respublika qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi va yerlardan samarali foydalanish hamda ular unumdorligini oshirishning shartidir.

Qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerlarni sug'orishni ta'minlash oladigan sug'orish man'bai bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi. Bu yerlar maxsus muhofaza qilinishi zarur, ularni sug'orilmaydigan yerlar sirasiga o'tkazish alohida



hollarda, tuproq – meliorativ va iqtisodiy sharoitlarni hamda yerlarning suv bilan ta'minlanganligi, ulardagi mavjud suv resurslarining va bu suvlarga belgilangan elementlarni e'tiborga olib viloyat hokimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar quyidagilarga beriladi:

- 1) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni kooperativlarga, boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va qishloq xo'jaligi tashkilotlariga tovar ishlab chiqarishni yuritish uchun;
- 2) tajriba – ishlab chiqarish, o'quv, o'quv – tajriba va o'quv – ishlab chiqarish xo'jaliklari, ilmiy – tadqiqot muassasalari va boshqa qishloq xo'jaligi muassasalari va tashkilotlarga ilmiy – tadqiqot va ta'lim maqsadlari, tovar qishloq xo'jali-gini yuritish va ilg'or tajribani targ'ib qilish uchun;
- 3) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga – fermer xo'jaliklarini tashkil etish va yurish uchun;
- 4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga – Dehqon xo'jaligini, xususiy bog'dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish uchun;
- 5) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga – jamoa bog'dorchiligi, polizchiligi va uzumchiligi uchun;
- 6) qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanuvchi yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar o'zlariga birlashtirilgan yer maydonlaridan foydalanish sohasiga quyidagi majburiyatlarga ega:

- 1) biznes rejalarida tuproq unumdorligini oshirish va yerlardan oqilona foydalanishga qaratilgan aniq tadbirlarni nazarda tutishlari;
- 2) mintaqa sharoiti va xo'jalikning ixtisoslashuviga muvofiq ilmiy asoslangan almashlab ekishni, dehqonchilikning eng samarali va iqtisodiy jixatdan oqilona tizimlarini joriy etishlari;
- 3) haydaladigan yerlar asralishi va kengaytirilishini ta'minlash;
- 4) meliorativ jihatdan nobop sug'oriladigan yerlarni kompleks rekonstruksiya qilishlari pichanzorlar va yaylovlarga suv chiqarishlar hamda ularning xolatni yaxshilashlari;
- 5) xo'jalikning butun ichki sug'orish va kollektor – zovur tarmog'ini hamda undagi inshootlarni texnikaviy jihatdan soz holatda saqlanishlari;
- 6) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini sug'oriladigan yerlarning sho'r bosishi va botqoqlanishiga, yerlarning va suv manbalarining ifloslanishi va zararlanishiga yo'l qo'ymaydigan usullar bilan amalga oshirishlari;
- 7) qishloq xo'jalik ekinlari va dov – daraxtlarni parvarish qilishning suv tejaladigan texnologiyalarini, sug'orishning ilg'or usullarini joriy etishlari;

8) yerlarni muxofaza qilish chora – tadbirlarini ko‘rishlari shart.

Qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi korxonalarini, muassasalari va tashkilotlarining xar bir a‘zosi oilasiga, shuningdek qishloq joylarda yashovchi o‘qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarining oilalariga dehqon xo‘jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiradigan umrbod egalik qilish uchun beriladigan yer uchastkasi, imoratlar va hovlilar egallagan maydonni qo‘shgan holda sug‘oriladigan yerlarda 0,35 gektar va sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 gektar o‘lchamda, cho‘l va sahro mintaqasida esa sug‘orilmaydigan (lalmi) yerlarda 1,0 gektargacha o‘lchamda beriladi. Ayrim aholi punktlari shahar hududi tarkibiga kiritilgan qishloq xo‘jaligi korxonalarida, muassasalarida va tashkilotlarida 5 yildan ortiq uzluksiz ishlagan va ishlashni davom ettirayotgan qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi korxonalarini, muassasalari va tashkilotlari a‘zolarining, shuningdek o‘quvchilar, shifokorlar va boshqa hovlilar egallagan maydonni qo‘shgan xolda ana shu korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda belgilangan o‘lchamda meros qilib qoldirilgan umrbod egalik uchun er uchastkasi berilishi mumkin. Dehqon xo‘jaligi yuritish uchun beriladigan yer uchastkalarining aniq o‘lchamlari Yer resurslarining mavjudligiga qarab hamda fuqarolar oilasining qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi korxonalarini, muassasalari, tashkilotlarning jamoat ishlab chiqarishdagi ishtirokini hisobga olgan holda ularning miqdorlari yoki ular vakolat byergan organlarning qarori bilan belgilanadi, mazkur qaror tuman hokimi tomonidan tasdiqlanadi. Fuqarolarga dehqon xo‘jaligi yuritish uchun yer uchastkalari 0,06 gektar dog‘irasida meros qilib qoldiradigan umrbod egalik uchun kimochdi savdosi asosida sotilishi mumkin.

## **5.2. Yerlarning yer turlari va meliorativ holati bo‘yicha hisob qilishda plan – xarita ma‘lumotlaridan foydalanish**

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda yerlarni yer turlari hamda meliorativ holati bo‘yicha hisob qilish yer hisobi planida amalga oshiriladi. Yer hisobi plani – bu xo‘jalikdagi brigadalarda va boshqa ishlab chiqarish bo‘limlarining chegaralari, aholi punktlari, muddatsiz, uzoq muddatli, qisqa muddatli yerdan foydalanishlar, o‘zga yerdan foydalanuvchilar aks ettirilgan tasvir planining nusxasi hisoblanadi. Yer hisoboti planida sug‘oriladigan yerlar, yo‘l tarmoqlari, sug‘orish tarmoqlari va inshootlari ajratiladi, yer turlari klassifikatsiyasiga muvofiq ularning turlari tushiriladi. Sug‘oriladigan yerlarda doimiy, shartli, liman sug‘oriladigan maydonlar ajratiladi. Sug‘oriladigan maydonlar hamda ular chegaralariga sug‘oriladigan yerlarni yo‘qlama qilish bo‘yicha maxsus o‘tkazilgan ishlar natijalari bo‘yicha doimiy ravishda aniqliklar kiritilib boriladi.

Yer hisobi planida foydalanish turlari, yerlarni sug‘orilish darajasi va yer turlari tarkibi bo‘yicha yerlarni hisobi uchun zarur bo‘lgan yer turlarining

tartib raqamlari va maydonlari ko'rsatiladi. Yer hisobi planining ma'lumotlari bo'yicha korxonalar, muassasa va tashkilotlar barcha yerlarga, alohida sug'oriladigan yerlarga kon turlari bo'yicha hisoblash vedomosti tuziladi.

Savollar:

1. Yerning sifati deganda nimani tushunasiz?
2. Yerni baholash ko'rsatkichlarini ayting?

## **VI-bob. YER MONITORINGI MAZMUNI VA TIZIMI**

### **6.1. Monitoring yuritishning mohiyati, turlari va dolzarbligi**

Hozirgi kunda jamiyatning har qaysi jabhasida keng ommalashib ulgurgan “Monitoring” tushunchasiga duch kelamiz. Xo‘sh, monitoring nima? Uning kelib chiqishi tarixi, maqsad va mohiyatiga qisqacha to‘xtalamiz.

“Monitoring” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi, taniqli olim Yu.A.Izrael ta’biriga ko‘ra: “takroriy kuzatishlar tizimi” ma‘nosiga ega.

Monitoring olib borish borasidagi dunyo ahamiyatiga molik dastlabki amaliy sa’y-harakatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 1972 yilda Stokgolmda tashkil etilgan maxsus anjumanda alohida tizimga ega bo‘lgan “Atrof-muhit monitoringi” deb nomlangan dastur to‘g‘risidagi qaror qabul qilinishi bilan bog‘liq bo‘lib, dunyo hamjamiyatida ushbu dastur asosida keng ko‘lamli ishlarning tadbiiq etilishi muhim bir bosqich hisoblanadi.

Fanga monitoring atamasi sobiiq ittifoq Gidrometeorologiya markazi va Fanlar Akademiyasi qoshida ochilgan “Tabiiy muhit va iqlim monitoringi” laboratoriyasi tashkilotchisi Yu.A.Izrael (1974) tomonidan kiritilgan.

Yu.A.Izrael (1974, 1979) monitoring kuzatuvlarini amalga oshirishda nafaqat abiotik, balki biotik omillar ko‘rsatkichlaridan foydalansh orqali tabiiy muhit ekologik monitoringini ko‘rsatib berishni isbotlab bergan. Shuningdek, muallif, atrof-muhit majmuaviy monitoringi”ni taklif etib, monitoring olib borishning konseptual yo‘llari (“kuzatish-baholash-bashoratlash”)ni asoslab bergan.

Monitoring keng qamrovli tizim hisoblanib, V.V.Korolyov (2007) e’tirofiga ko‘ra, uni bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan detal, lokal (mahalliy), regional, milliy va global darajadagi tizimlarga ajratish mumkin.

Rossiyaning V.V.Dokuchaev nomli Tuproqshunoslik instituti Sho‘r tuproqlar genezisi va meliorastiyasi bo‘limi xodimi F.I.Kozlovskiy birinchilardan bo‘lib 1970 yillarning boshlarida (1980, 1983, 2003) tuproq sho‘rlanganligini o‘rganishda ayerofotosuratlardan foydalanib, “optik-strukturaviy” uslubni qo‘llab, uni matematik modellashtirgan, tuproq sho‘rlanish jarayonlarini bashorat qilishda ayerokosmik fotonusxalarni xaritada talqin (deshifrovka) qilish orqali tuproq sho‘rlanganligi kartogrammalarini tuzgan.

Ushbu yo‘nalishda “ayerofotos’emka” materiallaridan foydalanib sho‘rlangan tuproqlarni masofaviy (distanstion) diagnostikasiga asoslangan uslublar V.M.Mazikov (1978), E.I.Pankova va V.M.Mazikov (1985), E.I.Pankova va E.A.Dolinna (1992), E.I.Pankova va D.A.Solovev (1993)lar tomonidan ham qo‘llanilgan bo‘lib, ular O‘rta Osiyo regionini sug‘oriladigan

tuproqlari sho‘rlanganlik darajasini baholash monitoringi ishlarini 1975-1989 yillarda Mirzacho‘lning yangidan sug‘oriladigan zonasi va Jizzax cho‘li hududlarida olib borganlar va bir qator tuproq sho‘rlanganligi kartogrammalarini tuzganlar.

Jumladan, D.A.Solovev (1989) tomonidan olib borgan tadqiqotlarda, sug‘oriladigan sho‘rlangan tuproqlarni xaritada ayerokosmik fotonusxalar yordamida talqin qilish asosida tuproq sho‘rlanganlik darajasini inventirizastiyalash, hududda qayd etilgan sho‘rlanish va sho‘rsizlanish jarayonlarining ko‘p yillik dinamik tavsifi, jadalligi va bu jarayonlarni boshqarishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

1992 yilda O‘zbekiston biologiya jurnalida chop etilgan “Yerning monitoringi nima va uni qanday tashkil etish kerak?” rukni ostida chop etilgan maqolada taniqli olim, akademik D.S.Sattorov (1992) tomonidan birinchi marta O‘zbekiston sharoitida yer monitoringining mazmun mohiyati to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari batafsil bayon qilingan.

G‘.Yo‘ldoshev U.Hosilov va T.Uraimovlar (1992) Respublikada “Yer monitoringi xizmati”ning tashkil etilishi tuproqni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini yaratib beradi degan fikr-mulohazalarini bildirishib, tuproqning bir qator xossa-hususiyatlarini (gumus miqdori, sho‘rlanish jarayoni, sizot suvlari sathi va minerallashganligi, ikkilamchi sho‘rlanish, makro va mikroelementlar, tuproq zichligi, og‘ir metallar, zaharli ximikatlari va pestistidlar bilan ifloslanish, eroziya va deflyatsiya jarayonlari va h.k.) nazorat qilish usullarini taklif etishgan.

Yu.I.Shirokova va N.Sh.Sharafutdinovalar (2003, 2004) tuproq sho‘rlanganligi monitoringini yuritishda SANIIRI tomonidan ishlab chiqilgan yangi uslub (yangi texnologiya) – “IKS-Ekspress 1T” rusumli elektrokonduktometr asbobi yordamida tuproq sho‘rlanganligini aniqlash va Excel i Surfyer (test kartalari) kompyuter dasturlaridan foydalanib matematik hisoblashni qo‘llaganlar. Parpiyev tomonidan Sirdaryo viloyatining yangidan sug‘oriladigan hududi (Oqoltin tumani)da joylashtirilgan, tadqiqotlar uchun tanlangan 270 gektarlik kalit maydonning har gektar yerida tuproq sho‘rlanganligi darajasini aniqlashga dog‘ir ilmiy izlanishlarida tuproq sho‘rlanganligi darajasini aniqlash bo‘yicha monitoring tadqiqotlarini o‘tkazishda, 0-60 sm li qatlam uchun har 5-6 gektar yerga bittadan tuproq nuqtasi (kesmasi) qo‘yilsa yetarli degan xulosaga kelingan.

N.A.Pronko (2002, 2003) tomonidan subarid mintaqaga mansub (O‘rta va quyi Povoljya) sug‘oriladigan tuproqlarda GAT (geoaxborot tizimlar)ni qo‘llash orqali, melioratsiyalanadigan yerlar meliorativ va agroekologik holatlarini baholash va bashorat qilish masalasi bo‘yicha monitoring tadqiqotlari olib borilgan.

I.N.Gogolev va boshqalar tomonidan cho‘l hududi sug‘oriladigan tuproqlari monitoringi uslubiyoti va yo‘llarini belgilashda aosiy vazifa qilib,

stanstionar kuzatish maydonchalarini tashkil etish va u yerda tuproqning dastlabki va keyingi holatini yoritishda har bir almashlab ekish rotastiyasidan soʻng kesma qoʻyish va tuproq naʼmunalari olish uslubi orqali tuproqlarni oʻrganib borish, shuningdek tuproqda sodir boʻladigan oʻzgarishlarni hisobga olgan holda meliorativ holatini baholab borish taklif etilgan.

Mamlakatimizda ham monitoring yuritishning davlat ustuvor yoʻnalishlari qatoriga kiritilishi alohida ahamiyatga molik. Chunki, tabiatdan, suvdan, shu jumladan yerdan toʻgʻri, oqilona va samarali foydalanish hamda tuproq-meliorativ holatini yaxshilash agrar tarmoqni yuksalib borishga olib keladi.

Bu borada A.Yergashev va T.Yergashevlarning agroekologik monitoringning asosiy elementlari (atmosfera, suv, tuproq, oʻsimlik, hayvon va inson) bir-birlari bilan bogʻlangan va bir-birlariga taʼsir oʻtkazadi degan iborasini keltirish mumkin. Masalan, tuproqning ekologik monitoringi: tuproq holati va uni vaqt-makon birligidagi oʻzgarishlarini baholash, shu bilan birga tuproq hosildorligini saqlash, qishloq xoʻjalik ekinlaridan yuqori hosil olish va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Darhaqiqat, barcha tabiiy resurslarni, shu jumladan “tuproq”ni kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylashimiz shart, buning uchun esa, albatta uzluksiz ravishda “Yer monitoringi” tadqiqotlari olib borish talab etiladi.

Respublikamizda dastlabki “Yer monitoringini yuritish” ilmiy-tadqiqot ishlari Tuproqshunoslik va agrokimyo instituti tomonidan Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining sugʻoriladigan va lalmikor tuproqlarida 2003-2008 yillar mobaynida olib borilgan, tadqiqot natijalari kalit maydonlarining tuproq-meliorativ holati karta-sxemalari ilova qilingan yakuniy hisobotlarda bayon qilingan, tuproq hossalari va meliorativ-ekologik holatlarini aks ettiruvchi bir qator maqolalar turli matbuot sahifalari va ilmiy-amaliy anjumanlar toʻplamlarida chop etilgan.

## **6.2. Yer monitoringining tizimi**

Yer monitoringi yer fondidagi oʻzgarishlarni oʻz vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish maqsadida uning holatini kuzatib borish tizimidan iborat.

Oʻzbekiston Respublikasining barcha yerlari, ularning huquqiy rejimi, foydalanish maqsadi va xarakteridan qatʼiy nazar, monitoring obʼekti hisoblanadi.

Monitoring yerlardan foydalanish maqsadini hisobga olgan holda olib boriladi va fondi toifalariga muvofiq quyidagi kichik tizimlarga boʻlinadi:

*Qishloq xoʻjaligi maqsadidagi yerlar monitoringi;*

*Aholi punktlari yerlari va monitoringi;*

*Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlardagi yerlar*

*monitoringi;*

*Tabiatni muxofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekretsion maq-sadlardagi yerlar monitoringi;*

*o'rmon fondi yerlari monitoringi;*

*suv fondi yerlari monitoringi;*

*zaxira yerlar monitoringi.*

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi yer monitoringining asosiy vazifasi hisoblanadi:

Yer fondi holati o'zgarishlarini o'z vaqtida aniqlash ustidan kuzatishlar tizimini tashkil etish va amalga oshirish, ularni baholash, salbiy jarayonlarni prognozlash hamda ularning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

Davlat yer kadastri yuritilishini, yerdan foydalanishini, yer tuzishni, yer fondidan maqsadli va oqilona foydalanish, yerlarni muhofaza qilish va yer resurslarini davlat tomonidan boshqarishga dog'ir boshqa funksiyalar ustidan davlat nazoratini axborot bilan ta'minlash.

Hududiy qamrab olinishiga ko'ra yerlarning respublika, mintaqaviy va mahalliy monitoringi amalga oshiriladi.

Mintaqaviy monitoring fizik – geografik, ma'muriy va boshqa chegaralar bilan chegaralangan hududlarni qamrab oladi.

Mahalliy monitoring alohida yer uchastkalari va manzara - ekologiya komplekslarini qamrab oladi.

Yer monitoringi mazmuni yer fondi holatini maxsus tashkil etilgan muntazam kuzatishlar (suratga olish, tekshirish va qidiruv)dan quyidagilar o'zgarishlarini aniqlash, baholash va prognozlashdan iborat bo'ladi:

Yerga egalik qilish, yerdan foydalanish, ekinzorlar, dalalar, uchastkalar, manzara – ekologiya komplekslarini holati;

Yerlar unumdorligining o'zgarishiga, ularning tanazzuli va destruksiyasi (aridizatsiya va cho'llanishi, suv, irrigatsiya va shamol eroziyasi, chirindi miqdori o'zgarishi, tuproq tarkibining o'zgarishi, ohakliligi, begona o't bosganligi, sho'rlanganligi, qishloq xo'jaligi yerlarining o't bosganligi, yerlarning pestitsidlar, og'ir metallar, radionuklidlar va boshqa toksik moddalar, sanoat, maishiy va boshqa chirindilar bilan ifloslanishi) ga ta'sir qiluvchi jarayonlar:

Tabiiy ozuqabop o'tlar qoplami holatining o'zgarishi (o'simliklar tarkibi, tuzilishi, hosildorligi, sifati va to'yimlili-gining o'zgarishi) bilan bog'liq jarayonlar;

Daryolar qirg'oqlarining, Orol dengizi, ko'llar, suv omborlari, irrigatsiya va gidrotexnika inshootlarining faoliyati;

Jarliklar va o'pqonlar, o'pirilishlar, sel oqimlari, zilzilalar, suv toshqinlari, «degishlar», karst, yer cho'kishi, boshqa ekzogen va endogen jarayonlar va antropotexnogen hodisalar tufayli paydo bo'lgan jarayonlar;

Aholi yashash joylari, neft va gaz qazib olish, tozalash inshootlari, go'ngxonalar, axlatxonalar, yonilg'i moylash materiallari, o'g'itlar, zaharli ximikatlar omborlari, toksik sanoat chiqindilari va radioaktiv materiallar ko'milgan joylar, shuningdek boshqa sanoat ob'ektlari yerlarining holati.

Yerlarning holati o'zgarishlarining yo'nalishi va jadalligiga oid bir qancha izchil kuzatishlarini (davriy, mavsumiy, sutkalik) tahlil qilish, olingan ko'rsatkichlarni yerlarning sifat holati normativlari bilan taqqoslash orşali baholanadi. Yer holatini baholash ko'rsatkichlari muayyan davr yoki sana uchun ham absolyut, ham nisbiy ko'rsatkichlarda (o'lchov birligida) ifodalanadi.

Yerlar holatini baholash natijalariga ko'ra tezkor ma'lumotlar, axborotlar, prognozlar va tavsiyanomalar tuziladi, ularga o'zgarishlar, ayniqsa salbiy o'zgarishlarning dinamikasi, ularning yo'nalishini va jadalligini tavsiflovchi mavzuli xaritalar, kartogrammalar, jadvallar va diarrammalar ilova qilinadi.

Yer monitoringini yuritish bo'yicha ishlar davlat byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

### **6.3. Tuproq - meliorativ monitoringi**

Tuproq meliorativ holatini yaxshilash, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish ishlari tuproq holatlari, uning inson faoliyatini ta'sirida o'zgarishlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni taqazo etadi.

Yer qobig'i, gidrosfera, atmosfera va quruqlikda hayot kechiruvchi organizmlar o'rtasida moddalar almashuvida sodir bo'ladigan jadal jarayonlarda biosferaning aloqa vositasi bo'lgan tuproqning roli nihoyatda katta, u atrof muhitni keng dog'irada kuzatishning ayrilmas qismi bo'lgan tuproq holatlarini alohida kuzatish zarurligini belgilaydi.

Monitoring deganda yer fondlari holatini baholash va bashorat qilish, tuproqdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish maqsadida bo'layotgan o'zgarishlarning uzoq muddatli kuzatishlari tushuniladi. Kuzatishlar global, regional va lokal bo'lishlari mumkin. Global kuzatishlar biosferaning umumplanetar, qit'a o'zgarishlarining kuzatishlar tizimi. Mintaqaviy kuzatishlar yirik tabiiy-iqtisodiy mintaqalar, tumanlar miqyosidagi kuzatishlar va lokal ma'lum bir hudud, joyning o'zgarish jarayonlarini kuzatishni o'z ichiga oladi.

Tuproq qatlamlari, shu jumladan, tuproq-meliorativ holatini kuzatish xizmatlarini tashkil etish zaruriyati yildan-yilga muhim va o'tkir muammo bo'lib qolmoqda, chunki insonning tuproqqa ko'rsatayotgan ta'siri suratlari doimo oshib bormoqda. Ikkinchi tomondan global antropogen o'zgarishlarning tuproqqa ko'rsatayotgan ta'sirining umumiy hajmi tabiiy omillar ta'siri bilan qo'shib ketgan (25-jadval).



Yerlarning meliorativ holatini kuzatish oldida turgan vazifalarning umumiy ro'yxati yetarlicha katta. Kelajakda yangi vazifalar qo'shib, bugungi kundagi vazifalarning bir qismi kun tartibidan olib tashlanishi mumkin. Lekin hozirgi vaqtda shunday nazorat hali zarur. Tuproqdan foydalanishning ayrim hollarida sodir bo'ladigan jarayonlarda kun tartibidan kuzatishlar va nazorat qilish aslo olinmaydi.

Hozirgi davrda yerlarning meliorativ holatini kuzatishning muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- Hududlardagi sho'rlangan tuproqlarni aniqlash va baholash, nazorat qilish, tuproqlarni tuz rejimlari o'zgarishni nazorat qilish.
- Ikkilamchi sho'rlanishga uchragan tuproqlarni bashorat qilish va baholash.
- Suv, shamol va irrigatsion eroziyaga uchragan erlarni o'z vaqtida payqab olish va hisobga olish.
- Eroziya rivojlanishi natijasida tuproqning o'rtacha yillik yo'qolishini baholash.
- Tuproqda gumusning kamayish jarayonlarini baholash va nazorat qilish.
- O'simliklarning asosiy oziqa elementlari balansi tanqis regionlarini aniqlash va bu elementlarini miqdorini nazorat qilish.
- Tuproqda kislotali va ishqoriy muhitning o'zgarishini nazorat qilish.
- Tuproqni o'ta zichlanishini nazorat qilish.
- Tuproqni og'ir metallar bilan ifloslanishini nazorat qilish.
- Tuproqning sanoat korxonalarini ta'siri zonasida, transport magistrallarida og'ir metallar va radionukleidlardan lokal ifloslanishini, shuningdek agroximikatlar, pestitsidlardan va aholi zich joylashgan xududlarda sanoat chiqindilardan foydalanishni nazorat qilish.
- Tuproqdagi namlik, harorat, struktura holati, suv-fizikaviy va fizik-mexanik xossalari davriy va uzoq muddatli nazorat qilish.
- Hidromorf va yarim gidromorf sharoitlarda grunt suvlarining chuqurligini, mineralizatsiyasini va ifloslanishini davriy va uzoq muddatlar nazorat qilish.
- Yerlarni gidroqurilish jihatdan loyihalashda, melioratsiyalashda, dehqonchilikni yangi tizimlarini joriy qilishda, o'g'itlar, o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari va turli biotexnologiyalar ko'llanilganda tuproqda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash va nazorat qilish.

25-jadval

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan barcha MDH yerlarning melioratsiyaga muhtojligi (V.A.Kovda ma'lumotlaridan)

Qish. xo'j. yerlar hosildorligini chegaralovchi omillar	Haydala-digan yerlar	O't-o'lan maydon-lar, yaylov-lar	Qishloq xo'jaligidagi yerlar hosildorligini chegaralovchi omillar	Haydala-digan yerlar	O't-o'lan maydon-lar, yaylov-lar
Qurg'oqchilik	160	300	Toshloq yerlar	7	30
Suv eroziyasi	120	195	Texnogen buzilgan yerlar	2	-
Deflyatsiya (shamol eroziyasi)	12	80-195	Strukturani yo'qolishi	200	-
Nordon muhit	64	13	Gumusning yo'qotilishi	200	-
Ishqoriy muhit	22	67	Fosforning o'tkir tanqisligi	100	-
O'ta namlanish	10	17			

Haydaladigan yaroqli unumdor tuproqlarni, ayniqsa meliorativ maqbul, qulay yerlarni sanoat va kommunal maqsadlari uchun ajratishda ularning maydoni va to'g'riligini inspektorlik nazorat qilish.

Yerlardan foydalanishning to'g'riligini, ilmiy asoslanganligini, shuningdek melioratsiyaga muhtoj (sho'rlangan, eroziyaga, uchragan, toshloq, o'ta zichlashgan, gumusi kamayib ketgan, ifloslangan, o'ta namlangan, qurib ketgan va boshqalar) tuproqlarda agrotexnik va agromeliorativ tadbirlarni aniqligi va to'g'riligini inspektorlik nazorat qilish.

Yuqorida sanab ko'rsatilganlar ko'proq umumiy tarzda va mumkin qadar to'la bo'lmagan vazifalar ro'yxati bo'lib, ular Respublikaning tuproq-geografik, iqlimiy va iqtisodiy rayonlashtirish, tuproq kuzatish ob'ekti, shu jumladan yerlarning meliorativ holatini kuzatishdan kelib chiqib tabaqalashtirilishi mumkin.

Tuproq melioratsiyasi qat'iy ilmiy yondoshishga asoslangan doimiy ish hisoblanib, bu O'zbekistonning qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturining va yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy asosini yaratishning muhim qismi bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi» hamda «Davlat yer kadastrini», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» «Fermer xo'jaliklari to'g'risidagi» va boshqa qonunlar va me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan.

Shu bois hozirgi davrda Tuproq melioratsiyasining asosiy vazifalariga tuproq qoplamlari va tuproq meliorativ holatlarini chuqur va har tomonlama batafsil o'rganish asosida respublika tuproqlarini to'la tekshirish o'tkazish, geosfera va iqtisodiy rivojlanish tabiiy resurslari tizimlarining bir dinamik

tizimchasi sifatida ularning holati va potensial imkoniyatlariga baho berish, shular asosida barcha holatlarni hisobga olgan holda yerlarni muhofaza qilish, meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirishga qaratilgan ekologik va iqtisodiy asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqish kiradi.

Demak, “Tuproq-meliorativ monitoringi” – umumiy yer monitoringi tizimining ajralmas bir bo‘g‘ini hisoblanib, u tuproq meliorativ holatida yuzaga keladigan salbiy jarayonlarni oldini olishga, uni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishga va albatta makon-vaqt oralig‘ida tizimli kuzatishlar orqali sug‘oriladigan tuproqlar holatini nazorat qilib borishga asos bo‘lib hizmat qiladi.

Savollar:

1. Yer monitoringi necha xil bo‘ladi?
2. Yerlarning holati qanday qilib baholanadi?

## **VII-bob. YER HUQUQI TUSHUNCHASI. O‘ZBEKISTONDA YERGA HUQUQIY MUNOSABATLAR**

Yer huquqi huquqning mustaqil sohasi bo‘lib, davlat tomonidan mavjud yer resurslari ilmiy asoslangan tarzda foydalanish va muxofaza qilish, samarali foydalanish sharoitlarini yaratish maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishni o‘z ichiga oluvchi davlat tomonidan o‘rgatilgan va mustahkamlangan me‘yorlar to‘plami (tizimi)dan iborat.

Huquqning mustaqil sohasi bo‘lish uchun yer huquqi quyidagi kriteriyalarga javob berishi kerak: huquqiy muvofiqlashtirishning uslubining mavjudligi, davlatning ushbu guruh jamoat munosabatlarini alohida muvofiqlashtirishga qiziqishi va shu munosabat bilan maxsuslashtirilgan qonuniy va boshqa me‘yoriy aktlar tizimining mavjudligi.

Yer huquqi yuqorida keltirilgan barcha talablarga javob beradi. Birinchidan, u o‘z huquqiy muvofiqlashtirish predmetiga ega. Yer munosabatlarining alohida xususiyati shundan iboratki u muhim tabiiy ob‘ekt hisoblanadi, mutloq davlat egaligida bo‘ladi, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida asosiy ishlab chiqarish vositasi va xalq xo‘jaligining qolgan barcha sohalarini rivojlantirishda joyning tabiiy joylashish bazasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, yuŕorida aytilganidek yer huquqi muvofiqlashtirishning spetsifik uslubiga ega.

Uchinchidan, u huquqiy muvofiqlashtirishning maxsus manbalariga, ya’ni asosiy kodeksi hisoblangan me‘yoriy aktlar yigindisiga ega.

## 7.1. Yer huquqining predmeti va muvofiqlashtirish uslubi

Yer huquqi fanining predmeti sifatida yer bo'yicha huquqiy munosabatlar xizmat šiladi.

Yer bo'yicha huquqiy munosabatlar bu yerga egalik qilish va foydalanish bo'yicha munosabatlardir. Ularga quyidagilar kirmaydi:

- 1) *Noiqtisodiy xaraktyerga ega bo'lmagan munosabatlar, ya'ni ularda yer mulk, foydalanish va himoya qilish ob'ekti sifatida foydalanilmaydi. Masalan: administrativ hududiy boshqarish tizimida yer qishloq xo'jalik ishlab chiqarish vositasi sifatida emas, balki davlat hokimiyati joylashish ob'ekti sifatida foydalaniladi. Shu sababli bu yerda munosabatlar iqtisodiy xarakterga ega emas, demak yer huquqining emas, balki davlat va administrativ huquqning predmeti hisoblanadi.*
- 2) *Yer bevosita bog'liq bo'lgan noiqtisodiy munosabatlar. Misol sifatida differensial venta bilan bogliq bo'lgan munosabatlarni ko'rsatish mumkin. Ular yerdan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish oqibatida emas, balki tovar ishlab chiqarish jarayonida (olingan hosil) paydo bo'ladi, shuning uchun mulkiy munosabatlar kategoriyasiga kiradi va administrativ, moliyaviy va boshqa huquqiy sohalarini predmeti hisoblanadi.*

Yer huquqi fanining uslubini belgilashda huquqiy muvofiqlashtirishning ya'ni jamiyatdagi mugosabatlar qatnashchilariga yuridik usullar bilan ularning ma'lum ish yuritish soxasidagi hatti-harakatini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Muvofiqlashtirish shaxslarning harakat modellarini (huquq va majburiyatlar ko'rinishida) yer bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni mustahkamlovchi me'yoriy aktlarni chop etishdan boshlanadi.

Majburiyatlar ikki xil modelda bo'ladi ma'lum harakatlarni bajarish talablari yoki ularni bajarmaslik.

Huquqlar ham ikki xil bo'ladi: huquq egasiga ma'lum bir harakatlarni o'z xohishiga ko'ra bajarish yoki bajarmaslik.

Yer huquqining me'yorlari. Me'yorlar huquq va majburiyatlarning ma'lum bir – birligini o'rgatadi. Masalan yer fondini boshqarish sohasida munosabatlar asosan quyidagi tipda ko'rilgan.

Boshqaruvchi davlat organi, bajaruvchi yerdan foydalanuvchi.

Chunki, yer berishi lozim bo'lgan shaxsning yerni olish huquqi uning yer so'rab talabnomani yozishi va ma'lum davlat hokimiyat organining talabnomani ko'rib chiqib uni qondirish yoki qaytarish majburiyatidan boshlanadi.

Shunday qilib yer munosabatlarini huquqiy muvofiqlashtirish uslubiy tarkibiga quyidagilar kiradi: huquqni berish va majburiyatni yuklash, ularning bajarilishini nazorat qilish kerak bo'lganda majburiy davlat choralarini qo'llash.

Yer huquqining me'yorlari ta'sir ko'rsatish uslubiga ko'ra 3 xilga bo'linadi: majburiyat yuklovchi, ta'qiqlovchi va baholatuvchi.

Majburiyat yuklovchi me'yorlar ma'lum harakatlarni amalga oshirishdan saqlanib turishni ko'rsatadi.

Vakolat beruvchi me'yorlar ma'lum harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Yer huquqi tizimi. Yer huquqi tizimi deganda bir- biri bilan uzviy bog'liqligi bo'lgan yer huquqi institutlarining yig'indisi ko'zda tutiladi.

Yer huquqining asosi. Yer huquqining me'yorlari mazmunining asosi sifatida quyidagi tamoyillar (prinsiplar) xizmat qiladi:

1. *davlatning yerga mutloq egalik huquqi*
2. *kimning egaligidan yoki foydalanishida bo'lishidan qat'iy nazar boshqarish huquqi*
3. *barcha davlat organlari va yerdan foydalanuvchining yerdan unumli foydalanishi va muhofaza qilish majburiyati*
4. *yerlardan qishloq xo'jaligida foydalanishning ustivorligi*
5. *yerdan foydalanishning pulligi*
6. *davlatning mutloq yer egasi huquqi, hamda yerdan foydalanuvchilarning huquqlari muhofazasi.*

Yuqorida keltirilgan tamoyillar (prinsiplar) yoki yer huquqining aniq me'yorida (yoki me'yoriy moddasida) yoki bir nechta me'yorlardan kelib chiqadi.

Davlatning yerga mutloq egalik huquqi to'g'ridan-to'g'ri yer kodeksining 16-moddasida belgilab qo'yilgan. U yer huquqining ko'pgina me'yorlarini belgilaydi. Yer fuqarolik oborotidan olingan hisoblanib, u bilan oldi – sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, guvohga qo'yilmaydi. Yer faqatgina foydalanishga beriladi. Yerdan foydalanish huquqini yer kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq maxsus vakolatli davlat hokimiyati idoralarining maxsus ruxsatnomalari asosida vujudga keladi.

Davlatning butun yer fondini kishining egaligida yoki foydalanishida bo'lishidan qat'iy nazar boshqarish huquqi yer kodeksining 3- moddasida mustahkamlangan bo'lib, uning asosida yerdan foydalanish va muxofaza qilishni boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar va Toshkent shaxar davlat hokimiyati va organlari, hamda qonun bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlari tomonidan boshqarilishining asosiy funksiyalari belgilangan jumladan: yer uchastkalarini berish va olib qo'yish 23 va 37 – moddalar yerdan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati 83 – 85 – moddalar, yer tuzish 11- 15 – moddalar yer xususidagi nizolarni hal etish 89 – modda.

Barcha davlat organlari va yerdan foydalanuvchilarning yerdan unumli foydalanish va muhofaza qilish majburiyati yer kodeksining 1- moddasida belgilangan bo'lib, yer munosabatlarini muvofiqlashtirishning asosiy

maqsadini bildiradi. Bu prinsip qonunda belgilangan moddalarning ko'pida o'z aksini topgan. Jumladan: 39-moddada yer egasi, 40-moddada esa ularning yerdan unumli foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlari berilgan. 15-moddada davlat yer kadastrining roli to'grisida berilgan bo'lsa, 12-moddada yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etishda yer tuzishning vazifalari berilgan.

Yerlardan qishloq xo'jaligida foydalanishning ustivorligi prinsip qonunning 43, 44, 45, 46-moddalariga asoslangan bo'lib ularga asosan qishloq xo'jaligi uchun yaroqli bo'lgan yerlar birinchi navbatda Shu maqsad uchun berilishi lozim. Boshqa maqsadlar uchun qishloq xo'jaligiga yaroqsiz yoki sifatli bo'lmagan yer turlaridan ajratiladi. Bu prinsip o'z aksini qonunning boshqa moddalarida ham topgan. Jumladan, 37-moddaga asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlardan juda kerak bo'lgan hollarda, qishloq xo'jalik yerlari esa alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilangina olinishi mumkin. 86-moddaga binoan korxonalar, tashkilot va muassasalarga ko'rinishlar va boshqa noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun berilgan yerlar uchun yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkasi ijarachilari va mulkdorlariga yetkazilgan zararni o'rnini qoplash ko'zda tutiladi.

Yerdan foydalanishning pulligi prinsipi qonunning 28-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unga asosan O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanganlik uchun haq to'lanadi.

O'z egaligida va foydalanishida hamda mulkida yer uchastkalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar yer uchun haq to'laydilar. Yer uchun xaq har yili to'planadigan Yer solig'i shaklida olinadi, uning miqdori yer uchastkasining sifatiga, joylashishiga va suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab belgilanadi.

Davlatning mutloq yer egasi huquqi hamda yerdan foydalanuvchilarning huquqlari muhofazasi prinsipi qonunning 16, 17 va 18-moddalari bo'yicha kafolatlangan bo'lib ularga asosan, hamda 90-moddaga binoan davlatning va yerdan foydalanuvchilarning yerga nisbatan huquqni buzganligi uchun javobgarlikka tortiladi.

## **7.2. O'zbekistonda yerga huquqiy munosabatlar**

Yerga huquqiy munosabatlar tushunchasi va klassifikatsiyasi.

Yerga huquqiy munosabatlar, huquqni boshqa har qanday sohasidagi singari, yer bo'yicha insonlar o'rtasida amalda huquqiy me'yorlar asosida yuzaga keladigan, amalga oshadigan va to'xtatiladigan munosabatlar tushuniladi.

Yer huquqi bo'yicha, uni davlatning mutloq mulki ob'ekti sifatida undan xo'jalik va boshqa ish yuritishda foydalanish munosabati bilan yuzaga keladigan munosabatlarni muvofiqlashtiradi. Bu munosabatlarning

qatnashchilariga tegishli xuquq va majburiyatlarni o'rgatish bilan, yer huquqi ularga yer munosabatlari xarakterini beradi.

Asosiy institutlar bo'yicha klassifikatsiya quyidagi sohalarda yer munosabatlarini ajratish imkonini beradi.

1) davlatning yerga mutloq egaligi

2) davlat yer fondini boshqarish

3) yerdan foydalanish

4) muhofazaviy yer munosabatlari

Boshqa klassifikatsiyalariga barcha munosabatlarni moddiy va protsessual munosabatlarga bo'ladi.

Moddiy yer munosabatlari yer bilan bevosita bog'liq bo'lgan yer munosabatlari sub'ektlarining huquqlari va majburiyatlarini ko'rsatuvchi me'yorlarda, protsessual munosabatlar yuzaga kelish tartibi, amalga oshishi va tugatilishini ko'rsatuvchi moddiy yer huquqi munosabatlarini ko'rsatuvchi me'yorlarda berilgan.

Yerga huquq munosabatlari ob'ekti va sub'ektlari.

Yer munosabatlarining sub'ekti, ya'ni huquq va majburiyatlarning tashuvchi sifatida: davlat, yer munosabatlarini tartibga solish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari, qishloq va qishloq xo'jalik, jamoat tashkilotlari, muassasalari va korxonalari: fuqarolar.

Davlat barcha yer bo'yicha huquqiy munosabatlarning bevosita yoki bilvosita o'z organlari orqali ishtirokchi hisoblanadi.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolar ba'zi bir o'zlariga xos bo'lgan xususiyatlari bilan barcha xildagi yer bo'yicha huquqiy munosabatlarning sub'ektlari bo'lishi mumkin.

Yer bo'yicha munosabatlarning umumiy ob'ekti bo'lib yer xizmat qiladi. Ammo yer bo'yicha huquqiy munosabatlarning xiliga qarab uning ob'ekti bo'lib butun yer fondi, uning ma'lum qismi yoki yer uchastkasi xizmat qilishi mumkin.

Yerdan foydalanish bo'yicha huquqiy munosabatlarning ob'ekti bo'lib doim aniq individual yer uchastkasi xizmat qiladi.

Yer bo'yicha huquqiy munosabatlarning mazmuni bo'lib huquqiy me'yorlarda ko'zda tutilgan ular bilan yer bo'yicha huquqiy munosabatlar ishtirokchilari harakat qilishlari lozim bo'lgan, huquq va majburiyatlar xizmat qiladi.

Misol uchun, mulkning yer bo'yicha huquqiy munosabatlari mazmuni yerga davlatning mutloq egalik huquqi bilan aniqlanadi. Davlat yer egasi sifatida ma'lum bir huquqlarga ega. Boshqa barcha sub'ektlar davlatning bu huquqiga qarshilik ko'rsatmasliklari va xarakatlar qilmasliklari lozim.

Huquq va majburiyatlar tarkibi bo'yicha eng murakkabi yerdan foydalanuvchilarning huquqiy munosabatlaridir: ular o'z ichiga yerdan foydalanuvchilar va davlat o'rtasidagi, hamda yerdan foydalanuvchilar va

huquqning boshqa sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni oladi.

Huquqiy munosabatlarning yuzaga kelish asosi bo'lib yer huquqi me'yorlarida ko'zda tutilgan yuridik faktlar xizmat qiladi.

Xo'jalik yuritish ob'ekti sifatida yer hududini tashkil qilishdagi huquqiy munosabatlar maxsus vakolatdagi davlat organlarining qarorlari asosida yuzaga keladi. Muhofazaviy huquqiy munosabatlar ma'lum dog'iradagi yer huquqi me'yorlarida ko'zda tutilgan asosida yuzaga keladi.

### **7.3. Yerni huquqiy muhofaza qilishning mazmuni va tartibi**

Yerni huquqiy muhofazasi deganda – ularni huquqiy vositalar bilan muhofaza qilish tushuniladi.

Respublikamizda yer muhofazasining o'ta muhimligini shu bilan sharhlash mumkinki, yildan yilga aholining tez o'sib borishi, sanoat, transport va boshqa sohalaridagi qurilishlar uchun ko'plab maydondagi yerlarning ajratilishi oqibatida jon boshiga hisoblanganda sug'oriladigan yer maydonlari kamayib bormoqda. Shu sababli yer to'g'risidagi qonun hujjatlarida yerlarni muxofaza qilishning mazmuni va tartibi belgilab berilgan. Jumladan asosiy qonunimiz hisoblangan yer kodeksining 79-moddasiga binoan yerlarni muhofaza qilish o'z ichiga huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa tadbirlar tizimini qamrab oladi.

Yerni muxofaza qilish yerlarga murakkab tabiiy xosilalar (ekotizimlar) tariqasida, ularning zona va mintaqa xususiyatlarini e'tiborga olgan holda yondoshish asosida amalga oshiriladi. Yerni muhofaza qilishni ta'minlash maqsadida yer egalari, foydalanuvchilar va ijarachilar qonunga asosan quyidagi talablarni bajaradilar:

- 1) *hududni oqilona tashkil etadilar.*
- 2) *Tuproq unumdorligini, shuningdek yerning boshqa xossalarini tiklaydilar va oshiradilar.*
- 3) *Yerni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, suv bosishdan, zahlanishdan, qayta sho'r bosishdan, zararlanishidan, ishlab chiqarish chiqindilari va radioaktiv moddalari bilan ifloslanishdan, buta va yovvoyi o'tlar bosib ketishidan, yerlarning madaniy texnik holatini yomonlashtiruvchi boshqa jarayonlardan himoya qiladilar.*
- 4) *Buzilgan yerlarni qaytadan ekinzorlarga aylantiradilar, ularning unumdorligini va boshqa foydali xossalarini oshiradilar.*

Davlat organlari yerlarni muhofaza qilish yuzasidan Respublika dasturi yoki hududiy dasturlar dog'irasida zarur chora – tadbirlarni ko'radilar va ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Qonunga asosan yerlarning muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni to'liq amalga oshirgan yer egalari va yordam foydalanuvchilar iqtisodiy raxbatlantiradi. (82-modda)

Savollar:



1. Yerlar qanday qilib muhofaza qilinadi?
2. Yer huquqining tizimi nima?

#### **7.4.Qishloq xo‘jalik yerlarining huquqiy holati**

Yer toifalarining huquqiy holati, yer qonunchiligida yerlarni foydalanish maqsadlariga qarab tasniflangan sakkiz turdagi yer toifalarining huquqiy holatini ochib berishga bag‘ishlangan alohida toifaga ajratilgan yerlarning huquqiy holatini ta’riflash uchun zarur bo‘lgan huquqiy munosabatlar ob’ekti, maxsus vakolatlangan davlat organlari, ushbu munosabatlar sub’ektlari va ularning mazmuni hamda yerga oid munosabatlarni tartibga solishning huquqiy mexanizmini sxemalar, tushunchalar va ma’lumotlarda yoritib berishga harakat qildik. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni huquqiy tartibga solish masalasi respublikamiz uchun o‘ta dolzarb muammo, agrar soha esa ustivor yo‘nalish bo‘lganligi uchun ham uni boshqa yer toifalariga nisbatan batafsilroq yoritib berishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Alohida bir yer toifalarining huquqiy holatini belgilashda yer qonunchiligi quyidagi tamoyillarini inobatga oladi – birinchidan, tuproqlarni, ayniqsa, yuqori qimmatga ega bo‘lganlarni qishloq xo‘jaligida foydalanish.

Ikkinchidan, sug‘oriladigan yerlarni iloji boricha noqishloq va o‘rmon xo‘jaligi yer toifalaridan chiqarmaslik.

Uchinchidan, yerlardan qanday maqsadlarda foydalanilmasin, ularni muxofaza qilish talablarning majburiyiligi.

To‘rtinchidan, har bir yer toifalarining ekologik vazifasini yo‘qotib qo‘ymaslik.

O‘zbekiston Respublikasi Yer fondi – O‘zbekiston Respublikasi chegarasi dog‘irasidagi quruqlik qismi. Bu yagona tizimdagi tabiiy ob’ektlarning bir qismi bo‘lib, xalq xo‘jaligi nuqtai nazaridan o‘ziga xos turli ko‘rsatkichlarga va xususiyatlarga ega bo‘lgan (tuproq unumdorligi, o‘rmon va suv bilan qoplanganligi, foydali mineral qazilmalarning mavjudligi va h.k.) va uning turli tarmoqlarida tegishli ravishda ishlatiladigan ob’ektdir. Yer fondi toifalari – O‘zbekiston Respublikasi Yer fondidan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra guruhlashtirish, Respublikamiz Yer fondi Yer kodeksining 8-moddasiga muvofiq quyidagi toifalariga ajratiladi:

1. qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar;
2. aholi punktlarining yerlari;
3. sanoat, transport, aloqa mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar;
4. tabiatni muxofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreasiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar;
5. tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar;
6. o‘rmon fondi yerlari;

7. suv fondi yerlari;

8. zaxira yerlar;

Alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerlari tarixiy madaniy, ekologik, estetik, sanitar sog'lomlashtirish, madaniy hordiq chiqarish kabi maqsadlarni ko'zlab davlat tomonidan alohida e'tibor bilan xo'jalik faoliyatini cheklash yoki ma'n qilish orqali muhofaza etiladigan hududlar va ob'ektlarning yerlari Yer kodeksining 71-moddasiga muvofiq alohida muhofaza etiladigan hududlarni yerlariga quyidagilar kiradi:

1. tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar;
2. sog'lomlashtirish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar;
3. rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar;
4. tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib quyilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar tarkibiga qishloq xo'jaligini yuritish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari kommunikasiyalar, o'rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallagan yerlar ham kiradi (Yer kodeksining 43-moddasi).

2011 yil 1-yanvar holatiga binoan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar 25,8 ming mln, ga yoki O'zbekiston Yer fondining 58,1% ni tashkil qilgan. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning qiymati – O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar asosan unumdor yerlar tuproq qatlami bilan qoplanganligi uchun ham boshqa Yer fondi toifasidagi yerlarga nisbatan qimmatliroq hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish birinchi navbatda va maxsus yo'llar bilan amalga oshirilishi kerak. Undan tashqari ushbu yerlar nafaqat iqtisodiy, balki ekologik vazifalarni bajarishda ham alohida o'rin tutadi, chunki unda tuproq va unumdorlik xususiyati ishtirok etadi. Tuproq - unumdorlik xususiyatga ega bo'lgan, mustaqil shakllangan, tabiiy tarixiy organik va mineral tarkibli tabiat jismi, O'zbekistonda 100 dan ortiq tuproq turlari uchraydi va ular kelib chiqishi (genezisi) va geografik tarqalishiga qarab, vertikal tog' tuproqlari (baland tog' och tusli qung'ir, jigarrang va o'rta tog' qo'ng'ir, bo'z, bo'z-o'tloqi va shu kabi) va cho'l mintaqasidagi tuproqlarga (qo'ng'ir tusli, qumli cho'l, taqir, taqirli, taqirli – o'tloq, o'tloqi-taqir cho'l mintaqasidagi o'tloq) ajratiladi. Ammo tuproqshunoslik fanida sug'oriladigan tuproqlar alohida turlarga ajratib olinadi, chunki ularning insonlar tomonidan o'zlashtirilishi va madaniylashtirilishi davomida o'ziga xos genetik kesma ko'rinishga ega bo'lgan antropogen tuproqlar yuzaga keladi. Tuproq qiymati tuproqning unumdorlik xususiyatlariga qarab baholanadi, unumdorlik esa o'simlik dunyosining rivojlanishi uchun kerak bo'ladigan barcha sharoitlarni yaratib beradi. Tuproq biosferaning alohida bir qismi bo'lib yer ustidagi qumli, tog'u

toshlar, shag'allar va boshqa minerallardan o'zining unumdorligi bilan ajralib turadi.

Tuproq unumdorligi-tuproqning o'simlik dunyosining ozuqa elementlari, namlik, havo, issiqlik kabi hayotiy zarur sharoitlar bilan o'zliksiz ta'minlab turish qobiliyati. Tuproq unumdorligi o'zgaruvchan va turli darajadagi ko'rsatkichdir. U nafaqat tuproq turlari balki bir turning o'zida mahalliy sharoit va ketayotgan tabiiy–texnogen jarayonlarga qarab ham farq qiladi.

Tuproqlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish– amaldagi qonun hujjatlari asosida tuproq unumdorligini saqlab qolish, qayta tiklash va ulardan samarali foydalanish yuzasidan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni davlat va jamoat tomonidan boshqarib borish. Ushbu huquqiy tartibga solish Yer kodeksi tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi Davlat Yer kadastri, qishloq xo'jalik kooperativi (shirkati) to'g'risidagi, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi kabi umumiy va ixtisoslashtirilgan qonunlar Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-noyabrda qabul qilingan "Yerlardan samarali foydalanishni oshirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori kabi qonun osti hujjatlar orqali amalga oshiriladi. Afsuski, ushbu huquqiy normalar shu kunda tuproqni saqlab qolish va uning unumdorlik xususiyatini tiklashda o'z samarasini to'liq ko'rsata olmayapti deyish qiyin. Shuning uchun ham biz O'zbekiston ekologik habarnomasi 1998 yil 1-son dagi qonunni qabul qilish va yer huquqiy mexanizmini qayta ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 55-moddasiga esa tuproqni alohida bir tabiiy ob'ekt sifatida kirgizishni taklif qilingan edi.

Qishloq xo'jalik yerlari - nisbatan foydalanishi bir xilda bo'lgan yoki ma'lum bir xo'jalik yurgizish belgilari bilan birlashtirilgan qishloq xo'jalik yerlarini guruhlashtirish. Yer kodeksining 43-moddasiga muvofiq Respublikamizda quyidagi turdagi qishloq xo'jalik yerlari ajratiladi haydalma yerlar (4056,8 ming ga), pichanzorlar va yaylovlar (22263,4 ming ga), bo'z yerlar (80,7 min ga), ko'p yillik dov-daraxtlar (352,9 ming ga). Ko'p yillik dov daraxtlarga bog'lar, uzumzorlar, tutzorlar, mevali daraxt va butalar etishtiriladigan yerlar, ya'ni ko'p yillik mevasidan hosil olinadigan dov-daraxtlar kiradi.

Sug'oriladigan yerlarga qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan suv resurslari shu yerlarni sug'orishni ta'minlay oladigan doimiy va muvaqqat (vaqtinchalik) sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar (to'g'riroq'i tuproqlar). Yer kodeksining 44-moddasiga binoan sug'oriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinishi lozim va uladan boshqa toifadagi yerlarga o'tkazish alohida zarur hollarda tuproq meliorativ suv bilan ta'minlanganligini, ulardagi mavjud suv resurslarini va bo'z suvlarga berilgan limitlarni inobatga olib, Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda

viloyat hokimi qaroriga binoan amalga oshirish mumkin.

Alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar kadastr baholanishiga ko'ra o'rtacha tuman bonitet ballidan (tuproqning sifat jihatidan baholanishidan) 20 % dan ko'p ballga ega bo'lgan sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari. Ushbu yerlar davlat tomonidan alohida muhofaza qilinadi va ularni sug'orilmaydigan yer toifalariga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu yerlarda korxonalar, binolar va imoratlar qurilishi alohida hollarda Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan yo'l qo'yilmaydi (Yer kodeksining 45-moddasi).

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni berish - maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan Yer fondidan Yer qonunchiligiga muvofiq yer munosabati sub'ektlariga egallash, foydalanish ijara va mulk sifatida berilishi.

Fuqarolik – ma'lum bir davlatga tegishli bo'lgan jismoniy shaxs. Yer qonun hujjatlarida yer munosabatlari ishtirokchisi sifatida O'zbekiston Respublikasi va chet - el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan jismoniy shaxslarga ajratiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini tashkilotlari va muassasalari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi davlat yoki nodavlat tashkilotlarga tegishli yuridik shaxslar. Ularga tegishli bo'lmagan yer maydonlari 244,7 ming ga yoki 0,9 % qishloq xo'jalik yerlarini tashkil etadi (2000 yil 1 yanvar holatiga binoan).

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Respublikaning yer fondi qanday toifalarga ajratiladi?
2. Alohida muhofaza qilinadigan yerlarga nimalar kiradi?
3. Qishloq xo'jaligi yerlari qanday guruhlardan tashkil topgan?
4. Qanday yerlar sug'orilmaydigan yer toifalariga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi?
5. Yer munosabatlari ishtirokchisi kimlar bo'lishi mumkin?

## **VIII-bob. KO'CHMAS MULK VA UNI BAHOLASH**

### **8.1. Ko'chmas mulk va uning bozori**

Ko'chmas mulk - bu kenglikda belgilangan o'rnashgan joyiga ega bo'lgan jismoniy ob'ektlar va ular bilan ham yer osti, ham yer usti bo'yicha chambarchas bog'liq bo'lgan yoki xizmat ko'rsatuvchi predmet hisoblangan barcha narsalar, shuningdek, ob'ektlarga egalik qilish bilan bog'liq huquqlar, manfaatlar va foydalardir. Jismoniy ob'ektlar deganda, bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yer uchastkalari va ularda

joylashgan qurilishlar tushuniladi. Ko'chmas mulk fuqarolik huquqlarining ob'ekti hisoblanadi va u joylashgan yer uchastkalari bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 83-moddasiga muvofiq ko'chmas mulkka «Yer uchastkalari va yer osti, ko'p yillik ekinlar, shuningdek, bino va inshootlar» kiradi. Qonun bilan ko'chmas mulkka boshqa mol-mulk ham kiritilishi mumkin.

Ko'chmas mulk (yer uchastkalaridan tashqari) barpo etiladi, foydalaniladi va eskiradi. Ko'chmas mulk; barpo etilish yoki qurilish bosqichida bo'lgan (qurilishi tugallanmagan); belgilanishiga ko'ra foydalaniladigan; samaraliroq yangi yo'nalishda foydalaniladigan; ularning eskirishi tufayli ulardan foydalanishning iloji bo'lmaydigan ob'ektlar ko'rinishida namoyon etilishi mumkin.

Respublika qonunchiligiga muvofiq ko'chmas mulk davlat, yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston rezidentlari va norezidentlarining mulkka ega bo'lishi mumkin. Ko'chmas mulkka egalik qilish ququqi ushbu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish hukuqlarini o'z ichiga oladi. Ko'chmas mulkka nisbagan ushbu hukuqlarga davlat (davlat mulkchilik shakli), yuridik (qo'shma, kooperativ, akqiyadorlik va xususiy mulkchilik shakli) va jismoniy (xususiy mulkchilik shakli) shaxslar ega bo'lishi mumkin. Bu holat, birinchi galda ushbu shartlar bilan korxonalar va tashkilotlarga beriladigan davlat mulkiga hamda ijaraga beriladigan mulkchilikni boshqa shakllaridagi mol-mulkka tegishli.

Respublika iqtisodiyotining xo'jalik yuritishning bozor mexanizmlariga o'tishi, korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish, qayta tarkiblash, xususiylashtirish va aksiyalashtirish jarayolarini kengayishi, xorijiy sarmoyaning jalb etilishi, mulkiy va nomulkiy huquqlar bilan turli xildagi operatsiyalarning rivojlanishi mulkdorlar o'rtasidagi, shuningdek, mulkdorlar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni sivilizatsiyalashgan yo'llar bilan tartibga solish va ko'chmas mulk bozorini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

### **Yer uchastkalari:**

- 1.1- shaharlar va aholi punktlari;
- 1.2- qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi;
- 1.3- boshqa toifalar.

### **Binolar va imoratlar:**

- 2.1 - uy-joy yo'nalishidagi;
- 2.2 - ijtimoiy yo'nalishdagi;
- 2.3 - madaniy-maishiy yo'nalishdagi.

### **Inshootlar:**

- 3.1- sanoat yo'nalishidagi;

3.2- sanoat infratuzilmalari;

3.3- boshqa.

«Ko‘chmas mulk bozori» deganda, «tovar almashuvi sohasi» tushuniladi, «... unda oldi-sotdi jarayoni bilan bog‘liq munosabatlar yuzaga keladi va amalga oshiriladi». Ushbu bozor «ma‘lum bir mexanizmlar to‘plami bo‘lib, ular yordamida mulkka bo‘lgan huquq va u bilan bog‘liq manfaatlar bir shaxsdan boshqa shaxsga o‘tadi, narxlar belgilanadi va yerdan foydalanadilar. 1. Turli raqobatlashuvchi variantlari o‘rtasida kenglik taqsimlanadi» 2. Ko‘chmas mulk bozorini «mavjud va potensial xaridorlar yig‘indisiz» tasavvur etib bo‘lmaydi.

## 8.2. Ko‘chmas mulk qiymatini baholash nima?

Qiymatlar, baholash tamoyillari va tadbirlari haqida gapirishdan avval baholashning o‘zi nimaligini aniqlab olish zarur.

«Baholash» (*arrgaise*) fe‘li, bir necha xil ma‘noga ega. U narxni aniqlash, qiymatni belgilash, miqdorni baholash, nimanidir sifati yoki qadr-qimmatini haqida xulosa chiqarishi kabi ma‘nolarni anglatadi.

Ko‘chmas mulkning baholovchilari amal qiladigan baholash jarayoni barcha ma‘nolarni qamrab olishi tufayli baholovchi nafaqat baholanayotgan ob‘ektning qiymatini aniqlaydi, balki qiymatni aniqlash uchun miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

"**Baho**" (*arrgaisel*) atamasi ham qo‘yilgan shart va maqsad mazmuniga qarab bir necha ma‘noga ega bo‘lishi mumkin. U baholash bo‘yicha harakatni, yoki qiymat haqidagi xulosani, yoxud tadqiqotlar natijalari taqdim etilgan hisobotni anglatishi mumkin.

**Baholash** – bu umumiy qabul qilingan tartiblarga mos keladigan va baholashning umumiy qabul qilingan tamoyillarning qo‘llanilishi bilan bajariladigan, tegishli tadqiqot yo‘li bilan qiymatni belgilash san‘atidir;

baho — bu ob‘ektni batafsil o‘rganishga asoslangan qiymat haqidagi fikrdir.

Ko‘chmas mulkning qiymatini baholash deganda yuridik yoki jismoniy shaxslarning ko‘chmas mulk muayyan turi (ob‘ekt)ning eng ehtimolga yaqin qiymatini aniqlashga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha kasbiy faoliyati tushuniladi.

Shuni alohida ta‘kidlash zarurki, ob‘ekt (mol-mulk) ning qiymati ma‘lum bir sharoitlarda yuzaga keladi. To‘rtta ana shunday tarkibiy sharoit mavjud: "*talab, foydalilik, chegaralangan taklif va mulkchilik huquqlarini o‘tkazish imkoniyati*".

Talab deganda bozorda ma‘lum bir vaqt ichida sotib olinishi mumkin bo‘lgan qandaydir mol-mulkning miqdori tushuniladi. Talabning ortishi, ko‘p hollarda, narxning o‘sishini keltirib chiqaradi.

Foydalilik deganda mol-mulkning odamlarni ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish qobiliyati tushuniladi. Odatda, ushbu mol-mulk qanchalik ko'p ehtiyojlarni qondirishga qodir bo'lsa, unga bo'lgan talab shunchalik ko'p bo'ladi. Foydalilikning o'sishi, odatda narxning o'sishi bilan kuzatiladi.

Katta talab va yuqori foydalilikka qaramasdan, hech qanaqa mol-mulk qiymatga ega bo'lmaydi. Qaysikim unga nisbatan bozor ishtirokchilarining muddatsiz va keskin foydalanishga imkoniyatlari bo'lsa. Xususan, yer chegaralangan resurs hisoblanadi. Yerga bo'lgan talabning ortishiga qarab, uni ushbu yangi talabni qondirish uchun takror ishlab chiqarish mumkin emas.

Har qanday mol-mulk faqatgina unga nisbatan mulkchilik huquqini o'tkazish imkoniyati mavjud bo'lganda tovarga aylanadi va tegishli qiymatga ega bo'ladi. Agar amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq ma'lum turdagi yerlarning sotilishiga yo'l qo'yilmasa, ushbu yerlar ijara huquqlarining bozor qiymatini baholash mumkin bo'lishiga qaramay ular qiymatga ega bo'lmaydi.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida qiymatning turli xillari mavjud. Ko'chmas mulkning qiymatini baholash har doim qandaydir bir muayyan maqsad bilan o'tkaziladi. Masalan, ko'chmas mulkni sug'urtalash maqsadida qiymatni baholash uning qiymatini ipoteka krediti uchun baholashdan farq qiladi. Birinchi holatda qiymat avvaldan ma'lum biror bir xatarlilikni hisobi inshootlar elementlarini tiklash xarajatlari bilan ikkinchi holatda esa ipoteka krediti bo'yicha to'lovlar to'xtatilgan hollarda ob'ekt bozorda sotilishi mumkin bo'lgan eng ehtimolli narx bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, bir xil ko'chmas mulkning o'zi, baholash maqsadiga qarab turli qiymatga ega bo'lishi mumkin.

Ko'chmas mulk qiymatini baholashga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tabiiy va boshqa omillar doimo ta'sir ko'rsatadi.

### **8.3. Yer uchastkalarini baholash**

Yer uchastkalarini baholashning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqishdan oldin ushbu uchastkalarining fuqarolik-huquqiy aylanishini tartibga soluvchi asosiy qonun xujjatlariga to'xtalib o'tish lozim.

Yer uchastkasi - bu yer yuzasining bir qismi bo'lib, u qat'iy belgilangan chegaraga, maydonga, joylashgan o'rniga, huquqiy maqomga va yer kadastrida hamda yerga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish xujjatlarida aks ettiriladigan boshqa tavsiflarga ega.

Yer uchastkalarining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlari bilan tartibga solinadi. Yuridik va jismoniy shaxslar umrbod egalik qilish va foydalanish, doimiy (muddatsiz) foydalanish, muddatli

(vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin.

Yer uchastkasiga nisbatan mulk huquqi «O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi» asosida ko'chmas mulkka bo'ltan huquq sifatida amal qiladi. Lekin yer qimmatbaho tabiiy ob'ekt hisoblanadi, u davlatning hududini tashkil qiladi, shuning uchun ko'chmas mulk sifatida yerga bo'lgan mulk huquqini tartibga solishga davlat, tabiatni muhofaza qilish va boshqa manfaatlar aralashadi. Shuning uchun mulkdorlar tomonidan yerga bo'lgan o'z huquqlarini amalga oshirishi, bir tomondan, bu fuqarolik–huquqiy munosabatlar sohasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, boshqa ob'ektlar ichida yer alohida mavqega ega bo'lganligi bois, bu ko'chmas mulk sifatida yerning o'ziga xos huquqiy rejimidir.

**Meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish va foydalanish huquqi** o'z holatiga ko'ra islohot o'tish davrining huquqiga kiradi. Meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi mulk huquqlarining tarkibiy qismlaridan biri sifatida egalik qilishning qonuniy kuchga ega bo'lishi bilan hech qanday umumiylikka ega emas. Meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish va foydalanish huquqiga ega bo'lgan yer uchastkasining egasi unda bino va inshoot qurish hamda unga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritgan holda boshqa ko'chmas mulkni barpo etish huquqiga ega.

**Doimiy (muddatsiz) foydalanish huquqi** yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning bir turi sifatida tan olinadi. Ushbu huquqning ijara huquqidan asosiy farqi shundan iboratki, fuqarolik huquqi bo'yicha ijara munosabatlari majburiyatli huquqqa ega, bu ularning huquqiy jihatdan tartibga solishda aks etadi, doimiy foydalanish huquqi esa, mulk huquqi va meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish va foydalanish huquqi singari ashhyoviy huquqlarning bir turi hisoblanadi. Amaldagi qonun xujjatlariga asosan doimiy (muddatsiz) foydalanishda bo'lgan yer uchastkasini tasarruf etish huquqiga mazkur uchastkani ijaraga berish yoki bepul muddatli foydalanishga topshirish imkoniyati kiradi. Yer to'g'risidagi qonun xujjatlariga muvofiq foydalanuvchi ham yer mulkdorlari va ijarachilari ega bo'lgan huquq va majburiyatlarga ega.

**Yer uchastkasini ijaraga olish** yerdan foydalanishning mulk huquqidan keyingi eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Ijara – bu majburiyat turlaridan biri bo'lib, ijara munosabatlari ijarachi va ijaraga beruvchi o'rtasidagi shartnomadan yuzaga keladi. Yer mulkining ijarasi bo'yicha munosabatlar fuqarolik to'g'risidagi qonun xujjatlarida belgilangan umumiy talablarga bo'ysunganligi bois, ularni qonunchilik yuzasidan tartibga solishning asosini “O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi”, hususan, uning majburiyatli munosabatlarning u yoki bu tomonini tartibga soluvchi barcha bo'limlari tashkil qiladi. Yer uchastkalarini ijaraga olishning o'ziga xos xususiyatlari amaldagi yer to'g'risidagi qonun xujjatlari bilan ham



tartibga solinadi. Ijarachi, yerni ijaraga olib, undan foydalanadi, ya'ni yerdan foydali xususiyatlarni chiqarib oladi va foydalanuvchi sifatida qonun bo'yicha va shartnomaga muvofiq mevalar, mahsulot va yerdan foydalanish natijasida olingan daromadlarga nisbatan mulk huquqini ko'lg'a kiritadi. Ijaraga olishda yer uchastkasi faqat unga egalik qilish huquqisiz foydalanishga topshirilishi mumkin.

Ijaraning o'zidan tashqari yer uchastkasi ko'chmas mulkni ijaraga olishdagi ijara munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish dog'irasiga ham tushadi. Yer uchastkasida joylashgan bino yoki inshootni ijaraga olishda yer uchastkasiga bo'lgan huquq «O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik kodeksi" bilan tartibga solinadi, mazkur Kodeks asosida ijarachiga yer uchastkasining unda ijaraga olinayotgan ko'chmas mulk joylashgan qismiga nisbatan va ko'chmas mulkdan foydalanishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan qismiga nisbatan huquq o'tadi. Agar yer ijaraga beruvchining mulki yoki foydalanishida bo'lsa, yer uchastkasi ijarachiga ijara huquqida va ijara shartnomasida ko'zda tutilgan boshqa huquqda o'tadi. Agar u asosida tegishli yer uchastkasi ijarachiga berilayotgan shartnomada huquq belgilanmagan bo'lsa, uchastka ijarachiga foydalanish huquqiga o'tadi. Ijaraga beruvchiga mulk huquqida tegishli bo'lmagan yer uchastkasidagi mavjud bino yoki inshootni ijaraga olishga, agar bu qonun bilan yoki yer uchastkasining mulkdori bilan tuzilgan shartnomada belgilangan bunday uchastkadan foydalanishning shartlariga zid bo'lmasa, ushbu uchastka egasiinning rozilgisiz ruxsat etiladi.

Yer uchastkalarining huquqiy maqomi ularning qiymatini aniqlovchi muhim omil hisoblanadi.

O'zbekistonning hozirgi sharoitida yer ko'chmas mulk tarkibida iqtisodiy baholashning eng murakkab ob'ektlaridan biri sanaladi, yer mazkur ob'ektning o'ziga asos xususiyati va mamlakatimizda yer bozorining rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Yer uchastkasining boshqa turdagi ko'chmas mulklardan farqi quyidagi xususiyatlar bilan belgilandi:

Yer tabiiy resurs qisoblanadi, boshqa turdagi ko'chmas mulk ob'ektlaridan farqli o'laroq uni erkin tarzda qayta yaratish mumkin emas;

Baholash chog'ida har doim asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida ham (qishloq xo'jaligi va o'rmon yerlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari uchun zarur bo'lgan xom-ashyo resurslari hamda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etadi), ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun kenglik sifatida ham (yer turli xildagi ko'chmas mulk ob'ektlarini joylashtirish uchun kenglik bazisi hisoblanadi) yerdan ko'p maqsadda foydalanish imkoniyatini inobatga olish kerak;

- Yer fondi mamlakat aholisi hayot kechirishi muhitini shakllantirishning asosi sifatida ishtirok etadi va ayniqsa o'rmon va suv fondi

yerlari ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi (shuning uchun barcha rivojlangan mamlakatlarda davlat yerdan foydalanishni bir vaqtning o'zida ham tabiiy, ham xo'jalik ob'ekti sifatida tartibga soladi);

- Boshqa ko'chmas mulk ob'ektlaridan farqli ravishda yer uchastkalarining qiymatiga jismoniy va funktsional eskirish, shuningdek, amortizatsiya tushunchalari qo'llanilmaydi, chunki yer uchastkasini ekspluatatsiya qilish muddati chegaralanmagan;

- O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanish va uni muqofaza qilish tegishli hududlarda yashovchi xalqlarning turmushi va faoliyatini asosi hisoblanadi.

Ushbu xususiyatlar yerlarning iqtisodiy asoslangan qiymatini baholashning murakkabligini keltirib chiqardi, bunday baholash yerlardan bir vaqtning o'zida tabiiy resurs, aholi hayot kechirishining asosi va ko'chmas mulk ob'ekti sifatida foydalanish imkoniyatini hisobga olishi kerak.

Baholash chog'ida yerdan foydalanish kategoriyasi katta ahamiyatga ega, chunki u muayyan yer uchastkasi bo'yicha huquqiy holatni, ruxsat etilgan foydalanishni va turli servitutlarni belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasining yer fondi maqsadli va huquqiy rejim bo'yicha yerlarning 7 ta asosiy toifalarini o'z ichiga oladi; qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, aholi punktlari yerlari, sanoat, transport, aloqa va boshqa sohalarga mo'ljallangan yerlar, alohida ko'riqlanadigan yerlar, o'rmon fondi yerlari, suv fondi yerlari va zaxira yerlar.

«O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi»ga muvofiq *«yer davlat mulki - umummilliy boylkdir, undan oqilona foidalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan hollar bundan mustasno»* (16-modda).

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari - yuridik va jismoniy shahslarning yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi «savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga xususiylashtirilganda qonun xujjatlarida belgilangan tartibda vujudga keladi» (18-modda).

### **Yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqiga O'zbekiston Respublikasining fuqarolari:**

- dehqon xo'jaligi yuritish uchun;
- yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun;
- jamoa bozdorchigishgi va uzumchshigm yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egachik qilishga yer uchastkasi olish huquqiga egadirlar» (19-modda).

«Dehqon xo‘jaligi oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi» (55-modda).

«Shaharlar va posyolkalarda, shuningdek, qishloq xo‘jaligi hamda o‘rmon xo‘jaligi korxonolari, muassasalari va tashkilotlarining egaligidagi yerlar tarkibiga kirmagan qishloq aholi punktlarida doimiy yashab turgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga yakka tartibda uy-joy qurish va uy joyini obodonlashtirish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga qonun xujjatlarida belgilangan tartibda har bir oilaga 0,06 gektargacha yer uchastkachari beriladi» (27-modda).

«Shaharlar va posyolkalarda, shuningdek, qishloq aholi punktlarida yashovchi, dehqon ho‘jaligi yuritish uchun tomorqa yer uchastkalariga ega bo‘lmagan fuqarolarga korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning iltimosnomasiga binoan jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga yoki jamoa polizchiligi uchun vaqtincha foydalanishga yer uchastkasi tuman hokimi tomonidan beriladi...» (56-modda).

Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun va jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligi uchun berilgan yerlar 46-moddaga muvofiq «Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar» toifasiga kiradi, yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyga xizmat ko‘rsatish uchun berilgan yerlar esa 62-moddaga binoan «Aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari» toifasiga kiradi. Bu xususiyatlar ushbu yer egalarining meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqlari va ijara huquqlarining qiymatini baholash metodikalarini aniqlashda hisobga olinishi kerak.

Yer uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli (vaqtincha) egalik qilishga hamda ulardan doimiy va muddatli (vaqtincha) foydalanishga berilishi mumkin. **«Yer uchastkalari korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qishloq va o‘rmon xo‘jaligi yuritish uchun, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, boshqa maqsadlar uchun ham doimiy egalik qilishga beriladi.**

Doimiy yoki muddatli (vaqtincha) foydalanish uchun yer uchastkalari:

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolariga;  
sanoat, transport hamda boshqa noqishloq xo‘jalik korxonolari, muassasalari va tashkilotlariga;

chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga;

chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga beriladi.

Yer uchastkalaridan muddatli foydalanish qisqa muddatli – uch yildan o‘n yilgacha bo‘lishi mumkin. Ishlab chiqarish zaruriyati taqozo etganda bu muddatlar tegishli qisqa muddatli yoki uzoq muddatli vaqtincha foydalanish muddatlaridan ortiq bo‘lmagan davrda uzaytirilishi mumkin. Yer uchastkalaridan vaqtincha foydalanish muddatlarini uzaytirish shu uchastkalarni bergan organlar tomonidan amalga oshiriladi” (20-modda).

**Yer uchastkasining ijarasi** “Yer uchastkasiga ijara shartnomasi shartlarida muddatli, haq evaziga egalik qilish va foydalanishdan iboratdir. Ijaraga berilgan yer uchastkasi yoki uning bir qismini ikkilamchi ijaraga berish taqiqlanadi” (24-modda).

O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksida shu narsa belgilanganki, “yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan amalga oshirilgan yer uchastkalari oldi-sotdisi, ularni hadya qilish, garovga qo‘yish (yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan, kim oshdi savdosi asosida olingan shunday huquqni, shuningdek, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo‘yish bundan mustasno), yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan ayriboshlash haqiqiy emas deb hisoblanadi. Bunday bitimlarni amalga oshirishda aybdor shaxslar qonunga binoan javobgar bo‘ladilar” (90-modda).

“Yer egasi bo‘lgan fuqaro yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan, kim oshdi savdosi asosida olingan shunday huquqni dehqon xo‘jaligi yuritish, yakka tartibda uy-joy qurish maqsadida kreditlar olish uchun garovga qo‘yishi mumkin” (39-modda).

Fermer xo‘jaligi kreditlar olish uchun o‘z mol-mulkini, shuningdek, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo‘yishga haqli» (12-modda).

«Fermer xo‘jaligi tadbirkorlik faoliyati sub’ekti tariqasida qonun xujjatlarida belgilangan tartibda qo‘yidagi huquqlarga ega:

ijaraga beruvchining ruxsati bilan yoki qonunda yoxud ijara shartnomasida nazarda tutilgan hollarda yer uchastkasini ijaraga berish huquqini kredit olish uchun garovga qo‘yish. (15-modda).

O‘zbekiston Respublikasining «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq: qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari) a‘zolarining, boshqa qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari xodimlarining oilalariga, shuningdek, qishloq joylarda yashovchi o‘qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarning oilalariga dehqon xo‘jalik yuritish uchun qonun xujjatlarida belgilangan tartibda meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa yer uchastkasi imorat va hovli egallagan maydonini ham qo‘shganda sug‘oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug‘rilmaydigan (lalmikor)

yerlarda 0,5 gektargacha o'lchamda, cho'l va sahro mintaqasida esa sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 1 gektargacha o'lchamda beriladi.

Fuqarolarga dehqon xo'jaligi yuritish uchun 0,06 gektar dog'irasida tomorqa yer uchastkalariga meros qilib qoldirtadigan umrbod egalik qilish huquqi kim oshdi savdosi asosida realizatsiya qilinishi mumkin» (8-modda).

«Dehqon xo'jaligiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan tomorqa yer uchastkalari xususiylashtirilishi va oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash ob'ekti bo'lishi mumkin emas. Yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kredit olish uchun garovga qo'yilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligiga berilgan tomorqa yer uchastkasi bo'linishi mumkin emas» (9-modda).

«Dehqon xo'jaligi tadbirkorlik faoliyatining sub'ekti tariqasida qonun xujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega:

...o'z mol-mulkini, shuningdek tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan, kim oshdi savdosi asosida sotib olingan huquqni garovga qo'yish» (12-modda).

Yer egalarining yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqlari va ijara huquqlarining qonun xujjatlari bilan ruxsat etilgan vakolatlari 26-jadvalda keltirilgan.

«O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi»ga muvofiq «Korxonalar, bino, inshoot yoki boshqa qo'chmas mol-mulkka nisbatan mulk huquqi, xo'jalik yuritish huquqi yoki ularni operativ bishqarish huquqi boshqa shaxsga o'tgan taqdirda, ana shu ob'ektlar bilan birgalikda mazkur ob'ektlar joylashgan hamda ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan yer uchastkasiga egalik qilish va undan doimiy foydalanish huquqi ham o'tadi.

Uy-joyga, chorbog'ga bo'lgan mulk huquqi (sotib olish, hadya yoki meros bo'yicha olish va boshqa hollarda) jismoniy shaxsga o'tgan taqdirda ana shu imoratlarga mulk huquqi bilan birgalikda mazkur imoratlar joylashgan barcha yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanish huquqlari ham o'tadi.

26-jadval

Fuqarolik-huquqiy aylanishga jalb etilishi mumkin bo'lgan yer uchastkalariga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarining turlari

Yer uchastkalarining maqsadli yo'nalishlari	Huquqlarning turlari	
	Meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqlari	Ijara huquqlari

«Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar» toifasi		
Dehqon xo‘jaligi	+	-
Fermer xo‘jaligi	-	+
Jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligi shirkatidagi yer uchastkasi		++
Yerlarni ijaraga olish	-	+
«Aholi punktlari (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlari) ning yerlari» toifasi		
Yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va uy-joyga xizmat ko‘rsatish	+	.
Yerlarni ijaraga olish	-	+

Korxonaning, binoning, inshootning yoki boshqa ko‘chmas mol-mulkning bir qismiga nisbatan mulk huquqi, xo‘jalik yuritish huquqi, ularni operativ boshqarish huquqi yangi mulkdorga yoki boshqa ashyoviy huquqlarning egasiga o‘tgan taqdirda, unga yer uchastkasining korxonaning, binoning, inshootning yoki boshqa ko‘chmas mol-mulkning ulushiga mutanosib bo‘lgan qismiga egalik qilish va undan doimiy foydalanish huquqi ham o‘tadi, yer uchastkasini bunday ajratish mumkin bo‘lmagan hollarda, shuningdek, ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan masalalar yuzasidan nizolashilgan hollarda yer uchastkasining bo‘linishi davlat kadastr va yer tuzish xizmati organlari tomonidan amalga oshirilib, tuman, shahar hokimining qarori bilan tasdiqlanadi va shundan keyin yer uchastkasiga egalik qilish va undan doimiy foydalanish huquqi davlat ro‘yxatiga olinib, tegishli davlat xujjatlari beriladi» (22-modda).

Yer uchastkalariga nisbatan turli huquqlarning yuzaga kelishi va aylanishi masalalarining yuqorida keltirilgan batafsil bayoni baholash ishlarini o‘tkazishga nisbatan asosli yondashuvni ta’minlash imkonini beradi.

Yerni baholash yer uchastkalarini ommaviy kadastrli baholash va alohida Yer uchastkasining bozor qiymatini baholash turlariga bo‘linadi.

Kadastrli baholashning maqsadi baholash hududlari bo‘yicha ma’lum sanada ma’muriy-hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, posyolkalar va h.k.) chegaralarida yer uchastkalarining kadastr qiymatini bir vaqtning o‘zida aniqlashdan iborat. Bu ishlar, odatda, davlat mablag‘lari hisobidan va uning buyurtmasiga ko‘ra bunga vakolat olgan tuzilmalar tomonidan bajariladi.

Yer uchastkalarini baholashga nisbatan daromad nuktai nazaridan yondashuv yer qiymatini imkoniyatli xaridor tomonidan

kutilayotgan daromatlardan kelib chiqqan holda baholash imkonini beradi.

Tijorat ob'ektlari qurilgan yer uchastkalarini baholashda daromadli yondashuvda yer uchastkasiga to'g'ri keladigan daromad qoldig'i texnikasidan foydalanish mumkin.

Yerning qoldiq unumdorligi tamoyiliga muvofiq daromadni taqsimlashda yerda sarmoya, ishchi kuchi va boshqaruvni jalb qilish hisobidan qurilgan bino va inshootlarga ustunlik beriladi. Boshqa omillarni jalb qilish xarajatlari qoplanganidan so'ng qolgan daromad yer uchastkasiga qo'shib qo'yiladi.

Yer uchun daromad qoldig'i texnikasini qo'llash shartlari quyidagicha: mavjud ob'ektlar yer uchastkasidan eng yaxshi va eng samarali foydalanish variantiga mos keladi;

yer uchastkasida joylashgan bino va inshootlarning qiymati yoki ularni qurish uchun ko'zda tutilayotgan harajatlar ularni ekspluatatsiya qilish muddati singari yetarli darajada aniq hisoblab chiqilishi mumkin;

ko'chmas mulk ob'ektini (yaxshilangan yer uchastkasini) ekspluatatsiya qilishdan olinadigan yillik sof operatsion daromad ma'lum bo'lsa.

**Qiyosiy yondashuv** faqat yer bozori rivojlangan sharoitda qo'llaniladi. Bu yondashuv shunga o'xshash yer uchastkalarining sotuv narxlari haqidagi axborotni tizimlash va taqqoslashga, ya'ni o'rin bosish tamoyiliga asoslangan. O'rin bosish tamoyili shunga asoslanadiki, bozor ochiq va raqobatli bo'lib, unda yetarli miqdordagi sotuvchilar va xaridorlar o'zaro hamkorlik qiladi. Yana shu narsa nazarda tutiladiki, yer uchastkasi ushbu bozorga xos bo'lgan moliyalashtirish shartlarida harid qilinadi va bozorda imkoniyatli xaridorlarga qulay bo'lishi uchun uzoq vaqt mobaynida bo'ladi. Qiyosiy yondashuv taqqoslash va ko'chirish usullarini o'z ichiga oladi.

### **Sotuvlarni taqqoslash usuli bilan qiymatni baholash algoritmi**

**1-bosqich.** Yer bozorining tegishli segmentidagi qiyoslanayotgan ob'ektlarning yaqin orada sotilganlarini aniqlash. Yer bozori o'rganiladi, uni segmentlash amalga oshiriladi va baholash ob'ekti bozorning qaysi segmentiga taalluqliligi aniqlanadi.

Mazkur segmentga hos bo'lgan yer uchastkasining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- yerlarning maqsadli yo'nalishi;
- zonalashtirish va yerdan foydalanishning ruxsat etilgan variantlari;
- joylashgan o'rni;

- yerlarning xususiyatlari (tuproqniig unumdorligi va boshqa xususiyatlari);

- o‘tkaziladigan mulk huquqi va b.

Yer bozorining ushbu segmentiga xos bo‘lgan sub’ektning xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- investitsion jozibadorlik;
- to‘lov qobiliyati;
- ijtimoiy-iqtisodiy maqom;
- moliyalash manbalari va shakllari;
- xaridorlarni afzal bilish va b.

Segmentlash natijasida yer uchastkalari quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

- bog‘dorchilik va tomorqa maqsadlarida foydalaniladigan uchastkalar;

- yakka tartibda uy-joy qurish uchun foydalaniladigan uchastkalar;

- ommaviy uy-joy qurilishi uchun foydalaniladigan uchastkalar;

- tijorat ko‘chmas mulki ob’ektlarini qurish uchun uchastkalar;

- sanoat imoratlari qurish uchun uchastkalar;

- jamoat ob’ektlarini qurish uchun uchastkalar va x.k.

Yer uchastkalarining oldi-sotdi bitimlari haqidagi bozor axboroti hududiy holat, yerdan foydalanishning extimoliy varianti, yerning xususiyatlari kabi belgilardan kelib chiqqan holda tasniflanishi mumkin.

**2-bosqich.** Yer uchastkasi bilan tuzilgan bitimlarni tekshirish.

Axborotning ishonchligini oshirish va bitimlar o‘ziga xos bozor sharoitida amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilish maqsadida axborot tanlab olinadi.

**3-bosqich.** Baholanayotgan yer uchastkasini bozorda sotilgan uchastkalar bilan solishtirish va baholanayotgan hamda har bir taqqoslanayotgan uchastkalar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda tuzatishlar kiritish.

Yer uchastkasini sotilgan boshqa yer uchastkalari bilan taqqoslash orqali baholash ikkita usulda amalga oshirilishi mumkin: taqqoslash elementlari bo‘yicha yoki taqqoslash birliklari yordamida.

Yer uchastkalarining xususiyatlari va ular bilan bitimlar tuzishning sotuv narxining miqdoriga ta’sir etuvchi shartlari taqqoslash elementlari deb nomlanadi. Qiyosiy sotuvlarni tahlil qilish yo‘li bilan andaza yer uchastkasining qiymati aniqlanadi va u keyinchalik boshqa yer uchastkalari qiymatini hisoblashning asosi hisoblanadi. Andaza yer uchastkasi sifatida real yoki gepotetik uchastkadan foydalanish mumkin.



Taqqoslash birliklari quyidagi hollarda foydalaniladi, agar:

a) daromad keltiruvchi yer uchastkalari maydoni va mavjud yaxshilanishlarning miqdori bo'yicha farq qilsa;

b) sarmoyadorlar yoki imkoniyatli xaridorlar uchun oldindan beriladigan axbort zarur bo'lsa.

Imoratlar qurilmagan yer uchastkalari bilan bitimlar tuzilishida quyidagi taqqoslash birliklaridan foydalaniladi:

**1 gektar narxi** - qishloq xo'jaligiga yoki o'rmon uchun, sanoatda foydalanish uchun mo'ljallangan yerning katta massivini baholashda, yer massivlarini andaza uchastkalarga bo'lishda.

**1 m<sup>2</sup> m narxi** shaharlar markazlaridagi yerni tijorat imoratlarini qurish uchun sotishda. Uchastkalar muhim belgilar bo'yicha taqqoslanadigan bo'lishi kerak: ofis binolari uchun - transport magistrallariga va avtomobillarni qo'yish joylariga, boshqa ofis binolariga, banklarga chiqish yo'ldarining mavjudligi; omborxonalar uchun transport kommunikatsiyalariga, banklarga chiqish yo'llarining mavjudligi.

**1 frontal metr narxi** - savdo korxonalarini hamda xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini uchun mo'ljallangan yerni baholashda yer uchastkasining umumiy qiymati uning qaysidir ko'cha bo'yicha chegarasining uzunligiga mutanosib hisoblanadi.

**Lot narxi** - ommaviy uy-joy yoki dala hovli imoratlari quriladigan hududlardagi shakli va o'lchami bo'yicha andaza yer uchastkalarining narxi. Shakli va o'lchami bo'yicha andaza yer uchastkalari narxining o'zgarib turishi rel'efdagi o'zgarishlar, drenaj muammolar yoki toshqinlar xavfi tufayli sodir bo'lishi mumkin.

**Zichlik birligining narxi.** Zonalashtirishga dog'ir me'yoriy xujjatlar, odatda turli uchastkalardagi imoratlarning zich joylashuvini chegaralaydi. Bozorning ayrim segmentlarida bu shunga olib keladiki, narxlar zonalashtirish tasdiqlangan me'yorlari asosida, masalan, qurish uchun ruxsat etilgan uy-joy binolarining soni asosida kotirovka qilinadi.

Taqqoslash birligi usulining ustunligi bo'lib, uning nisbatan soddaligi va osonligi hisoblanadi. U yangi yer massivlarini o'zlashtirishda, bir tabiiy-iqlim zonasida joylashgan qishloq xo'jaligi yerlarini baholashda keng foydalaniladi.

**4-bosqich.** Keltirilgan o'xshashliklar narxlarini tahlil qilish va baholanayotgan yer uchastkasi bozor qiymatining yakuniy miqdorini chiqarish.

Sotuvlarni taqqoslash usuli bilan baholash bozorda amalga oshirilgan bitimlar bo'yicha qiyoslanadigan axborotning yetarlicha miqdori mavjud bo'lgan hollarda eng holisona bo'ladi.

**Ko'chirish usuli yer qiymati va unda qurilgan imoratlarning qiymati o'rtasidagi nisbatni aniqlashga asoslangan.**

Ko'chmas mulk ob'ektining sotilish narxi ikkita qismga bo'linadi - binolar qiymati va yer uchastkasining qiymati. Muayyan mintaqadagi yer uchastkasida solingan har bir turdagi imorat uchun yer qiymati va inshootlar qiymati o'rtasida barqaror mutanosiblik mavjud. Bu holat muvozanatlashganlik va chegara unumdorligi tamoyillari bilan tasdiqlanadi.

Agar baholash hududida o'zlashtirilmagan yer uchastkalari sotilishining yetarlicha soni bo'lmasa, ham imorat solingan, ham imorat solinmagan yer uchastkalari sotilgan takqoslanadigan hududni tanlash zarur. Yer qiymata va ko'chmas mulk ob'ektining umumiy qiymati (yer ulushi) o'rtasidagi o'zaro nisbatni aniqlab, u shunga o'xshash yer uchastkalari sotilishini tahlil qilish uchun baholash o'tkazilayotgan hududga o'tkaziladi.

**Xarajat nuqtai nazaridan yondashuv** shunga asoslanadiki, sarmoyador oqilona ish yuritgan holda, uchastka uchun tegishli uchastkani xarid qilish va unda qurilish uchun ma'qul bo'lgan davrda yo'nalishi va foydaliligi bo'yicha shunga o'xshash binoni barpo etish uchun sarflanadigan summadan katta summani to'lamaydi.

Xarajat nuqtai nazaridan yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- chiqarish usuli;
- o'zlashtirish xarajatlarini aniqlash;
- infratuzilma xarajatlari va zamonaviy investitsiya shartnomalari bo'yicha shahar yerlarini baholash.

**Chiqarish usuli** yer uchastkasining bozor qiymatini aniqlaydi. Yer uchastkasi qiymatini hisoblashning mazkur usuli yer uchun qoldiq texnikasiga asoslanadi.

Chiqarish usulidan foydalanish shartlari quyidagilar:  
yer uchastkasidan eng yaxshi va eng samarali foydalanishni aniqlashda;

agar bozorda imoratlar solinmagan yer uchastkalari bilan tuzilgan bitimlar haqida ma'lumotlar bo'lmasa.

### **Chiqarish usuli bilan yer uchastkasini baholash algoritmlari**

**1-bosqich.** Bozorni o'rganish va qiyosiy sotuvlar asosida yaxshilangan yer uchastkasining bozor qiymatini aniqlash. Agar qiyosiy sotuvlar bo'yicha axborot yetarli bo'lmasa, boshlang'ich miqdorlar sifatida sotuvlar narxlari o'rnida ob'ektlar qiymatining ekspert baholaridan foydalanish mumkin.

**2-bosqich.** Yer uchastkasida joylashgan shunday bino va inshootlarni qurishning tiklash qiymatini hisoblash. Tiklash qiymatini hisoblash uchun takror ishlab chiqarish qiymatidan yoki o'rin bosish qiymatidan foydalanish mumkin.

**3-bosqich.** Baholanayotgan yer uchastkasida joylashgan bino va inshootlarning jismoniy, funksional va tashqi eskirish hajmini aniqlash.

**4-bosqich.** Bino va inshootlarning tiklash qiymatidan ularning baholash sohasidagi qoldik qiymatiga ega bo'lish uchun to'plangan eskirish hajmini chiqarib tashlash.

**5-bosqich.** Yaxshilangan yerning bozor qiymatidan bino va inshootlarning qoldiq qiymatini chiqarib tashlash yo'li bilan yer uchastkasining bozor qiymatini aniqlash.

Barcha hisob-kitoblarni amalga oshirishda vaktinchalik omillarni, inflyatsiya jarayonlarini hisobga olish hamda baholash sanasidagi barcha xarajatlarning qiymatini keltirish lozim.

Bir xildagi bir necha ob'ekt (yakka tartibdagi uy-joy binolari, garajlar, tijorat ko'chmas mulk ob'ektlari) bo'yicha chiqarish usuli bilan olingan yer uchastkalarining baholarini ular o'rtasidagi mavjud taqqoslash elementlari bo'yicha to'g'rilash zarur.

Chiqarish usulining kamchiliklari:

-qurilganiga 10 yildan oshgan bino va inshootlar qiymatiga ob'ektiv baho bermasligi mumkin, chunki vaqt o'tishi bilan eskirgan ko'chmas mulk ob'ektini qayta tiklash ehtimoli kamayadi, to'plangan eskirishni hisob-kitob qilishning murakkabligi ortadi;

-yuqori darajadagi inflyatsiya sharoitida bino va inshootlarni qayta tiklash xarajatlarining qiymatini anik hisob-kitob qilish qiyin.

**O'zlashtirish** xarajatlarini aniqlash usuli imoratlar solinmagan yer massivlarini baholashda qo'llaniladi va yer keyin sotiladigan alohida uchastkalarga bo'lingan hollarda uning umumiy qiymatini baholash imkonini beradi. Uchastkalarini sotishdan tushgan pul tushumidan ularni o'zlashtirish xarajatlari, tadbirkorlik foydasi chiqarib tashlanadi va shu tariqa o'zlashtirilmagan yerning qiymati aniqlanadi.

**O'zlashtirish** xarajatlarini aniqlash bosqichlari:

**1-bosqich.** Yakka tartibdagi uchastkalarining o'lchamlarini, yuridik va jismoniy imkoniyatlar hamda iqtisodiy jihatdan maksadga muvofiqlikdan kelib chiqqan holda ularning obodonchilik darajasini aniqlash imkonini beradi.

**2-bosqich.** O'zlashtirilgan uchastkalarining sotuv narxini hisoblash yo yaqin vaqt ichida xuddi shu tarzda o'zlashtirilgan qiyosiy uchastkalarini tahlil qilish yo'li bilan yoki sotuvlarni taqqoslash usuli asosida amalga oshiriladi.

**3-bosqich.** O'zlashtirish uchun qilingan barcha xarajatlarning hisob-kitobi:

yer massivini sotib olish va xujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlari;

yerni tozalash, belgilash va uni butkul tayyorlash bo'yicha muhandislik xarajatlari;

yo'llar, yo'lkalar, drenajlar, muhandislik va kommunal inshootlarini qurish xarajatlari;

solliqlar va sug'urta to'lovlari;

puvdratchining foydasi va qo'shimcha xarajatlari;

sotuv va reklama xarajatlari.

**4-bosqich.** Uchastkalarini sotishdan ko'zda tutilayotgan pul tushumidan o'zlashtirish xarajatlari va tadbirkorlik foydasini chegirma qilish yo'li bilan o'zlashtirilmagan yerning qiymatini hisoblab chiqish.

**5-bosqich.** O'zlashtirish va sotish uchun zarur bo'lgan vaqtni aniqlash. Ko'zda tutilayotgan o'zlashtirish va sotish davri bilan bog'liq tavakkalni aks ettiruvchi diskontlash stavkalarini tanlash. O'zlashtirilmagan yerning joriy qiymatiga ega bo'lish uchun, yer uchastkalarining sotilish davridan kelib chiqib, xarajatlar va tadbirkorlik foydasi chiqarib tashlangan holda yer uchastkalarini sotishdan olingan pul summasini diskontlash.

Aholi punktlari yerlarini baholash **takror ishlab chiqarish yoki infratuzilmaning o'rnini bosish xarajatlari** asosida amalga oshiriladi, ya'ni shahar yerlariga kiritilgan yaxshilanishlarni (baholanayotgan yer uchastkasiga to'g'ri keladigan ulushni ajratgan holda shahar yoki posyolkaning bugun muhandislik infratuzilmasini) takror ishlab chiqarish xarajatlarning miqdori hisoblab chiqiladi.

**Takror ishlab chiqarish xarajatlari** magistral tarmoqlar va suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti, elektr ta'minoti, gaz ta'minoti tizimlarining bosh inshootlari, yo'l tarmog'i xarajatlari kiradi.

**Infratuzilmaning o'rnini bosish xarajatlari bo'yicha shahar yerlarini baholash algoritmi**

**1-bosqich.** Uy-joy imoratlarining maydonini aniqlash, unga kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish obektlari qurilgan yerlar chiqarib tashlangan holda turar joy mavzellarining hududlari kiradi.

**2-bosqich.** Namunaviy loyiha bo'yicha uy-joy binolarining 1 kv.m maydonini qurish tannarxini aniqlash.

**3-bosqich.** Barcha uy-joy binolarining taxminiy qiymatini aniqlash.

**4-bosqich.** Turar-joy binolarining o'rin bosish qiymati va infratuzilmani barpo etish uchun kapital xarajatlarning ulushi asosida uy-joy imoratlari solingan yerlar bo'yicha shahar infratuzilmasi o'rin bosish qiymatining oraliq bahosini hisoblash.

**5-bosqich.** Ko'p qavatli uy-joy imoratlarining shahar infratuzilmasi va yerlarning umumiy maydoni o'rin bosish qiymatini oralik baholash asosida ko'p qavatli uy-joy imoratlari solingan shahar

yerlarining I gektariga kiritilgan yaxshilanishlar qiymatining bahosiga ega bo‘lamiz.

**Nazorat savollari:**

1. Kuchmas mulkning turli xillari qiymatini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari nima bilan izohlanadi?
2. Qurilishi tugallanmagan ob’ektlarni baholashda qanday asosiy yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq?
3. Yer uchastkasi deganda nima tushuniladi?
4. Qiymatni baholash ob’ekti sifatida yerning xususiyatlari nimalardan iborat?
5. O‘zbekiston Respublikasida yerni baholash nima uchun zarur?
6. Yer uchastkalarini ijaraga olish huquqlari qanday baholanadi?
7. Yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqlari qanday baholanadi?

## **IX-bob. O‘ZBEKISTONDA SUG‘ORILADIGAN YERLAR VA UNDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

---

Mamlakatlar va qit‘alar bo‘yicha ko‘pdan-ko‘p faktlarga asoslangan materiallarni umumlashtirish shuni ko‘rsatdiki, tuproq qatlamining (biosfera, biogeokimyoy, gidrosfera, atmosfera, gumusfera, troposfera yoki texnosfera qatlamlari) butun yer yuzi miqyosidagi funksiyalari tuproqqa aniq maqsadni ko‘zlab bevosita ta‘sir o‘tkazish natijasida ham, shuningdek, g‘oyat xilma-xil qo‘shimcha, ikkinchi darajali, ko‘pincha kutilmagan salbiy ekologik holatlar natijasida ham inson faoliyatining ta‘siri ostida nihoyatda kuchli darajada o‘zgarib bormoqda. Mana shu ta‘sirning ko‘lamlari to‘g‘risida qo‘yidagi ma‘lumotlar bo‘yicha hukm chiqarish mumkin: Yer kurrasidagi quruqlikning umumiy maydonidan hozirgi vaqtda jahon dehqonchiligida salkam 1,5 milliard gektar (quruqlikning 10 foizi) doimiy shudgorlanib turiladi, dehqonchilik madaniyatning 10 ming yillik tarixi mobaynida avvallari mahsuldor bo‘lgan 2 milliard gektarga yaqin yerdan batamom mahrum bo‘lindi, cho‘l-biyobonlarga aylantirildi, har xil inshootlar qurildi, suv ostida qoldirildi: salkam 1 milliard gektar yer dehqonchilikka yaroqli holda turibdi: hozirgi vaqtda har yili mutlaqo yo‘q bo‘layotgan unumdor yerlar 6-7 million gektarni tashkil qiladi, ya‘ni o‘rtacha tarixiy ko‘rsatkichlarga nisbatan 30-35 baravar ko‘paydi. Endilikda bu ekologik jihatdan xatarli hodisaga aylanib bormoqda, bu esa jahon ilmiy jamoatchiligining, rasmiy xalqaro organlari, shu jumladan, BMTning ham jiddiy diqqat-e‘tiborini jalb etdi. Tuproq qatlamining zavol topishi va nobud bo‘lishiga qarshi kurash muammosi urush va yadroviy halokatlar muammosidan keyingi barcha dunyo ekologik muammolari orasida birinchi o‘ringa chiqmoqda.

### **9.1. Sug‘oriladigan yerlardan unumli foydalanish**

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy va boshqa yo‘nalishlarda keng qamrovli islohotlar o‘tkazishga kirishildi. Xususan, yer resurslaridan samarali foydalanish tamoyillariga alohida e‘tibor qaratildi. Chunki, yer xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari tizimida asosiy vosita va manba hisoblanadi. Shu bois u aholi hayoti, faoliyati va farovonligida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham respublikada tabiiy resurslardan, jumladan, yer resurslaridan samarali foydalanishga katta e‘tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining yer fondi 44410,3 ming gektarni tashkil qiladi. Ushbu yer maydonining respublika qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan qismi 25 mln. gektardan oshiqroqni tashkil qiladi. Shundan qishloq xo‘jaligida intensiv foydalaniladigan yerlar, ya‘ni sug‘oriladigan maydonlar hammasi bo‘lib 4,28 mln. gektarga teng bo‘lib,

umumiy yer fondining 9 foizini tashkil qiladi.

Tuproq xaritalari va tuproq bonitirovkasiga tuzatishlar kiritish natijalari shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda yerlarning sifati holati yomonlashgan, tuproqlarning sho'rlanishi, yer osti suvlarining sathi ko'tarilishi jarayonlari davom etmoqda, suv va shamol eroziyasi rivojlanmoqda.

Oxirgi o'n yillikda yerlarning sifati ancha o'zgardi. 1990 yilga nisbatan Samarqandda 10 ball (67-57), Farg'onada 10 ball (66-56), Surxondaryoda 8 ball (68-60), Navoiyda 7 ball (59-53/2), Namanganda 7 ball (66-59), Toshkentda 7 ball (66-59), Sirdaryoda 4 ball (53-49), Qoraqalpog'iston Respublikasida 3 ball (44-41), Jizzaxda 3 ball (53-50), Qashqadaryoda 3 ball (54-51) gacha kamaygan.

Bonitet ballari 60 dan ortiq bo'lgan eng qimmatli yerlar maydoni 10,4 foizga kamaydi. O'rtachadan past sifatlil yerlar maydoni meliorativ holatining yomonlashuvi bilan hamda 165 ming gektardan ortiq maydon unumdorligi past yerlarni o'zlashtirish va qishloq xo'jalik oborotiga jalb etish bilan bog'liqdir.

Sug'oriladigan yerlar tuproq sharoiti, mexanik tarkibi, sho'rlanish darajasi, gipsning mavjudligi, toshloqligi, eroziyaga moyilligini va boshqa xususiyatlari bo'yicha farqlanadi.

Respublikadagi sho'rlangan yerlar jami sug'oriladigan yerlarning 65,9 foizini tashkil etadi, shu hisobda kuchsiz sho'rlangan yerlar 36,8 foiz, o'rtacha sho'rlangan 17,9 foiz va kuchli sho'rlangan yerlar 11,2 % ni tashkil qiladi. 2000 yilga kelib kuchsiz sho'rlangan tuproqlar maydoni 1990 yildagiga qaraganda 8,4 foizga, o'rtacha sho'rlangan maydonlar 22,1 foizga va kuchli sho'rlangan yerlar maydonlari 5,8 foizga ortgan. Bugungi kunda respublikamizda sug'oriladigan yerlarning yarmidan ko'prog'i ta'mirlab, meliorativ holatini yaxshilash talab etiladi. Tuproqlarning ikkilamchi sho'rlanishi keltirib chiqaradigan sabab minerallasgan sizot suvlarining yer yuzasiga yaqinligidir. Sug'orish suvlarini katta me'yorda ishlatilish sizot suvlari sathining ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda grunt suvlari kam mineralizatsiyalashgan maydon 1,5 mln. gektarni, o'rtacha mineralizatsiyalashgan 0,7 mln. gektarni va kuchli 0,5 mln. gektarni tashkil etadi.

Yerga mexanizmlar bilan ishlov berishni chegaralovchi va tuproqlarning unumdor qatlami hajmini kamaytiruvchi salbiy omil – yerning toshloqligidir. Oxirgi yillarda Namangan, Farg'ona, Navoiy va bir qator boshqa viloyatlarda toshloqli adir yerlar o'zlashtirildi, bu esa mazkur toifadagi sug'oriladigan yerlar maydonining 156,7 ming gektarga ko'payishiga sabab bo'ldi. Respublika bo'yicha gipslashgan yerlarning umumiy maydoni 291,5 ming gektarni tashkil qiladi.

Tuproqlarning unumdorligiga shamol va suv eroziyalari katta ta'sir ko'rsatadi. Respublikadagi 26734 gektar qishloq xo'jaligi yerlarning 2700

gektari suv eroziyasiga, 20478 gektari shamol eroziyasiga, 2005 gektari esa suv va shamol eroziyasiga uchragan yerlardir.

Yer resurslarining holati to'g'risidagi hisobotga asosan respublikada 2002 yil 1 yanvar holatiga 80,3 ming gektar meliorativ qurilish holatidagi yerlar mavjud. Aksariyat viloyat va tumanlarda mazkur yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar bajarilmasdan, aksincha samaradorligi past bo'lgan yangi yerlar tuproq va suv sharoitini hisobga olmagan holda o'zlashtirilmogda.

Yangi o'zlashtirilgan yerlarda esa yuqori harajatlar evaziga kam hosil yetishtirilayapti. Bu esa xo'jaliklarning moliyaviy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatmogda. Shuning uchun yangi yerlarni o'zlashtirishga ajratilayotgan mablag'larni yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga hamda ekishga yaroqsiz yerlarni qishloq xo'jaligi oborotiga kiritish uchun yo'naltirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oxirgi yillarda yerlarning sho'rini yuvish va vaqtida sug'orish ishlari talab darajasida olib borilmagan. Bundan tashqari kollektor drenaj tarmoqlari holatining qoniqarsizligi va sug'orish suvlarining tanqisligi oqibatida sug'oriladigan ekin yerlariga qishloq xo'jalik ekinlari ekilmay qolmogda.

Noqulay tabiiy-iqlim sharoiti, kollektor-drenaj tarmoqlari holatining qoniqarsizligi oqibatida bir necha yillardan beri respublikadagi sug'oriladigan yer maydonlaridan jami 113585 gektar yer turli sabablarga ko'ra ekin ekilmasdan bo'sh qolgan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 42992 ga, Jizzax viloyatida 5944 ga, Qashqadaryo viloyatida 35220 ga, Navoiy viloyatida 2356 ga, Surxondaryo viloyatida 11612 ga, Sirdaryo viloyatida 10133 ga, Toshkent viloyatida 3492 ga, Xorazm viloyatida 1135 ga yerlar ekin ekilmay bo'sh qolganligi aniqlangan.

Qishloq xo'jaligi yer turlarining sifat holati salbiy agromeliorativ sabablarga ko'ra keyingi yillarda yomonlashyapti. Hatto ba'zi joylarda o'ta yomonlashgan. Bu yer holatining yomonlashuvi tuproq sho'rlanishi, zax qochirish shaxobchalarining vaqtida tozalanmasligi natijasida yer osti suvlarining ko'tarilishini keltirib chiqargan.

Salbiy holatlarni bartaraf etish uchun hozirgi davrga kelib, deyarli izdan chiqib ketgan almashlab ekishni amalda joriy etish, urug'chilik va seleksiyaga katta e'tibor qaratish, ekinlarni o'g'itlash tizimini yaxshilash, ilg'or sug'orish texnologiyalarini qo'llash, yerlarga ishlov berishning zamonaviy uslublarga e'tiborni qaratish, tuproq melioratsiyasiga va mexanizasiyadan to'g'ri foydalanish hamda ularning samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligida foydalanishda qolgan sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash ustida ish olib borilishi zarur. Respublikada mavjud zovurlarni tozalash rejasiga to'liq kiritish va tozalashni tashkil etish lozim.

Sug'oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish, tiklash va saqlab



qolish, yerlardan maqsadli va samarali foydalanish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Yer resurslaridan foydalanishning ahvolini tahlil qilish, mavjud kamchilik va muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish va kelgusida 2010 yilgacha bo'lgan davrda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha dastur konsepsiyasi ishlab chiqildi. Jumladan, yerdan foydalanishni yaxshilash, yerdan foydalanuvchilarni iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish, yer munosabatlarini tartibga solish bo'yicha takliflar ishlab chiqilmoqda. "Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar unumdorligini ta'minlashda"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Mineral o'g'itlarning kamyobligini va narxi yuqoriligini hisobga olib, mahalliy bentonitlardan foydalanish yo'llari va ularning qishloq xo'jalik ekinlariga ta'siri to'g'risidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tuproq-iqlim sharoitiga, o'simlik talabiga mos ravishda sug'orish normalariga va muddatlariga rioya qilmaslik ham bir qator salbiy oqibatlariga olib kelishi kuzatilmoqda.

Qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi mamlakat tabiiy resurslari potentsiali boyliklaridan eng yuqori darajada foydalanishdir. Xalq xo'jaligining boshqa sohalariga qaraganda qishloq xo'jaligi iqlim, tuproq va boshqa tabiiy sharoitlarga ko'proq bog'liq, shuning uchun regionlardagi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tavsiflovchi iqtisodiy potentsiallarni baholovchi bosh mezonlarni tabiiy qishloq xo'jalik rayonlashtirish, yoki tuproq sifati va qishloq xo'jalik ekinlari agrobiologik talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish hududlariga tabaqalashgan usulda yondoshish hisoblanadi.

Tuproq unumdorligini tiklash va oshirish uchun almashlab ekish tizimlari o'zgartirilmasa g'alla, paxta va boshqa ekinlar hosildorligining pasayishi holatlari davom etaveradi. Bunday salbiy holatlarni mavjudligi Respublika sug'oriladigan tuproqlari o'rtacha ball-bonitetining keyingi 8-10 yil ichida 58 dan 55 gacha, ayrim viloyatlarda undan ko'proq tushib ketganligini tasdiqlaydi.

Mo'tadil almashlab ekishni joriy etish yo'li bilan sug'oriladigan tuproqlar sifatini yaxshilash, hozirda mavjud ko'p sonli mayda tovar ishlab chiqaruvchilar sharoitida yechimi qiyinroq muammolardan hisoblanadi. Bu masalani yechish uchun fermer xo'jaliklari yerlarni almashlab ekish dalalari va yirik maydonlar (massivlar) kattaligacha kengaytirish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi sharoitda tuproq unumdorligini oshirish tadbirlaridan biri, viloyatlar miqyosida taklif etilayotgan ekin maydonlarining tabaqalashtirib joylashtirish strukturasi. Bu strukturani ishlab chiqilishida tabiiy-qishloq xo'jalik rayonlashtirish, bonitet guruhlari (klasslari) bo'yicha yerlar sifatini baholash va turli tuproq iqlim sharoitlari uchun almashlab ekishni prinsipial

sxemalari asos bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusida yuqoridagi kabi kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik maqsadida Yer resurslaridan samarali va maqsadli foydalanish borasida davlat nazoratini olib borish bilan bir qatorda, joylarda tushuntirish ishlarini ham olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligida islohotlarni o'tkazish bevosita yer resurslari, ularning ekologik meliorativ holati, bir so'z bilan aytganda tuproqlar unumdorligi darajasi bilan bevosita bog'liq. Respublikamiz qishloq xo'jaligida intensiv foydalaniladigan yerlar umumiy yer maydonining 10 foizdan kamrog'ini tashkil etadigan sug'oriladigan yerlardir.

Mazkur yerlar yurtimizning ikki mintaqasi, ya'ni sahro va tog' oldi mintaqalarida joylashgan bo'lib, o'zlarining ekologik-meliorativ holati, mexanik tarkibi kabi xususiyatlari, umumiy unumdorlik darajasi bilan birbirlaridan farqlanadi. Ularning unumdorlik darajasi qiyosiy belgilaydigan ko'rsatkich-ball bonitetlari hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlarni unumdorlik darajasiga qarab o'n sinf yoki besh guruhga birlashtirish mumkin.

Birinchi guruh ball boniteti 0 dan 20 ballgacha ega bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi. Ularning umumiy maydoni 9567 ga ni tashkil etadi. Bu yerlar tubdan melioratsiya qilinmasa ishlab chiqarishga yaroqsizdir.

Ikkinchi guruh yerlari 21-40 ballga ega. Ular umumiy maydonning 23,1 foizini tashkil etadi. Bu yerlar sho'rlangan tuproqlarni o'z ichiga oladi.

Uchinchi guruh yerlari 41-60 ballga ega. Ular umumiy maydonning 43 foizini tashkil etadi.

To'rtinchi guruh yerlari 61-80 ballga ega bo'lib, umumiy maydonning 26,1 foizini tashkil etadi.

Beshinchi guruh yerlari 81-100 ballga ega bo'lib, ular umumiy maydonning 2,9 foizini tashkil etadi. Bu raqamlarni agar 1989 yildagi bilan solishtirsak, tuproq unumdorligi keyingi o'n yilda sezilarli pasayganini ko'rish mumkin. Shu davrda sifati o'rta va o'rtadan past yerlar maydoni 14,0 foizga ko'paydi.

Bu salbiy holning asosiy sabablaridan biri, eng avvalo, sug'oriladigan tuproqlar meliorativ holatining yomonlashishidir. Keyingi yigirma yil davomida sho'rlangan yerlar miqdori 850 ming gektarga ko'paydi va umumiy maydoni 2 mln. gektardan oshdi, bu sug'oriladigan yerlarning yarmi demakdir. Tuzlar to'planishi va yerlarning sho'rlanishi cho'l mintaqasi va och tusli bo'z tuproqlar mintaqasida, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Sirdaryo viloyalarida Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy, Samarqand, Farg'ona viloyatlarining bir qismida kuchayib ketgan. Bundan tashqari gipsli tuproqlarning o'zlashtirilishi yerlarning cho'kishiga va tezda qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Ikkilamchi sho'rlanish jarayonlari rivojlangan yerlarda tuproq singdirish kompleksida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda, ya'ni

singdirilgan kationlar tarkibida  $Mg^{++}$  va  $Na^+$  kationlarining  $Ca^{++}$ – dan ko‘p bo‘lgan hollar tez-tez uchramoqda. bu hol singdirilgan kationlar tarkibidagi  $Ca^{++}$ -ni,  $Mg^{++}$  va  $Na^+$  – ga almashinish jarayoni yuz berayotganligini ko‘rsatadi.  $Na^+$  –ning miqdori esa ko‘p hollarda tuproqlarning sho‘rtoblanish darajasiga yaqin yoki sho‘rtoblanish darajasidadir. Oqibatda tuproqlarning zichlanishi ortib, suv o‘tkazuvchanligi pasaymoqda. Tuproq singdirish kompleksida  $Mg^{++}$  va  $Na^+$  miqdorining ko‘payishi hajm og‘irligining ortishiga, filtrasiya koeffitsiyentining kamayishiga olib kelmoqda. Bu jarayonlarning rivojlanishida, birinchidan grunt suvlari sathining ko‘tarilishi va ularning mineralizatsiya darajasi ortishi bilan bir qatorda superfosfat kabi  $Sa^{++}$  ning gips holiga o‘tib cho‘kishini, ikkinchidan, qishloq xo‘jalik ekinlari hosili bilan tuproqlardan olib chiqilayotgan  $Ca^{++}$  ning qaytarilmasligini asosiy sabablardan deb ko‘rsatish mumkin.

Tuproqlarning unumdorligiga shamol va suv eroziyalari katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda 2 mln. gektardan oshiqroq yer deflyasiyaga uchragan. 0,5 mln. gektar yerda irrigasiya eroziyasi yuz berish xavfi bor. Bunday yerlar tog‘ oldida joylashgan viloyatlar, ayniqsa, Farg‘ona vodiysi adirlarida ko‘plab uchraydi. Eroziya natijasida gektaridan 0,5-0,8 tonna gumus, 100-120 kg azot, 75-100 kg fosfor yuvib olib ketilishi mumkin.

Respublika tuproqlarining asosiy qismi har xil pestisidlar zaharli kimyoviy moddalarning qoldiqlari bilan turli darajada ifloslangan. Ular yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifatini yomonlashtirilishi bilan bir qatorda foydali tuproq mikroorganizmlarining faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston tuproqlarida makrostruktura kam, lekin ular kuchli mikrostrukturaga ega. Lekin, rezina g‘ildiraklari traktorlarda bir necha bor ishlov berish natijasida zichligi, ayniqsa, haydov osti qatlamining keskin zichlashuvi kuzatilmoqda. bu hol o‘z navbatida tuproq unumdorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri suv va havo rejimlarining buzilishiga olib keladi.

Sug‘oriladigan tuproqlarda gumus moddasining kamayib ketishi kuzatilmoqda. Oziqa elementlarining asosiy qismi o‘simlik biomassasi bilan tuproqdan olib chiqilib ketmoqda va tuproqqa qaytib tushadigan yoki sun’iy o‘g‘it sifatida beriladigan miqdori sezilarli darajada kam, demak, dehqonchilikning asosiy qonuniyatlaridan biri yerga “qaytarish” qonuni buzilgan. Natijada, sug‘oriladigan yerlar kambalag‘allashib ketgan, ularning fizikaviy-kimyoviy xususiyatlari yomonlashgan. Shuni ta’kidlash lozimki, bunga almashlab ekishga e’tiborsizlik ham sabab bo‘ladi.

Unumdor yerlarni xo‘jalik ichki qurilishi va tomorqa uchun ajratish, kam unumdor yerlarni qishloq xo‘jalik oborotiga qo‘shish, tuproq unumdorligini saqlash va qayta ishlab chiqish chora tadbirlarini bajarilmaslik, organik o‘g‘itlar, kompostlar tayyorlashga e’tibor

kamayganligini ham sug'oriladigan tuproqlar unumdorligini pasaytiruvchi omillar qatoriga qo'shish mumkin.

Tuproqning unumdorligini ko'p jihatdan belgilovchi organik modda – gumusdir. Shuni ta'kidlash kerakki, tuproq unumdorligida gumusning umumiy zahirasi emas, balki yangi faol organik qismi zahirasi ko'p bo'lsada, u faol emas. Tuproq unumdorligini oshirish uchun, tuproqqa doimiy tushib turadigan yangi organik moddalar zarur.

Tuproqlar unumdorligini har tomonlama oshirib borish masalasini yechmoqlik faqat ularning tabiiy resurslarini ishga solmoqlikka asoslangan bo'lmasdan, balki ularning sarf bo'lib ketgan qismini qaytarish va to'ldirish, shu bilan birga agroekosistemalarning qo'shimcha energiya rezervlariga va fotosintezning yuqori mahsuldorligi shartlarini qondirmoqlikka (birinchi navbatda karbonat angidrid gaziga bo'lgan talabni qondirmoqlikka) asoslangan bo'lishi kerak.

Agroekosistemalarda energetik balansni, moddalar balansini musbat ko'rsatkichga ko'tarish uchun yoki mo'tadillashtirish uchun tuproqda, bizningcha, organik modda yig'ilishini ko'paytirish zarur.

Hozirgi sharoitda dehqonchilikni mineral o'g'itlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi ular yuqori hosil olishning muhim omili. Eng yaxshi tuproqlardan biri bo'lgan bo'z-voha tuproqlarining tabiiy unumdorligi g'o'zadan gektariga 12-15 sentner hosil olishni ta'minlaydi, xolos. Shuning uchun tuproq unumdorligini oshirish uchun mineral va organik o'g'itlarni birgalikda ishlatish katta ahamiyat kasb etadi.

Lekin bugungi kunda mineral o'g'itlarning tannarxi oshishi, etishmasligi ularning o'rnini bosa oladigan ma'danlarni qidirib topishni va qo'llashni taqozo etadi. O'zbekistonda tabiiy ma'danlar (bentonit, glaukanit, bentonitsimon loylar, fosforitlar, daryo, ko'l va suv omborlari yotqiziqlari va hokazolar) zahirasi mavjud. Agar mineral o'g'itlar bilan asosan ayrim elementlar (azot, fosfor, kaliy) tuproqqa tushsa, yuqoridagi tabiiy ma'danlar tarkibida turli-tuman mikroelementlar ham mavjud. Ular tuproqlarning tarkibi, xossa xususiyatlarini hisobga olib, qo'llanilganda tuproq unumdorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Quruq va o'ta quruq o'lkalarda, jumladan, bizning respublikamizda tuproq unumdorligini belgilovchi omillardan biri sug'orish masalasidir. Shuning uchun sug'orish normalari, davrlari har bir tuproq-iqlim mintaqasida qat'iy ravishda tuproqlarning xossa xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Respublikada sug'orishda yaroqli, unumdorligi nisbatan yuqori bo'lgan tuproqlar (tipik va och tusli bo'z o'tloqi) ning deyarli hammasi o'zlashtirilib bo'lingan. Keyingi yillarda o'zlashtirilgan va yaqin yillarda o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan tuproqlar unumdorligi past, sho'rlangan, gipsli, toshloqli qiyin o'zlashtiriladigan tuproqlar kategoriyasiga mansubdir.

Ularni o'zlashtirish juda mukammal, har tomonlama chuqur o'ylab amalga oshilishi lozim.

Tuproq unumdorligini saqlash va oshirishning asosiy omillaridan biri qishloq xo'jalik ekinlarini tuproqlarning ekologik-meliorativ sharoitini, uning xossa-xususiyatlarini hamda tabaqalashtirib joylashtirishdir.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish, eng avvalo, Respublikada yer monitoringini amalga oshirishni va Yer kadastr tizimi hamda uning asosini tashkil etadigan tuproqlar bonitirovkasi (sifat bahosi) asosida olib borilishini taqozo etadi.

Qoraqalpog'iston respublikasining hamma yerlari Buxoro, Xorazm viloyatlarining barcha tumanlari Jizzax viloyatining (Baxmal, G'allaorol, qisman Jizzax va Zomin tumanlaridan tashqari) va Sirdaryo viloyatining hamma tumanlari (Xovostdan tashqari) hamda Andijon viloyatining Baliqchi, Bo'z, Ulug'nor tumanlari, Qashqadaryo viloyatining Koson, Usmon Yusupov, Kasbi, Nishon, Bahoriston, Muborak va qisman Qarshi tumanlari, Navoiy viloyatining Konimex, Xatirchi, Navoiy, Qiziltepa tumanlari, Namangan viloyatining Mingbuloq tumani, Samarqand viloyatining Jomboy, Oqdaryo, Go'zalkent, Paxtachi qisman Pstdarg'om va Samarqand tumanlari, Surxondaryo viloyatining Angor, Jarqo'rg'on, Qiziriq, Termiz, Sherobod, Muzrabot va qisman Qumqurg'on tumanlari, Toshkent viloyatining Chinoz, Bo'ka va Bekobod tumanlarining bir qismi, Farg'ona viloyatining Oltiariq, Oxunboboyev, Bog'dod, Buvayda, Yozyovon, Dang'ara, Furqat va qisman O'zbekiston tumanlari yerlari turli xil darajada sho'rlangan.

2001 yilga kelib kuchsiz sho'rlangan tuproqlar maydoni 1990 yildagiga qaraganda 6,9 foizga, o'rtacha sho'rlangan yerlar maydoni 3,6 foizga va kuchli sho'rlangan yerlar maydoni 291,5 ming hektarni tashkil qiladi.

Gipslashgan tuproqlar Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro't tumanida, Buxoro viloyatining Peshku, Qorovulbozor va Jondor tumanlarida, Jizzax viloyatining Zafarobod va Zarbdor tumanlarida, Qashqadaryo viloyatining Nishon, Muborak va U.Yusupov tumanlarida Navoiy viloyatining Navoiy, Konimex va Xatirchi tumanlarida, Surxondaryo viloyatining Muzrobod va Angor tumanlarida, Sirdaryo viloyatining Mehnatobod va Xovos tumanlarida, Farg'ona viloyatining Yozyovon tumanida, Xorazm viloyatining Xazorasp tumanida ko'p uchraydi.

Keyingi yillarda tuproq-iqlim sharoitiga, o'simlik talabiga mos ravishda sug'orish normalariga va muddatlariga rioya qilmaslik ham bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi kuzatilmoqda.

Rezina g'ildirakli traktorlarda bir necha bor ishlov berish natijasida tuproqlarning zichligi ortishi, ayniqsa, haydov osti qatlamining keskin zichlashuvi kuzatilmoqda. bu hol tuproqlar suv va havo rejimlarining buzilishiga olib kelmoqda.

Tuproq organik moddasi uning eng aktiv qismi bo'lib, unumdorligining

asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Tuproqning unumdorligini belgilashda uning gumus miqdorini turli tuproqlarda tarqalishi va sug'oriladigan dehqonchilikda o'zgarishini bilish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Paxtachilik ilmiy tadqiqot institutining Oqqovoq tajriba xo'jaligidagi qadimdan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda olib borilgan ko'p yillik tajriba (1926 y.) ma'lumotlariga ko'ra uzoq muddat faqat g'oz ekilib mineral o'g'itlar qo'llanilganda tuproqda gumus miqdorining kamayishi (1/4 qismiga) organik o'g'it qo'llanilganda, hatto mineral o'g'itlarsiz, uning miqdori sezilarli ortishi va g'oz-beda almashlab ekilib mineral o'g'itlar qo'llanilganda ham gumusni ortishi kuzatildi.

O'zPITI Andijon filialida qadimdan sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda 18 yil davomida o'g'it qo'llanilmagan paxta monokulturali variantda 19 foizni, paxta – beda almashlab ekilganda 24 foizni, o'g'itlar qo'llanilib paxta – beda almashlab ekilganda 9 foizni tashkil etgan.

Farg'ona filialidagi qadimdan sug'oriladigan o'tloqi – soz tuproqlarda 20 yil orasida o'g'itsiz variantda gumusni kamayishi 35 foizni, mineral o'g'itlar qo'llanilmaganda 11 foizni, paxta – beda almashlab ekilganda 9 foizni tashkil etgan.

Buxoro filialidagi sahro o'tloqi tuproqlarida 23 yil davomida o'g'itsiz monokulturadagi gumusni kamayishi 42 foizni, mineral o'g'itlar qo'llanilganda 27,6 foizni tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida shunday xulosaga kelish mumkin:

Har qaysi sug'oriladigan tuproq tipi uchun, qo'llaniladigan agrotexnikaga bog'liq holda, tuproq gumusi miqdoriga ko'ra ma'lum muvozanat holat xarakterlidir. Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar uchun bu ko'rsatkich 1,1-1,4 foiz, muntazam organik o'g'itlar o'rtacha qo'llanilganda 1,7-1,9 foiz, yuqori miqdorda qo'llanib borilsa 4 foizga etishi mumkin.

Uzoq muddat paxta ekilib mineral o'g'itlarga qo'llanilganda sug'oriladigan och tusli o'tloqi va bo'z – o'tloqi tuproqlar uchun 0,9-1,1 foiz, sahro mintaqasi o'tloqi tuproqlari uchun 0,8-0,9 foiz bo'lganda nisbatan turg'un (stabil) holatida bo'ladi. Demak, paxta monokulturasida sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda, och tusli bo'z tuproqlar va sahro mintaqasi o'tloqi tuproqlarida gumusni miqdorini kamayishiga va uni nisbatan kichik darajada stabillashishiga olib keladi. Paxta - beda almashlab ekilishi tuproqlarda gumus miqdorini saqlab turish imkonini beradi, lekin uni oshirmaydi, demak tuproq unumdorligi ma'lum darajada saqlab turish imkonini beradi.

Almashlab ekish tizimida yetarli miqdorda organik o'g'itlar qo'llanilganda tuproq gumusi miqdori ortadi, shuningdek, gumusli holati hamda unumdorligi yaxshilanadi, barcha sug'oriladigan tuproqlar gumusli holatini yaxshilash va unumdorligini oshirish sharoitlari paxta – beda almashlab ekish tizimida mineral va organik o'g'itlar qo'llanilib borilganda

yaratiladi.

Ma'lumki barcha qishloq xo'jalik ekinlari tuproqlardan eng ko'p miqdorda asosan 3 ta elementni – azot, fosfor va kaliyni olib chiqib ketadi. Bulardan, fosfor va kaliy asosan tuproqning mineral qismida, ularning zahirasi azotga nisbatan bir qancha ko'p hisoblanadi. Lekin, ko'pgina sug'oriladigan tuproqlarda bu elementlarning ham o'simlik foydalana oladigan mineral qismi me'yoridan past darajada.

G'o'za o'simligini 10 sentner paxta hosili berishi uchun unga 50 kg azot, 55-60 kg kaliy va 15-20 kg fosfor kerak bo'ladi.

Agarda har gektar yerdan 30 sentnyerdan paxta xom ashyosi olish rejalashtirilsa, unda g'o'zaga 150 kg azot, 165-180 kg kaliy va 45-60 kg fosfor ozuqasi kerakligi tushunarlidir.

Tuproqshunoslik va agrokimyo instituti olimlari izlanishlari natijasida barcha viloyat tuproqlaridagi o'simlik o'zlashtiruvchan oziqa elementlarining (N, P, K).

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha: Na NO<sub>3</sub>-14-56 mg/kg, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>-2,5-30 mg/kg, K<sub>2</sub>O-60-300 mg/kg.

Sirdaryo viloyati bo'yicha: Na NO<sub>3</sub>-10-30 mg/kg, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>-3,6-15 mg/kg, K<sub>2</sub>O-50-200 mg/kg.

Xorazm viloyati bo'yicha Na NO<sub>3</sub>-3,0-31,0 mg/kg, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>-3,6-30 mg/kg, K<sub>2</sub>O-140-300 mg/kg.

Hozirgi kunda tuproqqa kerakli miqdorda azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy oltingugurt va mikroelementlarni qaytarib turishda quyidagi imkoniyatlardan foydalanish kerak.

Bular qoramollar, qo'y-echki, parrandalar go'ngi, shahar, qishloqlardagi chiqindilar, ariqlar, suv omborlarida to'planib qolgan katta hajmdagi chuchuk suv loyqalari, mahalliy chuvalchanglar yordamida o'simlik qoldiqlaridan olinayotgan bio-o'g'itlardir.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatidagi mavjud fosforitlar makro va mikroelementlarga boy bentonit loyi, tog' va kimyo ishlab chiqarish zavod-fabrikalarining qoldiqlari, donli o'simliklar somoni, daraxt barglari, qipiqlar ham kiradi.

O'simlik oziqlanishi uchun zarur bo'lgan oziqa moddalarini mana shu noan'anaviy o'g'itsimon moddalar o'zida saqlaydi. Masalan, 10 tonna qoramol go'ngida 50 kg azot, 17 kg fosfor, 30 kg kaliy bo'ladi. Parranda go'ngi oziqa elementlariga juda boy hisoblanadi. Ariqlardagi va suv omborlaridagi chuchuk suv loyqalari ham yerni unumdorligini oshiradi. Uning 10 tonnasida 600 kg dan 3 tonnagacha chirindi, 100 kg dan ortiq azot, 30-40 kg fosfor va 50 kg dan ko'proq kaliy mavjud.

Donli o'simliklar somonini ham yerga o'g'it sifatida solish mumkin. 10 tonna somonda 50 kg azot, 20 kg fosfor va 90 kg kaliy borligi aniqlangan. Daraxt qipiqlari ham ko'p miqdorda oziqa elementlarini saqlaydi. 10 tonna

qipiqa 20 kg azot, 30 kg fosfor va 74 kg kaliy bor. Yuqorida sanab o‘tilgan organik masalalar tuproqqa tushgandan keyin undagi oziqa elementlari o‘simlik oladigan birikmaga o‘tadi. Shu jarayonda tuproq ham chirindi, ham oziqa elementlariga, atmosfera esa o‘simlik uchun kerakli karbonat angidrid gazi bilan boyiydi.

Yuqorida keltirilganlardan tashqari, organik formadagi o‘g‘itlar yordamida har xil qoldiqlarni chirindiga boy kompostga aylantirib o‘g‘itsimon massaning miqdorini ham ko‘paytirish oson. Masalan, Surxondaryo viloyatidagi fosforit va bentonit minerallaridan go‘ng bilan kompost tayyorlansa, ular tarkibidagi element birikmalari suvda eriydigan shaklga o‘tadi.

Xuddi shunday tog‘-ruva konlari qoldiqlari ham kompost formasiga o‘tkazilsa oziqa elementlar turi va miqdori ortadi. Bundan tashqari har bir xo‘jalikda mahalliy chuvalchanglar yordamida o‘simlik barglari, poxol va go‘ngdan ham bioo‘g‘it tayyorlash mumkin. Bioo‘g‘it o‘zining tarkibida 10-20 foizgacha chirindi, 0,5 foizdan ko‘proq azot birikmalari, 0,3 foizgacha fosfor va 0,4 foizgacha kaliy saqlaydi. Shuningdek bioo‘g‘it o‘z tarkibida o‘simliklar uchun foydali fermentlar, vitaminlar va boshqa o‘stiruvchi moddalarni ham saqlaydi.

Yarim me‘yoriy mineral o‘g‘itlar va qolgan yarmini o‘g‘itsimon massa bilan o‘simlik oziqlantirilsa, etishtirilgan hosil tannarxi ancha arzon bo‘ladi, sifati yaxshilanadi. Muhimi, dehqon yoniga qoladigan daromad ko‘payadi.

Yerlardan foydalanish, unumdorligini oshirishning asosiy vositalaridan biri, qishloq xo‘jaligi ekinlari ekiladigan maydonlarning sxemasini yaxshilashdir.

G‘alla mustaqilligi borasida davlat siyosatini amalga oshirish, g‘alla ekinlari, maydonlarini oshirishni talab qiladi. Kuzgi boshqoqli don ekinlarini joylashtirishda bir maydonga 2 marotaba don ekilishiga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak. Shuningdek, boshqoqli don ekinlaridan bo‘shagan maydonlardagi ekin poyalarini yoqib yuborilishini qat‘iyan ma‘n qilishimiz zarur. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bir maydonga surunkasiga 2 yil va undan susayadi. Boshqoqli don poyalarini yoqib yuborilishi natijasida tuproqning unumdor qatlamidagi mikroorganizmlarning nobud bo‘lishi tuproq unumdorligini pasayishiga olib keladi.

## **9.2. Sug‘oriladigan yerlar unumdorligini tiklash**

Rasmiy ma‘lumotlarga qaraganda, oxirgi yillari respublikamizdagi mavjud sug‘oriladigan yerlarning unumdorligi keskin pasayib ketmoqda. Jumladan, yer baholash ishlarining natijasi ko‘rsatadiki, 1990 yilga nisbatan 2002 yilgi tuproqlarning o‘rtacha unumdorligi respublika bo‘yicha 4 ballga pasaygan, bu ko‘rsatkich Samarqand, Farg‘ona viloyatlari bo‘yicha 10 ballni, Sirdaryo, Surxondaryo viloyatlari bo‘yicha 7-8 ballni tashkil etadi.



Yerlarni o'zlashtirishda, mavjud maydonlarning meliorativ holatini yaxshilashda yo'l qo'yilayotgan xatolar, shuningdek dehqonchilik madaniyatiga to'la rioya qilinmayotganlik sababli mamlakatda 2,0 mln. ga sug'oriladigan yerlar sho'rlangan, oxirgi 15-20 yil ichida bu jarayon yana kuchaygan.

Bundan tashqari eroziyaga uchragan maydonlar oshmoqda. Qisman respublikamiz bo'yicha 450,0 ming ga ga yaqini shamol eroziyasiga uchramoqda. Bularning barchasi tuproq unumdorligini pasayishiga olib keladi. Bunday salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida, yerdan foydalanishning qay shakli bo'lishidan qat'iy nazar, tuproq unumdorligini tiklaydigan tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bulardan eng asosiysi bu izdan chiqqan almashlab ekishni hozirgi sharoitga moslagan holda joriy etishdir. Ma'lumotlar ko'rsatadiki, agarda 1990 yilda paxta ekish yalpi ekin maydonlarining 60-68% ni tashkil etgan bo'lsa, 2002 yilga kelib 45-55% ni tashkil etgan. Donli ekinlar 5,0-13,0% dan 35-45% ga oshgan, yem-xashak ekinlari, ayniqsa beda 14,0-20% dan 2,0-6,0% ga tushib qolgan. Bunday qisqarish ayniqsa 1995 yildan keyin keskin ro'y berdi. Buning natijasida almashlab ekish tarkibi buzildi. To'g'ri, qishloq xonadonlari tomorqa yerlarini kengaytirish, qishloq xo'jalik korxonalarini shakllarini o'zgartirgan holda qayta tashkil etish, yangi tipdagi fermer, dehqon xo'jaliklarini vujudga keltirish kabi qator tashkiliy ishlarning amalga oshirilganligi ham yuqoridagi holatga o'zining ma'lum salbiy ta'sirini o'tkazgan. Lekin tuproq unumdorligini tiklaydigan va oshiradigan, Yerni eroziyaga hamda sho'rlanishga moyilligini kamaytiradigan, chorvachilikni to'yimli yem-xashak bilan ta'minlaydigan beda maydonlarining qisqarib ketganligini normal hol deb bo'lmaydi. Chunonchi, beda maydonlarini Buxoro viloyatida umumiy ekin maydonlariga nisbatan 2,5%, Jizzax viloyatida 2,7%, Sirdaryo 2,6%, Navoiy 3,3% va Andijon viloyatida 4,0% tashkil etganligini ilmiy jihatdan asoslash juda murakkabdir. Natijada, almashlab ekish izdan chiqqan va tuproq unumdorligiga asta-sekinlik bilan pasayib ketgan. Shu sababli ham har bir mintaqa, tumanning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda shu joyga mos almashlab ekishni qat'iy joriy etish, yerlardan jadal foydalanishni amalga oshirish natijani beradi.

### **9.3. Sug'oriladigan tuproqlar unumdorligini oshirishga oid tavsiyalar**

Sug'oriladigan yerlardagi turli xil tuproqlardan unumli foydalanish hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida qishloq xo'jaligini rivojlantirishda eng muhim rolni egalaydi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yerlarimizning meliorativ-ekologik holati talab darajasida bo'lmaganligi tufayli ularning samarali unumdorligi yuqori emas. Yildan-yilga sug'oriladigan yerlarda sho'rlanish, eroziya, deflyasiya jarayonlarining kuchayishi kuzatilmoqda.

Buning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bor. Lekin hamma joyda ham shunday deyishi xato. Ilmu-fanning asosli tavsiyalariga, minglab yillik dehqonchilik tajribalariga tayanib ishlayotgan dehqon, fermer, shirkat xo'jaliklarida tuproq unumdorligi kamaymasdan, balki oshganligi kuzatilmoqda.

Shuning uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yer tuzishini to'g'ri va mukammal tashkil etmoq zarur. Bunda detallashgan tuproq xaritalari tuproqning kimyoviy, fizikaviy, agronomik hossalari bo'yicha xaritogramma va ilmiy hujjatlar asos bo'ladi. Bu hujjatlar asosida ekiladigan ekinlar nisbati, ularni tanlab olish, joylashtirish, almashlab ekish, eroziyaga va deflyasiyaga qarshi qo'llaniladigan tadbirlar, melioratsiya va agrotexnik uslublar, o'g'itlarning me'yori va tarkibi, hosilni oshirish istiqbollari belgilanadi. Bu tadbirlarning hammasi tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini chiqindisiz, atrof-muhitni ifloslantirmaydigan ekologik toza texnologiyalarga asoslanishi kerak.

Bundan tashqari qishloq xo'jaligida agrokimyoviy xizmat ko'rsatishni markazlashgan asosda yo'lga qo'yish lozim. Bu tuproqlarning samarali unumdorligini oshirishda va saqlashda juda ham zarurdir. Tuproq sharoitiga va o'simliklar talabiga qarab tabaqalashtirilgan holda mineral, organik va noan'anaviy o'g'itlarni qo'llash, sug'oriladigan va lalmi tuproqlarni ekologik holatini sog'lomlashtirish va unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Rivojlanayotgan jamiyatning bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirishda dehqon, fermer va ijarachilar uchun, ya'ni sug'oriladigan yerlardan uzoq muddatda foydalanuvchilar uchun tuproq-bonitirovka, meliorativ xaritalari va agrokimyoviy haritogrammalarini katta o'lchamlarda har 5 yillikda yangilash maqsadga muvofiqdir. Bu ana shu yerdan foydalanuvchilar faoliyatini, hosildorlik me'yorini va yerlarning holatini doimiy nazorat qilish imkonini yaratishga zamin bo'ladi.

Tuproq unumdorligini saqlash va uni muxozafa qilishda muhim tadbirlardan biri tuproqlarni pasportizasiya va sertifikasiya qilishni tashkil etishdir. Bu qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirishga tuproq unumdorligini saqlab qolishga va o'simliklardan ekologik toza mahsulot olishga tuproqlarda kechayotgan salbiy yoki ijobiy jarayonlarni nazorat qilishga xizmat qiladi va yerdan foydalanuvchilar faoliyatini nazorat qilish, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Quruq va o'rta quruq o'lkalarda, jumladan bizning respublikamizda tuproq unumdorligini belgilovchi omillardan biri sug'orish muammosidir. Suvning umumiy yetishmasligiga qaramasdan, ko'p joylarda sug'orish normallari juda yuqori. G'o'za qatorlariga bir necha kun davomida ko'p miqdorda suv quyiladi, sug'orish oralig'idagi davr uzaytiriladi. Suv juda ko'p sarflanadi va xuddi shu vaqtda o'simlikka namlik etishmaydi. Bundan tashqari, katta miqdordagi suv tuproq tarkibidagi gumus va ozuqa

elementlarining yuvilib ketishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun sug‘orish me‘yorlari, davrlari har bir tuproq iqlim mintaqasida qat‘iy ravishda tuproqlarning xossa va xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Hozirgi kunda meliorativ holati yomonlashgan, sho‘rlangan yerlar umumiy maydoni 2 mln. gektardan oshdi. Buning asosiy sabablaridan biri tuproq sharoitini hisobga olmasdan sug‘orish suvlarini katta me‘yorda ishlatilishi va kollektor drenaj tarmoqlarining talab darajasida emasligidadir. Natijada grunt suvlarining sathi ko‘tarilmoqda va avtomorf rejimdagi tuproqlar yarim gidromorf va gidromorf rejimlarga o‘tmoqda. Sug‘oriladigan tuproqlar meliorativ holatining yomonlashishi oqibatida o‘rtacha va kuchli sho‘rlangan tuproqlarda paxta hosildorligi 40-60 % gacha kamaymoqda.

Sug‘oriladigan yerlar unumdorligini oshirish va qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish uchun quyidagi meliorativ tadbirlarni o‘tkazish tavsiya etiladi:

1. Sug‘oriladigan maydonlarning deyarli yarmisida kollektor-zovur tarmoqlarini qayta qurish, ya‘ni ularning hajmini (uzunligini) gektariga 40-50 pogon metrغا yetkazish, qolgan maydonlarda esa kapital ta‘mirlash ishlarini o‘tkazish birinchi va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan hisoblanadi.

2. Bular amalga oshgunga qadar yer osti sizot suvlarining oqimini ta‘minlash va ikkilamchi sho‘rlanishni oldini olish maqsadida xo‘jaliklararo va xo‘jalik ichidagi zovurlarni har yili 45-50 % ini sifatli tozalab turish zarur.

3. Hozirda mavjud kollektor-zovur tarmoklari va tik quduqlar (skvajinalar) ning texnik nosozligi va ish samarasining (unumining) o‘ta pastligi bois vujudga kelgan gidromorf suv rejimini yarim gidromorf suv rejimi bilan almashtirish (o‘tkazish) eng maqbul meliorativ rejim hisoblanadi. Bunda yer osti sizot suvlari sathini “kritik” chuqurlikdan (2,5-3,0 m) pastda ushlab turishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi o‘z aksini topishi lozim. Qishloq xo‘jalik ishlab chikarishida yarim gidromorf meliorativ rejimni ko‘llanishi sug‘oriladigan sho‘rlangan tuproqlarning qulay meliorativ holatda ushlab turilishiga imkon yaratadi.

4. Meliorativ tadbirlar ichida tuproq sho‘rini yuvish (tuproqlari sho‘rlanishga moil hududlarda) muhim tadbirlardan hisoblanadi. Bu borada xaydalib, yaxshi tekislangan maydonlarda olingan cheklarga suv bostirish yuli bilan tuproq sho‘rini yuvish, bu tadbirni o‘tkazishdan oldin barcha mavjud kollektor-zovur tarmoqlarini ishchi holiga keltirish (tozalash), tuproqning sho‘rlanganlik darajasi, mexanik tarkibi, suv o‘tkazuvchanlik hossalari hisobga olgan holda sho‘r yuvish me‘yorlarini belgilash muhim ahamiyat kashf etadi. Sho‘r yuvish ishlarini Amudaryoning quyi qismi regionlarida (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati) kuz-qish hamda bahor oylarida (sho‘r yuvish suv me‘yorlarining 2/3 qismi kuz-qish

oylarida, 1/3 qismi bahorda beriladi qolgan viloyatlarda kuz-qish oylarida o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

5. Respublikamizning ko'pgina viloyatlarida keng tarqalgan gipsli tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash va ularning unumdorligini oshirish alohida tadbirlar majmuasini talab etadi. Bunday og'ir melioratsiyalanuvchi tuproqlarda yerlarni chuqur haydash, organik o'g'itlar solib sho'r yuvish ishlarini sifatli o'tkazish yaxshi samaralar beradi. Tuproqlarning unumdorligiga shamol va suv eroziyalari katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda 2 mln. gektardan oshiqroq yer deflyasiyaga uchragan.

Mamlakatimizda sug'orish eroziyasiga qarshi olib boriladigan ko'rash choralarini asosan 4 guruhga ajratish mumkin:

1. Sug'orish texnikasini mukammallashtirish. Tuproq yuza qismi qiyaligining katta-kichikligiga qarab sug'orish me'yorlarini belgilab berish.

2. Sug'orish eroziyaga qarshi kimyoviy vositalarni qo'llash. Bu maqsadda sintetik polimyerlar, polikomplekslar (K-4, K-9, TNM1) va gumin preparatlarini (gidrolizgan lignin, ammoniyashtirilgan ko'mir, gumofos, gumin kislotasi) qo'llash zarur. Sintetik polimyerlar tuproq yuza qismida sun'iy struktura hosil qiladi. Yaxshi strukturalangan tuproqlarda eroziyaga qarshilik ko'rsata olish qobiliyati yuqori bo'ladi. Har bir sug'orishdan avval jo'yakka 20 kg. ga miqdorida K-9 polimer solish natijasida eroziyaga uchragan tuproqlarda suvga chidamli makroagregatlar miqdori oshadi, ularning suv-fizikaviy va agrokimyoviy xossalari yaxshilanadi, g'o'za va boshqa ekinlar hosildorligi ortadi.

3. Sug'orish eroziyaga qarshi biologik vositalarni qo'llash. Eroziyaga qarshi biologik vositalardan biogumus, xlorella va ko'k-yashil suv o'tlarini qo'llash mumkin. Bu biologik vositalar tuproqni organik moddalar bilan boyitadi va strukturasini yaxshilaydi, foydali mikroorganizmlar turi va sonini ko'paytiradi, g'o'za va boshqa ekinlar hosildorligini oshiradi.

4. Sug'orish eroziyasiga qarshi turli agrotexnik usullarni qo'llash. Ushbu yunalishda respublikada quyidagi tadbirlarni amalga oshirish mumkin: oraliq ekinlar ekish, eroziyaga uchragan tuproqlarning suv-fizikaviy hossalarni yaxshilash uchun qator oralariga bentonit solish va tuproqning yuvilganlik darajasiga qarab organik va mineral o'g'itlarni tabaqalab qo'llash.

Shamol eroziyaga qarshi esa asosan quyidagilar qo'llaniladi: oraliq, mexanik, biologik va kimyoviy chora-tadbirlarni shamol yunalishiga perpendikulyar joylashtirish. Bunda yengil qumoqli tuproqlarga oraliq ekinlar ekish birinchidan, shamol tezligini kamaytiradi, ikkinchidan yer haydalganda tuproqni organik moddalar bilan boyitadi.

Tuproq unumdorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri ishlov berishni tartibga tushirish, uni minimallashtirishdir. Bizning tuproqlarimizning

strukturasi kam. Doimiy ishlov buni yanada kamaytiradi, tuproqlarning zichlanishi ortib boradi. Tuproqlarda optimal suv, suv-fizik sharoitlarini hosil qilish agrotexnik tadbirlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Bular quyidagilardir:

1. G'oz chigitini oldindan tayyorlangan pushta va qo'sh pushtalarga ekib o'stirish texnologiyasi. Bu texnologiya o'rtacha sho'rlangan o'tloqi tuproqlar sharoitida, o'rtacha sho'rlangan, o'rta va og'ir mexanik tarkibli taqirsimon tuproqlar sharoitida sinovdan o'tkazilgan. Pushta va qo'sh pushtalarni cho'l zonasi sharoitida bahorda olish zarurligi isbotlangan, ularni 90 sm qator oralig'ida ishlatiladigan kultivator ocharlari orqali olish tavsiya etiladi.

G'oz chigiti oldindan tayyorlangan pushta va qo'sh pushtaga ekilganida chigit va g'oz uchun tuproqda mo'tadil zichlik, suv, issiqlik, ozuqa va mikrobiologik sharoit yaratiladi va natijada qo'shimcha hosil olish mumkin bo'ladi.

2. Tuproq yuzasini yaltiroq poliyetilen plyonka bilan mulchalash texnologiyasi. Bu texnologiya Toshkent viloyati eskidan sug'oriladigan oddiy bo'z va o'tloqi tuproqlarida va Samarqand viloyati oddiy bo'z va och tusli bo'z tuproqlari sharoitida sinovdan o'tkazilgan. Yaltiroq plyonka bilan mulchalash texnologiyasining samarasi mulchalangan maydon kengligiga to'g'ri proporsionaldir. Shuning uchun bu texnologiyani paxta 60 sm qator oralig'iga ekilgan sharoitlar va mexanik tarkibi o'rta qumoqdan past bo'lmagan, sho'rlanish darajasi esa o'rtachadan yuqori bo'lmagan tuproq sharoitlari uchun tavsiya etiladi. Qalinligi 100 mkm va eni 90 sm ga teng bo'lgan plyonkalardan foydalanish zarur. Bunda paxta 60 sm qator oralig'iga ekilganda gektariga 550-600 kg plyonka ishlatiladi. Plyonkani chigit ekib bo'lgandan keyin yoki ekish bilan birgalikda kul bilan yoki ma'lum moslamalar yordamida yopiladi. Yopiladigan plyonka bir qator oralig'ini to'la va qo'shni qator oraliqlaridan 5 sm dan egallangan holda yopiladi. Plyonkaning ikki chekasi 5-10 sm chuqurlikda tuproqqa ko'miladi va zichlanadi. Bir qator oralig'i qoldirilib, keyingi qator oralig'i yana plyonka bilan yopiladi. Shunday qilib, har ikkinchi qator oralig'i bo'sh qoladi va undan g'ozani sug'orish va oziqlantirish uchun foydalaniladi. Plyonka bilan yopilgan qator oralig'iga vegetasiya davrida hech qanday ishlov berilmaydi. Plyonka ostida chigit unib chiqqanidan so'ng diametri 20 mm dan katta bo'lmagan teshikchalar hosil qilinadi.

Tuproq yuzasini yaltiroq poliyetilen plyonka bilan mulchalanganda chigitni to'la unib chiqishi ochiq joyga nisbatan 9 kunga, shonalashi 16 kunga, gullashi 18 kunga, ko'saklarni ochilishi 25 kunga tezlashadi, qo'shimcha hosil olinadi. Sentyabr oyi ichida yalpi hosilning 80 - 90 foizigacha yig'ib olinadi.

3. Tuproq yuzasini maydalangan go'ng bilan mulchalash texnologiyasi.

Paxtani 60 sm qator oralig'iga ekilgan sharoitda ikki qator g'o'za oralig'i go'ng bilan mulchalanib, keyingi bir qator oralig'i ochiq qoldiriladi. G'o'zani oziqlantirish, sug'orish va qator oralig'iga ishlov berish ochiq qoldirilgan egatlar orqali beriladi. Shunda namligi 15 % atrofida bo'lgan bir gektar maydonga diametri 1-2 sm bo'lgan elakdan o'tkazilgan go'ngdan 60 tonna sarflanadi. Tuproq yuzasini go'ng bilan mulchalash uchun KRX-4 kultivatori moslashtiriladi.

Go'ng bilan mulchalash texnologiyasi tuproqning fizik hossalarni yaxshilash bilan birga ko'raklar ochilishini tezlashtiradi va qo'shimcha hosil olish imkonini beradi.

4. Kompost solish yuli bilan tuproq unumdorligini oshirish texnologiyasi.

Organik kompostni tayyorlash uchun go'ng (yirik qoramol), shahar chiqindilari, paxta zavodi chiqindilari, chuchuk suv loyqasidan foydalaniladi.

Tuproqqa har yili 20 tonna kompost solinganda undagi organik moddalar miqdori 0,09 - 0,20% ko'payadi. Katta me'yordagi go'ng bilan tayyorlangan kompost tuproqqa azot, fosfor o'g'itlari bilan birgalikda berilganda o'simliklarning oziqlanish sharoiti tuproqlarda azot, fosfor, kaliy elementlarining o'simliklar o'zlashtira oladigan shakli ko'payishi hisobiga yaxshilanadi.

5. Tejamli va samarali sug'orish texnologiyasi.

Respublikamizning turli iqlim sharoitlari uchun ishlab chiqarilgan va rayonlashtirilgan gidromodul sxemalari bo'yicha sug'orish me'yorlari 400-500 dan 700-800 va 900-1000 m<sup>3</sup> gacha bo'lishiga qaramasdan ko'pgina xo'jaliklarda sug'orish me'yoridan 2-3 baravar, ya'ni 1600-1800 dan 2500 m<sup>3</sup> gacha suv miqdori bilan sug'orish kuzatilmoqda. Shu bilan birgalikda tuproqlarning suv-fizik hossalari, tarkibi va tuzilishi, grunt suvi chuqurligi, o'simliklarning o'sish davri, suvga talabi va boshqalar to'laligicha hisobga olinmaydi. Natijada, katta miqdordagi suv tuproqning haddan tashqari namligini oshishiga, sizot suvlari sathining ko'tarilishiga yoki zovurlar orqali chiqib ketishiga sarflanadi.

Dala nam sigimining 65-70 % hisobida g'o'za (o'sish davriga qarab) 700 dan 900-1000 m<sup>3</sup>/ga miqdor suv bilan sug'orilganda tuproq zichligi bo'yicha umumiy g'ovakligi, havo almashishi, havo tarkibi, oksidlanish-qaytarilish potentsiali, harakatchan temir miqdori, tuproq namligi tartiboti va suv sarflanishi bo'yicha eng yaxshi sharoit yaratiladi.

Yuqoridagi aytilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- Tuproqda nam etishmasligini hisobga olgan holda sug'orish tuproq dala nam sig'imi 65-70% dan kam bo'lmagan holatlarda amalga oshirilishi kerak.
- Tuproq sharoitlari va o'simliklarning o'sish davrini hisobga olgan holda

sugʻorish meʼyorlari quyidagicha tartibga solinadi: sugʻoriladigan oʻtloqi-botqoq tuproqlarda birinchi sugʻorish oʻsimlik gullagunga qadar (0-50 sm tuproq qatlami hisobida) 700-750 m<sup>3</sup>/ga suv miqdorida amalga oshiriladi. Gʻoʻza oʻsish davrining keyingi davrlarida hisobli qatlam 0-70 sm dan oshmasligi hamda sugʻorish meʼyori 850-900 m<sup>3</sup>/ga ni tashkil qilishi kerak.

- Sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlar uchun sugʻorish gullagunga qadar 700-750 m<sup>3</sup>/ga 0-50 (60) sm tuproq qatlami, gullash boshlanishi davrida 850-900 m<sup>3</sup>/ga 0-70 (80) sm qatlam va undan keyingi davrlarda 1000-1200 m<sup>3</sup>/ga 0-100 sm qatlam uchun sarflanishi zarur.
- Sugʻoriladigan oddiy boʻz tuproqlar uchun birinchi suv 700-750 m<sup>3</sup>/ga 0-70 sm tuproq qatlami uchun gullash davrida 900-950 m<sup>3</sup>/ga va undan keyingi davrlarda 1100-1200 m<sup>3</sup>/ga hisobli namlanish tuproq qatlami 0-100 sm ni tashkil qilishi kerak.

Yaxshi strukturali, suv oʻtkazuvchanligi yuqori va sizot suvlari yaqin joylashgan yerlarda sugʻorish egat oralatib (oʻrtada bir egat qoldirib) sugʻorilishi zarur.

Sugʻorish tuproqlarning nam yetishmasligini hisobga olgan holda, egat uzunligi oʻtloqi-botqoq tuproqlarda 130 m dan, sugʻorish muddati 20 soatdan oshmasligi, sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlarda esa egat uzunligi 150 m dan, sugʻorish muddati 24 soatdan oshmasligi, sugʻoriladigan boʻz tuproqlar uchun egat uzunligi 150 m dan va sugʻorish muddati 30 soatdan oshmasligi zarur. Har qator orqali sugʻoriladigan suv oqimi miqdori 0,4-0,5 l/s va qator oralatib sugʻorilganda esa 0,5-0,6 l/s boʻlishi kerak.

6. Yerni kuzda shudgorlash, erta bahorda olib boriladigan barcha agrotexnikaviy jarayonlar (chizellash, boronalash, molalash) paxta va boshqa qishloq xoʻjaligi oʻsimliklarini ekish muddatlarini belgilash, oʻsimlik vegetasiyasi davrida amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlar tuproq xaritalari va boshqa tavsiyanomalar asosida tashkil etilishi lozim.

Oxirgi yillarda sugʻoriladigan tuproqlarda gumus moddasining kamayib ketishi kuzatilmokda. Ozuqa elementlarining asosiy qismi oʻsimlik biomassasi bilan tuproqdan olib chiqilib ketilmoqda va tuproqqa qaytib tushadigan yoki sunʼiy oʻgʻit sifatida beriladigan miqdori sezilarli darajada kam. Natijada, sugʻoriladigan yerlar kambagʻallashib ketgan, ularning fizikaviy- kimyoviy xususiyatlari yomonlashgan.

Chorvachilikning rivojlanishi goʻsht va sut mahsulotlarini koʻpayishiga olib kelishi bilan bir vaqtda tuproq unumdorligini oshirishning real manbai-organik oʻgʻitlarni yetarli boʻlishini taʼminlaydi. Bunda organik modda yigʻilishi har tomonlama taʼminlanadi. Birinchidan, oʻsimliklarni almashlab ekish, oraliq ekinlar yetishtirish natijasida ildiz va ildiz-poya qoldiqlari tuproqda koʻp miqdorda toʻplanadi va ikkinchidan, organik oʻgʻit goʻngni toʻplanishi ortadi.

Mineral oʻgʻitlar, ayniqsa fosforli oʻgʻitlar tanqis boʻlgan hamda

tannarxi ortib borayotgan hozirgi sharoitda mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan tabiiy agrorudalardan, sanoat chiqindilaridan oqilona foydalanish o'simliklar tomonidan tuproqdan olib ketilayotgan ozuqa moddalarini o'rnini qoplash, elementlar muvozanatini saqlash imkonini beradi, buning natijasida tuproq unumdorligini pasayishining oldi olinadi, hosildorlik esa ortadi. Bunda eng asosiy masalalardan bo'lib ilmiy-amaliy tomonidan har tomonlama o'rganib, samaradorligi ekologik jihatdan tozaligi aniqlangan agrorudalardan bentonit, glaukonit kabilarni tuproq sharoitini hisobga olingan holda ma'lum miqdorda o'simliklar xiliga mos holda qo'llash hisoblanadi.

Tarkibida fosfori kam bo'lgan fosfor rudasi fosforitni turli yullar bilan boyitish-tarkibiga ma'lum miqdorda kimyoviy reagentlar, azotli va fosforli o'g'itlar qo'shish mol va tovuq go'ngi qo'shilgan kompostlar tayyorlash hamda ularni tuproq sharoitini hisobga olgan holda g'o'za va bug'doy ekinlarida gektariga ikki-uch tonna miqdorida qo'llash tuproqdagi harakatchan fosfor elementi miqdorini ortishiga, undagi gumusni ko'payishiga tuproq hossalari yaxshilashiga va natijada hosildorlik ortishiga olib keladi.

Ammofos ishlab chiqarishi korxonalarida chiqindisi fosfogips tarkibidagi fosfor, kalsiy va oltingugurt (ularni miqdori mutanosib ravishda 2-3 foiz va 17-18 foiz) dan samarali foydalanish ham tuproq unumdorligini va ekinlar hosilini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun tuproq sharoitini o'simlik xilini hisobga olgan holda fosforgipsni va fosforgips asosida tayyorlangan organik, mineral o'g'it va kompostlarini gektariga 3-5 tonna atrofida qo'llash tavsiya etiladi.

Hozirgi sharoitda dehqonchilikni mineral o'g'itlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, ular yuqori hosil olishning muhim omili hisoblanadi. Shuning uchun tuproq unumdorligini oshirishi maqsadida mineral va organik – o'g'itlarni tuproq sharoiti va o'simliklar talabiga mos ravishda ishlatish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

1. Asosiy mineral o'g'itlarni tuproqlarning ular bilan ta'minlanish xaritagammalari va o'simliklar talabi asosida qo'llash (azotli o'g'itlar bo'yicha ishlab chiqilgan o'g'itlarni differensial qo'llash texnologiyasini hududlarining tuproq va regional xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llash).
2. Azotli o'g'itlarni yuqori normada (200-250 kg/ga) qo'llash kuchli sho'rlangan rayonlarda iqtisodiy va ekologik jihatdan salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini e'tiborga olish.
3. Yengil mexanik tarkibga ega tuproqlarda ayniqsa cho'l mintaqasida, karbamid-formaldegid o'g'it (KFU) larini qo'llash ammiakli selitrage nisbatan samarali ekanligini e'tiborga olish.
4. Tuproqdan azot yuvilishini oldini olish maqsadida, sholi ekiladigan yerlarda tarkibida ammoniy holdagi azot saqlaydigan, azotli o'g'itlar



qo'llash (mochevina, ammoniy sulfat).

5. Azotli o'g'itlarning o'simliklar tomonidan o'zlashtirish koeffitsiyentini oshirish va tuproqdan yuqolishini oldini olish maqsadida tarkibida amid va ammoniy tutgan (mochevina, ammoniy sulfat) o'g'itlarni nitrifikasiya ingibitorlari bilan qo'llash.
6. Mineral o'g'itlar qo'llashda, tuproq tarkibidagi oziq elementlarning bir-biriga nisbatini e'tiborga olish.
7. Mikroo'g'itlar qo'llashda dalaning mikroelementlar bilan ta'minlanganligiga va ekiladigan o'simlikka ahamiyat berish.
8. G'ozapoya va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari poya va qoldiqlarini maydalab shudgor ostiga berish.
9. G'alla ekinlari poya qoldiqlarini yoqib yuborish hollariga barham berish, chunki bu holda tuproqning unumdorligini yaratuvchi organik moddalarga va tuproqning tirik fazasiga o'ta kuchli zarar yetkaziladi.

Respublikada sug'orishga yaroqli, unumdorligi nisbatan yuqori bo'lgan tuproqlarning deyarli hammasi o'zlashtirilib bo'lingan. Keyingi yillarda o'zlashtirilgan va yaqin yillarda o'zlashtirishi mumkin bo'lgan tuproqlar unumdorligi past, sho'rlangan, gipsli, toshloqli keyin o'zlashtiriladigan tuproqlar kategoriyasiga mansubdir.

Ularni o'zlashtirish juda murakkabligi sababli har tomonlama chuqur o'ylab amalga oshirilishi lozim. Ular asosan taqirli, taqir, bo'z tusli qo'ng'ir tuproqlar va qumlar majmuasidan iborat. Ularning unumdorligini oshirish uchun o'zlashtirish davri belgilanishi kerak. Tajribalar bu davr 10 yil atrofida ekanligini ko'rsatadi.

Bu davrda o'tlar, dukkakli, boshoqli, oraliq ekinlar ekilishi kerak. Shu vaqt ichida madaniylashgan, chirindili, haydalma qatlam vujudga keladi. Aks holda g'oz hosildorligi uzoq yillar davomida pastligiga qoladi. Yerga ishlatilgan o'g'it, suv mehnat qoplanmaydi. Tuproq unumdorligini saqlash va oshirishning asosiy omillaridan biri qishloq xo'jalik ekinlarini tuproqlarning ekologik meliorativ sharoitini, ularning hossa xususiyatlarini hamda hududlarning suv bilan ta'minlanishini hisobga olib tabaqalashtirib joylashtirishdir. Bu sohada Buxoro viloyatida olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ekinlarni joylashtirish tizimida tuproqlarning sifat jihatlari hisobga olinmaydi. Buning natijasida tuproqlarning unumdorligi kundankunga pasayib ketmoqda. Yerlarning ball bonitetlari hatto 1990 yilga nisbatan sezilarli kamaygan. Agar bu jarayon davom etaversa, bir necha yillardan keyin kuchli tuproq degrasiyasi yuzaga kelishi mumkin. Bu noxush holning oldini olish yo'llaridan biri, tezda viloyat hududlarida qishloq xo'jalik ekinlarini yerlarning sifatini hisobga olgan holda tabaqalashtirib joylashtirish texnologiyasini joriy etishdir. Bu texnologiyaning mohiyati, asosiy ekinlardan olinadigan yalpi hosilni kamaytirmasdan sifati yomon yerlarda agrotexnik, meliorativ tadbirlar asosida ularning unumdorligini

qayta tiklashdir. Masalan: Buxoro viloyatida tuproq unumdorligini qayta tiklaydigan o‘simlik-beda keskin kamayib ketgan (2,4-4,0 %). Tuproq unumdorligini saqlash va qayta tiklash uchun viloyatda beda maydoni miqdori o‘rtacha 16,6 foizini tashkil etishi kerak. Jumladan, tuproq sifati o‘rtachadan past maydonlarda (21-40 balli yerlarda) uning miqdori 30 % gacha oshirilmog‘i lozim, ana shunda viloyatda unumdorlik darajasi yaxshi bo‘lgan yerlarda g‘o‘za va boshoqli don ekinlarining hosilini oshirish va sifatini yaxshilash hisobiga, yalpi yetishtiriladigan paxta va g‘alla miqdorini kamaytirmasdan, sifati yomon bo‘lgan yerlarning unumdorligini qayta tiklashga va oshirishga erishiladi. O‘simliklarni bunday joylashtirish tizimini respublikamizning hamma viloyatlari uchun, ularning tuproq sifatini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi va joriy qilinishi lozim. Bunda kuchli sho‘rlangan yerlarda beda o‘rniga shirinmiya ekishni tavsiya etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda tuproqlarimizning unumdorligini oshirish, qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil olish ko‘p jihatdan ham ilmiy tashkilotlar, ham ishlab chiqarish xodimlaridan o‘z vazifalariga o‘ta yuqori mas‘uliyat bilan yondoshishlarini takozo etadi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, toki qishloq xo‘jaligi amaliyotida faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlarning ona tuprog‘imizga bo‘lgan munosabati, ya’ni uni o‘rganishga, asrashga, unumdorligini va o‘z malakasini oshirishga bo‘lgan qiziqishi kuchaymasa beparvolik va javobgarlikni his qilishmasa, oqilona va ilmiy tavsiyanomalarning ijobiy ta’siri bo‘lmasligi mumkin.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Sug‘oriladigan yerlar unumdorligini oshirish bo‘yicha qanday meliorativ tadbirlar amalga oshirish lozim?
2. Sug‘orish eroziyasiga qarshi kurash chora-tadbirlarini sanab bering.
3. Tuproqlarda optimal suv-fizik sharoitlarini hosil qilishning agrotexnik tadbirlari nimalardan iborat?
4. Tuproqdagi gumus moddasining kamayib ketishining sababi nimada?
5. Mineral o‘g‘itlarni ishlatishda nimalarga e’tibor qilish lozim?
6. Kelgusida o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan hududlar qanday tuproqlarga to‘g‘ri keladi?

## **X-BOB. YERLARNI IQTISODIY BAHOLASH**

---

Haydaladigan yerlarning qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish vositasi sifatidagi solishtirma qadr-qiyamatini aniqlashdan iborat.

Dehqonchilikning mavjud intensivdagi sharoitida qishloq xo‘jaligidagi mehnat unumdorligini hisoblash bilan unumdor yerlardan foydalanishning samaradorligini aniqlashdir:

- Yerlarni miqdor va sifat jihatdan hisob qilish;
- Haydalma yerlarni sifat jihatdan baholash asosida qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini oshirishini bir gektar yerga kamroq xarajat sarf qilib olinadigan mahsulotni ko‘paytirish;
- Yerning unumdorligini aniqlash va miqdorini hisob-kitob qilish ishlari;
- Yerni baholashning asosiy ko‘rsatkichlari, uning unumdorligini baholash (bonitirovka qilish), ya‘ni yerga eng muhim agronomik xususiyatlariga ko‘ra ball bilan solishtirma baho qo‘yish bo‘lib, bu davlat kadastri ichida muhim o‘rin tutadi;
- Yerlarni baholash rayonlarga ajratishni.

Bu ishlarni amalga oshirishda qishloq xo‘jalik tashkilotlaridan yig‘ib olingan oxirgi besh yillik buxgalteriya va statistik hisobot ma‘lumotlari va aerofotogeodeziya hujjatlari, tuproq va geobotanik tekshiruv hujjatlari asos qilib olinadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng siyosiy iqtisodiy ijtimoiy va boshqa yo‘nalishlarda keng qamrovli islohotlar o‘tkazishga kirishildi. Xususan Yer resurslaridan samarali foydalanish tamoyillariga alohida e‘tibor qaratildi. Chunki Yer xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari tizimida va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda asosiy vosita va manba hisoblanadi. Shu bois u aholi hayoti faoliyati va farovonligida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz I.A. Karimovning 2003 yil 14 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil respublikani ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishiga bag‘ishlangan majlisida so‘zlagan ma‘ruzalarida qishloq xo‘jaligini tubdan o‘zgarishning infrastrukturasi shakllantirish bo‘yicha davlat dasturlari hayotga qanday tadbiriq etilayotgani hamda bu boradagi yutuq va muammolarni atroflicha tahlil qilib berdilar. Ma‘ruzada respublikamizning sug‘oriladigan 4,3 mln. gektardan iborat ekanligi, ya‘ni umumiy Yer maydonining 9% ni tashkil etishi ko‘rsatib o‘tiladi. Respublikamizda yetishtiriladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining asosiy qismi ana shu sug‘oriladigan yerlardan olinishini

hamda mamlakatimiz aholisining asosiy daromadi va farovonligi mana shu 9% yerdan samarali foydalana olishimizga, uning unumdorligini qay darajada saqlab turishimizga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlab o'tdilar.

Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabrda 539-sonli "Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona Yer solig'ining muvaqqat bazaviy stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan respublikamizning 102 ta tumanidagi sug'oriladigan yerlardan tuproq xaritalariga tuzatish kiritish tuproqlarning ball bonitetlarini aniqlash ishlari yakunlanib respublikamizning barcha viloyatlarida yerlarning tuproq bonitet ko'rsatkichlari, me'yoriy baholash hujjatlari va xo'jalik tuproq xaritalari alohida to'plam qilinib mazkur hujjatlar, viloyat, tuman xo'jaliklar etkazilgan.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Haydaladigan yerlarning iqtisodiy bahosi necha xil bo'ladi?
2. Yerlarni baholashning qanday yo'llari mavjud?

### **10.1. Yer resurslarining holati, muhofazasi va ulardan samarali foydalanish**

Yer xususan tuproq resurslaridan samarali foydalanish hamda uni unumdorligini saqlash va muhofazalash har qanday jamiyat iqtisodiyoti holati va uning ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Prezidentimiz I.A.Karimovning BMT SAMMITI ning yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqlari respublika matbuotida chop etilgan bo'lib, unda ekologiyani muxofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash umumdavlat miqyosidagi eng dolzarb masalalardan biri ekanligi alohida ta'kidlangan. Sayyoramiz yer yuzasi umumiy yer maydonini 29,2 %i kurukdikka, 70,8 %i dengiz va okeanlarga to'g'ri keladi. Yer fondi tuzilishida ishlov beriladigan yer maydonlari bor yo'g'i 11 % ni tashkil qilishiga qaramasdan, mana shu yerlarda inson uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining qariyb 90 % ni yetishtirish imkoniyatlari mavjud.


2011 yil 1 yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiy Yer maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qiladi. Respublika bo'yicha korxonalar, tashkilot, muassasalar, fermer xo'jaliklari va fuqarolarning foydalanishidagi jami yerlar 44410,3 ming gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 4313,1 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,7 foizini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi yer fondi yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega 8 ta toifaga bo'linadi (1-jadval).

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar mamlakat yagona Yer fondida eng asosiy o‘rin tutadi va O‘zbekiston Respublikasi hududining 46,1 % ni egallagan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda asosiy vosita hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berib qo‘yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar hisoblanadi. Bunday yerlar qishloq xo‘jaligini yuritish uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo‘jalik yo‘llari, kommunikasiyalar, o‘rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallagan yerlarga ajraladi. Shuningdek, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, bo‘z yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar (bog‘lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt ko‘chatzorlari, mevazorlar va boshqalar) egallagan yerlar ham qishloq xo‘jaligi yerlari jumlasiga kiradi. Respublikada qishloq xo‘jaligi korxonasi va tashkilotlarining soni fermer xo‘jaliklari bilan birgalikda olganda 2011 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, 72578 ta bo‘lib, ularga birlashtirib berilgan yerlarning umumiy yer maydoni 20487,7 ming gektarni shu jumladan, qishloq xo‘jalik yer turlari maydoni esa 15596,2 ming gektarni, shundan 3714,7 ming gektari sug‘oriladigan yerlarni tashkil qiladi.

Respublika hududida qishloq xo‘jaligi maqsadlariga mo‘ljallangan yerlarning taqsimlanishi tabiiy-iqlim omillariga binoan belgilanadi (1-rasm).



**1-rasm. Sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik Yer turlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi (% hisobida).**

O‘zbekiston Respublikasi Yevroosiyo kontinentining markazida joylashgan bo‘lib, uning hududining 80 foizi chala sahro va sahrolardan, 20 % tog‘lik joylardan tashkil topgan. Mamlakatimiz tuproqlarining

rivojlanishi va ularni tarqalishi respublikamiz asosiy tuproq-geografik qonuniyatlarining murakkab tizimini o'zida aks ettiradi. Mamlakatimizni tekislik va pastqam g'arbiy kismi sahro zonasidan iborat bo'lib, tuproqlar kenglik mintaqalarini eng quyi bo'g'inini tashkil etadi va fasiyalar bo'yicha subboreal va subtropik sahrolarga bo'linadi.

Saxro zonasining avtomorf tuproqlari sur tusli ko'ng'ir, saxro-kumli, taqir, qoldiq sho'rxoklar va bozingenlar (ko'p gipsli tuproqlar) dan iboratdir. Shimoliy Ustyurtda och tusli ko'ng'ir sahro-cho'l tuproqlari va kam hollarda sho'rxoklar uchraydi.

Joylarning dengiz sathidan balandligi sharqqa tomon tobora ortib, tog' osti tekisliklari g'arbiy Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog' tizmalarining tog' oldi va tog'liklari bilan almasha boradi. Atmosfera yog'in-sochinlari miqdori ortib, havo harorati pasayadi va shu bilan bog'liq ravishda o'simlik turlari va ular qoplaminig qalinligi ham ortib boradi. Bu yerlarda vertikal mintaqalar tuproqlari tashkil topib, ularda gumus miqdori ko'payishi va tuzlarning kamayishi, ya'ni ularning nuralishi va tuzlardan yuvilganligi kuzatiladi. Bu yerlarning quyi qismida, ya'ni tog' osti-tog' oldi subtropik chala sahro mintakasida och tusli, tipik va to'q tusli bo'z tuproqlar tarkalgan bo'lib, ular ham o'z navbatida tegishli mintakalarga bo'linadi.

Tog'larda, dashtlarning subgumid va gumid, chala o'rmon va o'rmon sharoitlarida tog' jigar rang va qo'ng'ir tuproqlar rivojlangan. Bundan ham balandda, subalp o'tloqi-dasht va dasht sharoitlarida baland tog' och tusli ko'ng'ir tuproqlari hosil bo'lgan.

Respublikamizning dehqonchilik rivojlangan hududlari ya'ni, daryo vodiylari va tog' osti tekisliklari tuproq qoplaminig tashkil topishida litologik-geomorfologik va gidrogeologik omillar asosiy rol o'ynaydi. Chunki, yer usti va yer osti grunt suvlarining kirish va chiqish okimlari hajmi va tezligi ana shu omillarga bog'liq. Bu yerlarda tuz to'planish sharoitlari mavjud bo'lgan allyuvial va saz rejimlaridagi o'tloqi va botqoq tuproqlar hosil bo'lgan.

Daryo vodiylarining suv to'planish qismidan suv oqish (tranzit) zonasi va suv tarqalish zonalari tomon tuproq paydo bo'lish va meliorativ sharoitlar keskin o'zgarib boradi. Daryo deltalarida tarqalgan tuproqlarning xossa va xususiyatlari ularning rel'efdagi o'zni, ona jinsning litologik tuzilishi, suv to'plash sharoitlari (o'zan oldi, o'zanlararo va ko'l yotqiziqlari) bilan uzviy bog'liqdir. Bu yerlarning tuproq qoplami inson faoliyati ta'sirida sezilarli morfo-genetik o'zgarishlarga uchraydi, ularning xossa va xususiyatlari, ularda kechayotgan jarayonlar yo'nalishi va jadalligi o'zgaradi, oqibatda ularning unumdorlik darajasi va ishlab chiqarish qobiliyatida ijobiy yoki salbiy holatlar yuzaga keladi. Shu sababli qishloq xo'jaligi yerlaridan, avvalambor, sug'oriladigan yerlardan to'g'ri foydalanishni tashkil qilish, ularda kechayotgan jarayonlarni boshqarish

orqali xossa va xususiyatlarini hamda meliorativ-ekologik holatini yaxshilash birinchi darajali vazifalardan hisoblanadi.

Tuproqlarni, anikrog'i tuproq unumdorligini degradasiyaga uchratuvchi bir nechta omillar mavjud. Jumladan, grunt suvlarining yer sathiga yaqinlashishi natijasida tuproqlarda gidromorfik jarayonlar kuchayadi. Bunday maydonlar Markaziy Mirzacho'l tekisligida, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlari, Markaziy Farg'ona hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining bir qismida mavjud.

Respublika tuproqlarining mexanik tarkibi bo'yicha o'rta qumoq tarkibli tuproqlar salmog'i yuqori bo'lib, jami sug'oriladigan yerlarning 48 % ni tashkil etadi. Bunday tuproqlarning suv-fizik xususiyatlari mo'tadil bo'ladi, ular yetarli nam saqlovchi va suv o'tkazuvchan bo'lib, tuzlarning govilishi va ishlov berilishi oson. Mexanik tarkibi og'ir kumoqli tuproqlar sug'oriladigan yerlarning 25 % ni tashkil etadi. Ular bir qator noqulay suv-fizik xossalarga egadir. Bu tuproqlar suvda oson eruvchan tuzlardan yuvilishi qiyin, yerga ishlov berish qurollariga kattik qarshilik ko'rsatadi, kurish jarayonida ularning yuza qismida qatqaloq hosil bo'ladi. Yengil qumoq tarkibiy tuproqlar sug'oriladigan yerlarning taxminan 23 % ni tashkil etadi, Bu tuproqlar o'zida kam nam saqlaydi, tez quriydi, shamol va suv eroziyasiga moyil, qat'iy sug'orish tartibini talab qiladi. Sug'oriladigan yerlarning taxminan 4 % qumloq va qumli tuproqlardir. Ularning tabiiy unumdorligi past bo'lib, yomon suv-fizik xossalarga ega, shamol va suv eroziyasiga moyil.

Tuproqlarni degradasiyaga uchrashiga sabab bo'luvchi va unumdorligining pasayishiga olib keluvchi omillardan yana biri - suv va sug'orish eroziyasidir. Eng kuchli sug'orish eroziyasi jarayonlari past tog'lar, tog' osti va tog' oldi mintahalaridagi to'q tusli va tipik bo'z tuproqlarda rivojlangan. Suv eroziyasiga uchragan yerlar sug'oriladigan yerlar umumiy maydonining 8% ni tashkil etadi, shundan 2% o'rtacha va kuchli darajada eroziyaga uchragan. Suv eroziyasiga chalingan maydonlar asosaya Qashqadaryo, Toshkent va Samarqand viloyatlari hududlariga to'g'ri keladi.

Yerga mexanizmlar bilan ishlov berishni chegaralovchi va tuproqlarning unumdor qatlami hajmini kamaytiruvchi salbiy omillardan biri-yerning toshloqligidir. Oxirgi yillarda Namangan, Farg'ona, Navoiy va bir qator boshqa viloyatlarda toshlok adir yerlar o'zlashtirilgan, bu esa mazkur toifadagi sug'oriladigan yerlar maydonining ko'payishiga olib keldi.

Sug'oriladigan tuproqdarni unumdorligini chegaralovchi omillardan yana biri ular tarkibidagi gumus va oziqa moddalari miqdorlarining kamayishidir. Sug'oriladigan tuproqlarda ozuqa moddalarni kamayishiga ularning asosiy qismi o'simlik biomassasi bilan tuproqdan olib chiqilib

ketilishi va tuproqdan qaytib tushadigan yoki sun'iy o'g'it sifatida beriladigan miqdorini sezilarli darajada kamligi bilan izohlash mumkin. Natijada, sug'oriladigan yerlar kambag'allashib, ularning fizik - kimyoviy xususiyatlari yomonlashgan. Tuproq unumdorligini oshirish uchun tuproqqa doimiy ravishda organik va mineral o'g'itlar solib turilishi zarur.

Institutda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7-avgustdagi PP-436-sonli "Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida Fan va texnologiyalarni rivojlanishini muvofiklashtirish qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan Davlat ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirish borasida muayyan ishlar bajarildi.

Jumladan, 2006-2008 yillarda Qashqadaryo va 2009-2011 yillarda Surxondaryo viloyatidagi sug'oriladigan tuproqlarda ilmiy tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqotlar natijasida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida sug'oriladigan tuproqlarining rivojlanishi, tuproq qoplaminin transformatsiyasi, ularda kechayotgan murakkab kimyoviy, fizikaviy agrokimyoviy, biologik va boshqa jarayonlar, tuproqlarning meliorativ va ekologik holati har tomonlama, chuqur talqin qilindi va yuz berayotgan salbiy jarayonlarni bartaraf etish, ularni oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Tadqiqotlar ob'ekti sifatida tanlangan tayanch (shu hudud tuproq qoplami uchun xarakterli maydon) xo'jaliklari tuproq, tuproq-meliorativ kartalari va kartogrammalari tuzildi va ishlab chiqarishda foydalanish uchun topshirildi. Bundan tashqari, Yer resurslaridan samarali foydalanish va ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Oxirgi yillarda respublikamiz yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish borasida "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar tomonidan respublikamiz sug'oriladigan yerlarining meliorativ-ekologik holatlari o'rganilib, ushbu yerlardan unumli va oqilona foydalanishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Tuproqshunoslik va agrokimyoy ilmiy-tadqiqot davlat instituti va shu sohada boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, yer fondidan samarali foydalanishni tashkil etish maksadida respublika miqyosida tuproq bonitirovkasi ishlarini 1:5000 miqyosli tuproq kartalari asosida yagona tizimda o'tkazilayotgan bo'lib, bu ishlarni amalga oshirishda institutda ishlab chiqilgan, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan va Qo'mita tomonidan tasdiqlangan "Davlat Yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo'yicha yo'riqnoma"dan va «O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan tuproqlarini bonitirovkalash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar»dan foydalanilmoqda.



2006-2011 yillarda Sirdaryo, Toshkent, Jizzax, Navoiy, Samarqand, Fargʻona, Buxoro va Namangan viloyatlarining barcha tumanlaridagi mavjud fermer xoʻjaliklari hamda boshqa yerdan foydalanuvchi subʻektlarning sugʻoriladigan qishloq xoʻjalik yerlarida tuproq tadqiqotlari oʻtkazilib, fermer xoʻjaliklari uchun 1:5000 miqyosda, tuman yer resurslari va davlat kadastri boʻlimlari uchun massivlarning 1:10000 miqyosdagi elektron raqamli tuproq sifatini baholash kartalari tuzildi va har bir yerdan foydalanuvchilar tasarrufidagi yer maydonlari tuproqlari baholandi. Natijada, viloyat, tuman, massiv va yerdan foydalanuvchilarning sugʻoriladigan tuproqlarini oʻrtacha bonitet ballari va kadastr guruhlari boʻyicha maydonlari aniqlandi. Olingan maʼlumotlar elektron raqamli karta shaklida tuproq maʼlumotlari bazasiga kiritilmoqda.

Sugʻoriladigan qishloq xoʻjaligi yerlarining sifat jihatidan baholash ishlarini amalga oshirish natijasida respublikamiz miqyosida qishloq xoʻjaligi korxonalari oʻz tasarrufidagi yerlarning tabiiy unumdorligi holati toʻgʻrisida toʻliq maʼlumotlarga ega boʻlish barobarida qishloq xoʻjaligi ekinlarini tuproqlarning xossa va xususiyatlari, unumdorlik darajasiga qarab, hududiy holda tabaqalashtirib, joylashtirish imkoniyatlariga ega boʻlmoqdalar.

Bundan tashkari soʻnggi yillarda Tuproqshunoslik va agrokimyo ITDI tomonidan Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlarining 1:100000 yoki 1:200000 miqyosdagi agrotuproq va yerlarni baholash kartalari tuzildi va joylarda foydalanish uchun topshirildi. Viloyatlar agrotuproq kartalarida tuproqlarning asosiy xossa va xususiyatlari, joylashuvi va maydonlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar mujassam etilgan. Yerlarni baholash kartalarida esa tuproq agroishlab chiqarish guruhlari, tuproqlarning zamonaviy holati va ularning sifat baholari koʻrsatilgan. Tuproqlarning sifatiga bogʻliq holda, qishloq xoʻjalik ekinlarini joylashtirish va navbatlab ekish tizimlari keltirilgan. Kartalarga yozilgan tushuntirish xatlarida tuproqlarni muxofaza qilish va tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan majmuaviy agromeliorativ va agrotexnik tadbirlar tavsiya etilgan.

Viloyatlarda bajarilgan tadqiqotlar natijalari umumlashtirilib, respublikaning yangi tuproq kartasi tuzildi hamda 2010 yilda birinchi marta Oʻzbekiston tuproq qoplami atlas yaratildi.

Bundan tashqari, Qoʻmita tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 dekabrda 496-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Oʻzbekiston Respublikasida Yer monitoringi toʻgʻrisidagi Nizom» asosida qishloq xoʻjalik yerlari tuproqlari monitoringi ishlari amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda respublikamizdagi qishloq xoʻjaligiga yaroqli yer maydonlari tuproqlarning holatini oʻrganish boʻyicha tizimli kuzatuvlar olib borilmoqda va ularda kechayotgan oʻzgarishlarni oʻz vaqtida aniqlash

hamda salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmokda.

Respublikamizda aholi sonini o'sishi, Yer va suv resurslarining cheklanganligi mavjud sug'oriladigan yerlarning unumdorligini saqlash, qayta tiklash, oshirish va muxofazalashni taqoza etadi. Ekologik toza biomahsulot etishtirish, mineral va organik o'g'itlarni qo'llash, ekinlarni tuproq sharoitlarini hisobga olib joylashtirish eng muhim masalalardan biridir.

Bu masalalarni hal etish, qishloq xo'jaligining asosi bo'lgan, tuproqlarni har tomonlama o'rganish, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va amalda qo'llash yo'li bilan bajarilishi mumkin.

Respublika yer fondining samaradorligini oshirish uchun undan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish hamda muhofazalashda yerlarni taqsimlash, tabiiy landshaftlarini saqlash va yaxshilash, buzilgan yerlarni qayta tiklash, mahsuldorligi past yerlarni tuproqlash, yerlarni eroziyadan, tuzlardan, ikkilamchi sho'rlanishdan, cho'lga aylanishidan asrash, ularning mahsuldorligiga ta'sir etuvchi boshka salbiy holatlarni oldini olish bo'yicha majmuiy va izchil chora-tadbirlarni ishlab chiqish tuproqshunoslik fani oldidagi eng dolzarb masallalardan hisoblanadi.

Tuproqlar unumdorligini saqlash, muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanishning eng ustivor vazifalar quyidagilar:

1. Tuproqlar sho'rlanishi jarayonlarining oldini olish va sho'rlangan tuproqlarni melioratsiya qilish usullarini aniq tuproq sharoitlariga moslashtirgan holda takomillashtirish;

2. Tuproq eroziyasini oldini olish va oqibatini bartaraf etish, eroziyalangan tuproqlarining unumdorligini turg'un oshirish fakatgina tuproqni himoyalovchi dehqonchilik asosida eroziyalanish jarayonlari to'xtatilganidan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

Tuproqni eroziyadan saqlash uchun avvalo quyidagilarni bajarish lozim:

- a) eroziyaga uchragan yerlar maydonini aniqlash, uni namoyon bo'lishiga olib kelgan sabablarni o'rnatish, eroziyalangan maydonlarni xaritalashtirish;

- b) o'zida agrotexnik, o'rmon melioratsiyasi gidrotexnik va tashkiliy-xo'jalik tadbirlarni qamrab olgan, tuproqni eroziyadan asrovchi mintaqaviy tizimini ishlab chiqish va qo'llash;

- v) har-bir dalaning (texnologik uchastkaning) unumdorlik pasportini amaliyotga kiritish, unda haqiqiy holat va tavsiya etiladigan tuproq unumdorligini oshirishga imkoniyat yaratuvchi chora-tadbirlarni aks ettirish;

g) ekish strukturasi, tuproqni eroziyadan muhofazalovchi qishloq xo‘jalik ekinlarini kiritish, tuproqni muhofazalovchi maxsus almashlab ekishni yuritish;

d) tuproqni muhofazalash va melliorasiyalash uchun eroziyaga qarshi hamda melliorasiyalash mashina va qurilmalarining tizimini belgilash.

3. Tuproq himoya qilinadigan dehqonchilik tizimini yuritish, tuproqqa ishlov berish va sug‘orish tartibotlari bo‘yicha mavjud tavsiya va tadbirlarni tuproq sharoitlarini e‘tiborga olgan holda takomillashtirish;

4. Tuproqlarni organik moddalar bilan boyitish va ularning kimyoviy, fizikaviy, agrokimyoviy, ekologik va meliorativ holatlarini yaxshilashning yangi samarador usullarini ishlab chiqish;

5. Tuproq kartalarini va agrokimyoviy kartogrammalarni tuzish. Tuproq va boshqa tematik karta va kartogrammalarni tuzishda zamonoviy GAT texnologiyalardan va aerokosmik suratlar va ma‘lumotlardan samarali foydalanish;

6. Tuproqlarning o‘simliklar oziqa elementlari bilan ta‘minlanganligini hisobga olgan holda, mahalliy mineral xom-ashyo resurslaridan keng foydalanish, organik va mineral o‘g‘itlar qo‘llash texnologiyalarini ishlab chiqish va o‘g‘itlash tizimlarini takomillashtirish;

7. Respublika sug‘oriladigan dehqonchiligida tuproqlar xossa va xususiyatlarini yaxshilash, ekiladigan g‘o‘za, donli va boshqa ekinlar hosildorligini oshirish uchun ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, noan‘anaviy o‘g‘itlar-agrorudalarni (bentonit, glaukonit, vermikulit, daryo yotqiziqlari, ko‘mir konlari qoldiqlari), nisbatan arzon organomineral o‘g‘itlar va ular asosida tayyorlangan kompostlarni, tarkibida oziqa elementi bilan xom-ashyo va chiqindilardan fosforit, fosfogips kabilarni qo‘llash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatta egadir.

Bu tadbirlarni amalga oshirish tuproq degradasiyasining oldini olish, tuproq unumdorligini sahlash, qayta tiklash va oshirish hamda muhofazalashga imkon yaratadi.

## **10.2. Yerlarning normativ bahosi**

Yerning baholash huquqi, O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi” va “Davlat Yer kadastrini” O‘zbekiston Respublikasi qonuniga tegishli qonunga binoan yerning narxlanish bahosi Yer kadastrini hujjatlarining qismi bo‘lib Yerning solig‘ini belgilashda bankdan kredit olishda, kim oshdi savdoda yer maydonlarini boshlang‘ich narxini belgilashda shirkat xo‘jaliklarining pay fondlarini va boshqa ishlarni qo‘llanadi.

Yerni baholash birinchi bo‘lib respublikamizda 1998 yilda boshlandi. 1999 yilda qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish

komissiyasining bayonnomalariga binoan 443 ta qishloq xo‘jalik tashkilotlarining yerlari narxlandi.

1998 yil 26 dekabr Vazirlar Mahkamasining 539-“Qishloq xo‘jaligini tovar ishlab chiqarish uchun aniqlanadigan yer uchun yagona Yer solig‘ini vaqtincha tasdiqlash haqida” qaroriga binoan xo‘jalik darajasida yagona yer solig‘iga binoan barcha qishloq xo‘jaligini tovar ishlab chiqaruvchilarning o‘zlashtirilgan va o‘zlashtirilmagan yerlarning baholanish ishlari bajarildi.

Dehqon xo‘jaligi, ilmiy tashkilotlarning eksperiment tadqiqot xo‘jaligi, ov, baliq, o‘rmon xo‘jaliklari yerlarni narxlash bahosini yagona solig‘iga kirishdi. 1998 yil 6-avgustda O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi qayd etgan, qishloq xo‘jaligini shartli iqtisodiy yerning narxlanish bahosi vaqtincha aniqlanish uslubi, bu uslubning asosiy ishi bo‘ladi. O‘zlashtirilgan yerlarning normativ bahosini aniqlash asosida yerni tabiiy xususiyatlariga taqqoslanib narxlanadi, chunki u qishloq xo‘jaligi ishlari va ko‘rsatkich baholash shaklidagi normativ sof foyda muhimdir.

“Uslubiyat”ga asosan yerning narxlangan bahosini hisob kitobining asosiy tugallangan ma’lumotlari quyidagicha:

1. qishloq xo‘jalik tashkilotlarining iqtisosligi;
2. qishloq xo‘jalik maydonining yer, suv mulki;
3. qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekin maydonlari, ekish maydonlarining strukturasi, yerga oid oxirgi materiallar bo‘yicha bonitetning o‘rtacha balli.

Birinchi bosqichda qishloq xo‘jalik tovarni ishlab chiqarish bo‘yicha yer fondi maydonini aniqlash va ma’lumotlar yig‘ish ishlari bajarilgan. qishloq xo‘jalik ekinlarini ekilgan maydonlarini ma’lumotlar analizi, ekin maydonlarining aniq strukturasi aniqlash koeffitsiyentlari hisobini o‘tkazish va ushbu koeffitsiyentlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va viloyat hokimiyatlaridagi aniq joyi va shu koeffitsiyentlarni o‘zaro moslashuvi o‘rganilgan.

Xo‘jalik yuritish darajasiga ta’sir qiluvchi koeffitsiyentlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar uchun “Uslubiyat” bo‘yicha qabul qilingan va o‘zida respublika bo‘yicha yagona va respublikada qabul qilingan bitta darajani aks ettiradi.

Shundan kelib chiqqan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun ushbu koeffitsiyent quyidagicha –0,7, Andijon viloyati uchun –1,2, Buxoro –1,0, Jizzax –0,8, Qashqadaryo –0,8, Navoiy –0,8, Namangan –1,1, Samarqand –1,2, Surxondaryo –1,3, Sirdaryo –0,8, Toshkent –1,2, Xorazm viloyati uchun esa –1,0. koeffitsiyentlarni hisoblashda mahalliy teritoriyaning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi omillar e’tiborga olindi: maydonning transport aloqasi bilan injenerlik aloqasida mol sotadigan bozorga kira olish.

Qishloq xo‘jaligi tovarlarini qayta ishlab chiqarish va ularni saqlash

uchun tashkilotning borligi, ijtimoiy yoʻnalishi, rivojlanish darajasi, aholi zichligi, atrof-muhitning sharoiti, yerning suv bilan taʼminlanganlik va xoʻjalik kompleksining rivojlanish darajasi. Shu bilan birga Qoraqalpogʻiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi va viloyat hokimiyatlari mahalliy va hududi xususiyatlarini hisobga olgan holda va Yer bahosiga taʼsir qiladigan omillarni eʼtiborga olgan holda, alohida rayonlar boʻyicha yer bahosining normativ hisobining oʻlchamiga qarab koeffitsiyentlarni 25 % atrofida koʻtarish yoki tushirish imkoniyatiga ega boʻlishdir. Har bir viloyat boʻyicha qishloq xoʻjalik mahsulotini sotib olish narxlari “1999 y 1 oktyabrda Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini realizasiya qilish”, “Oʻzbekiston Respublikasi iqtisod, statistik byulleteni maʼlumotlari”ga asosan qabul qilindi. Shu bilan birga har bir qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilarning oʻzlashtirilgan qishloq xoʻjalik yer mulklarining oʻrta bonitet ballari aniqlandi. yogʻinlar bilan taʼminlangan lalmi yer maydonlarning taqsimlanishi oʻtkazildi, chorvachilik Yer mulk maydonalir esa togʻli va togʻ atrofi kategoriyalari boʻyicha, III kategoriyasi - tepalikli tekisliklar, II kategoriyasi – tekisliklar, I kategoriya.

Ishning ikkinchi qismida oxirgi maʼlumotlarni ishlatgan holda har bir rayon, viloyat qishloq xoʻjaligi mahsulot ishlab chiqaruvchining qishloq xoʻjaligining asosiy yer mulk maydoni va bir gektarning oʻrta bahosi hisoboti oʻtkaziladi. Oʻzlashtirilgan yerning bir gektarining oʻrta bahosini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi: yer tuproq bonitetining oʻrta bali, asosiy qishloq xoʻjalik mahsulotlarining kadastr hisobot hosildorligi, yalpi mahsulot narxining toʻgʻrilash koeffitsiyenti va tuproq bonitet ballariga qarab qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarish foyda normasi eʼtiborga olinadi. Paxtachilik, sabzavotchilik, chorvachilik xoʻjalik yoʻnalishlarida koʻp yillar davomida ekilgan gektarning oʻrtacha narxi haydalgan gektarning oʻrtacha narxi bilan teng edi. Bu shu bilan bogʻliq, qoidaga binoan bunday xoʻjaliklar koʻp yillik ekish uncha katta boʻlmagan yerlarni egallagan, nisbatan tezda ildizlardan tozalangan va qazilgan uzumchilik xoʻjaligi yoʻnalishda qazilgan maydonlar ekilgan maydonlarning strukturasi natijasida baholanadi, koʻp yillik ekilgan maydonlar esa uzum bogʻlarining maydonlariga nisbatan baholanadi, I gektar qazilgan lalmi yerning oʻrta bahosini aniqlashda ushbu yerlarning yogʻinlar bilan taʼminlangan omili va asosiy qishloq xoʻjaligi mahsulotining hosildorligi hisobga olinadi. Ushbu yoʻnalishda lalmi yerlar amaliyotdagi yogʻin bilan taʼminlangan, yarim taʼminlangan va taʼminlanmagan yerlarga ajratildi. Chorvachilik yerlarining baholanishi Oʻzbekiston Respublikasining tabiiy sharoitlarini hisobga olgan holda oʻtkaziladi. qabul qilgan tasnif boʻyicha chorvachilik yer mulkini oʻrtacha bahosi shart bilan quyidagicha qabul qilinadi.

Adir foizi uchun ikki marta kichraytirilgan oʻzlashtirilgan yer maydonining minimal normativ bahosi choʻl foizi uchun 5 marta

kichraytirilgan o'zlashtirilgan yer maydonining minimal bahosi yer mulkdorlarning bilan foydalanuvchilarning uncha katta bo'lmagan maydonlarini sifatli baholash ularning ajralib chiqqan qishloq xo'jaligi tashkiloti va joylashuviga asosan aniqlangan ko'rsatkichlar natijasida amalga oshirildi.

Shuni eslatib o'tish kerakki, Yerning baholanish narxiga har bir bonitetning alohida ko'rsatkichlari, ekiladigan maydonlarning strukturasi va to'g'irlanadigan koeffitsiyentlar muhim ta'sir ko'rsatadi. Bunda Yerning baholanish narxi bir xil bo'lgan bonitet baholari va to'g'irlanadigan koeffitsiyentlari ekiladigan maydonlarning ko'rsatkichlarining ayri bo'lishi katta va o'zgacha bo'lishi mumkin.

Yerning me'yoriy bahosi – bu to'lov muddati hisoboti daromadidan kelib chiqib, ma'lum bir sifatga ega bo'lgan va ma'lum joydagi yer uchastkasi qiymatini xarakterlaydigan ko'rsatkichdir. Yerning me'yoriy bahosi yerning shaxsiy mulkka berilganda yer munosabatlarida bozor tartiblarini ta'minlash, yerga jamoa – ulushli, jamoa hamkorlikdagi mulkchilikni o'rnatish, Yerni merosga berish, sovg'a qilish va yer uchastkasini garovga qo'yib, bank kreditlari olish uchun kiritiladi. Yerlarni baholash maqsadida tabiiy tekislik provinsiyalar va tog'li viloyatlarning umumiy rayonlashtirish sxemasiga asosan tabiiy okrug va yer baholash rayonlariga ajratiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va uzluksiz ko'paytirib borish ishlab chiqarishning asosiy bo'lgan yerdan oqilona foydalanishga bog'liqdir.

Biroq O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr qo'mitasi ma'lumotlarining tasdiqlashicha, foydalanilayotgan yerlarning sifat holati yildan-yilga yomonlashib bormoqda. Yerlar inqiroz va emirilishga uchramoqda. Sho'rxok yerlar ko'payib, qayta madaniylashtirish, ya'ni ulardan yana foydalanish ishlari juda sekin bormoqda va h.k.

Shu munosabat bilan xususiy mulkchilar, yer egalari, foydalanuvchilar va ijarachilarning yerni saqlash va undan foydalanishlari bo'yicha ma'suliyatlarini kuchaytiruvchi aniq tadbirlar ishlab chiqilishi zarur. Bizningcha, yer maydonlaridan foydalanuvchilar quyidagi shart va qoidalariga amal qilishga majburdirlar:

- Yer uchastkalaridan ularning maqsadli belgilanishga ko'ra, ya'ni ular shartnoma yoki kelishuvga ko'ra bu maydonlarda belgilangan qishloq xo'jaligi mahsuloti etkazishi, shuningdek, yerga zarar bermaydigan barcha usullar bilan to'la foydalanish;
- tuproq unumdorligini oshirish, yerdan unumli foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, yaylovlar, suv va boshqa tabiat resurslaridan belgilangan foydalanish qoidalariga amal qilish, atrof-muhitga zarar etishiga yo'l qo'ymaslik;
- Yerdan foydalanishning belgilangan tartiblariga rioya qilish;

- Yer uchastkalarida shaharsozlik, qurilish, ekologiya, sanitariya-gigiena,
- yong‘inga qarshi va boshqa sohalar bo‘yicha o‘rnatilgan talablarga muvofiq qurilish, obodonlashtirish, binolar, inshootlarni saqlash ishlarini amalga oshirish;
- Yer uchastkalari uchun to‘lovlarni o‘z vaqtida olib berish.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Respublikada yerni baholash ishlari qachon amalga oshirila boshlagan?
2. Yerning narxlangan bahosining asosiy tugallangan ma‘lumotlarida qaysi ko‘rsatkichlar qayd etiladi?
3. Yerlarning normativ bahosi nima?
4. Yerdan foydalanuvchilar amal qilinishi lozim bo‘lgan qoidalarni aytib bering.

### **10.3. Sug‘oriladigan yerlarning iqtisodiy qiymati.**

#### **Sug‘oriladigan yerlarning qiymat va puldagi bahosi**

Yerlarning birinchi turdagi sifatli bahosining kamchiligi bo‘lib, qishloq xo‘jalikda foydalaniladigan bir gektar yerning qiymat haqidagi to‘la axborot yo‘qligi yerlarning birinchi turdagi sifat bahosining kamchiligi bo‘lib kelmoqda, bu o‘z navbatida noqishloq xo‘jalik ehtiyojlarga ajratilgan yerlarning qiymatini to‘g‘ri aniqlashga xalaqit qiladi, qishloq xo‘jaligi yerlarini, sanoat, korxonalar va boshqa ob‘ektlar qurish uchun ajratib berishning iqtisodiy jihatdan to‘g‘riligini asoslab beradi.

Yerga xo‘jasizlarcha munosabatda bo‘lgan, qishloq xo‘jalik va boshqa yerlarga zarar keltirgan, yerni ishlab chiqarish, chiqindi, oqova suv bilan ifloslantirgan, shamol eroziyasiga qarshi qaratilgan tadbirlarni amalga oshirmagan, shaxslar jinoiy va ma‘muriy javobgarlikka tortilishi lozim. Bu amaldagi huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan. Tuproqqa zarar keltirgan shaxslar etkazilgan zararni, qonun oldida javob berib, zararni qoplaydi. Shu bilan birga tuproqqa etkazilgan zarar qiymatni belgilash Yerning narxini aniqlash, uslubiy mavjud emasligi tufayli qiyinlashadi. Shu munosabat bilan yer qiymatini narxlash masalasi qishloq xo‘jaligi iqtisodchilari, tuproqshunoslar va boshqa mutaxassislar tomonidan har tomonlama o‘rganilib kelinmoqda. Keyingi yillarda yer va suv narxlarini joriy etish masalasi kun tartibiga qo‘yilmoqda, masalalarni hal qilish natijasida tabiiy resurslarga bo‘lgan munosabat sifati tus olishi aniqdir. Ijara va pudratchi sharoitida yer narxini belgilash katta ahamiyatga ega. Chunki, yerni xo‘jalik hisobidagi brigadirlarga berishda uning narxini aniqlash juda muhimdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarni shakllanish tamoyillarini ishlab chiqish iqtisodiy taraqqiyot garovidir. Narx siyosatini to‘g‘ri shakllanishi xalq farovonligini oshirishdir. Ushbu masalalarni yechilishi holisona sabablarga bog‘liqdir. Yerning turli xil maqsadlarda ishlatilishi, inson

hayotidagi muhim o'zni asosiy sabablardan biri bo'lib qolmoqda. yer tabiiy resurs, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish vositasi xalq xo'jaligining hududiy bazasi bo'lib xizmat qiladi. Yerning ushbu ko'p maqsadlarda ishlatilishi uning narx mezonlarini belgilashda qiyinchilik keltiradi. Mezon sifatida qishloq xo'jalik korxonalarini va ular bo'linmalari faoliyatining turli iqtisodiy ko'rsatkichlarni taklif etadi.

Differensial renta (E.S.Kornouxova, K.Gofman, O.Petriashvili, I.Tregubov, G.Romanchenko va boshqalar) harakatdagi narxlar asosida qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan me'yoriy sof daromad (M.Bronshteyn, S.D.Cheremushkin, B.Z.Xarchenko, M.F.Kovaleva va boshqalar) maydon birligidan olingan yalpi hosil (S.D.Cheremushkin, A.G.Zinachkina, T.Mirzayev va boshqalar) bir gektar yangi yerlarga sarf qilingan kapital mablag'lar (S.T.Strumilin, T.Nikolenko, V.V.Kim, N.M.Sagatov va boshqalar). Bundan tashqari yer narxini belgilashda boshqa uslubiy yondashuvlar ham mavjud. Masalan, mahsulot tannarxi, yerni o'zlashtirish uchun ketgan mablag'larni qoplanishi va boshqalar. Umuman olganda yerning mutlaq qiymati mezonlarga qarab o'zgarib turadi.

O'zbekistonda sug'oriladigan yerlar narxlashining bir necha uslubi mavjud F.K.Qayumov 1 ga yerlarni o'zlashtirishga sarf qilingan mablag' hajmi va dastlabki davrda eng yaxshi yerlarda ishlab chiqarilgan o'rtacha qo'shimcha mahsulotni qo'shgan holda sug'oriladigan yerlarni narxlashni taklif qiladi. (differensiyaga renta). K.N.Popadyuk (1970) hosildorligi har xil bo'lgan yerlardan olingan yalpi daromadni va o'zlashtirishning o'rtacha qiymatini hisobga olgan holda 1 ga sug'oriladigan yerni narxlashni taklif etadi. Amalda u yerni narxlash uchun shu yerdan olingan yalpi daromadning yomon yerdan olingan yalpi daromadga bo'lgan koeffitsiyentini o'zlashtirish tannarxiga ko'paytirishni taklif qilmoqda. V.V.Kim yomon yerlarni o'zlashtirish va yaxshilashga sarf qilingan mablag'lar nisbatidan kelib chiqib sug'oriladigan yerlarni narxlashni taklif etadi, N.Sagatov esa yomon yerlardagi tuproqni irrigatsiya –melioratsiya va hosildorligini tiklanishiga ketgan mablag'ga qarab narxlashni taklif etadi. A.A.Abdug'aniyev (1983) birinchi nav paxtani hosilini o'rtacha qiymatiga va me'yoriga muvofiq 1 ga paxta ekiniga sarflangan harajatga qarab yer narxini belgilaydi.

Ushbu uslublarga muvofiq 1 ga sug'oriladigan yer narxi 5-8 ming so'mga to'g'ri keladi. Agar boshqa davlatlardagi bo'z yerlar narxiga nisbat qilingan bu narx juda pastdir. Bizning fikrimizcha sug'oriladigan yerlar narxi bo'z yerlarga qaraganda 4-5 barobar oshiq bo'lishi lozim. Faqat shu nisbatlar ushbu tuproqlarning ishlab chiqarish hususiyatiga mos keladi. Sug'oriladigan yerlarning o'ziga xos narxining yo'qligi befarqlikni yuzaga keltiradi. Afsuski, hozir ham tuproqlarga zarar keltirganni va noqishloq xo'jalik ehtiyojlarga yerlarni yer ajratilgani uchun hech kim javob bermaydi. M.P.Sigaevning ma'lumotiga qaraganda (1974) 1961-1970 yillarda Markaziy Osiyoda 700



ming ga yer o'zlashtirilgan. Shu davr ichida jamoa va shirkat qurilishlari uchun 255 ming ga, halq xo'jaligi ob'ektlari uchun ham tahminan shuncha yer ajratilgan. 1963-1965 yillarda O'zbekistonla 58,2 ming ga bo'z yerlar o'zlashtirilgan 87,9 ming ga yer sho'rlanish, halq xo'jaligi ob'ektlari kuzatilishi tufayli qishloq xo'jalik aylanmasidan chiqib ketgan. Uch yil ichida respublikadagi sug'oriladigan 29,7 ming ga kamayib ketgan. Oxirgi 15 yilda shahar qurilishi uchun 24 ming ga hosildor yerlar ajratildi (Proshlyakov, 1968).

Aholi sonini tez ravishda ko'payishi sug'oriladigan yerlarni, noqishloq xo'jalik ehtiyojlarga ajratish va xo'jaliksiz munosabati tufayli yerlarni ishlab chiqarishdan qolib ketishi aholining son boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yerlar maydoni kamayib ketdi. Bu esa respublika iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatib, aholini oziq-ovqat ta'minlashini qiyinlashtirib qo'ydi. Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlardagi yer narxini aniqlashda iqtisodiy yondoshish ustunligi ko'rinib turibdi. Muvozanatli narx siyosatida tovarga bo'lgan talab asosida shakllangan ijtimoiy kerakli bo'lgan ehtiyoj muhim ahamiyat kasb etadi. Yerni qiymati ijtimoiy ehtiyoj o'lchami va madaniy o'simliklarning hosil berishini tabiiy xususiyat bilan belgilanadi. yer narxini belgilashdagi iqtisodiy mezonlar (yalpi mahsulot, tannarx, sof daromad, differensial yondoshish va boshqalar) tuproq hosildorligini kam, ba'zida esa umuman hisobga kelmaydi.

Tuproqshunoslik asoschilaridan biri V.R. Vilyams (1942) tuproq tog' jinslardan o'zining hosildorligi bilan ajralib turishini ta'kidlaganidek, u tuproqqa shunday ta'rif bergan edi: "Tuproq o'simliklar hosilini yuzaga keltirish qobiliyatiga ega bo'lgan Yer kurrasining yumshoq yuzali qurg'oq gorizontidir". Tuproq va unumdorlik tushunchalari bir - biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'z xususiyatlariga egadir, ishlab chiqarish qobiliyati esa shu xususiyatlar natijasidir. Shuning uchun narxini belgilashda uning unumdorligini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Yerni o'zlashtirishga ketgan kapital quyilmalari, irrigasiya - melioratsiya ishlar qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish yer unumdorligi bilan bog'liq emas. Tuproq tarkibi qancha yomon bo'lsa uning o'zlashtirish va madaniylashtirilishga shuncha ko'p mablag' ketadi.

I.I Karmanov (1986) "Tuproq narxi birinchi navbatda uning hosil berish imkoniyatiiga bog'liq" deb to'g'ri ta'kid qilgan edi. U tuproq unumdorigini narxlashda tuproq-ekologik indeks (T.E.I) uslubuni taklif qildi. Ushbu uslub asosida yer narxi quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi.

$$N_t + TEI \times K_x \times K_j \times 70_s$$

Bu yerda:  $N_t$  – 1 ga tuproqning narxi,

$K_x$  – hudud xususiyatiga bo'lgan koeffitsiyent.

Kj – joyga bo‘lgan koeffesiyent.

Toshkent viloyati tekisligidagi o‘rta qumli sug‘oriladigan 1 ga tuproqning narxi quyidagiga teng

$$Nt + 132 \times 1,27 \times 4,4 \times 70 = 51,632 \text{ s.}$$

I.I. Karmanov formulasiga binoan tuproq emas yer narxlanadi, chunki, hudud xususiyati va joylanishini Yerning tarkibiniy qismi hisoblanadi. Tuproqning narxi esa – yer narxining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib qolishi kerak. Biz tuproqni uning hosildorligiga qarab narxlanishini taklif qilamiz. Chunki, hosildorlik qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining asosiy vositasidir. Sug‘oriladigan tuproqlar narxi aniqlash quyidagi formula asosida chiqariladi:

$$N + B \times (40 : 100) \times 800 \times 10 \times N$$

Bu yerda: B - tuproq bonitet balli;

40 o‘rtacha maksimal hosildorlik (sg‘ga);

100 – tuproqdan olinadigan hosil;

800 – birinchi navli 1 t. paxtaning sotib olinish narxi (so‘m);

10 – paxta - beda 1 marta almashlab ekishning davri (yil);

N – ijara muddati (yil);

Shunday qilib 1 ga sug‘oriladigan yerning narxi shu maydon hosildorligi tufayli olingan mahsulot narxiga bog‘liq.

Quyida Farg‘ona viloyati Bog‘dod tumani “Farg‘ona” shirkat xo‘jaligidagi 1 ga sug‘oriladigan yerning narxi haqida ma‘lumotlar 23-jadvalda keltirilgan.

23-jadval

Tuproq turining raqami	Bonitet balli	Etalonli hosildorlik s/ga	1 ga tuproqning narxi ming/s
1	72	28,8	23,04
4	62	24,8	19,84
5	68	22,2	21,76
7	65	26,0	20,80
8	48	19,2	15,36
9	48	18,4	14,72

Ijara muddatini hisobga olmagan holda bu narx tuproq unumdorligining hozirgi holatini aks ettiradi va turli xil tuproqlarning ishlab chiqarish qobiliyatini pul ifodasida qiyoslashga imkon beradi. Noqishloq xo‘jalik ehtiyojlariga ajratilgan yerlarning qoplam miqdorini aniqlash va ushbu

tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi yer narxi formulasi asosida hisoblanadi.

$$K_3 + N_1 + H_2$$

bu yerda:  $N_1$  – 1 ga sug‘oriladigan tuproqning narxi;  
 $N_2$  – 1 ga yerni o‘zlashtirish uchun sarflangan kapital  
qurilmalarning narxi;

Bundan tashqari qoplam qiymatiga yer usti va yer osti inshoot kommunikasiyalar va daraxtlar narxi kirish lozim. Bu holda Yer qishloq xo‘jalik vositasi sifatida emas, balki xalq xo‘jaligi ob‘ektlarini qurish, shahar qurilishi uchun hududiy bazis sifatida narxlanadi.

Deylik 10 ga yerda og‘ir mashinasozlik zavodi uchun omborxonalar inshootlari qurilishi kerak. Shu hududda 20 ming qiymatda so‘m bo‘lgan suv uzatadigan minora bor. Unga qarashli inshoot va uskunalarda 20 ming so‘m suv uzatadigan quvurlar 1,5 ming so‘m turadi. Ushbu yerni o‘zlashtirish uchun sarflandi. Demak 10 ga yerning qoplam qiymati quyidagidan iborat bo‘ladi:

$N_3 = (23,04 \text{ ming so‘m R} \times 10) = 20 \text{ ming so‘m} = 30 \text{ ming so‘m} = 1,5 \text{ ming so‘m} = 45 \text{ ming so‘m} = 326,9 \text{ ming so‘m}.$

Natijada, og‘ir mashinasozlik vazirligi jamoa xo‘jaligiga 326,9 ming so‘m to‘lash lozim. Bu qiymatga ijara haqi kirgani yo‘q. Aslida qoplam qiymatini belgilashda ijara muddati albatta ijobatga olinishi lozim.

#### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nima uchun sug‘oriladigan yerlarning puldagi bahosini aniqlash zaruriyati muhim masala hisoblanadi?
2. O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlarni narxlashda qanday yondoshuvlar mavjud?
3. Tuproq-ekologik indeksi nima?
4. Sug‘oriladigan tuproqlar narxini aniqlash formulasini aytib bering.
5. Noqishloq xo‘jaligi yerlarini narxlashda qanday ko‘rsatkichlar hisobga olinadi?

## **XI-bob. QISHLOQ XO‘JALIGIGA MO‘LJALLANGAN YERLARNING SIFAT, IQTISODIY VA ME‘YORIY BAHOSI**

---

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni qiymat bahosini (ma‘muriy narxini) aniqlashning mazkur uslubi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 19 maydagi 120-sonli “1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi” dagi qaroriga muvofiq ishlab chiqildi. Ushbu uslub O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning qiymat bahosini mavjud me‘yoriy ma‘lumotlar asosida aniqlash uchun mo‘ljallangan. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning me‘yoriy baholari, banklardan ipoteka qarzlari berishda, xususiy turar joylar qurilish uchun yer ajratib berish va dehqon xo‘jaliklariga me‘yoriy ortiqcha yer ajratib berishda, yer solig‘i stavkalari miqdorini aniqlash, auksion orqali yer uchastkalarini sotish va qonunchilikda kuzda tutilgan boshqa hollarda shu yerning dastlabki bahosini belgilash uchun qo‘llaniladi (kiritiladi). Yerning me‘yoriy bahosini aniqlash asosida hisoblab chiqilgan me‘yoriy sof daromad yotadi. Yerning me‘yoriy bahosi hisoblanayotganda, shu yerga ajralmas bog‘liq bo‘lgan kuchmas mulk ob‘ektlarining (qurilishlar, inshootlar, sug‘orish va kollektor tarmoqlari va boshqa shu kabilar bahosi qo‘shib olinmaydi.

Yerlarning me‘yoriy baholash ob‘ektlari bo‘lib, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan barcha yerlar hisoblanadi. Me‘yoriy bahoni aniqlashda quyidagilar hisoblashning hududiy birligi bo‘lib, ular bo‘yicha shu yerning me‘yoriy bahosi aniqlanadi.

Xo‘jalikning ichki miqyosida tuproq sifati (boniteti) bir xilda teng bo‘lgan ekin yerlari va boshqa qishloq xo‘jalik yerlarining alohida uchastkalari. Bu holda yerning me‘yoriy bahosi xo‘jalik ichidagi masalalarni echish, dehqon va fermer xo‘jaliklariga qurilishga sug‘oriladigan yerlarni rekonstruksiyalashga va boshqa maqsadlarga yer ajratish uchun umumiy miqyosida aniqlanadi.

Qishloq xo‘jalik bilan shug‘ullanuvchi korxonalarining umumiy yer maydoni yoki qishloq xo‘jalik yerlarining asosiy turlari. Bu xildagi yerning me‘yoriy bahosi yerga soliq solish stavkasi miqdorini hisoblab chiqish, banklardan yer uchastkalarini garovga quyib kredit olish uchun aniqlanadi. Davlat rejalarini tuzish maqsadida yerni me‘yoriy bahosini hisoblashning hududiy birligi bo‘lib, tuman miqyosida yer uchastkalari viloyat miqyosida esa ma‘muriy tumanlar hisoblanadi. Yerni me‘yoriy baholash sub‘ektlari bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi yer egalari va yerdan foydalanuvchilar hisoblanadi. Yerni me‘yoriy baholash narsasi

(predmeti) bo'lib, yer uchastkalari tuproqlarning ishlab chiqarish qobiliyati (kadastrlanayotgan ob'ektini) uni tuman infrastrukturasida tutgan o'rnini e'tiborga olib o'rganish va baholash hisoblanadi. Yerni me'yoriy baholash mezoni (kriteriyasi) bo'lib, tuproq bonitirovkasi, asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining hisoblab chiqilgan me'yoriy hosildorlik yalpi mahsulot va sof daromad (foyda ko'rsatkichi) xizmat qiladi.

### 11.1. Sug'oriladigan yerlarning me'yoriy bahosini hisoblash

Sug'oriladigan yerlarning me'yoriy bahosini aniqlash asosida qishloq xo'jaligi ekinlari o'sishi uchun yerlarning ahamiyatliroq bo'lgan tabiiy xususiyatlari (tuproq bontirovkasi) va me'yoriy sof foydasi qiymatini ko'rsatuvchi sifatlari bo'yicha shu yerning solishtirma bahosa yotadi. Bonitirovkalashda tuproqning quyidagi asosiy xususiyatlari va tabiiy sharoitlari hisobga olinadi. Tuproqning tipi yoki tipchalari mexanik tarkibi sug'orib kelinayotganlik muddati termik resurslar bilan ta'minlanganligi tuproq hosil qiluvchi jins. Yer osti suvining chiqib ketishi, sho'rlanish, eroziyalanish, tosh va gipslanish darajalari. Eng yuqori baho 100 ball bilan eng yuqori maxsuldorlikka ega eng yaxshi tuproqlar baholanadi.

28-jadval

Ball bonitetlari	Paxta	Don	Beda	Don uchun makkajo'xori	1 yillik o'tlar	Ildiz mevalar
10	4	6	20	7,5	30	90
20	8	12	40	15	60	180
30	12	18	60	22,5	90	270
40	16	24	80	30	120	360
50	20	30	100	37,5	150	450
60	24	36	120	45	180	540
70	28	42	140	52,5	210	630
80	32	48	160	60	240	720
90	36	54	180	67,5	270	810
100	40	60	200	75	300	900
1 ballning bahosi	0,4	0,6	2,0	0,75	3,0	9,0

Tuproqning tabiiy unumdorligini mahsuldorligini va uning qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqliligini hisobga olib, respublikadagi sug'oriladigan yerlarning ball bonitetlari bo'yicha 10 ta sinf o'rnatiladi.

Hosilotchilik (agronomiya) nuqtai nazaridan bonitetning baholash ballari, baholash 100 ballik shkalasi bo'yicha 1 ball bahoga qabul qilingan s/ga hosildan kelib chiqib aniq bir qishloq xo'jalik ekini uchun kadastrli hisoblangan hosildorlikda namoyon bo'ladi. Ball bonitetlari bo'yicha asosiy

qishloq xo'jalik ekinlarining kadastrlari hisoblangan hosildorligi (13-chi jadvalda ilova qilinadi). 1994 yil 10 yanvarda Qishloq xo'jalik vazirligi tomonidan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlarni bonitirovkalash uslubiga muvofiq qabul qilingan.

Ball bonitetlari bo'yicha asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining kadastrli hisoblangan hosildorligi s/ga.

Sabzavot poliz ekinlari bo'yicha kadastrli hisoblangan hosildorlik shu sohaga ixtisoslashgan aniq bir xo'jalik yoki uning biron bo'linmalarining amaldagi hosildorlik ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi. Sug'oriladigan yerlarning 1 gektaridan olingan sof daromad shu maydondagi har xil sifatidagi yerlarda hosil bo'lib, u quyidagi matematik ifoda bo'yicha aniqlanadi.

$$\text{ЧДН} = \frac{\text{ВПН} \cdot \text{РН}}{100}$$

Me'yoriy sof daromadini ekin maydonlarining tarkibi va qishloq xo'jaligi ixtisoslashganligidan kelib chiqib quyidagi ikki variantning bittasi bo'yicha hisoblash mumkin:

- asoiy ekinlar bo'yicha;
- yeri baholanayotgan ayni ob'ekti (xo'jalik, tuman, viloyatda) etishtirilayotgan asosiy ekinlarni birga qo'shish natijasi bo'yicha.

-

Yetakchi ekinlar bo'yicha me'yoriy yalpi mahsulotni hisoblab chiqishni shu ekinlarni ishlab chiqishga yuqori saviyada ixtisoslashgan tumanlarda amalga oshirish mumkin. Ixtisoslashganlik darajasi yetakchi ekinlar tovar mahsulotlarining solishtirma salmog'i (60 % dan kam bo'lmagan) bilan aniqlanadi. 1 gektar yerdan yetakchi ekinlar bo'yicha aniqlangan ma'muriy yalpi mahsulot shu ekinlarning kadastrli hisoblangan hosildorligini (s/ga) ishlab chiqish va uni sotish (sotib olish, shartnoma, bozor) bahosiga tengdir. Xo'jalik yuritish saviyasiga, qishloq joylarda yashayotgan aholining zichligigiga va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish intensivligi darajasiga bog'liq koeffitsiyentlarni respublikaning o'rtacha darajasiga nisbatan quyidagi ko'rsatkichlarida qabul qilingan % Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun 0,70, Andijon viloyati uchun 1,2, Buxoro uchun 1,0, Jizzax 0,8, Qashqadaryo uchun 0,8, Navoiy – 0,8, Namangan –1,1, Samarqand –1,2, Surxondaryo – 1,3, Sirdaryo – 0,8, Toshkent – 1,2, Farg'ona – 1,1 va Xorazm viloyati uchun 1,0. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 1,0 sug'oriladigan yerning me'yoriy bahosini aniqlashda, shu yerning aholi yashash joylari va mahsulotlari sotiladigan bozorga nisbatan hisobga olinadi. Yerning me'yoriy qiymatini aniqlash

jarayonida, transport bora olishi, yer uchastkalarining aholi yashash joyidan va xo‘jaliklararo ob‘ektlardan qanday uzoqlik radiusida joylashganligiga bog‘liq yerdan foydalanish qulayliklari bo‘yicha tuzatish koeffitsiyentlari kiritiladi. Aholi yashaydigan qishloq joylardan yer uchastkalarining qanday uzoqligi to‘g‘risida ma‘lumotlar bo‘lmagan taqdirda va hisoblashni soddalashtirish hollarida xo‘jalikning mahsulotlari sotiladigan va materiallar texnik ta‘minoti bozorlariga nisbatan joylashuvini hisobga oluvchi o‘rtacha ko‘rsatkich qo‘llaniladi. Viloyat markaziga nisbatan xo‘jalik 10-20 km radiusda joylashgan bo‘lsa ushbu koeffitsiyentlar 10-15 % ga Toshkent shahri atrofida esa 20-30 % ga oshirilishi mumkin.

Yer resurslari davlat qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra respublikamizda sug‘oriladigan haydalma yerlarning umumiy maydoni 2002 yil holatiga 3187,4 ming gektar bo‘lib, shundan sho‘rlangan yerlar 2059,7 ming gektar, sug‘orish va suv eroziyasiga uchragan yerlar 600,5 ming gektar, shamol eroziyasiga uchragan yerlar 2057,0 ming gektarni tashkil etadi. Agar bu ma‘lumotlarni 1990 yil ma‘lumotlari bilan solishtirsak, sug‘oriladigan haydalma yerlar maydoni oxirgi 11 yilda 209,2 ming gektarga kamayganligini, ayni paytda sho‘rlangan yerlar maydoni 300,3 ming gektarga ortganligini, yoki sug‘oriladigan haydalma yerlar maydonining 64,6 % ni tashkil etishini ko‘rish mumkin. Ko‘rsatilgan salbiy jarayonlar ta‘sirida sug‘oriladigan tuproqlar unumdorlik darajasi sezilarli darajada pasaygan. Hozirgi kunga kelib sug‘oriladigan haydalma yerlarning 2265,2 ming gektarni yoki 71,06 % ining bonitet bali 60 dan kam.

29-jadval

Sug‘oriladigan yerlar sifati o‘zgarishi dinamikasi (ming gektarda)

Viloyatlar	Yillar	Jami sug‘oriladigan haydalma yerlar	Sho‘rlangan yerlar	Sug‘orish va suv eroziyasiga uchragan yerlar	Shamol eroziyasiga uchragan yerlar	O‘rtacha ball boniteti	Ball boniteti 60 dan yuqori yerlar	Ball boniteti 60 dan kam yerlar
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1990	432,7	402,7	9,418		44	29,6	351,2
	2001	380,8	33,6			41		
Andijon	1990	214,5	84,9	14,185		60	84,8	111,6
	2001	196,3	65,8			60		
Buxoro	1990	264,4	239,8	-		58	78,9	105,1
	2001	184,0	164,7			53		
Jizzax	1990	245,3	82,9	44,592		53	37,0	224,5
	2001	261,3	204,3			50		
qashqadaryo	1990	415,4	246,3	159,748		54	73,4	340,0
	2001	413,2	285,1			51		

Navoiy	1990	101,2	92,5	54,524		59	30,8	52,8
	2001	83,7	58,9			52		
Namangan	1990	203,2	44,3	3,166		66	75,2	117,9
	2001	193,1	67,2			59		
Samarqand	1990	298,7	37,6	121,699		67	96,9	161,7
	2001	258,6	107,5			57		
Surxondaryo	1990	257,4	105,0	37,354		68	89,1	147,3
	2001	236,4	151,0			60		
Sirdaryo	1990	269,5	216,7	0,688		53	44,0	212,3
	2001	256,3	219,8			49		
Toshkent	1990	306,0	34,9	138,592		66	111,5	168,6
	2001	280,1	71,4			59		
Farg'ona	1990	273,4	41,6	16,485		66	95,2	137,1
	2001	252,3	186,2			56		
Xorazm	1990	216,1	156,2	-		54	75,9	115,3
	2001	191,2	335,2			54		
Respublika bo'yicha	1990	3396,6	1759,4	600,451	2057,0	58	922,2	2265,2
	2001	3187,4	2059,7			55		

### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning me'yoriy bahosi ma'lumotlaridan qo'llaniladigan sohalarini aytib bering.
2. Yerni me'yoriy baholash sub'ektlarini so'zlab bering.
3. Yerni me'yoriy baholash mezoni qanday ko'rsatkichlardan iborat?
4. 1 ballning bahosini bilishning ahamiyati nimada?
5. 1 gektardan olingan sof daromadni aniqlash formulasini yozing.
6. Respublikaning o'rtacha darajasiga nisbatan viloyatlarning koeffitsiyentlarini aytib bering.

### 11.2. Sug'oriladigan yerlarini sifati bo'yicha sinflarga taqsimlash va kadastr baholash

Yerning sifatini baholashda asosiy omil bo'lib, uning unumdorligi hisoblanadi va bonitet balli bo'yicha aniqlanadi.

Tuproq bonitirovkasi – tuproq sifatining solishtirma qiymati bo'lib, yerning o'rtacha agrotexnika va dehqonchilikdagi ishlab chiqarish qobiliyatini ko'rsatadi. Bonitirovka qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi bilan bog'liq bo'lib, tuproq xususiyatlarini hisobga olgan holda, "Sug'oriladigan tuproqlarda bonitirovka o'tkazish uslubiy qo'llanmasi" asosida tuziladi.

O'zbekistonning sug'oriladigan dehqonchilik sharoiti uchun bonitirovka paxtachilikda qabul qilingan. Bonitirovkada tuproqning asosiy xossalari va tabiiy sharoitlari: tip va tipchalar, sug'orish boshlangan davr, madaniylashgani, harorat zahiralari bilan ta'minlanganligi, mexanik tarkibi,



tuproq hosil qiluvchi jins, qatlamlar osti suv o'tkazuvchanligi, sho'rlanish darajasi, toshloqligi va gipslashganligi hisobga olinadi. Baholash yopiq 100 balli shkala bo'yicha amalga oshiriladi. Eng yuqori 100 ball bilan eng yaxshi, yuqori hosildorligi bilan ajralib turuvchi tuproqlar baholanadi.

Tuproqning tabiiy unumdorligini hisobga olib, sug'oriladigan yerlarning hosildorligi va ularning qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqligining potensial imkoniyatlariga ko'ra, respublikamiz sug'oriladigan yerlari bonitet balla bo'yicha 10 ta sinfga va 5 ta kadastr zona (guruh) lariga birlashtirilgan.

Birinchi kadastr zonasi (I va II klasslar) ga yangi o'zlashtirilgan, kam rivojlangan, xossalari kuchsiz va unumdorligi past, dehqonchilikda faol foyda cheklangan, o'simlik o'sishi uchun zaruriy ozuqalar kam, tuproq sharoitlari past yerlar kiritilgan. Bu zona yerlarining tabiiy sharoiti yomon baholanib, bonitet balli 0 dan 20 gachani tashkil etadi. Respublika qishloq xo'jaligi sug'oriladiganekin yerlarning 0,3 % ni tashkil etadi. Bu yerlar Jizzax, Buxoro Navoiy, Namangan, Surxondaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida katta maydonni tashkil qiladi va mexanizmlar bilan ishlov berishga noqulay mayda paykallardan iborat. Bu yerlardan foydalanish uchun ularni rivojlanishini tezlashtirish, sho'rini yuvish, zaxini qochirish, eroziya va cho'kish jarayonlarini kamaytirish kabi tadbirlarni maxsus biologik ta'sir qiluvchi usullar bilan amalga oshirish zarur.

Ikkinchi kadastr zonasi (III va IV klasslar) ga yangi sug'oriladigan yerlarning katta qismi, faol o'zlashtirilayotgan va madaniylashtirilayotgan yerlar kiradi. Yerlarning xossalari yetarli darajada turg'undir va hammasi sug'orishga yaroqli hisoblanadi, lekin ekiladigan ekin turlari cheklangan. Tuproqlari sho'rlangan, shamol eroziyasiga uchragan, sifti bo'yicha o'rtachadan past bo'lib, 21-40 bonitet ballari bilan baholanadi. Me'yoriy hosildorlik 12 s/ga ni tashkil etgani holda o'zgaruvchidir. Bu yerlarni ishlab chiqarish qobiliyatini oshirish uchun planirovka (tekislash), sho'r yuvish, organik o'g'itlar bilan boyitish, ko'p yillik o'tlar va sediratlar ekish, toshli-shag'alli yerlarni kolmotaj qilish va boshqa tadbirlar majmuasini amalga oshirish talab qilinadi.

Bu zonaga tegishli yerlarning umumiy maydoni jami sug'oriladigan ekin yerlarning 24,1 % ni tashkil etadi. Bunday yerlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo, Farg'ona va qashqadaryo viloyatlarida ko'p tarqalgan.

Uchinchi kadastr zonasi (V va VI klasslar) ga yetarli darajada madaniylashtirilgan yangi va qisman eski sug'oriladigan yerlar kiritilgan, tuproqlarining sifat bahosi o'rtacha, 41-60 bonitet ballarini tashkil qiladi. Hozirgi zamon dehqonchiligi uchun joylarda madaniy-meliorativ ya'ni yerlarni zaxini qochirish, sho'rini yuvish, eroziyaga qarshi agrotexnik tadbirlar o'tkazilsa, yerdan to'g'ri foydalanishning zamonaviy

texnologiyalarini doimiy joriy etish orqali tuproqning yangi sifatlarini paydo qilishga erishish mumkin.

Agar bu yerlardan noto‘g‘ri foydalanilsa, madaniylashtirish jarayoni to‘xtab qolishidan tashqari tuproq degradasiyasi boshlanishi, gumus va ozuqa elementlari pasayib, nishabli yerlarda eroziyaning boshlanishi va tuproq unumdorligi kamayib ketishi mumkin. Bu klassga mansub tuproqlar irrigasion eroziyaga hamda ikkilamchi sho‘rlanishga kam uchraganligi bilan tavsiflanadi.

Paxtaning o‘rtacha me‘yoriy hosildorligi 20 s/ga bo‘lib, madaniylashtirish chuqur olib borilmaganligi tufayli turg‘un emas. Bu yerlarning umumiy maydoni jami sug‘oriladigan ekin yerlarning 45,5 % ni tashkil qiladi, asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida ko‘p tarqalgan.

To‘rtinchi kadastr zonasi (VII va VIII klasslar) ga madaniylashtirilgan voha (eski va yangi sug‘oriladigan, o‘rtacha madaniylashtirilgan) yerlari kiradi, sifati yaxshi va yaxshidan yuqori bo‘lib, 61-80 bonitet ballari bilan baholanadi. Yerlar uzoq vaqtlardan buyon sug‘orilib, madaniylashtirilib kelinayotganligi tufayli tuproq xossalari sezilarli darajada yaxshilangan va unumdor, dalalar yaxshi tekislangan va mexanizasiya yordamida qayta ishlov berish uchun qulaydir.

30-jadval

Yerlar hosildorligiga va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga salbiy ta‘sir etuvchi ba‘zi omillar va ularning kelib chiqishi

Muammolar	Sabablar	Oqibatlar
Qishloq xo‘jaligini ilmiy asoslangan zonalarga ajratishning yo‘qligi	Paxta etishtirishga xom-ashyo yo‘nalishini berilishi	Qishloq xo‘jaligini noto‘g‘ri rivojlanishi, yerdan noto‘g‘ri foydalanish
Sho‘rlanish	Kollektor-drenaj tarmog‘idan yomon foydalanishi va ta‘minlanganligi	Unumdorlikning yomonlashuvi, suv, ozuqa, mablag‘ va mehnatga talabning ortishi
Toshloqligi	Toshloq yerlarni o‘zlashtirilishi	Hosildorlikni kamayishi, suv, mablag‘ va mehnatga talabning ortishi
Gipslashganligi	Gipslashgan yerlarni o‘zlashtirilishi	Yerlarni botqoqlanishi, mehnat, mablag‘, suvning ko‘p sarf bo‘lishi, sho‘rlanish
Ekin yer maydonlarining mukammal bo‘lmagan	Almashlab ekishning yo‘qligi, ekinlar yakka hokimligi	Yer maydonlarining buzilishi, mineral va zaharli ximikatlarning

tizimi		ortiqcha sarfi
Irrigasion eroziya	Sug'orishni takomillashmagan texnikasi, nishab yerlarni o'zlashtirilishi	Degressiya, hosildor qatlamning yuvilishi va yo'qolishi
Shamol eroziyasi	Faol shamol zonasida himoya daraxtzorlarining yo'qligi	Hosildorlikning kamayishi, hosildor qatlamning uchirib ketishi
Kam hosilli kuchli sho'rlangan yerlarni o'zlashtirish	Ko'p suv talab etuvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanishi, o'zlashtirish va foydalanishdagi xatoliklar	Kam hosildorlik, sug'orish suvlari, mehnat va o'g'itlarni ko'p sarflash
Suv eroziyasi	Tik qiyaliklarni haydash, almashlab ekishni lalmi yerlarda yo'qligi	Tuproq qatlamining zichlanishi, tuproq tizimining buzilishi, yuvilish, degressiya, jarliklarni hosil bo'lishi

Tuproq unumdorligini va ishlab chiqarish qobiliyatini paaytiruvchi omillarning, ya'ni gumus miqdorini pastligi, ozuqa moddalarining kamligi, irrigasiya eroziyasi va ikkilamchi sho'rlanishning ta'siri juda kam. qishloq xo'jaligi ekinlarini barcha turlarini ekish mumkin, agrotexnik va meliorativ tadbirlarga amal qilish talab etiladi.

Yerga qilingan xarajatlar o'zini oqlaydi, paxtaning o'rtacha me'yoriy hosildorligi 28 s/ga bo'lib, sifati past yerlarga qaraganda harajatlar kam talab etiladi. Ushbu yerlarning umumiy maydoni jami sug'oriladigan yerlarning 27,2 %ni tashkil qiladi. Bu yerlarning katta qismi Andijon, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarining eskidan sug'oriladigan zonalarida joylashgan.

Beshinchi kadastr zona – vodiy yerlarda qadimiy shahar va aholi punktlari mintaqalarida joylashgan. Ular o'ziga xos ustivor va yuqori hosildorlikka ega. Salbiy omillar yerlarning sifatiga ta'sir etmaydi. Bu kadastr zonasiga (IX va X klass) bonitet ballari 81 dan yuqori bo'lgan yerlar kiradi. Paxtaning me'yoriy hosildorligi 32 s/ga dan yuqori. Sug'oriladigan qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 2,9 %ni tashkil etadi. Ularning ekologik tozaligini ta'minlash uchun faqat qishloq xo'jalik ishlab

chiqarishida foydalanish kerak.

To'rtinchi va beshinchi kadastr zonalaridagi 60 balldan yuqori bo'lgan qimmatli yer maydonlari (o'rtacha hosildorlik 32 s/ga ga teng) 10,4 % ga, asosan tomorqa yerlari ajratish va xo'jalik ichki qurilish hisobiga 260 ming gektarga qisqaradi.

Shu bilan birga, o'rta va o'rtadan past sifatli ikkinchi va uchinchi kadastr zonasidagi maydonlar yerlarni meliorativ holati yomonlashganligi evaziga 14,0 % ga ko'paydi.

Respublika aholisining katta qismi (62%) qishloq xo'jaliklarida asosan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish bilan bog'liq holda yashaydi. Shunday ekan qishloq xo'jalik aholisining yashash darajasi tuproqning hosildorlik imkoniyati bilan bog'liq. Shuning uchun qishloq xo'jalik yer manbalaridan to'g'ri foydalanish, sug'oriladigan yerlarning unumdorligini tiklash dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish dolzarb masala bo'lib, tez hal qilishni talab etadi. Yerlar hosildorligiga va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir etuvchi ba'zi omillar va ularning kelib chiqishi quyida keltiriladi.

### **11.3. Respublikaning sug'oriladigan yerlarini qiymatini baholash**

Qonunchilikka asosan yerlar qiymatini baholash yer kadastr hujjatlarining bir qismi hisoblanadi va u yer solig'i stavkasini aniqlash, bank kreditini berish, kim oshdi savdosi bilan yer uchastkalarini sotishda boshlang'ich narxini belgilash, shirkat xo'jalik paychilik jamg'armalarini aniqlash va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa holatlarda foydalanish uchun yuritiladi. qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish ishlarini izchillik bilan amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi "Qishloq xo'jaligi kooperativ (shirkati) to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishiga asos bo'ldi. Ushbu qonun ijrosini ta'minlash maqsadida hamda qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirish va respublikada qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, birinchi navbatda yirik paxtachilik va g'allachilik kooperativ (shirkat)lari tomonidan paychilik va oilaviy pudrat asosida amalga oshirilishini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish respublika komissiyasi tomonidan 2000 yilda 907 ta qishloq xo'jaligi korxonalarini shirkat xo'jaliklariga aylantirish (shu jumladan, 454 ta xo'jalikni 1-chorakda va 453 ta xo'jalikni 4-chorakda) to'g'risida qaror qabul qilingan edi.

Shirkat xo'jaligi paychilik jamg'armasini aniqlashda uning tarkibiga qishloq xo'jaligi yerlarini me'yoriy qiymati kiritiladi, shunga ko'ra yer qiymatini baholash ishlari 2000 yilda 911 ta xo'jalikda bajarildi.

Birinchi chorakda ishlar 458 ta xo'jalikda bajarildi: Qoraqalpog'iston Respublikasida 24, Andijon viloyatida 45, Buxoroda 44, Jizzaxda 24, Navoiyda 9, Namanganda 20, Samarqandda 94, Sirdaryoda 16,

Surxondaryoda 30, Toshkentda 33, Fargʻonada 41, Xorazmda 33 va Qashqadaryoda 48 tani tashkil etadi.

Toʻrtinchi chorakda esa bunday ishlar jami 453 ta xoʻjaliklarda bajarilgan boʻlib, ular Qoraqalpogʻiston Respublikasida 24 tani, Andijon viloyatida 54, Buxoroda 25, Jizzaxda 11, Navoiyda 17, Namanganda 36, Samarqandda 89, Sirdaryoda 7, Surxondaryoda 21, Toshkentda 38, Fargʻonada 42, Xorazmda 31 va Qashqadaryoda 72 tani tashkil qiladi.

Sugʻoriladigan haydalma yerlar bir gektarining oʻrtacha qiymatini hisoblashda tuproqning bonitet balli, asosiy qishloq xoʻjaligi ekinlarining kadastr hisoblash hosildorligi, tuproqning bonitet balliga qarab oʻzgaradigan qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishidan olinadigan foyda meʼyori hamda yalpi mahsulot qiymatini keltirish koeffitsiyenti (u umumiy ekinlar maydonida asosiy ekin solishtirma salmogʻi va qishloq xoʻjaligi mahsulotining xarid narxiga bogʻliq) hisobga olindi. Birinchi chorakdagi hisoblashlarda 1999 yilning oxirida qishloq xoʻjalik mahsulotlari uchun shakllangan harid narxlari (statistik maʼlumotlarga asosan) qabul qilindi.

Toʻrtinchi chorakda esa Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 4 martdagi “Qishloq xoʻjaligi ekinlarini ekishni uyushqoqlik bilan oʻtkazish va 2000 yilda Davlat ehtiyojlari uchun harid qilinadigan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari haqini oʻz vaqtida toʻlanishini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorida belgilangan xarid narxlari olindi.

Bu koʻrsatkichlar ham nisbiy kattalikda yaʼni ballarda ham absolyut koʻrsatkichlarda yaʼni yerga hisoblab chiqilgan shartli narxlar – soʻmlarda boʻlishi kerak.

Shunga ahamiyat berish kerakki, yerni iqtisodiy baholash va tuproqlarni bonitirovka qishloq oʻrtasidagi bir-biriga bogʻliqlik va bir-biridan farqni ajrata bilish kerak. Bonitirovka qilishda – tuproqning ishlab chiqarish sharoitlarni emas asosan oʻsimlik oʻsishi uchun kerak boʻlgan tabiiy xossalari hisobga olinib guruhlariga boʻlinadi. Iqtisodiy baholashda esa yerning tabiiy sifati va ishlab chiqarish koʻrsatkichlari uning iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda iqtisodiy munosabatlarning farqi asos qilib olinadi.

Yerlarning iqtisodiy baholashning ballaridagi koʻrsatkichlari bir tuproqning ikkinchi tuproqdan necha marta yaxshi yomonligini yoki qimmatroq va arzonroq haqidagi savolga javob beradi. Bu solishtirma miqdoriy qiymatda yerning ishlab chiqarish vositasi sifatidagi qishloq xoʻjaligi boshqarishda iqtisodiy hisob-kitob orqali rejalashtirishni tashkil qilishda foydalaniladi. qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishda shu narsa maʼlumki, bir xil ishlab chiqarish vositalari bilan taʼminlangan boʻlsa ham tuproq unumdorligini har xil boʻlganligi uchun bir xil natija bermaydi. Shuning uchun ham tuproq unumdorligi ishlab chiqarishni asosiy dalillaridan biri hisoblanadi. Yerning unumdorligini aniqlashda va miqdorini hisob-kitob

qilish ishlari yerni iqtisodiy baholash vazifasiga kiradi. Tuproqning tabiiy va sun'iy unumdorligi bor. Tabiiy unumdorligi tuproqning tabiiy fizik, kimyoviy xossalari va iqlim sharoitlariga bog'liq.

Tuproqning sun'iy unumdorligini inson yaratadi. Tuproqning samarali unumdorligi bu tabiiy unumdorligi bilan sun'iy unumdorligini (mehnat xarajatlari va mehnat vositalari) birlashib ketishdan hosil bo'ladi. Buni aniqlash uchun quyidagi ishlar bajariladi:

1. Xo'jalikning hamma yer to'planish: haydalma yerlar ko'p yillik meva daraxtzorlar, pichanzor va yaylovlar baholanadi. Yerning yer baholash ishlarining bajarish uchun qishloq xo'jalik tashkilotlaridan yig'ib olingan keyingi besh yillik uchun buxgalteriya va statistika hisobot ma'lumotlari aerofotogeodeziya hujjatlari tuproq va geobotanika tekshiruv hujjatlari asos qilib olinadi.

2. Baholash ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

a) Yerni umumiy baholash (bu ayrim o'simliklarning ekishning foydaliligi bo'yicha yerni baholash);

b) xususiy baholash.

Yerni umumiy baholashni asosiy ko'rsatkichlar mahsuldorlik (jami mahsulotlar qiymati) so'mlarga.

- harajatlarning qoplanishi (qilingin bir so'mlik harajatga olingan mahsulotning qiymati).

- differensial daromad foyda joylashishi va sifati eng yaxshi bo'lgan yerlarda olingan sof foydaning qo'shimcha qismi.

Yerning xususiy baholashning asosiy ko'rsatkichlari hosildorlik sentnyerlarga harajatning qoplanishi so'mlarga differensial daromad so'mlarga.

3. Baholash ko'rsatkichlari ayrim hujjatlar uchun tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlarini bo'yicha hisoblab chiqilsa ayrim xo'jaliklar uchun esa texnologik sharoitlarga va ishlab chiqarishning tig'izligiga qarab tuzatishlar kiritib, almashlab ekish dalalari bo'yicha hisoblab chiqariladi. Zarurat tug'lsa va yetarli ma'lumotlar bo'lsa tuproqqa ayrimlari bo'yicha ham baholash ishlarini bajarish mumkin. Yalpi mahsulot qiymatini hisoblash uchun ishlab chiqarishning eng yomon sharoitida qilingan zarur bo'lgan umumiy harajatlarni hisobga olgan holda yagona kadastr narxlaridan foydalaniladi. Yalpi mahsulot qiymatiga asosiy hamda qo'shimcha mahsulotning boshqa mahsulotlarning qiymati ham qo'shiladi.

Yerni baholash natijalari bo'yicha (yagona formada) qo'yidagi amaliy vazifalarni qishloq xo'jaligining mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va uning tan-narxini pasaytirish imkonini beruvchi masalalarni ham qilish uchun asos bo'ladigan qaydnomalar (vedomost) va er baholash xaritalari tuziladi.

- qishloq xo'jalik korxonalarining xo'jalik faoliyati natijalarini tahlil qilish;

- qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va tayyorlash rejalarini mukammallashtirish ;
- tabiiy va iqtisodiy sharoitini bir xil bo‘lmagan xo‘jaliklarning daromadini oshirish imkoniyatlarini tenglashtirish ;
- Yer tuzish tadbirini texnik iqtisodiy asoslarini tuzish ;
- qishloq xo‘jaligidan boshqa maqsadlar uchun yerlarni ajratib olganda ko‘rilgan zararlarni hisoblab chiqish.

4. Yerlarni baholash ishlarini Respublika “O‘zdavryerloyiha” instituti bo‘limi va filiallari bajaradi. Bu ishlarni bajarish uchun metodik qo‘llanmalarni davlat ilmiy tekshirish ilmgohlari tayyorlab beradi;

5. Yer baholash hujjatlarini yangilash va ularga tuzatishlar kiritish har besh yilda amalga oshiriladi;

6. Yerlarni baholash qo‘yidagi ishlar bajariladi:

- a) tayyorgarlik ishlari dastlabki ma‘lumotlarni yig‘ish va bir yo‘lga quyish;
- b) Yer baholashni tumanlar bo‘yicha rejalashtirish;
- v) tuproqni agronomik ishlab chiqarish bo‘yicha guruhlash.

Iqtisodiy baholash deb, yerni qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi sifat bahosiga aytiladi, ya‘ni, dehqonchilikning mavjud intensivligi sharoitida qishloq xo‘jaligidagi mehnat unumdorligini hisobga olish yo‘li bilan xilma-xil unumdor yerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash tushuniladi.

Yer maydonlarini iqtisodiy baholashning tuproq bonitirovkasidan asosiy farqi shundan iboratki, bonitirovka asosan tuproqlarning tabiiy jism holatini, ya‘ni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yuritishning iqtisodiy sharoitlarini hisobga olmagan holatini o‘rganadi. Iqtisodiy baholashda esa yer qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida qaraladi. Yerlarni baholash dehqonchilikning shu davrda erishilgan intensivligi darajasida iqtisodiy unumdorligi jihatidan yer maydonlarining sifatini zarur aniqlikda yoritiladi. U joyning tabiiy hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy sharoitlarini, yer uchastkalarining joylashgan o‘rnini, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini etishtirishdagi mehnat va pul xarajatlarini hisobga olish orqali o‘tkaziladi.

Qo‘yilgan maqsad va talablariga binoan yerlarni iqtisodiy baholash umumiy hamda xususiy (yakka tartibda) bo‘lishi mumkin. Xususiy baholash xilma-xil tuproq sharoitlarida aniq qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtirishning samaradorligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Shu bilan birga xususiy baholash xilma-xil qishloq xo‘jalik ekinlarini o‘stirishda tuproqlarning yaroqliligi to‘g‘risida ham ma‘lumotlarga ega bo‘lib, qo‘shimcha kapital mablag‘larsiz ma‘lum iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlaydi. Umumiy iqtisodiy baholash tuproqlarning unumdorlik ko‘rsatkichlarini va dehqonchilik intensivligini shu davrdagi erishilgan darajasida yer maydonlaridan foydalanishning samaradorligini xarakterlaydigan

ko'rsatkichlarini aniqlashga mo'ljallangan.

Yer baholash birligini saylash ma'lum sharoitga asoslanadi. Mingdan ortiq tuproq xillari mavjud bo'lgan O'zbekiston sharoitida yer maydonlarini iqtisodiy baholash yerlarini baholash metodikasiga binoan o'tkaziladi va bu yerda shunday yer baholash birligi qilib tuproq agroishlab chiqarish guruhlari qabul qilindi.

Yerlarni iqtisodiy baholashda baholash ko'rsatkichlarini to'g'ri tanlash ham muhim ahamiyatga ega. Ular ob'ektiv bo'lmog'i hamda ma'lum amaliy ahamiyatga ega bo'lmog'i zarur. Shunga asosan qishloq xo'jalik ekinlarining samaradorligi bo'yicha xususiy baholash ekinlarining samaradorligi bo'yicha xususiy baholash ekinlarning hosildorligi, harajatlarni qoplash va tabaqalangan daromad ko'rsatkichlari bo'yicha olib borildi. Yer maydonlarini umumiy baholash esa yalpi mahsulot qiymati, xarajatlarni qoplash va tabaqalangan daromad ko'rsatkichlari bo'yicha o'tkaziladi.

Iqtisodiy baholashning asosiga qo'yilgan tabiiy va iqtisodiy ko'rsatkichlarning 5 yillik qiymatlari qabul qilingan: asosiy qishloq xo'jalik ekinlari bo'yicha (paxta, sholi, makkajo'xori doni uchun, beda) ko'p yillik daraxtzorlar va yaylovlarning ekin maydonlari, hosildorlik, yalpi mahsulot, har bir mahsulotni etishtirishga sarf bo'lgan pul birligidagi harajatlar va ishlab chiqarishga sarf bo'lgan mehnat xarajatlari. Har bir qishloq xo'jalik ekinining asosiy va (aylanma) fondlari bilan ta'minlanganligi, solingan o'g'itlarning miqdori va tarkibi. Doimiy sug'orish sharoitida bunday ko'rsatkichlardan tashqari sug'oriladigan yerlarning meliorativ fondlar bilan ta'minlanganligi, sug'orish shaxobchalari va inshootlarini qurishga sarf bo'lgan umumiy xarajatlar ham hisobga olinad.

Iqtisodiy nuqtai nazardan ishlab chiqarish vositasi holatidagi yer maydonining sifati tuproq unumdorligi orqali aniqlanadi. Tuproq unumdorligi faqat qishloq xo'jalik ekinlarining turlicha hosildorligiga olib qoladi. Shuning uchun ham hosildorlik yerlarni iqtisodiy baholashning birlamchi ko'rsatkichi rolini bajaradi. Yer maydonlarini iqtisodiy baholash uchun tanlangan qishloq xo'jalik ekinlari shu kadastr rayonining hududi uchun xarakterli bo'lishi zarur. Ishlab chiqarish va tovar ahamiyatiga ega bo'lgan qishloq xo'jalik ekinlari, shu jumladan, sug'oriladigan dehqonchilikning asosiy ekinlari: paxta, sholi, g'alla ekinlari, makkajo'xori doni uchun va beda asosiy ro'yxatga kiritiladi.

Shunga qaramasdan, hosildorlik bo'yicha yer maydonlarini iqtisodiy baholashning asosiy mushkul tomoni shundan iboratki, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi ularni yetishtirishga sarflangan xarajatlarning tengligi sharoitida yerlarning sifatini belgilaydi. Bundan tashqari, umuman olganda, bu ko'rsatkich yerlarning unumdorligi to'g'risida to'la ma'lumot bera olmaydi. Xilma-xil qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini to'laroq aniqlashga yalpi mahsulotning qiymati hamda tabaqalangan daromad kabi



pul qiymatidagi ko'rsatkichlar xizmat qilishi mumkin.

Yalpi mahsulot qiymati qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini ekin maydonlari strukturasi hisobida kadastr baholariga ko'paytmasi shaklida aniqlanadi.

Xarajatlarni qoplash ( $X_q$ ) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$XK = \frac{Y_M}{X}$$

bu yerda:  $Y_M$  - bir gektarga to'g'ri keladigan mahsulotning qiymati (yalpi qiymat umumiy baholash uchun ma'lum ekinlarda yakka tartibda baholash uchun);

$X$  - umumiy mehnat harajatining pul birligidagi qiymati (1 gektar haydalma yer hisobida yoki aniq ekinning 1 gektar maydoni hisobida).

Bir gektar hisobida tabaqalangan daromad miqdorini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Sof daromadning qiymati hisoblanadi:

$$SD = M - X$$

2. Bir gektar hisobida normal sof daromadning ( $S = m$ ) qiymati aniqlanadi:

$$SD_m = 0,15 * (F_{as} * F_{ay})$$

bu yerda:  $F_{as}$  - asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati (yerlarni umumiy baholashda 1 gektar haydalma yer hisobida va xususiy baholashda - 1 gektar ma'lum ekin maydoni hisobida):

$F_{ay}$  - aylanma fondlarining qiymati (1 gektar haydalma yer va 1 gektar ma'lum ekin maydoni hisobida).

Aylanma fondlarning qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$F_{ayq} = QX - A$$

bu yerda:  $A$  - 1 gektar hisobida asosiy vositalar amortizatsiyasi (umumiy baholash uchun - dehqonchilik bo'yicha, xususiy baholash uchun - aniq ekinlar bo'yicha).

Normal sof daromadning qiymati berilgan yer baholash rayoni xo'jaliklari bo'yicha bir xil qilib belgilanadi.(1,2,3)

3. Tabaqalangan daromad ( $TD$ ) sof daromadning normal qiymatidan yuqori qismidagi qo'shimcha kabi hisoblanadi.

$$TD + SD - Sdm$$

Olingan ko'rsatkichlar asosida kadastr rayoni bo'yicha yer maydonlarini iqtisodiy baholash shkalasi tuzildi. Baholash shkalasi jadval

ko‘rinishida bo‘lib, yer turlari bo‘yicha barcha baholash birliklarini mahsuldorligi va unumdorligi darajasini nisbiy ko‘rsatkichlarda yoritiladi. Shkala asosan yer maydonlarining sifatini xarakterlaydigan turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha tuziladi. Dehqonchilikning samaradorlik darajasi ishlab chiqarish xarajatlarining miqdori bilan, ishlab chiqarish unumdorligi - xarajatlarni qoplash bilan, daromad darajasi - tabaqalangan daromadning qiymati bilan aniqlanadi.

Baholash shkalalari tuproq guruhlar bo‘yicha hisoblangan baholash ko‘rsatkichlarini nisbiy qiymatlarda (ballarda) qayta hisoblash yo‘li bilan tuziladi. Bunda sug‘oriladigan mintaqalar bo‘yicha asosan yopiq mintaqa tuziladi, qaysiki bu shkalada eng yuqori sifatga ega bo‘lgan yerlarning ko‘rsatkichlari 100 ballga tenglanadi.

Yer - baholash ishlarini quyidagi bosqichlarda o‘tkazish belgilangan: tayyorgarlik ishlari, yer maydonlarini rayonlashtirish, tuproqlarning agroishlab chiqarish guruhlarini aniqlash, baholash shkalalarini tuzish maqsadlari uchun hosildorlik va harajatlarning bazis qiymatlarini hisoblash, xo‘jaliklarda yer baholash ishlarini o‘tkazish, baholash materiallarini qarab chiqish hamda tasdiqlash, yer - baholash hujjatlarini tayyorlash va tarqatish.

Yer maydonlarini baholashning markaziy zvenosi - bu baholash uchun bazis ko‘rsatkichlarini aniqlashdir. Bazis ko‘rsatkichlar qanchalik to‘g‘ri va aniq hisoblansa, baholash natijalari ham shunchalik ob‘ektiv bo‘ladi. O‘zbekiston sharoiti uchun quyidagi bazis ko‘rsatkichlar qabul qilingan: yerlarni umumiy baholash uchun-yalpi mahsulotining qiymati va umumiy mehnat harajatlari (so‘m / ga), yerlarni xususiy baholash uchun hosildorlik hamda umumiy mehnat harajatlari (1 gektar g‘o‘za hisobida).

Shkalalar tuzish uchun iqtisodiy baholashning ob‘ekti bo‘lib yer baholash guruhlarini xizmat qiladi. Har bir yer baholash guruhi uchun iqtisodiy - statistik ma‘lumotlar bo‘yicha xo‘jaliklar tanlandi. Har bir guruh bo‘yicha ko‘rsatkichlarning o‘rtacha qiymatlari hisoblanadi.

Har bir hisoblash guruhini tavsiflash maqsadi uchun tanlashga shunday xo‘jaliklar kiritiladiki, qaysiki bu xo‘jaliklar haydalma maydonlari yoki qishloq xo‘jalik yerlarining 75 foizdan ortig‘i bir tuproq guruhiga, qolgani ham unumdorligi bo‘yicha asosiy guruhdan kam farq qiladigan guruhga kirgan bo‘lishi zarur.

Har bir yer hisoblash guruhining ekinlari va yer turlari bo‘yicha tipik tanlashning o‘rtacha ko‘rsatkichlari umumiy hamda xususiy baholash shkalasining asosini tashkil qiladi. Bunda har qaysi guruhning eng yuqori ko‘rsatkichlari 100 ball deb qabul qilinadi va bir ballning miqdoriy qiymati aniqlanadi. Shundan keyin hamma yer maydonlarining tuproq guruhlarini bo‘yicha ballar hisobida baholash ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Viloyat bo‘yicha baholash shkalalari hamda yer baholash guruhlarining maydonlariga ega bo‘lgan holda viloyat, tuman va xo‘jaliklar bo‘yicha iqtisodiy baholashni

amalga oshirish mumkin.

Ma'muriy tuman chegarasida yer baholash ishlarini o'tkazish asosan alohida xo'jalik maydonlariga yer materiallarini umumlashtirgan holda jami tuman bo'yicha baholash ko'rsatkichlarini o'rtacha keltirilgan qiymatlarini aniqlashdan iborat. Bunda ikki holat kuzatilishi mumkin: birinchi - ma'muriy tuman barcha hududi bir kadastr rayoni chegarasida joylashgan bo'lsa, ikkinchi - holatda ma'muriy tuman yerlari ikki yoki undan ortiq kadastr rayonlari tarkibida bo'lishi mumkin.

Birinchi holatda yer baholashning o'rtacha keltirilgan ko'rsatkichlari tumanning barcha yerlari uchun bitta shkala bo'yicha aniqlanadi. Keyingi holatda esa o'rtacha keltirilgan ko'rsatkichlar turli kadastr rayonlari tarkibiga kirgan hududiy tuman qismlari uchun alohida shkalalardan olinadi. Yer bahosining o'rtacha keltirilgan ko'rsatkichlari quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$B_{ypm} C_K = \frac{B_1 + P_2 B_2 + P_n B_n}{P_1 + P_2 + \dots + P_n}$$

bu yerda:

$B_{urt} S_k$  - ma'muriy tuman qishloq xo'jalik yerlarining baho ko'rsatkichi yoki o'rtacha keltirilgan ball;

$B_1 B_2 \dots B_n$  alohida korxonalar, muassasa va tashkilotlar qishloq xo'jalik yerlarining baho ko'rsatkichlari yoki ballari;

$R_1 R_2 \dots R_n$  - korxonalar, muassasa va tashkilotlar qishloq xo'jalik yerlarining maydonlari, ga.

Yerlarni baholash natijalari bo'yicha jami tuman bo'yicha yer baholash ko'rsatkichlarini o'rtacha qiymatga olib kelgan holda ko'p yillik daraxtzorlar turlari va alohida qishloq xo'jalik ekinlarini o'stirish samaradorligi bo'yicha - xususiy baholash hamda asosiy qishloq xo'jalik ekinlari bo'yicha umumiy baholash vedomostlari tuziladi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Yerni iqtisodiy baholash bilan tuproqlarni bonitirovka qilishning qanday farqi bor?
2. Tabiiy va sun'iy unumdorlikni izohlang?
3. Yerni umumiy baholash nima?
4. Yerni baholash natijalarida nimalar qayd qilinadi?
5. Yalpi mahsulot qiymatini aniqlashni aytib bering.
6. Harajatlarni qoplash formulasini yozib bering.
7. Sof daromad va 1 gektar hisobidagi sof daromad qiymati qanday anilanadi?
8. Tabaqalangan daromad nima?

9. Yer-baholash ishlari o‘tkazish qanday bosqichlardan iborat?
10. Yer bahosining o‘rtacha ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?

## **XII-bob. YER SOLIG'I**

### **12.1. Yagona yer solig'i**

#### **Yagona yer solig'ining iqtisodiy mohiyati va huquqiy-me'yoriy asoslari**

Yagona yer solig'i yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari mehnatining pirvard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish va soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirish uchun 1999 yilning 1-yanvaridan boshlab joriy qilingan.

Yagona yer solig'i kuyidagi barcha amaldagi umumdavlat (alkagol mahsulotlari uchun aksiz solig'idan tashqari) va mahalliy soliqlar hamda yig'imlar o'rniga kiritilgan:

Daromad (foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer ostidan foydalanganlik uchun soliq, mulk solig'i, yer solig'i, infratuzilmagan rivojlantirish solig'i, boshqa mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Yagona yer solig'ining to'lovchisi hisoblangan qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun bojxona boji, davlat boji, lisenziya yig'imlari, byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar, hamda alkagol mahsulotlar uchun aksiz solig'i to'lashning amaldagi tartibi saqlanib qoladi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini yuritishga egalik qilish va foydalanish uchun berilgan yoki ijaraga olingan yer maydonlari soliq ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlar), fermer xo'jaliklari va agrofimlar yagona yer solig'ining to'lovchilardir.

Agar fermer xo'jaligi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va kayta ishlash bilan bir qatorda shu faoliyat turlari bilan shug'ullansa, ular alohida hisob yuritishlari va boshqa faoliyat turlari bo'yicha qonunchilikda belgilangan soliqlarni to'lashlari lozim.

O'rmon, baliq va ovchilik xo'jaliklari, ilmiy-tekshirish tashkilotlari va ilmiy muassasalarning tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklari, huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan yordamchi qishloq xo'jaligi hamda dehqon xo'jaliklari yagona yer solig'i to'lamaydi.

Yagona yer solig'i O'zbekiston Respublikasining Prezidenti 1998 yilning 10 oktyabrida qabul qilgan "Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona Yer solig'ini joriy etish tug'risida" gi Farmoniga hamda Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabridagi 539-sonli qaroriga asosan joriy qilingan. Yagona ishlab chiqaruvchilarning shu

solig bo'yicha davlat byudjet bilan qisoblashitsh mexanizmi O'zbekiston Respublikasining Adliya Vazirligi 2002 yilning 5 martida 1102-tartib raqami bilan ro'yxatga olingan "Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yagona yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'qrisidagi yo'riqnoma" da belgilangan. Yagona yer solig'i soliqqa tortiladigan yer maydoni, baza stavkalari va tuzatish koeffitsiyentlariga asosan soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda hisoblanadi.

Jamoat binolari va xonadonlari, suv havzalari, kanallar, kollektor va yo'llar bilan band bo'lgan yerlar hamda qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar bo'yicha tegishli tuman va shaharlarning sug'oriladigan yerlarning birinchi sinfi uchun belgilangan stavkalar baza stavkasi qabul qilingan.

### **12.2. Yagona yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi**

Yagona yer solig'i soliqni to'lovchilar tomonidan yer maydoni, soliqning bazis stavkasi va tuzatish koeffitsiyentlariga asosan hisoblab chiqariladi.

Yagona yer solig'ining summasi har bir yer turi bo'yicha quyidagi formula asosan aniqlanadi.

$$N+S_{zu} \times S_{6x} K_m,$$

Bu yerda: N- yagona yer solig'ining summasi, so'm hisobida:

$S_{zu}$ - Yer maydoni, gektar hisobida

$S_6$ - 1 ga uchun soliqning baza stavkasi

$K_m$  -tuzatish koeffitsiyenti.

Soliqqa tortish maqsadida yerlar sug'oriladigan yerlar, lalmikor yerlar, o'tloq va yaylovlar, jamoat binolari va xonadonlar bilan band bo'lgan yerlar, suv havzalari, kanallar, kollektor va yullar bilan band bo'lgan yerlar qamda qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlarga bo'linadi. Har bir yer guruhi bo'yicha tegishli baza stavkalari va tuzatish koeffitsiyentlari qo'llaniladi.

Sug'oriladigan yerlar bo'yicha balli "0" don 10 gacha bo'lgan birinchi sinfga kiradigan yerlarning 1 gektari uchun absolyut summada belgilangan soliq stavkasi baza stavkasiga qabul qilingan. Baza stavkalari tuman va shaharlar bo'yicha belgilangan. Yer maydonlarining qayerda joylashganligiga, sifati (ball-boniteti) va suv bilan ta'minlanganligiga qarab baza stavkalari tegishli tuzatish koeffitsiyentlariga asosan o'zgartiriladi.

Lalmikor yerlar hamda o'tloq va yaylovlar uchun. Qoraqolpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha belgilangan baza stavkalari qo'llaniladi.

Ball boniteti - bu tuproq sifati va tabiiy unumdorliginnig bahosi bo‘lib, yer uchastkasining joylashgan joyi, suv bilan ta‘minlanganligi, boriladigan yo‘llarning mavjudligi va qulayligi va hakoazolarga ham bog‘liq

31-jadval

Qishloq xo‘jalik yerlari uchun yagona yer solig‘ining bazaviy stavkalari.  
2004 yilga (1 ga-so‘m)

Mintaqalar	Sug‘oriladigan yerlar (1 sinf)	Lalmikor yerlar (tekislik mintaqasi)	O‘tloq va yaylovlar ("cho‘l mintaqasi")
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	891,2	-	25,3
Andijon viloyati	1352,4	162,5	34,1
Buxoro viloyati	1172,3	-	34,1
Jizzax viloyati	1020,8	153,6	31,6
Navoiy viloyati	950,4	153,6	34,1
Namangan viloyati	1694,0	-	34,1
Samarqand viloyati	1417,7	153,6	31,6
Sirdaryo viloyati	815,2	153,6	31,6
Surxondaryo viloyati	15,20,6	204,6	22,8
Toshkent viloyati	1422,6	162,5	31,6
Farg‘ona viloyati	1256,6	-	31,6
Xorazm viloyati	1083,5	-	25,3
Qashqadaryo viloyati	987,8	169,7	40,6
Toshkent shahri	3495,6		

32-jadval

2007 yil (1 ga uchun so‘mlarda)

Mintaqalar	Sug‘oriladigan yerlar (I toifa)	Lalmikor yerlar (tekislik zonasi)	Pichanzor va yaylovlar ("Cho‘l" mintaqasi)
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3910,1		111,2
Qashqadaryo viloyati	4334,0	744,8	178,2
Namangan viloyati	6116,3		149,9
Sirdaryo viloyati	3576,6	674,0	138,6
Toshkent shahri	15336,9		

Izoh: Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent, Farg‘onga va Xorazm viloyatlarida yagona yer solig‘i mazkur qarorga 28-ilovaga muvofiq stavkalar bo‘yicha qishloq xo‘jaligi yerlarining me‘yoriy qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

33- jadval

Tumanlar va shaharlar bo‘yicha sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlariga yagona yer solig‘i bazaviy stavkalari

Tuman, shahar	1 ga I toifa yer uchun bazaviy soliq stavkalari (so‘mlarda)	Tuman, shahar	1 ga I toifa yer uchun bazaviy soliq stavkalari (so‘mlarda)
---------------	---	---------------	---

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**

Amudaryo	4488,6	Taxtako‘pir	3862,8
Beruniy	4488,6	To‘rtko‘l	4488,6
Qanliko‘l	3596,9	Xo‘jayli	3794,4
Qorao‘zak	3769,5	Chimboy	3596,9
Kegayli	3794,4	Shumanay	3941,9
Qo‘ng‘irot	3517,1	Ellikqal‘a	4290,8
Mo‘ynoq	3517,1	Nukus sh.	4415,7
Nukus	3794,4		

**Qashqadaryo viloyati**

Dehqonobod	3161,3	Nishon	3327,6
Qamashi	5447,3	Chiroqchi	5201,0
Qarshi	4437,5	Shahrisabz	8239,5
Koson	3200,9	Yakkabog‘	5617,7
Kasbi	4160,1	Kitob	5161,5
Mirishkor	3082,4	Muborak	2666,6
G‘uzor	4290,8		

**Namangan viloyati**

Kosonsoy	7016,3	Uychi	6726,2
Mingbuloq	4163,9	Uchqo‘rg‘on	6671,7
Namangan	7966,7	Chortoq	5701,1
Norin	6671,3	Chust	5581,7
Pop	5701,1	Yangiqo‘rg‘on	5701,1
To‘raqo‘rg‘on	6096,9		

**Sirdaryo viloyati**

Oqoltin	4041,0	Sirdaryo	4357,4
---------	--------	----------	--------



Boyovut	4259,1	Xovos	2594,7
Guliston	4131,3	Sardoba	3537,3
Mirzaobod	3062,3	Guliston sh.	4131,3
Sayxunobod	4290,8	Yangier sh.	3783,6

30adval

Yagona yer solig'i bazaviy stavkalariga tuzatish koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Koeffitsientlar
<b>Sug'oriladigan yerlar</b>	
0-10 ball-bonitet	(bazaviy stavka)
11-20	1,50
21-30	2,25
31-40	3,29
41-50	4,67
51-60	6,54
61-70	9,00
71-80	11,68
81-90	14,55
91-100	17,50
Baholanmagan yerlar	4,67
<b>Lalmikor yerlar</b>	
Tekislik zonasi	(bazaviy stavka)
Tekislik-tepalik zonasi	1,19
Tog'oldi va tog' zona	1,67
<b>Pichanzor va yaylovlar</b>	
"Cho'l" zonasi	(bazaviy stavka)
"Adir" zonasi	1,51
"Tog'" zonasi	2,05
<b>Jamoat binolari va hovlilari band qilgan yerlar</b>	
Sug'oriladigan yerlar stavkasi (I toifa) - bazaviy stavka	20,44
<b>Suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo'llar bilan band yerlar</b>	
Sug'oriladigan yerlar stavkasi (I toifa) - bazaviy stavka	0,04
<b>Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar</b>	
Sug'oriladigan yerlar stavkasi (I toifa) - bazaviy stavka	0,004

Qishloq xo'jaligi uchun belgilangan yerlarning maydoni yer tuzish xizmati tomonidan olib boriladigan yerlarni hisobga olish va yerlar inventarizasiyasining ma'lumotlari bilan qishloq xo'jalik ekinlari va yer maydonlarini o'lchash ma'lumotlari hamda maxsus loyihalash va qidiruv tashkilotlari olib borgan tekshirish ma'lumotlari bilan tasdiqlanishi kerak.

Hisoblangan yagona yer solig'i summasining miqdori qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari moliya-xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lmasdan, yer uchastkasi joylashgan tuman byudjetiga o'tkaziladi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilariga yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan boshlab to'lanadi.

Yer uchastkasi olib qo'yilganida (kamaytirilganida) sotib olinganida, sotiladigan soliq undirish yer uchastkasini olib qo'yish (kamaytirish), sotib olish amalga oshirilgan oydan boshlab to'xtatiladi (qisqartiriladi).

Yagona yer solig'i to'lovchilariga imtiyoz belgilanganida, ular ushbu huquq vujudga kelgan oydan boshlab soliq to'lamaydi.

Imtiyoz huquqi to'xtatilgan hollarda ushbu huquq to'xtatilgan oydan keyingi oydan boshlab soliq to'lanishi kerak.

Baliq yetishtiruvchi xo'jaliklar ham yagona soliqlari to'lashlari mumkin.

Baliq yetishtiruvchi xo'jalik - bu sun'iy suv havzalari-hovuzlari baliq ko'paytirish, o'stirish va ovlash bilan shug'ullanuvchi korxonalar. Ular tomonidan soliq quyidagi yerlar uchun to'lanadi.

- sun'iy baliq yetishtiriladigan hovuzlar bilan band yerlar: dunyoda sug'oroiladigan yerlar uchun belgilangan tuzatish koeffitsiyentlari qo'llaniladi, agar sifati aniqlanmagan bo'lsa, baholanmagan yerlar uchun belgilangan koeffitsiyentlar qo'llaniladi;

- dambalar va avraglar bilan band yerlar: bunda qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar uchun belgilangan tuzatish koeffitsiyentlari qo'llaniladi;

- kanallar, kollektorlar, yo'llarda boshqa suv xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar: bu holda suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo'llar uchun belgilangan tuzatish koeffitsiyenti qo'llaniladi.

Yagona yer solig'i to'lashga faqat baza stavkasi tasdiqlangan qishloq xo'jalik yerlari ega bo'lgan qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarini (baliq xo'jaliklar ham o'tishlari mumkin).

Hukumat qarori bilan qishloq xo'jalik korxonasi maqomi berilgan korxonalar mavjud. (masalan, Mashina Traktor Parki (MTP)). Bunday korxonalar yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalarini sifatida barcha soliqlar va majburiy to'lovlarni to'laydilar. Ammo bunday korxonalar yagona yer solig'i to'lashga o'tishlari mumkin emas.

### 12.3. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlar

Soliqqa tortilmaydigan yer uchastkalariga quyidagilar kiradi:

- qishloq aholisi yashaydigan joylardagi umumfoydalanishdagi yerlar;
- ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;
- sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, basseynlar, sportning texnik turlari ob'ektlari va boshqa fizkultura sog'lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish va sog'lomlashtirish joylari, sanatoriya va kurort muassasalari va dam olish uylari, o'quv-mashq bazalari;
- yangi o'zlashtirilayotgan va meliorativ holatini yaxshilash jarayonida bo'lgan loyihada ko'rsatilgan muddatga, lekin ish boshlangandagina boshlab 5 yildan oshmagan yerlar;
- ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash ob'ektlari bilan band yerlar;
- tut ko'chatlari o'tkazilgan yer maydonlari 3 yil muddatga, qator oralariga qishloq xo'jalik ekinlari ekilishidan qat'iy nazar;
- O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq soliqqa tortilmaydigan boshqa yerlar.

Yagona yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

- yangidan tashkil etilgan qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari, jumladan, fermer xo'jaliklari, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab 2 yil muddatga;
- daromad (foyda) va yer solig'i to'lashdan ozod etilgan boshqa qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar soliqni hisoblash varaqasini soliq inspeksiyasiga joriy yilning 1-fevraligacha taqdim qilishlari kerak. Soliq yilda uch marta, ya'ni yillik soliqning 20% dan kam bo'lmagan qismi 1 iyulgacha, 30% dan kam bo'lmagan qismi 1 sentyabrgacha va qolgan qismi 1 dekabrgacha to'lanishi lozim.

M i s o l :

"Sardorbek" fermer xo'jaligi Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi sug'oriladigan yer zonasida joylashgan. Yer maydoni 40 ga bo'lib, ball-boniteti 61-70 ballga teng, tuzatish koeffitsiyenti-9,00, 1 ga uchun baza stavkasi 1425,60 so'm.

Yagona yer solig'i summasi  $q 40 * 1425,60 * 9,00 = 513216$  so'm.

Shundan 1 iyulgacha 20% - 102643 so'm

1 sentyabrgacha 30% - 153965 so'm

1 dekabrgacha 50% - 156608 so'm

Yil davomida qishloq xo'jalik yerlarining tarkibi va maydoni o'zgarganida, hisobot yilining 1 dekabrigacha davlat soliq inspeksiyasiga yagona yer solig'ining yangi hisob-kitobi topshirilib, soliqning qolgan qismi shu hisob-kitobga muvofiq to'lanadi.

Yagona yer solig'ining hisoblangan summasi davr xarajatlariga olib boriladi. Byudjet bilan olib boriladigan hisob-kitob 6410 - "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik (turlari bo'yicha)" hisob schyotining "Yagona yer solig'i" analitik schyotida olib boriladi. Hisoblangan soliqning summasi shu schyotning kreditidan 9439-"Boshqa operasion xarajatlar" schyotining debetiga olib boriladi.

Yagona yer solig'ining to'lovchilari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq soliqning to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgardirlar.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Yagona yer solig'ini hisoblash formulasini yozib bering.
2. Yagona yer solig'i bo'yicha qanday yer uchastkalariga imtiyozlar bor?
3. Soliq stavkasiga tuproq ball boniteti qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Yagona yer solig'ining bazaviy stavkalariga qanday yerlar qabul qilingan

### **XIII – bob. ILMIY IZLANISHDA OMILLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI**

---

#### **13.1. Dehqonchilikda daromad, foyda, iqtisodiy samaradorlik va uni aniqlash usullari**

Iqtisodiy kategoriyalar salmog‘i va qiymatining o‘shishi korxonaning ham, davlatning ham iqtisodiyoti, samaradorlik yuksalishi negizidir. Shuning uchun bu masalaga respublikamizda alohida e‘tibor berilmoqda. Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq qishloq xo‘jalik mahsulotlarining xarid baholari imkoniyat dog‘irasida oshirilmoqda, tijorat banklaridan olinayotgan kreditlarni to‘lash muddatlari ayrim vaqtlarda biroz kechiktirilmoqda, qishloq xo‘jaligi korxonalariga kredit olishda, soliqlar to‘lashda imtiyozlar yaratilmoqda, chet el investitsiyalarini jalb etishda yordam ko‘rsatilmoqda. Bularning hammasi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini yuksalishini ta‘minlaydi. Buning uchun korxonalar o‘z faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy, tashkiliy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlarni vaqtida, sifatli o‘tkazishlari zarur.

Iqtisod fanlarida «samaradorlik» va «iqtisodiy samaradorlik» tushunchalari mavjud. Ular mamlakat, tarmoq, korxonalar, yo‘nalishlar hamda ayrim mahsulotlar bo‘yicha aniqlanishi mumkin. «Iqtisodiy samaradorlik» tushunchasi «samaradorlik» tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunga ega. Iqtisodiy samaradorlik deganda bir yil davomida (ma‘lum davrda) amalga oshirilgan tadbirlar tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar ular natijasida olingan sof foyda summasi bilan taqqoslanadi. Shunda sarflangan xarajatlar evaziga olingan sof foyda summasi qancha ko‘p bo‘lsa, iqtisodiy samaradorlik darajasi shuncha oshgan hisoblanadi va aksincha. Samaradorlikni esa u yoki bu tadbirlarni, ishlarni mahsulotlarni etishtirish natijasida erishilgan yutuqlar ifodalaydi. Masalan, mahalliy va mineral o‘g‘itlardan, yem-xashaklardan foydalanish natijasida hosildorlikning oshishi va boshqalar. Demak, «samaradorlik» hamda «iqtisodiy samaradorlik» kategoriyalari bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Ularni yuksaltirish uchun korxonalar barcha masalalarni ijobiy hal etishlari lozim. Korxonalar faoliyatining samaradorligi oshsa, mamlakatimizning iqtisodiyoti, xalqimizning turmush darajasi yuksaladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining pul va yalpi daromadlari, yalpi hamda sof foyda summalarini, ishlab chiqarish faoliyatining rentabelligini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki shu ko‘rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyati moliyaviy tahlil qilinadi. Ular bilan mamlakat hamda korxonalar iqtisodiy bevosita bog‘liq. Ularni aniqlashda bir qancha ma‘lumotlardan

foydalaniladi. Korxonaning ma'lum bir davrdagi pul daromadi (tuShumlari) jami sotilgan mahsulotlar, xizmatlar miqdorini ularning haqiqiy baholariga ko'paytirish natijasida aniqlanadi. Unda ushbu formuladan foydalanish mumkin:

$$Pd = C_m \times Mb$$

Bunda: Pd – pul daromadi (so'mda);

$C_m$  – sotilgan mahsulotlar, xizmatlar miqdori (tonna, sent.);

$M_b$  – sotilgan mahsulotlarning, qilingan xizmatlarning baholari, tariflari.

Korxonaning yalpi daromadi yoki yangitdan yaratilgan qiymat summasini yalpi mahsulot qiymatidan ishlatilgan asosiy vositalarning eskirgan qiymatini, ya'ni amortizatsiya summasini (S) ayirish natijasida aniqlash mumkin. Uning formulasi quyidagicha:

$$(C + V + m) - C = V + m$$

Bunda: S – asosiy vositalarning amortizatsiyasi summasi, so'mda;

V – ish haqi fondi, so'mda;

m - qo'shimcha qiymat, so'mda.

Korxonaning yalpi foydasi mahsulot sotish(xizmat ko'rsatish)dan tushgan pul daromadalaridan Shu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni ayirish natijasida aniqlanadi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$Y\phi = C_d - C_m \quad \text{Bunda: } Y\phi - \text{yalpi foyda, so'mda;}$$

$C_d$  – mahsulot sotishdan, ish, xizmat ko'rsatishdan tushgan pul, so'mda;

$C_m$  –sotilgan mahsulot uchun sarflangan ishlab chiqarish xarajatlari, so'mda.

Korxonaning sof foydasi yalpi foyda summasidan davr xarajatlari, ko'zda tutilmagan xarajatlar, moliyaviy xarajatlar summasini ayirish natijasida aniqlanadi. Buni ushbu tenglik yordamida aniqlash mumkin:

$$C\phi = Y\phi - (D_x + M_x + K_x)$$

Bunda:  $C\phi$  – sof foyda summasi;

$D_x$  – davr xarajatlari, so'mda;

$M_x$  – moliyaviy xarajatlar summasi, so'mda;

$K_x$  – ko'zda tutilmagan tasodifiy xarajatlar, so'mda.

Korxonada ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkich rentabellik hisoblanadi. Uning darajasini aniqlash uchun sof foyda summasini tannarx yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga taqsimlab, 100% ga ko'paytiriladi. Uning tengligi quyidagicha:

$$Pd = \frac{C\phi}{C_m} \times 100\% , \text{ Bunda: } Rd - \text{rentabellik darajasi, foizda.}$$

Bu ko'rsatkich yordamida korxonada, tarmoq miqyosida alohida mahsulotlarni yetishtirish uchun qilingan ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy samaradorlik darajasi aniqlanadi. Shu usul yordamida 1 so'mlik ishlab chiqarish xarajatlari evaziga olingan sof foyda summasi aniqlanadi. Buning uchun olingan sof foyda summasi ishlab chiqarish xarajatlariga taqsimlanishi lozim. Bu ko'rsatkichlar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik darajasi ham yuqori, ya'ni yaxshi ekanligidan dalolat beradi.

Korxonada faoliyatining rentabellik me'yori, umumiy iqtisodiy samaradorligi ham aniqlanishi mumkin. Bunda ishlab chiqarishda qatnashadigan yerlarning ham, asosiy vositalarning ham qiymatlari hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir. Yerning qiymati esa qishloq xo'jalik yerlari qiymatini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma yordamida aniqlanadi. Bunda rentabellik me'yori ushbu tenglik yordamida aniqlanishi mumkin:

$$P_H = \frac{C\phi}{A\alpha\phi + (A\alpha\phi \cdot E_K) + E_K} \times 100\%$$

Bunda:  $P_H$  – rentabellik me'yori, foizda;

$A\alpha\phi$  – aylanma fondlarning o'rtacha yillik qiymati, so'mda;

$A\alpha\phi$  – asosiy fondarning o'rtacha yillik qiymati, so'mda;

$C\phi$  – asosiy fondlarning iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti (0,12);

$E_K$  – yerning qiymati, so'mda.

Bu ko'rsatkich yordamida korxonada ixtiyoridagi barcha ishlab chiqarish resurslaridan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanganlik darajasi aniqlanadi.

### 13.2. Qishloq xo'jaligi daromadlari, yalpi va sof foydasi

Qishloq xo'jaligida bozor iqtisodi munosabatlari bosqichma-bosqich davlat rahbarligida shakllantirilmoqda. Unga tarmoqda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar dalil bo'ladi. Masalan, baholar, soliqlar, kreditlar tizimidagi islohotlar.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti, barcha xarajatlari, shuningdek, pul daromadlari ham ortib bormoqda. Lekin qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholariga nisbatan sanoat mahsulotlari baholarining o'sish darajasi yuqori bo'lganligi uchun tarmoqda olinayotgan sof foyda summasi doimo ham ortayotgani yo'q. Masalan, qishloq xo'jalik mahsulotlarining 1991-1998 yillarda o'rtacha sotish bahosi 15150,9 martaga oshgan bo'lsa, sanoat mahsulotlarining o'rtacha sotish baholari 134431 martaga oshgan. Ular o'rtasidagi mutanosibat 1:8,9 ga teng. Bunday hol qishloq xo'jaligida foydaning kamayishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari qishloq xo'jaligi korxonalarida barcha ishlab chiqarish resurslaridan yetarli darajada yaxshi foydalanmagan. Shularning oqibatida Qishloq va suv

xo'jaligi vazirligi tarkibidagi tarmoq korxonalari xo'jalik faoliyatini 1996 yilda 11153,5 mln.so'm, 1997 yilda esa 16111,3 mln.so'm zarar bilan yakunlagan. Shu yillar ichida faqatgina Andijon va Farg'ona viloyatlaridagi xo'jaliklarning umumiy faoliyati foyda bilan yakunlangan.

Qishloq xo'jaligida so'nggi yillardagi iqtisodiy islohotlar ijobiy natija bermoqda. Jumladan, ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalanish natijasida tarmoqning yalpi mahsuloti hajmi keskin oshdi. Shu bilan birga qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholari ham anchaga ko'tarildi. Lekin xarajatlar summasi ko'p oshmadi. Natijada tarmoqning sof foydasi ortib, 2008 yili 111,7 mlrd.so'mni tashkil etdi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi korxonalarining rentabelligi 26,9% ga etdi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorlik darajasiga bir qancha omillar ta'sir etadi.

Iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar:

- qishloq xo'jaligi yerlarining holati, ulardan foydalanish darajasi;
- xo'jaliklarning ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish darajasi;
- mehnat resurslari, ulardan foydalanish hamda rag'batlantirilishi;
- ishlab chiqarishning intensivlashganlik darajasi;
- chorva hayvonlari, ularning mahsuldorligi;
- baholar, soliqlar, to'lovlar darajasi;
- suv resurslari, ulardan foydalanish darajasi;
- davlat, mahalliy byudjetdan ajratilayotgan mablag' va boshqalar.

Tarmoqda ishlab chiqarilgan o'simlikchilik mahsulotlarini (ayniqsa bug'doy, paxta xom-ashyosi) sotish xajmining oshishi hamda ularning narxlarining oshishi natijasida shirkat va fermer xo'jaliklarining pul tushumlari oshib borgan.

Lekin shu sotib olingan mahsulotlar uchun mablag'ning o'z vaqtida yetkazib berilmayotganligi uchun xo'jaliklarning pul tushumlari tez sur'lar bilan oshayotgani yo'q. Demak, kelajakda tovar pul munosabatlarini, ya'ni to'lov tizimini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor berish lozim. Endilikda, paxta tozalash don mahsulotlari uchun mablag'ni kontraktatsiya shartnomalarida ko'rsatilgan muddatlarda to'lashlari zarur. Shuning uchun kelajakda barcha erkin bozor munosabatlarini o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlashga harakat qilish maqsadga muvofiqdir. Hisob-kitoblarga ko'ra, qishloq xo'jaliklari korxonalari o'simlikchilik mahsulotlari xajmini 2004 yildan boshlab oshirishga erishganlari munosabati bilan o'zlarining yalpi va sof foyda summasini ko'payishini kutmoqdalar. Ayniqsa, sof foyda summasininig ko'payishi korxonalarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlanishini ta'minlash bilan birgalikda ularning mehnat resurslarini



rag‘batlantirish ham ta‘minlash imkoniyatini beradi. Bu hol o‘z navbatida aholini turmush darajasini yuksalishini ta‘minlaydi.

### **13.3. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari**

Qishloq xo‘jaligining pul daromadlarini, yalpi va sof foydalarini kelajakda yanada ko‘paytirish uning barcha tarmoqlarida bozor iqtisodi talablariga mos keladigan tashkiliy, texnikaviy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimi hayotga o‘z vaqtida, sifatli tatbiq etilishini ob‘ektiv ravishda taqozo etadi.

Qishloq xo‘jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari.

1. Qishloq xo‘jaligida yalpi hosilni ko‘paytirish va uning sifatini yaxshilash tadbirlari:

- ekinlarning serhosil navlarini, chorva hayvonlarining esa sermahsul zotlarini yaratish, ularni ishlab chiqarishga joriy etishni tezlashtirish;

- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ekinlarni suv bilan ta‘minlash tadbirlarini rivojlantirish;

- chorva hayvonlarini sifatli ozuqa bilan ta‘minlash va oziqlantirishni talab darajasida amalga oshirish;

- ekologiyani e‘tiborga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy, madaniy o‘g‘itlardan hamda kimyoviy vositalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni talab darajasida ta‘minlash;

- mahsulotlarning sifatini, ularni tashish va saqlash jarayonlarini yaxshilash tadbirlarini tezkorlik bilan amalga oshirish va boshqalar.

2. Qishloq xo‘jaligida moddiy, mehnat va pul xarajatlari tejallishini ta‘minlovchi tadbirlar:

- ishlab chiqarishni samarali joylashtirish, ixtisoslashtirish va tashkil etishni jadallashtirish;

- yangi texnikalarni, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, mavjud ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish natijisida ish jarayonlarini to‘liq mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish;

- ishchi-xizmatchilarni rag‘batlantirish tizimini rivojlantirish;

- davr hamda moliyaviy xarajatlarni imkoniyat darajasida kamaytirish va boshqalar.

3. Bozor iqtisodi munosabatlarini qishloq xo‘jaligiga joriy etishni erkinlashtirish va jadallashtirish tadbirlari:

- sanoat hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni, sotishni erkinlashtirish, ular o‘rtasidagi ekvivalentlikni ta‘minlovchi tadbirlar joriy etilishini jadallashtirish;

- nodavlat mulkchilik shakllari barpo etilishiga asoslangan tadbirkorlik turlarini rivojlantirish;

- investitsiyalar jalb etilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;

- birjalarning turlarini rivojlantirish;

- sug'urta ishlarini rivojlantirish va boshqalar.

Bu tadbirlar, avvalo, etishtiriladigan mahsulotlar miqdorini talab darajasida ko'paytirishga va ularning sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi zarur. Mahsulotlar miqdori ekin maydonlarini kengaytirish hamda ularning hosildorligini oshirish hisobiga ko'paytirilishi mumkin. Ekin maydonlarini ko'paytirish uchun yangi yerlarni o'zlashtirish talab etiladi, lekin bu tadbir bizning mamlakatimizda juda cheklangan. Shuning uchun asosiy e'tiborni ekinlarning hosildorligini oshirishga qaratish zarur. Buning uchun ekinlarning yangi, serhosil, tezpishar navlarini yaratish, irrigatsiya, melioratsiya, agrotexnik, kimyoviy tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish natijasida tuproqning unumdorligi oshishini ta'minlash lozim. Shu bilan birgalikda ekinlarni almashlab ekishni ilmiy asoslangan holda keng joriy etish maqsadga muvofiq. Alohida e'tibor ishchi-xizmatchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga qaratilishi zarur.

Yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni hayotga joriy etish natijasida jonli mehnat xarajatlari kamayishini isbotlash lozim. Bu jarayonning ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, agrosanoat integratsiyasining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqligini isbotlash zarur. Chorva hayvonlari mahsuldorligini ham oshirish lozim. Buning uchun naslchilik ishlarini yo'lga solish zarur. Chorva hayvonlarini to'yimli yem-xashak bilan ta'minlashga erishish maqsadga muvofiqdir. Bu tarmoqda ham barcha xarajatlarni qisqartirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar sifatli amalga oshirilishini ta'minlash zarur.

Yalpi foydaning ko'payishi mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kamayishini taqozo etadi. Shuning uchun mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan bo'limlar, tashkilotlar sonini qisqartirib, bevosita aloqalarga o'tishni ta'minlash lozim. Hozirgi davrdagi mavjud bo'lgan yagona yer solig'ini, to'lovlar, kredit stavkalarini tartibga solish natijasida sof foyda summasi ko'payadi. Yuqorida a'kidlangan iqtisodiy kategoriyalarning ko'payishi, rivojlantirilishi, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligi oshishini ta'minlaydi.

Tarmoqda ishlab chiqarilgan o'simlikchilik mahsulotlarini (ayniqsa bug'doy, paxta xom-ashyosi) sotish xajmining oshishi hamda ularning narxlarining oshishi natijasida fermer xo'jaliklarining pul tuShumlari oshib borgan. Lekin Shu sotib olingan mahsulotlar uchun mablag'ning o'z vaqtida yetkazib berilmayotganligi uchun xo'jaliklarning pul tuShumlari tez sura'tlar bilan oshayotgani yo'q. Demak, kelajakda tovar pul munosabatlarini, ya'ni to'lov tizimini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor berish lozim. Endilikda, paxta tozalash don mahsulotlari uchun mablag'ni kontraktatsiya shartnomalarida ko'rsatilgan muddatlarda to'lashlari zarur.

Shuning uchun kelajakda barcha erkin bozor munosabatlarini o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlashga harakat qilish maqsadga muvofiqdir. Hisob-kitoblarga ko'ra, qishloq xo'jaliklari korxonalari o'simlikchilik mahsulotlari xajmini 2004 yildan boshlab oshirishga erishganlari munosabati bilan o'zlarining yalpi va sof foyda summasini ko'payishini kutmoqdalar. Ayniqsa, sof foyda summasininig ko'payishi korxonalarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlanishini ta'minlash bilan birgalikda ularning mehnat resurslarini rag'batlantirish ham ta'minlash imkoniyatini beradi. Bu hol o'z navbatida aholini turmush darajasini yuksalishini ta'minlaydi.

#### **13.4.O'g'itlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.**

Ilmiy agronomiyada olib boriladigan ilmiy izlanish va tadqiqotlarda o'rganilayotgan omilga aniq baho berish, taxlil qilish uchun natijalarini jixatdan baxolash lozim. Hamma turdagi agronomik ilmiy izlanishlarda yuqorida aytib o'tganimizdek omil ta'sirida olingan qo'shimcha hosil, uning daromadidan va shu hosildorlikni yaratish uchun sarf bo'lgan jami xarajatlar (tan narx)ni oshirish evaziga aniqlaniladi. Bugungi kunda ekin hosildorligini oshirishda eng ko'p hissa qo'shadigan omil ma'danli o'g'itlar xisoblanadi. Quyida o'g'itlarni g'o'za o'simligi hosildorligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan dala tajribasi misolida iqtisodiy samaradorlikni aniqlash ko'rsatib o'tilmoqda.

O'g'itlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda, avvalo xo'jalikni yillik xisoboti, dastlabki hujjatlar, me'yoriy ko'rgazmalar, ma'lumotlar, texnologik xarita va boshqa hujjatlardan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni ilmiy asosda aniqlash uchun o'g'itlar bilan bog'liq bo'lgan va sarflangan barcha moddiy pul mehnat xarajatlarini hamda o'g'it evaziga olingan qo'shimcha hosildorligikni aniq hisoblash lozim.

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashning asosiy maqsadi, har gektar qishloq xo'jalik yeridan ko'proq mahsulot etishtirish, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini yaxshilash evaziga qo'shimcha miqdorini oshirish mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mehnat, pul va moddiy resurslarni tejab tergab sarflash, mehnat unumdorligini o'sib borishini ta'minlash, mahsulot yoki ish birinchi tannarxini kamaytirish, qishloq xo'jalik xodimlarining moddiy farovonligini oshirishga erishishdan iboratdir.

Qishloq xo'jaligida o'g'itlar qo'llashning iqtisodiy samaradorligini xisoblashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

-Qishloq xo'jalik agrokimyo ta'minot birlashmasi tomonidan o'g'itning fizik holdagi har bir tonnasi uchun belgilangan narx va ustama baho.

-O'g'itlarning markaziy ombordan xo'jalikka tashib keltirish uchun sarflangan xarajatlar.

-Mahsulot birligini yig'ishtirish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish uchun qilingan xarajatlar.

-O'g'it qo'llash, hosilni yig'ishtirish, o'g'itni yerga solishga tayyorlash, ularni mexanizatsiya qo'l mehnati yordamida bajarish va boshqa sarf xarajatlar.

Mineral o'g'itlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun talab qilinadigan omillar quyidagilardan iborat:

$U_n$  – mineral o'g'itning narxi, so'm

$U_t$  – o'g'itni xo'jalikka tashib keltirish xarajat, so'm

$U_s$  – saqlash xarajatlari, so'm

$U_x$  - tuproqqa solish xarajatlari, so'm

$Q_q$  – qo'shimcha hosilni yig'ishtirish xarajatlari, so'm

$Q_x$  – qo'shimcha hosilni xarid bahosi, so'm

$S$  – sof foyda

$$S = Q_x - (U_n + U_t + U_s + U_x + Q_q)$$

Mineral o'g'itni qo'llash evaziga olingan sof daromad, o'g'itni qo'llash evaziga olingan qo'shimcha hosilni so'm qiymatdan, o'g'itni qiymatidan boshlab uni solishga bog'liq bo'lgan jami xarajatlarni chiqarib yuborish evaziga aniqlaniladi.

O'g'itlarning iqtisodiy samaradorligini yanada aniqroq hisoblash uchun sarf qilingan bir so'm evaziga olingan sof daromad hamda rentabellik darajasini ham hisoblab chiqarish maqsadga muvofiqdir.

31-jadval

O'g'itlarni iqtisodiy samaradorligini aniqlash

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	O'g'it turlari bo'yicha			Jami
			azotli	Fosforli	kaliyli	
1	O'g'it qo'llanildi	Kg/ga				
2	Hosildorlik	s/ga				
3	O'g'it evaziga olingan qo'shimcha hosildorlik	s/ga				
4	O'g'it narxi	So'm				
5	O'g'itni qo'llash bilan bog'liq jami xarajatlar	So'm				
5.1	O'g'it saqlash uchun	So'm				
5.2	O'g'itni solishga tayyorlash uchun ketgan	So'm				
5.3	O'g'itni solish uchun	So'm				
6	Qo'shimcha hosilni yig'ishtirish bilan bog'liq barcha xarajatlar	So'm				

7	Qo‘shimcha hosilga ketgan xarajatlar	so‘m				
8	Qo‘shimcha hosilni bahosi	So‘m				
9	O‘g‘it solish evaziga olingan sof daromad (foyda)	So‘m				
10	1 kg sof xoldagi oziqa elementi xisobiga olingan hosil	Kg				
11	Sarf qilingan 1 so‘m evaziga olingan sof daromad	So‘m				
12	Rentabellik	%				

Ilmiy izlanishlar yakunlangandan so‘ng o‘g‘itlardan foydalanishning rentabellik darajasini to‘g‘ri hisoblab topish uchun quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$R_U = \frac{C}{X} - \% \quad \text{Bunda } R_U - \text{Rentabellik darajasi, \%}$$

C-sof daromad, so‘m

X – jami xarajatlar yig‘indisi, so‘m.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi nima va uni aniqlash formulasini yozing.
2. Qishloq xo‘jalik korxonasining pul daromadi va uni qanday aniqlash mumkin.
3. Qishloq xo‘jalik korxonasining yalpi foydasi nima u qaysi qormula yordamida aniqlanadi.
4. Sof foyda qanday aniqlanadi?
5. Fermer xo‘jalikda rentabellik qanday aniqlanadi?
6. Dehqonchilikda iqtisodiy samaradorlikka ta‘sir qiluvchi omillar ayting?
7. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari
8. Bozor iqtisodiy munosabatlarini qishloq xo‘jaligiga joriy etish ni jadallashtirish yo‘llari
9. O‘g‘itlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun kerakli omillar.
10. Ma‘danli o‘g‘itlardan iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uchun kerakli omillar
11. Tajribada olingan sof foyda va u qaysi formula yordamida aniqlanadi.

## II – QISM. AMALIY MASHG‘ULOTLAR

### 1-MASHG‘ULOT

---

#### YER TURKUMLARINING ATAMALARI

Yer turkumlarining atamaları qishloq, suv, o‘rmon xo‘jaliklarida yer fondidan foydalanishda, uni muhofaza qilishda monitoring, kadastr, yer tuzish, tuproqshunoslik, rekultivatsiya, melioratsiya, geodeziya, kartografiya ilmiy-loyiha ishlarini bajarishda va yer munosabatiga aloqador boshqa ishlarda foydalaniladi.

Yer turkumlarining atamaları qo‘yidagilardan iborat:

**Qishloq xo‘jalik yer turlari** - qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun foydalanadigan yer turlaridir. Qishloq xo‘jalik yer turlariga: ekin yerlar, bo‘z yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar, pichanzor va yaylovlar kiradi;

**Ekin yerlar** - qishloq xo‘jalik ekin turlari ekilib, uzluksiz foydalaniladigan yerlar, ya‘ni bularga ekilgan ko‘p yillik o‘tlar va dam berish uchun qoldirilgan shudgor yerlar ham kiradi. Pichanzor va yaylovlarni yaxshilash maqsadida haydalib, chorva uchun ekilgan o‘tlar va daraxtlar orasida ekilgan maydonlar ekin yerlar turiga kirmaydi.

**Ko‘p yillik daraxtzorlar** - sun‘iy ravishda ekilgan mevali, ko‘p yillik daraxtzorlar, butazorlar yoki o‘tsimon ko‘p yillik o‘simliklar, mahsulot beradigan dorivor, texnik daraxtzorlar; bog‘lar, uzumzorlar, tutzorlar, mevali ko‘chatzorlar kiradi;

**Bog‘lar** - Meva hosili olish uchun ekilgan ko‘p yillik daraxtzorlar;

**Uzumzorlar** - Uzum olish maqsadida ekilgan tokzorlar;

**Mevazor** – ko‘p yillik madaniy mevali ko‘chatzorlar;

**Uzum ko‘chatzorlari (tokzorlar)** - uzum ko‘chatlari-toklarni yetishtiradigan yer maydonlari. Bunga tok qalamchalarini ajratish va novdalarni ekish joylari, uzum ko‘chatlari-toklarni parxish qilish yerlari kiradi;

**Plantatsiya** - Maxsus texnik, dorivor, mevali daraxtlar, manzarali gullar va gul ko‘chatlari yetishtiradigan yer maydonlari. Plantatsiyalardan tut va boshqa turdagi ko‘chatlar ekish uchun foydalaniladi;

**Bo‘z yerlar** - Muntazam ekin ekilib kelingan, bir yil va undan ortiq davrda (kuzdan-kuzgacha) haydalmagan va foydalanilmay qolgan yerlar;

**Pichanzorlar** – uzluksiz pichan o‘rib turiladigan qishloq ho‘jalik yerlari;

**Yaylovlar** – qishloq ho‘jaligida chorva mollarini uzluksiz boqish uchun foydalaniladigan yerlar;

**Tubdan yaxshilangan pichanzorlar** - chorva mollari iste‘mol qiladigan o‘tlarni boyitish maqsadida maxsus o‘t urug‘lari sepilgan hamda saksovul va butazorlar tashkil qilingan yer maydonlari;

**Madaniylashtirilgan yaylovlar** - Zaruriy ma‘lum ishlov berilgan, doimo o‘g‘itlanib, chorva mollari uchun o‘t o‘sishi yaxshilangan va vaqti-vaqti bilan chorva mollari boqiladigan haydaladigan yaylovlar;

**Tog‘ yaylovlari**- Tog‘lik yerlarda joylashgan yaylovlar;

**Chorva mollari haydaladigan yaylovlar** - xo‘jalik markazidan uzoq muddatga (butun mavsum davomida) chorva mollari o‘tlash uchun haydaladigan yaylovlar;

**Suv bilan ta‘minlangan yaylovlar** - mavjud chorva mollarini suv bilan ta‘minlay oladigan, suv manbaiga ega bo‘lgan yaylovlar. Daryolar, ko‘llar va kanallar atrofida joylashgan yaylovlar suv bilan ta‘minlangan hisoblanadi;

**O‘rmon yer maydonlari** - o‘rmon daraxtlari bilan qoplangan, shuningdek, o‘rmonga qo‘shilmagan yakka daraxtlar, jarliklar atrofiga ekilgan daraxtlar, qiyalik, balandlik, daryo qirg‘oqlariga, suv xavzalari atroflarida, qumliklar yonlarida, o‘rmon-bog‘ yerlari, o‘rmon ko‘chatzorlari, shuningdek, daraxtlari kesib olingan o‘rmon yerlari, ochiq qolgan yerlar, siyraklashib qolgan o‘rmonlar, yog‘och kesish uchun ajratilgan yerlar va yong‘indan nobud bo‘lgan (kuygan) o‘rmon daraxt ko‘chatlari yerlari.

**O‘rmon bilan band bo‘lgan yerlar** - daraxt butazor (daraxtsimon) o‘simliklar bilan qoplanib, 0,3 dan 1 miqdorda to‘liqlikda ekilgan o‘rmon yer maydonlari (Davlat standarti 17.5.1.05-80).

**O‘rmon o‘simliklari** - sun‘iy ravishda tashkil etilgan o‘rmon uchun mo‘ljallangan daraxt ko‘chatlari;

**Tarqoq o‘rmon o‘simliklari** - sun‘iy ravishda tashkil etilib, o‘rmon yer maydonlariga o‘tkazilgan yerlar;

**O‘rmon ko‘chatlari** - o‘rmon uchun ko‘chat yetishtiradigan yer maydonlari. O‘rmon uchun ko‘chatzorlar: urug‘likdan olinadigan ko‘chatzor, ko‘chat ekish uchun yer bo‘limlari, birlamchi (boshlang‘ich) ko‘chat ekish yerlari, ko‘kargan qalamchalar va qalamcha qilib ekiladigan ko‘chatzor bo‘limlariga bo‘linadi;

**O‘rmon mintaqalari** - yerlarni tabiat shamol va iqlim noqulayliklaridan asrash maqsadida qator-qator qilib ekiladigan o‘rmon daraxtzor yer maydonlari;

**Ihota daraxtzorlari** - almashlab ekish maydonlarini shamoldan to‘shish, sug‘oriladigan va quritish inshootlari ta‘sirida tuproq eroziyasidan saqlash, qurg‘oqchilikdan va boshqa tabiiy noqulayliklardan asrash maqsadida ekiladigan o‘rmon mintaqalari;

**Qumliklarni himoya qiladigan daraxtzorlar** - qumlarni shamol eroziyasidan saqlash maqsadida ekilgan oʻrmon daraxtlari;

**Botqoqlik** - yer osti suvlari koʻtarilishi hamda yogʻingarchilik natijasida tuprogʻining ustki qatlami sernam boʻlib ketgan yerlar botqoqlik hisoblanadi;

**Jarlar** - yer qatlamining eroziya taʼsirida yomon joylashganligi yoki tuproq quyi qatlamlarining genetik holati va qiya tesikligi 1 metrdan koʻp boʻlgan yerlar.


**Nazorat savollari:**

1. Yer turlari deganda nimani tushunasiz?
2. Yaylovlarni turlari haqida gaprib bering.
3. Qishloq xoʻjalik yer turlariga qaysi yerlar kiradi?



### YER MIQDORINI HISOBINI OLIB BORISH. YER FONDNING YER KADASTRIGA BOG'LIQLIGI

O'zbekiston Respublikasida yer – davlat mulki – umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi. Davlat yerning asosiy xo'jayini sifatida yer fondiga egalik qilish, ulardan to'g'ri foydalanishni ham yuritishi zarur. Shunday qilib yer kadastirining ob'ekti – bu mamlakat yagona yer fondidir, ya'ni kimning ixtiyorida bo'lishidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasidagi barcha yerlardir. Yer fondi yerlardan foydalanishning asosiy maqsadiga qarab quyidagi toifalarga bo'linadi:



**2-rasm. O'zbekiston respublikasi yer fondining toifalari bo'yicha taqsimlanishi (R. Qo'ziyev ma'lumoti bo'yicha).**

- qishloq xo'jaligi yerlari - qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun yoki ana shu maqsadlariga mo'ljallangan yerlar
- aholi punktlarining yerlari (shaharlar, posyolkalar, qishloq aholi punktlari) shahar va posyolka chegaralari dog'iralaridagi va qishloq aholi punktlari chegaralari dog'iralaridagi yerlar

- sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar
- tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar
- tarixiy – madaniy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar
- o'rmon fondi yerlari
- suv fondi yerlar.
- zaxira yerlar.

32-jadvalda O'zbekiston Respublikasi yagona yer fondining yer toifalari bo'yicha taqsimlanishi keltirilgan.

32-jadval

Respublika yer fondining yer toifalari bo'yicha taqsimlanishi

	Yer toifalari	Umumiy maydon	
		ming ga	%
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	22570,4	50,8
2	Aholi yashash joylari	237,2	0,5
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlar uchun berilgan yerlar	1894,3	4,3
4	Tabiatni muxofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya va tarixiy madaniy ahamiyatdagi yerlar	72,5	0,2
5	O'rmon fondi yerlari	8597,4	19,4
6	Suv fondi yerlari	825	1,8
7	Zaxira yerlar	10213,4	23,0
	Jami foydalanilayotgan yerlar	44410,3	100
	Bundan tashqari, O'zbekistonning qo'shni respublikalardagi foydalaniladigan yerlari	18,9	
	Boshqa respublikalarning O'zbekistondagi foydalaniladigan yerlari	505,5	
	Respublika ma'muriy chegarasidagi jami yerlar	44896,9	

Jadvaldagi ma'lumotdan ko'rinadiki, umumiy yer maydonining 50,8% ini qishloq xo'jaligi yerlari tashkil etadi.

### 1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar

Bu toifaga qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanadigan yoki shu maqsadga mo'ljallab qishloq xo'jaligi korxonalari, tashkilotlari, muassasalari va fuqarolarga ajratib berilgan yerlar kiradi. 2006 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining soni fermer xo'jaliklari bilan birga olganda **125927 ta** bo'lib, ularga berkitib

berilgan yerlarning umumiy maydoni **22371,3 ming** gektarni yoki respublika yer fondining **50,4 foizini**, qishloq xo‘jalik yer turlari maydoni esa **17288,0 ming** gektarni, shundan **3288,0 ming** gektari sug‘oriladigan ekin yerlarini tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanadigan yerlar respublika uchun eng qimmatli yerlar hisoblanadi.

Respublika hududida qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanadigan yerlarni taqsimlanishi tabiiy-iqlim omillariga asoslanib belgilanadi. Ularning maydonlari xo‘jalik yer turlari bo‘yicha 3-jadvalda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi esa 33-jadvalda keltirilgan.

33-jadval

Qishloq xo‘jalik korxonalar va tashkilotlarining yerlarini  
xo‘jalik turlari bo‘yicha taqsimlanishi

№	Qishloq xo‘jalik korxonalar va tashkilotlari	Jami maydon		shundan sug‘oriladigan	
		ming ga	foiz	ming ga	foiz
1	Kooperativ (shirkat) xo‘jaliklarining yerlari	21893,7	97,9	4032,6	96,0
2	Boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalar va tashkilotlari yerlari	245,4	1,1	62,3	1,5
3	Qishloq xo‘jalik, tajriba va ilmiy-tadqiqot muassasalari yerlari	113,6	0,5	57,5	1,4
4	Yordamchi xo‘jaliklar yerlari	112,5	0,5	44,8	1,1
5	Xususiylashtirilgan fermalar yerlari	6,1	0	3,4	0
	Jami qishloq xo‘jalik korxonalar va tashkilotlari yerlari	22371,3	100	4200,6	100
	shu jumladan, fermer xo‘jaliklariga ijaraga berilgan yerlar	3995	17,9	2249,5	53,6

Bu jadvalda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishni tashkil etish va yuritishning asosiy shakli sifatida fermer xo‘jaliklari salmog‘ining oshganligini ko‘ramiz. O‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklar hisobidagi jami yer maydonlari 709,2 ming gektarga, shundan sug‘oriladigani esa 421,9 ming gektarga ko‘paygan.

**Ekin yerlar.** Ekin yerlari ikki turga bo‘linadi: sug‘oriladigan va lalmi yerlar.

### Sug'oriladigan ekin yerlar

Qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari bilan sug'orishni ta'minlay oladigan hamda sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi.

34-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha sug'oriladigan ekin yerlarining taqsimlanishi (dinamikasi) (ming ga)

Viloyatlar	01.01. holatiga yer maydoni										1997-2006 y farqi
	1997 y.	1998 y.	1999 y.	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	
Qoraqalp. Respublik.	428,9	420,4	418,2	419,2	419,6	419,5	419,9	419,7	419,5	419,4	-9,5
Andijon	202,5	202,2	200,7	199,1	198,2	197,4	196,8	196,5	196,8	198,3	-4,2
Buxoro	201,3	201,5	201,0	200,3	199,6	199,6	199,4	199,4	199,6	199,6	-1,7
Jizzax	251,8	254,2	253,9	256,6	258,2	259,8	259,8	259,9	259,6	260,4	+8,6
Qashqadaryo	418,3	418,5	418,1	417,7	417,1	417,6	418,4	418,2	418,7	421,6	+3,3
Navoiy	92,2	91,6	91,9	92,1	91,4	91,6	91,3	90,5	90,2	89,7	-2,5
Namangan	199,0	197,9	198,3	197,2	197,6	198,1	197,2	196,3	196,7	198,6	-0,4
Samarqand	263,0	263,3	262,4	261,9	262,0	261,2	261,1	259,0	258,0	257	-6
Surxandaryo	243,9	248,7	247,0	245,6	242,2	243,4	242,8	241,8	241,9	242	-6,9
Sirdaryo	259,5	260,5	258,6	256,2	255,6	255,7	256,3	256,1	256,3	256	-3,5
Toshkent	259,6	296,4	297,3	298,9	299,2	299,1	299,8	299,8	300,1	301,7	+5,1
Farg'ona	258,0	256,6	256,0	256,3	255,2	255,0	253,8	251,0	249,8	249,6	-8,5
Xorazm	218,5	217,8	213,0	212,5	211,4	210,9	210,2	209,0	208,6	209,2	-9,2
Toshkent sh.					1,0	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	+0,5
<b>Jami:</b>	<b>3338,5</b>	<b>3329,6</b>	<b>3316,4</b>	<b>3313,6</b>	<b>3308,3</b>	<b>3309,4</b>	<b>3307,4</b>	<b>3297,7</b>	<b>3296,3</b>	<b>3303,6</b>	<b>-35,8</b>

Sugʻoriladigan yerlar eng qimmatbaho yer turlaridan biri boʻlib, qishloq xoʻjaligini va shu bilan birga respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda birinchi darajali ahamiyatga egadir. Sugʻoriladigan ekin yerlarining maydoni respublika boʻyicha **3303,6 ming** gektar yoki sugʻoriladigan qishloq xoʻjaligi korxonasi va tashkilotlari foydalanadigan yerlarining **78,6 foizini** tashkil etadi.

Sugʻoriladigan ekin yerlarining Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlar boʻyicha keyingi 10 yil davomida taqsimlanishi (dynamikasi) 3-jadvalda keltiriladi.

### **Lalmikor ekin yerlar**

Respublika boʻyicha lalmikor yerlar maydoni 2006 yil 1 yanvardagi holatiga koʻra **746 ming** gektarni tashkil qiladi. Lalmikor yerlarda qishloq xoʻjalik ekinlarini oʻstirish faqat tuproq qatlamlarida yogʻinlar hisobiga yigʻilgan namlik tufayli yetishtirilishini hisobga olib, yillik oʻrtacha yogʻin miqdori 200 mm dan oshadigan yerlarda lalmikor ekinlar joylashtiriladi. Lalmikor yerlar namlik bilan taʼminlangan, kam taʼminlangan va taʼminlanmagan yerlarga boʻlinadi. Bu boʻlinish tuproq mintaqalarining joylashishiga mos keladi. Jigarrang va qoramtir boʻz tuproq baland mintaqada namlik bilan taʼminlangan, tipik boʻz tuproq oʻrta mintaqada namlik bilan kam taʼminlangan va och rang boʻz tuproq quyi mintaqada namlik bilan taʼminlanmagan lalmikor yerlar hisoblanadi. Lalmikor haydalma yerlar maydonining viloyatlar boʻyicha taqsimlanishi 4-jadvalda keltirilgan.

Hozirgi kunda respublika boʻyicha mevali daraxtzor, uzumzor va tutzorlarning jami yer maydoni **335,8 ming** gektarni, shu jumladan sugʻoriladigani **322,7 ming** gektarni tashkil qiladi yoki sugʻoriladigan qishloq xoʻjalik yerlari tarkibida koʻp yillik daraxtzorlar maydoni **8,7 foizini** tashkil qiladi.

Sugʻoriladigan qishloq xoʻjaligi yerlari tarkibida koʻp yillik daraxtzorlarning eng yuqori solishtirma vazni Samarqand (16,5 foiz), Namangan (10,5 foiz), Andijon (8,1 foiz) va Toshkent (10,9 foiz) viloyatlariga, eng kam Qoraqalpogʻiston Respublikasi (2,6 foiz) va Sirdaryo (1,7 foiz) viloyatlariga toʻgʻri keladi.

### **Koʻp yillik daraxtzorlar**

Koʻp yillik lalmikor daraxtzorlar Toshkent, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida namlik bilan taʼminlangan lalmikor yerlarga joylashgan. Lalmikor yerlarga va maxsus tayyorlangan terassalarga joylashgan koʻp yillik daraxtzorlar maydoni **13,4 ming** gektar boʻlib, ulardan

bog'lar **10,1 ming** gektar, uzumzorlar **3,1 ming** gektar, tutzorlar **0,1 ming** gektar va boshqa yerlar **0,1 ming** gektarni tashkil qiladi.

35-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi  
lalmikor haydalma yer maydonlari (ming ga)

<b>Viloyatlar</b>	<b>Yer maydoni</b>
Jizzax	218,3
Qashqadaryo	255,6
Navoiy	19,9
Samarqand	179,4
Surxondaryo	37,8
Toshkent	35,0
<b>Jami:</b>	<b>746</b>

36-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha  
ko'p yillik daraxtzorlar maydoni (ming. ga)

<b>Nomlanishi</b>	<b>Jami</b>	<b>Ko'p yillik daraxtzorlar</b>			
		<b>bog'lar</b>	<b>uzumzorlar</b>	<b>tutzorlar</b>	<b>boshqalar</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>8,6</b>	<b>2,9</b>	<b>0,2</b>	<b>2,4</b>	<b>3,1</b>
shu jumladan, sug'oriladigani	8,6	2,9	0,2	2,4	3,1
<b>Andijon viloyati</b>	<b>27,5</b>	<b>15,5</b>	<b>3,9</b>	<b>8</b>	<b>0,1</b>
shu jumladan, sug'oriladigani	27,5	15,5	3,9	8	0,1
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>21,4</b>	<b>7</b>	<b>6,9</b>	<b>7,2</b>	<b>0,3</b>
shu jumladan, sug'oriladigani	21,3	7	6,8	7,2	0,3
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>13,9</b>	<b>7,9</b>	<b>3,5</b>	<b>2,1</b>	<b>0,4</b>
shu jumladan, sug'oriladigani	13,1	7,2	3,4	2,1	0,4

<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>33,2</b>	<b>13,1</b>	<b>10,5</b>	<b>9,4</b>	<b>0,2</b>
shu jumladan, sugʻoriladigani	31,1	12,1	9,5	9,3	0,2
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>10,5</b>	<b>3,3</b>	<b>4,5</b>	<b>2,5</b>	<b>0,2</b>
shu jumladan, sugʻoriladigani	10,3	3,2	4,4	2,5	0,2
<b>Namangan viloyati</b>	<b>35,5</b>	<b>20,4</b>	<b>9,6</b>	<b>5,1</b>	<b>0,4</b>
shu jumladan, sugʻoriladigani	35,5	20,4	9,6	5,1	0,4
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>55,3</b>	<b>19,8</b>	<b>27,5</b>	<b>7,7</b>	<b>0,3</b>
shu jumladan, sugʻoriladigani	51,6	16,5	27,1	7,7	0,3
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>32,7</b>	<b>11,7</b>	<b>15,4</b>	<b>4,7</b>	<b>0,9</b>
shu jumladan, sugʻoriladigani	31,2	10,8	15,1	4,7	0,6
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>5,8</b>	<b>3,4</b>	<b>1</b>	<b>1,4</b>	<b>0</b>
shu jumladan, sugʻoriladigani	5,8	3,4	1	1,4	
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>36,8</b>	<b>20,8</b>	<b>11,2</b>	<b>3,5</b>	<b>1,3</b>
shu jumladan, sugʻoriladigani	32,1	17,2	10,1	3,5	1,3
<b>Fargʻona viloyati</b>	<b>41,3</b>	<b>34,7</b>	<b>2,2</b>	<b>4,1</b>	<b>0,3</b>
shu jumladan, sugʻoriladigani	41,3	34,7	2,2	4,1	0,3
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>13,1</b>	<b>7,7</b>	<b>1,2</b>	<b>4,1</b>	<b>0,1</b>
shu jumladan, sugʻoriladigani	13,1	7,7	1,2	4,1	0,1
<b>Toshkent shahri</b>	<b>0,2</b>	<b>0,1</b>	<b>0,1</b>		
shu jumladan, sugʻoriladigani	0,2	0,1	0,1		
<b>Jami:</b>	<b>335,8</b>	<b>168,3</b>	<b>97,7</b>	<b>62,2</b>	<b>7,6</b>
<b>shu jumladan, sugʻoriladigani</b>	<b>322,7</b>	<b>158,7</b>	<b>94,6</b>	<b>62,1</b>	<b>7,3</b>

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, koʻp yillik daraxtzorlar tarkibida bogʻlar eng katta maydonni-50,1 foizni, uzumzorlar-29,1 foizni, tutzorlar-18,5 foizni va boshqa yerlar-2,3 foizni tashkil qiladi.

### Boʻz yerlar

Boʻz yerlar maydoni **83,6 ming** gektar boʻlib, shundan sugʻoriladigan hududlarda joylashgan boʻz yerlar **48,4 ming** gektarni va lalmikor yerlardagisi **35,2 ming** gektarni tashkil qiladi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlar boʻyicha boʻz yerlar 2006 yil 1 yanvar holatiga **83,6 ming** gektarni tashkil etadi, ularning taqsimlanishi esa 6-jadvalda keltirilgan.

Sugʻoriladigan boʻz yerlarga samarasiz foydalanish natijasida sugʻorish qoidalarining buzilishi va tuproq-meliorativ holatining yomonlashishi, eroziya taʼsiri, kuchli shoʻrlanish, gipslanish hamda yangi yerlarni sifatsiz oʻzlashtirilishi oqibatida qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishidan chiqib qolgan sugʻoriladigan va lalmi yerlar kiritilgan. Boʻz yerlarning deyarli koʻp qismi Qoraqalpogʻiston Respublikasiga (9,3 ming gektar), Buxoro (6,9 ming gektar), Qashqadaryo (22,8 ming gektar), Navoiy (6,9 ming gektar) va Sirdaryo (11,1 ming gektar) viloyatlariga toʻgʻri keladi.

Sugʻoriladigan boʻz yerlar sugʻoriladigan ekin yerlar chegaralarida kichik uchastkalar holatida joylashgan, sugʻorish va kollektor shohobchalari bilan taʼminlanib, tegishli meliorativ tadbirlar amalga oshirilsa, bu yerlarning holati qayta tiklanishi hamda qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishiga qaytarilishi mumkin.

37-jadval

Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlardagi  
boʻz yerlar maydoni (ming ga)

№	Viloyatlar nomi	Jami	shundan	
			sugʻoriladigani	lalmisi
1	<b>Qoraqalpogʻiston Respublikasi</b>	<b>9,3</b>	<b>9,3</b>	<b>0</b>
2	Andijon	3,5	0,7	2,8
3	<b>Buxoro</b>	<b>6,9</b>	<b>6,9</b>	<b>0</b>
4	Jizzax	8,3	0,5	7,8
5	<b>Qashqadaryo</b>	<b>22,8</b>	<b>5,1</b>	<b>24,7</b>
6	Navoiy	6,9	6,8	0,1
7	<b>Namangan</b>	<b>2,8</b>	<b>2,8</b>	<b>0</b>
8	Samarqand	6	0	6



<b>9</b>	<b>Surxondaryo</b>	<b>0,3</b>	<b>0</b>	<b>0,3</b>
10	Sirdaryo	11,1	11,1	0
<b>11</b>	<b>Toshkent</b>	<b>0,8</b>	<b>0,3</b>	<b>0,5</b>
12	Xorazm	4,9	4,9	0
	<b>Jami:</b>	<b>83,6</b>	<b>48,4</b>	<b>35,2</b>

### **Pichanzor va yaylovlar**

Respublika hududining katta qismini pichanzor va yaylovlar tashkil qiladi. Bu yerlar qo‘ychilikni rivojlantirish uchun asosiy ozuqa bazasi hisoblanadi. Respublikada **21207,3 ming** gektar tabiiy pichanzor va yaylovlar mavjud bo‘lib, shundan sug‘oriladigani 43,3 ming gektarni yoki umumiy maydonning **0,20 foizini** tashkil qiladi. Suv bilan ta‘minlangan yaylovlar maydoni esa **18447,9 ming** gektarni tashkil qiladi. Tabiiy sharoitlariga qarab yaylov va pichanzorlar cho‘l-tekislik (cho‘l mintaqasi), tekislik-tepalik (adir mintaqasi) va tog‘oldi-tog‘ (tog‘ mintaqasi) ga bo‘linadi. Cho‘l-tekislik pichanzor va yaylov yerlari respublikaning shimoliy - g‘arbiy qismida, dengiz sathidan 500 m gacha balandlikda joylashgan. Ular yil davomida foydalaniladigan pichanzor va yaylovlar bo‘lib, asosan, qorako‘lchilik zonalari hisoblanadi.

Sharqda cho‘l-tekislik pichanzor va yaylovlari asta-sekin tekislik-tepalik pichanzor va yaylovlariga o‘tadi. Bu yerlarda dengiz sathiga nisbatan balandlik 1000-1200 m gacha etadi.

Adir mintaqasi pichanzor va yaylovlari, asosan, kuzgi va bahorgi pichanzor va yaylovlardir. Bu fasllarda ulardan yirik qoramollarni boqishda foydalanilsa, qo‘y va echkilar yil davomida boqiladi.

Tog‘ mintaqasidagi tog‘ oldi-tog‘ pichanzor va yaylovlari g‘arbiy Tyanshan tizmalarida, dengiz sathidan 2500 m balandlikda joylashgan. Tog‘ mintaqasi pichanzor va yaylovlari yozgi hisoblanib, barcha turdagi hayvonlarni boqishga yaroqli hisoblanadi.

Pichanzor va yaylovlarning tabiiy mintaqalar bo‘yicha taqsimlanishi 7-jadvalda keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, cho‘l mintaqasi pichanzor va yaylovlari **14431,1 ming** gektar yoki respublikaning jami pichanzor va yaylovlarining **68,0 foizini** tashkil qiladi. Ular, asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida joylashgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar chegarasidagi pichanzor va yaylovlarning tabiiy mintaqalar bo‘yicha taqsimlanishi (ming ga).

Nomlanishi	Umumi y maydon i	shunda n sug‘oril a-digani	shu jumladan		
			Cho‘l	Adir	Tog‘
Qoraqalp.Respub.	4709,6	27,1	4682,5	0	27,1
Andijon	21,2	0,8	3,0	18,2	0
Buxoro	2674,2	0	63,5	2510,7	100
Jizzax	746	0	195,9	444,6	105,5
Qashqadaryo	1460,1	0,1	639,8	476,6	343,7
Navoiy	9136,2	0	8566,6	545,8	23,8
Namangan	153	0	1,5	116,6	34,9
Samarqand	795,6	0	19,1	651,2	125,3
Surxondaryo	861,7	0	83,1	579,8	198,8
Sirdaryo	23,6	0	0	23,6	0
Toshkent	429,9	1,5	0	325,9	104,0
Farg‘ona	24	4,5	3,9	20,1	0
Xorazm	172,2	9,4	172,2	0	0
<b>Jami:</b>	<b>21207,3</b>	<b>43,4</b>	<b>14431,1</b>	<b>5713,1</b>	<b>1063,1</b>

Adir mintaqasi pichanzor va yaylovlari **5713,1 ming** gektar yoki jami pichanzor va yaylovlar maydonining **26,9 foizini** tashkil qiladi, ular, asosan Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida joylashgan.

#### **Dehqon xo‘jaligi (tomorqa) yerlari**

Dehqon xo‘jaliklari soni 2005 yil davomida 38393 taga ko‘payib, ularga **11,3 ming** gektar yer maydoni ajratib berildi. Jami dehqon xo‘jaliklarining soni **3349656 ta** bo‘lib, ulardagi tomorqa yer maydoni **623.4 ming** gektarni tashkil qiladi.

## **Fermer xo‘jaliklari yerlari**

Respublikamizda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini tashkil etish va yuritishning asosiy shakli sifatida fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. 2005 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 dekabrda 607-sonli “2005-2007 yillarda fermer xo‘jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan zarar ko‘rib ishlayotgan, past rentabelli 445 ta shirkat xo‘jaliklari tugatilib, ularning yer maydonlari shartnoma asosida fermer xo‘jaliklariga taqsimlab berildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 8 noyabrda 2006 yilda qishloq xo‘jalik koopyerativlari (shirkatlari)ni fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-215-sonli qaroriga asosan 428 ta hamda Hukumat komissiyasining 2005 yil 12 noyabrda yig‘ilish bayoniga asosan 19 ta, jami 447 ta shirkat xo‘jaliklarini tugatilib, fermer xo‘jaliklariga aylantirish jarayonida qo‘mita tizimidagi tashkilotlar mutaxassislari tomonidan 2006 yil 1 yanvar holatidagi yer hisobotini tuzish davrida yakunlangan yer maydonlarini yalpi ro‘yxatdan o‘tkazish natijalari ushbu hisobotda hisobga olindi.

2006 yil 1 yanvardagi holatiga ko‘ra jami fermer xo‘jaliklarining soni **121917 tani** tashkil qilib, ularning yer maydoni **3995 ming** gektarni tashkil qiladi.

## **2. Aholi punktlari yerlari**

Bu toifadagi yerlarga shahar va shaharchalar ma‘muriy chegaralarida bo‘lgan va qishloq xo‘jaligi hamda o‘rmon xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari foydalanayotgan yerlar tarkibiga kirmagan qishloq aholi punktlari kiritilgan. Aholi punktlari yerlari maydoni 2006 yil 1 yanvar holatiga **237,8 ming** gektarni yoki jami yerlarning **0,5 foizini** tashkil qiladi.

## **3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlarida va boshqa maqsadlarda foydalaniladigan yerlar**

Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarda foydalaniladigan yerlarga belgilangan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar kiradi. Bu toifadagi yerlar tashkilotlarga yuklangan vazifalarni bajarish uchun belgilangan tartibda normativ yoki loyiha-texnik xujjatlar asosida beriladi. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarda foydalaniladigan yerlarning maydoni 2006 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra **1970,9 ming** gektar yoki yerlarning **4,4 foizini** tashkil qiladi.

## **4. Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlarida foydalaniladigan yerlar**

Tabiatni muhofaza qilish, sogʻlomlashtirish, rekreastiya maqsadlarida foydalaniladigan yerlarga alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy-davolash omillariga ega boʻlgan, shuningdek, ommaviy dam olish va turizm maqsadlarida foydalanadigan yerlar kiradi. Bu toifadagi yerlar maydonining asosiy qismini qoʻriqxonalar va milliy bogʻlar egallaydi. Davlat tabiiy qoʻriqxonalari tabiatni muhofaza qilish, ilmiy-tadqiqot va ekologik-maorif muassasalari boʻlib, maqsadi-tabiiy jarayon va hodisalarni, oʻsimlik va hayvonot dunyosi genetik fondini, tipik va noyob ekologik tizimlarini tabiiy holatda saqlab qolish va oʻrganishdan iboratdir. Ularning maydoni 2006 yil 1 yanvar holatiga koʻra, **72,4 ming** gektarni tashkil etadi.

### **5. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar**

Tarixiy-madaniy maqsadlarda foydalanadigan yerlar-tarixiy madaniy yodgorliklar joylashgan qoʻriqxonalar, memorial bogʻlar, mozorlar, arxeologiya va tarixiy yodgorliklarning tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan yerlardir. Tarixiy-madaniy maqsadlarda foydalanadigan yerlarning umumiy maydoni 2006 yil 1 yanvar holatiga koʻra **0,3 ming** gektarni tashkil qiladi.

### **6. Oʻrmon fondi yerlari**

Oʻrmon fondi yerlariga oʻrmon bilan qoplangan, shuningdek, oʻrmon bilan qoplanmagan boʻlsa ham, oʻrmon xoʻjaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar kiradi. Bu toifadagi yerlar maydoni **8543,8 ming** gektarni yoki jami yerlarning **19,2 foizini** tashkil qiladi.

Oʻrmon hududlarining tabiatni muhofaza qilish xususiyatlari va oʻrmonzorlarni qayta tiklash jarayonini uzoq kechishini hisobga olgan holda ularni muhofaza qilish va koʻpaytirish muammosiga katta eʼtibor berilishi talab qilinadi. Shu sababdan, 1991 yildan boshlab qishloq xoʻjaligi maqsadlarida foydalanib kelingan **6029 ming** gektari oʻrmon fondi yerlari toifasiga oʻtkazilgan, bu esa oʻrmon fondi yerlari maydonini koʻpaytirish va shu asosda tuproqlar degradastiyalanishi va xoʻjalik maqsadlarida oʻrmon daraxtlari kesilishining oldini olishda muayyan darajada qulay sharoit yaratdi. Oʻrmon fondi yerlarining Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlar boʻyicha taqsimlanishi 9-jadvalda keltirilgan.


### **7. Suv fondi yerlari**

Suv fondi yerlariga suv havzalari (daryolar, koʻllar, suv omborlari va shu kabilar) gidrotexnika va boshqa suv xoʻjaligi inshootlari egallab turgan, shuningdek, suv havzalarining va boshqa suv ob'ektlarining qirgʻoqlari boʻylab ajratilgan mintaqadagi himoyalash zonalari yerlari, suv xoʻjaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar kiradi. Suv fondi yerlari **825,3 ming** gektarni yoki


umumiy yer maydonining **1,9 foizini** tashkil qiladi. Yer fondiga tegishli yerlarning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi 41-jadvalda keltirilgan.

### 8. Zahira yerlar

Zahira yerlarga egalik qilish, foydalanish va ijara maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan hamda boshqa yer toifalarida hisobga olinmagan barcha (shu jumladan, suv osti) yerlar kiradi. Zahira yerlar maydoni **10388,5 ming** gektar yoki umumiy maydonning **23,4 foiziga** teng.




3-rasm. Sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yer turlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi (% hisobida)




4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi yer fondining yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi.


Respublika yer fondi tavsifi (%)




**Asosiy tuproq guruhlari bo'yicha**



**Sho'rlanishi bo'yicha**



**Mexanik tarkibi bo'yicha**



**Yuvilishi bo'yicha**

## **SUG'ORILADIGAN YERLARNI UNUMDORLIGI BO'YICHA BAHOLASH, BONITIROVKA QILISH TARTIBI. SUG'ORILADIGAN YERLARNI SIFATI BO'YICHA SINFLARGA TAQSIMLANISHI**

Tuproq bonitirovkasi ishlari tuproqshunoslik va agrokimyoviy tekshirishlar singari uch bosqich bo'lib amalga oshiriladi:

I. Tayyorlov kameral; II. Dala; III. Kameral-analitik ishlar.

### **Tayyorlov-kameral ishlar**

Tayyorlov kameral ishlarning asosiy vazifasi viloyatlar tuproqlariga oid kitoblarni o'rganish, qishloq xo'jalik o'simliklari hosili to'g'risidagi materiallarni yig'ish, tuproqning tabiiy sifati bilan hosili o'rtasida korrelyatsiyani (bog'liqlikni) topish, shular asosida viloyat, respublikadagi asosiy tuproqlarning bonitirovka shkalasini tuzish hisoblanadi.

Bu davrda viloyat uchun ob'ekt ko'rsatkichlari va tuproq xususiyatlari asosida bonitirovka shkalalari tuziladi. "O'zdavyerloyiha" instituti rahbarligida ilmiy tekshirish institutlari, tuproqshunoslik kafedralari ishtirokida shkalalar tuziladi. Bu ishlarda tuproqshunoslardan tashqari yana statistik materiallarni yig'ish uchun statistlar, ularni qayta ishlash uchun esa matematik statistlar ishtirok etishadi.

Bonitirovka shkalalarini tuproq xususiyatlari va o'simlik hosili asosida tuzishda quyidagi ma'lumotlar kerak bo'ladi:

1. Tuproq xaritasi yoki agrotuproq rayoni viloyatlar uchun eksperimental xo'jaliklar chegaralari berilgan xaritalari bo'lishi kerak. Yirik miqyosda tushirilgan xo'jaliklarning materiallari I:10000-I:25000 gacha ba'zan I:50000 va I:5000 masshtabdagi xaritalar, agrokimyoviy xaritagrammalar, meliorastiya va eroziyaga qarshi kurashga oid analitik ma'lumotlari bo'lgan hisoblar, tuproqlarning, agroishlab chiqarish guruhlari, viloyatning tabiiy sharoitlari ifodalangan ma'lumotlar bo'lishi kerak.

2. Iqlim ma'lumotlari o'rtacha yillik harorat va haroratlar yig'indisi, yillik o'rtacha yog'in miqdori, issiq kunlarning uzunligi, iqlim spravochniklari va boshqalar.

3. Yerdan foydalanuvchilarning davlat registrastiyasi materiallari, yerning miqdori va sifati haqidagi ma'lumotlar.

4. Viloyatlar yerlarining bahosi haqidagi adabiyotlardagi ma'lumotlar.

5. Jamoa, shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklarning oxirigi besh yillardagi



yillik hisobotlari.

6. Davlat sort uchastkalarida har xil tuproqlardan olingan ko'p yillik hosillarning ma'lumotlari, shuningdek oliy o'quv yurtlarining tajriba uchastkalaridagi kuzatishlari, j/x va shirkatlarning bonitirovka shkalalarini aniqlash uchun statsionar, ya'ni oxirgi uch-besh yillardagi ma'lumotlar zarur.

Bonitirovka shkalalarini tuzishda hosil ma'lumotlarini tuproq turi xo'jalikning 70% dan kam bo'lmagan qismiga ekilgan o'simliklar ma'lumotlarinigina olish mumkin. Tuproq bonitirovkasi ishlarini boshlashdan oldin, tuproq xaritalari sifati bilan, hisobotlar, agrokimyoviy, meliorativ, erozion xaritogrammalar va kartalar bilan tanishib chiqmoq kerak. Tuproq xaritalari sifati past bo'lsa, xaritogrammalar etishmasa bonitirovka qilishni boshlamaslik kerak. Har bir kesmaning analitik ma'lumotlari bo'yicha alohida jadvallar to'ldiriladi, bu jadvallar tipografiyada tayyorlanadi. Bunda "hosil bilan bog'liq bo'lgan diagnostik belgilar" jadval grafasiga adabiyotlardan alohida xo'jaliklarning hisobotlaridan quyidagi ma'lumotlar yozib olinadi:

1. Egallangan maydon bilan tuproq tipi va tipchasi.
2. Mexanik tarkibi, ya'ni 0,05-0,01 va <0,001 mm. zarrachalar miqdori, toshlilik (undagi materiallarga ko'ra kuchli, o'rtacha kuchsiz m<sup>3</sup>/ga).
3. Ona jins va uning ostidagi qumoq va loysimon jinslarning genezisi, lessimonligi, qatlamligi, ildiz etib borgan qatlamning loyqa qatlamning chuqurligi va hako'zolar.
4. Gumusli qatlamining qalinligi (A<sub>1</sub> va AV) va haydalma qatlam qalinligi.
5. Gumusning miqdori (%) va uning umumiy zaxirasi (t/ga).
6. Madaniylik darajasi (qo'riq, o'zlashtirilgan, kuchli madaniy, o'rtacha madaniy, kam madaniy, yomon, sun'iy va qaytadan tashkil topgan).
7. Eroziyalanish darajasi.
8. Sho'rlanish darajasi.
9. Gleylanish darajasi, gleyli gorizontning va yalpi gleyli gorizontlarning chuqurligi.
10. Sizot suvlarining chuqurligi, botqoqlarning qurish darajasi, ikkilamchi sho'rlanish bo'lgan rayonlarda sizot suvlarining kimyosi va mineralizatsiya darajasi.
11. Ishqoriylik darajasi va HCl ta'sirida qaynash chuqurligi.
12. Suvli so'rimda pH.
13. Ishqoriyligi.
14. RN ning miqdori (umumiy va harakatchan zahira t/ga) hisobida.
15. Singdirilgan asoslar summasi yoki singdirish sig'imi, asoslar bilan to'yinganlik darajasi.
16. Tuproq singdiruvchi sig'imida singdirilgan kationlarning va boshqalarning miqdori.
17. Fizik xossalari: hajm va solishtirma og'irligi, namligi, g'ovakligi, suv

oʻtkazuvchanlik va b.

Agar xoʻjalik tuproq xaritasida madaniylik darajasi, eroziyalanish darajasi berilgan boʻlsa xaritalar korrektirovkalanadi. Har bir tuproq tipiga alohida xaritada variatsion statistik metodi boʻyicha oʻrtacha nom beriladi va nechta kesmadan olinganligi koʻrsatiladi. Koʻrsatkichlarga matematik ishlov berish kerak, bular tajribaning aniqligi va variantlar oʻrtasidagi farqning ifodasini koʻrsatadi. Har bir tuproqda umumiy va asosiy ekin maydoni koʻrsatiladi, gektarlarda va foizlarda shu xoʻjalikning umumiy maydoniga nisbatan olinadi

Bonitirovka ballari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$B = \frac{3\phi}{3M} \cdot 100$$

**bu yerda:** B-tuproq balli;  $Z_f$  - biror bir belgining haqiqiy ifodasi (gumus, azot, fosfor kaliy va boshqalar zaxirasi),  $Z_m$  - berilgan belgining maksimal yoki optimal koʻrsatkichi, tuproqda uning miqdori 100 ballga teng deb olingan.

Gumus, fosfor, kaliyning zahira miqdori quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$G = \frac{M \cdot 10000 \cdot B \cdot P}{100}$$

**bu yerda:** G - gumus zaxirasi, t/ga hisobida; M - genetik qatlam qalinligi, m hisobida; V - berilgan mexanik tarkibdagi hajm ogʻirlik; R - gumus miqdori, % hisobida.

Bu formula orqali gumusning umumiy miqdorini aniqlash uchun alohida olingan gumus gorizontlarining oʻrtacha koʻrsatkichlari, qatlamlar boʻyicha hajm ogʻirlik koʻrsatkichi va har bir gorizontda gumusning foiz miqdorini bilish kerak.

Oziqa moddalarning harakatchan formalari zaxirasi quyidagi formula orqali topiladi:

$$N = M \cdot 100 \cdot V \cdot A$$

**bu yerda:** N - azot, fosfor yoki kaliyning zaxirasi kg/ga; M-genetik qatlamning qalinligi, m; V - berilgan qatlamning hajm ogʻirligi: A- azot, fosfor yoki kaliyning miqdori, %.

Azot, fosfor va kaliy zaxirasining koʻrsatkichi ikkita yuza gumusli qatlamning yigʻindisi bilan, gumus boʻyicha esa profilning butun gumusli qismi aniqlanadi.

Har bir belgilarning bonitirovka ballari hisoblangandan soʻng qaysi biri belgilarning bogʻliqligi, qaysi biri kerak emasligi topiladi. Shundan soʻng oʻrtacha

bonitirovka balli hisoblanadi, soʻngra tuproq xususiyatiga koʻra viloyatning bonitirovka shkalasi hisoblab chiqiladi. Bonitirovka shkalalari tuzilgandan soʻng koʻp yillik asosiy oʻsimlikning oʻrtacha hosildorligi hisoblab chiqiladi. Bu tuproqning diagnostik belgilari bilan hosil oʻrtasida korrelyatsiya tuzishda, hosildorlik boʻyicha tuproq bonitirovkasi shkalalarini tuzishda zarurdir. Hosildorlik boʻyicha tuproq bonitirovkasi shkalalarini tuzish uchun viloyat yoki voha ichida taxminan bir xil tabiiy iqtisodiy holatga ega boʻlgan agrotuproq rayonlari ajratiladi. Asosiy qishloq xoʻjalik oʻsimligi hosilini aniqlash uchun har bir xoʻjaliklarda tuproq xili 70% dan kam boʻlmagan ekin maydonini egallagan xoʻjalik koʻrsatkichlari olinadi. Yillik hisobotlardan fermer jamoa, shirkat xoʻjaliklari va sort uchastkalarida har bir tuproq uchun quyidagilar yozib olinadi:

1. Donning oʻrtacha miqdori 1 st/ga hisobida;
2. Asosiy donli oʻsimlikning oʻrtacha miqdori;
3. Texnik va yem-xashak uchun ekiladigan oʻsimliklarning, kartoshkaning oʻrtacha miqdori;
4. Tabiiy xashakning oʻrtacha miqdori.

Bu maʼlumotlarda oxirgi 5-10 yil ichidagi koʻrsatkichlar yoziladi. Yillik hisobotlardan yana xoʻjalik yuritish darajasi, berilgan oʻgʻitlar-ning miqdori, haydaladigan maydon uzunligi va hakazolar yoziladi.

Bu ishlar tuproqshunoslar, statistiklar, iqtisodchilar oʻrtasidagi munosabatda bajariladi. Bundan tashqari, birinchidan almashlab ekishning borishi; ikkinchidan ekin maydonlari aniqlanadi. Qishloq xoʻjalik oʻsimliklari uchun koʻp yillik maʼlumotlardan nisbiy hosildorlik (shkala) hisoblab chiqiladi.

a) oʻsimliklarning hosildorligi 30 st/ga, yaʼni bonitirovka shkalasida 1 ballning bahosi 1 gektarda 0,3 st donga tengdir.

b) davlat sort uchastkalarida ilgʻor xoʻjalikda donli oʻsimliklardan gektariga 20 st hosil olinadi (yaʼni bonitirovka shkalasida 1 ballning bahosi 1 gektarda 0,2 st donga teng).

Shunday qilib, birinchi etapning asosiy vazifasi - kameral usulda viloyat, vohalar uchun taxminan bonitirovka shkalalarini tuzish hisoblanadi.

Birinchi etap oxirida tuproqshunos respublika, viloyat vohaning: 1) taxminiy bonitirovka shkalasi; 2) maʼmuriy rayonlar boʻyicha yerlarning boniteti va xaritagrommalariga ega boʻladi.

### **Tuproq bonitirovkasining dala bosqichi ishlari**

Daladagi davrning asosiy vazifasi birinchi bosqichda:

a) birinchi bosqichda tuzilgan tuproq bonitirovka shkalalarini toʻgʻri yoki notoʻgʻriligini tekshirish;

b) yetishmagan materiallarni yigʻish, ham tarqalgan tuproqlar bonitirovkasini tuzishdir.

Ikkinchi bosqichda katta miqyosli tuproq xaritalari tuziladi. Tabiiy yem

xashak o‘simliklari va tuproq xususiyatlari asosida qishloq xo‘jalik o‘simliklari singari hisoblanadi.

Shkala tuzishda yem-xashak o‘rtacha hosildorligi, uning sifati hisobga olinadi, ballning bahosi st/ga birligi ifodalanadi.

O‘rmon yerlarini bonitirovka qilishda shkalalar, ob‘ektiv belgilar va tuproq xususiyatlari hisobga olinadi. Bu tuproqlarda o‘rmon o‘simliklari hosili jihatidan bonitirovka shkalalari bu tuproqlarda alohida olingan o‘simliklarning hosilini aniqlab topiladi va har bir kesmadan tahlil uchun namunalar olinadi. Dala xaritalari chiziladi.

### **Kameral tahlil ishlari**

Tuproq bonitirovkasining kameral-analitik bosqichi oxirgi bosqichda tugallangan bonitirovka shkalalarini tuzish, tuproqlar uchun diagnostik, morfogenetik, agroximik, agrofizik belgilarni aniqlash, ekspeditsiya davridagi to‘plangan ma‘lumotlarni ko‘rib chiqish va shu kabi juda ko‘p vazifalar bajarilishi kerak. Bonitirovka shkalalarini tuzishda eng avvalo asosiy tamoyillarni topish kerak va qabul qilingan tamoyil asosida zonal tuproqlari bonitetini tuzmoq kerak. Zonal tuproq bonitetini bilgan holdagina viloyat bonitirovka shkalalarini ishlab chiqmoq lozim.

Xo‘jaliklarda yer baholash ishlarini o‘tkazishning birlamchi ob‘ektlash bu haydalma ekin ekiladigan yerlar, ko‘p yillik mevali daraxtlar, tabiiy yaylovlaridir. Maydonlar bo‘yicha baholash ballini shu maydonga kiruvchi tuproq agroguruhini o‘rtacha nisbiy baholash shkalasi asosida hisoblab chiqaziladi.

Tuproqlar agronomik ishlab chiqarish guruhlariga birlashtirilayotganda sug‘oriladigan haydalma va lalmikor haydalma yerlar, alohida “Yirik masshtabda tuproq kartalarini tuzish” qo‘llanmasi asosida bajariladi. Tuproq ayirmalarini agronomik ishlab chiqarish guruhlariga birlashtirishning asosiy yo‘llari quyidagilardir:

- 1) bir tuproq - iqlim provinstiyasiga yoki tog‘li maydonlarga mansubligi;
- 2) tuproq genetik kelib chiqishining, tuproq profilining morfologik tuzilishi, ayniqsa yuqori gorizontlarning bir-biriga o‘xshashligi;
- 3) tuproq paydo qiluvchi jinslar va tuproqning mexanik tarkibi;
- 4) tuproqning asosiy fizik xossalari, ularning suv, havo va issiqlik tartiblari;
- 5) tuproqdagi har xil shaklli ozuqa elementlarining miqdori va zahirasi, ximiyaviy va fizik-ximiyaviy xossalarning ko‘rsatkichlari.

Xo‘jaliklar bo‘yicha baholash ko‘rsatkichlarining tuproq agroguruhlarini, almashlab ekish hududlari ekin turlari (ko‘p yillik mevali daraxtlar bo‘yicha) quyidagi formula bilan hisoblab chiqaziladi:

$$B_{yp} = \frac{B_1 M_1 + \dots + B_n M_n}{M_1 + \dots + M_n}$$

**bu yerda:**  $B_{yp}$ -hisoblab chiqazilgan o‘rtacha baholash balli;  $B_1$ ,  $B_H$ -ma’lum bir o‘simlik ekilgan maydonning balli;  $M_1$ ,  $M_p$ -ma’lum bir o‘simlik ekilgan maydon.

39-jadval

Tuproqning xususiyatlari bo‘yicha bonitirovkalash koeffitsiyentlari

Xossalarning ifodalanish darajasi	Sho‘r langanlik	Yemi-rilish	Haydov qatlamining skeletligi		
			Toshlar	Shag‘al va chigir-toshlar	Mayda chigir-toshlar
Ifodalanmagan	1,00	1,00	100	100	100
Kam	0,85	0,95	0,90	0,90	0,95
O‘rtacha	0,60	0,80	0,75	0,80	0,85
Kuchli	0,40	0,70	0,60	0,65	0,70
Juda kuchli	0,30	0,50	0,40	0,45	0,50
Yuvilmali	-	0,90	-	-	-

40-jadval

Ball bonitetlari bo‘yicha asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarining kadastrli hisoblangan hosildorligi, st/ga

Ball bonitetlari	Paxta	Don	Beda	Don uchun makkajo‘xori	1 yillik o‘tlar	Ildiz mevalar
10	4	6	20	7,5	30	90
20	8	12	40	15	60	180
30	12	18	60	22,5	90	270
40	16	24	80	30	120	360
50	20	30	100	37,5	150	450
60	24	36	120	45	180	540
70	28	42	140	52,5	210	630
80	32	48	160	60	240	720
90	36	54	180	67,5	270	810
100	40	60	200	75	300	900
1 ballning bahosi	0,4	0,6	2,0	0,75	3,0	9,0

**Yerni baholash xujjatlari.** Yerni baholash bo'yicha xujjatlar ikkiga bo'linib, hisoblangan - normativ va natijali yer baholash xujjatlaridan iborat bo'ladi.

**I. Hisoblangan normativ xujjatlar** ishlab chiqarishning jadallashtirish sur'atini ko'rsatadigan tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo'yicha baholash ko'rsatkichlarining shkalasi.

**II. Natijali yer baholash xujjatlari:**

- alohida maydonlar bo'yicha, almashlab ekish dalalari bo'yicha, brigadalar, bo'limlar va xo'jaliklarning yer turlari bo'yicha yerning baholangan (vedemost) qaydnomasi;
- tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlarini chegaralari tushirilgan va alohida yer maydonlari yoki almashlab ekish dalalari bo'yicha baholash natijalari ko'rsatilgan yer baholash xaritalari;
- yer baholash xaritasiga va yer baholash qaydnomasiga yozilgan tushuntirish xati. Bu tushuntirish xatida xo'jalikning tabiiy va iqtisodiy sharoitlari, joylanishi va ixti-sosligi, dastlabki ma'lumotlarning holati, baholanadigan maydonlarni chiqarishda qo'llash bo'yicha tavsiyalar;
- yerdan foydalanuvchilarga yer baholash qaydnomasi va yer baholash haritasi beriladi;
- tuman qishloq xo'jalik tashkilotlariga yerdan foydalanuvchilar bo'yicha yer baholash qaydnomasini to'plash, yer turlarining tarkibida tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlarining to'plami va tumanning yer kadastr haritasi beriladi;
- viloyat qishloq xo'jalik tashkilotlariga baholangan tumanlar yer baholash bo'yicha hisoblangan - normativ xujjatlari beriladi;
- yer baholash ishlarining natijalari respublikaning viloyatlarida tashkil qilingan maxsus baholash komissiyalari tomonidan ko'rib chiqiladi, viloyat yer baholash komissiyasi yer baholash bo'yicha xujjatlarni ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;
- bajarilgan yer baholash ishlari bo'yicha ayrim xo'jaliklarning e'tirozlari bir oy davomida viloyat yer baholash komissiyasi kengashidan so'ng qabul qilinadi. E'tirozlari zarur hisob- kitoblar bilan asoslangan va tasdiqlangan bo'lishi kerak; komissiya taqdim etilgan e'tirozlarni tekshirib ko'radi va uzil-kesil qaror qabul qiladi.

Yer baholash bo'yicha birlamchi ma'lumotlar va bir nusxa yer baholash xujjatlari Yer kadastr filiali arxivida saqlanadi. Bu yer baholash xujjatlari har besh yilda yangilanib turadi.

Tuproqshunoslik fanida tuproq unumdorligini baholash masalalari, uning ko'rsatkichlari va mezonlari eng kam o'rganilgan sohadir.

Bonitirovka – bu tuproqlarning sifati va ishlab chiqarish qobiliyatini, dehqonchilik tizimi intensivikasiyasi va agrotexnikaning o'rtacha darajasida,

qiyosiy baholashdir. U tuproqlarning tabiiy shuningdek, madaniylashtirilishi natijasida yuzaga kelgan xossalarni hisobga olgan holda tuziladi.

Bizning respublikamizda, tabiiyki, sugʻoriladigan tuproq unumdorligini baholashga katta eʼtibor beriladi. Chunki, mamlakatimizda yetishtiriladigan qishloq xoʻjalik mahsulotlarining 95% idan ortiqrogʻi, yaʼni shu yerlarda yetishtiriladi.

Maʼlumki, turli qishloq xoʻjalik ekinlari, tuproq unumdorligiga har xil talab qoʻyadilar. Masalan, ayrim oʻsimliklar nordon muhitda yaxshi rivojlansalar, ayrim oʻsimliklar esa kuchsiz ishqoriy muhitda yaxshi oʻsib hosil beradilar. Shuning uchun ham, tuproq unumdorligi, maʼlum bir oʻsimlik turli yoki guruhlari uchun baholanadi. Oʻzbekistonda tuproq unumdorligi, asosiy qishloq xoʻjalik ekini, gʻoʻza uchun belgilanadi.

Tuproq unumdorligi, keng maʼnoda tuproqlarning hamma xossa va xususiyatlari, shuningdek shu joyning ekologik sharoiti taʼsirining yigʻindisi sifatida namoyon boʻladi. Adabiyotlar sharhida, tuproqlarni baholashda yagona fikrning yoʻqligini, taʼkidlab oʻtgan edik. Buning asosiy sababi, baholanadigan obʼektning juda murakkabligidir.

Tuproqshunoslik fanida tuproq unumdorligining qator turlari ajratiladi. Ular qoʻyidagilar:

- tabiiy;
- sunʼiiy;
- potentsial;
- samarali;
- nisbiy;
- iqtisodiy unumdorlik turlaridir.

Mazkur unumdorlik turlari va tuproqning sifatini baholashda qaysi unumdorlikni baholash masalalari maxsus adabiyotlarda tahlil etilgan (R.Qoʻziev 1996). Ulardagi asosiy xulosa, tuproq unumdorligi baholashda, fan va texnika rivojlanishining maʼlum bir bosqichida olingan oʻrtacha agrotexnikaviy sharoitda aniq oʻsimlik turiga nisbatan, tuproqning samarali unumdorligini baholash zarurdir.

Tuproq baholash ishlarida tuproqning qaysi xossa va xususiyatlariga tayanish masalasi alohida ahamiyatga ega. Juda koʻp hollarda, tuproqlarni sifat hihatdan uning hosil bilan bevosita korrelyativ xossalarni tanlab olish zarur deb hisoblanadi.

Tuproq unumdorligini baholashning bazaviy shkalasini tuzishda muhim metodologik hol, yaʼni tuproq unumdorligi absolyut emas, balki aniq bir oʻsimlik turi yoki guruhi va uning naviga qarab nisbiydir degan xulosadan kelib chiqilgan. Bir xil tuproq ayrim oʻsimlik uchun syermahsul, boshqasi uchun kam mahsuldorlikka ega boʻlishi mumkin. Shuning uchun ham tuproq unumdorligi va uning dinamikasi bir xil oʻsimlik uchun baholanganda toʻgʻri boʻladi.

Sugʻoriladigan dehqonchilik tizimida tuproq unumdorligi oʻzgarmasdan qolmaydi. Insonning xoʻjalik faoliyati taʼsirida qishloq xoʻjaligida ishlatilayotgan yerlarning tuproq-meliorativ sharoiti sezilarli yaxshilanadi. Buning natijasida, tuproq unumdorligi darajasi ortadi.

Tuproq unumdorligini baholashda uning quyidagi xususiyatlari hisobga olinadi:

- genetik xususiyati;
- gumus miqdori;
- mexanik tarkibi;
- zichligi;
- suv oʻtkazuvchanligi;
- singdirilgan kationlar tarkibi;
- melkozem qatlaminig qalinligi;
- shoʻrlanish darajasi;
- eroziyaga uchraganlik darajasi;
- gips miqdori va uning yer sathidan chuqurligi;
- shoʻrtoblashganlik darajasi;
- karbonatlar miqdori va shu kabilar.

Tuproq unumdorligining shakllanishida, tuproq paydo boʻlish jarayoni katta ahamiyat kasb etadi. Respublikamizning sugʻoriladigan maydonlari nisbatan katta maydonlarni egallamaydi, lekin ular tuproq-iqlim mintaqalarida joylashgan. Masalan, yillik yogʻin miqdori yoki samarali harorat yigʻindisi shimoliy va janubiy regionlarda sezilarli darajada farqlanadi. Iqlim sharoitining turlicligi, tuproq paydo qiluvchi jinslarning tarkibi, yoshi, shakllanishi bilan bogʻliq holda, tuproqlarning har xil unumdorlik darajasiga ega boʻlishiga sabab boʻladi. Shuning uchun ham, tuproq unumdorligi baholashda tuproq paydo qiluvchi jinslar genezisi, joylarning issiqlik resurslari bilan taʼminlanishi, tuproq grunt qatlaminig drenlashganligi, yon-bagʻirlarning ekspozitsiyasi va nishablighi va shu kabilar hisobga olinmogʻi lozim.

Tuzlarning miqdori va tarkibining qishloq xoʻjalik oʻsimliklari va xususan, gʻoʻzaning oʻsishi, rivojlanish va hosiliga taʼsiri haqida maʼlumotlar koʻplab topiladi. Ammo ularning natijalari har xil va bu oʻz navbatida ulardan bonitirovka maqsadida foydalanishni qiyinlashtiradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Yerlarni ball bonitetini hisoblash formulasi qanday?
2. Sugʻoriladigan yerlarni baholash tartibi qanday?
3. Yerlarni bal boniteti boʻyicha sinflarini tushuntirib bering?



### **TUPROQNI BONITIROVKALASH XARITALARIDAN FOYDALANISH. SUG‘ORILADIGAN YERLARNI RO‘YXATGA OLISH TARTIBI**

Tuproq bonitirovka xaritasida eksplikatsiya bilan bir qatorda tuproqni unumdorligi bo‘yicha tasnifi jadvali keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq boshqarmasi tomonidan qabul qilingan qonun bo‘yicha, tuproqlar unumdorligi darajasi 10 ta sinfga gruppalashgan bo‘lishi zarur. Bu kartada tuproqni xili emas, balki uning unumdorlik sinfi qo‘yidagi ranglarda bo‘yaladi.

X sinf- to‘q yashil

IX sinf- yashil

VIII sinf-to‘q sariq

VII sinf – sariq

VI sinf - qizish

V sinf –sarish

IV sinf to‘q pushti

III sinf-pushti

II sinf to‘q kulrang

I sinf kulrang

(Rang shkalasi bo‘yicha boshqa takliflar ham bo‘lishi mumkin).

Bu jadval asosida va yer solig‘i ta’rifiga ega bo‘lgan xo‘jaliklar o‘zlari butun xo‘jalikka yoki alohida brigada yoki uchastkalariga soliq hajmini o‘zlari hisoblab chiqishlari mumkin.

Ushbu jadval ranglariga muvofiq ravishda bonitirovka xaritasida tuproqning sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha belgilanadi.

Xo‘jaliklarning tuproq xaritalari O‘zbekiston Respublikasining sug‘oriladigan mintaqalari uchun 1:10000 nisbatda tuziladi. Ulardagi 1 sm joyga 100 m, 1 sm<sup>2</sup> joyga esa, bir gektar yer to‘g‘ri keladi. Tuproq xaritasi xo‘jaliklarning shu nisbatdagi yer tuzish rejasiga chiziladi. Bu rejada aholi yashaydigan joylar, sug‘orish kanallari, ariqlar va drenaj tarmoqlari, sug‘oriladigan dalalarning chegaralari tasbirlangan.

Qabul qilingan umumiy belgilar bilan rejada har xil qishloq xo‘jalik yer turlari ko‘rsatilgan: sug‘oriladigan haydalma yerlar, lalmikor haydalma yerlar, yaylovlar, o‘tloqlar, botqoqlar, ko‘p yillik daraxtlar, o‘rmonlar, noqulay yerlar, do‘ngliklar, shag‘alli va toshli yerlar va xokazo.

## Yerlarning sifati bo'yicha ball boniteti

Sinflar	Sifati	Bonitet balli
X	Eng yaxshi	91-100
IX	Eng yaxshi	81-90
VIII	Yaxshi	71-80
VII	Yaxshi	61-70
VI	O'rtacha	51-60
V	O'rtacha	41-50
IV	O'rtachadan past	31-40
III	O'rtachadan past	21-30
II	Yomon yerlar	11-20
I	Yomon yerlar	0-10

**Tuproqlarning nomi:** tuproqning paydo bo'lishida asosiy tuproq guruhlaridan qaysi tuproq tipiga taalluqli ekanligi ko'rsatiladi. Bular - bo'z tuproqlar, o'tloqli tuproqlar, taqirli tuproqlar, sho'rxoklar va xokazo.

Tuproqlarning nomlarida, shuningdek, ularning madaniylashganlik holatlari va sug'orish davri ham beriladi. Masalan, eskidan (qadimdan) sug'oriladigan, yangidan sug'oriladigan, yangi o'zlashtirilgan, qo'riq yerlar va hokazo.

**Mexanik tarkibi:** tuproqni tashkil qiluvchi zarrachalarning katta-kichikligini tasbirlaydi. Tuproqning tarkibini har xil kattalikdagi qumli va loyli zarrachalar tashkil qiladi. Loyli zarrachalarning kattaligi 0,01 mm dan kichik, qumli zarrachalarni esa 0,01 mm dan yirikroq bo'lgan zarrachalar tashkil qiladi.

Tuproqdagi qumli va loyli zarrachalar tuproq miqdorining foizini tashkil qilishiga qarab: loyli, og'ir qumoq, o'rta qumoq va yengil qumoq, qumoqli va qumli tuproqlar deb ataladi.

Xaritalarning eksplikatsiyasida tuproqning mexanik tarkibi haydov qatlami (0-30 sm) ga, ildiz oziqlanadigan chuqurlik (30-100 sm) ga va tuproq tagi gruntlari (100-200 sm)ga alohida ko'rsatilgan.

## Tuproqlar mexanik tarkibining tuzilishi

Tuproqlarning Mexanik tarkibi	Zarrachalar, %	Miqdori
	Loylida	Qumlida
Loyli	60 dan ko‘p	40 dan kam
Og‘ir qumoqli	45 dan 60 gacha	55 dan 40 gacha
O‘rta qumoqli	30 dan 45 gacha	70 dan 55 gacha
Yengil qumoqli	20 dan 30 gacha	80 dan 70 gacha
Qumoqli	10 dan 20 gacha	90 dan 80 gacha
Qumli	10 dan kam	90 dan ko‘p

**Sho‘rlanganlik darajasi:** tuproqdagi o‘simlik o‘sish uchun zarar bo‘lgan, suvda yeruvchan tuzlarning miqdorini ko‘rsatadi. Bu qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligiga kuchli darajada ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim belgilardan biridir.

Tuproqning sho‘rlanish darajasi uning tarkibidagi tuzlar miqdori va sifatiga qarab ajartiladi.

43 -jadval.

Sho‘rlanish darajasi	Miqdori, %	
	Hamma tuzlar	Xlor
Sho‘rlanmagan	0,3 dan kam	0,01 dan kam
Kuchsiz sho‘rlangan	0,3 dan 1,0 gacha	0,01 dan 0,04 gacha
Shuningdek:	0,03 dan kam	0,01 dan 0,04 gacha
O‘rtacha sho‘rlangan	0,1 dan 2,0 gacha	0,01 dan 0,04 gacha
Shuningdek:	0,3 dan 1,0 gacha	0,04 dan 0,1 gacha
Kuchli sho‘rlangan	0,2 dan 3,0 gacha	0,04 dan 0,1 gacha
Shuningdek:	0,1 dan 2,0 gacha	0,1 dan 0,3 gacha
Sho‘rxoklar	3,0 dan ko‘p	0,3 dan ko‘p

Dalalarning sho‘rini yuvishda tuproqning sho‘rlanganlik darajasi hisobga olinadi.

**Tuproqlarning emirilishi (eroziyaga uchraganligi):** Qor va yomg‘ir hamda sug‘orish davrida suvlarning ta‘sirida tuproqlarning emirilishi ko‘zda tutiladi. Suvning ta‘sirida u yoki bu darajada tuproqning emirilishi undagi gumusli (chirindili) qatlamining qisqarishi, o‘simlik uchun ozuqa hisoblangan moddalar kamayib ketishiga olib keladi. Shuningdek, xaritada eroziya natijasida yuvilgan tuproqlar, ya‘ni qiyaliklardan suv bilan yuvilib, pastlikda to‘planiladigan tuproqlar ajratiladi. Bu tuproqlarda gumusli (chirindi) qatlamining profil bo‘yicha qalinligi

gumus miqdorining juda ko'pligi bilan ajralib turadi va shuningdek, azot, fosfor va kaliy miqdori juda ko'p bo'ladi.

Eroziya ta'sirida suv emirib, yuvilgan tuproqlar murakkab rel'efli, har xil nishabli yerlarda bo'lib, sug'orishda va dalalarni qayta ishlashda qiyinchilik tug'diradi.

**Tuproqlarning skeletligi** - tuproqlarni qayta ishlashda qiyinchilik tug'diradigan har xil yiriklikdagi skeletlar(shag'al, chig'ir toshlar va toshlar) aralashganligini ko'rsatadi. Skeletli tuproqlar ko'pincha kam qatlamli bo'lib, asosan toshloqlardan, shag'alli toshlardan va toshlar aralashgan qatlamlardan iborat bo'ladi. Bu tuproqlar kuchli suv o'tkazuvchan, yer osti suvlari tez oqib chiqib ketadigan, suv sig'imining kamligi va gumus, azot bilan kam ta'minlanganligi bilan ajralib turadi.

Suv rejimini maqbul miqdorda saqlash uchun bu tuproqlarni kam miqdorda tez-tez sug'orib turish kerak.

**Yer osti suvlarining sathi** tuproqlarning yer osti suvlari bilan namlanish darajasini va suvlardan o'simliklar qay darajada foydalanishini ko'rsatadi. Ko'pincha qo'riq tuproqlar - bo'z tuproqlar, taqir tuproqlar va sur tusli qo'ng'ir tuproqlar - yer osti suvlari chuqur (5 m-chuqurda) joylashgan sharoitda rivojlanadi.

Namlangan tuproqlar (o'tloqi va bo'z o'tloqi) yer osti suvlari 1-3 m chuqurlikda joylashganda rivojlanadi. Tuproqlarning suv rejimida sizot suvlarining joylashish sathi vegetativ sug'orish miqdorlari va vaqtlarini belgilashda hisobga olinishi kerak. Yuqorida nomi ko'rsatilgan tuproqlarning biridan ikkinchisiga o'tish qismida paydo bo'ladigan tuproqlar (o'tloqi-bo'z, o'tloqi taqir)ning yer osti suvlari chuqurligi 3-5 m da bo'ladi. Bu sharoitda g'o'zaning yer osti suvlaridan foydalanishi cheklangan va u ko'pincha gruntning mexanik tarkibiga hamda qatlamlilikka bog'liq bo'ladi.

### **Mineral o'g'itlardan to'g'ri foydalanish uchun tuproq xaritalarini va agrokimyo kartogrammalarini qo'llash.**

Respublikamizda paxtadan va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishda dehqonchilik madaniyatini o'stirish va mineral o'g'itlardan keng foydalanish hisobiga bo'ladi.

Tuproq sug'orilganda o'simlik o'sishi va rivojlanishi uchun suv rejimi bo'yicha qulay sharoit yaratish, suvning va ozuqa moddalarining yuqori harakatchanligi, tuproqning yuqori biologik faollashishi va issiqlik to'planishi natijasida tuproq o'zidan katta biologik massani to'plashga imkoniyat yaratadi. Ammo tuproqning tabiiy imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaslik mumkin, chunki tuproqda asosiy ozuqa elementlari yetarli bo'lmasligi mumkin.

Tuproqda azotni o'zida ushlab turuvchi asosan tuproqning organik moddalari tarkibiga kiruvchi gumus yoki chirindidir. Azotning mineralli

birikmalari-nitratlar, ya'ni, azot kislotasi tuzlari va ammiak gumus umumiy miqdorining 1-2 % ni tashkil qiladi. Bular organik moddalarning chirishidan hosil bo'ladi va o'simliklarda yaxshi o'zlashtiriladi.

Chirindi asosan o'simliklarning qoldiqlaridan iborat bo'lib, organik kislotalar va boshqa birikmalar holatida uglyeroddan tashkil topgan. Bundan tashqari, o'simliklar qoldiqlari qiyin o'zlashtiriladigan - azot, fosfor va kaliy birikmalaridan iborat bo'lib, organik moddalarning chirishi natijasida o'simliklar o'zlashtiradigan mineral holatlarga o'tadi.

O'zbekistonning paxta ekadigan tumanlarining tuproqlari tarkibidagi gumus va azot miqdoriga qarab har xil bo'ladi. Dasht mintaqasidagi tuproqlar tarkibida 0,5-0,8% gumus va 0,04-0,08% azot bo'lib, ular ozuqa moddalarga kambag'aldir. Bu birikmalarga och tusli, ayniqsa, tipik bo'z tuproqlar boyroqdir. Gumus va azotga eng boy tuproqlar - bu gidromorf tuproqlar, ya'ni o'tloqi va botqoq-o'tloqi tuproqlardir. Ularda gumus 1,5 dan 2,5% gacha, ayrim joylarda 8% gacha, azot esa 0,1-0,2, kamdan - kam 0,4% gacha borligi kuzatiladi. Mineral o'g'itlar bilan olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, dasht tuproqlari azotli o'g'itlarni ishlatganda yaxshi unumdor bo'lib, keyingi o'rinni och tusli bo'z tuproqlar va tipik bo'z tuproqlar egallaydi.

Tuproqning fosfor bilan ta'minlanganligi bo'yicha kartogram-malarda quyidagi ajratishlar qabul qilingan (mg/kg, tuproqda harakatchan fosfor):

Juda past - 0-15

Past - 16-30

O'rtacha - 31-45

Yuqori - 45-60

Juda yuqori- 60 dan ko'p.

Kartogrammalarda maydonlar fosforning miqdoriga qarab shunga mos ravishda rang bilan bo'yab qo'yiladi, ya'ni, och yashil rangda juda past ta'minlangan, to'q ko'k ranggacha yuqori ta'minlangan.

Hosil yetishtirishda azot va fosfor bilan bir qatorda kaliyning ham ahamiyati katta. O'zbekistondagi sug'oriladigan yerlarning ko'p qismi kaliyga boy: uning miqdori 2-2,5%  $K_2O$ . Yalpi kaliy miqdorining ko'pligi va tarkibidagi kaliyli minerallar tutgan moddalarning kuchli chirishi natijasida o'simlik o'zlashtiradigan harakatchan kaliy tuproq tarkibida juda ko'pdir.

Tuproq tarkibidagi kaliy miqdorini ko'rsatuvchi agrokimyo kartogrammalarida bu elementlar bilan ta'minlanganlikni quyidagicha ajratish qabul qilingan (tuproqda harakatchan  $K_2O$  ning miqdori mg/kg-da):

Juda past - 100 gacha

Past - 101-200

O'rtacha - 201-400

Juda yuqori - 401-dan ko'p.

Kartogrammada tuproqdagi kaliy miqdorining har xilligi shtrix chiziqlar bilan belgilanadi.

Fermerlar uyushmasi va fermer xo‘jaliklarida rejalar tuziladi. Bunda quyidagi xujjatlar qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi:

- xo‘jalikning tuproq xaritasi;
- agrokimyó kartogrammalar;
- qishloq xo‘jalik ekinlariga mineral o‘g‘itlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyanoma.

Har qaysi dala uchun yoki bir-biriga o‘xshash dalalar guruhi uchun g‘o‘zaga solinadigan o‘g‘itlarning yillik miqdorini aniqlashda tuproqning xususiyatlarini (tuproq iqlim mintaqasi, tuproq tiplari, uning madaniylashtirilganligi), agrotexnik turlari( ekiladigan ekinlarning xillari), rejalashtirilgan xosildorlikning kattaligini hisobga olish zarur. Yuqorida aytib o‘tilganlarni hisobga olib, mineral o‘g‘itlarni solish bo‘yicha Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan tavsiyanoma ishlab chiqilgan. O‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, fosforli va kaliyli o‘g‘itlar solinganda bu elementlarga kambag‘al bo‘lgan (ta‘minlanganligi juda past va past darajada ta‘minlangan) tuproqlarda ekinlar hosildorligi ancha yuqori bo‘lishi kuzatilgan. Shuni hisobga olib, qo‘yida solinadigan o‘g‘itlarning miqdori belgilanadi va taqsimlanadi.

Bir yillik miqdordagi o‘g‘itlarni muddatlar bo‘yicha taqsimlashda tuproqlarning quyidagi xususiyatlarini hisobga olish zarur: Azotli o‘g‘itlar - yer osti suvi yaqin bo‘lgan va yer osti suvining sizib oqib chiqib ketishi kuchli bo‘lgan tuproqlarga haydash oldidan berilmaydi, mexanik tarkibi yengil bo‘lgan tuproqlarga oziqlantirish davrida oz-ozdan bo‘lib solinadi.

Fosfor o‘g‘itlarini yerga chuqur solish kerak. Ko‘p qismini yer haydalayotganda yoki bahorgi haydashda, sho‘rlangan yerlarda yuvilganidan keyin solish lozim.

44-jadval

Tuproqlarning fosfor va kaliy bilan ta‘minlanganligini hisoblab chiqish koeffitsiyenti

Ta‘minlanganlik darajasi	Kartogramma bo‘yicha miqdori, tuproqda mg/kg		Tuproqlarning ta‘minlanganlik koeffitsiyenti
	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	K <sub>2</sub> O	
Juda past	15 gacha	100 gacha	1,25
Past	16-30	101-200	1,00
O‘rtacha	31-45	201-300	0,75
Yuqori	46-60	301-400	0,50
Juda yuqori	60 dan yuqori	401 dan yuqori	

Fosfor o'g'itlarini yerga chuqur solish kerak. Ko'p qismini yer haydalayotganda yoki bahorgi haydashda, sho'rlangan yerlarda yuvilganidan keyin solish lozim.

### **Tuproq xaritasining meliorativ tadbirlar ishlab chiqishdagi ahamiyati**

Respublikamizdagi ko'pgina tumanlarda tuproq meliorativ holatining yomonligi uning sho'rlanishi bilan bog'liqdir. Sho'rlanish yer osti suvlari tabiiy sizib, oqib chiqib ketishi yomon bo'lgan maydonlarda drenajsiz sug'oriladigan dehqonchilik qilinishining natijasidir. Bu O'zbekistondagi cho'l mintaqasining tekislik tumanlarida keng tarqalgan bo'lib, unga qarshi kurash sug'orish uchun o'zlashtiriladigan yangi yerlardagi asosiy muammolardan biri sanaladi, qadimdan sug'oriladigan yerlarda esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirishda qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Sho'rlangan yerlar bo'yicha meliorativ tadbirlar o'tkazishning birinchi galdagi vazifalari quyidagicha bo'ladi:

1. Har qaysi xo'jalikning tabiiy va irrigatsiya - xo'jalik sharoitini hisobga olib, suvdan foydalanish tarmoqlari bo'yicha rejali me'yorlashtirish respublikaning ko'pgina irrigatsiya tarmoqlari uchun paxta va beda o'stiriladigan hududlarda bir yil davomida belgilanadigan suv miqdori 10-12 ming m<sup>3</sup>/ga dan oshmasligi zarur.

2. Sug'orish texnikasini yaxshilash, yana ham takomillashgan, me'yorida sug'orilganda bir tekis namlanadigan va sug'orish kartalarida suv oqib chiqib ketmasligi uchun egatli sug'orish usulini qo'llash kerak. Sug'oriladigan jo'yaklar shunday olinishi zarurki, qiyaliklarda tuproq yuvilib ketmasligi va egatning pastki qismida ortiqcha suv to'planmasligi zarur. Rel'efning xususiyatlarini, tuproq qoplanishini va ekinlar talabini hisobga olgan holda tabaqalashgan sug'orish rejimini qo'llash ijobiy ahamiyatga ega. Sug'orish texnikasini yaxshilash va yer osti suvlarining oziqlanishini anchagina kamaytiradi.

3. Tuproqning kesakli, g'ovakli holatini tiklash va unda namlikni aniqlash uchun dalalarni o'z vaqtida qayta ishlash zarur.

4. Sug'oriladigan dalalar (kartalar) yuzasini tekislash. Sho'rlangan sug'oriladigan maydonlar ko'pincha yomon tekislangan va kam suv bilan jo'yak bo'ylab sug'orish uchun kam moslashgan bo'ladi. Jo'yakli sug'orishda yer yaxshi tekislangan bo'lishi zarur.

5. Sug'orish tarmoqlarida suvning yerga singib, isrof bo'lishiga qarshi kurashish, suvdan foydalanish bo'yicha tadbirlarni tartibga solish hamma yerda ham yer osti suvi ko'tarilishining oldini to'liq ololmaydi. Lekin, bu borada oz bo'lsada foyda beradi. Shuning uchun ham, ayniqsa suvlarni kanallarda yerga singib, isrof bo'lishga qarshi kurashish zarur.

Tuproqning shoʻrlanish jarayoni va shoʻrlanish jadalligi yer osti suvi chuqurligiga va uning minerallashtirilishiga, tuproqning kapillyar xossalari bogʻliq boʻladi. Shoʻrlangan tuproqlarda agrotexnik tadbirlarni oʻtkazishda qayta ishlov berish, almashlab ekish, shoʻrni yuvish va vegetatsion sugʻorishlarga alohida ahamiyat berish zarur.

Shoʻrlangan tuproqlarni kuzda chuqur qilib haydash yogʻinli qish sharoitida tuproqning davriy shoʻrsizlanishiga imkon yaratadi. Sugʻorishdan keyingi chuqur /10-15 sm/ kultivatsiya esa tuproq yuzasidan parlanishini ancha kamaytiradi. Natijada sugʻorishdan soʻng hosil boʻladigan shoʻrlanishning oldi olinadi. Lekin tuproqqa qayta ishlov berish faqat kam shoʻrlangan tuproqlargagina foyda beradi. Almashlab ekishda kuchli rivojlangan beda va ekinlarni yaxshilab sugʻorish oʻrtacha shoʻrlangan sugʻoriladigan tuproqlarning shoʻrlanish tartibiga kuchli taʼsir qiladi. Bu yer osti suvlarini 50-100 sm/ga pasaytirib, yer yuzasidan parlanishini ancha kamaytiradi va tuproqning suv-fizik xususiyatlarini yaxshilaydi. Natijada 2-3 yil ichida ildiz oziqlanadigan qavatdan tuzlar qayta taqsimlanib, ancha past gorizontga tushib ketadi.

Sugʻoriladigan tuproqlarda beda almashlab ekishni joriy qilish shoʻrlanish rejimi boshqaruvining muhim usullaridan biri boʻlib, kam va oʻrtacha shoʻrlangan sugʻoriladigan tuproqlar davriy shoʻrlanishini kamaytiradi va toʻxtatadi.

### **Sugʻoriladigan yerlarni roʻyxatga olish tartibi**

Respublika qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan yer maydoni 28 mln. gektardan oshiqroq. Birinchi qarashda yer maydoni koʻpga oʻxshab koʻrinsa-da, aslida qishloq xoʻjaligida intensiv foydalaniladigan yerlar, asosan sugʻoriladigan maydonlar boʻlib - 4,28 mln. gektarga teng. Bu yerlar haqiqatdan ham respublikamizning «oltin fondi»ni tashkil etadi va ularda yalpi qishloq xoʻjalik mahsulotlarining 95 foizidan oshiqrogʻi yetishtiriladi.

1. Sugʻoriladigan yerlarni roʻyxatga olish tartibi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 1983 yil 17 maydagi 10/3/357- topshirigʻiga, Qishloq va suv xoʻjaligi vazirligining 1983 yil 11 avgustdagi 426/1390-buyrugʻiga asosan oʻtkaziladi. Oʻzbekiston Respublikasining 1998 yil 29 apreldagi «Yer kodeksi», «Fermer xoʻjaligi toʻgʻrisida»gi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I-chaqiriq XI-XII sessiyalarida qabul qilingan «Yer kodeksi» va «Davlat yer kadastr toʻgʻrisida»gi qonuni, 1998 yil avgustdagi «Davlat yer kadastr toʻgʻrisida»gi qabul qilingan xujjatlarda yerga egalik qilish va yerdan samarali foydalanishning yangi shakllari vujudga keldi.

1.1. Fermerlar uyushmasi va fermer xoʻjaliklari va boshqa qishloq xoʻjaligi hamda oʻrmon xoʻjaligi davlat tashkilotlari, hamma qaram korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, davlat yer zahirasida joylashgan, muddatsiz, uzoq muddatli va qisqa



muddatli foydalanishda bo'lgan, sug'oriladigan va lalmikor yerlar ham ro'yxatdan o'tkaziladi.

1.2. Yerlarni ro'yxatga olish bir vaqtda o'tkaziladigan tadbir bo'lib, bunda har qaysi xo'jalik bo'yicha quyidagilar amalga oshiriladi:

- qishloq xo'jalik yer turlarining maydoni to'g'risida aniq ma'lumotlar olish va ularni reja-xarita asosida ko'rsatish;

- tuproq tekshiruv xujjatlari asosida qishloq xo'jalik yer turlarining sifatiga tavsif berish;

- Yer ustini tekislash tadbirlari o'tkazish, kollektor, drenaj va sug'orish tarmoqlarini qurish va rekonstruktsiya qilish zarur bo'lgan maydonlarni aniqlash va boshqalar.

1.3. Foydalaniladigan har qaysi yerni ro'yxatga olish, viloyat suv xo'jaligi ishlab chiqarish boshqarmasidan asosiy kanallar va sug'orish manbalaridan olingan ma'lumotlari bo'yicha o'tkaziladi.

1.4. Yerlarni ro'yxatga olish ishlarini ularning natijalarini umumlashtirish va tasdiqlash bo'yicha viloyat hokimiyati topshirig'iga asosan tuman va viloyat hokimiyatlari qoshida komissiyalar tashkil qilinadi.

1.5. Viloyatda tuzilgan komissiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- viloyat dehqonchilik-sanoat uyushmasini boshlig'i (komissiya raisi);

- suv xo'jaligi ishlab chiqarish boshqarmasining boshlig'i;

- viloyat hokimiyati yer tuzish bo'limi va viloyat statistika boshqarmalarining boshliqlari;

- «O'zdavyerloyiha» ilmiy - tekshirish instituti direktori yoki bo'lim boshliqlari.

Zarur hollarda komissiya tarkibiga boshqa tashkilotlarning vakillari ham kiritilishi mumkin.

1.6. Har qaysi xo'jalikda asosiy ish bajaruvchi «O'zdav-yerloyiha» ilmiy-tekshirish instituti tuzuvchisi bo'lib, u ishni tuman gidrotexniki, yer tuzish muhandisi, xo'jalik rahbarlari va mutaxassislari bilan birgalikda bajaradi.

1.7. Yerlarni ro'yxatga olish nisbati 1:10000 bo'lgan reja-xarita asosida amalga oshiriladi. Ayrim hollarda lalmikor yerlar nisbati 1:25000 bo'lgan reja-xarita asoslari bo'lmasa, bu ish reja-xarita asosida ro'yxatga olinadi.

1.8. Ayrim maydonlar uchun reja-xarita asoslari bo'lmasa, bu ish-reja-xarita yangidan tayyorlangan holda amalga oshiriladi.

2. Davlat yer zaxiralari va davlat o'rmon fondlari rejali asoslar bilan ta'minlangan bo'lmasa, sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish oddiy yo'l - qishloq xo'jaligi yer turlarini joyida o'lchash yo'li bilan olib boriladi. Lalmikor yaylov qisman sug'oriladigan yerlar ham shu usulda ro'yxatga olinadi.

2.1. Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish ishlari quyidagi bosqichda bajariladi:

- tayyorgarlik va tashkiliy ishlar;
- dala ishlari;
- maydonlarini aniqlash va qaydnomalarini to'lg'azish;
- rasmiylashtirish va xujjatlarni ko'paytirish;
- ro'yxatga olish natijalarini ko'rib chiqish.

## 2.2 Tayyorgarlik va tashkiliy ishlar

### 1.2.1 Har bir xo'jalik bo'yicha:

- yerdan foydalanish rejasi;
- maydon hisoblash qaydnomasi;
- tuproq tekshiruv xujjatlari;
- yerni hisobga oluvchi yer balansi;
- boshqa yer tuzish xujjatlari tanlab olinadi.

### 1.2.2 Yerdan foydalanish rejasi tarkibiga:

- xo'jalik chegarasida sodir bo'lgan o'zgarishlarni o'tkazish;
- sug'oriladigan mintaqalarini va ularning chegaralarini, bu mintaqalar ichidagi doim sug'oriladigan yerlarning chegaralarini, ayni paytning o'zida suv olinadigan asosiy kanal mintaqasini ko'rsatish kiradi. Bu ma'lumotlar rayon sug'orish tarmoqlari boshqarmasi xujjatlari asosida tayyorlanadi.

Ko'chib yurib dehqonchilik qiladigan xo'jaliklar uchun faqat sug'oriladigan yerlar chegarasi aniqlanadi, lekin bu chegara yerlar rejasi asosida emas, balki umumiy irrigatsiya tarmoqlari bo'yicha aniqlanadi.

2.2.3. Bostirilib sug'oriladigan yerlari bo'lgan xo'jaliklarda reja asoslariga bunday yerlarning chegaralari tushiriladi. Liman usulida sug'oriladigan muhandislik va yarim muhandislik tarmoqlarining chegaralari loyiha xujjatlari asosida aniqlanadi. Keyinchalik esa daladagi haqiqiy bostirib sug'oriladigan yerlar chegaralarining to'g'riligi aniqlanadi.

## 2.3.Dala ishlari.

2.3.1. Dala ishlari davomida sug'oriladigan maydonlarining to'g'riligi aniqlanadi va barcha o'zgarishlar reja asoslariga tushiriladi.

Yangi paydo bo'lgan o'zgarishlar reja asosiga qizil rangda qisqa qilib, chegarasi yo'q bo'lgan sug'oriladigan joylar, shuningdek, doimiy sug'oriladigan yerlar chegarasi siyoh rangda, kanallarning boshlanish zonasi havo rang va aholi yashaydigan joylar jigar rangda chiziladi. Qishloq xo'jalik yerlarning turlari va turli elementlar esa umumiy qabul qilingan shartli belgilarga mos holda chiziladi.

2.3.2. Qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orilish uchun yaroqli, sug'orish tarmoqlari (kanallar, lotoklar, trubaprovodlar va boshqalar) ga va shu yerlar sug'orilishini ta'minlovchi manbaga ega bo'lgan yerlar sug'oriladigan yerlar hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlarga, shuningdek, ularning meliorativ holatini yaxshilash va sug'orish tarmoqlarini qayta qurish zarur bo'lgan yerlar ham kiradi.

Yangidan foydalanishiga topshirilgan, ya'ni loyiha xujjatlariga asosan meliorativ qurilishlar o'tkazilgan va davlat komissiyasi xulosasi bo'yicha xo'jalikka berilgan yerlar ham sug'oriladigan yerlar sanaladi.

2.3.3. Yerlarni ro'yxatga olishda doimiy sug'oriladigan va liman usulida sug'oriladigan yerlar ajratiladi.

Sug'oriladigan yerlarga qishloq xo'jalik ekinlari va daraxtlarni o'z vaqtida sug'orish imkoni bo'lgan (suv ta'minotiga bog'liq holda) yerlar kiradi. Marza olingan, damba va boshqa gidrotexnik inshootlar qurilib, zarur sug'orish suvini ushlab qolish yoki maxsus qurilmalar yordami bilan sug'orish tarmoqlaridan suv olib, bostirib sug'oriladigan yerlar liman usulida sug'oriladigan yerlar hisoblanadi.

2.3.4. Sug'oriladigan mintaqa chegarasida hamma yer turlari aniqlanadi va reja-xarita asosidagi o'zgarishlar taqazo etadigan ishlar amalga oshiriladi, aholi yashaydigan punktlarning chegarasi belgilanadi, shuningdek, aholi foydalanayotgan haydalma yerlar va sug'oriladigan boshqa yer turlari ajratiladi.

Tomorqa yerlarida dala tekshiruvi ishlari o'tkazilmaydi. Ularning maydoni ilgari ma'lum bo'lgan ma'lumotlardan olinadi (tomorqa yerlarida o'lchov o'tkaziladi, ma'lumotlari aniqlanadi).

2.4. Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish qaydnomasi shu yerlarning har bir xo'jalik bo'yicha tuzilishiga asosan yer turlari konturlariga ko'ra maydonni hisoblash orqali olinadi.

Agar oldin hisoblab chiqarilgan maydon o'zgarmagan bo'lsa, uning qaydnomasidan foydalanib ro'yxatga olish shakllari to'lg'aziladi.

Bordiyu, xo'jalik maydonining bir qismi yoki ayrim bo'lagida tegishli o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa, hisoblash qaydnomasiga o'zgarishlar kiritilmaydi, bu o'zgarishlar ro'yxatga olish shakllarini to'lg'azishda ko'rsatib o'tiladi.

2.4.1. Ro'yxatga olish qaydnomasi quyidagicha to'ldiriladi:

Doimiy (muddatsiz) foydalaniladigan yerlar.

1. Kanaldan doimiy sug'oriladigan yerlar shu sug'orish kanallari mintaqasidagi hamma yer turlari konturi yoziladi va kanal mintaqasi bo'yicha ularning jami beriladi.

2. Kanaldan doimiy sug'oriladigan yerlar. Doimiy sug'oriladigan yerlarning jami:

3. Kanal mintaqasidagi sug'orish tarmoqlari bo'lgan sug'oriladigan yerlar.

4. Kanal mintaqasidagi liman usulida sug'oriladigan yerlar.

5. Kanal mintaqasidagi sug'orish tarmoqlari bo'lgan sug'orilmaydigan yerlar.

Sug'orish tarmoqlari bo'lgan sug'orilmaydigan yerlarning jami.

Sug'orish tarmoqlari bo'lgan yerlarning jami.

Kanaldan sug'oriladigan yerlari bo'lgan uzoq muddat foydalanishga borilgan yerlar.

Boshqa yerdan foydalanuvchilarga berkitib qo'yilgan xo'jaliklarning yerlari.

2.4.2. Lalmikor va yaylov mintaqalarining yer turlari maydon-larning konturlari bo'yicha hisoboti qaydnomasidan qabul qilinadi va konturlar guruhi bo'yicha yoziladi.

Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish qaydnomasi guruh rahbari (otryad boshlig'i) tomonidan tekshiriladi, uni to'ldirgan shaxs va xo'jalik rahbari tomonidan imzo chekadi.

2.4.3. Sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari tuprog'ining sifatini aniqlash va qaydnomani to'lg'azish uchun qo'shimcha ishlar bajarilmaydi, balki mavjud tuproq-tekshiruv xujjatlaridan, shuningdek, yer turlari tarkibini ro'yxatga olish ma'lumotlaridan foydalaniladi va maydon har qaysi ko'rsatkich bo'yicha boshqatdan hisoblab chiqaziladi.

Shu bilan birga sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlarining maydonlari umumittifoq hisob-kitob guruhlariga, shuningdek, mexanik tarkibi, sho'rlanish darajasi va eroziyaga uchrashi bo'yicha ajratiladi va viloyat suv xo'jaligi ishlab chiqarish boshqarmasi ma'lumotlaridan hamda meliorativ xizmat ko'rsatuvchi tuproqshunos maslahatiga ko'ra yer sifatining tavsifi, sug'orish va kollektor drenaj tarmoqlarining dala tekshiruvi ma'lumotlari asosida to'lg'aziladi. Sifatini yaxshilash uchun kapital ishlar amalga oshirilishi zarur bo'lgan yerlar maydoni aniqlanadi hamda u yerlarda sug'orish tarmoqlarini rekonstruktsiya qilish, qayta qurish, yer uchastkalarining ustini kapital tekislash va boshqa tadbirlar o'tkazish zarur bo'ladi. Bu maydonlar doimiy sug'oriladigan yerlarni ajratish bilan birga aniqlanadi.

## 2.5. Xujjatlarni rasmiylashtirish va ko'paytirish.

2.5.1. Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish natijalari har bir xo'jalik bo'yicha 3 nusxada dalolatnoma tuzish orqali rasmiylashtiriladi. Dalolatnoma komissiya a'zolari, xo'jalik rahbari va bosh agronom tomonidan imzolanadi.

2.5.2. Ro'yxatga olish xujjatlari har qaysi xo'jalik bo'yicha 3 nusxada ko'paytiriladi. Har bir nusxa quyidagi xujjatlardan tashkil topgan bo'ladi:

- qisqacha tushuntirish xati;
- ro'yxatga olish dalolatnomasi ilovalar bilan;
- sug'oriladigan yerlar ro'yxati qaydnomasi;
- sifatini yaxshilash bo'yicha kapital ishlar amalga oshirilishi zarur bo'lgan sug'oriladigan yerlarning konturlar bo'yicha qaydnomasi.

Taqqoslash qaydnomasida sug'oriladigan yerlar miqdori yer balansi bo'yicha solishtirilganda o'zgarishlar sababi tushuntiriladi.

2.5.3. Xo'jaliklar bo'yicha sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish xujjatlari:

- xo'jalikka;

- tuman agrosanoat uyushmasi boshqarmasiga;
- tuman sug'orish tarmoqlari boshqarmasiga;
- «O'zdavryerloyiha» ilmiy - tekshirish institutiga (xaqiqiy nusxa) topshiriladi.

2.5.4. Tumandagi hamma yerdan foydalanuvchilar ixtiyoridagi sug'oriladigan yerlar ro'yxatga olingach, yakuniy hisobot tayyorlanadi. Bu hisobot 5 nusxada ko'paytirilib, quyidagi tashkilotlarga topshiriladi:

- tuman agrosanoat uyushmasi boshqarmasiga;
- tuman sug'orish tarmoqlari boshqarmasiga;
- viloyat yer tuzish boshqarmasiga;
- O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi vazirligining yer tuzish va yerdan foydalanish bosh boshqarmasiga;
- «O'zdavryerloyiha»ilmiy-tekshirish institutiga.

2.5.5. Viloyat bo'yicha yakuniy hisobot, nohiyalar bo'yicha yakuniy hisobot asosida tuzilib:

- viloyat yer tuzish boshqarmasiga;
- viloyat suv xo'jaligi ishlab chiqarish boshqarmasiga;
- O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining yer tuzish va yerdan foydalanish bo'limlariga.

2.6. Ro'yxatga olish natijalarini ko'rib chiqish.

2.6.1. Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olishning yakuni, tumanlar bo'yicha tuman hokimiyati va viloyat hokimiyati tomonidan ko'rib chiqib, qaror bilan tasdiqlanadi.

Respublika bo'yicha esa Qishloq va suv xo'jaligi vazirligida yer hisoboti bilan birga tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi

\_\_\_\_\_viloyati\_\_\_\_\_tumanidagi

\_\_\_\_\_sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish  
(xo'jalik yoki fermer nomi)

### Q A Y D N O M A S I

Qaydnomani \_\_\_\_\_tuzdi  
(lavozimi, imzosi, familiyasi)

\_\_\_\_\_tekshirdi

\_\_\_\_\_xo'jalik yoki fermer vakili



**5-rasm. Respublikada sugʻoriladigan ekin yer maydonlari dinamikasi, (ming ga hisobida).**

**Nazorat savollari:**

1. Sugʻoriladigan yerlarni roʻyxatga olish tartibi qanday?
2. Sugʻoriladigan yerlarni roʻyxatga olish qaydnomasi qanday tuldiriladi?
3. Sugʻoriladigan yerlar maydoni respublikamizda qancha maydonni tashkil etadi.

### **YERLARNI BAHOLASH BO‘YICHA MA‘LUMOTLARDAN FOYDALANISH. VILOYATDA, TUMANDA YER KADASTRI**

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda olib boriladigan yer kadastrisi mamlakat yer kadastrining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Yer kadastrisi ma‘lumotlari – yer egaliklari hisoblanadi (yerdan foydalanuvchilar)ga ishlab chiqarish faoliyati uchun tuman tashkilotlariga esa – yerlardan to‘g‘ri foydalanishni nazorat qilish hamda davlat yer kadastrisi ayniqsa qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi korxonalarida katta ahamiyatga ega, qaysiki, bu yerda yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi.

Yer kadastrisi – qishloq xo‘jalik korxonasi asosiy hisob turlaridan biridir. Shu sababli ham u alohida olingan holda emas balki operativ – texnik va buxgalteriya hisoblashlari bilan birga kompleks holda qarash zarur. Yer kadastrisi boshqa turdagi hisoblarni yer egaliklari yer turlarining tarkibi, ularning sifat holati, yerlarning bahosi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan ta‘minlaydi. Ushbu maqsadlar uchun yer kadastrining plan – xarita va tekst xujjatlaridan foydalaniladi. Bu esa o‘z navbatida operativ – texnik va buxgalteriya hisoblari qishloq xo‘jalik korxonalarida yerlardan foydalanishni tavsiflaydigan iqtisodiy, agrotexnik va boshqa ko‘rsatkichlarga ega ekanligidan dalolat berishini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jalik korxonasidagi yer kadastrisi nainki xo‘jalikning o‘zini, balki, tumandagi barcha korxonalarni davlat yer kadastrini yuritish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar bilan ta‘minlashi zarur.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda yer kadastrisi asosiy va joriy turlarga bo‘linadi. Asosiy yer kadastrini o‘tkazishda ma‘lumotlarni yer kadastrisi xujjatlariga tushirgan xolda yer egaligi, (yerdan foydalanish)ning huquqiy, tabiiy va xo‘jalik holatlari to‘g‘risida to‘la ma‘lumotlar to‘planishi zarur. Joriy yer kadastrida yerdan foydalanishdagi barcha o‘zgarishlar aniqlanadi, shuningdek, yer kadastrisi xujjatlarida qat‘iy kiritilgan boshlang‘ich ma‘lumotlardagi xatolar to‘g‘irlanadi. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda yer kadastrini o‘tkazishda uni tanaffussizligini, ob‘ektivligini, yer kadastrisi ma‘lumotlarini ko‘rgazmaliligini ta‘minlash zarur.

Yer kadastrisi materiallari xo‘jaliklararo yer tuzish loyixalarini tuzishda o‘ta zarur, negaki, ayniqsa bozor munosabatlari sharoitida yer maydonlariga mulkiy, egalik huquqining paydo bo‘layotganligi, turli tiplardagi va ko‘rinishlardagi korxonalarining tashkil etilayotganligi eng avvalo hududdagi mavjud yer maydonlarining miqdori, sifat holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bioishni takazo qiladi.

Yer kadastrisi ma‘lumotlari ichki yer tuzish loyixalarini tuzishda ham keng

qo‘llaniladi. Turli yer turlari va almashlab ekishlar joyning rel‘efiga, tuproq sharoitiga va yerlarning meliorativ holatiga turlicha talab qo‘yadi. Shu sababli, yer egaligida yer turlari va almashlab ekishlarni to‘g‘ri joylashtirish uchun yer egaligini yer turlari tarkibi bo‘yicha bilish, turli qishloq, xo‘jalik ekinlarini o‘stirishga yerlarning yaroqlilik darajasi to‘da yer kadastrini o‘tkazishda uni tanaffussizligini, ob‘ektivligini, yer kadastrini ma‘lumotlarini ko‘rgazmaliligini ta‘minlash zarur.

Yer kadastrini materiallari xo‘jaliklararo yer tuzish loyixalarini tuzishda o‘ta zarur, negaki, ayniqsa bozor munosabatlari sharoitida yer maydonlariga mulkiy, egalik huquqining paydo bo‘layotganligi, turli tiplardagi va ko‘rinishlardagi korxonalarining tashkil etilayotganligi eng avvalo hududdagi mavjud yer maydonlarining miqdori, sifat holati to‘grisidagi ma‘lumotlar bioishni takazo qiladi.

Yer kadastrini ma‘lumotlari ichki yer tuzish loyihalarini tuzishda ham keng qo‘llaniladi. Turli yer turlari va almashlab ekishlar joyning rel‘efiga, tuproq sharoitiga va yerlarning meliorativ holatiga turlicha talab qo‘yadi. Shu sababli, yer egaligida yer turlari va almashlab ekishlarni to‘g‘ri joylashtirish uchun yer egaligini yer turlari tarkibi bo‘yicha bilish, turli qishloq, xo‘jalik ekinlarini o‘stirishga yerlarning yaroqlilik darajasi to‘grisidagi ma‘lumotlariga ega bo‘lish zarur. Bunday ma‘lumotlarga ega bo‘lish ko‘p yillik daraxtzorlar (bog‘lar, uzumzorlar) ekish, sabzovot, dala va maxsus almashlab ekishlarni joylashtirish uchun yer uchastkalarini har tomonlama asoslangan holda tanlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda yer kadastrini materiallari, ayniqsa, yerdan foydalanishda to‘lanadigan haqlar miqdorlarini (yer soligi, ijara xaqi) ilmiy asoslangan holda aniqlash va belgilashda muhim ahamiyat kasb qiladi. Doimiy yer egaliklariga (yerdan foydalanuvchilarga) ular uchun ajratiladigan yer maydonlari bilan bog‘liq kartografik materiallar, tuproq, ob – havo, gyeronatik, agrokimyoviy, meliorativ va boshqa ma‘lumotlar tayyor bo‘lishi zarur. Yer to‘grisidagi sifatli ma‘lumotlarni quyidagilarga ajratish mumkin: davlat ehtiyojlari uchun (soliq umumiy rejalar), yer egaliklari (yerdan foydalanuvchilar) uchun – xo‘jalik yuritish maqsadlarida barcha yer maydonlari haqida xolisona va xar tomonlama aniq ma‘lumotlar. Shuning uchun egalik qilish va foydalanishga berilgan yerlar holati va qiymati to‘grisidagi ma‘lumotlar to‘la bo‘lishi ulardan amaliyotda oqilona foydalanish imkoniyatini ta‘minlaydi.

### **Korxonalar, muassasa va tashkilotlarda yer kadastrini tashkil etish**

Ma‘lumki, korxonalar, muassasa va tashkilotlarda yuritiladigan yer kadastrini ichki xo‘jalik hisob – kitobning bir turidir. Shu sababli ham Respublikamizdagi asosiy qishloq xo‘jalik korxonalarida yer kadastrini yuritish, tuman xokimiyatidagi bosh yer tuzuvchi injenyer tomonidan to‘g‘ridan – to‘g‘ri rahbarlik va nazorat asosida ishlaydigan maxsus yer tuzuvchi mutaxassislariga yuklatilgan. Bu



mutaxassis – xo‘jalik yer tuzuvchi injenyeridir.

Yer tuzuvchi injenyer lavozimiga tuman hokimiyati bilan kelishilgan holda maxsus oliy yoki o‘rta ma’lumotlarga ega bo‘lgan, yer kadastru xujjatlarini yurita bilish tajribasiga ega bo‘lgan shaxs qo‘yiladi. Uni boshqa ishga o‘tkazish faqat tuman hokimiyati bilan kelishilgandan so‘nggina amalga oshiriladi. Yer tuzuvchi o‘z ish faoliyati to‘g‘risida xo‘jalik boshqaruvi hamda tuman bosh yer tuzuvchi injenyeri oldida hisobot beradi.

Xo‘jalik yer tuzuvchi – injenyeriga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- Yer qonunlarini yaxshi bilishi, uni bajarilishini sistemali tarzda kuzatib borish va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tuzatish bo‘yicha zaruriy chora – tadbirlar ko‘rgan holda aniqlangan buzilishlar to‘g‘risida ma’lumotni xo‘jaliklar boshqaruviga o‘z vaqtida yetkazib turishi;
- Xo‘jalik yerlarini aniq bilish va ularni to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha nazoratni to‘la ta’minlashi;
- Yerlardan foydalanish tartibini ichki xo‘jalik yer tuzish loyihasida belgilangan holda bajarilishini, chegara belgilarini saqlanishini, almashib ekish massivlari, boshqa ishlab chiqarish bo‘limlari chegaralarini saqlanishini kuzatish va xo‘jalik boshqaruvi orqali buzilgan chegaralarni qayta tiklash bo‘yicha choralar ko‘rishi;
- Plan – xarita materiallaridan foydalangan holda nazorat tariqasidagi o‘lchov ishlarini (obmyer) o‘tkazib borish;
- Ichki xo‘jalik yer tuzish va ichki xo‘jalik qurilishi loyihalariga muvofiq xo‘jalik yerlaridan ishlab chiqarish uchastkalari uchun yer ajratilish;
- Xo‘jalik faoliyati natijasida yer turlari va ularning sifati: chegaralari o‘zgargan holda dala o‘lchov ishlarini o‘tkazish, o‘zgargan konturlar maydonlarini xo‘jalik xaritasiga va yer kadastru kitobiga tushirib borishi;
- Xo‘jalik mehnatkashlari umumiy majlisi, qaroriga muvofiq, xizmatchilar va boshqa fuqarolarga joyda tomorqa yerlarini ajratish, tomorqa yerlar maydoniga tuzatmalar kiritishi, shuningdek tomorqa uchastkalarida o‘lchov ishlarini hamda yer kadastru kitobiga qonuniy o‘zgarishlarni kiritishni;
- Bo‘sh yotgan tomorqa yerlaridan to‘laroq foydalanish maqsadida aholi punktlari yerlarini tartibga solish bo‘yicha ishlarni bajarish;
- Xo‘jalik yerlarida qurilish, geologiya – qidiruv, yo‘l va boshqa idoralar tomonidan eroziyaga qarshi tadbirlarga amal qilinayotganligini kuzatish;
- Har yilning 1- yanvariga bo‘lgan holatda tuman yer balansini tuzish maqsadlari uchun xo‘jalik boshqaruvi tomonidan jamoa yerlari hamda tomorqa uchastkalari maydonlarini o‘zgarishi to‘g‘risidagi zaruriy ma’lumotlarni tayyorlash;
- Ichki xo‘jalik yer tuzish loyihasini, qishloq aholi yashash joylarining loyihasini tuzishda, davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer ajratish, shuningdek

xo‘jalikda o‘lchov ishlari va plan – xarita materiallaridan foydalanish bilan bogliq ishlarda qatnashishi;

- Xo‘jalik zaruriyatlari uchun tuman bosh yer tuzuvchi–injenyeriga plan–kartografik materiallar, turli shakllar zarurligi to‘g‘risida xo‘jalik boshqaruvi nomidan xatlar tayyorlashi zarur.

### **Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yer egaligi (yerdan foydalanish)ning tavsifi**

O‘zbekiston Respublikasida yer davlat mulkidir, ya’ni, umummilliy boylikdir, u davlat tomonidan muhofaza qilinadi hamda oldi – sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan hollar bundan mustasno. Yuridik shaxslar «Yer kodeksi» va boshqa qonun xujjatlariga muvofiq yer uchastkalariga mulk huquqi, doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli foydalanish, ijara huquqi asosida ega bo‘lishlari mumkin. Jismoniy shaxslar yer uchastkalariga «Yer kodeksi» va boshqa qonun xujjatlariga muvofiq mulk huquqi meros qilib qoldirilmaydigan umrbod egalik qilish, doimiy foydalanish, ijara huquqi asosida ega bo‘lishlari mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga mulk huquqi savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi ob’ektlari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga xususiy lashtirilganda qonun xujjatlarida belgilangan tartibda vujudga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari dehqon xo‘jaligi yuritish, yakka tartibda uy – joy qurish va turar joyni obodonlashtirish, jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligi yuritish va shuningdek qonun xujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa hollarda meros qilib qoldirilgan umrbod egalik qilish uchun yer olish huquqiga egadirlar.

Yer doimiy yoki muddatli (vaqtincha) foydalanish uchun%

1. Respublika fuqarolariga, shu jumladan jamoa polizchiligini, yuritish uchun;
2. Sanoat, transport hamda qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydigan boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga;
3. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga;
4. Chet el yuridik va jismoniy shaxslariga beriladi.

Yerdan muddatli foydalanish qisqa muddatli uch yilgacha uzoq muddatli uch yildan o‘n yilgacha bo‘lishi mumkin. Ishlab chiqarish ehtiyojlari talab qilingan hollarda bu muddatlar tegishli qisqa muddatli yoki uzoq muddatli vaqtincha foydalanish muddatlaridan ortiq bo‘lmagan davrga uzaytirilishi mumkin. Yaylov chorvachiligi uchun yer uchastkalari qishloq xo‘jalik korxonalarini muassasalari va tashkilotlariga yigirma besh yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Yer uchastkalarining egalik qilish va foydalanish uchun berish yer ajratish tariqasida amalga oshiriladi. Yer uchastkalarini ajratib berish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar

hokimlari tomonidan qonun xujjatlarida belgilab qo'yiladigan tartibda amalga oshiriladi. Egalikdagi yoki foydalanishdagi yer uchastkasini boshqa shaxslariga berish shu uchastka belgilangan tartibda olib qo'yilganidan keyingina amalga oshiriladi.

Sanoat korxonalari, temir yo'llar va avtomobil yo'llari, aloqa va elektr uzatish liniyalari, magistral quvurlar qurish uchun, shuningdek qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ehtiyojlar uchun qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz bo'lgan yerlar yoxud qishloq xo'jaligining sifati yomon yerlari beriladi. Mazkur maqsadlar uchun fondiga qarashli yerlardan yer uchastkalari asosan o'rmon bilan qoplanmagan maydonlar yoki butazorlar va arzon – baho o'simliklar bilan qoplangan maydonlar hisobida beriladi. Yer tuzish xizmati organlari berilgan yer uchastkasining chegaralarini naturada (joyning o'zida) belgilagunlaricha va yerga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan xujjatlar berilgunicha ana shu uchastkaga egalik qilish va undan foydalanishga kirishish mumkin emas.

Yer uchastkasining ijarasi yer uchastkasiga ijara shartnomasi shartlarida muddatli haq evaziga egalik qilish va foydalanishdan iboratdir.

Yer uchastkasini:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga va yuridik shaxslariga turli tuman va shahar hokimlari;
- Chet-el investistiyalari ishtirokidagi korxonalariga, xalqaro birlashmalari va tashkilotlarga, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi kelishuv asosida ijaraga beradilar.

Qishloq xo'jaligi korxonalari yer uchastkalarini ichki xo'jalik ijarasi tartibida faqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun ijarachilarga biriktirib qo'yishi mumkin. Ijaraga berilgan yer uchastkasi yoki uning bir qismini ikkilamchi ijaraga berish ta'qiqlanadi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligi faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikastiyalar, o'rmonlar, byerk suv havzalari, binolar, inshootlar va imoratlar bilan band bo'lgan yerlarga ajratiladi. qaydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar (bog'lar, tokzorlar va boshqalar) ega egallagan yerlar qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi. Qishloq xo'jaligi yerlari maxsus muhofaza qilinadi. qishloq xo'jaligi yerlarini irrigatsiya va suvdan foydalanish tizimiga asoslangan sun'iy sug'orish respublika qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi va yerlardan samarali foydalanish hamda ular unumdorligini oshirishning shartidir.

Qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerlarni sug'orishni ta'minlash oladigan sug'orish man'bai bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi. Bu yerlar maxsus muhofaza qilinishi zarur,

ularni sugʻorilmaydigan yerlar sirasiga oʻtkazish alohida hollarda, tuproq – meliorativ va iqtisodiy sharoitlarni hamda yerlarning suv bilan taʼminlanganligi, ulardagi mavjud suv resurslarining va bu suvlarga belgilangan elementlarni eʼtiborga olib viloyat hokimlari tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar quyidagilarga beriladi:

1. Qishloq hoʻjaligi ishlab chiqarishni koopyerativlarga, boshqa qishloq xoʻjaligi korxonalari, muassasalari va qishloq xoʻjaligi tashkilotlariga tovar ishlab chiqarishni yuritish uchun;
2. Tajriba – ishlab chiqarish, oʻquv, oʻquv – tajriba va oʻquv – ishlab chiqarish xoʻjaliklari, ilmiy – tadqiqot muassasalari va boshqa qishloq xoʻjaligi muassasalari va tashkilotlarga ilmiy – tadqiqot va taʼlim maqsadlari, tovar qishloq xoʻjaligini yuritish va ilgʻor tajribani targʻib qilish uchun;
3. Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolariga – fermer xoʻjaliklarini tashkil etish va yurish uchun;
4. Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolariga – dexqon xoʻjaligini, xususiy bogʻdorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish uchun;
5. Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolariga – jamoa bogʻdorchiligi, polizchiligi va uzumchiligi uchun;
6. Qishloq hoʻjaligi bilan shugʻullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga yordamchi qishloq hoʻjaligini yuritish uchun.

Qishloq hoʻjaligiga moʻljallangan yerlardan foydalanuvchi yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar oʻzlariga birlashtirilgan yer maydonlaridan foydalanish sohasiga quyidagi majburiyatlarga ega:

- biznes – rejalarida tuproq unumdorligini oshirish va yerlardan oqilona foydalanishga qaratilgan aniq tadbirlarni nazarda tutishlari;
- mintaqa sharoiti va hoʻjalikning ixtisoslashuviga muvofiq ilmiy asoslangan almashlab ekishni, dexqonchilikning eng samarali va iqtisodiy jixatdan oqilona tizimlarini joriy etishlari;
- haydaladigan yerlar asralishi va kengaytirilishini taʼminlash;
- meliorativ jixatdan nobop sugʻoriladigan yerlarni kompleks rekonstruktsiya qilishlari pichanzorlar va yaylovlarga suv chiqarishlar hamda ularning holatni yaxshilashlari;
- xoʻjalikning butun ichki sugʻorish va kollektor – zovur tarmogʻini hamda undagi inshootlarni texnikaviy jihatdan soz holatda saqlanishlari;
- qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini sugʻoriladigan yerlarning shoʻr bosishi va botqoqlanishiga, yerlarning va suv manbalarining ifloslanishi va zararlanishiga yoʻl qoʻymaydigan usullar bilan amalga oshirishlari;
- qishloq xoʻjalik ekinlari va dov – daraxtlarni parvarish qilishning suv tejaladigan texnologiyalarini, sugʻorishning ilgʻor usullarini joriy etishlari;

- yerlarni muxofaza qilish chora – tadbirlarini ko‘rishlari shart.

Qishloq ho‘jaligi va o‘rmon ho‘jaligi korxonalarida, muassasalari va tashkilotlarining xar bir a‘zosi oilasiga, shuningdek qishloq joylarda yashovchi o‘qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarning oilalariga dehqon xo‘jaligi yuritish uchun myeros qilib qoldiradigan umrbod egalik qilish uchun beriladigan yer uchastkasi, imoratlar va hovlilar egallagan maydonni qo‘shgan holda sug‘oriladigan yerlarda 0,35 gektar va sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 gektar o‘lchamda, cho‘l va sahro mintaqasida esa sugorilmaydigan (lalmi) yerlarda 1,0 gektargacha o‘lchamda beriladi. Ayrim aholi punktlari shahar hududi tarkibiga kiritilgan qishloq xo‘jaligi korxonalarida, muassasalarida va tashkilotlarida 5 yildan ortiq uzluksiz ishlagan va ishlashni davom ettirayotgan qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi korxonalarida, muassasalari va tashkilotlari a‘zolarining, shuningdek o‘quvchilar, shifokorlar va boshqa hovlilar egallagan maydoni qo‘shgan holda ana shu korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda belgilangan o‘lchamda myeros qilib qoldirilgan umrbod egalik uchun yer uchastkasi berilishi mumkin. Dehqon xo‘jaligi yuritish uchun beriladigan yer uchastkalarining aniq o‘lchamlari yer resurslarining mavjudligiga qarab hamda fuqarolar oilasining qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi korxonalarida, muassasalari, tashkilotlarning jamoat ishlab chiqarishdagi ishtirokini hisobga olgan holda ularning miqdorlari yoki ular vakolat byergan organlarning qarori bilan belgilanadi, mazkur qaror tuman hokimi tomonidan tasdiqlanadi. Fuqarolarga dehqon xo‘jaligi yuritish uchun yer uchastkalari 0,06 gektar dog‘irasida myeros qilib qoldiradigan umrbod egalik uchun kimochdi savdosi asosida sotilishi mumkin.

### **Yerlarning yer turlari va meliorativ holati bo‘yicha hisob qilishda plan – xarita materiallaridan foydalanish**

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda yerlarni yer turlari hamda meliorativ holati bo‘yicha hisob qilish yer hisobi planida amalga oshiriladi. Yer hisobi plani – bu xo‘jalikdagi brigadalarda va boshqa ishlab chiqarish bo‘limlarining chegaralari, aholi punktlari, muddatsiz, uzoq muddatli, qisqa muddatli yerdan foydalanishlar, o‘zga yerdan foydalanuvchilar aks ettirilgan tasvir planining nusxasi hisoblanadi. Yer hisoboti planida sug‘oriladigan yerlar, yo‘l tarmoqlari, sug‘orish tarmoqlari va inshootlari ajratiladi, yer turlari klassifikatsiyasiga muvofiq ularning turlari tushiriladi. Sug‘oriladigan yerlarda doimiy, shartli, liman sug‘oriladigan maydonlar ajratiladi. Sug‘oriladigan maydonlar hamda ular chegaralariga sug‘oriladigan yerlarni yo‘qlama qilish bo‘yicha maxsus o‘tkazilgan ishlar natijalari bo‘yicha doimiy ravishda aniqliklar kiritilib boriladi.

Yer hisobi planida foydalanish turlari, yerlarni sug‘orilish darajasi va yer turlari tarkibi bo‘yicha yerlarni hisobi uchun zarur bo‘lgan yer turlarining tartib raqamlari va maydonlari ko‘rsatiladi. Yer hisobi planining ma‘lumotlari bo‘yicha korxonalar, muassasalar va tashkilotlar barcha yerlarga, alohida sug‘oriladigan yerlarga

kon turlari bo'yicha hisoblash vedomosti tuziladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Tumanda va viloyatda yerlarni ro'yxatga olish tartibini tushuntirib bering?
2. Sho'rlangan yerlar respublikamizda qancha maydonni egallaydi?
3. Sho'rlanish tiplarini tushuntirib bering?
4. Sho'rlanish bo'yicha pasaytirish koeffitsientlarini tushuntiring.

## **6-MASHG'ULOT**

---

---

### **LALMIKOR VA YAYLOV YERLARNI RO'YXATGA OLISH TARTIBI**


**Lalmikor yerlarning unumdorlik holati.** Yer resurslarivi, xususan, lalmikor yerlarning holatini doimiy kuzatuvlar orqali aniqlash, ulardan samarali foydalanishni tashkil etish, unumdorligini saklash, muxofazalash, yer munosabatlarini tartibga solish va shu kabi bir qator muammolarni hal etish shu kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

2012yil 1 yanvar holatiga lalmikor dehqonchilikda foydalanilayotgan haydalma yerlarning umumiy maydoni 757,9 ming gektarga teng bo'lib (2-rasm), baland tog' tizmalarining tog' oldi va tog' osti tekisliklarini egallaydi. Bundan tashqari, respublikada lalmikor bo'z yerlar 34,3 ming gektar, lalmi maydonlardagi ko'p yillik daraxtzorlarning umumiy maydoni esa 14,8 ming gektarga teng bo'lib, shundan lalmi bog'lar 10,3 ming gektar, uzumzorlar 3,9 ming gektar va boshqa daraxtzorlar 0,6 ming gektarni tashkil etadi.

Lalmikor dehqonchilik deganda atmosferadan kelib tushadigan yog'ingarchilik natijasida tuproqda to'planadigan namlik hisobiga qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirish tushuniladi, ya'ni lalmikor yerlarda tuproqdagi yagona namlik manbai atmosfera yog'inlari hisoblanadi. Shu sababli, lalmikor dehqonchilikni yuritishda tuproq-iqlim sharoitlariga a'lohida e'tibor qaratiladi.

Bu mintaqaning asosiy tuproqlari-jigarrang va bo'z tuproqlardan iboratdir. Mintaqaning kuyi qismi qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun namlik miqdorining kamligi, yuqori qismi esa noqulay rel'ef va

issiqlik miqdorining yetishmasligi bilan farqlanadi. Joylarning geografik holati, qiyaliklar ekspozitsiyasi va tuproq-iqlim sharoitiga ko'ra, lalmikor mintaqa dengiz sathidan balandligi 270-400 metrdan, 1500-2000 metrgacha bo'lgan oraliqda tebranib turadi va tog' tizmalarining ayrim joylarida keng, ba'zi joylarida esa tor belbog' shaklida nomayon bo'ladi.



2-rasm. **Respublika lalmi haydalma yer fondi, (ga hisobida).**

Lalmi mintaqalarning pastki chegaralari tog' osti va tog' oldi tekisliklaridagi bo'z tuproqlardan iborat bo'lib, yuqoriga ko'tarilgan sari bo'z tuproqlar o'rnini jigarrang tuproqlar egallab boradi. Shunga bog'liq xolda, gumusning miqdori oshib boradi, tuproqning yuza qatlamlarida karbonatlar miqdori kamayib, genetik qatlamlar qalinligi oshadi. Shu bilan birga yuqoriga ko'tarilgan sari, rel'ef sharoitlari, qiyalik ekspozitsiyasiga bog'liq ravishda suv eroziyasi jarayonlarining jadalligi ortib boradi. Shunday bo'lsada, jigarrang tuproqlar bo'z tuproqlarga nisbatan organik moddalarga boyliqi, tuproqning haydalma qatlamlari karbonatlardan yuvilganligi kuzatiladi.


Tadqiqotlarimizda respublikamiz turli regionlaridagi lalmi tuproqlardan qishloq xo'jaligida foydalanish jarayonida yerni haydash natijasida tuproqlarning suvga bo'lgan bardoshlilik kamayishi va tuproq zarrachalarining bir biriga bo'sh birikkanligi sababli eroziya jarayonlarga (suv oqimiga) kam qarshilik ko'rsatishi hamda tuproqning ustki unumdor (gumusli) qismi yuvilib ketishi aniqlandi. Tuproq zarrachalarining pastga qarab yuvilishi natijasida tepaning nishabi zina ko'rinishiga ega bo'lib qoladi

va har bir haydalma maydonning eng yuqori qismidan tuproq yuvilib pastki qismida to'planadi. Bu esa o'z navbatida tuproq tarkibini va unumdorligini turlicha sifatlarini belgilaydi. Shuning uchun ham bu hududlarda suv eroziyasi tuproqlar unumdorligini chegaralovchi asosiy omil bo'lib hisoblanib, eroziyaga uchragan tuproqlar foizi och tusli bo'z tuproqlardan tog' jigarrang tuproqlarigacha o'sib borishi aniqlandi. Respublikamizdagi lalmikor tuproqlarning unumdorlik darajasini chegaralovchi asosiy omillar - tuproqlarning ona jinsi va mexanik tarkibi, qiyaliklarning tikligi va ekspozitsiyasi, tuproq profilidagi shag'al va tosh aralashmasi, tuproqlarning eroziyaga uchrashi va tuproq qatlamining namlanish darajasi ekanligi kuzatildi.

Lalmi yerlarning ishlab chiqarish qobiliyati joylarning ekspozitsiyasi va qiyaliklari bilan chambarchas bog'liqdir. Burmalangan rel'ef sharoitida lalmi yerlarning har xil ekspozitsiyadan iborat maydonlari bir vaqtning o'zida turlicha miqdordagi quyosh energiyasi bilan ta'minlanadi. Quyosh nurlari yer yuzasining shimoliy va g'arbiy qiyaliklariga qaraganda janubiy va sharqiy qiyaliklariga tikroq tushadi, bu esa o'z navbatida tuproqning harorat (issiqlik) rejimiga ta'sir qiladi. Donli-boshqoli ekinlar rivojlanishi uchun shimoliy va g'arbiy qiyaliklarda tuproqning mo'tadilroq gidrotermik rejimi yaratiladi, chunki ular bahorning oxirgi davrigacha janubiy va sharqiy qiyaliklarga qaraganda ko'proq namlikka ega bo'ladilar va saqlab turadilar. Bu iliq namli sharoit vegetasiya davrining davomiyligini uzaytiradi.

Respublikamizdagi lalmi tuproqlari qiyaliklar ekspozitsiyasi bo'yicha shimolda 17 foizni, shimol va g'arbda 15 foizni, g'arbda 6 foizni, shimoliy-sharqda 14 foizni, sharqda 9 %, janubiy-g'arbda 11 foizni, janubiy-sharqda 11 foizni va janubda 17 foizni tashkil etadi (3-rasm).





3-rasm. **Respublika lalmi haydalma tuproqlarining qiyaliklari ekspozitsiyasi bo'yicha tarqalishi, (% hisobida).**

Ona jinslar lalmi tuproqlar unumdorligini belgilovchi asosiy (zaruriy) omil hisoblanadi. Lyoss va lyossimon yotqiziklardan tashkil topgan tuproqlar uchun o'rtacha qumoqli mexanik tarkib yaxshiroq hisoblanadi. Mexanik tarkibning og'irlashishi va yengillashishi tuproq sifatining pasayishiga olib keladi. Respublikadagi haydalma lalmi tuproqlar mexanik tarkibi bo'yicha o'rtacha qumoqli -71 foizni, og'ir qumoqli va loyli - 9 foizni, yengil qumoqli - 19 foizni, qumloqli va qumli 1 foizni tashkil qiladi.

Respublikamizning turli regionlarida foydalanilayotgan haydalma lalmi tuproqlarining 5,18 foizi u yoki bu darajada gipslashgan bo'lib, shundan o'rtacha gipslashgan lalmi tuproqlar - 63,4 %, kuchsiz gipslashgan-17,8 %, kuchli gipslashgan-18,8 % ni tashkil etadi va asosan tog' osti yassi tekisliklarini egallagan och tusli bo'z tuproqlar tarqalgan hududlarda uchraydi.

Shag'al va tosh aralashmasi tuproqlar sifatini pasaytiradi, mexanizatsiya ishlarini qiyinlashtiradi, tuproq suv xossasini yomonlashtiradi, faol tuproq massasi hajmini kamaytiradi. Respublikamizdagi foydalanilayotgan lalmi yerlarning 6 foizida shag'al va tosh aralayashmali tuproqlar mavjud bo'lib, bu tuproqlar asosan kam va o'rtacha skletlashgan tuproqlar hisoblanadi.

Olib borilgan va avvalgi yillarda bajarilgan tuproq tadqiqotlarining tahlil natijalari respublika lalmi tuproqlarining suv eroziyasiga uchraganligini tasdiqlaydi. Suv eroziyasi tuproq xususiyatini yomonlashtiruvchi va uning ishlab chiqarishdagi xossasini pasaytiruvchi omillar qatoriga kiradi va u asosan nishabli yerlarda uchraydi. Eroziyaga

uchragan tuproqlar foizi och tusli boʻz tulroqlardan togʻ jigarrang tuproqlarigacha oʻsib boradi. Yerni haydash eroziya jarayonini yanada tezlashtiradi. Respublika haydalma lalmi yerlarining 25 % asosan yuvilmagan va yuvib keltirilgan maydonlarga toʻgʻri kelib, qolgan 75 foiz haydalma yer maydonlarida turli darajadagi suv eroziyasi kuzatiladi. Umumiy haydalma lalmi yerlarning 36 foizi oʻrtacha, 22 foizi kuchsiz va 17 foizi kuchli yuvilgan maydonlarni egallaydi.

Yuqorida keltirilgan Respublika lalmi tuproqlari xossalariining koʻrsatkichlari ularning ishlab chiqarish qobiliyatiga taʼsir etadi va u bonitet ballar bilan ifodalanadi. Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot davlat instituti va uning tasarrufidagi "Tuproq bonitirovkasi shoʻba korxonasi tomonidan respublikadagi lalmikor dehqonchilikda foydalanilayotgan haydalma yerlarining tuproq unumdorligi baholangan boʻlib, sifati boʻyicha toʻrtta-yaxshi, oʻrtacha, oʻrtachadan past va yomon yerlar kadastr guruhlariga birlashtirilgan.


1-guruh (I-II sinflar)-sifat jihatidan yomon tulroqlar hisoblanib, bonitet balli 0-20 ballga teng boʻlib, bunday bonitet balli tuproqlarning maydoni jami haydalma maydonlarning 15,4 foizini tashkil etadi. 10 balgacha boʻlgan yer maydonlari asosan Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida uchrasa, 11-20 balli yer maydonlarida barcha lalmikor hududlarda mavjud boʻlib, eng katta maydonlar Qashqadaryo (40757 ga) va Surxondaryo (21388) viloyatlari hududiga toʻgʻri keladi.

2-guruh (III-IV sinf)-sifat jihatidan oʻrtachadan past tuproqlar hisoblanib, bonitet balli 21-40 ballni tashkil qiladi. Bunday bonitet balli tuproqlarning maydoni jami haydalma maydonlarning 80,13 foizini tashkil etib, Navoiy viloyatidan boshqa viloyatlar hududida uchraydi.

3-guruh (V-VI sinf)-sifat jihatidan oʻrtacha tuproqlar hisoblanib, bonitet balli 41-60 ballni tashkil qiladi. Bunday bonitet balli tuproqlarning maydoni jami haydalma maydonlarning 4,42 foizini tashkil etib, Navoiy va Surxondaryo viloyatlaridan tashqari qolgan viloyatlar hududida uchraydi.

4-guruh (VII- VIII sinf)-sifat jihatidan oʻrtacha tuproqlar hisoblanib, bonitet balli 61-80 ballni tashkil qiladi. Respublikamizning Toshkent viloyatidagi 6-70 balli yer maydonlari mavjud boʻlib, ularning maydoni qariyb 500 gektar atrofida boʻlib, bu respublikadagi jami haydalma maydonlarning 0,06 foizini tashkil etadi. Respublika boʻyicha lalmi haydalma yerlar uchun hisoblangan oʻrtacha bonitet ball 28 ni tashkil etib, lalmikor dehqonchilik yuritilayotgan viloyatlarda lalmi tuproqlar

unumdorligi Toshkentda - 36, Samarqand va Jizzaxda - 29, Qashqadaryoda -27, Surxondaryoda - 19 va Navoiyda - 12 ballga tengdir (4 - rasm).



#### 4 - rasm. Respublika viloyatlaridagi lalmi tuproqlarining o'rtacha bonitet ballari.

Respublikamizning turli regionlaridagi lalmi tuproqlarning unumdorligini saqlash, oshirish va muhofaza qilish hamda ulardan samarali foydalanish uchun g'alla ekinlarini ko'p yillik o'tlar, shuningdek, dukkakli ekinlar bilan almashlab ekishni joriy etish, eroziya jarayonlarining oldini olish, ixota daraxtzorlarini barpo etish, qiyalik yerlarni nishabligi katta bo'lgan maydonlarga kuzgi ishlov berishda yerni gorizontallay haydash, ekish va minimal ishlov berish texnologiyasini qo'llash, bunda ekinlarni polosa qilib ekish orqali tuproq namligini ko'paytirish va tuproqda yuza oqimini kamaytirish kabi texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**Lalmikor ekin yerlar.** Respublika bo'yicha lalmikor yerlar maydoni 2010 yil 1 yanvardagi holatiga ko'ra **746 ming** gektarni tashkil qiladi. Lalmikor yerlarda qishloq xo'jalik ekinlarini o'stirish faqat tuproq qatlamlarida yog'inlar hisobiga yig'ilgan namlik tufayli yetishtirilishini hisobga olib, yillik o'rtacha yog'in miqdori 200 mm dan oshadigan yerlarda lalmikor ekinlar joylashtiriladi. Lalmikor yerlar namlik bilan ta'minlangan, kam ta'minlangan va ta'minlanmagan yerlarga bo'linadi. Bu bo'linish tuproq mintaqalarining joylashishiga mos keladi. Jigarrang va qoramtir bo'z tuproq baland mintaqada namlik bilan ta'minlangan, tipik bo'z tuproq o'rta mintaqada namlik bilan kam ta'minlangan va och rang bo'z tuproq quyi mintaqada namlik bilan ta'minlanmagan lalmikor yerlar hisoblanadi.

Lalmikor haydalma yerlar maydonining viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi 51-jadvalda keltirilgan.

51-jadval

**Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi lalmikor haydalma yer maydonlari, (ming ga)**

Viloyatlar	Yer maydoni
Jizzax	218,3
Qashqadaryo	255,6
Navoiy	19,9
Samarqand	179,4
Surxondaryo	37,8
Toshkent	35,0
Jami:	746

**Pichanzor va yaylovlar.** Respublika hududining katta qismini pichanzor va yaylovlar tashkil qiladi. Bu yerlar qo'ychilikni rivojlantirish uchun asosiy ozuqa bazasi hisoblanadi. Respublikada **21207,3 ming** gektar tabiiy pichanzor va yaylovlar mavjud bo'lib, shundan sug'oriladigani 43,3 ming gektarni yoki umumiy maydonning **0,20 foizini** tashkil qiladi. Suv bilan ta'minlangan yaylovlar maydoni esa **18447,9 ming** gektarni tashkil qiladi. Tabiiy sharoitlariga qarab yaylov va pichanzorlar cho'l-tekislik (cho'l mintaqasi), tekislik-tepalik (adir mintaqasi) va tog'oldi-tog' (tog' mintaqasi) ga bo'linadi. Cho'l-tekislik pichanzor va yaylov yerlari respublikaning shimoliy - g'arbiy qismida, dengiz sathidan 500 m gacha balandlikda joylashgan. Ular yil davomida foydalaniladigan pichanzor va yaylovlar bo'lib, asosan, qorako'lchilik zonalari hisoblanadi.

52-jadval

**Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar chegarasidagi pichanzor va yaylovlarning tabiiy mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi, (ming ga)**

Nomlanishi	Umumiy maydoni	Sug'oriladigan	shu jumladan		
			Cho'l	Adir	Tog'
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4709,6	27,1	4682,5	0	27,1
Andijon	21,2	0,8	3,0	18,2	0

Buxoro	2674,2	0	63,5	2510,7	100
Jizzax	746	0	195,9	444,6	105,5
Qashqadaryo	1460,1	0,1	639,8	476,6	343,7
Navoiy	9136,2	0	8566,6	545,8	23,8
Namangan	153	0	1,5	116,6	34,9
Samarqand	795,6	0	19,1	651,2	125,3
Surxondaryo	861,7	0	83,1	579,8	198,8
Sirdaryo	23,6	0	0	23,6	0
Toshkent	429,9	1,5	0	325,9	104,0
Fargʻona	24	4,5	3,9	20,1	0
Xorazm	172,2	9,4	172,2	0	0
<b>Jami:</b>	<b>21207,3</b>	<b>43,4</b>	<b>14431,1</b>	<b>5713,1</b>	<b>1063,1</b>

Sharqda choʻl-tekislik pichanzor va yaylovlari asta-sekin tekislik-tepalik pichanzor va yaylovlariga oʻtadi. Bu yerlarda dengiz sathiga nisbatan balandlik 1000-1200 m gacha etadi.

Adir mintaqasi pichanzor va yaylovlari, asosan, kuzgi va bahorgi pichanzor va yaylovlardir. Bu fasllarda ulardan yirik qoramollarni boqishda foydalanilsa, qoʻy va echkilar yil davomida boqiladi.

Togʻ mintaqasidagi togʻ oldi-togʻ pichanzor va yaylovlari gʻarbiy Tyanshan tizmalarida, dengiz sathidan 2500 m balandlikda joylashgan. Togʻ mintaqasi pichanzor va yaylovlari yozgi hisoblanib, barcha turdagi hayvonlarni boqishga yaroqli hisoblanadi.

Pichanzor va yaylovlarning tabiiy mintaqalar boʻyicha taqsimlanishi 52-jadvalda keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, choʻl mintaqasi pichanzor va yaylovlari **14431,1 ming** gektar yoki respublikaning jami pichanzor va yaylovlarining **68,0 foizini** tashkil qiladi. Ular, asosan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida joylashgan.

Adir mintaqasi pichanzor va yaylovlari **5713,1 ming** gektar yoki jami pichanzor va yaylovlar maydonining **26,9 foizini** tashkil qiladi, ular, asosan, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida joylashgan.

### **Nazorat savollari:**

1. Cho‘l mintaqasida pichanzor va yaylovlar qancha maydonni egallaydi?
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar chegarasidagi pichanzor va yaylovlarning tabiiy mintaqalar bo‘yicha taqsimlanishini tushuntirib bering
3. Lalmikor yerlar respublikamizda qancha maydonni egallaydi?

## **7-MASHG‘ULOT**

---

### **YER MONITORINGINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI**

#### **Yerlarni kompleks ro‘yxatga olish**

Yerlarni kompleks ro‘yxatga olish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: barcha toifadagi foydalaniladigan, egalik qilinadigan yerlarda joylashgan qishloq xo‘jalik yerlarini massivlar, uchastkalar, sanitar-himoya zonalar va hokazolar bo‘yicha miqdoriy hisobga olish va sifat holatini baholash, turli xo‘jalik faoliyatlari natijasida buzilgan yerlarning buzilish darajasini, tavsifini va miqdorini aniqlash, foydalaniladigan yerlarda joylashgan suv manbalaridan foydalanish miqdorini, sifatini, zamonaviy holatini va harakterini aniqlash, aholi punktlari maydonlarini aniqlash, o‘rmon va suv fondi va davlat yer zahiralari maydonlarini aniqlash, yuoshqa toifadagi (sanoat, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlardagi

yerlar) yerlar maydonlarini aniqlash, buzilgan yerlarni qayta tiklashni texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqish.

Yerlarni hozirgi ekologik holatini va fonini baholash uchun ro'yxatga olish ishlari majmuidagi quyidagilar bajariladi: yer egalari va yerlardan foydalanuvchilar yerlarini ro'yxatga olish, buzilgan yerlarni ro'yxatga olish, suv manbalarining mavjudligin, hozirgi holatni va ulardan foydalanishni ro'yxatga olish, aholi punktlari yerlarini ro'yxatga olish.

Yerlarni ro'yxatga olish, ularni davlat tomonidan hisobga olish, tavsiflash va sifat ma'lumotlari asosida olib boriladi.

Yerlarni ro'yxatga olish bilan bog'liq ayerofotosuratlash, topogeodezik, tuproq, geobotanik va boshqa qidiruv-tekshiruv va hisoblash ishlari mustaqil ishlar sifatida amalga oshiriladi.

Ro'yxatga olish ishlarining asosi bo'lib, qo'yidagi o'nglashlardagi eng yangi s'yomkalar va deshifrovkalar asosida chop etilgan kartografik xujjatlar hizmat qiladi:

- ✓ sug'oriladigan va lalmi zonalar uchun 1:10000 – 1:25000;
- ✓ yaylov zonolari va tog' hududlari uchun 1:50000 – 1:100000 (1:300000).

Yerlarning texnogen buzilishlari yirikroq o'lchamli (1:1000, 1:2000-1:5000) kartografik asosda aniqlanadi.

Dala kompleks tadqiqotlari natijasida qo'yidagi xujjatlar beriladi:

- yerlarning holati to'liq aks etgan yerlardan foydalanish plani va ro'yxatga olish ma'lumotlari bilan birgalikda yerdanfoydalanish turlari bo'yicha.
- Yerlarni hisobga olish qaydnomasi yerlarni ajratish xujjatlari bo'yicha, tog'li zonalarda foydalanish, turar joylari yerlarini ro'yxatga olish qaydnomalari.
- Har bir ro'yxatga olish turlariga qisqacha tushuntirish xati.

### **Yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yerlarini ro'yxatga olish**

Yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yerlarini ro'yxatga olishda, yerlardan foydalanish huquqi yuridik akt bilan rasmiylashtirilgan, ajartilgan yerlar chegarasida joylashgan, qisqa va uzoq muddatda foydalaniladigan yerlar, sanoat va neft qazib olish korxonolari uchun tog'larda ajratilgan yerlar chegarasida va amalda foydalanilayotgan barcha yerlar hisobga olinadi.

Tayyorgarlik davrida egalik qilinayotgan va foydalanilayotgan yerlarni miqdoriy va sifat jihatidan hisobga olishda quyidagi ma'lumot va xujjatlar to'planadi va o'rganiladi:

- Yerdan foydalanish huquqini beruvchi davlat aktlari va boshqa yer ajratish xujjatlari;
- Foydali qazilmalar ishlab chiqarish va ularga bog'liq bo'lmagan maqsadlar uchun berilgan tog' yer ajratish xujjatlari;
- Yer yuzasida bajarilgan s'yomkalar va ayerofototasbirlar planlari;

- Tuproq, meliorativ, geobotanik va boshqa tadqiqotlar xujjatlari;
- Xo‘jalik ichki va xo‘jaliklararo yer tuzish xujjatlari;
- Xo‘jalik ichki va xo‘jaliklararo yer tuzish xujjatlari;
- Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun ajratilgan yerlar plani.

Davlat o‘rmon fondi yerlarini hisobga olishda o‘rmon tuzish xujjatlari, shuningdek aholi turar joylarini hisobga olishda yer-xo‘jalik tuzish xujjatlaridan foydalanadi.

Davlat hisobga olish xujjatlaridan barcha toifa yer maydonlari bo‘yicha ko‘chirmalar olinadi. Plan kartografik xujjatlarda yerlarni hisobga olish ma‘lumotlari grafik shaklida ko‘rsatiladi.

Dala ishlari davrida yerdan foydalanish planini korrektirovka qilishda kartografik ma‘lumotlarni chop etish vaqtidan boshlab sodir bo‘lgan o‘zgarishlar qayd etiladi. Yangi haydalgan yerlar, yangidan qurilgan aholi punktlari, ishlab chiqarish inshootlari, suv manbalari, yo‘llar, o‘zgalar foydalaniladigan yerlar va plan xarita vaziyatining boshqa elementlari.

Dala tadqiqotlari davrida tabiiy ozuqa yerlaridan foydalanishning yuzaga kelgan tizimi tuproq va geobotanik tadqiqotlar ma‘lumotlarini hisobga olgan holda aniqlanadi, mumkin qadar keyingi yillarda qo‘llanilayotgan yerlardan foydalanish tizimlari ta‘sirida o‘simlik qoplami tarkibida yuz byerayotgan o‘zgarishlar yo‘nalishi, hosildorligi va madaniy texnik holati (yaylovlar toptalganligiga, begona o‘tlar miqdori, eroziyaga uchraganligi) aniqlanadi.

Yerlarni hisobga olish ma‘lumotlari va yerlarni ro‘yxatga olish (dala korrektirovkasi) natijalari asosida yerlarni davlat hisobga olish ro‘yxatining 22 shakli va 10-ilovasiga muvofiq yerlarni hisobga olish qaydnomasi tuziladi. Tegishli o‘lchamga to‘g‘ri keluvchi grafik ko‘rinishidagi xujjatlar tayyorlanadi, alohida bo‘lim tarzida yerlarning hozirgi holati va ulardan foydalanish bo‘yicha qisqacha taxliliy tushuntirish matnlari beriladi.

### **Buzilgan yerlarni ro‘yxatga olish**

Foydali qazilmalar konlarini ishlatish, geologiya qidiruv, tadqiqot, qurilish va boshqa ishlar natijasida buzilgan tuproq qoplamlari yerlarini ro‘yxatga olish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida o‘rnatilgan tartibda o‘tkaziladi.

Ro‘yxatga olishning maqsadi – buzilgan yerlar ular maydonlari va sifat holatlarini tabiiy ko‘rinishda yerlardan foydalanish chegarasi dog‘irasida sanitar-muhofaza zonalarini (agar ular mavjud bo‘lsa) hisobga olgan holda aniqlashdan iborat.

Ro‘yxatga olishga (hisobga olingan) doimiy, vaqtinchalik va uzoq muddatlarda foydalanilayotgan barcha yer toifalarida va davlat yer zaxiralaridagi buzilgan yerlar va tuproq qoplami texnogen buzilishining barcha turlari kiradi. Ro‘yxatga olishda har bir ob‘ektda quyidagilarga o‘tkazilishi lozim:



- ✓ Buzilgan yerlarning kartografik xujjatlari o‘z aksini toplan maydonlarini aniqlash;
- ✓ Buzilgan yerlarni qayta tiklash maqsadida yer turlari bo‘yicha ajratish;
- ✓ Tog‘ texnik xujjatlari, ayerofototasbir ma‘lumotlari va tuproq, geobotanik, gidrogeologik va boshqa tadqiqotlar ma‘lumotlari asosida buzilgan yerlar tavsifnomasini tuzish;
- ✓ Qayta tiklash ishlaridan keyin buzilgan yerlardan foydalanishning dastlabki takliflarini ishlab chiqish.

Tayyorgarlik davrida Yer resurslari davlat qo‘mitasi mutaxassislari buzilgan yerlar bilan bog‘liq ishlarni bajaradigan korxonalar, tashkilotlar, idoralar mutaxassislari bilan birgalikda yangi ma‘lumotlarni yerdan foydalanish plan-xaritasiga tushiradilar.

1:1000, 1:2000, 1:5000 o‘lchamdagi (buzilgan yerlar maydoni ma‘lum o‘lchamda ko‘rsatilishi lozim bo‘lsa yanada maydaroq masshtablardan ham foydalanish mumkin) plan-xaritaviy xujjatlardan foydalaniladi.

Buzilgan yerlarni dala kuzatuv-tadqiqotlari jarayonida plan-xaritaviy xujjatlarga:

a) har bir uchastkaga rim raqamlari bilan (I, II, III) sanoq raqami beriladi;

b) qabul qilingan tasnifga binoan buzilgan yerlar tiplari aniqlanadi. Bu tiplar arab raqamlari bilan (1,2,3) belgilanadi.

v) buzilgan yerlar tiplari dog‘irasida har bir konturning haqiqiy holati aniqlanadi. Har bir kontur –a, b, v, g va hokazo harflar bilan belgilanadi. Agar uchastkalar dog‘irasida (I, II, III) buzilish tiplari bir xil bo‘lgan bir nechta konturlar uchrasa, u holda qavs ichida ularning tartib raqamlari – II – Ia (1), II – Ia (2) va h.k. qo‘yiladi.

g) har bir kontur (o‘ram) dog‘irasida yerlar buzilgunga qadar yer maydonlaridan foydalanish turlari (shudgor, yaylov va hokazo) aniqlanadi va qayta tiklashdan keyin foydalanish rejalari tuziladi.

Tayyorgarlik va dala ishlari amalga oshirilgandan keyin yerlardan foydalanish, yerlarga egalik qilish turlari bo‘yicha buzilgan yerlar yakuniy qaydnomasi tuziladi.

Buzilgan yerlarni hisobga olishda yig‘ib olingan ustki unumdor qatlamni saqlash uchun band bo‘lgan joylar (omborlar) hajmi va maydonlari aniqlanadi. Plan – xaritada omborlar chegarasi punktir chiziqlar, ularning raqamlari esa arab sonlari bilan ko‘rsatiladi. Tuproqning surib tashlangan unumdor qatlami to‘g‘risidagi ma‘lumotlar qaydnomaga kiritiladi. Texnogen rel‘ef shakli buzilgan yerlar tasnifi asosida belgilanadi. Buzilgan yerlar suv bilan ta‘minlanganlik darajasi va tabiiy namlanganlik harakteri bo‘yicha guruhlariga ajratiladi. Konturlar qaydnomasi ma‘lumotlari asosida yerlarni foydalanish va yerlarga egalik qilish bo‘yicha buzilgan yerlarni hisobga olish yakuniy qaydnomasi tuziladi.

Ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida yerlarning ro'yxatga olish xaritalari tuziladi, unda buzilgan maydonlar indeksastiyalangan va tasbirlangan holda barcha buzilish tiplari bo'yicha ko'rsatiladi. Yerlarni kompleks ro'yxatga olish hisobotida buzilgan yerlarni ro'yxatga olish xujjatlari keltiriladi.

### **Suv manbaalarini ro'yxatga olish**

Yerlarni kompleks ro'yxatga olishda bir vaqtning o'zida aholi turar joylarini ham kiritgan holda yerdan foydalanish uchastkalaridagi suv manbaalarining mavjudligi va hozirgi holatini aniqlash ishlari ham bajariladi.

Ro'yxatga olishga yerdan foydalanish hududlarida joylashgan barcha yaylovlar va suv manbaalari bo'lgan boshqa toifadagi yerlar kiritilishi kerak. Barcha sun'iy inshootlar: yaylovlarni sug'orishda aholini suv bilan ta'minlashda va boshqa maqsadlarda foydalaniladigan va foydalanilmaydigan quduqlar, ko'llar, suv omborlari, kaptirovka qilingan buloqlar, kanallar va suv quvurlar, doimiy suv saqlanadigan joylar, daryolar va ko'llar suv to'plagichlari hamda tabiiy suv manbaalari – kaptirovka qilinmagan buloqlar, ko'llar va daryolar olinadi.

Tayyorgarlik davrida suv kadastr va suv chiqarilgan yaylovlar haqida oldingi yillardagi suv chiqarish inshootlarini pasportlashtirish xujjatlari, qurilgan gidrotexnik inshootlar loyihalari va foydalanishga topshirish haqidagi akt xujjatlari hamda gidrologik va gidrogeologik qidiruv ishlari matyerillari va boshqa tegishli xujjatlar yig'iladi va o'rganiladi. Qabul qilingan o'lchamdagi plan asoiga o'tgan yillarda suv chiqazilgan yaylovlarning ro'yxatga olish ma'lumotlari tushiriladi. Suv chiqarish inshootlarini pasportlashtirish ma'lumotlari yozib yaiqiladi.

### **Aholi turar joylari yerlarini ro'yxatga olish**

Yerlarni kompleks hisobga olishda aholi punktlari yerlari ham hisobga olinadi. Tayyorgarlik davrida yerlarni hisobga olish xujjatlari yig'iladi, aholi punktlari tuzish va qurish loyihalari, xo'jalik ichkiyer tuzish loyihalari ma'lumotlari, aholi turar joyining kelgusida rivojlanish istiqbollari to'g'risidagi ma'lumotlar, tomorqa yerlari to'g'risidagi ma'lumotlar, plan-xaritografik va boshqa xujjatlar o'rganiladi va baholanadi.

Aholi turar joylari yerlarini dala tekshiruv davrida ularning haqiqiy hajmlariga aniqliklar kiritiladi. Ro'yxatga olish natijalari dala tekshiruv-tadqiqot dalolatnomalarida o'z aksini topadi va dala tuzatishlarini hisobga olgan holda chizmalarga o'tkaziladi.

1:500 o'lchamdagi chizmalarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak.

- a) aholi turar joylarining hozirdagi va loyihadagi chegaralari;
- b) shahar va posyolka qurilish yerlari;
- v) umumiy foydalanish maydonlari;
- g) qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar, boshqa yer turlari;
- d) o'rmon daraxtzorlari bilan band yerlar;

e) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarda foydalaniladigan yerlar;

j) alohida muxofaza etiladigan hududlar yerlari;

3) suv fondi yerlari;

i) zahira yerlari.

Ro'yxatga olish natijalari asosida har bir aholi turar joyining eksplikatsiyasi dala tekshiruv va yerlarni hisobga olish ma'lumotlari bilan birga tuziladi.

### **Shahar yerlari monitoringi**

Shahar yerlari monitoringida shahar yerlari bahosi va ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilish maqsadida shahar muhitidagi tabiiy va antropogen jarayonlar ustidan muntazam kuzatishlar olib boriladi.

Kuzatiladigan hududning o'lchovidan kelib chiqib monitoringning har xil darajasi belgilanadi. Toshkent shahrida hududiy, shahar miqyosidagi (shahar hududi dog'irasidagi maydonlarni qamrab oluvchi va ma'muriy-hududiy bo'linmalar chegarasida ajratiladigan yerlarda) va lokal-mahalliy (har bir egalik qilinadigan va foydalaniladigan hudud ma'muriy-hududiy chegarasida olib boriladigan) monitoringlar amalga oshiriladi.

Kichik shaharlar uchun yer monitoringi lokal-mahalliy (shahar chegarasidagi maydonlarni qamrab olgan) va lokal-mukammal (alohida yer uchastkalari chegarasida) monitoringlarga bo'linadi.

### **Shahar yerlari monitoringi tizimini yaratishning ilmiy-uslubiy asoslari**

Shahar muhitida monitoringni yuritishda tahlil talab etuvchan jarayonlarga, yerlarning sifat va baho qiymatlariga ham salbiy, ham ijobiy ta'sir etuvchi yo'nalishlarga ega har qanday o'zgarishlar kiradi.

Salbiy jarayonlar tahlili qo'yidagilarni baholash mobaynida amalga oshiriladi:

a) shahar yerlari va muhitiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni (atmosfera chiqadigan moddalar, oqova suvlarni tashlab qo'yish, qurilish ishlari va boshqalar);

b) shahar yerlari va muhiti holatlarining o'zgarishlarini (atmosfera, suv ob'ektlarining, yerdan foydalanish chegaralarining va boshqalarning ifloslanish darajasi);

v) ta'sir etish oqibatlarini (imorat va inshootlarning emirilishiga uchrashi, aholi harakatlanishida yo'qotilgan vaqt yig'indisi, aholi sog'ligi holati va hokazo);

g) tabiiy komponent va majmualarning inson faoliyati omilida ta'siriga turg'unligini (atmosfera, tuproq, suv va boshqalarning o'z-o'zini tozalash qobiliyati).

Salbiy jarayonlarni tahlil etish asosida bu jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilishga qaratilgan qarshi tadbirlari ishlab chiqiladi.

Salbiy jarayonlarni kompleks baholash uch ko'rinishda to'la va mukammal baholash asosida shakllanadi:

- a) iqtisodiy;
- b) ijtimoiy (antropoekologik);
- v) ekologik.

Shahar muhitida salbiy jarayonlarning rivojlanish sabablariga ko'ra ular 4 guruhga bo'linishi mumkin:

- 1) tabiiy
- 2) tabiiy-texnogen
- 3) texnogen
- 4) ijtimoiy

Salbiy jarayonlar oqibatlari harakteridan kelib chiqib ularning quyidagi 4 ta guruhga birlashuvchi alohida turlarini ko'rib chiqilishi lozim:

a) shahar yerlarining huquqiy rejimlarini buzuvchi jarayonlar (o'zboshimchalik bilan egallab olish, o'zboshimchalik bilan qurilishlar qilish va hokazo);

b) shahar yerlari arxitektura – qurilish holatiga salbiy ta'sir etuvchi jarayonlar (yerlarning holatiga salbiy ta'sir etuvchi, mavjud me'yoriy talablarni buzgan holda nosamarador ravishda hududlarni tashkil qilish, ob'ektlarni qurish va foydalanish va boshqalar);

v) shahar yerlari muhandislik – qurilish holatiga salbiy ta'sir etuvchi jarayonlar (ichki va tashqi muhandislik-geologik jarayonlar: emirilish-o'pirilish holatlar, cho'kishlar, ko'tarilib qalqishlar, suv bosishlar, botqoqlanishlar va boshqalar);

g) shahar yerlari ekologik va sanitar-gigenik holatiga salbiy ta'sir etuvchi jarayonlar (o'simlik qoplamlarini yo'q qilish, yerlarni turli zararli moddalar bilan ifloslanishi va zaharlanishi, turli maishiy chiqindilarning to'planib qolishi);

d) shahar yerlari tuproq qoplami holatiga salbiy ta'sir etuvchi jarayonlar (unumdor qatlamning buzilishi, tuproq eroziyasi, tuproq profilining ishqorlanishi va boshqalar natijasida tuproq unumdorligining pasayishi).

Monitoring natijasi sifat va miqdoriy parametrlar va ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Masalan: qurilishlarning zichligi va ko'p qavatligi, muhandislik tarmoqlarining tavsifi emirilish-o'pirilish jarayonlarning sodir bo'lish ehtimoli, xavfli kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va biologik zaharli moddalar bilan ifloslanishi va biologik zaxarli moddalar bilan zaharlanish va h.k. Bu parametr va ko'rsatkichlardan keyinchalik yerlarni jabhalar bo'yicha va ekologik baholashda foydalaniladi. Shahar yerlari monitoringi natijalarini kartografik aks ettirishda yetarli darajada oson o'qiladigan 1:2000 – 1:100000 o'lchamlar qatori asosiy hisoblanadi.

## **Shahar yerlaridan foydalanish samaradorligini baholash**

Shahar yerlaridan samarali foydalanish deganda, murakkab ijtimoiy tizim hisoblangan shahar manfaatlariga mos ravishda yerlardan foydalanish tushuniladi. Bular: turli shahar tumanlarining o'ziga xos holati va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda shahar yerlarida har xil ob'ektlarni samarali joylashtirish shuningdek, yerdan foydalanishda umumshahar va mahalliy manfaatlarni uyg'unlashtirishdir.

Shahar yerlaridan samarali foydalanishning integral ko'rsatkichi sifatida inson istiqomat qiladigan atrof-muhitning me'yoriy sifatini saqlab qolish sharti bilan maydon birligida ishlab chiqarish va kommyerstiya faoliyatidan olinadigan yalpi daromad miqdorini qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Shahar yerlaridan foydalanish samaradorligi quyidagi ko'rinishlarda baholanadi: yer (yerlarga to'lovlarning maksimal summasi); shahar qurilishi (shahar ko'p tarmoqli majmualari moddiy bazasini rivojlantirishning hududiy masofaviy sharoitlarini yaratish); tabiatni muhofazalash (qimmatli tabiat landshaftlarini to'liq saqlab qolish va ekologik muvozanatni ta'minlash).

Shahar yerlaridan foydalanish samaradorligini baholash mezoni umumtizimiy (yerlardan foydalanishning shahar manfaatlariga mos kelishini tavsiflaydi) va lokal (muayyan maydonlardan foydalanishning ular uchun belgilangan maqsadlarga mosligi darajasini tavsiflaydi) guruhlarga bo'linadi.

Yerlardan foydalanish samaradorligi ulardan foydalanishni kompleks baholash asosida aniqlanadi. Asosiy xujjat sifatida funkstional zonalarga bo'lish va muayyan hududdan foydalanishning tasdiqlangan loyihasi qabul qilinadi. Yer uchastkalaridan amaliy foydalanishning shahar rivojlanishi bosh planiga mosligini baholash shahar yerlaridan foydalanish samaradorligining mezoni hisoblanadi.

Shaharning alohida tuman yoki yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligi shu hududdagi mavjud resurslarni o'zlashtirishning loyihada ko'rsatilganiga nisbati bilan tavsiflanadi.

Shahar yerlaridan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlaridan yerlardan foydalanish iqtisodiy boshqarish amaliyotida yer to'lovlarini hisoblashda oshib boruvchi koeffistiyentlar sifatida foydalanish mumkin.

Shahar yerlarini o'zlashtirish darajasini hisoblash yer uchastkalarini uzoq muddatlarda o'zlashtirilmaganligi uchun jarima sankstiyalarini amalga oshirishda ham zarur.

Shahar yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlariga qo'yidagilar kiradi:

a) tashlandiq yerlarni aniqlash;

b) bosh planda shahar qurilish ob'ektlari uchun rezyervlashtirilgan yer uchastkalarini moliyalashtirilmaganligi sababli vaqtincha o'zlashtirilmay qolganligini hisobga olish;

v) noqulay yerlarni (jar, suv yuvib ketgan yerlar, ko'chkilar va hokazolar) hisobga olish;

g) ifloslangan yerlarni hisobga olish;

d) samarasiz foydalaniladigan yerlarni (sanoat zonolari tegishli maqsadlarda foydalanilmaydigan va hokazolar) hisobga olish;

e) shahardan chiqarishga ta'luqli korxonalar yerlarini hisobga olish.

## **Qishloq xo'jaligi yerlarida amaliy tuproq tadqiqotlari monitoringi**

### **1. Tuproq tadqiqotlari va ma'lumotlarni tuzatish (korrektirovka)**

Tuproq amaliy tadqiqotlari monitoring tizimida yordamchi bo'g'in bo'lib, u birlamchi tuproq tadqiqotlarini va ma'lumotlarni tuzatishni nazarda tutadi. Dala tadqiqotlari va kameral ishlar respublikada bor bo'lgan va amaldagi ko'rsatmalar va uslubiy qo'llanmalar talablariga muvofiq bajariladi.

Amaliy tadqiqotlarni o'tkazishdan maqsad, tuproq qoplaminin zamonaviy holati va tabiiy-antropogen omillar ta'sirida o'zgarishlar to'g'risidagi to'liq va ularga tushuntirish xatlari yoziladi.

### **2. Qishloq xo'jaligi yerlari tuproqlarida sug'orish suv va shamol eroziyalarining lokal rivojlanish monitoringi**

Sug'orish, suv va shamol eroziyalarining rivojlanishi monitoringi, tuproq va tuproq-eroziya tadqiqotlari ma'lumotlariga asoslanadi.

Sug'orish, suv va shamol eroziyalarining rivojlanishi monitoringi masofali, yer ustida va aralash usullarda amalga oshiriladi. Tuproqlarni sug'orish, suv va shamol eroziyalari rivojlanishiga uchrash darajasiga ko'ra ajratish diagnostika ko'rsatkichlari o'yicha tegishli ko'rsatmalarga mos ravishda amalga oshiriladi. Shamol eroziyasining rivojlanishini bashoratlash turli mexanik tarkibli tuproqlarning deflyastiga chidamligi darajasiga tayanadi.

Suv va sug'orish eroziyalarining rivojlanishini bashoratlash tuproqning mexanik tarkib, chirindiligiga tayanadi, bunda yonbag'irning ekspozitsiyasi, uzunligi, qiyaligi e'tiborga olinadi.

### **3. Qishloq xo'jaligi yerlari tuz rejimining lokal o'zgarishi monitoringi**

Shoʻrlangan tuproqlarni miqdor va sifat jihatidan hisobga olish va ular monitoringini oʻtkazishda dastlabki maʼlumotlar sifatida yirik masshtabli tuproq tekshirishlari va tuproq tuz tadqiqotlari maʼlumotlari xizmat qiladi.

Shoʻrlangan sugʻoriladigan va qoʻriq tuproqlarning tarqalish areali va shoʻrlanish darajasining oʻzgarishlari monitoringi dala sharoitida amalga oshiriladi. Kesma va skvajinalar soni tekshiruv sʼemka oʻlchami bilan chegaralanadi, namuna olish usuli va tuproq gorizontlari soni esa shoʻrlanish haraktyeri bilan belgilanadi.

Tuproq shoʻrlanishiga oid aniqlangan oʻzgarishlar xarita-plyurda tasbirlanadi va tushuntirish matnida yoritiladi, ishning uslubi taʼriflanadi va tuproq tuz rejimidagi oʻzgarishlar tahlili beriladi.

Sugʻoriladigan tuproqlar tuz rejimi oʻzgarishlari monitoringini amalga oshirishda tuproqning shoʻrtoblanish ehtimolini nazorat qilib borish lozim.

#### **4. Qishloq xoʻjaligi yerlarining ogʻir metallar va zaxarli elementlar bilan lokal ifloslanishi monitoringi**

Ogʻir metallar va zaxarli elementlar miqdori monitoringi uchta oʻzaro bogʻlangan faoliyatdan tashkil topadi: a) ogʻir metallar va zaxarli elementlar miqdorini tuproqda atmosferada suv manbalarida kuzatish:

b) tuproqlar, atmosferada va suv manbalarining ogʻir metallar va zaxarli elementlar bilan ifloslanishi darajasini baholash:

v) tuproqlarda, atmosferada va suv manbaalarida ogʻir metallar va zaxarli elementlarning kelajakdagi miqdoriy oʻzgarishlari bashoratini tuzish.

Tuproqlarning ogʻir metallar va zaxarli elementlar bilan ifloslanish jadalligini nazorat qilish, tekshirish uning hududi tabiiy sharoitini oʻrganish bilan birgalikda olib boriladi.

Tuproqlarning ogʻir metallar va zaxarli elementlar bilan ifloslanishi monitoringi tayyorgarlik, dala va kameral davrlarda bajariladi:

Tayyorgarlik davrida tabiiy sharoitlarni tavsiflovchi nashr etilgan maʼlumotlar toʻplanadi va bir tizimga tushuriladi, ifloslantiruvchi manbaalar borligi haqidagi maʼlumotlar yigʻiladi.

Dala tadqiqotlaridan oldin aniqliklar kiritish uchun tadqiqot hududi aylanib chiqiladi. Ifloslanish maydonlari ajratiladi, shamol “guli” boʻyicha yoʻnalishlar profili, ekologik maydonchalar va tayanch kesmalar joyi belgilanadi.

Muayyan sharoitlarga bogʻliq holda tuproqning ogʻir metallar va zaxarli elementlar bilan ifloslanganlik xaritasi va xaritogrammalari quyidagicha tuziladi:

a) poligonlarda 1:25000-1:50000 oʻlchamda

b) stasionarlarda 1:10000-1:25000 oʻlchamda

v) ekologik maydonchalarda 1:1000-1:5000 oʻlchamda

Dala tadqiqotlari va tuproqlarning ogʻir metallar va zaxarli elementlar bilan ifloslanishning dastlabki xaritalarini tuzish uchun oʻlchami dala tadqiqotlari

o'lchamiga mos keluvchi tuproq xaritasi xizmat qiladi. Tuproq xaritasiga shamol "guli" konturi, ifloslanishi mumkin bo'lgan maydonlar, yo'nalishlar tarmog'i tushiriladi.

Tuproq morfologik tuzilishi, fizik-kimyoviy xususiyatlarini tavsiflash uchun chuqurligi 1 metr bo'lgan tuproq kesmalari qo'yiladi. Laboratoriya taxlillari uchun xar 10 sm dan tuproq namunalari olinadi.

Og'ir metallar va zaxarli elementlarning tuproqdagi namunalari olishda, saqlashda va tashishda ifloslanishdan saqlovchi sharoitlar yaratilishi zarur.

Yo'l chetlaridan (avtomobil va temir yo'l ta'siri ostidagi maydonlardan) tuproq namunalari chiziqli yo'nalish bo'yicha rel'efi, tuprog'i, o'simliklari va namligini hisobga olgan holda olinadi.

Tuproqlar og'ir metallar zaxarli elementlar bilan ifloslanish darajasiga ko'ra quyidagicha ajratiladi:

a) ifloslanmagan (og'ir metallarning chegaralangan konstentrativiyasidan ChK kam);

b) mo'tadil ifloslangan tuproqlar (og'ir metallarning konstentrativiyasi ChK ga teng);

v) ifloslangan tuproqlar (og'ir metallar konstentrativiyasi ChK dan ko'p)

Dala va laboratoriya tadqiqotlari natijasida: tuproqning og'ir metallar va zaxarli elementlar bilan ifloslanganligi xaritasi (xaritogrammasi), tushuntirish xati va tuproq pasporti tuziladi.

## **5. Qishloq xo'jaligi yerlari tuproqlarining texnogen buzilishi monitoringi**

Tuproqlarning texnogen buzilishi monitoringi yerlardan foydalanish dinamikasini bir tizimga keltirib, rejimli kuzatuvlardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Dala ishlari ma'lumotlari asosida qishloq xo'jalik yerlari texnogen buzilganlik xaritalari (xaritogrammalar) tuziladi va buzilish turlari va darajalari bo'yicha maydonlari qaydnomasi to'ldiriladi, shuningek qisqa tushuntirish matni yoziladi.

## **6. Neft mahsulotlari bilan tuproqlarning lokal ifloslanishi monitoringi**

Neft qazib olish hududlarining sanitar-himoya hududida va sanoat maydonchalarida tuproqning ifloslanishini nazorat qilish olingan tuproq namunalari laboratoriyada taxlil qilish orqali amalga oshiriladi. Laboriya taxlillari uchun tuproq kesmalari soni, chuqurliklari va olinadigan namunalar miqdorlari tadqiqot dasturida belgilanib ifloslantirish manbaalaridan turli uzoqlikda shamol "guli"ga mos holda olinadi.

Ajratib olingan tuproq namunalari og'ir metallar va zaxarli moddalar, brom, yod, ftor, bor, oltingugurt, neft mahsulotlari va yuzadagi faol moddalar



aniqlanadi. Laboratoriya tadqiqotlari natijalari tushuntirish xatida jadvallar, grafiklar, diagrammalar tarzida yoritiladi.

### **7. O‘simliklarda og‘ir metallar va zaxarli moddalar to‘planishi monitoringi**

O‘simliklarning og‘ir metallar va toksik moddalar bilan ifloslanishi darajasi va dinamikasini aniqlash uchun, har bir o‘simlik turidan alohida namunalari olinadi. Bunda albatta o‘simliklarning rivojlanish fazasi ko‘rsatiladi, chunki vegetatsiya davrida og‘ir metallar va toksik moddalar miqdori o‘zgarib boradi.

### **8. Qishloq xo‘jaligi yerlari tuproqlarining pestistidlar va gerbitsidlar bilan ifloslanishi monitoringi**

Tuproqlarning pestistidlar va gyerbistidlar bilan ifloslanishi monitoringi rejimi dala, laboratoriya va kameral tadqiqotlarda amalga oshiriladi, bunda ularning miqdori aniqlanadi.

Tuproqlarning pestistidlar va gyerbistidlar bilan ifloslanishi monitoringida namunalari olish nuqtalar soni tadqiqotlar o‘lchami va yer – uchastkasi tuzilishi toifasini e‘tiborga olgan holda ish dasturidan belgilanadi.

Tadqiqotlar natijalari asosida tuproqlarning pestistidlar va gyerbistidlar bilan ifloslanganligi xaritogrammasi ularning xavflilik sinfini ko‘rsatgan holda tuziladi va tushuntirish hati yoziladi.

### **Qishloq xo‘jaligi yerlarining mineral o‘g‘it qoldiqlari bilan ifloslanishi monitoringi**

Og‘ir metallar va ftor miqdori monitoringi fosforli o‘g‘itlar qo‘llanilgan yoki qo‘llanilayotgan qishloq xo‘jaligi yerlarida shuningdek bu o‘g‘itlarni tayyorlovchi-zavodlar ta’sir dog‘irasidagi hududlarda amalga oshiriladi.

Haddan ortiq mineral o‘g‘itlar qo‘llanilgan tuproqlar ifloslanganligi monitoringi dala, laboratoriya va kameral tadqiqotlar o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Tuproqlarga kesmalar tushirish va tuproq kesmalari soni, ularning chuqurligi, namunalari olish va saqlash amaldagi ko‘rsatmalar asosida aniqlanadi. Mineral o‘g‘itlar qoldiqlari bilan tuproqlarning ifloslanganligi monitoringi natijalari tushuntirish xatida yoritiladi va xaritada (xaritogrammada) aks ettiriladi.

### **Yer monitoringini informastion-texnikaviy ta‘minlash**

Monitoringni informastion-texnikaviy ta‘minlash respublika yer resurslarini boshqarish maqsadida kuzatuv tadqiqot natijalarini yig‘ish to‘plash va tahlil qilish orqali yer fondlari holati to‘g‘risida tezkor ma‘lumotlarni olishga mo‘ljallangan.

Yer monitoringini informastion-texnikaviy ta‘minlash ko‘p bosqichlik avtomatlashtirilgan ishchi o‘rinlar tizimidan iborat bo‘lib qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) ma'lumotlarning markaziy banki;  
b) ma'lumotlarni grafik va amaliy bazalarini yuritishning apparat-dasturiy komplekslari;

v) modem va boshqa aloqa tizimlaridan foydalanilgan holda kanallar orqali telekommunikation almashuv vositalari.

Yer monitoringini informastion-texnikaviy ta'minlash va yer resurslarini boshqarish sistemasi qo'yidagilarini o'z ichiga oladi;

a) quyi darajada – O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi tuman majmualari;

b) o'rta daraja – O'zbekiston respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi viloyat majmualari;

v) respublika darajasi – O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi.

Informastion-texnikaviy kompleksni yaratish ishlari natijasida yer monitoringini o'tkazishda foydalanilgan yerlarda o'tkazilgan tuproq geobotanik, gidrogeologik va boshqa tadqiqotlar, yerdan foydalaniuvchilarni ro'yxatga olish yerlarni miqdoriy hisobga olish, tuproq bonitirovkasi va yerlarning qiymat baholari ma'lumotlari banki bo'lgan respublika yer resurslarini boshqarishning markaziy tizimi yaratiladi.

### **Yer monitoringi natijalarini ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi**

Yer monitoringi ishlari O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasining ishlab chiqarish bo'linmalari tomonidan bajariladi.

Yer monitoring ob'ektlar bo'yicha materiallari ijrochilar bo'lim boshliqlari va rahbarlari (institut, bo'lim, filial yoki ekspedistiya) imzolagan hisobotlar va xaritografik materiallar ko'rinishida beriladi.

Yer monitoringi bo'yicha yillik yozma hisobot va xaritografik materiallar ko'rinishidagi yakuniy ma'lumotlar yer tuzish viloyat ishlab chiqarish bo'linmalari ilmiy-texnikaviy kengashlarida muhokama etiladi va institutlar, filiallar, bo'limlar, ekspedistiylar rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi. Yillik hisobotlar oxirgi bosqichda viloyat yer resurslari boshqarmalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Yer monitoringi ma'lumotlari to'rt nushada (ob'ektlar bo'yicha va yakuniy) tayyorlanadi. Bir nushasi bo'linmada qoladi, bir nushas yer resurslari viloyat boshqarmasiga jo'natiladi va ikki nusha Toshkent O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasiga yuboriladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Yer monitoringi to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?
2. Yer monitoringi necha xil bo'ladi?
3. Yerlarning holati qanday qilib baholanadi?

### **YER KADASTRI KITOBINI YURITISH BO'YICHA KO'RSATMA**

Berilgan ma'lumotlarga qaraganda O'zbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni 44890,1 ming ga ni tashkil etadi. Ushbu maydonning 90 foizga yaqini davlat tomonidan egalik qilish yoki foydalanish maqsadlarida turli korxonalar, muassasa va tashkilotlarga birlashtirilgan. Yer resurslari respublikaning milliy boyligidir.

Ishlab chiqarishning har qanday vositalaridan to'g'ri va samarali foydalanish ko'p jihatdan uning muhim xususiyatlari qanchalik chuqur va har tomonlama o'rganilganiga bog'liq. Bu eng avvalo, yerga tegishli bo'lib, undan oqilona foydalanish ilmiy asoslangan tadbirlar majmuini ishlab chiqishga izchillik bilan yondoshish va amalda to'plangan tajribaga rioya qilgan holda tashkil egilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 apreldagi "Yer kodeksi", "Fermer xo'jaligi to'g'risida" gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida" gi 1993 yil 6 maydagi "Yer solig'i to'g'risida" gi, 1998 yil avgustdagi "Davlat yer kadastrini to'g'risida" gi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida Davlat Kadastrining Yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to'g'risida" gi xujjatlar yer kadastriga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirib yuboradi. Natijada yerga egalik qilish va yerdan foydalanishda yangi shakllar vujudga keldi.

Yerni har tomonlama yaxshilash, uning unumdorligini va iqtisodiy samaradorligini doimo oshirib borish - bu qaytayotgan umuminsoniy qadriyatlar, qishloq xo'jaligini yuritishning ilmiy tizimi asoslari va yerdan yuqori mahsuldorlik bilan foydalanishdir. Yerdan to'g'ri foydalanish, zamon va makonda har xil o'simlik turlarining ilmiy asoslangan ketma - ketligi, tuproqqa ekologik "toza" ishlov berish usullari, o'g'itlash, qulay agrotexnika muddatlarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish, tuproq eroziyasiga qarshi kurash kabi muayan elementlar aniq qonunchilik yo'li bilan boshqarishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi" ning 15 - moddasiga muvofiq, davlat yer kadastrini yerlarning tabiiy, xo'jalik va hududiy tartibi to'g'risidagi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va qiymati to'g'risidagi, yer uchastkalarining joylashgan o'rni va o'lchovlari to'g'risidagi, ularni yer uchastkalari mulkdorlariga, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarga taqsimlash

to'g'risidagi zarur, ishonchli ma'lumotlar va xujjatlar tizimidan iborat. Davlat yer kadastrini munosabatlarini tartibga solish, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, yer tuzish ishlarini tashkil etish, yer tuzish, yer uchun to'lanadigan haq miqdorlarini asoslash, xo'jalik faoliyatiga baho berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, posyolka, qishloq va ovullar, o'zini - o'zi boshqarish organlarini manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni yer to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangandir. Davlat yer kadastrini muhim xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega. Uning ma'lumotlaridan turli masalalarni hal qilishda, jumladan yer solig'i, yer maydonlariga ijara haqi miqdorlarini belgilashda, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini rejalashtirishda, yer tuzishda, yerdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni hal qilishda foydalaniladi.

Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish – xalq xo'jaligi ahamiyatiga molik bo'lgan muammodir. Bu o'z navbatida xalq xo'jaligi tarmoqlararo yerlarni optimal tarzda tarqatishni, mumkin qadar kamroq harajatlar sarflangan holda har gektar yer maydoni hisobga ko'proq miqdorda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni, tuproq unumdorligini saqlash va muntazam oshirib borishni bildiradi. Bu muammoni hal qilish yer kadastrini to'la hajmlar huquqini muhofaza qilish maqsadlarida, shuningdek boshqa mulkdorlar, yer egalari va yerdan foydalanuvchilar huquqini ham muhofaza qilishda foydalaniladi. Shuning uchun ham yer kadastrini ma'lumotlari faqatgina iqtisodiy ahamiyatga molik bo'libgina qolmasdan, huquqiy ahamiyatga ham egadir.

Ishlab chiqarishning yil sayin rivojlana borishi bilan unga ko'proq tabiiy resurslar tortila boradi. Bunda o'z navbatida iqtisodiy, ijtimoiy texnologik va biologik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi kuchayadi. Shuning uchun ishlab chiqarishning maqbul holda amalga oshishi ham jamiyat hamda tabiat qonunlari to'g'risida chuqur va har tomonlama bilimlarga asoslanadi. U faqatgina moddiy boyliklar yaratibgina qolmasdan, shu bilan birga atrof - muhitni muhofaza qilish, tabiatdagi ekologik barqarorlikni ushlab turishi zarur. Shu sababli ham tabiiy resurslarni, jumladan yer resurslarini muhofaza qilish xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan muammodir va shuning uchun ham unga davlat tomonidan katta ahamiyat beriladi. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida ham atrof muhitni, jumladan yer resurslarini muhofaza qilish, yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlar sirasiga hududni oqilona tashkil etish, tuproq unumdorligini oshirish, yerlarni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, suv bosishdan, zaxlanishdan, qayta sho'rlanishdan, qaqrab qolishdan, ishlab chiqarish chiqindilari, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishdan himoya qilish, buzilgan yerlarni qayta ekinzorlarga aylantirish kabilar kiradi. Bu masalalarni hal qilish mamlakat yer resurslarini sifat holati to'g'risidagi to'liq va har tomonlama ma'lumotlarga asoslanishi zarur.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada jadallashtirish va rivojlantirish

bo'yicha hukumatimiz olib borayotgan agrar siyosatni amalga oshirishda ham yer kadastrida katta ahamiyat kasb qiladi. Jumladan, "Yer solig'i to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida" gi, "(koopierativ) shirkat xo'jaligi to'g'risida" gi qonunlarni amalga oshirish birinchi galda yer kadastrida ma'lumotlariga tayanadi.

Yer kadastrida ma'lumotlari birinchi galda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish uchun zarurdir. Ma'lumki, respublikamiz viloyatlari, tumanlari o'zlari-ning joylashuv bo'yicha turli mintaqalarga, iqlim, rel'ef va tuproq sharoitlariga egadir. Bunday holda ushbu viloyatlar, tumanlar bo'yicha qishloq xo'jaligi tarmoqlarini to'g'ri, ilmiy asoslangan holda belgilash, asosiy ekinlar hosildorliklarini istiqbolga rejalashtirish hamda shu asosda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish so'zsiz yer kadastrida ma'lumotlariga asoslanadi.

Yer kadastrida materiallari yerdan foydalanganlik uchun haq undirishda birlamchi asos bo'lib xizmat qilishi zarur. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanganlik uchun haq to'lanadi. Yer uchun haq har yili to'lanadigan yer solig'i shaklida olinadi, uning miqdori yer uchastkalarining sifatiga joylashishiga va suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab belgilanadi. Yer uchastkalari ijaraga berilganda yer uchun haq ijara xaqi shaklida olinadi, uning miqdori taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadi, lekin u yer solig'i stavkasining bir baravaridan kam va uch baravaridan ko'p bo'lmasligi kerak, yerdan qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda yer solig'i stavkasining bir baravari miqdorida bo'ladi.

2. Mussasalar, tashkilotlar, korxonalarining yer kadastrida kitobi ularga biriktirilgan yerning tabiiy, xo'jalik va huquq holatlari to'g'risida aniq va ishonchli ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan asosiy xujjat hisoblanadi.

Yer kadastrida kitobi beshta bo'limdan iborat:

1. Yerdan muddatli va muddatsiz (uzoq muddatli va qisqa muddatli) foydalanish yozib boriladi, foydalaniladigan umumiy yer maydoni, qancha muddatga berilganligi, shuningdek, yerdan foydalanish huquqiy asoslari ko'rsatiladi.

2. Muassasa, tashkilotlar, korxonalariga biriktirilgan yerlarning hamma turlari va alohida sug'oriladigan yerlar hisobga olinadi.

3. Tuproq guruhlari bo'yicha yerning sifat tavsifi, pichanzor va yaylovlarning madaniy texnik holati, tuproqlarning mexanik tarkibi va uning unumdorligiga ta'sir qiluvchi belgilar ko'rsatiladi.

4. Yerni baholash ko'rsatkichlari keltiriladi.

5. Jamoa xo'jaligi a'zolar, ishchilar, xizmatchilar va boshqa fuqarolarga, shuningdek, ayrim turkumdagi xizmatchilarga qabul qilingan tartib bo'yicha berilgan tomorqa yerlar hisobga olinadi.

### **1. Yerni foydalanish muddati bo'yicha taqsimlash:**

Birinchi bo'limda yozish uchun to'rtta qator ajratiladi.

Birinchi qatorda muddatsiz foydalaniladigan yerlar yoziladi.

Ikkinchi qatorga uzoq muddatga foydalaniladigan yerlar yoziladi.

Uchinchi qatorga qisqa muddatga (3 yilgacha) foydalaniladigan yerlar (agar ular birlamchi foydalanish tartibida berilgan bo'lsa) yoziladi.

To'rtinchi qatorga muassasa, korxonalar va tashkilotlar foydalanayotgan yerlarning jami yoziladi.

Birinchi ustunda yozish ishlari bajarilgan muddat ko'rsatiladi.

Ikkinchi ustunda maydonning joylashgan o'ri (aholi yashaydigan joyning nomi) ko'rsatiladi.

Agar yer maydonida bir necha aholi yashaydigan joylar bo'lsa, ulardan eng kattasi yoki korxonalar uchun ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lganining nomi yoziladi.

Uchinchi ustunda berilgan yer maydonining muddati yoziladi. Bu ustun yerdan foydalanishga berilgan huquqni tasdiqlaydigan xujjatlar asosida to'lg'aziladi.

To'rtinchi ustunda joyning umumiy maydoni yoziladi.

Beshinchi ustunda yerdan foydalanish huquqi, xujjatlarning nomi (yerdan foydalanish huquqi bo'yicha davlat dalolatnomasi, ijroya qo'mita qarorlari va boshqalar) qayd etiladi. Agar ayrim maydonlar vaqtinchalik foydalanishga berilgan bo'lsa, unda 5 - ustunda hamma qarorlar sanab o'tiladi.

## **2. Yer turlari miqdorini hisobga olish**

Foydalanilayotgan yerlar ichidagi hamma yer turlari hisobga olinadi. hisobga olish yerdan foydalanilayotgan haqiqiy holat bo'yicha o'tkaziladi.

Ikkinchi bo'lim har yili o'tgan yillar hisoboti ma'lumoti asosida 1 yanvar holati bo'yicha to'lg'aziladi, ya'ni qilingan yangi s'yomkalarga mos qo'shimchalar va tuzatishlar qilingan, yer o'lchovlari nazorati bo'lsa, o'tgan yillar va shu yillarda yerning hisoboti o'zgarish bo'lsa, yerning miqdorini oluvchi hamma xujjatlar bir ish jildiga tikib qo'riladi va yer kadastrasi kitobi bilan birga saqlanadi.

Shu ma'lumotlar asosida har yili 1 yanvarga tashkilotlar foydalanayotgan yerlarda bo'lgan o'zgarishlar haqida hisobot tasdiqlangan shakllar bo'yicha tuman hokimiyatiga topshiriladi.

Ikkinchi bo'lim to'rtta jadvaldan iborat bo'lib, ularda hamma yerlar miqdori, alohida sug'oriladigan yerlar maydoni beriladi.

Shirkat va fermer xo'jaliklari kadastrasi kitobida har yili yozib borish uchun olti qator ajratish zarur:

- 1) muddatsiz foydalanishda bo'lgan yerlarning hamma maydoni;
- 2) uzoq muddatga foydalanishga berilgan hamma maydoni;
- 3) qisqa muddatga foydalanishga berilgan yerlar maydoni;
- 4) muddatsiz va vaqtincha foydalanilayotgan yerlarning jami maydoni;
- 5) xo'jalik maydonida joylashgan aholi yashaydigan joylar;
- 6) sanitariya himoyasi zonadagi yerlar, suv bilan ta'minlash manbalari yerlari,

kichik daryolarning suv himoyasi zonalaridagi yerlar, elektr, aloqa tarmoqlariga ajratilgan va boshqa yerlar yoziladi.

### **“Sug‘oriladigan yerlar” jadvalini to‘lg‘azish**

Sug‘oriladigan yerlarni hisobga olish davlat yer fondi yagona hisobotning tarkibiy qismidir. Sug‘oriladigan yerlarni hisobga olishda yer turlarini turkumlarga bo‘lish hamma yerlarni hisobga olishdagidek saqlanib qoladi. Shuning uchun ham ustunlar va qatorlarni to‘lg‘azish tartibini tushuntirish talab qilinmaydi. Sug‘oriladigan yerlarni hisobga olish ularning haqiqiy holati bo‘yicha o‘tkaziladi. Yer turlariga tegishli yer maydonlari ularning haqiqiy foydalanish asoslariga qarab belgilanadi. Shuningdek, yangi ishga tushirilgan yerlar ham, agar ularga qishloq xo‘jalik ekinlari bo‘lsa ham, lekin loyiha xujjatlari asosida meliorativ qurilish ishlari qilinib, davlat komissiyasining dalolatnomasi assida xo‘jalikka topshirilgan bo‘lsa, hisobga olnadi.

1 yanvargacha dalolatnoma bo‘yicha qabul qilingan Sug‘oriladigan yerlar kech topshirilganligi sababli ekin bo‘lsa ham, qaysi yer turiga mo‘ljallanganligiga qarab bu yerlar maydoni Sug‘oriladigan yerlar nomi bilan olinishi zarur. “Sug‘oriladigan yerlar “ jadvalida Sug‘orish tarmoqlari bo‘lgan Sug‘oriladigan yerlar hisobga olinishi ko‘zda tutilgadi.

### **3. Yer turlarining sifati**

Yer turlarining sifati tavsifi hamma qishloq va o‘rmon ho‘jaligi korxonalari, tashkilotlar va muassasalarning yer kadastrasi kitobida, yer Sinflari tuproqning mexanik tarkibi va uning unumdorligiga ta’sir qiluvchi belgilari, pichanzor va yaylovlarning madaniy texnik holatlari bo‘yicha olib boriladi. Yer turlarini tavsiflash uchun asos qilib sifatli tayyorlangan tup-roq haritasi, kartografik rejalar va boshqa xujjatlar olinadi. Yerning tabiiy sharoitini to‘g‘ri va to‘liq tavsiflash uchun davlatimizning tabiiy qishloq xo‘jalik rayonlashtirish ma’lumotlaridan foydalaniladi, chunki ayrim regionlar iqlim sharoitlari bir - biriga o‘xshash bo‘ladi. Bu rayonlashtirish tizimi uchta tabiiy qishloq xo‘jalik zonasiga, qirq to‘rtta tabiiy qishloq xo‘jalik provinstiya va ettita tog‘li tumanlarga ajratiladi.

Tuproq tekshiruv xujjatlaridan foydalanish qulay bo‘lishi uchun, sifati va xossalari bir - biriga yaqin bo‘lgan tuproqlar guruhlariga birlashtirilgan. Bunday tup roq guruhlari 347 ta. Tuproq guruxlarining ro‘yxatida har qaysi guruh qarab raqamidagi doimiy belgisiga ega. Ro‘yxat oxirida tuproq guruxlarining bo‘linishi ko‘rsatilgan, ya’ni mexanik tarkibi, to‘shalgan jinlar, tosh aralashganlik, nishabligi, eroziyaga uchraganligi, sho‘rlanganligi va boshqalar. Bu ajratishlar “Yerdan foydalanishdan tuproqlarning yirik nisbatda tuproq xaritalarini tuzish va tuproq tekshiruv ishlarini bajarish bo‘yicha qo‘llanma” asosida qilinadi.

Tuproq guruhlari mexanik tarkibi bo‘yicha 7 guruhga bo‘lingan: og‘ir, o‘rta, yengil loylar; og‘ir, o‘rta va yengil qumoqlar, qumoqlar va qumlar /a, a2, b, v, d, j,

i harfli ifodalar/ har qaysi mexanik tarkib to'shalgan jinslar bo'yicha ajratiladi. Og'ir tuproqlar, yengil tuproqlar hamda har xil darajalar bo'yicha mexanik tarkibli shag'alliva chag'ir toshlar tegishli harflar /a, a<sup>2</sup>, b, g, e, z, k, l/ bilan belgilanadi. Tosh aralashgan tuproq guruhlari 4 ta guruhgacha /m, n, o, p belgilari bilan/, joylarning nishabligi bo'yicha ham 4 guruhgacha bo'linadi /r, s, t, u harflari bilan/, diflyastiya bo'yicha 3 ta guruhgacha /f, x, st harfli belgilar/ bo'linadi. Meliorastiya turlari bo'yicha bitta guruhcha sug'orildigan yerlar /ch harfli belgi bilan/ ajratiladi.

“Yerlarning tasnifnomasi” dagi ma'lumotlardan foydalanish uchun ko'rsatkichlari va tabiiy sharoitlar bo'yicha yerdan foydalanish texnologiyasi umumiy, ishlab chiqarish qobiliyatini oshirish usullari va ularni asrash bir - biriga yaqin bo'lishiga qarab 37 Sinfga ajratiladi.

Sinflar aniq ifodalangan rel'efning har xilligi tup-roqning mexanik tarkibi va tuproq paydo qiluvchi jinslar har xilligi, namlanish sharoitlari va boshqa darajalar bo'yicha ajratiladi. Tabiiy ishlab chiqarish sharoitlari bir xil bo'lgan tuproq Sinflari va yerning sifati bir xil bo'lgan tuproqlar iqtisodiy baholash ob'ekti bo'lishi mumkin. Yerlarni tasniflash natijasida ularning yaroqliligi ettita toifaga birlashtirilgan. Bu birlashtirish asosi qilib yer turlarining /haydalma yer, yaylov, pichanzor va boshqalar/ qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda ko'proq foydalanish imkoniyatlari, haqiqiy foydalanilayotganligidan qat'iy nazar, tabiiy sharoitlari majmuini oldindan aniqlash asos qilib olinadi.

Yerning sinfi har qaysi miqiyosida o'zining tartib raqamiga ega. Yerlar O'zbekistonda qo'llanildigan sxema bo'yicha toifalarga ajratiladi.

Birinchi toifadagi 1-5 va 10-14 sinf yerlar to'rtinchi toifadagi 5 sinf yerlar iqlim sharoitiga mos kelsa, mevali daraxtlar ekishda foydalanish mumkin. Yerlarni tasniflashda taksonomik ajratmalarni ifodalashda quyidagi xos raqam sistemasi qabul qilingan: arabcha son bilan zonalar raqami ifodalanadi; yer toifasi esa, rim soni va yer sinfi arabcha son bilan belgilanadi. Misol uchun 5a - 1-10 o'rmon - cho'l zonasiga to'g'ri keladi /o'rmon sur tusli tuproqlar zonachasi, 1 toifaga - haydashga yaroqli yerlar, 10 sinfga kuchsiz eroziyaga uchrashi mumkin hamda 2-5<sup>0</sup> loyli va qumoqli g'ovak jinslar ustida paydo bo'lgan kuchsiz yuvilgan yerlarni qo'shib olgan.

#### **4. Yerni baholash ko'rsatkichlari**

Qishloq xo'jalik muassasalarining yer baholash ishlari o'rnatilgan tartib bo'yicha o'tkaziladi. 1-ustunda - yozuv olib borilgan yil, 2-ustunda - tuman va xo'jaliklar nomi. 3-13 ustunlarga xo'jaligidagi asosiy ekinlar hosildorligi bo'yicha haydalma yerlarning baholash ko'rsatkichlari va baholanayotgan ekinlarning nom, 14-24 ustunlarda xarajatning qoplanishi bo'yicha ko'rsatkichlar yoziladi. Bu ustunlarga faqat o'simliklar bo'yicha ko'rsatkichlardan tashqari ko'p yillik daraxtlar, pichanzor va yaylovlar ko'rsatkichlarni ham yozish mumkin. Baho ko'rsatkichlari baholash qaydnomasidan olib to'lg'aziladi. Baholash ballari butun



raqamlarda keltiriladi.

Yerni, ayrim qishloq xo'jalik ekinlari ekishning samaradorligini baholashda mazkur o'simlik hosildorligining foiz nisbati xo'jalik yuritishning tuman uchun me'yoriy ballarda ifodalanadi.

Xarajatlarning qoplanish ko'rsatkichlari har xil sifatli yerlarning mehnat unumdorligi bo'yicha farqini ifodalaydi.

## **5. Shaxsiy foydalaniladigan tomorqa yerlar va xizmatchilarning foydalanadigan yerlari**

Bu kadastr kitobining beshinchi bo'limida jamoa xo'jaligi a'zolarining, xizmatchilar, ishchilar va boshqa fuqarolarning tomorqa yerlari hisobga olinadi. Tomorqa yerlari foydalanishga berilgandan so'ng 15 kun ichida yozib qo'yilishi zarur.

Tomorqa yerlarining umumiy maydoni yoki uning yer turi bo'yicha tarkibi bir gektar aniqlikda olinadi. qurilishga ajratilgan maydonlar uning poydevori bo'yicha hisobga olinadi. Agar tomorqa yerlari meliorativ yerlarga joylashgan bo'lsa, izohda bu haqda belgi qo'yiladi. Tomorqa yerlarini yozib borish har qaysi aholi yashaydigan joylar uchun alohida, ya'ni jamoa xo'jaligi idorasidan, davlat xo'jaligi direktivalaridan boshlab qolgan hamma tegishli tashkilotlar tomonidan olib boriladi. Aholi yashaydigan joylarning nomi kitob varag'ining o'rtasiga yoziladi.

Yirik aholi yashaydigan joylar kitobga mahallalar yoki aholida ko'chalar bo'yicha olib boriladi. har qaysi qishloq bo'yicha avvaldan tomorqa yeri bo'lgan, shu xo'jalikda ishlayotgan hamma fuqarolar yoziladi. Bu yozuvdan keyin yerdanyangidan foydalanuvchilar va va hamma foydalanuvchilarni jamlash uchun joy qoldiriladi. Undan so'ng, boshqa tashkilotlarda ishlab, bu joyda tomorqasi bor fuqarolarning yerlari yoziladi. har qaysi yozuvdan so'ng /3 - 5/ bir qancha bo'sh qatorlar qoldiriladi. Tomorqa yerlarning maydonlari o'zgarishini hisobga olish uchun o'zgarishga vaqti izohda ko'rsatiladi. Agar tomorqa maydonlari o'zgartirilmas, har qanday yozuvdan keyin bin necha bo'sh qatorlar qoldirilishi kerak.

O'zgarish vaqtida eslatma belgilari qo'yiladi. Yerdan foydalanuvchilarning 2 ta yoki undan ortiq tomorqa maydonlari bo'lsa, ular qo'shiladi va 1 ta qator ko'rsatilgan 4-maydon bo'linmasiga yoziladi, aholi yashaydigan joylardan tashqari. Kitobdagi beshinchi bo'linma yozuvlari bir yilda 2 marta tekshiriladi (1 iyun va 1 noyabrda).

Yer kadastr kitoblari siyohda yoziladi, hech o'chirilmaydi va o'zgartirish raqamlari kiritilmaydi. Agar xato qilinsa, noto'g'ri yozuvlar yaxshilab chiziladi. Yangisi yuqorisiga yoziladi, kitob oxirida shu to'g'rida eslatma beriladi.

Yer kadastr kitoblarining to'g'ri va o'z vaqtida yozib borilishini ta'minlash xo'jalikning yer hisobotini olib boruvchi korxonalar raxbarlari va mutaxassislariga

topshirilgan. Tumanning yer tuzish mutaxassisi 1 yilda 1 marta kitobning to'g'ri olib borilishini tekshiradi (1 iyun va 1 noyabr holatini), kitob oxirida nima qilganlik to'g'risida yoziladi. Yer kadastrı kitoblari yonmaydigan joyda yoki po'lat sandiqlarda saqlanadi. Kitoblar oldindan raqamlangan, boylangan va muhrlangan holatda korxonalaraxbarlariga beriladi.

Yer kadastrı kitobiga yozilgan ma'lumotlar asosida har yili korxonalar foydalanayotgan yerlar tarkibida ro'y byergan o'zgarishlar to'g'risida hisobot tuziladi va 15 dekabrga qolmasdan tuman hokimiyatiga topshiriladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Yer kadastrı kitobi nechta bo'limdan iborat?
2. Shaxsiy foydalaniladigan tomorqa yerlar va xizmatchilarning foydalanadigan yerlarni tushuntirib bering.

### YAGONA YER SOLIG'I

#### Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Yagona yer solig'ini to'lovchilar mustaqil ravishda, yer mulklari, bazaviy stavkalar va tuzatish koeffitsiyentlaridan kelib chiqib hisoblab chiqaradilar.

Qishloq xo'jaligi yerlari uchun yagona yer solig'ining bazaviy stavkalari sifatida qabul qilingan:

sug'oriladigan yerlar bo'yicha - 1 klass yerlari (bonitet balli 10 gacha);

lalmikor yerlar bo'yicha- tekislik zonasi yerlari;

pichanzorlar va o'tloqlar bo'yicha- "Cho'l" mintaqasi yerlari.

Yerlarning qayerda joylashgani va sifatiga (ball-bonitetga) bog'g'liq ravishda bazaviy stavkalar tegishli tuzatish koeffitsiyentlariga ko'paytiriladi.

Masalan: Oq-oltin tumani bo'yicha 1 gektar 1-klass yerlarning bazaviy stavkasi 1381,5 so'mni tashkil etadi.

1 ga 2-klass yerlarning (ball boniteti 11 balldan-20 ballgacha) soliq stavkasi 1381,5 so'm  $\times$  1,50 (tuzatish koeffitsiyenti) ga ko'paytirgan holda 2072,3 so'mligini aniqlaymiz.

1 ga 3-klass yerlarning (21-30 ball) soliq stavkasi 1381,5 so'm  $\times$  2,25=3108,4 so'm,

1 ga 4-klass yerlarning (31-40 ball) soliq stavkasi 1381,5 so'm  $\times$  3,29=4545,1 so'm,

1 ga 5-klass yerlarning (41-50 ball) soliq stavkasi 1381,5 so'm  $\times$  4,67=6451,6 so'm,

1 ga 6-klass yerlarning (51-60 ball) soliq stavkasi 1381,5 so'm  $\times$  6,54=9035,0 so'm,

1 ga 7-klass yerlarning (61-70 ball) soliq stavkasi 1381,5 so'm  $\times$  9,00=12433,5 so'm,

1 ga 8-klass yerlarning (71-80 ball) soliq stavkasi 1381,5 so'm  $\times$  11,68 = 16135,9 so'm,

Bundan ko'rinib turibdiki, yerning unumdorligi, ya'ni ball boniteti qanchalik yuqori bo'lsa, soliq stavkasi ham shunga yarasha oshib boradi.

Yerning har bir turiga (sug'oriladigan yerlar, lalmikor yerlar, pichanzorlar, o'tloqlar va hokazo) tegishli bazaviy stavkalar va tuzatish koeffitsiyentlari qo'llanadi, ular to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari bo‘yicha bazaviy stavkalar uchun tegishli tuman va shahar bo‘yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Lalmikor yerlar, shuningdek pichanzor va o‘tloqlar bo‘yicha bazaviy stavkalar uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Jamoat binolari, suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo‘llar, shuningdek qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar band etgan yerlar bo‘yicha bazaviy stavkalar uchun tegishli tumanlar va shaharlarning sug‘oriladigan yerlari uchun tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Yagona yer solig‘ining hisoblab chiqarilgan summasi yer uchastkasi joylashgan yerdagi mahalliy byudjetga to‘lanadi.

Yil davomida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchi-lariga ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan boshlab to‘lanadi.

Yer uchastkasi olib qo‘yilgan (kamaytirilgan), sotib olingan, sotilgan taqdirda soliq olish yer uchastkasi olib qo‘yilgan (kamaytirilgan), sotib olingan, sotilgan oydan boshlab to‘xtatiladi (qisqartiriladi).

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar belgilanganda ular soliqni ushbu huquq paydo bo‘lgan oydan boshlab to‘lashni to‘xtatadilar. Yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlarga huquqlar bekor qilingan taqdirda ular yer solig‘ini ushbu huquq bekor qilingan oydan keyingi oydan boshlab to‘lashni boshlaydilar.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yagona yer solig‘i summasini mazkur Yo‘riqnoma ilovasiga binoan shakl bo‘yicha hisoblab chiqaradilar va davlat soliq organlariga hisob-kitobni joriy yilning 1 fevraligacha taqdim etadilar. Fermer xo‘jaliklari hisoblab chiqarilgan yagona yer solig‘i umumiy summasining 97,5% ini maxsus tranzit hisobvarag‘iga, 2,5 % ini Dehqon va fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘arma-siga to‘laydilar. Yagona yer solig‘i bo‘yicha hisob-kitoblarda maxsus tranzit hisob varag‘iga to‘lanadigan yagona yer solig‘i summasi hamda Dehqon va fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga to‘lanadigan yagona yer solig‘i summasi alohida ustun bilan aks ettiriladi.

Buxgaltyeriya hisobida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yagona yer solig‘i bo‘yicha byudjet bilan hisob-kitobni byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga olish hisob varag‘ida yuritadilar.

Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi: davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag‘i debeti; byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga olish hisob varag‘i krediti.

Byudjetga o‘tkazilgan soliq summalari quyidagicha aks ettiriladi: byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga olish hisob varag‘i debeti; pul mablag‘larini

hisobga olish hisob varag'i krediti.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar davlat solig' xizmati organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari ustidan davlat soliq xizmatining yuqori organlari yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egalar.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga muvofiq soliqning to'g'ri hisoblab chiqarilishi va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Yana bundan tashqari o'tgan yilning dekabr oyida o'tkazil-gan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning o'n uchinchi sessiyasi belgilab byergan hamda Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 dekabrda 567-sonli qarori bilan kiritilgan soliq solishdagi ayrim o'zgarishlarni aytib o'tish joiz deb hisoblayman.

2004 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavkasining ikkinchi guruh bo'yicha (eng kam ish haqining 5 dan 10 baravarigacha miqdorda) 22% dan 21% ga va uchinchi guruh bo'yicha (eng kam ish haqining 10 baravaridan yuqori miqdorda) 32% dan 30 % ga kamaytirildi. Bu yildan boshlab fuqarolarning eng kam ish haqining 5 baravarigacha bo'lgan daromadlaridan 13%, 5 baravaridan 10 baravarigacha bo'lgan daromaddan 21%, 10 baravaridan yuqori bo'lgan qismidan esa 30% miqdorida daromad solig'i undiriladi. Bu esa soliq yukini yengillashtiradi va jismoniy shaxslarning real daromadlarini ko'paytiradi;

Joriy yilda bungacha amal qilgan (byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi, mehnatga bandlik bo'limi hamda ijtimoiy sug'urta to'lovlariga) yalpi stavkada (37,2%) ijtimoiy sug'urtaga majburiy badallar to'lanishi o'rniga mehnatga haq to'lash fondidan 33% miqdorida yagona ijtimoiy soliq to'lovi joriy etildi. Bu esa mehnatga haq to'lash fondining, binobarin, xodimlarga to'lanadigan haqlarning ham ko'payishini rag'batlantiradi. Masalan, o'tgan yildagi tartib bo'yicha korxonalar o'zining ishchisiga 1000 so'm ish haqi hisoblagan bo'lsa, 35%-350 so'm pensiya jamg'armasiga, 1,5%-15 so'm bandlik bo'limiga, 0,7%-7 so'm ijtimoiy sug'urta to'lovi, jami bo'lib ijtimoiy sug'urtaga (37,2%) 372 so'm to'lanar edi. Bu yildan boshlab yagona ijtimoiy soliq to'lovining joriy etilishi natijasida 372 so'mning o'rniga 330 so'm to'lanadi, ya'ni o'tgan yilga nisbatan har 1000 so'm hisoblangan ish haqiga nisbatan pensiya fondiga 42 so'm kam to'lanadi. Demak, shu paytgacha amal qilib kelgan 3 ta to'lov o'rniga faqatgina 1 ta to'lov to'lanadi, ya'ni to'lovlar soni ham kamaydi, ham bundan tashqari to'lov stavkasi 37,2% dan 33% ga ancha pasaydi. Bu ham soliq yukini yengillashtirish borasida qo'yilgan qadamlardan biridir.

Endi yana bevosita, qishloq xo'jaligi tovar mahsuloti yetkazib beruvchilardan undiriladigan yagona yer solig'iga qaytsak, bu yilda o'tgan yilga qaraganda inflyatsiya darajasidan kelib chiqib yagona yer solig'ining bazaviy

stavkalari o'rtacha 1,5 baravarga ko'paydi. Masalan, Boyovut tumanida joylashgan qishloq xo'jaligida foydalaniladigan 10 gektar yer maydonining ball boniteti 51 ballni tashkil qilgan bo'lsa, tuzatuvchi koeffitsiyent 6,54 qo'llaniladi.

O'tgan yil bazaviy stavka 970,7 so'mni tashkil qilgan, shu stavkada 2003 yil uchun 63483,8 so'm yagona yer solig'ini to'lagan bo'lsa, joriy yil uchun bazaviy stavka 1456,1 so'm belgilanganligi sababli 2004 yilga 95228,94 so'm yagona yer solig'ini to'laydi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Yagona yer solig'ini hisoblash formulasini yozib bering.
2. Yagona yer solig'i bo'yicha qanday yer uchastkalariga imtiyozlar bor?
3. Soliq stavkasiga tuproq ball boniteti qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Yagona yer solig'ining bazaviy stavkalariga qanday yerlar qabul qilingan?

## YER KADASTRI VA TUPROQ BONITIROVKASI BO'YICHA MASALA VA MASHQLAR

Tuproq bonitirovkasi bo'yicha tuzatish koeffitsiyentlarini ishlab chiqishda chirindi va oziqa elementlarining zahirasi hisoblash katta ahamiyatga ega.

Yalpi chirindi, fosfor va kaliyning zahirasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$N = \frac{a \cdot 10000 + V \cdot R}{100}$$

bu yerda: H- gumusning zahirasi t/ga; a- genetik qatlamning qalinligi metrda; V- ushbu qatlamning hajm og'irligi; R- gumusning foizdagi miqdori.

**1-masala.** Quyidagi ma'lumotlar asosida sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar uchun (0- 50 sm va 0- 100 sm qalinlikdagi) gumus zahirasi hisoblang.

54- jadval

Qatlamlar, sm	Chirindi miqdori, %	Hajm og'irligi, g/ sm <sup>3</sup>
0- 30	1,14	1,27
30- 55	0,83	1,37
55- 79	0,51	1,34
79- 127	0,42	1,32

$$\text{Yechish: } 0- 50 \text{ sm uchun: } H_1 = \frac{0,30 \cdot 10000 \cdot 1,14 \cdot 1,27}{100} = 43,4 \text{ t/ga}$$

$$H_1 = \frac{0,20 \cdot 10000 \cdot 0,83 \cdot 1,37}{100} = 22,7 \text{ t/ga}$$

$$H = 43,4 + 22,7 = 66,1 \text{ t/ga}$$

**2- masala.** Berilgan ma'lumotlar asosida och tusli bo'z tuproqlar mintaqasida joylashgan sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar uchun chirindining zahirasi 0- 50 sm va 0- 100 sm qatlamlar uchun hisoblang.

55-jadval

Qatlam- lar, sm	Chirindi miqdori, %	Hajm, og'irligi, g/ sm <sup>3</sup>	Qatlam- lar, sm	Chirindi miqdori, %	Hajm og'irligi, g/ sm <sup>3</sup>
0- 37	1,40	1,32	0- 33	0,73	1,37
37- 56	0,59	1,41	33- 45	0,43	1,51
56- 80	0,47	1,34	55- 65	0,35	1,38
80- 110	0,31	1,36	90- 125	0,22	1,37
0- 36	1,31	1,37	0- 30	1,33	1,33
36- 54	0,49	1,45	30- 47	1,01	1,40
54- 80	0,42	1,38	47- 56	0,31	1,37
80- 103	0,24	1,39	56- 93	0,28	1,35
			93- 120	0,24	1,38
			120- 140	0,23	1,36

Harakatchan shakldagi oziqa moddalarining zahirasi quyidagicha hisoblanadi.

$$N = a \cdot 10 \cdot V \cdot M$$

N- azot, fosfor yoki kaliyning zahirasi kg/ga;

a-genetik qatlamning qalinligi, santimetrda;

V- ushbu qatlamning hajm og'irligi, g/sm<sup>3</sup>;

M- azot, fosfor yoki kaliyning miqdori mg/kg.

**3-masala.** Berilgan ma'lumotlar asosida jigarrang tuproqlar uchun harakatchan fosfor va kaliy zahirasini hisoblang (0- 50 sm uchun).

56-jadval

Qatlamlar, Sm	Harakatchan fosfor, mg/kg	Harakatchan kaliy, mg/kg	Hajm og'irligi, m/sm <sup>3</sup>
0- 3	52	380	1,28
3- 10	38	350	1,29
10- 28	19	220	1,36
28- 62	15	210	1,32
62- 112	8	180	1,33

Yechish: Harakatchan fosfor uchun:

$$N_1 + 0,03 \cdot 10 \cdot 1,28 \cdot 52 + 19,97 \text{ kg/ga}$$

$$N_2 + 0,07 \cdot 10 \cdot 1,29 \cdot 38 + 34,314$$



$$N_3 + 0,18 \cdot 18 \cdot 1,36 \cdot 19 + 46,5 \text{ kg/ga}$$

$$N_4 + 0,12 \cdot 1,0 \cdot 1,32 \cdot 15 + 23,8 \text{ kg/ga}$$

$$N + 19,97 + 34,3 + 46,5 + 23,8 + 124,57 \text{ kg/ga}$$

**4- masala.** Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib, yangidan sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar uchun harakatchan fosfor va kaliyning 0- 50 sm qatlam uchun zahirasini hisoblang.

57-jadval

Qatlamlar, sm	Harakatchan fosfor, mg/kg	Harakatchan kaliy, mg/kg	Hajm og'irligi, m/sm <sup>3</sup>
0- 25	24,1	250	1,40
25- 45	14,4	240	1,41
45- 65	10,1	220,6	1,44
80- 120	8,2	220,3	1,47

**5- masala.** Berilgan ma'lumotlar asosida sug'oriladigan bo'z – o'tloqi tuproqlar uchun fosfor va kaliyning zahirasini (0- 50 sm uchun) hisoblang.

58-jadval

Qatlamlar, sm	Harakatchan fosfor, mg/kg	Harakatchan kaliy, mg/kg	Hajm og'irligi, m/sm <sup>3</sup>
0- 28	29,9	280	1,26
28- 50	21,5	260	1,41
50- 70	16,8	252	1,38
0- 35	25,0	190,0	1,28
35- 45	10,2	100,0	1,42
45- 60	23,1	60,0	1,37
0- 30	12,4	100,0	1,29
30- 48	8,0	60,0	1,41
48- 75	9,0	50,0	1,39

Koeffitsiyentlar tanlash eng nozik, muhim ish hisoblanadi. Bu ishda eng avallo ekilgan qishloq xo'jalik o'simligi hosili bilan tuproqni aniq xususiyatini tanlash kerak. Toki bu xususiyat bilan hosil o'rtasida o'zaro yaxshi korrelyasiya bo'lsin.

Ko'p yillik tajribalar va korrelyasion hisob - kitoblar natijalariga ko'ra sug'oriladigan mintaqada tuproqni bonitirovkalash maqsadida o'tkazilgan ishlarda uning, ya'ni tuproqni quyidagi xossalari tanlanmog'i maqsadga muvofiq deb topilgan.

1. Bo‘z tuproqlar mintaqasida, ya’ni tog’ oldi va adirlarda tarqalgan tuproqlarda eroziyalanganlik darajasi, ya’ni yuvilganlik darajasi va yuvilma uchun belgilangan koeffitsiyentlar tanlanadi.

Och tusli bo‘z tuproqlarda bularga yana sho‘rlanganlikni ifodalaydigan koeffitsiyentlar qo‘shiladi.

2. Bo‘z tuproqlar mintaqasidagi o‘tloqi tuproqlar uchun esa gumus miqdori, gumus qatlami qalinligi, toshli qatlamni joylashgan o‘rnini e’tiborga oluvchi koeffitsiyentlar tanlanadi.

Agar toshli qatlami 70 sm dan yuzada joylashgan bo‘lsa, faqat shu ko‘rsatkich uchun ishlangan koeffitsiyentlardan foydalaniladi.

Agar mayda zarrachali qatlam qalinligi 70 sm dan oshsa, u holda gumus qatlami qalinligi e’tiborga olinadi.

3. Cho‘l mintaqasining avtomorf tuproqlarini bonitirovkalashda gumus miqdori va gumus qatlami qalinligi e’tiborga olinadi.

4. Cho‘l mintaqasining gidromorf tuproqlarini baholashda gumus miqdori, sho‘rlanganlik darajasi, gleyli qatlam o‘rni va gumus qatlami qalinliklari uchun koeffitsiyentlar qabul qilinadi.

Keltirilgan koeffitsiyentlar va ularni tanlash eng zaruriy shart bo‘lib, bizning regionlarni xarakter laydigan guruhlar hisoblanadi.

Shular bilan bir qatorda aniq tuproq- iqlimiy sharoitida har bir tuproq mintaqasida, provinsiyasida, okrugida tuproqning xossa va xususiyatlariga qarab qo‘shimcha tariqasida skeletlik, gipslik, zichlik darajalari va boshqalar ham e’tiborga olinadi.

Tuproq bonitirovkasini asosiy tamoyili qo‘yilgan bonitet ballari shu tuproqni asosiy agronomik xossalarini qamrab olib, hosilni 80 % dan ko‘p miqdorini ifodalay olishi e’tiborga olinadi.

Bevosita hosilni chamalash uchun bir ballni hosilga muvofiq qiymatini, ya’ni bir ball necha s-ga ni ifodalashini aniqlab shu ko‘rsatkichga mos keladigan raqamga, ya’ni joyning ball bonitetiga ko‘paytiriladi. Bir ballning hosilga to‘ri keladigan qiymatini aniqlash uchun Respublika bo‘yicha olingan o‘rtacha maksimal hosil miqdorini eng unumdor, ya’ni 100 balli tuproq ko‘rsatkichiga bo‘linadi. Bu ish jadvalda keltirilgani kabi amalga oshiriladi.

59- jadval

#### Hosilni rejalashtirish

Ekin turi	Respublika bo‘yicha o‘rtacha maksimal hosil, s-ga	Bir ballga to‘ri keladigan hosil miqdori, s/ga
o‘za	40	0,40
Budoy	60	0,60
Suli	75	0,75

2-3 yilgi beda (pichan)	200	2,00
Don uchun makkajo‘xori	80	0,80

Bevosita hosil miqdorini rejalashtirish esa quyidagicha bajariladi.

Misol uchun 75 balli tuproqlar uchun o‘za hosilini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

$$75 \cdot 0.40 = 30 \text{ s/ ga}$$

Budoy hosildorligini bunday tuproqlarda  $75 \cdot 0.60 = 45 \text{ s/ ga}$  ni tashkil qiladi. Shu tariqa boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun ham hisoblanadi.

Tavsiyalarga ko‘ra ball boniteti qizil siyoh bilan yoziladi va qizil bilan o‘rab qo‘yiladi.

Xaritada unumdorlikni ko‘rsatuvchi sinflar yoziladi va quyidagicha bo‘yaladi.

X- sinf- to‘q yashil

IX- sinf- yashil

VIII- sinf- to‘q sariq

VII- sinf- sariq

VI- sinf- sarish

V- sinf- och sariq

IV- sinf- to‘q binafsha

III- sinf- binafsha

II- sinf- to‘q bo‘z

I- sinf- bo‘z

Boshqacha ranglarni ham tanlash mumkin.

Ba‘zi ilmiy ishlarda tuproq xaritasining o‘rniga tuproq bonitirovkasi xarita - sxemalarini berish mumkin. Buning uchun ularning ranglarini o‘rniga tegishli shtrixlar beriladi. Quyida pomidor ekini misolida ishlab chiqilgan tuproq- xarita sxemasi beriladi.

Tuproqlar bonitirovkasi o'tkazishda bonitirovkasining asosiy shkalasidan

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani  
G. G'ulom nomli shirkatlar uyushmasi  
pomidor ekini ekiladigan tuproqlar  
**BONITIROVKA XARITA SXEMASI**



ballarni to'ri qo'yish va tuzatish koeffitsiyentlarini ushbu mintaqa uchun moslarini tanlash muhim ahamiyatga ega. Hozirgi amaldagi uslubiy qo'llanmada tuproqning genetik guruhi va mexanik tarkibi asosida asosiy shkaladan ball tanlanadi.

**6- masala.** Ushbu tuproqlar nomi va mexanik tarkibiga ko'ra asosiy shkaladan tegishli ballarini toping.

a) sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar, yengil qumoqli.

**Yechish:** Buning uchun jadvaldan tegishli ball topiladi, ya'ni 95 ballga ega.

b) Sug'oriladigan taqirli, og'ir qumoqli tuproqlar.

v) Bo'z tuproqlar mintaqasidagi sug'oriladigan o'tloqi, yengil qumoqli sug'oriladigan o'tloqi, yengil qumoqli tuproqlar.

**7-masala.** quyidagi berilgan tuproq ayirmasining tavsifidan tuproq bonitet ballini hisoblang.

Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar mintaqasidagi bo'z-o'tloqi tuproqlar, yengil qumoqli, o'rtacha sho'rlangan, gleyli qatlam 90 sm chuqurlikda uchraydi.

**Yechish:** asosiy shkaladan 90 ball bilan baholanib, u sho'rlanish darajasiga 0,60 va gleyli qatlam 0,80 koeffitsiyentlariga korrektirovka qilinadi.  
 $90 \times 0,60 \times 0,80 = 43,2$

**8-masala.** Ushbu tuproq xaritasi eksplikasiyasi ma'lumotlardan tuproqlaridan tuproq bonitet balini hisoblang.

a) Sug'oriladigan sur tusli qo'nir tuproqlar, og'ir qumoqli, o'rtacha sho'rlangan, shamol eroziyasiga kuchsiz uchragan.

b) sug'oriladigan bo'z tuproqlar, o'rta qumoqli, kuchli emirilishga uchragan tuproqlar.

v) sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar mintaqasidagi o'tloqi-botqoq tuproqlar, og'ir qumoqli, kuchsiz sho'rlangan, gleyli qatlam 72 sm da uchraydi.

Tuproq ayirmalarining bonitet ballarini hisoblangandan so'ng, fermer xo'jaligi, fermerlar uyushmasining tuproqlarining o'rtacha bonitet balli hisoblanadi.

Hisoblash quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$B_{o'rtacha} = \frac{(b_1 \cdot S_1) + (b_2 \cdot S_2) + (b_3 \cdot S_3) + \dots + (b_n \cdot S_n)}{S_1 + S_2 + S_3 + \dots + S_n}$$

Bu yerda  $B_{o'rtacha}$ -xo'jalikning o'rtacha bonitet balli

$b_1, b_2, \dots, b_n$ - tuproq ayirmalarining bonitet balli

$S_1, S_2, \dots, S_n$ -tuproq ayirmalarining maydoni, ga.

**9-masala.** Fermer xo'jaligining umumiy maydoni 85 ga, shundan 22 gektari 60 balli, 63 gektari esa 54 balli maydonda joylashgan.

Fermer xo'jaligi uchun o'rtacha bonitet ballini hisoblang.

**Yechish:**  $B_{o'rtacha} = \frac{(60 \cdot 22) + (54 \cdot 63) + 1320 + 3402}{55,5 \cdot 22 + 63 \cdot 85}$

**10-masala.** Quyidagi xo'jaliklar uchun o'rtacha bonitet ballini hisoblang.

a) quyidagi "O'zbekiston" shirkatlar uyushmasi tuproqlarining o'rtacha bonitet ballarini hisoblang.

60- jadval

Tuproq ayirmasi,	Maydoni	Bonitet balli	Tuproq ayirmasi, №	Maydoni	Bonitet balli
1	19	67	10	28	51
2	175	43	11	73	46
3	51	43	12	84	50
4	25	43	13	29	48
5	112	40	14	103	45
6	22	54	15	77	48
7	17	56	16	36	43
8	48	42	17	21	38

b) “Imkon” fermiyer xo‘jaligi Yerlari “Ishonch” shirkatlar uyushmasi 3-tuproq ayirmasida 25 ga, 5-tuproq ayirmasida esa 6 ga maydonni egallagan. “Rozzoq ota” fermer xo‘jaligi 2-tuproq ayirmasida 31 ga, 7-tuproq ayirmasida 16 ga maydonni tashkil etadi. Quyidagi ma’lumotlar asosida har ikkala xo‘jalik uchun alohida va shirkatlar uyushmasi uchun o‘rtacha bonitet ballini hisoblang.

61-jadval

Tuproq ayirmasi, №	Maydoni	Bonitet balli	Tuproq ayirmasi, №	Maydoni	Bonitet balli
1	28	71	9	57	43
2	38	62	10	65	45
3	75	54	11	85	45
4	107	54	12	44	31
5	81	46	13	28	38
6	79	48	14	25	36
7	126	52	15	16	34
8	77	54			

Xo‘jalik tuproq xaritasi eksplikasiyasida ko‘rsatilgan tuproq ayirmalarining bonitet balli asosida unumdorlik sinflariga ajratiladi.

**11- masala.** Quyidagi tuproq ayirmalari olgan bonitet ballarini unumdorlik sinflariga guruhlang.

62-jadval

Tuproq ayirmasi, №	Maydoni	Bonitet balli	Tuproq ayirmasi, №	Maydoni	Bonitet balli
1	74,7	54	6	55,7	65
2	73,2	54	7	239,2	37
3	280,6	76	8	190,8	32
4	290,6	57	9	79,3	41
5	172,9	52	10	36,6	50
Jami: 1509,0					

**Yechish:** Unumdorlik sinflariga kiruvchi tuproq ayirmalari ko‘rsatiladi va ularning maydoni jamlanadi. 11 - masala uchun:

Unumdorlik sinflari	Nomlanishi	Ballar	Kiritilgan tuproq ayirmalari	Maydoni, ga
I	Eng yaxshi	91- 100	-	-
II	Juda yaxshi	81- 90	-	-
III	Yaxshi	71- 80	3	280,6
IV	O'rtachadan yuqori	61- 70	6,11	71,1
V	O'rtacha	51- 60	1,2,4,5	611,4
VI	O'rtachadan past	41- 50	9,10	115,9
VII	Yomon	31- 40	7,8	430
VIII	Juda yomon	21- 30	-	-
IX	Yomon	11-20	-	-
X	Yaroqsiz	1- 10	-	-
Jami: 1509,0				

**12 - masala.** 10 - masaladagi a) va b) topshiriqlarida ko'rsatilgan bonitet ballini unumdorlik sinflari bo'yicha guruhlang.

Tuproqlarni baholashda tuproq xossalari va undan olinadigan hosil miqdorlari ham matematik nuqtai nazardan qayta ishlashga muhtoj, ya'ni u raqamlar qay darajada to'ri ekanligini matematik statistika orqali o'z ifodasini topadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek tuproq xossalari to'risidagi ishonchli ma'lumotlar bilan shu tuproqdan olingan hosil o'rtasidagi korrelyasion bolanishgina tuproqni saxiyeligini negizini tashkil qiladi.

Matematik qayta ishlash usullari ko'p bo'lib, ularning ichida sinalgan va tuproqshunoslikda, tuproqni baholashda, agrokimyoda qo'llanilayotgan usul bu korrelyasiya va regressiya hisoblanadi.

Korrelyasion tahlil tuproq xossalari bilan qishloq xo'jalik ekinlarini hosili o'rtasidagi aloqadorlikni matematik aniqlikda ko'rsatib boradi va tuproqni tabiiy xossalari bonitirovka negizi uchun yaroqli ekanligini aniqlab, isbotlab boradi.

Korrelyasiya - lotincha so'z bo'lib, "correlatio" nisbat demakdir.

Bu atama ko'pchilik fanlarni turli tarmoqlarida keng qo'llaniladi.

Korrelyasiyadan, ayniqsa bir ko'rsatkich ikkinchisini hosil bo'lishida bevosita ta'sir qiladigan kattaliklarni aloqadorligini aniqlashda foydalanish yaxshi natija beradi.

Bu sohada qishloq xo'jaligi fanlarida tuproqdagi gumus miqdori bilan o'za yoki boshqa qishloq xo'jaligi ekin turi bilan hosili o'rtasidagi bolanishlarni aniqlash katta ahamiyatga ega.

Xuddi shu kabi tuproqdagi harakatchan fosfor, kaliy, azot miqdori bilan ekinlarni o'sishi va rivojlanishi o'rtasidagi bolanishlar yoki ularni hosillari o'rtasidagi aloqadorliklar ham aslida korrelyasion bolanishlar qatoridan joy oladi.

To'plamlarni o'zaro korrelyasiyasi funksional bolanishda bo'lishi mumkin. Bir yoki bir qancha argumentlarni o'zgarishi bilan funktsiyani o'zgarishiga "*regressiya*" deyiladi.

Odatda ikkita o'zgaruvchan kattalik o'rtasidagi funksional bolanish quyidagicha tasbirlanadi:  $y = f(x)$ .

Bunda: "Y" esa "X" belgini funktsiyasi.

f- lotincha functio, ya'ni funktsiya so'zini bosh harfi.

f- birorta qiymatni ko'rsatmaydi, lekin har qanday funksional bolliqlikni ko'rsatadi.

Ehtimollar nazariyasida regressiya biror kattalikni o'rtacha qiymatini "Y" boshqa bir qiymati "X" bilan aloqadorligi tariqasida tushiniladi.

Masalan; tuproq tarkibidagi suvda yeruvchan tuzlarning umumiy miqdori bilan o'za hosildorligi o'rtasidagi yoki gumus qatlami qalinligi bilan hosil o'rtasidagi, singdirilgan natriy miqdori bilan tuproqni sho'rtobligi va undan (tuproqdan) olinadigan hosil o'rtasidagi bolanishlarni funksional bolanishlar tariqasida keltirishimiz mumkin.

Hosil bilan tuproqni tabiiy xossalari o'rtasidagi bolanishlarni oddiy regressiya chiziqlari orqali tasbirlash mumkin.

Hosil bilan tuproqni biror xususiyati, yoki xossalari o'rtasidagi bolanish to'la yoki yaxshi, qisman yoki kuchsiz, aksincha hech qanday aloqadorlikda bo'lmasa ularni quyidagicha oddiy usulda  $y=f(x)$  dan foydalanib tasbirlash mumkin.

Bu hodisani biz tuproqni sho'rlik darajasi bilan o'za hosildorligi o'rtasida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bunda absissa o'qiga tuproqni sho'rlik darajasi (argument) ordinata o'qiga hosil miqdori (funktsiya) joylashtiriladi.

Tuproq xossalarini matematik birliklarda ifodalash uchun ko'pgina ma'lumotlar matematik ishlov beriladi. quyida biz Mirzacho'l vohasida turli darajada sho'rlangan tuproqlarning diagnostikasini aniqliligini tekshirish maqsadida o'tkazilgan matematik statistika usuli berilgan. Buning uchun biz tuproqning 0-50 sm qatlamida gumus miqdori, quruq qoldiqning 0-50 sm va 50-150 sm qalinlikda miqdori va gipsning 0-100 sm qalinlikdagi miqdori kabi ko'rsatkich lardan foydalanilgan. Bunda ko'proq sho'rlanish darajasi va gumus miqdori o'rtasidagi bolliqlikka e'tibor berilgan.

Tuproqdagi gumusning miqdori solishtiril ganda sho'rlangan tuproqlarda  $M = 1,06$ , kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda  $M = 0,86$  va o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda esa  $M = 0,68$  ni tashkil etgan.

64-jadval

Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar xossalarining ayrim statistik tavsifi



Ko'rsatkichlar	n	M	G	m	R %	S %	R <sub>i,i</sub> (0,95)	V <sub>ii</sub> (0,95)
<b>Sho'rlanmagan</b>								
Gumus % (0-50 sm)da	12	1,0 6	0,14	0,04	3,8 1	13,2	±0,09	0,97- 1,15
quriq qoldiq 0-50 sm	12	0,1 2	0,02 9	0,00 83	6,9 1	24,1	±0,02	0,10- 0,14
50- 100 sm da	12	0,2 1	0,03 5	0,01	4,8 1	16,6	±0,02	0,19- 0,23
Gips 0- 100 sm da	12	0,6 1	0,09	0,03	4,9 1	14,75	±0,07	0,53- 0,68
<b>Kuchsiz sho'rlangan</b>								
Gumus (0-50 sm da)	18	0,8 6	0,15	0,03	3,4 8	17,4	±0,06	0,80- 0,92
quriq qoldiq 0-50 sm	18	0,3 2	0,06	0,01	4,4 6	18,7	±0,02	0,30- 0,34
50- 100 sm da	18	0,5 8	0,11	0,03	5,1 7	17,24	±0,06	0,52- 0,64
Gips 0- 100 sm da	18	1,7 2	0,35	0,08	4,8 4	20,3	±0,17	1,55- 1,89
<b>O'rtacha sho'rlangan</b>								
Gumus (0- 50 sm) da	16	0,6 8	0,13	0,03	4,7 7	19,1	±0,06	0,62- 0,74
Quriq qoldiq	16	0,6 3	0,09	0,02	3,5 7	14,3	±0,04	0,59- 0,67
50- 100 sm da	16	1,3 2	0,18	0,04	3,4 0	13,63	±0,08	1,24- 1,40
Gips 0- 100 sm da	16	4,7 1	0,79	0,20	4,2 4	16,77	±0,42	4,29- 5,13
<p>Bu yerda, n- aniqlashlar soni, M- o'rtacha arifmetik, G-o'rtacha kvadrat xatolik, S- variyasiya koeffitsiyenti, m- o'rtacha arifmetik xatolikning o'rtachasi, P- aniqlashning aniqligi, P<sub>i,i(0,95)</sub> – ishonchlilik intyervali, V<sub>i,i(0,95)</sub>- aniqlanadigan kattalikning ishonchlilik chegarasi.</p>								

## NA'MUNAVIY SAVOLLARGA JAVOBLAR

### 1.Tuproqshunoslikka oid savollar

#### 1 .Tuproqning ilmiy ta'rifi.

- Yer yuzasining unumdorlik xususiyatiga ega bo'lgan ustki g'ovak holdagi qatlamiga tuproq deyiladi.

V.V.Dokuchaev butkul mustaqil tabiiy-tarixiy jism bo'lmish tuproq to'g'risidagi tushunchani quyidagicha ta'riflaydi: "tuproq bu - ona jins, iqlim, o'simlik va hayvonot qoldiqlari, joyning yoshi va rel'efning birgalikdagi o'zaro faoliyati natijasida paydo bo'lgan tabiiy jismdir"

## **2. Tuproq hosil qiluvchi ona jinslar.**

- tuproq hosil qiluvchi ona jinslar deb nurash mahsulotidan tuproq paydo bo'ladigan tog' jinslarga aytiladi. Tuproq hosil qiluvchi tog' jinslari paydo bo'lishiga ko'ra uchta gruppaga: magmatik, cho'kindi va metamorfik jinslarga bo'linadi. Tuproq hosil qiluvchi yotqiziqlar kelib chiqishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- elyuvial yotqiziqlar-nurash mahsulotlarining o'z o'rnida yig'ilishidan hosil bo'lgan yotqiziqlar,

-delyuvial yotqiziqlar-nurash mahsulotlarining yomg'ir va suvlari ta'sirida dumalab qiyaliklarning quyi qismlarida yig'ilishidan hosil bo'lgan yotqiziqlar,

- prolyuvial yotqiziqlar (sel yotqiziqlari)-nurash mahsulotlarining sel suvlari ta'sirida sel oqimining quyi qismlarida yig'ilishidan hosil bo'lgan yotqiziqlar,

- allyuvial yotqiziqlar (daryo yotqiziqlari) - nurash mahsulotlarining daryo suvlari ta'sirida daryo o'zanlarida, daryo oqimining quyi qismlarida, shuningdek daryolarning ko'l va dengizlarga quyilish joylarida yig'ilishidan hosil bo'lgan yotqiziqlar,

-dengiz va ko'l yotqiziqlari-nurash mahsulotlarining deigiz va ko'l suvlarining chekinishi hisobiga ularning o'rnida yig'ilishidan hosil bo'lgan yotqiziqlar,

- eol (shamol)- nurash mahsulotlarining shamol ta'sirida bir joydan ikkinchi joyga borib yig'ilishidan hosil bo'lgan yotqiziqlar,

-lyoss va lyossimon yotqizilar -karbonatli, changsimon, yumshoq g'ovakli suv yoki shamol ta'sirida keltirilgan yotqiziqlar.

## **3. Tuproqning morfologik belgilari.**

- Tuproqning asosiy morfologik belgilari quyidagilar: 1) tuproqning tuzilishi, 2) tuproq va uning qatlamlarining qalinligi, 3)rangi, 4)mexanik tarkibi, 5)strukturasi, 6)zichligi, 7)yangi yaralmalari va qo'shilmalari.

## **4. Tuproqlar klassifikastiyasi va tuproqlar mintaqalari.**

O'zbekiston tuproqlari klassifikastiyasida quyidagi tuproq mintaqalari ajratiladi:

- Vertikal mintaqa avtomorf tuproqdari:

4.1. Och tusli bo'z tuproqlar - tog' etaklariga tutashgan kengliklar

4.2. Tipik bo'z tuproqlar - tog' etaklari, adirlar

4.3. To'q tusli bo'z tuproqlar-tog' yonbag'rining pastki kislari

4.4. Tog' jigarrang tuproqlari-o'rta tog'lar

4.5. Qo'ng'ir tog' o'rmon tuproqlari-o'rta tog'lar

4.6. Och tusli- qo'ng'ir o'tloqi tuproqlari-boland tog'lar - gorizonta (kenglik mintaqa) tuproqlari:

4.7. Sur tusli ko'ng'ir tuproqlar- qadimgi davrdan qolgan platolar va cho'l mintaqasidagi past tog'larning prolyuvial tekisliklari

4.8. Qumli cho'l tuproqlari-qumli cho'llarda: Qizilqum, Qoraqum, Qarshi cho'llari.

4.9. Taqir, taqirli va o'tloqi taqirli tuproqlar-zamonaviy va qadimgi alyuvial tekisliklar, deltalar

Sizot suvlarining joylashish chuqurligiga ko'ra:

- avtomorf tuproqlar sizot suvlari 5 metrdan chuqurda joylashgan,
- yarim gidromorf tuproqlar sizot suvlari 2-5 metrda joylashgan
- gidromorf tuproqlar sizot suvlari 0-2 metrda joylashgan tuproqlarga ajratiladi.

## 5. Tuproqlar tipi va tipchasi.

- Tuproq tipi - moddalari birgalikda paydo bo'lishligi, o'zgarishi va ko'chirilishi birlashib profili bir xildaligi bilan xarakterlanadigan tuproqlarning katta bup guruhi

- Tuproq tipchasi - o'simliklar turi, namlanish sharoitlari va rel'efda joylanish bo'yicha bir biridan farqlanadigan tip ichidagi tuproqlarning guruhi.

## 6. Geomorfologiya nima?

-Ma'lum maydonning ona jinslari bilan bog'liq bo'lgan, rel'efi to'g'risidagi tushincha.

## II. Monitoring bo'yicha savollar

### 1. Qishloq xo'jalik (sug'oriladigan, lalmi va yaylov) yerlari tuproqlarining monitoringi va uning maqsadi:

Qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarining holati va tarkibidagi tabiiy sharoitda va inson faoliyati ta'sirida yuzaga keladigan o'zgarishlarni kuzatib borish, o'z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarni oldini olish va oqibatlarini tuzatish bilan bog'liq faoliyat tizimidir.

### 2. Kuzatiladigan ob'ektlar (kalit maydonlar)ni tanlash tamoyili:

- Tuproq monitoringa uchun tanlanadigan kalit maydonlar Respublikaning butun tuproq iqlim mintaqalarida joylashgan dominant(katta maydonni egallaydigan) tuproqlar bo'lishi lozim.

## III. Tayyorgarlik va dala ishlari

### 1. Tayyorgarlik ishlari:

- o'tgan yillardagi tuproq tadqiqotlarining materiallarini yig'ish, o'rganish va tahlil qilish,

- bajariladigan ishlar hajmi (fermerlar ro'yxati, kesmalar soni) ni smetaga muvofiq belgilab olish,
- tuprog'i tekshiriladigan fermer xo'jaliklarining chegaralarini, asosiy tuproq ayirmalarining chegaralarini, asosiy tuproq kesmalarining joylarini korrektirovka qilingan 1:10000 masshtabdagi q.x. yoki elektron- raqamli xaritalarda belgilab olish

## **2. Dala ishlari:**

### **1 .Dala tadqiqotlari nimadan boshlanadi?**

- a) viloyat va tuman hokimligiga ma'lumot berish. Bir vaqtning o'zida tadqiqotlarni o'tkazishni tashkil etish va bajarish bo'yicha masalalarni kelishib olish.

- b) hudud bilan umumiy qadamlab yurib tanishish ya'ni tadqiqot yerlarida tuproqlarni joylashuvi va tuproq paydo qiluvchi jinslar konuniyatlari, shuningdek rel'ef, geomorfologiyasini o'rganib chiqib asosiy va qo'shimcha tuproq kesmalarini belgilab chiqish.

#### **2. Asosiy kesmalar qaysi joylarda qo'yiladi?**

- asosiy kesmalar eng tipik joylardan qazilib, u ona jinsning yuqori qismini ochishi kerak. Ular chuqurligi 1.5-2.0 m bo'ladi. Agar qattiq ona jins 2 m gacha chiqsa yoki yer osti suvi chiqsa qazish to'xtatiladi. Asosiy kesmalarda tuproqlarni genetik mansubligi (nomenklaturasi) aniqlanadi (tip, tipcha, tur, turchalar).

#### **3. Oraliq kesmalar qaysi joylarda kovlanadi?**

- asosiy kesmalar singari xarakter li joylarda oraliq kesmalar ham kovlanadi va ular tuproqlar ayirmalarini, chegaralarini xamda asosiy tupronik kerakli xususiyatlarini bilish uchun kuyiladi. Ular onalik jinsigacha ochilib, tuproq qatlamlari belgilanadi, chuqurligi 1,0-1,5 m atrofida bo'ladi.

#### **4. Chuqurchalar va yarim chuqurchalar qazilish maqsadi.**

- tuproq qoplamalarini mayda ayirmalarida, tuproq 1:5000 masshtab tuproq s'emkalarida qo'llanib jinslar almashinuvini ko'rish, tuzlar, shag'al chuqurligini, gleylanishi va shunga o'xshashlarni bilish uchun qo'llanadi.

### **5. Kesmalar tushirilgan joylar karta asosida qanday ko'rsatiladi?**

- asosiy kesma diametri 3 mm aylana va ichiga qo'shuv belgisi (+) qo'yiladi, tekshiruvchi kesmalarga faqat aylana bo'ladi, yarim chuqurchaga faqat qo'shuv belgisi (+) qo'yiladi. Tuproq namunalari olingan kesmalar rang bilan bo'yilib bir tartibda raqamlab boriladi.

### **6. Tuproqlarning morfologiyasi nimadan boshlab qanday o'rganiladi?**

- tuproq kesmalari maxsus varaq (blank) ga yozib boriladi, qo'llanilayotgan tizimli ro'yxati bo'yicha tuproqni to'la nomi beriladi, uning genetik mansubligiga ko'ra tuproq ajratiladi.

### **7. Tuproqni kesmasi qatlamlari qaysi xossalar bo'yicha ajratiladi?**

- rangi, mexanik tarkibi, tuzilishi, joylanshii, namligi, yangi yaralmalari – karbonat, gips, tuzlar, qo‘shilmalar bo‘yicha.

#### **8. Dala sharoitida tuproqlarni mexanik tarkibini o‘rganish usuli.**

- qo‘lda tuproqni quruq holda barmoqlar orasida ezganda chang ko‘p miqdorda qolsa – bu og‘ir qumoqlar, o‘rtacha miqdorda – o‘rta qumoqli, kam – yengil qumoqli, qumoq va qumlar barmoqlar orasida changni qoldirmaydi.

- xo‘l usuli: suvda xo‘llangan xamjinslik quyiq xamirga o‘xshatilgan tuproq qalinligi 3 mm li bog‘ich ipchaga yoyilib, diametri 3 sm li uzukcha aylantiriladi. Agar yoyilganda bog‘ich ip ezilib ketsa - bu qumli tuproq agarda bog‘ichga omonat (qaltis) bo‘lib shakllanib ezilsa - bu qumloqli tuproq yengil qumoqli - bog‘ich ip shakllanib bulakchalarga bulinib ketadi, urta qumoqli - bog‘ich ip bulib uzukga aylantirilganda yoriladi, og‘ir qumoqli - bog‘ich ip uzukga aylantirilganda darz ketadi, loyli - bog‘ich ip yaxlit uzukga aylantirilganda yorilmaydi. Mexanik tarkibini qo‘l usulida aniqlash laboratoriyada olingan natijalarga yaqin turadi.

#### **9. Tuproq namunalari kimyoviy taxlillariga qanday olinadi?**

- tuproq namunalari tozalangan kesma devoridan quyidan boshlab, genetik qatlamni urtasidan, yoki qatlam 30 sm dan qalin bo‘lsa, bir necha yerdan olinadi. Agar tuproqda tuzlar uchrasa - namuna 10-15 sm qatlamdan olinadi. Haydov qatlamidan namuna butun olinadi. Olingan namunalar qog‘ozga o‘raladi yoki maxsus paketchalarga 150-200 g miqdorida solinadi. Har bir tuproq namunasi uchun yorliq to‘ldiriladi va uni tuproq ichiga, paket bo‘lsa ustiga yoziladi, barcha tuproq namunalari birgalikda bitta kesma uchun jamlab qog‘ozga o‘raladi, yoki kattaroq paketga solinadi, hamda kesma raqami ko‘rsatilib yoziladi.

#### **10. Tuproqlarni yuvilish darajasi qanday ajratiladi?**

- qiyalik nishabi bo‘yicha, gumus qatlamining qalinligi, karbonatlarni yuqoridagi joylanish chegarasi, qator oralig‘ida o‘yilganlikni chuqurligi bo‘yicha: eskidan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproklar uchun: kuchsiz yuvilgan — qiyalik yuqorisi, qiyalikni nishabi 0,5-2 gradus, chirindi qatlamini qalinligi 50-75 sm (eskidan sug‘oriladigan tuproqlar) karbonatlar - 25-75 sm dan; qator oraligidagi o‘yilishi — 5 sm gacha,  $Ax+V1$ ; o‘rtacha yuvilgan - qiyalikni o‘rta qismi, nishabi - 2-5 gradus, chirindi o‘atлами - 25-30 sm, karbonatlarni yuqori chegarasi - 25-50 sm dan, o‘yilish chuqurligi 5-10 sm,  $V1$ .

#### **11. Sho‘rlanish darajasi dala sharoitida qanday aniqlanadi?**

- o‘simliklarni holati bo‘yicha sho‘rlanish dog‘larni jadalligi bo‘yicha: sho‘rlanmagan tuproqlar - o‘simliklar, yaxshi normal rivojlangan, tuproq yuzasida sho‘rlanish dog‘lar yuq kam sho‘rlangan - tuproq yuzasida ayrim joylarda sho‘rlanish dog‘lari kam darajada, o‘simliklarni holati normal, yoki kam zararlangan, shu qatorda kuchli sho‘urlangan tuproqlarni dog‘lari ham uchrashi mumkin. O‘rtacha sho‘rlangan tuproq yuzasida sho‘rlanish dog‘lari duch keladi, o‘simliklar zararlangan. Bu yoqqa sho‘rlanmagan va kam sho‘rlangan tuproqlar va kuchli sho‘rlangan tuproqlarni 15-30 % ni tashkil qilib bo‘ladilar. Kuchli

shoʻrlangan yuzaki tuzlar oqarib turgan xolda, oʻsimliklar qattiq jadallangan va siyraklashgan. Bu yoqqa kam va oʻrtacha shoʻrlangan tuproqlar birgaligi kuchli shoʻrlangan tuproqlarni dogʻlari 50 % gacha tashkil qilib mansub boʻladi.

## **12. Qaysi tuproqlarda va qanday sharoitlarda gley qatlami uchraydi?**

- grunt suvlar yuzaga yaqin joylashgan gidromorf (oʻtloqi, botqoq -oʻtloqi tuproqlarda asosan zangori yashil rangli boʻlib, koʻpincha ogʻir qumoqli-loyli mexanik tarkibli tuproqlarda.

## **13. Tuproq kartalarining korrekcirovkasi qaysi paytlarda oʻtkaziladi?**

- yirik masshtabli tuproq tadqiqotlarining quyidagi gurux natijalarini toʻgʻrilab koʻrilishi lozim:

a) 10 yil ilgari tuzilgan materiallari;

b) turli muddatlarda oʻtkazilgan kuzatish materiallari, agarda tuproq kartasini tuzshida asos boʻlib yerdan foydalanish plan konturi xizmat qilgan boʻlsa:

v) xoʻjalshs materiallari, ikki yildan kam boʻlmagan muddatda maʼlum maydonda mybdan oʻtkazilgan meliorastiya yoki shiddatli eroziya jarayoni oʻtgan joylarda;

g) ilgari, yani 15 yildan kamroq muddatda bajarilgan materiallar, agarda zarur laboratoriya maʼlumotlariga toʻliq ega boʻlmasa:

## **IV. Kameral ishlari**

### **1. Kameral ishlariga nimalar kiradi:**

-laboratoriya taxlillarini oʻtkazish;

-tuproq kartasining muallif asl nusxasini tuzish;

-asosiy agrokimyoviy koʻrsatkichlar va morfologik xususiyatlar boʻyicha tuproq kartasiga batafsil tavsif (eksplikatsiya)ni tuzish;

- koʻshimcha kartografik (shoʻrlanish va yuvilish va x.k.) materiallarini tuzish;

-tuproq ayirmalarining maydonlarini xisoblash;

-tuproq bonitirovkasini oʻtkazish va tuproq ayirmalarini bonitet klasslari boʻyicha (10 sinifga) guruxlash;

-kartografik materiallarni yaratish va koʻpaytirish.

### **2. Yakuniy tuproq kartasini va eksplikatsiyasini tuzish uchun qaysi maʼlumotlar (materiallar) ishlatiladi:**

- xomaki tuproq karmaci bilan eksplikatsiya;

-toʻldirilgan tuproq kesmalarining varaqalari;

-tuproqlarni laboratoriya taxlillari;

-oldingi yillardagi tuproq kartalari va shoʻrlanish kartogrammalari.

### **3. Eksplikatsiyani tuzish uchun olinadigan asos va prinsiplari:**

- zonani (mintaqani) taxriri; saxro (choʻl) yoki togʻ oldi-yarim saxro;

- geomorfologik sharoitlari va tuproq hosil qiluvchi jinslarning turlari.

3.1. Bir geomorfologik ajratmada (rayonda) tuproq ajratmalarni joylanish tartibi:

- agar tog' oldi yarim saxro mintakasi bo'lsa tipik bo'z tuproqlardan och tusli bo'z tuproqlarga qarab;

Shularning orasida: avtomorf tuproqlardan gidromorf tuproqlarga qarab (o'tloqi bo'z, bo'z o'tloqi, o'tloqi, botqoq o'tloqi va botqoq tuproqlar).

3.2. Har bir tuproq tip va tipchasida tuproq ayirmalarini ajratish uchun asosi nima?

- tuproqlar sho'rlanmagan bo'lsa har bir tip yoki tipchada tuproqlar mexanik tarkibi bo'yicha bo'linadi - loylardan va og'ir kumoqlardan boshlab yengil mexanik tarkibli tuproqlargacha. Shurlangan va toshloqli tuproqlarda - sho'rlanmagan va toshi yuq tuproqlardan - kuchli sho'rlangan va toshi ko'p tuproqlargacha.

#### 4. **Tuproqlarning sho'rlanish tipi qanday aniqlanadi?**

-Sl ionning mg ekv da berilgan miqdori va S04 ionni nisbati orqali aniqlanadi. Sho'rlanish tipini nomlashda anionlarning mg ekv 20 % dan oshgan taqdirda shu anionlar kiritiladi, nomida ustup turuvchi anion oxirgi o'rinda turadi. (Yuriqnoma, Toshkent, 2005 y.).

#### 5. **Anionlar-tarkibi bo'yicha sho'rlanish tiplari (Lebedev klassifikastiyam bo'yicha):**

1. xloridli
2. sulfat-xloridli
3. xlorid sulfatli
4. sulfatli
5. gidrokarbonat sulfatli
6. sulfat sodali.

#### 6. **Tuproqlarning emirilish turlari va darajalari.**

- turlari: suv (irrigastion);  
shamol eroziyasi - deflyastiya;

-Darajasi: yuvshmagai, kuchsiz yuvulgan, o'rticha yuvilgan, kuchli yuvilgan, juda kuchli yuvilgan, kuchsiz yuvilibkeltirilgan, kuchli yuvilib keltirilgan.

7. Tuproqlarni yuvilish darajasi qayerda ajrataladi va uni ko'rsatish uchun nimalar asosdir.

- yuvilish darajasi dala ishlari bajarilayotganda ajratiladi va laboratoriya taxlillari namijalariga asoslanib kameral davrida aniqliklar kiritiladi, yuvilish darajasi yuzadagi chirindi qatlamini kamayishi darajasi bo'yicha ifodalanadi.

#### 8. **Toshloqlik darajasi nima bilan xarakter lanadi?**

-toshloqlik darajasi umumiy toshlar hajmi (d - 5 sm dan kichik bo'lmagan) yer yuzasida, shuningdek tuproq qatlamini 30 sm da (smZ/ga) bo'lishi bilan xarakterlanadi.

### **9. Toshloqlik darajasi qayerda va qanday aniqlanadi?**

toshloqlik darajasi dalalarni kuzatish jarayonida va tuproqlarni kattalashtirishda ko'nturlarni kuz bilan baholashda turli darajada tuproq tosh bilan qoplanganligi aniqlanadi. Shuningdek quyidagi darajani farqlash lozim:

-qoplangan 5-10 % kuchsiz toshloq

10-20 % o'rtacha

20-40 kuchli

yuqori qoplangan 40 % - juda kuchli.

### **10. Tuproqdagi gips miqdori qanday hisoblanadi?**

-gisplash SO 4 miqdori kupaytiruv 1.77 ga.

11. Eksplikatsiyani tuzishda gips miqdorini qaysi darajalar ishlatiladi?

-gips qatlamini joylashish chuqurligi.

## **V. Tuproqlar bonitirovkasiga oid ma'lumotlar**

### **1. Tuproq bonitirovkasini bajarishda qanday xujjatlarga asoslanadi?**

O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlarining tuproqlari bonitirovkasi 1998 yil 28 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastrini tuzish to'g'risida" gi qonuni asosida va "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi topshirig'iga asosan bajariladi.

### **2. O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan tuproqlarini bonitirovkalash uslublarini kimlar va kachon ishlab chiqargan?**

Tuproqlar bonitirovkasi uslubiy qo'llanmasi: birinchisi 1970 yilda Suchkov S.11, Kochubey, Xoshimjonov tomonidan; ikkinchisi 1980 yilda Genusov A. 3, G.M. Konobeva, Kochubey I.I, tomonidan; uchunchisi 2002 yilda Li. V.N, Maksudov J.M. Tursunov A.A, Akramov I.A, Kuziev R.K, Yuldashov A, Bobomurodov III, tomonidan ishlab chiqilgan, 2005 yilda esa qayta redaktsiya qilinib, nashr qilingan.

### **3. Tuproq bonitirovkasini bajarish uchun tuproq xaritasiga qilingan eksplikatsiyada qanday ma'lumotlar bo'lishi kerak?**

Tuproq xaritasi eksplikatsiyasida tuproq sifatini va unumdorligini ko'rsatuvchi hamma ma'lumotlar bo'lishi kerak.

### **4. Tuproqning unumdorligi va sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni birma-bir sanab o'zing?**

Tuproq tiplari, mexanik tarkibi, sho'rlanganlik darajasi, gumus miqdori va qatlami, xarakatchan moddalar miqdori, tosh aralashganlik, emirilish, zichlanganlik darajasi, shag'al qatlami, qum qatlami, gips qatlami, shox-arziq qatlami, chuqurligi va boshqalar.



**5. Tuproqning sifatiga baho berishda shkala va pasaytirish koefitsientlarini tuzish nimaga asoslangan?**

Tuproqning sifatiga baho berishda tuzilgan shkala va pasaytiruvchi koefitsientlar loyixa va ilmiy tekshirish institutlarning olib borgan ko'p yillik ilmiy tajriba va nazaryalariga asoslanga.

**6. Tuproqlarning sifati bo'yicha klassifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?**

Tuproq unumdorligini oshirish uchun qilinadigan tadbirlarni tabaqalashtirishda foydalaniladigan tuproqlar guruhi.

**7. Tuproq bonitirovkasida qaysi faktorlar qisman bir-birini takrorlaydi?**

a) Gumus miqdori va gumus qalinligi.

b) Tosh aralashganligi, (skletligi) shag'al qatlam.

v) Gips qatlam shox-arziq qatlami.

**8. Tuproqning sifatini ko'rsatuvchi beshta nomni aytib bering?**

Sifati yomon; o'rtachadan past; o'rtacha, yaxshi va eng yashxi tuproqlar.

**9. Tuproq bonitirovkasini bajarishda programmalashtirilgan jarayonning afzalligini gapirib bering?**

Tuproq bonitirovkasini programmalashtirilgan kompyuteryda bajarilganda tez va sifatli bo'lib, malumotlar zaxirasi paydo bo'ladi.

**10. Qishloq xo'jaligi yerlari deganda nimani tushinasiz?**

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo'ljallangan yerlar. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlar xaydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali dov daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo'linadi.

**11. O'rtacha bonitet ball qanday hisoblanadi?**

Bir nechta tuproq ayirmalarining bonitet ballni o'zlarining maydoniga ko'paytirilib, natijalarini bir-biriga qo'shib, umumiy maydoniga bo'lingandagi natijasi. (shirkat xo'jaligi, fermer xo'jaligi yoki loyixa bo'yicha ajratilgan yer uchustkasi).

**12. Bonitet ballini hisoblash qanday tartibda olib boriladi?**

Tuproq xaritasiga qilingan eksplikatsiyadagi xar bir tuproq ayirmasining ko'rsatkichlari bo'yicha uslubiy qo'llanmada ko'rsatilgan shkala va pasaytiruvchi koefitsientlar yordamida xisoblab chiqiladi.

**13. Tuproq ayirmasining bonitet balli tuproq xaritasida qanday tartibda aks ettiriladi?**

Tuproq xaritasida ajratilgan tuproq ayirmasi raqami yoniga qizil dog'ira ichiga qizil rang raqam bilan yozib qo'yiladi.

**14. Yer egalari va yerdan foydalanuvchilar yer solig'ini nimaga asoslanib tulaydilar?**

Tuproq, sifati va unumdorligini kursatkichi bulgan bonitet balliga asoslanib tulaidi.

### **15. Yerning qiymati nima?**

Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi va tuproqning bonitet ballga asoslanib, ixtisoslashgan xo'jaliklarga xisoblab chiqazilgan yerning narxi yoki qiymati.

### **16. Bonitirovka ishlari necha yilda takrorlanadi?**

Har besh - olti yilda qayta ko'rib chiqiladi.

## **Yer uchastkasidan foydalanuvchi va xususiy turar-joy mulkdorlari yer, ko'chmas mulk va davlat kadastr xizmati to'g'risida nimalarni bilishi lozim?**

### **Ko'chmas mulkka (turar yoki noturar-joy ob'ekti) bo'lgan huquqni davlat kadastr ro'yxatidan o'tkazish uchun Kadastr xizmatiga qanday xujjatlarni topshirish zarur?**

Ko'chmas mulk (turar yoki noturar-joy ob'ekti) ga bo'lgan huquqni davlat kadastr ro'yxatidan o'tkazish uchun Kadastr xizmatiga mulkiy huquq va boshqa ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi, o'zga shaxslarga o'tishini tasdiqlovchi quyidagi asosiy xujjatlarni topshirish lozim:

-Uy-joy bo'yicha oldi-sotdi, hadya qilish, mulk ayriboshlash, ko'chmas mulkni umrbod asrash sharti bilan boshqaga o'tkazish shartnomalari (notarial tasdiqlangan);

-Turar-joy binosini er-xotin o'rtasida taqsimlash to'g'risidagi shartnoma;

-Mahalliy hokimiyat organlarining uy-joyga bo'lgan mulkiy huquqni e'tirof etish to'g'risidagi qarori;

-Er-xotinning umumiy mulki bo'lgan uy-joyning tegishli qismiga meroslik qilish huquqi va mulkiy huquq to'g'risidagi guvohnoma;

-Bino-inshootga bo'lgan huquq auksion savdosida yoki konkursda qo'lga kiritilganligini tasdiqlovchi guvohnoma yohud o'zga xujjat;

-Xususiy lashtirilgan uy-joyga bo'lgan mulkiy huquqni tasdiqlovchi davlat orderi;

-Bino-inshootga bo'lgan mulkiy huquqni yoki boshqa ashyoviy huquqni tasdiqlovchi qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari va ajrimlari;

-Yuqorida ko'rsatib o'tilgani kabi xujjatlarga qo'shimcha qilib, mavjud kadastr yig'ma jildning asli, pasport nusxasi va soliq to'lovchining identifikatsion raqami to'g'risidagi ma'lumot (STIR) topshiriladi.

### **Qanday hollarda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etiladi?**

Ko'chmas mulkka bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni tasdiqlovchi xujjatlar mavjud bo'lmaganda, shuningdek, taqdim etilgan

xujjatlarning haqiqiyliги yoki to‘g‘riligi borasida shubha tug‘ilgan hollarda hamda Fuqarolik kodeksining 212-moddasiga muvofiq qonun xujjatlarida belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan er uchastkalarida, shuningdek, imorat qurish uchun zarur ruxsatnoma olmasdan yoki arxitektura va qurilish normalari qoidalarini jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy o‘zboshimchalik bilan qurilgan imorat deb hisoblanadi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmaydi.

Bundan tashqari, ushbu qonun buzilishni sodir etgan fuqaro O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 160-moddasiga asosan eng kam oylik ish haqining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarimaga tortiladi va mazkur o‘zboshimcha qurilma o‘rnatilgan tartibda buzdirib tashlanadi.

**Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun qancha miqdorda davlat boji to‘lanadi?**

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun jismoniy shaxslardan eng kam oylik ish xaqining 1/10 qismi miqdorida, yuridik shaxslardan esa 1/2 qismi miqdorida haq undiriladi.

**Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni ro‘yxatdan o‘tkazish rad etilgan taqdirda, to‘langan pul mablag‘i qaytarib beriladimi?**

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish rad etilgan taqdirda to‘langan davlat boji qaytarib berilmaydi.

**Turar-joy binolari uchun kadastr xujjatlari necha kunlik muddatda tayyorlanadi?**

Turar-joy binosi bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tishi hollarida, kadastr xujjatini tayyorlash ishlari 3-5 ish kuni davomida amalga oshiriladi.

Ko‘chmas mulkni birlamchi inventarizatsiyadan o‘tkazish uchun yoki uning amaldagi ko‘rinishi arxiv xujjatlaridan farq qilgan taqdirda, kadastr xujjatini tayyorlash ishlari 10 ish kuni davomida amalga oshiriladi.

**Shu kunlarda uyimni sotish niyatidaman. Bundan avval hech qachon uy oldi-sotdisi bilan bog‘liq masalalarga duch kelmagan edim. Tanishlarimning aytishicha, uyni sotish uchun eng avvalo Kadastr xizmatiga murojaat qilish lozim ekan. Shu to‘g‘rimi?**

Ko‘chmas mulk bo‘yicha tasarruf etish, hadya, meros hamda oldi-sotdi va boshqa turdagi shartnomalarni rasmiylashtirish uchun ushbu ko‘chmas mulk ob‘ekti bo‘yicha kadastr xujjati hamda Kadastr xizmati tomonidan notarial idoralarga beriladigan ma‘lumotnoma bo‘lishi zarur.

Ko‘chmas mulk begonalashtirilayotganda, tegishli ma‘lumotnoma va zarur hollarda kadastr xujjatini tayyorlab berish masalasi bo‘yicha birinchi navbatda Kadastr xizmatiga murojaat etish lozim.

**Toshkent shahri hududida noqonuniy qurilishlar olib borilayotganligi va yer maydonlarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish holatlari aniqlangan hollarda qaysi tashkilotlarga murojaat etish lozim?**

Bunday hollarda o'zboshimcha qurilish olib borilayotgan hududning aniq manzilini ko'rsatgan holda, Toshkent shahar Arxitektura va qurilish bosh boshqarmasiga yoki Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastr boshqarmasiga murojaat etish lozim bo'ladi. Ushbu boshqarmalar tomonidan 2011 yil 13 dekabrda qo'shma ko'rsatmaga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 12 fevraldagi "Aholi punktlarini kompleks qurishda shaharsozlik normalari va qoidalari qat'iy bajarilishini nazorat qilishni kuchaytirishga dog'ir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 41-sonli va Toshkent shahar hokimining 2009 yil 4 martdagi "Toshkent shahar hududida aholi punktlarini kompleks qurishda shaharsozlik normalari va qoidalari qat'iy bajarilishini nazorat qilishni kuchaytirishga dog'ir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 115-sonli qarorlari asosida tegishli choralar ko'riladi.

### **Toshkent shahri hududida yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer bo'lagi ajratib berish qay tartibda amalga oshiriladi?**

Yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer bo'laklari birinchi navbatda Toshkent shahri hududida rekonstruksiya, ko'chalarni kengaytirish va obodonlashtirish ishlari natijasida uy-joylari buzilishga tushgan oilalarga ajratiladi. Ikkinchi navbatda, tuman hokimliklarida yashash sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan oila sifatida ro'yxatga olingan oilalarga belgilangan tartibda, navbat asosida ajratiladi, Shuningdek, yer maydonlari o'z shaxsiy xonadonlarini davlat ixtiyoriga topshirish evaziga hamda kim oshdi savdolari orqali realizatsiya qilinadi,

### **Toshkent shahri hududida ko'p qavatli turar-joy binolarida joylashgan xonadonlarni ajratish qay tartibda amalga oshiriladi?**

Davlat mablag'i hisobiga qurilgan va hokimiyat tasarrufiga topshirilgan davlat uy-joylari fondidagi ko'p qavatli uy-joylardagi xonadonlar O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 35 va 36-moddalariga asosan Toshkent shahar tuman hokimliklarida uy-joylarga muhtojlar ro'yxatiga olingan fuqarolarga navbat asosida tuman hokimliklarining qarorlariga asosan ajratiladi.

Ushbu uy-joylar birinchi navbatda Mehribonlik uylarida tarbiyalangan etim yoshlarga, ijtimoiy tomondan sotsial muhofazaga muhtoj, kam ta'minlangan va shahar kapital qurilish, obodonlashtirish maydonlarida uy-joylari buzilishga tushgan oilalarga ajratiladi.

### **Yashash sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolar qaerga murojaat etishlari va qanday xujjatlarni taqdim etishlari lozim?**

Yashash sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolar, yashash sharoitini yaxshilashga muhtoj shaxs yoki oila sifatida ro'yxatga qo'yish masalasi yuzasidan o'rnatilgan tartibda o'zlari doimiy ro'yxatda turgan shahar, tuman hokimliklariga murojaat etishlari va quyidagi xujjatlarni taqdim etishlari lozim.

-Ariza;

-Shaxsni tasdiqlovchi xujjat nusxasi (fuqarolik pasporti, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma);

-Turar-joyi joylashgan mahalla fuqarolar yig'inidan ma'lumotnoma (oila a'zolari soni va egallab turgan turar-joyining yashash maydoni ko'rsatilgan holda);

-Ish joyidan ma'lumotnoma;

-Imtiyozga ega fuqaro bo'lsa, imtiyozi borligini tasdiqlovchi xujjat.

**Kimlar qonun xujjatlari asosida yashash sharoitini yaxshilashga muhtoj deb tan olinadi?**

Quyidagilar yashash sharoitini yaxshilashga muhtoj deb tan olinadi.

-Har bir oila a'zosi 7 kv.m.dan kam yashash maydoniga ega bo'lganlar;

-Yotoqxonada yashovchilar;

-Belgilangan sanitar va texnik talablarga javob bermaydigan uy-joylarda yashovchilar.

**Turar-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarga davlat uy-joy fondidan beriladigan turar-joylar maydoni qanday belgilanadi?**

Yashash maydonining ijtimoiy normasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari tomonidan bir kishi hisobiga 16 kv.m.dan kam bo'lmagan, nogironlarga esa 23 kv.m.dan kam bo'lmagan umumiy maydon hajmida belgilanadi.

**Ko'p yillar avval qurib bitkazilib foydalanib kelinayotgan, lekin hech qanday huquqiy xujjatga ega bo'lmagan yakka tartibdagi turar-joy binolari bo'yicha xujjatlantirish ishlarini amalga oshirish mumkinmi?**

Toshkent shahrida ruxsatsiz qurilgan, ko'p yillardan beri foydalanib kelinayotgan yakka tartibdagi turar-joy bino-inshootlariga nisbatan egalik huquqini e'tirof etish ishlarini amalga oshirish maqsadida, Toshkent shahar hokimi tomonidan 2011 yil 14 dekabrda 809-sonli qaror qabul qilingan bo'lib, unga asosan Toshkent shahri mahallalarida 2000 yilgacha ruxsatsiz qurilgan turar-joy bino-inshootlarining haqiqiy quruvchisi nomiga egalik huquqini e'tirof etish ishlarini amalga oshirish belgilangan.

Ushbu masala yuzasidan xujjatlarni rasmiylashtirish uchun turar-joy binosi joylashgan tuman hokimligiga o'rnatilgan tartibda ariza bilan murojaat qilinadi.

**Ko'p qavatli uyning birinchi qavatida istiqomat qilaman. Yaqinda qo'shni uylardagi birinchi qavatda yashovchilar balkonlarini o'rab olishdi. Ularning aytishlaricha birinchi qavatda yashaydiganlarga bunga ruxsat bor ekan. Men ham qish yaqinlashayotganligi munosabati bilan balkonni o'rab olmoqchi edim. Shu sababli bunga ruxsat bor-yo'qligi haqida ma'lumot bersangiz.**

Ko'p qavatli turar-joy binolarining birinchi qavatida joylashgan xonadon egalari qo'shimcha qurilish ishlariga ruxsat berilmagan. Bunday qurilmalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 212-moddasiga muvofiq o'zboshimchalik bilan qurilgan deb hisoblanadi va kadastr ro'yxatidan o'tkazilmaydi. Bu kabi qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ygan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 160-

moddasiga asosan eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solinadi va o'zboshimcha qurilmalar huquqbuzarlar hisobidan buzib tashlanadi.

Birinchi qavatda joylashgan turar-joy o'rnatilgan tartibda noturar-joy toifasiga o'tkazilganda, tasdiqlangan loyihada ko'zda tutilgan qo'shimcha qurilishlarni amalga oshirish mumkin.

**Ko'p qavatli uyning 3-qavatida yashayman. Uyim 2 xonalik. Yaqinda farzandli bo'ldik. Shu sababli xonalar o'rtasidagi devorni buzib, ikki xonali uyni 3 xonali qilmoqchiman, Buning uchun tegishli ruxsatnoma olish yuzasidan qaerga murojaat qilishim kerak?**

Yakka tartibdagi uy-joy hamda ko'p qavatli turar joy binolaridagi xonadonlarda rekonstruksiya ishlari Toshkent shahar hokimining 2010 yil 31 martdagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlaigan tartibga asosan litsenziyaga ega bo'lgan loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan va arxitektura boshqarmasida kelishilgan loyiha, loyiha tashkiloti tomonidan o'rnatilgan tartibda tayyorlangan texnik xulosa hamda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining yozma roziligi asosida olib boriladi. Buning uchun tuman hokimligiga ariza bilan murojaat qilinib, arizaga turar-joyga nisbatan mulkiy huquqni tasdiqlovchi xujjat nusxasi, kadastr xujjati, tegishli litsenziyaga ega loyiha tashkilotining texnik xulosasi, ishlab chiqilgan loyiha va Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining roziligi ilova qilinadi.

Toshkent shahar hokimining 2010 yil 31 martdagi 172-sonli qarorining to'liq matni bilan mahalla fuqarolar yig'ini idoralarida tanishishingiz mumkin.

**Ko'p qavatli uylarda yashovchi fuqarolar tegishli ruxsatnoma olmasdan xonalar o'rtasidagi devorni buzib, ikki xonalik uyni uch xonalikka, uch xonalik uyni esa to'rt xonalik uyga o'zgartirganliklari uchun ularga nisbatan qanday choralar ko'riladi?**

Tegishli ruxsatsiz rekonstruksiya (qayta qurilish) ishlari amalga oshirilsa, bu o'zgarishlar o'zboshimcha qurilish hisoblanib, mulk huquqi davlat ro'yxatiga olinmaydi va bu xonadonni sotishga, hadya etishga, ijaraga berishga hamda boshqa bitimlar tuzishga haqli hisoblanmaydi. Qonun buzilishi holatlari bo'yicha tegishli organlarga xabar beriladi va huquqbuzarlar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 160-moddasiga asosan eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarimaga tortiladi,

**Bir necha oy oldin ko'p qavatli uylarning biridan uy sotib olgandim. Kadastr xizmatiga uyni ro'yxatdan o'tkazish borasida murojaat qildim. Ammo mana bir necha oy o'tgan bo'lsada, bu ish amalga oshirilmayapti, Ular bu holatning sababi haqida meni xabardor qilishlari kerak edimi?**

Ko'p qavatli turar-joy binosida joylashgan xonadonni oldi-sotdi shartnomasiga asosan davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlari 3-5 ish kuni mobaynida bajariladi. ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazishning

imkoni bo'lmagan taqdirda, buyurtmachiga buning sababini ko'rsatilgan holda yozma ravishda ma'lumot yuboriladi.

**Ko'chmas mulk ob'ekti o'zga shaxsga o'tayotgan hollarda er (xotin) ning notarial tasdiqlangan roziligi bo'lishi shartmi va bu nima uchun talab qilinadi?**

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining talabiga muvofiq, turmush qurgan davr mobaynida orttirilgan barcha ko'chmas mulk o'zga shaxsga o'tayotgan hollarda er (xotin) ning notarial tasdiqlangan roziligi bo'lishi shart. Shu sababli, er (xotin) o'zaro orttirgan mol-mulk bilan bir-birini xabardor qilgan holda, ya'ni ko'chmas mulkni sotib olishda, o'zgaga sotishda va hadya etishda rozilik asosida amalga oshirishi shart. Aks holda, ya'ni oldi-sotdi shartnomasi yoki boshqa harakatlar er (xotin) ning notarial tasdiqlangan rozilgisiz rasmiylashtirilsa, kelgusida bu harakat sud tomonidan o'rnatilgan tartibda bekor kilinishi ehtimoli mavjud.

**Yakka tartibdagi uy-joy hamda ko'p qavatli turar-joy binosida joylashgan xonadon uchun to'lanishi zarur bo'lgan soliq miqdori qaysi narx hisobidan kelib chiqadi? Kadastr xizmati tomonidan belgilangan inventar bahodanmi yoki bozor narxidanmi?**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 274-moddasiga muvofiq, ko'chmas mulkka bo'lgai huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ, ya'ni kadastr xizmati tomonidan belgilanadigan soliq solish ob'ektlarining inventarizatsiya qiymati soliq to'lovchilar uchun soliq solinadigan baza hisoblanadi.

**Toshkent shahri hududida shaxsiy uy-joyi bor yoki yo'qligi haqidagi ma'lumotnomani olish uchun qaysi tashkilotga va qanday ariza bilan murojaat etish lozim?**

Toshkent shahri hududida shaxsiy uy-joyi bor yoki yo'qligi haqidagi ma'lumotnomani olish uchun, oddiy tusdagi yozma ariza bilan Toshkent shahar kadastr xizmatiga murojaat etish lozim. Ushbu arizaga fuqarolik pasporti nusxasi ilova qilinadi.

## YER KADASTRI ASOSLARI FANIDAN TEST – NAZORATI

Respublikamizda sug'orila digan dexqonchi lik qilinadi gan umumiy er maydoni qancha gektarni tash kil qiladi?	*4280000,ga	23000,ga	2500000,ga	425000,ga
Er fondi nechta kategoriya ga bo'linadi?	<b>*8 ta</b>	5 ta	3 ta	10 ta
Er kadastri tarkibiy qism lari nimalar dan iborat?	<b>*Er egalari ni ruyxat dan utkazish, erlarning si fati va mik doriy xisobi, tuprok bo nitirovkasi va erlarni iktisodiy baholash.</b>	Xo'jaliklararo va xo'ja lik ichida er tuzish	Tashkil qili nayotgan xo'ja likning er maydonini aniqlash, u ni xududida joylashtirish.	CHizma qis mi, yozma qis mi va xuqu qiy xujjat lar.
Er kadastri kitobi nechta bo'limdan iborat?	*5	3	4	6
Noqishloq xo'jalik erlar iga nimalar kiradi?	*C va D javoblar to'g'ri	Haydalgan erlar, bo'z erlar	Pichanzor va yaylovlar	Suv fondi erlari, o'rmon fondi erlari
Erlarni iqtisodiy baho lash deganda nimalarni tushunasiz?	<b>*YUqoridagilarni ng barchasi tug'ri.</b>	Erning qish loq xo'jali gi ishlab chiqarish vo sitasi sifa tida qadr-qimmatini aniqlash.	Iqtisodiy ko'rsatgichlari yordamida er maydoning samaradorlik xususiyatini aniq lash.	Erga egalik qilish va er dan foydala nishni ro'y xatdan o'tka zib baholash.
"Er kodeksi "to'g'risidagi qonun qachon qabul qilin gan?	*1998 yil 30-aprel	1998 yil 5-sentyabr	<b>1991 yil 1-sentyabr</b>	1924 yil 17-noyabr
Tuproq boni tirovkasining axamiyati nima dan iborat?	*Barchasi to'g'ri	Er loyixasi ni tuzganda	Er kadastri ni o'tkazgan da.	Almashlab ekishni tashkil etganda.
Tabiiy, tarixiy belgi lar bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi muhmda ma'lum maqsadlar uchun foydalanadi gan yoki foyda lanishga yaroq li bo'lgan erga nima deb atala di?	*Er resursi.	Er xususiyat lari.	<b>Tuproq unumdorligi.</b>	Tabiiy sharoit.
Ma'lum maqsadda	*Er tuzish.	Xududni tashkil	Er kadastri.	<b>Tabiatni</b>



erdan foydalanishni tashkil etish bilan birgalik da er bilan bog'liq bo'lgan boshqa ishlab chiqarish vosi talari hamda ishchi kuchini joylashtirish ga nima deyiladi?		etish.		<b>muhofaza qilish.</b>
Erga ega lik turi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	*Umrbod merosiy.	Doimiy va umrbod merosiy.	<b>Doimiy.</b>	Vaqtincha.
Er kadastri fanini asoschilari kimlar?	*V.V.Dokuchaev;	I.M.Komov;	M.V.Lomonosov;	T.Tursunov;
Erni bonitirovka lash nima?	*Erni balini aniqlash	Erni unumdorlik xisoini aniqlash	Erni sifat va iqtisodiy bahosi	Erni fizik,ximik xususiyatini aniqlash
Tuproqni bonitirovkalashda qanday ish davrlariga bo'linadi?	*Tayyorlash,dala,k ameral-taxlil;	Tayyorlov,dala,lab oratoriya	Tayyorlov,dala,xari talash;	Tayyorlov,dala,xisobot;
Tuproqni sifat bahosini aniqlashda tuproqni qaysi xususiyati e'tiborga olinadi?	*Mexanik tarkibi,gumusi,RK,eroziyalanishi,sho'rlanishi,toshlanishi	Mexanik tarkibi,sho'rlanishi,eroziyalanishi,	SHo'rlanish,Eroziyalanishi,gumusi,NPK	Mexanika tarkibi,gumus NPK,
Tuproq kesmasi,chuqurlari necha xil bo'ladi?	*3ta	2ta	4ta	5ta
Tuproqning morfologik belgilari necha xil?	*7	5	6	4
Tayyorlov davrida to'pla nadigan ma'lu motlar qaysi lari?	*Tuproq xaritasi,iqlim, er miqdori, adabiyot, xosil miqdori.	Iqlim adabiyoti,	Er miqdori, adabiyoti,xosil miqdori.	Bonitirovka xaritasi,iqlim,er miqdori
Sugoriladi gan tuproqni o'zlashtirish davri necha xil bo'ladi?	*3	4	5	2
Madaniylashtirish darajasi necha xilga bo'linadi?	*3	4	5	2
Tuproqning mexanik tarkibi necha turga bo'linadi?	*8	3	5	2
Gumusli qatlam qalnligi qaysi xarf bilan belgilanadi?	*A	V	E	K
Tuproqni ishqoriylik darajasi necha dan yuqori?	*7dan	6dan	3dan	5dan
Tuproqning xajm solishtir ma ogirligi qaysi birlik larda yoziladi?	*g/sm	ml	sm	g
Tuproqni gumus	*t/ga	t/m	t/sm	t

zaxirasi qaysi birlikda yoziladi?				
O'simliklarning xosildorligi 30 s/ga ga teng bo'lsa, bonitirovka shkalasida 1 ball bahosi nechaga teng?	*0,5	5	1	0,1
Mashtabi 1:10000 deganda 1smda necha metrni tushuna siz?	*100m	50m	10m	1000m
Tuproq namunalari tuproq chuquri ning qaysi qismidan bosh lab olinadi?	*Pastdan yuqoriga	Tepadan pastga	O'rta qismidan tepaga,pastga	Xoxlagan joydan
Donli o'simliklardan gektariga 20s xosil olinsa bonitirovka shkalasida 1 ballning bahosi nechaga teng?	*0,2ga	0,5ga	0,1ga	0,3ga
Xo'jalik tuproqlarini bonitirovkalashda qaysi mavjud xaritalar dan eng ko'p foydalaniladi	*Tuproq	Geologiya	Iqlim	Geomorfologiya
Agroishlab chiqarish guruxi necha turga bo'linadi	*5	3	2	4
Xo'jalik tuproqlarni o'rganishda tuproq kesmalari necha metrqa qaziladi?	*2-3	1-2	1,5-2	1-3
Xo'jalik tuproqlarini baholash bo'yi cha xujjatlari qaysilari?	*Normativ va natijali xujjatlari	Tuproq kartogrammalari	Tuproq xari talari	Xisobotlar
Erni baho lash ko'rsatkich lari qanday imkoniyat yara tadi?	*SHu yilgi va kelgusida gi reja,erni ishlab chiqar ish qobiliya tini	Erni fizik xossalarini	Erni ximiyaviy xossalarini o'zgartirish	10 yilgi xosil rejaları
Dasht minta qalarda nisba tan yuqori xosil qaysi mexanik tarkib li tuproqda olin adi?	*Engil qumoq	Engilsozli	+umli	Og'ir qumoq
Bo'z tuproq li zonada nisbatan qaysi mexanik tarkib lida yuqori xosil olina di?	*O'rta qumoq	+umli	+umloq	Og'ir +umoq
Unumdorlik bo'yicha baho lash deb nimaga aytiladi?	*Tuproq sifatiga va unumdorlik xususiyatiga solishtirma baho berish	Tuproq unumdorligiga	Dexqonchilikni intensiv lashga	Xosildorlik ko'rsatkichiga
O'zbekiston ning sugorila digan xudud larida necha xil gidromodul rayonlar i	*9ta	<b>3ta</b>	5ta	8ta

mavjud?				
SHagalli tuproqlar qaysi ko'rsat gichlarga ega?	*Kam chirindili	Unumdor	Oziqa elementiga boy	Strukturali
V.V.Dokucha evni aniqlashi cha tuproq unum dorligini aniqlaydigan faktor?	*Gumus zaxirasi	YAlpi fosfor miqdori	YAlpi azot miqdori	Tuz zaxirasi
Tuproqning muxim agro fizik xususiyat iga nimalar kiradi?	*Struktura si,zichligi, g'ovakligi	Bo'kishi,cho'kishi	Plastikligi	Solishtirma ogirligi
«Plug osti» qatlami xosil bo'lishi ga nima sabab bo'ladi?	*Tuproq qavatini cho'kishi va zichlashuvi.	Xar xil chuqurlikda shudgorlash	YUmshatish	Erni xaydash
Tuproqni necha sm chuqur likda xaydash yuqori samara beradi?	*45-60sm	20-30sm	15-25sm	70-80sm
Erlarni bonitirovka qilishda xar bir aloxida xolda nechta bonitirovka koeffitsentlaridan oshmas ligi kerak?	*2ta	4ta	3ta	5ta
Go'za xosili 60 balli tuproqda necha s/ga ga teng?	*24s/ga	30s/ga	25s/ga	33s/ga
Bug'doy hosili Balli tuproqda necha s/ga ga teng?	*48s/ga	30s/ga	24s/ga	35s/ga
Tuproqlar unumdorlik darajasi necha sinfchaga ajratilgan?	*10ta	3ta	5ta	4ta
Tog' oldi tekisliklari tuprog'i sifa tiga qaysi ko'rsatkichlar ta'sir etadi?	*YOn bagir ekspozitsiya va nishablik	Tepalik	Jarlik	Er osti shagal to'plami
+iyaliklar ni o'lchaydigan asboblari ?	*Eklimetr	Kompas	Kurvimetr	Ruletka
Tuproqning tub jinsi (ona jinsi osti) qaysi xarf bilan ifodalanadi?	*D	V	S	A
<b>Mexanik tarkibiga ko'ra qumoq necha turga bo'lina di?</b>	*3ta	2ta	4ta	5ta
<b>CHang zarra chalari necha turga bo'lina di?</b>	*3	4	5	6
<b>+umli zarrachalar necha turga bo'linadi?</b>	*3	5	2	6
<b>Fizikaviy loy zarralar iga necha mmdan kichik zarralar kiradi?</b>	*0,01	0,2	0,05	0.005
<b>Tuproq strukturasi necha tipga bo'linadi (A.A.Zaxarov</b>	*3	2	5	4

<i>tavsiyasiga ko'ra)?</i>				
<i>Tuproq tarkibidagi sulfatli tuzlar qaysi eritma bilan aniqlanadi?</i>	*BaCl <sub>2</sub>	NaCl	CaCl <sub>2</sub>	KCl
<i>Xo'jalik tuproqlarini xaritalashda necha satx qiyinlik darajasi bo'ladi?</i>	*3ta	5ta	2ta	6ta
<i>Gidromorf tuproqlarni sifat bahosini pasayishi qaysi mavjud gorizontalga bog'liq?</i>	*Gilligiga	Gumusli	Tub jinsiga	O'tuvchi
<i>O'zbekistonning qaysi viloyatlarida gipsli tuproqlar uchramaydi?</i>	*Toshkent viloyati	Fargona vodiysi	Jizzax viloyati	Mirzacho'l viloyati
<i>Gipsli qatlamlarda qanday turdagi shoxlanish yuzaga keladi?</i>	*Sulfatli-xloridli	Xloridli	Sulfatli	Karbonat-magniyli
<i>Er osti suvlarini qaysi tuzlar bilan to'yinishi shox, arziqli qatlamni shakllantiradi?</i>	*Mg SO <sub>3</sub>	Ca SO <sub>4</sub>	Ca Cl <sub>2</sub>	Mg Cl <sub>2</sub>
<i>Gipsli qatlamlar qalinligi joylashish chuqurligi 0,7-1m da bonitirovka koefitsienti nechaga teng?</i>	*0,9	0,5	0,7	0,8
<i>Gumusli qatlam qalinligi bir metr dan ortiq bo'lsa, bonitirovka koefitsienti nechaga teng bo'ladi?</i>	*1	0,75	0,85	0,65
<i>Sug'oriladigan tuproqlarni bonitirovkalashda tuproq nomida qaysi belgilar ko'rsatiladi?</i>	*Sug'orish davri, madaniylash tirish darajasi	Gumusli qatlam	Toshlanishi	Eroziyalanishi
<i>Eskidan sug'oriladigan tuproqlarda sug'orish davri necha yildan ortiq?</i>	*50	5	3	40
<i>Sug'oriladigan tuproqning potentsial unumdorligi qaysi ko'rsatki kichga bog'liq?</i>	*Agroirrigatsion keltirmalar chuqurligiga	Gilli qatlam chuqurligiga	SHoxli qatlamga	SHag'al qalinligiga
<i>Tuproq xaritasiga yozilgan eksplikatsiyada mexanik tarkibi qaysi qatlamlarga ko'rsatiladi?</i>	*0-30,30-100,100-200sm ga	0-30sm	0-30,30-100sm ga	0-25,25-70,70-100sm
<i>Qaysi turdagi mexanik tarkibli tuproqlarda qatqaloq xosil bo'lmaydi?</i>	*Engil qumoqli qumloq	Sozli	Engil sozli	O'rta qumoq,sozli

<i>SHamol eroziyasiga moyil tuproqlar qaysi mexanik tarkibli?</i>	*Engil qumoq, qumloq	Og'ir sozli	O'rta qumoq,sozli	Og'ir qumoq,sozli
<i>Tuproqlar ni sho'rlanish darajasi necha turga bo'lina di?</i>	*5	2	3	4
<i>SHo'rlanish tipi necha turga bo'linadi?</i>	*2	3	4	7
<i>SHo'rlanish bo'yicha pasayti rish koeffi sienti qaysi ko'rsatkichlar asosida berilgan?</i>	*+uruq qoldiq,Cl	SO	Ca,Mg	CO,Mg
<i>Tuzlarni g'o'zaga zararli ta'siri qaysi fazada sezilar li bo'ladi?</i>	*3-4 bargli davrida	Gullash davrida	SHonalash davrida	Ko'sak tugish
<i>Sug'oriladigan tuproqlarda xloridlarning necha % dan ortigi g'o'za o'sishiga salbiy ta'sir etadi?</i>	*0,01%	0,2%	0,3%	0,02%
<i>Tuproqlarni sho'rlanishi va paydo bo'lishi qaysi ko'rsatkichlarga bog'liq?</i>	*Er osti suvi chuqurligi ga, madanlashgan ligiga tuproq kapilyarligi ga	SHo'rlanish tipiga	SHo'rlanish darajasiga	Maydon nishabligiga
<i>Tuproqni sug'organdan so'ng chuqur kultivatsiya qilish parlan ishni necha %ga kamaytiradi?</i>	*20-30	10-20	5-10	15-20
<i>Tuproqdagi gipsni % miqdoriga ko'ra necha turga bo'linadi?</i>	*4	2	3	5
<i>Eroziya darajasini kuchayishi tuproqning qaysi ko'rsat kichlari bilan farqlanadi?</i>	*Gumus va ozuqa moddalarini kamayishi,gumus qatlam qisqarishi,	Gumusli qatlam ortishi	NPK miqdorini ko'payishi	Otrukturaligi ortishi
<i>Respublikamizning ochiq tekisliklarida shamolning tezligi qancha da tuproq deflyasiyaga uchraydi?</i>	*5m/s	10m/s	15m/s	20m/s
<i>Unumdorlikni tuproq deflyasiyasi va eroziyalanishi bo'yicha baho lash necha turga bo'linadi?</i>	*5	3	7	6
<i>+iyaliklar da joylashgan tuproqlarda sug'orish ishlar i qaysi usulda bo'ladi?</i>	*Kam suv miqdorida, tez-tez sugorish	Ko'p suv miqdorida sugorish	Nishabligi, o'simlik qoplamiga ko'ra sugorish	+iyalik oraligi,ko'p suv me'yorida sugorish
<i>Kam shamol</i>	<b>*20%</b>	10%	15%	30%

<i>eroziyasiga cha lingan tuproq larda gumusli qatlamning necha % gacha uchirilib olib ketiladi?</i>				
<i>O'rtacha shamol eroziya siga chalingan tuproqlarda gumusli qatlamning necha% gacha uchirilib olib ketiladi?</i>	*20-40%	10-20%	20-30%	30-40%
<i>Kuchli shamol eroziya siga chalingan tuproqlarda gumusli qatlam ning necha% gacha uchirilib olib ketiladi?</i>	*40%	5%	10%	50%
<i>O'zbekiston da eroziyaga cha lingan tuproq larni sifat bahosini aniq lashda qaysi qatlam qalin liklari e'ti borga olinadi?</i>	*A-V –V qatlam	Aqatlam	A-V qatlam	A-S qatlam
<i>O'zbekiston sharoitida er larni umumiy baholashda qay si bazis ko'rsat kichlari qabul qilingan?</i>	*YA lpi maxsulot qiymati va umumiy mehnat xarajati	Unumdorlik darajasi	Er maydonlari	Hosildorlik xamda umumiy mehnat xarajati
<i>Er kadastr necha tarkibiy qismdan iborat?</i>	*5ta	2ta	3ta	4ta
<i>Erni baho lash necha yo'l bilan amalga oshiriladi?</i>	*3	2	5	4
<i>Davlat «Er kadastr» to'g' risidagi qonun qaysi yili qabul qilingan?</i>	*1998yil	1991yil	1993yil	1996yil
<i>O'zbekiston Respublikasining «Er kodek si» qonuni qay si yili qabul qilingan?</i>	*1998y	1992y	1994y	1997y
<i>Davlat «Er kadastr» to'g' risidagi qonun necha moddadan iborat?</i>	*26ta	10ta	15ta	17ta
<i>O'zbekiston Respublikasining «Er kodek si» qonuni ne cha bob va modda dan iborat?</i>	*14 bob,91 m*odda	7 bob,60 modda	10 bob,70 modda	15 bob,86 modda
<i>O'zbekiston Respublikasi «Er kodeksi» qonunida «Er monitoringi» xaqida</i>	*14	12	15	20

<i>nechanchi moddada berilgan?</i>				
Xo'jaliklarda qanday mash tabli tuproq kartalardan foydalaniladi?	*1:10000	1:200	1:500000	1:250000
Kuchli sho'r langan tuproqlar xaritada qanday rangga bo'yaladi?	*+izil	Sariq	YAshil	Ko'k
Allyuvial yotqiziqli soz tuproqlarda pasaytirish koeffitsenti nechaga teng? (Bo'z tuproqli mintaqada)	*0,85	0,70	0,50	0,90
Less yotqi ziqli soz tuproqlarda pasaytirish koeffitsenti nechaga teng (Bo'z tuproqlarda)?	*0,90	0,60	0,70	0,50
Sof xolda ekilgan boshqali don ekinlari uchun bir ballning bahosi nechaga teng?	*0,60	0,70	0,55	0,80
Eroziya dara jasi o'rtacha yuvilgan less yotqiziqli tuproqlarda pasaytirish balli nechaga teng?	*0,9	0,6	0,8	0,7
Tuproqlar ni sug'orish davrlarga bo'linishi?	*+adimdan, yangidan sug'oriladigan, yangidan o'z lashtirilgan	Sug'oriladigan, sug'orilmaydigan	+adimdan, o'rtacha, kam sug'orilgan	Sug'oriladigan, o'rtacha sug'oriladigan, yangi o'zlashtiriladigan

## Glossariy

**Almashlab ekish** – ekinlarni vaqt (yillar bo'yicha) va bo'shliqda (dalalarda) ma'lum muddatda amalga oshiriladigan ilmiy asoslangan navbatma-navbat ekilishi tushuniladi. Almashlab ekishdan ko'zlangan asosiy maqsad – yerning unumdorligini tiklash va hosildorligini oshirish, turli zararkunandalar, kasallik qo'zg'atuvchilardan tozalash, yovvoyiy o'tlardan holi qilish, mahsulot tannarxini kamaytirgan holda ekinlardan yuqori hosil olishni ta'minlashdir.

**Tuproq ayeratsiyasi** – tuproq va atmosferada havo almashinuvi; tuproqni ishlash, melioratsiya va boshqa tadbirlar yordamida tuproq strukturasi yaxshilash va mustahkamlash orqali boshqariladi.

Ball – biron hodisa (shamol, zilzila, hosil va h.q) ning darajasi yoki jadalligini baholaydigan birlik. Tuproq bonitirovkasi ham ballar bilan ifodalanadi.

**Tuproq boniteti** – Tuproq unumdorligining ko‘rsatgichi, odatda ballar bilan ifodalanadi.

**Tuproq bonitirovkasi** – tuproqlarni muhim agronomik xususiyatlari asosida qiyosiy baholash (ballar bilan). U yerlar-ning iqtisodiy xarakter istikasi uchun, Yer kadastrini yuritish uchun, meliorasiya, dehqonchilik sistemalarini mukammallashtirish uchun muhimdir.

**Tuproq deflyatsiyasi** – havo oqimi ta’sirida tuproq zarrachalarining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilishi, yotqizilishi.

**Drenaj, zovur** – yerlarni quritish maqsadida sho‘r yoki chuchuk sizot suvlarni chiqarib yuborish va sathini pasaytirish uchun qurilgan yer osti yoki yer betidagi zovurlar sistemasi. Zovur sistemasidagi suv odatda qurilayotgan yoki sho‘ri ketkazilayotgan maydonlardan tashqarida joylashgan suv yiqqichga yo‘naltiriladi.

**Davlat yer kadastr** – davlat kadastrlari yagona tizimining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanib, u yerlarning tabiiy, xo‘jalik, huquqiy holati, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmati, yer uchastkalarining o‘rni va o‘lchamlari, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar o‘rtasidagi taqsimoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda xujjatlar tizimidir.

**Davlat suv kadastr** – suvning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini hisobga olish, suvdan foydalanishni qayd qilish va hisobga olish ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi.

**Davlat tomonidan ro‘yxatga olish** – davlatning hokimiyat idoralari tomonidan davlat, koopyerativ korxonalarini, jamoat tashkilotlari korxonalarini va xususiy korxonalarini ro‘yxatdan o‘tkazish. Maqsad –korxonalarining barpo etilishi, qayta tuzilishi va tugatilishining qonuniyligini nazorat qilishdir.

**Daromad** – korxonaning sof foydasi shakli, ya’ni mahsulot yoki hizmatlarni sotishdan tushgan umumiy daromadning undan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyingi qismi.

**Degradatsiya** – iqtisodiy tizim ahvolidning yomonlashuvi va barbod bo‘lishi.

**Dehqon xo‘jaligi** – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, myeros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizastiya qiladi.

**Tuproq indeksi** – tuproq turlarini kartada ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan shartli belgilar.

**Irrigatsiya** - qishloq xo‘jalik meliorastiyasining dalalarni va ekinzorlarni sun’iy ravishda sug‘orish bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i.

**Yer kadastr** – yerlarni hisobga olish, tavsiflash va baholash ishlarining majmui.

**Kameral ishlar** – dala ilmiy tadqiqot ishlari natijasida olingan materiallarni ilmiy asosda kabinet va laboratoriyalarda qayta ishlash.



**Kadastr** – ma’lum bir tabiiy xo‘jalik yoki boshqa ob’ekt muayyan turining geografik joylashuvi huquqiy maqomi, miqdori, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turadigan ma’lumotlar va xujjatlar tizimi.

**Tuproq xaritasi** – ma’lum bir hududning tuproq qatlamini ma’lum masshtabda kichraytirilgan tasbiri. Umumiy, tuproq-meliorativ, tuproq-yerozion, tuproq-agrokimyoviy xaritalar farqlanadi.

**Agrokimyoviy xaritanoma** – tuproqlarning oziq elementlari (azot, fosfor, kaliy, magniy, mikroelementlar) bilan ta’minlanganligi yoki ohaklash va gipslashga bo‘lgan talabini ko‘rsatuvchi xarita. O‘g‘itga bo‘lgan umumiy talabni aniqlashda yoki alohida dalalarni o‘g‘itlashni yo‘lga qo‘yishda foydalaniladi.

**Yer kodeksi** – sistemaga solingan Yer qonunchiligi.

**Landshaft** – tipik belgilarining yig‘indisi bilan xarakterlanadigan hudud. Bunda turli elementlar (tuproq rel’efi, iqlim xususiyatlari va boshqalar) bir-biri bilan o‘zaro ta’sirlashib, bir butunni tashkil qiladi. O‘xshash landshaftlar birlashib, zonalar (tundra, tayga, dasht va b) ni tashkil qiladi.

**Melioratsiya** – botqoqlarni quritish, ko‘chma qumlarni mustahkamlash, sho‘r yerlarni yuvish, sug‘orish va boshqa usullar bilan qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarni tubdan yaxshilash.

**Tuproq monitoringi** – tuproq unumdorligining pasayishini har qanday yo‘l bilan oldini olish. Hozirgi davrda tuproq monitoringi oldida turgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: tuproqlardagi chirindi, azot va fosforlarning yo‘qolish tezligini baholash, tuproqlarning nordonligi, ishqoriyligini va og‘ir metallar bilan ifloslanish darajasini nazorat qilish, suv, irrigatsiya va shamol eroziyalari ta’sirida tuproqlarning o‘rtacha yillik yo‘qolishini baholash va hokazo.

**Voha** – cho‘l va chala cho‘llardagi o‘simlik va suv (sizot suv va daryolar) mavjud bo‘lgan joylar.

**Voha tuproqlari** – sug‘oriladigan dehqonchilik hududlari-ning tuproqlari. Keng daryo vodiylari, tog‘ oraliqlaridagi pastliklar va yassi tekislardagi vohalarda tarqalgan bo‘ladi.

**Yer tuzish loyihasi** – xo‘jalikaro va xo‘jalik ichidagi yer tuzish ishlarining bajarilishi jarayonida tuziladigan xujjat.

**Yer monitoringi** – yer tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash, yerga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini kuzatib turish tizimidan iborat.

Yer oldi-sotdi bo‘ladigan jamiyatda uning bahosiga yerning hosildorligi, qazilma boyligidan tashqari uning iqlimi, qaysi geografik mintaqada bo‘lishi hamda ekologik holati ham ta’sir qiladi. Iqlimi yaxshi, tabiati boy, ekologik toza, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasi rivojlangan yerlarning bahosi g‘oyat yuqori bo‘ladi. Ekologik tanglik sharoitida toza yerlar qimmat turadi. Yirik shaharlarda yerning bahosi g‘oyat qimmat yuradi, chunki yer tanqisligi mavjud bo‘ladi. Yerning bahosi unga bo‘lgan talabga qarab o‘zgarib turadi.

**Dehqonchilikning ekstensiv sistemasi** – dehqonchilik sistemalaridan biri bo‘lib, bunda tuproqlarning unumdorligi inson tomonidan asosan tabiiy yo‘l bilan shudgorlarni ishlash, qisman meliorativ tadbirlar o‘tkazish, mexanizastiya vositalari va o‘g‘itlardan foydalanish hisobiga tiklanadi va saqlab turiladi. Ekstensiv sistema primitiv sistemadan shugorlanadigan yerlarning asosiy qismi ekinlar (asosan g‘alla ekinlari), kamroq qismi esa shudgorlar bilan band bo‘lishi xususida farq qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., “O‘zbekiston” 1997.
2. Abdullayev S., Nomozov X. Tuproq melioratsiyasi. O‘ZME. T. 2011.
3. Alimov R., Berkinov B., Kravchenko A. Hodiyev B. Ko‘chmas mulkni baholash, “Fan”, Toshkent, 2005.
4. Axmedov A.U., Parpiyev G‘.T., Abdullayev S.A. Tuproq-meliorativ monitoring. Toshkent, 2012.
5. Bobojonov O., Rahmonov Q., G‘ofirov A. Yer kadastr. Toshkent, Cho‘lpon 2002 y.
6. Bobojonov O., Ro‘ziboyev S. Aholi yashash joylari kadastr. T.: “Tafakkur” , 2011.
7. Gavrilyuk N.F. Bonitirovka pochv. M., Visshaya shkola, 1982.
8. Maqsudov J., Nagayev G., Akromov I. Qo‘ziyev R., Axmedov A. Tuproq xaritalari va yerlarni baholash hujjatlaridan foydalanish. T., 2000.
9. Mirzajonov Q., Nazarov M., Zokirova S., Yuldashev G‘. Tuproq muxofazasi. “Fan va texnologiya”, Toshkent 2004 y.
10. Nomozov X.Q. “Sug‘oriladigan tuproqlarning meliorativ holati” “Mehnat” T. 2001.
11. Nomozov X.Q.-Yer resurslaridan foydalanishda Yer kadastrining roli va tuproq unumdorligini oshirish yo‘llari. T., 2001.
12. Nomozov X.Q. Haydaladigan yerlarning iqtisodiy bahosi. T., 2003.
13. Nomozov X.Q. , Ro‘zmetov M. «Meliorativ tuproqshunoslikdan amaliy mashg‘ulotlari», O‘ZME. T. 2004.
14. Nomozov X.Q, Shadramova K.I, Turdimetov SH.M Tuproq bonitirovkasi “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. T., 2004.
15. Nomozov X.Q, Yer kadastr “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. T., 2006.
16. Nomozov X.Q. Tuproq bonitirovkasining ilmiy asoslari, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. T., 2013.
17. Nomozov X. Abdalova G. Mamatqulov Q. Toshpo‘latov S. Akbarov N. Yer va suv resurslaridan foydalanish. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi". T., 2011.
18. Nig‘matov. A. Yer huquqi. “Toshkent Islom Universiteti” 2001.

19. Ochilov E. Uraimov T. "Dehqonchilikda ilmiy izlanish asoslari"  
Tafakkur. 2013.
20. Raxmonov Q. Yagona yer solig'i. O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali.  
2003 /4.
21. Tolipov G.A., G'ulomov. X. F., Maqsudov X.M., Akramov I.A.  
O'zbekistan Respublikasi lalmi zona tuproqlarini bonitirovkalash uslubiy  
qo'llanma. T. 2000.
22. Tolipov G. A. "O'zbekiston Yer kadastrasi asoslari". "Moliya". T.2007.
23. Tojiyev O'., Nomozov X., Nafetdinov Sh., Umarov K. "O'zbekiston  
tuproqlari". O'ZME. T. 2004.
24. Turopov I., Nomozov X.Q. – Tuproq bonitirovkasi. "Fan va texnologiya"  
T., 2010.
25. Turopov I., Nomozov X., Sodiqova G. "Yer kadastridan amaliy  
mashg'ulotlar" T. 2007.
26. Shadramova K.I., Nomozov X.Q. Lalmikor tuproqlar bonitirovkasi,  
ularni iqtisodiy va qiymat bahosi. T., 2003.
27. O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi" to'g'risidagi qonuni. T., 1998.
28. O'zbekiston Respublikasi "Davlat yer kadastrasi to'g'risida"gi Qonuni. T.,  
1998.
29. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari holati to'g'risida milliy hisobot.  
T.2012.
30. Qayumov F., Abdig'aniyev A., Maqsudov J., Akramov I., Tursunov A.  
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning  
sifatiy, iqtisodiy va qiymat bahosini aniqlashning muvoqqat uslubi. T., 2002.
31. Tuproq resurslaridn samarali foydalanishning ilmiy asoslari. Ilmiy  
maqolar to'plami. T., 2011. 5-30, 120-127-133 b.
32. Qurbonov E.Q., Bobojonov A.R, Rahmonov Q.R. «Yer kadastrasi asoslari».  
T., 1999.
33. Qurbonov E., Qo'ziyev R., Bo'riyev X., G'afurova L. O'zbekiston  
Respublikasi Yer resurslari va ulardan samarali foydalanishning ilmiy,  
huquqiy, me'yoriy va amaliy asoslari. T., 2001.
34. Qo'ziyev R.Q. Yuldashev F.YU., Akromov I.A. Tuproq bonitirovkasi  
"Moliya" T-2004.
35. G'afurova L.A., Turapov I., Nomozov X.Q. Yer kadastrasi. "O'zbekiston  
milliy ensiklopediyasi". 2006 y.
36. G'afurova L., Abdullayev S., Nomozov X. Meliorativ tuproqshunoslik.  
"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". T., 2003.
37. Shalhevet J., Varon B. Effect of soil and water salinite on tomato growth.  
"Plant and soil" 39. 1973. №2.
38. R.L. Westerman Soil Testing and Plant analizis USA-1990.

## MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI. ....	
KIRISH. Yer kadastrining mazmuni. Yer kadastrining maqsadi. Yer kadastrining vazifalari va tasnifi. ....	
Yer kadastri turlari, Yer kadastri tarkibiy qismlari, Yer kadastri tamoyillari. ....	
Dunyo Yer resurslari va undan foydalanish samaradorligi. ....	
O‘zbekiston respublikasi Yer fondi. Yer kadastrining ob’ekti. ....	
Yer egaligi, yerdan foydalanishni ro‘yxat qilish hamda er hisobi. ....	
Qishloq xo‘jaligi amaliyotida yerlarni baholash bo‘yicha ma’lumotlardan foydalanish. ....	
Sug‘oriladigan yerlarni unumdorligi bo‘yicha baholash. ....	
Sho‘r yerlar miqdori va sifatini hisobga olish tartibi. ....	
Haydalma yerlarni iqtisodiy baholash. ....	
Korxonalar, muassasa va tashkilotlar Yer kadastri. ....	
Yer monitoringi mazmuni va tizimi. ....	
Yer huquqi tushunchasi. O‘zbekistonda yerga huquqiy munosabatlar. ....	
Tuproqlar bonitirovkasi va yerlarni iqtisodiy baholash. ....	
Sug‘oriladigan yerlarning puldagi bahosi va qiymat bahosi. ....	

Sugʻoriladigan yerlarini sifati boʻyicha sinflarga taqsimlash va kadastr baholash.

.....

Yagona Yer soligʻi. ....

Yagona yer soligʻining iqtisodiy mohiyati va huquqiy-meʼyoriy asoslari.

...

Soliqni hisoblab chiqarish va toʻlash tartibi. ....

Tayanch

iboralar.

.....

Foydalanilgan adabiyotlar.

.....

Nomozov Xushvaqt Qoraxonovich

**Yer kadastrasi asoslari**

Darslik

Toshkent – «O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi» nashriyoti-2013

Muharrir:

**“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 100129**

**Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30 uy.**

**Shartnoma 26. 11. 12 y. № 01-277.**

2013 yil 12 oktyabr chop etishga ruxsat berildi.

Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$  «Tayms» harfida terildi. SHartli bosma tabog‘i 20,0. Nashr bosma tabog‘i 19,75. 100 nusha. Buyurtma №48  
Bahosi shartnoma asosida.

ToshDAU nashr-tahririyati bo‘limining «RIZOGRAF» apparatida chop etildi. 700140, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 1-uy.